D.J. Urakov, A.A. Biykuziyev,
B.B. Xaynazarov,Q.A. Matxoliqov, S.I. Gabrielyan,
A.G. Xolliyev, O.A. Maxmudov, R.N. Tursunov,
A.A. Rozakov, R.X. Djurayev, O.A. Radjabov

JAHON TARIXI

I TOM II QISM
QADIMGI YUNONISTON VA RIM TARIXI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“JAHON TARIXI” KAFEDRASI

D.J. Urakov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov,
Q.A. Matxoliqov, S.I. Gabrielyan, A.G. Xolliyev, O.A. Maxmudov,
R.N. Tursunov, A.A. Rozakov, R.X. Djurayev, O.A. Radjabov

JAHON TARIXI

I TOM II QISM
QADIMGI YUNONISTON VA RIM TARIXI

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik

ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 435/10

Toshkent
«METODIST NASHRIYOTI»
2023

UDK:930.1
BBK: 63.3.0
J 18

D.J. Urakov
Jahon tarixi / A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov, Q.A. Matxoliqov, S.I. Gabrielyan, A.G. Xolliyev, O.A. Maxmudov, R.N. Tursunov, A.A. Rozakov, R.X. Djurayev, O.A. Radjabov / Darslik. – Toshkent: "Metodist nashriyoti", 2022. 368 bet.

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu "Jahon tarixi" darsligi jahon tarixining Qadimgi Yunonistonda ilk sivilizatsiya o'choqlarining vujudga kelishi davridan boshlab, G'arbiy Rim imperiyasining qulashigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Mazkur darslik jahon tarixshunosligida so'nggi-yillarda olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan avvalgi o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Ushbu darslik bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, yosh tadqiqotchilar, tarixchi-olimlar ham keng foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:
A.Sagdullayev
Tarix fanlari doktori, professor, akademik

Taqrizchilar:
O.P.Kobzeva
Tarix fanlari doktori, professor,
S.Tillaboyev
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan (Ro'yxatga olish raqami 302-0393).

ISBN 978-9943-5824-1-5

© D.J. Urakov va boshq., 2023.
© "Metodist nashriyoti", 2023.

SO'Z BOSHI

Mustaqillik-yillarida Oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Jahon andozalariga mos ravishda Davlat Ta'lim Standartlari va Malaka talablari ishlab chiqildi.

Shu jihatdan Oliy ta'limda ilmiy adabiyotlarni yangi avlodini yaratish hozirga qadar dolzarb sanalib, bu borada Vatanimiz olimlari ham qator ilmiy tadqiqotlarni olib borayotganligi tahsinga sazovordir.

Shunga qaramay, "Jahon tarixi" fanidan jahon tarixshunosligida erishilgan yutuqlarni ilmiy muomalaga kiritish borasida qator vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Mazkur darslik O'zbekiston Milliy universiteti "Jahon tarixi" kafedrasi jamoasi tomonidan tayyorlangan bo'lib, unda jahon tarixi fani bo'yicha so'nggi vaqtda erishilgan yutuqlar va ilmiy bilimlardan keng foydalanildi.

Xususan, "Anglo-sakson maktabi", fransuz "Annallar maktabi" va "Berlin akademiyasi" ilmiy maktablari tomonidan tayyorlangan ilmiy materiallar tanqidiy tahlil etildi.

Mualliflar jamoasi darslik yuzasidan berilgan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiradi.

QADIMGI YUNONISTON

1-MAVZU. QADIMGI YUNONISTON TARIXIGA KIRISH

Reja:

1. **Qadimgi Yunonistonning geografik o'rni va aholisi.**
2. **Qadimgi Yunoniston tarixini davrlashtirish.**
3. **Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar.**

Qadimgi Yunonistonning geografik o'rni va aholisi. Qadimgi Yunoniston jahon sivilizatsiyalar tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Aynan shu yerda, O'rtayer dengizining sharqiy sohilida, qadimgi Sharq bilan doimiy aloqalar natijasida Yevropa sivilizatsiyasi vujudga keladi.

"Antik" atamasi (lot. antiquus - qadimgi) shunchaki uzoq o'tmishni anglatmay, yunon-rim tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Yunon va rimliklar O'rtayer dengizi irqiga hamda hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo'lib, tarixi jihatidan ham bir-biriga yaqin xalqlar hisoblangan. Ular o'zaro o'xshash bo'lgan jamoat institutlari yarata olgan, turmush tarzi hamda madaniy hayoti yaqin bo'lgan. Antik sivilizatsiya Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lib, uning ilk rivojlanish davri mazkur hududga to'g'ri keladi. Keyinchalik bu jarayon Qadimgi Rimda o'zining yuqori cho'qqisiga yetadi. Rim imperiyasining qulashi bilan antik sivilizatsiya ham barham topadi. Qadimgi dunyoning asosiy fenomeni sifatida yunonlar barpo etgan va o'zida siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy madaniyatni mujassam qilgan *shahar fuqarolik jamiyati - "polis"*ning mavjud bo'lishi va unda yashagan "fuqaro" tan olinadi. Shu tariqa ushbu jamiyat polislar sivilizatsiyasi sifatida ham qadimgi dunyo tarixida muhim o'rin tutgan.

Qadimgi yunon tarixining geografik joylashuvi doimiy bo'lmagan. U tarixiy rivojlanishga ko'ra, o'zgarib va kengayib turgan. Qadimgi yunon sivilizatsiyasining asosiy hududi Egey havzasi, ya'ni, Egey dengizining Bolqon, Frakiya va Osiyo sohillari va ko'p sonli orollar sanalgan. Mil. avv. VIII-VI asrlarga kelib, buyuk yunon kolonlashtirishidan so'ng yunonlar Janubiy Italiya va

Sitsiliya hududlari, shuningdek, Qora dengiz sohillarini o'zlashtirganlar. Natijada Buyuk Yunoniston tushunchasi vujudga keladi. Mil. avv. IV asrning oxirida Makedoniyalik Aleksandrning g'olibona yurishlari va Ahamoniylar davlati egallanganidan so'ng Yaqin va O'rta Sharqda ellin davlatlari tashkil topdi va bu hududlar qadimgi yunon dunyosining bir qismiga aylandi. Ellinizm davrida yunon dunyosi g'arbda Sitsiliyadan sharqda Hindistongacha, shimolda Shimoliy Qora dengiz sohillaridan janubda Nilning birinchi irmoqlarigacha bo'lgan ulkan hududlarni qamrab oldi. Biroq butun qadimgi yunon tarixi davomida uning markaziy qismi Egey havzasi hisoblangan. Chunki bu yerda yunon davlatchiligi va madaniyati paydo bo'ldi va gullab-yashnadi.

Yunonlar o'zlari yashagan hududni Ellada deb nomlashgan va mazkur joy quyidagi uch qismdan: 1) Bolqon Yunonistoni (Bolqon yarim orolining katta qismi, 2) Kichik Osiyoning g'arbiy sohillari, 3) Egey dengizining ko'plab orollaridan iborat bo'lgan. Bolqon Yunonistoni uch tomondan dengiz bilan o'ralgan bo'lib, tabiiy jihatdan Shimoliy, O'rta va Janubiy Yunonistonga bo'linar edi.

Shimoliy Yunonistonni Makedoniyadan mintaqadagi eng baland hisoblangan Olimp tog'i ajratib turgan. Ushbu tog' doimo qor bilan qoplangan bo'lib, yunonlar e'tiqodiga ko'ra xudolar maskani sifatida shuhrat qozongan. Pind tog' tizmasi shimolni ikki hududga: Epir va Fessaliyaga ajratib turgan. G'arbda Epir tog' tizmalari mavjud bo'lib, bu yerdan Axela daryosi boshlanadi va unga yaqin Dodonada qadimgi Zevs ibodatxonasi joylashganligi ta'kidlanadi. Pind tog'laridan sharqda Fessaliyada, Yunonistondagi yagona yirik vodiyda-yilqichilik bilan shug'ullanishga qulay sharoit bor edi.

O'rta Yunonistonni shimoldan tog' tizmalari ajratib turgan va u yerda Fermopil darasi joylashgan. Mintaqaning g'arbiy hududida Akarnaniya va Etoliya viloyatlari, sharqda esa Korinf va Evbeya ko'rfazi oralig'ida Lokrida viloyati mavjud bo'lib, uning markazi Dorida shahrida vaqtinchalik doriylar qo'nim topgan. Ularga qo'shni sifatida afsonaviy Parnas tog'lari bilan mashhur bo'lgan Fokida viloyati bor edi. Sharqdagi Beotiya viloyati eng unumdor yerlar va ulkan suv manbalariga ega hudud hisoblangan.

Butun antik sivilizatsiyaning beshigi hisoblangan Attikaning sharqida afsonaviy Kiferon tog' tizmalari uni Beotiyadan ajratib turgan. Viloyat uch tomondan dengiz bilan o'ralgan bo'lib, Pirey, Marafon, Elevsin va Faler qo'ltiqlaridagi qulay bandorgohlar dengiz savdosini rivojlantirishda muhim o'rin tutgan. Attikani katta qismini egallagan tog' tizmalari ulkan o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, u yerda butun Attikaga mashhur bo'lgan asal yetishtirilgan hamda marmar va kumush konlari mavjud edi.

Attika viloyati o'zining keng vodiy va shaharlari bilan mashhur bo'lgan. Jumladan, Elevsin vodiysida shu nomdagi shahar mavjud bo'lib (shaharda mashhur Demetra xudosi ibodatxonasi joylashgan edi), Afina vodiysida esa Attikaning markazi sifatida Afina shahri qad ko'tarib turgan.

O'rta va Janubiy Yunonistonning tutashgan joyida kuchli dengiz davlati hisoblangan Megara polisi joylashgan edi. Mintaqada Peloponnes yarim oroli joylashganligi bois hudud shu nom bilan ham yuritilgan. Yarim orolning g'arbiy qirg'oqlari Elida viloyatiga tegishli bo'lgan. U yerda qurimaydigan Alfey daryosi bo'ylarida bosh xudo Zevsning mashhur ibodatxonasi bunyod etilib, uning sharafiga har to'rt yilda bir marta umumyunon Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Janubda yirik shahar hisoblangan Korinfdan tashqari tog' va o'rmonlar bilan qoplangan Arkadiya viloyati ham bor edi. Arkadiyadan janubiy-sharqda doriylar ko'chib kelib yashagan uchta viloyat: Argolida, Lakonika va Messeniya mavjud bo'lgan. Argolidaning yonidagi shahar Epidavr esa tibbiyot xudosi Asklepiy ibodatxonasi bilan mashhur edi. Peloponnesning janubida doimiy jangovar holatda turuvchi Sparta davlati joylashgan bo'lib, u yerdan Tayget dovoni orqali Messeniyaga borish mumkin bo'lgan.

Qadimgi Yunonistonning tarkibiy qismi bo'lgan Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'oqlarida Ioniya va Eolida viloyatlari vujudga kelib, mazkur hududlar orqali antik sivilizatsiya butun O'rtayer dengiziga, keyinchalik qadimiy Sharqqa keng yoyiladi.

Yunonistonning qariyb 80% ni tog'li hududlar tashkil qilgan. Vodiylardagi hosildor yer qatlami juda kam bo'lgan. Shuning uchun dehqonlar yuqori hosil olish uchun avval ekin maydonini toshlardan tozalab, so'ngra dalalar chekkasiga tosh devorlar

qurish orqali unumdor tuproqni yomg'irlar yuvishidan saqlar edi. Shu bilan birga Ellada o'lkasida ekinlarni sug'orish uchun chuchuk suv topish ham muammo edi. Yunonistonning Peney, Axela, Alfey va Pamis daryolaridan tashqari boshqa suv manbalari yozda qurib qolgan.

Hududda dehqonchilik bilan shug'ullanishni imkoni kam bo'lgani bois, aholi hunarmandchilik bilan band bo'lgan. Attika, Korinf va Evbeyada kulolchilik uchun zarur bo'lgan tuproq olingan. Shu bilan birga konchilik ishi ham keng ravnaq topadi. Temir madani esa Elladadan tashqari ko'proq Kichik Osiyodan olib kelingan. Mis konlari azaldan Kipr va Evbeya orolida joylashgan edi. Qo'rg'oshin-kumush va oltin konlari Attikaning Lavriya tog'lari hamda Frakiyada ko'p bo'lgan. Maftunkor marmar toshlar Pentelekon tog'lari va Paros orollaridan keltirilgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlaridan farqli o'laroq, qadimgi Yunonistonda etnik rang-baranglikni kuzatish mumkin. Yunonistonning markaziy hududlari, ya'ni Egey havzasi va Bolqon yarim orolining janubiy qismlarida asosan yunon tilli xalqlar yashagan bo'lib, ularni axeylar, doriylar, ioniy va zoliylar tashkil etgan. Bu qabila guruhlari o'z dialektlarida gaplashganlar hamda diniy qarashlar va urf-odatlarida ham o'ziga xoslikni kuzatish mumkin, biroq bu farqlar unchalik sezilarli bo'lmagan. Barcha yunonlar bir tilda gaplashgan, bir-birini yaxshi tushungan va o'zlarini bitta xalqqa va bitta sivilizatsiyaga tegishli ekanligini his qilgan. Mazkur xalqlar orasida birmuncha qadimiyroq qabila guruhi axeylar bo'lib, ular mil. avv. 3 ming yillikning oxirida Bolqon Yunonistonining janubiy qismiga kelib o'rnashganlar. Mil. avv. 2 ming yillikda zamonaviy Epir va Makedoniya hududlaridan harakatlangan doriy qabilalari bosimi ostida axeylar qisman assimilyatsiyalashadi va bir qismi tog'li hududlarga siqib chiqariladi. Doriylarning katta qismi Peloponnes (Lakonika Messeniya, Argolida, Elida), Egey dengizining janubidagi orollarning katta qismi, xususan, Krit va Rodos, Kariya va Kichik Osiyo hududlarining ba'zi qismlarida o'rnashganlar.

Attika-ioniy shevada gaplashgan uchinchi qabila guruhi Attika, Evbeya, Samos, Xios, Lemnos kabi Egey dengizining

markaziy qismidagi orollar va Kichik Osiyo sohillaridagi Ioniya viloyatida joylashganlar.

To'rtinchi qabila guruhlari bo'lmish eoliylar Beotiya, Fessaliya va Kichik Osiyo sohillaridagi Ioniya viloyatini shimolidagi Eolida viloyati va Lesbos orolida yashaganlar.

Egey havzasida yunonlardan tashqari yunongacha bo'lgan qabilalar qoldiqlari, jumladan, leleglar, pelasglar, kariylar yashagan bo'lib, ular mil. avv. 1 ming-yillikda Yunoniston aholisining etnogenezida unchalik katta rol o'ynamagan. Shuningdek, yunon davlatchiligida muhim o'rin tutgan xalqlardan biri sifatida tog'li frakiyaliklarni qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Qadimgi Yunoniston tarixini davrlashtirish. Qadimgi Yunoniston tarixini uchta katta bosqichga bo'lish mumkin: 1) ilk sinfiy jamiyat va mil. avv. 2 ming yillikda davlat uyushmalarining shakllanishi (Krit va Axey Yunonistoni);

2) Polislarning shakllanishi va gullab-yashnashi, klassik ko'rinishdagi qulchilik munosabatlari, yuqori madaniyatning yaratilishi (mil. avv. XI-IV asrlar);

3) yunonlar tomonidan Fors davlatini bosib olinishi, ellinistik jamiyatlar va davlatlarning tashkil topishi.

Birinchi bosqich uchun xos bo'lgan xususiyat shundan iboratki, unda Krit oroli va unga tutash hududlarda dastlabki sinfiy jamiyat paydo bo'ladi. Shu bilan birga ilk davlatchilik an'analarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi, yuksak sivilizatsiya belgilarini namoyon bo'lishi kuzatiladi. Odatda bu davr Krit podshosi Minos sharafiga "Minoy sivilizatsiyasi" deb ham ataladi. Mazkur davr mil. avv. 3 ming yillikdan - mil. avv. 1200-yillarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichni tarixchilar "polislar davri" deb atashadi. Bu davr ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanish darajasiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

1. Gomer davri yoki "zulmat asri". Ushbu davr polisgacha yuz bergan tarixiy jarayonlarni qamrab olgan holda mil. avv. XI-IX asrlarni o'z ichiga oladi.

2. Arxaik davr mil av. VIII-VI asrlarni qamrab oladi. Mazkur bosqichda polis jamiyati va davlatlarining shakllanishi, aholining

O'rtayer hamda Qora dengiz bo'ylariga kelib joylashuvi kuzatiladi (Buyuk yunon kolonlashtirishi).

3. Klassik yoki mumtoz davr (mil. avv. V-IV asrlar). Unda qadimgi yunon sivilizatsiyasining gullab-yashnashi, davlatchilik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlarini ko'rish mumkin.

"Ellin bosqichi" bilan Yunonistonning qadimgi tarixi nihoyasiga yetadi. Biroq mazkur bosqichda yunon va sharq tarixi bilan bog'liq jarayonlar aks etgani bois, tarixchilar uni 3 davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1. Aleksandr Makedonskiyni Sharqqa yurishlari va ellin davlatlari tizimining vujudga kelishi (mil. avv. IV asrning 30-yillaridan - mil. avv. III asrning 80-yillariga qadar).

2. Ellin davlatlari va jamiyatining mavjud bo'lishi (mil. avv. III asrning 80-yillaridan - mil. avv. II asr o'rtalarigacha).

3. Ellin tizimining inqirozi va ellin davlatlarining g'arbda Rim imperiyasi, sharqda Parfiya tomonidan egallanishi (mil. avv. II o'rtalari – mil. avv. I asrlar). Rim imperiyasi tomonidan mil. avv. 30-yilda Misrdagi Ptolemeylar sulolasini bosib olinishi Qadimgi Yunoniston tarixida ellin bosqichini tugallanganligini anglatadi.

Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar. Aslida, manbalar – tarix xomashyosi bo'lib, tarixchilar undan tarixni yaratadilar. Deyarli, butun qadimdan saqlanib qolgan topilmalar – qadimgi tarix uchun potensial manbalardir. Bu davrga oid manbalar ikki katta guruhga – suyakdan tortib binolargacha bo'lganlarni o'z ichiga oladigan moddiy manbalar va yunonlarning bevosita o'zi haqida yoki qadimda ular haqida yozilgan ma'lumotlardan iborat bo'lgan yozma manbalarga bo'linadi. Albatta, moddiy manbalardagi yozuvlar ba'zida sopolning bir qismi shikastlanishi yoki tosh ustundagi yozuvning kesib olinishi natijasida tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Yunoniston tarixiga oid asosiy manbalar ko'p hollarda ikki ming yil va undan qadimiyroq bo'lgani uchun qo'llanillshidan oldin ularni qayta tiklash va rekonstruksiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda arxeologlar topilmalarga ishlov berishi, paleograflar papirus va pergamentlarga yozilgan yozuvlarni rasshifrovka qilish va tushuntirib berishi; epigraflar va numizmatlar esa tosh va tangalardagi yozuvlarni izohlab berishi

kerak bo'ladi. Manba va xomashyolarni qayta ishlovchi mutaxassislar xulosasi tarixchilar uchun qadimgi tarixni o'rganishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Moddiy manbalar. Qadimgi Yunoniston yodgorliklari asosan yer ostida joylashgan. Bir nechta tosh binolarni hisobga olmaganda, asosan ibodatxonalar yer ostidan qazib o'rganilgan. Yunoniston tuprog'i buyumlarning saqlanishi uchun qulay bo'lmaganligi sababli ko'p topilmalarga zarar yetganligini kuzatish mumkin. Shu boisdan yog'och, mato va teridan yasalgan eksponatlar juda kam uchraydi. Saqlanib qolgan metall buyumlar orasida: oltin va kumush buyumlar yaxshi darajada, bronza qisman, o'z o'rnida, temir buyumlar esa korroziyaga uchragan holda topilgan. Yana bir turkumdagi yaxshi saqlangan moddiy buyumlar sirasiga yuqori olovda pishiriladigan sopol terrakotalar kiradi. Sopol qadimda ko'plab maqsadlarda, xususan, haykallar va yodgorliklarda, lekin ko'p hollarda xo'jalikda ishlatilgan bo'lib, asosan, qabrlar va boshqa joylardan topilgan. Ushbu idishlar asosida arxeologlar Yunonistonning siyosiy tarixigacha va uning ilk tarixi xronologiyasini tuzib chiqib, ularni tarixiy sanalarga aylantirish imkoniyatini yaratgan. Arxeologlardan birinchi bo'lib nemis olimi **G. Shliman** (1822-1890-y.) XIX asr ikkinchi yarmida afsonaviy Troya qoldiqlarini qazib, keyinchalik Miken va Trinfda qal'a devorlari, saroy xarobalari hamda ko'plab qabrlarni topishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa Miken madaniyatini o'rganishga yo'l ochildi. Yirik arxeologik topilmalar Kritni o'rganish jarayonida qo'lga kiritildi. Angliyalik **A. Evans** (1851-1941-y.) Knossda Kritning afsonaviy hukmdori – podsho Minos saroyi qoldiqlarini topish bilan birga u yerda hamda qo'shni orollardagi qadimgi manzilgohlarni ham tadqiq etadi. Mazkur jarayonda 2 ming yillikning birinchi yarmiga oid bo'lgan Minoy sivilizatsiyasi tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi. Shundan so'ng muntazam ravishda Bolqon yarimorolida (Afina, Olimpiya, Delfa) va Rodos, Delos orollarida ham arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Eng ko'p ma'lumotlar Lerna (Shimoliy Peloponnes) va Rafina (Attika) manzilgohlaridan qazib o'rganilgan. Ushbu manzilgohlar miloddan avvalgi uchinchi ming-yillik oxirlariga mansub bo'lib, undan bronzadan yasalgan mehnat qurollari va xo'jalik buyumlari

topilgan. Shuningdek, Axey qabilalari yashagan qishloqlar qoldig'i Koraka (Korinf) hamda Ziguriyes (Miken yaqinida) manzilgohlarini o'rganishda ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, Attika va Spartadan qadimgi qabristonlarni o'rganilishi oqibatida miloddan avvalgi 2 ming yillik o'rtalariga oid ashyoviy manbalar topildi.

Yozma manbalar. Qadimgi yozuvlar sopol, tosh, metall va papirus (mil. avv. II asrdan pergament) kabi turli materiallarga yozilgan. Bizgacha yetib kelgan asosiy yozma manbalar mil. avv. VIII asrda yaratilgan yunon alifbosi asosida yozilgan, shuningdek, qisqa davr mil. avv. 2 ming yillik davomida A va B chiziqli Krit yozuvlari ham bo'lgan. Ushbu yozuv namunalari 1901-yilda A. Evans tomonidan topilgan bo'lishiga qaramay, faqatgina 1953-yili ingliz olimi **M. Ventris** ba'zi qismlarini shifrovka qilishga muvaffaq bo'ldi. Afsuski, bularning ko'pchiligi yo'qolib ketgan.

Qadimgi Yunonistonning klassik hamda ellin davri tarixini yoritishda mazkur mintaqada yashab ijod qilgan tarixchilar asarlarini o'rni beqiyos. Birinchi navbatda mil. avv. V asrda yashagan Galikarnaslik **Gerodot** (mil. avv. 485-425-y.) ni qayd etish maqsadga muvofiqdir. Uning mashhur asari "**Tarix**" deb nomlanib, 9 ta kitobdan iborat. Muallif asarning dastlabki 4 ta qismida Kichik Osiyo, Bobil, Midiya, Misr hamda Skif qabilalari tarixini bayon etadi. Qolgan 5 ta kitobda asosan yunon-fors urushi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar (mil. avv. 479-yilgacha) o'rin olgan. Shu davrning yana bir yirik vakili afinalik tarixchi **Fukidid** (mil. avv. 460-400-y.) hisoblanadi.



1-rasm. Gerodot

U o'sha davrning boy oilasida dunyoga kelgan. Tarixchi Peloponness urushida ishtirok etib, Amfipol shahrini spartaliklardan himoya qilolma-ganligi sababli Afinadan quvilgan. 20-yillik quvg'in davrida Peloponnes urushlariga (mil.

avv. 431-404-y.) bag'ishlangan tarixiy asarini yaratgan. Muallif o'zi ko'rgan yoki guvohi bo'lgan shaxslardan eshitganlarini yozishga harakat qiladi. U birinchi bo'lib tarixiy manbalarni tanqidiy, qiyosiy tahlil qilish usullarini ishlab chiqdi va tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqladi. Shuningdek, tarixchi va publitsist **Ksenofont** (mil. avv. 430-355-y.) ham o'z davrining mashhur kishilaridan bo'lgan. U Fukidid ishlarini davom ettirib, **"Yunon tarixi"** asarini yaratgan. Muallif Sparta davlat boshqaruvi tarafdori sifatida o'z asarida Afina demokratiyasini tanqid ostiga oladi. Biroq mil. avv. 411-362-yillar voqealarini qamrab olgan ushbu asar yunon polislari o'rtasidagi kurashlar va polislar inqirozini yoritishda muhim ahamiyatga egadir. Ksenofontning tarixiy asarlaridan tashqari bir nechta traktatlari ham mavjud bo'lib, unda muallifning siyosat va boshqaruvga doir qarashlari aks etgan. Yuqorida ta'kidlangan tarixchilar o'z asarlarida o'tmish voqealarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsalar, notiqlik maktabi vakillari (Efor, Feopomp va Timey) qator traktatlar yaratib yunon jamiyati siyosiy ongini shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Yunoniston tarixini yoritishda antik davr faylasuf va siyosatchi arboblarning asarlari muhim o'rin tutadi. Ular orasida Platon va Aristotel qoldirgan ilmiy meros biz uchun qimmatlidir. **Platon** (mil. avv. 427-348-y.) o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini chuqur tahlil qilgan holda **"Davlat"** va **"Qonunlar"** nomli traktatlar yaratgan. **Aristotel** (mil. avv. 384-322-y.) esa hududdagi 158 ta yunon polislari siyosiy jarayonlarini va tarixini ilmiy tadqiq etgan holda **"Siyosat"** (Politika) asarini yozgan. Afsuski muallifning bizgacha faqatgina "Afina politiyasi" asari yetib kelgan.

Yunonistonning polislar tarixini o'rganishda yana bir turkum manbalar muhim o'rin tutadi. Ular qatoriga notiqlar tayyorlagan matnlarni kiritish mumkin. Demosfenning siyosiy nutqlari, Lisiyning suddagi chiqishlari, tantanalarda Isokrat tayyorlagan matnlar ham mazkur davr tarixini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga notiqlik san'ati Yunonistonda ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim omil bo'lgan.

Ellinizm tarixini yorituvchi tarixiy asarlar ham ko'pchilikni tashkil etib, ular narrativ (hikoya uslubida) xarakterga ega. Bu davrda yunon tarixchilaridan **Polibiy** (mil. avv. tax. 201-120-yy.) sermahsul ijod qilgan. U yoshligida Axeyya ittifoqida faoliyat ko'rsatgan, Makedoniyani tugatilishi bilan boshqa ayonlar qatorida Rimga garov sifatida olib ketilgan. Rimda yashagan-yillari muallif davlat arxividagi ma'lumotlar bilan tanishadi, turli voqealar ishtirokchilari bilan uchrashadi va Rim bo'ylab sayohatni amalga oshiradi. Buning natijasida 40 ta kitobdan iborat **"Umumiy tarix"** asarini yozgan (ushbu kitobning dastlabki beshta qismi to'liq saqlangan). Asarda O'rta Yer dengizida mil. avv. 220-146-yillardagi yuz bergan voqealar atroflicha yoritilgan. Shu davrning yana bir yirik tarixchisi Sitsiliyalik **Diodor** (tax. mil. avv. 90-21-y.) hisoblanadi. Uning **"Tarixiy kutubxona"** deb nomlangan asari mashhurdir. Mazkur manba jami 40 ta kitobdan iborat bo'lib, bizgacha 1-5 va 11-20-qismlari to'liq holda, qolgan kitoblardan ayrim parchalargina yetib kelgan. Asarda O'rta Yer dengizi bo'yidagi davlatlar va klassik Yunoniston tarixi batafsil yoritilgan. Muallif ellin davlatlarining iqtisodiy rivojlanishi hamda u yerdagi siyosiy kurashlar tarixiga alohida e'tibor qaratgan. Ellinizmga oid muhim tarixiy ma'lumotlar **Plutarx** (mil. avv. 45-127-y.) ijodidan keng o'rin olgan. U boshqa tarixchilardan farqli o'laroq asosan ellin podsholari, yunon va rim siyosatchilari biografiyasini o'rganishni maqsad qilgan. **Pavsaniy** (milodiy II asr) qoldirgan tarixiy meros o'zidan oldin o'tgan tarixchilar faoliyatidan farq qiladi. **"Ellada tavsifi"** nomli asarda muallif o'zining kuzatishlari hamda boshqa manbalarga tayanib arxeologik yodgorliklar, haykaltaroshlik va rassomlik namunalari haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilgan. Lekin asarda tarixiy faktlar bilan birga afsonalar ham uchraydi.

Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari milodiy II asrda yashagan **Arrian** tadqiqotlarida to'liq aks etgan. **"Anabasis"** nomli asarda muallif sarkardaning harbiy yutuqlarini ko'rsatish barobarida ayrim mo'jiza va afsonalarni qo'shib Aleksandrni fantastik hamda ilohiy kuch egasi sifatida tasvirlashga harakat qiladi.

Yunonistonlik olimlar qadimdan tarixiy bilimlardan tashqari boshqa sohalarda ham keng ilmiy materiallarga ega bo'lishgan. Jumladan, mil. avv. I asrda yashagan **Strabon "Geografiya"** asarida mamlakat va mintaqalarning joylashuvi, iqlimi, mavjud foydali qazilmalari, turli xalqlarning xo'jaligi hamda o'ziga xosligi bo'yicha aniq ilmiy ma'lumotlarni qayd etgan. Umri davomida ko'plab sayohatlarni amalga oshirgan muallif o'z bilimlarini oldingi hamkasblari bo'lgan Eratosfen, Posidoniy, Polibiy qoldirgan ilmiy meros bilan to'ldirishga harakat qiladi. Shuningdek, bizgacha ellin davri turli sohalarini qamrab olgan ko'plab yozuvlar namunalari ham yetib kelgan. Bunday yozuvlar to'planib, to'plam shaklida ham nashr etilgan (masalan, "Yunoniston yozuvlari". Unda huquq va siyosiy hayotga oid tarixiy ma'lumotlar aks etgan). Ular orasida Delos orolidagi Apollon ibodatxonasida saqlangan xo'jalik hujjatlari, hukmdor dekretlari va manumisiy (qulni ozod qilish to'g'risidagi hujjat)lar muhim ahamiyatga ega.

Qadimgi Yunoniston tarixini yoritishda o'sha davr badiiy adabiyoti va san'atning o'rni beqiyosdir. Dastlabki adabiyot namunasi sifatida **Gomerning "Iliada" va "Odisseya"** (mil. avv. VIII asr boshlari) epik poemalarini qayd etish lozim. Uning eposlari Qadimgi Sharqning epik-afsonaviy asarlaridan tubdan farq qiladi. Muallif tarixiy an'ana va tarixni tushunish asnosida voqealarni bayon etadi. Asarda Krit-Miken jamiyatini aks ettiruvchi xotiralar, Troya urushlari bilan bog'liq tarixiy voqealar, jamiyat qurilishi, xalqlarning urf-odatlari badiiy talqinda ishonarli qilib yoritilgan. Muhim epik manbalar qatorida Beotiyalik shoir **Gesiodning** (mil. avv. VIII asr oxiri-VII asr) **"Teogoniya"** asari mashhur sanaladi. Muallif **"Mehnat va kunlar"** asarida o'sha davr oddiy aholisining real turmush tarzini ishonarli tarzda bayon etadi.

Qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan dramaturgiya klassik davr tarixini tadqiq etishda o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatgan Esxil, Sofokl, Yevripid tragediyalari hamda Aristofan komediyalari shular jumlasidandir. Dramaturg **Esxil** (mil. avv. 525-456-y.) yunon-fors urushi ishtirokchisi sifatida real voqelikni ask ettiruvchi **"Forslar"** tragediyasini yozgan. Unda

yunonlarning vatanparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Afsuski, barcha tarixiy va badiiy asarlar to'liq saqlanib qolmagan. Jumladan, mil. avv. V asrning eng taniqli dramaturgi **Sofokl** (mil. avv. 496-406-y.) tomonidan yozilgan 120 dan ortiq pyesaning yettitasigina bizgacha to'liq yetib kelgan.

Hozir so'nggi texnologiyalar asosida yunon yozuvlarining elektron bazasi yaratilgan bo'lib, unda mil. avv. VIII asrdan milodiy II asrgacha bo'lgan 20 000 000 so'zdan iborat yunon adabiyoti matnlari joy olgan.

Qadimgi O'rta Yer dengizi hududida yozish uchun qo'llaniladigan odatiy xomashyo – papiruslar bo'lib, u Misrda mil. avv. 3 ming-yillikdan ishlatila boshlangan. Qadimgi yunonlar o'tmish mualliflari asarlarini saqlashga jiddiy e'tibor qaratganlar. Aleksandriyadagi katta kutubxonaga tashrif buyuruvchi o'quvchi mil. avv. 1 ming-yillik davomida 500 ming o'ramga yaqin kitob o'qish imkoniyatiga ega bo'lsa, aytishlaricha o'sha vaqtda Pergamda bunday kitoblar 200 000 o'ramdan oshgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur davrda yunonlar uchun manbalarni o'qish jarayonida tanlov imkoniyati kuchli bo'lgan. Aleksandriyalik olimlar o'zlari ular maktablarda o'rganish uchun eng munosib deb hisoblaganlarini mualliflar ro'yxati bilan birga saralab foydalanganlar.

Mazkur manbalar keng qamrovli bo'lib, ularni davr va joyiga qarab o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, Miken davriga (mil. avv. 1600-1200-y.) oid manbalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Afsuski, "Zulmat davri" bosqichida, ya'ni mil. avv. VIII asrgacha juda kam materiallar uchraydi va hech qanday yozma ma'lumotlar yo'q (Gomer dostonlari bundan mustasno). Mil. avv. VII asrdan keyin esa moddiy va yozma manbalar ko'plab uchraydi va qadimgi Yunoniston haqidagi rang-barang ma'lumotlarga ega manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Mazkur manzaralarda yunonlar murakkab tabiiy sharoitlarga qanday g'oya va texnologiyalar bilan javob bergani, ular kishilik jamiyati doirasida o'zaro hamkorlik qilganliklari va jamoalar–uyushmalar doirasida qanday o'zgacha madaniyat vujudga keltirgani hamda individual farqlilikni saqlaganliklarini ko'rsatib beradi.

GLOSSARIY

Attika–Yunonistonning qadimgi viloyati, O'rta Yunonistonda joylashgan.

Antik – lotincha "qadimgi".

Antik tarix – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi.

Amfora – suyuq mahsulotlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan bo'g'zi ingichka va qo'shaloq dastali katta ko'za.

Oykumena – Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

Polis – yunoncha "shahar".

Traktat – biror-bir soha boshqaruviga bag'ishlangan asar.

Ellada – Qadimgi Yunoniston.

Ellinlar – qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

Olimpiya – Qadimgi Yunonistondagi eng baland tog', balandligi 2811 metr.

2-MAVZU. KRIT-MIKEN[1] SIVILIZATSIYASI

Reja:

1. Krit sivilizatsiyasining paydo bo'lishi uni davrlashtirish.

2. Krit davrida Qadimgi Yunoniston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tizimi.

3. Minoy jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

4. Materik Yunonistondagi Axey podsholigi. Miken.

5. Davlat tuzilishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi.

6. Axey jamiyati madaniyati.

7. Bolqonda Bronza davri sivilizatsiyasining inqirozi.

Krit sivilizatsiyasining paydo bo'lishi uni davrlashtirish. Qadimgi Yunonistondagi dastlabki sivilizatsiya bo'lib, jahon tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. So'nggi-yillarda olib borilgan arxeologik qazilmalar va tadqiqotlarga tayanilgan holda xorij tarixshunosligida Egey dengizi hududidagi bronza davri yoki Krit madaniyati xronologik jihatdan quyidagicha bo'linadi:

1.Mil. avv. 3000-1900-y. - Materik Yunonistonda ilk bronza asri.

2.Mil. avv. 1900-1600-y. - Materik Yunonistonda o'rta Bronza asri.

3.Mil. avv. 1600-1200-y. - so'nggi bronza asri.

Ilk Yevropa sivilizatsiyasining yorqin gullab-yashnagan markazi Krit bo'lib, uning qulay geografik joylashuvi jamiyatning yuqori darajada rivojlanishi va dengizga hukmronlik qilishda o'ziga xos tarixiy yo'lni belgilab berdi. Krit O'rta Yer dengizidan Egey dengizini ajratib turishi, atrofidagi orollar sharqdagi qadimgi sivilizatsiya bilan Yevropa xalqlarini o'zaro yaqinlashuvida "ko'prik" vazifasini bajargan.

Kritdagi bronza davri moddiy madaniyati tahliliga ko'ra Minoy madaniyati materikda – Ellada, orollarda esa – Kiklada deb

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT-RESURS MARKAZI
№ 435/10

[1] Krit-Miken sivilizatsiyasi (ba'zi adabiyotlarda Egey sivilizatsiyasi deb ham ataladi) bu Egey dengizining eng katta oroli hisoblangan Krit va Bolqon yarim oroli (materik Yunoniston)dagi davlatchilikni shakllanish va rivojlanishi davrini o'z ichiga oladi. Bu qadimgi Yevropa sivilizatsiyasining beshigidir.

atash ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Biroq sivilizatsiyaning vujudga kelishi hamda rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tarixiy tadqiqotlar arxeologik davrlashtirish bilan har doim ham mos kelavermaydi va ular yordamchi ahamiyatga ega.

Krit orolidagi sivilizatsiyani birinchi bo'lib ochgan ingliz olimi A. Evans sopol buyumlarni klassifikatsiyasi asosida Minoy davrini 3 taga: ilk, o'rta va so'nggi Minoy davrlariga bo'ladi.

Ammo oxirgi vaqtlarda Minoy jamiyatida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan Krit saroylarining rivojlanish bosqichlari asosida davrlashtirish keng tarqalgan.

1) Saroylar qurilishigacha bo'lgan davr (mil. avv. 2600-2000-y.)
2) "Qadimgi saroylar" davri (mil. avv. 1900-1700-y.)
3) "Yangi saroylar" davri (mil. avv. 1700-1450-y.)

"Yangi saroylar" davri tanazzulga uchraganidan keyin (mil. avv. 1450-y.) Kritga yunon-axeylar ko'chib keladilar va orol axeylar Yunonistoni madaniyati ta'siriga tushib qolgan.

Kritning etnik holati juda rang-barang bo'lib, qadimdan orolda turli xil etnik birliklarni aralashuvi kuzatiladi. Umuman olib qaraganda, Krit aholisi o'rta bo'yli, qora qo'ng'iroq sochli va jigarrang ko'zli O'rta Yer dengizi irqiga mansub minoyliklar (doriylar bostirib kelgunicha yashagan mahalliy aholi)dan iborat bo'lgan. Ularning qaysi tilda gaplashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanib qolmagan, biroq ularni yunon tilidan boshqa tilda gaplashganligi to'g'risida farazlar bor. Oroldagi avtoxton (tub aholi) aholining antik an'analari *eteokritliklar* deb atalgan. Tarixchilar aynan ularni tadqiq qilish orqali qadimgi minoyliklar A chiziqli Krit yozuvini yaratgan va Minoy tilida gaplashganligini aniqlagan. Shu bilan birga Kritda yunon materigidan ko'chib kelgan pelasglar, Kichik Osiyodan kirib kelgan anatoliyliklar ham yashagan. Minos tanazzulga uchragandan keyingina yunon-axeylari orolga joylashadi.

Mil. avv. XXX-XXVII asrlarda Egey dengizi atroflarida bronza qurollari – buyumlar tarqaladi. Kritda shakllangan bronza sivilizatsiyasi qo'shni jamoalar madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Mil. avv. 3 ming yillikda Kiklada orollaridagi madaniy taraqqiyot birinchi ming-yillikning o'rtalarigacha gullab-yashnadi. Orol aholisi dengiz orti xalqlari bilan kemasozlik va dengizchilik



2-rasm. Kritdan topilgan qadimiy artefaktlar

rivojlanishi natijasida ayirboshlash bilan shug'ullangan. Faol xo'jalik yuritilishi va savdoni tez taraqqiy etishi hunarmandchilik va san'atni rivojlanishiga olib keldi. Bunga marmardan tayyorlangan idishlar va Kiklada butlarining haykallari misol bo'la oladi. Kiklada hunarmandlarining mahsulotlari nafaqat Kritda, balki Yunoniston materigida, Kichik Osiyoda, hattoki, O'rta Yer dengizining boshqa hududlarida ham ko'plab uchraydi.

Ilk bronza davrining oxiri (mil. avv. 1900-y.)ga kelib Kritda aholining o'sishi va ijtimoiy tabaqalanish kuzatiladi. Jamoalar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqqanligi sababli Krit aholisi qo'shni jamoalardan himoyalanish uchun nafaqat devorlardan, balki tabiiy himoya hisoblangan tepalik yoki qoyalardan ham foydalangan. Bunday mustahkam himoyalangan jamoa markazlarini arxeologlar "saroy qurilishigacha bo'lgan qal'alar" deb ataydi. Krit jamiyatida urug'-qabilachilik hukmronlik qilayotgan davrda ham yer egaligi, chorvachilik, dengizchilik va savdo-sotiq yuqori darajada rivojlangan. Xudolar qiyofasini va asosiy diniy belgilar, (kult) shuningdek, xudolar onasi haykallarining paydo bo'lishi diniy e'tiqod o'zgarganligini ko'rsatadi.

Kritliklar katta ibodatxonalar qurmay, balki kichik-kichik sajdagoh va mehroblar qurish bilan cheklanganlar. Ko'pgina rasm va haykalchalar kritliklarning bosh xudosi – ayol-iloha bo'lib, u mahalliy xalq tasavvurida hayot baxsh etgan, o'simliklar, hayvon va odamlarni himoya qilgan. Diniy marosimlar asosan ayollar tomonidan ado etilgan. Yunon afsonalari Krit dinini keyinchalik yunonlarning yuzaga kelgan diniga ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi.

Qo'shni qabilalar bilan savdo-sotiqni rivojlanishi tabiiy ravishda harbiy qo'shin tashkil etishni ham talab etgan. Kritda

kemalar flotidan tashqari, quruqlik qo'shini ham bo'lib, askarlar jang aravalarida harakatlanganlar. Krit davlati ma'muriy jihatdan viloyatlardan iborat bo'lib, ular shoh noiblari tomonidan, oqsoqollar kengashlari bilan birga idora qilingan. Yerlar qisman jamoaga qarashli bo'lib, qisman yakka tartibda ijaraga berilgan va xususiy mulk mavjud edi. Dengizning narigi tomonidagi Krit nazorati ostidagi yerlar mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. Masalan, Attika viloyatida shunday jarayonni kuzatish mumkin bo'lgan.

Shu tariqa Krit jamiyati turmushning barcha yo'nalishlarida taraqqiy etishi hududda sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

"Qadimgi saroylar" davri (mil. avv. 1900-1700-y.). Mil. avv. 1900-yilga kelib Minoy jamiyatida qadimgi saroylar davri boshlanadi. Birinchi va eng qadimgi saroylar Festa, Knoss, Malli va Kato-Zakro kabi bir qancha qal'alarda qurilib, mil. avv. 1700-yilgacha mavjud bo'ladi. Aynan shular qadimgi davlatchilik vujudga kelishi o'choqlari hisoblanadi. Bu saroylarda hokimiyat podshohlar qo'lida bo'lib, saroyni o'zi bir necha o'nlab xo'jaliklar aholisini va barcha moddiy resurslarini birlashtirgan.

Arxeologik topilmalarning kamligiga qaramasdan, qadimiy saroylar tarixida Minoy arxitekturasi ko'rinishlaridagi o'ziga xos belgilarni ko'rish mumkin. Qadimgi saroylardan biri Festa qoldiqlari hammasidan ko'ra ko'proq tadqiq qilingan. Bu yagona arxitektura majmuasi bo'lib, markaziy saroy atroflarida zallar, turar joy (xona)lar, muqaddas binolar, qurol-aslaha omborlari, hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lgan. Binolar turli xil balandlikda bo'lib, ular zinalar va o'tish joylari bilan bog'langan. Qazishmalar natijasida ushbu davrga oid tantanalar uchun idish-tovoqlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun sopoldan yasalgan idishlar topilgan.

Barcha saroylar yuqori darajadagi qurilish san'ati bilan ajralib turadi. Saroy darvozalaridan kirish qismi, ichki saroylar va o'tish joylariga qurilgan yo'llar, plitalar tagidan esa drenaj tizimi izlari topilgan. Ilk bronza davri manzilgohlari bilan qiyosiy taqqoslanganda ushbu inshootlar yangi jamiyatning ijtimoiy tuzumini, uning siyosiy tashkilotlari va iqtisodiy munosabatlarini

namoyish etadi. Minoy jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini sopollarga tushirilgan tamg'a, vino bilan to'ldirilgan xumlar, shuningdek, qadimgi ko'rinishdagi A chiziqli yozuvlar tushirilgan taxtachalardan ham ko'rish mumkin. Arxeologik topilmalar saroylar podshohlar tomonidan boshqariladigan ma'muriy va iqtisodiy markaz bo'lganligini yaqqol ko'rsatadi.

Podshohlarning asosiy vazifalaridan biri ko'plab hunarmandchilik ustaxonalaridan iborat bo'lgan ulkan saroylarni va saroyga xizmat ko'rsatuvchi aholini boshqarish hisoblangan. Mil. avv. 2000-1700-yillar bunday hunarmandchilik ustaxonalarida turli rangdagi kamares uslubidagi (Kamares g'oridan shu uslubdagi vaza topilishi sharafiga shunday nomlangan) sopollar yasalgan. Kamares uslubidagi idishlar turli shaklda va turli rangda bo'lib, ular palma, spiral hamda to'lqinsimon chiziqlar ko'rinishidagi naqshlar, turli buyumlarni tashqi tomonidagi o'ymakorlik ishlari, nafis mayda plastik ishlanmalari bilan ajralib turadi.

Ushbu buyumlar dengiz savdosi orqali qo'shni hududlariga olib borib sotilishi o'z navbatida xomashyoga talabni ham orttirgan. Shu sababli xomashyo qidirib Misr, Bobil, Ugarit va Kiprga ham borishgan. Shu yo'l orqali Krit hunarmandlari yasagan buyumlar sharqiy O'rta Yer dengizida ham keng tarqalgan.

Arxeologik qazishmalar orasida oroldagi eng diqqatga sazovor joy Knoss saroyi bo'lib, arxeolog Artur Evens tomonidan qazib o'rganilgan. Knoss va Kritning boshqa saroylari egalarining dabdabali hayoti va aksariyat aholining ayanchli hayoti arxeologik materiallarda – turar joy, ro'zg'or buyumlari va maqbaralarda yaqqol namoyon bo'ladi. Saroydagi omborxona, ustaxonalar va boshqa yordamchi binolar esa saroy xo'jaligini murakkab tuzilganidan dalolat beradi.

Saroy xo'jaligida ko'plab mutaxassis va hunarmandlar – yordamchi xodimlar, xizmatkorlar xizmat qilgan. Saroy xodimlari orasida qullar ham ko'p bo'lgan.

Minoyliklar Misr bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borganlar, shu jihatdan Misr yozuvida ularni "Keftiu" nomi bilan tilga olishadi. Bir matnda, hattoki, Krit "shohi" haqida so'z boradi. Agar bu yagona matn to'g'ri bo'lsa, orol yagona hukmdor boshqaruvi

ostiga birlashtirilgan. Minoy tili O'rta Yer dengizi hududidagi savdogarlar orasida keng tarqalgan. Keyinchalik yaratilgan yunon afsonalarida Egey dengizidagi Minoy dengiz boshqaruvi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Afsuski, minoyliklarning Krit iyeroglif va A chiziqli matnlari (bir nechta Misr ilovalaridan tashqari) haligacha o'qilmagan. Shu bois, minoyliklarning qadimgi tarixi faqat arxeologik qazilmalar orqali bizgacha ma'lum. Shu jihatdan minoyliklar yaratgan sivilizatsiya hozirga qadar o'tmish jumboqlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kritning ilk gullab-yashnash davri va uning Egey dunyosidagi yetakchiligi mil. avv. 3-2 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Buning birinchi sababi Krit jamiyatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va takomillashuvi bo'ldi. Mil. avv. III ming-yillikdayoq Kritda avval mis, keyinchalik bronza ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Bronza qurollar tosh qurollarni siqib chiqaradi. Bu davrda muhim o'zgarishlar qishloq xo'jaligida ro'y berdi. Dehqonchilikda donli ekinlar (asosan arpa), uzumchilik va zaytun yetishtirish kabi asosiy uch yo'nalish paydo bo'ldi.

Mazkur o'zgarishlar o'z navbatida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va ortiqcha mahsulotning ko'payishiga olib keldi. Buning asosida alohida jamoalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zaxira fondi yaratila boshlandi. Bu esa faqatgina hosil kam bo'lgan-yillarda oziq-ovqat yetishmasligini qoplabgina qolmay, qishloq xo'jaligida band bo'lmagan odamlarni, masalan usta-hunarmandlarni boqish uchun ham yetarli bo'lgan. Shu tariqa hunarmandchilik qishloq xo'jaligidan alohida soha sifatida ajralib chiqib, hunarmandchilikning turli sohalarida professional ravishda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga yordam berdi. Arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan zargarlik buyumlari, idishlar, tosh buyumlar, kesilgan muhrlar mil. avv. 3 ming-yillikning ikkinchi yarmidayoq minoylik hunarmandlar mohir usta bo'lib yetishganlaridan guvohlik beradi.

Bu davrda jamoa zaxira fondlarining ma'lum qismi jamoalararo va qabilalararo ayirboshlash uchun ham ishlatilishi mumkin edi. Butun Egey havzasida bo'lgani kabi Kritda ham savdo-sotiqning rivojlanishi dengiz savdosining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bizga ma'lum bo'lgan Krit manzilgohlarining

aksariyat qismi sohil bo'yida yoki sohildan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan edi. Mil. avv. 3 ming yillikdayoq kritliklar Kiklada arxipelagi orollari, materik Yunonistonning sohilbo'yi hududlari aholisi bilan qalin munosabatlar o'rnatib, Suriya va Misrgacha yetib boradilar. Boshqa dengiz xalqlari kabi kritliklar savdo-sotiq va baliqchilikni qaroqchilik bilan uyg'unlashtirganlar. Kritning mil. avv. 3-2 ming yilliklarda iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashi ma'lum darajada bu uchta boyish manbalariga ham bog'liq bo'lgan.

Krit iqtisodiyotining rivoji orolning birmuncha hosildor hududlarida aholi sonining oshishiga olib keladi. Ularning katta qismi Kritning sharqiy qismi va keng markaziy tekisliklarda (Knoss va Fest hududi) joylashgan edi. Shu bilan bir vaqtda Krit jamiyatida tabaqalashuv jarayoni ro'y beradi. Alohida jamoalar ichida nufuzli zodagonlar tabaqasi ajralib chiqadi. Uning tarkibiga asosan sulolaviy yo'lboshchilar va kohinlar kirgan. Ular ishlab chiqarish jarayonidan bevosita qatnashishdan ozod qilingan bo'lib, boshqa jamoa a'zolariga qaraganda birmuncha imtiyozlarga ega edilar. Shu davrdan boshlab, asosan, bosib olingan qabila a'zolari orasidan asirga olingan kishilardan qullar toifasi paydo bo'la boshlaydi. Shuningdek, shu davrdan boshlab siyosiy munosabatlarning ham yangi shakli vujudga kela boshlaydi.


Minoy jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. "Qadimgi saroylar" davri bu – iqtisodiyotning gullab-yashnashi va Minoy jamiyatining ijtimoiy tuzilishi shakllangan davridir. Ushbu davrda Krit orolidagi barcha unumdor yerlar o'zlashtirildi va qizg'in (tezkor) ravishda ishlov berildi. Bu yerda oddiy erkin jamoalar jamiyatda asosiy rol o'ynagan va Minoy jamiyatining erkin a'zosi maqomi sezilarli darajada oshgan. Iqtisodiy yutuqlar aholi sonining ko'payishiga va har xil turdagi aholi punktlarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Jamiyatning oddiy a'zolari yashaydigan kichik qishloq aholi punktlari soni sezilarli darajada oshdi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi qishloq xo'jaligi zodagonlarining boyishiga olib keldi, bu esa boy mulklarning paydo bo'lishida aks etdi. Ularning egalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun turli xil binolar bilan tutashgan ikki qavatli villalarni (ularda 30 tagacha xona bor

edi) barpo etishdi. "Yangi" saroylarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda urbanizatsiya va shaharlarning paydo bo'lishining tezlashish jarayoni boshlandi. Gomer she'rlarida Krit oroli "yuz shahar" ko'rinishida namoyon bo'ladi. Qadimgi ma'lumotlardagi 300 ga yaqin turli xil aholi punktlarini mavjudligi arxeologlarning tadqiqotlari bilan to'liq tasdiqlangan. Ulardan ba'zilari saroylarning bevosita atrofida joylashgan va ularning bir qismi bo'lgan. Dengiz yaqinidagi toshli tepaliklarda joylashgan Gurnia yoki Palekastro va boshqalar chinakam shaharlar ko'rinishida edi. Shaharlar binolarning zichligi bilan ajralib turardi. Uylar tartibsiz ajratilgan kvartallarga birlashtirilib, ularning o'rtasida tor ko'chalar bo'ylab harakatlanardi.

Shaharlarda turli xil hunarmandchilik markazlari: bronza quyish, kulolchilik, to'qimachilik va teriga ishlov berish ustaxonalari ochilgan. Bu ustaxonalardan topilgan buyumlar shaharliklarning xo'jalik mashg'ulotlari to'g'risida to'liq ma'lumot beradi. Shaharlarning dengiz bo'ylarida joylashganligi uning aholisi dengiz savdosi bilan shug'ullanganligini isbotlaydi.

Krit shohlari savdoning rivojlanishiga homiylik qilganlar. Hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishga qiziqqan saroylar o'zlarining yirik portlariga ega edilar. Minos davrida Knosda Amnis porti, Fest saroyida – Ayia Triada portlari mavjud bo'lgan. Ushbu portdan har birining vazni 29 kilogramm bo'lgan yarim tonnadan ko'proq bronza quyma buyumlar topilgan. Bu davrda Krit va boshqa Kiklada orollari Bolqon, G'arbiy Osiyo, Liviya va Misr bilan intensiv aloqalarni o'rnatdilar. Miloddan avvalgi XVI-XV asrlarda fir'avn zodagonlari qabrlaridagi freskalarda Misrga kelgan kritliklarni ko'rish mumkin. Shuningdek, Akrotaridagi (Fera oroli) freskoda Nil vodiysining landshafti juda aniq tasvirlangan. Krit savdogarlari Bibl, Ugarit va Suriya knyazliklari bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi Minoy jamiyatidagi an'anaviy qarindoshlik aloqalarining buzilishiga va yangi ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga olib keldi. Qadimgi Minoy an'analari Krit jamiyatini o'zgartirgan bir qator islohotlarni amalga oshirish bilan bog'lash mumkin. U yer egalari – dehqonlardan jangchilarni ajratib oldi va podsho hokimiyatining asosiy tayanchiga aylantirdi.



3-rasm. Knoss saroyidagi devoriy surat

Uning oilasi a'zolaridan tashqari, podshohning ichki doirasiga eng yuqori harbiy rahbarlar va zodagonlar kirgan. Bu boy villalar aynan ularga tegishli bo'lib, ularning bezaklari saroyning zallaridan kam bo'lmagan holda bezatilgan. Minoy jamiyatida ruhoniylar va eng avvalo, kuretlar – ruhoniylarning eng qadimgi toifasi muhim rol o'ynagan. Minos davrida orolda o'ldirish uchun olib kelingan ko'plab harbiy asirlar va chet el qullari mavjud bo'lgan. Asosan, ularni "qirolning qullari"ga aylantirish uchun saroylarga olib borishgan. Bu haqida afinaliklar doimiy ravishda Minosga minotavr yutib yuborishi uchun yettita yigit va yettita qizni yuborganligi haqidagi mashhur afsona ham bor. Ammo Arastu ma'lumotiga ko'ra Afinadan yuborilganlar oddiygina qullarga aylantirilgan va ular qariguncha Knoss saroyida ishlashlari kerak bo'lgan. Shunday qilib, "yangi saroylar" davridagi Krit murakkab ijtimoiy iyerarxiyaga ega bo'lgan iqtisodiy jihatdan kuchli jamiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Taxminan mil. avv. 1700-yillarda Kritda kuchli zilzila ro'y berib, hammayoqni qamrab olgan yong'inga aylandi. Natijada Knoss va Fest, Malliya va Kato Zakrodagi saroylar vayron bo'lgan. Aholi yashaydigan boshqa joylar ham zarar ko'rgan. Bu voqea **"Qadimgi saroylar"** davrini tugatib, **"Yangi saroylar"** davrini boshlab beradi.

Minoy sivilizatsiyasining "Yangi saroylar" davri (mil. avv. 1700-1450-y.) Egey dengizining boshqa hududlariga nisbatan ancha oldinda edi. Saroylar Krit jamiyatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy sohalarida markaz vazifasini bajara boshladi. Aynan shu davrda Kritda yagona davlatchilik vujudga keladi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Knoss podsholari boshqa sulolalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatib, orolda o'z

hokimiyatini mustahkamlab oladi va Kritning yagona hukmdorlariga aylanadi.

Bu faqatgina Krit madaniyatini birmuncha vaqt to'xtab turishiga sabab bo'ladi. Tez orada saroylar qayta tiklanib, Knoss orolda ustun ahamiyatga ega bo'ldi. Arxeologik topilmalarga ko'ra orolning turli tomonlaridan Knossga qarab qurilgan yo'llar ana shundan dalolat beradi.

Saroylar qayta qurilganidan keyin miloddan avvalgi XVIII asrning ikkinchi yarmidan to miloddan avvalgi XV asrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida Krit davlati qudrati avjiga chiqqan edi. Qaytadan qurilgan Knoss saroyida devorlarga solingan turli bezakli suratlar zodagonlarning qudrati va mavqeini yanada ortganligini aks ettiradi.

Kritning eng gullab-yashnagan davri 1600-1400-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrga oid ikkita manzilgoh Gurniya va Psir shaharlarida ham qazib o'rganilgan. Gurniyadagi shahar unchalik baland bo'lmagan tepalikda joylashgan bo'lib, tepalikni atroflarida zinalar bilan o'zaro bog'langan gorizontal yo'laklardan iborat bo'lgan. Uylardan zinalar orqali ko'chaga chiqilgan. Asosiy xonalarga ham zinalar orqali chiqilgan bo'lib, uning ostida yerto'la joylashtirilgan. Tepalikning yuqori qismida hukmdorning kesilgan toshlardan qurilgan ochiq hovliga chiqadigan qasri bo'lgan (o'sha davrda boshqa uylar loy yordamida biriktirilgan mayda toshlardan qurilgan).

Materik Yunonistonidagi Axey podsholigi. Miken. Mil. avv. 3 ming yilliklarda Yunoniston materigida ham sharqiy O'rta Yer dengizi orollariga o'xshash jarayon kuzatiladi. Materik Yunonistondagi bronza asri Ellada davri deb atalib, u 3 davrga bo'linadi.

1) Ilk Ellada davri (Mil. avv. XXX-XXI asrlar) – Bolqon yarim orolidagi so'nggi urug'chilik jamiyatining mavjudligi.

2) O'rta Ellada davri (Mil. avv. XX-XVII asrlar) – Bolqon yarim oroliga yunon axeylarining kirib kelishi, ya'ni jamiyatning birinchi ibtidoiy jamoalarining yemirilishi davri.

3) So'nggi Ellada davri (Mil. avv. XVI-XII asrlar) axeylarda bronza davri sivilizatsiyasi va uning doriylar bosqini natijasida halokatga uchrashi davri.

Ilk Ellada davrida Bolqon yarim oroli qirg'oqlari va tog'laridagi taraqqiyot turlicha kechgan. Tekisliklardagi unumdor yerlarning mavjudligi va dengiz ortidagi xalqlar bilan muloqot alohida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirgan bo'lsa, geografik joylashuviga ko'ra ajralib qolgan boshqa hududlarda esa neolit davri bosqichida qolib ketgan.

Ilk Ellada davriga oid qishloq manzilgohlari Bolqon Yunonistonining ko'plab hududlarida arxeologlar tomonidan topib o'rganilgan. Ulardan biri Peloponnesning shimoliy-sharqidan 2-3 xonadan iborat to'g'ri to'rtburchak shakldagi ishlov berilmagan toshlardan qurilgan uylar topilgan. Uylar tor yo'lakchalar bilan kvartallarga ajratilgan. Shunga o'xshash aholi punktlari Beotiyada ham topilgan. Trinfdagi uylar nafaqat to'g'ri to'rtburchak shaklda, balki yarim aylana shaklda ham qurilgan.

Bu davrga oid yuksak mahorat bilan qo'lda yasalgan, yupqa devorli, kuydirilgan sopol buyumlar ko'plab topilgan. Kulollar tantanalar uchun bo'yoq va oltin bilan qoplangan va sirlangan idishlar (bo'yni uzun idishlar va stakanlar) yasagan.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi haqida nekropollarda olib borilgan qazishmalar qiziqarli ma'lumotlar beradi. Ziguriya qishlog'i yaqinida topilgan qabrlarda o'nlab jamoaviy dafn qilinganligini ko'rish mumkin. Urug'chilik tuzumiga oid bo'lgan qabrlar Trinfdan, Orxomendan topilgan. Qabr ichlaridan munchoqlar, idishlar, tosh pichoqlar, bronza to'g'nog'ichlarning topilishi jamiyatda hali mulkiy tabaqalanish mavjud bo'lmaganligini bildiradi.

Argolidadagi mil. avv. 2600-yillarda vujudga kelgan ilk shahar ko'rinishidagi Lernadagi olib borilgan qazishmalar qabila markazi bo'lgan Kiklada aholi turar joylarini eslatuvchi manzilgoh o'rganilgan. Lerna tepalikka qurilgan bo'lib, minoralar ko'tarilgan qalin devor bilan o'ralgan. Ichida oddiy jamoat uylari, markazida esa ularning boshlig'i, ya'ni podshohining uyi (uydan 150 dan ortiq muhr, yog' va vino to'ldirilgan idishlar topilgan) joylashgan. Bir necha asrlar davomida qabila boshliqlarining qo'lida boyliklarni to'planishi, ularning mavqeini ko'taradi. Bu jarayon mil. avv. XXII asrda hukmdor saroylarini ikki qavatli qilib qurilishida ham namoyon bo'ladi. Qabila markazlarining ilk

davlatchilik ko'rinishiga o'tishi va yuqoriga ko'tarilishi materik Yunonistondagi xalqlarni yagona xalq sifatida rivojlanishiga sabab bo'lgan. Alohida ajralib qolgan hududlarda rivojlanish past darajada saqlanib qolgan. Bolqondagi ko'plab katta bo'lmagan qishloqlarda, hattoki, mudofaa devorlari ham mavjud bo'lmaganini ko'rish mumkin. U yerda yashagan jamoaviy yer egalari bitta toifadagi jamiyatni tashkil qilgan. Hunarmandchilik mahsulotlari jamoani ehtiyojlarinigina qondirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, faqat zarur hollardagina boshqa joylarga olib borilgan.

3 ming yillikning oxiriga kelib Bolqon yarim oroliga qabilalarni ko'chib kelishi harbiy to'qnashuvga olib keladi va shuning natijasida ko'plab aholi nobud bo'ladi. Shu vaqtdan boshlab o'ziga xos bo'lgan yangi moddiy markazlar vujudga keladi. Jumladan, kulolchilik charxidan va qishloq xo'jaligi ishlarida otlardan foydalana boshlanadi.

Materik Yunonistonda vujudga kelgan sivilizatsiya xususiyatiga ko'ra shu yerdagi xalqning qisman mahalliy o'ziga xos jihatlari bo'lishiga qaramasdan umumiy Minoy sivilizatsiyasi bilan o'xshashdir. Bu Egey hududidagi yagona bronza sivilizatsiyasining Axey-Yunonistonida so'nggi Ellada davrining bir qismi deb hisoblashga asos bo'ladi. Ayniqsa, bu Krit va Miken markazlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bolqondagi mil. avv. XV-XIII asrlarda vujudga kelgan bronza davri sivilizatsiyasi XIX asrning oxiri va XX asrning boshida ochib o'rganilgan va Miken davri deb ataladi. So'nggi arxeologik tadqiqotlar Axey davlati butun Bolqon yarim oroli hududida - shimoliy, o'rta va janubiy Yunoniston mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Miken va Trinfdan tashqari Pilos (Messeniya)da, Afina (Attika)da, Fiva va Orxomen (Beotiya)da, Iolk (Fessaliya)da ham saroylar bo'lgan. Materikdagi Miken davri saroylari Kritga nisbatan kichik hajmda va qal'a markazlarida joylashgan (orollarda qal'a bo'lmagan).

O'rganilgan saroylar va qal'alardan Bolqon arxitekturasi haqida umumiy tasavvurlar olish mumkin. Tadqiqotlar natijasida xulosa qilish mumkinki, Miken qal'asi qiya tepalikda joylashgan edi. U mil. avv. XIV asrda 6-10 metr qalinlikdagi tosh bloklardan

18 metr balandlikkacha ko'tarilgan devordan iborat bo'lgan. Markaziy darvoza XIII asrda qal'ani kengaytirilishi (maydoni taxminan 30 ming kvadrat metr) natijasida qurilgan. Shunga qaramasdan saroy kamtarona (23x11,5 m) qurilgan bo'lib, binoning asosiy qismida tomini 4 ustun ushlab turuvchi to'rtburchak shakldagi (13x11,5 m) zali bo'lgan. Shu yerda hukmdor taxtda o'tirib, elchilar qabul qilgan va ziyofatlar uyushtirgan.

Mikendan 15 km uzoqlikda joylashgan Trinf qal'asi ham diqqatga sazovor. Qal'a devorlari mustahkamligi jihatidan Miken devorlaridan qolishmaydi va unda mudofaa devorlarini qurishda ilg'or uslublardan foydalanilgan. Tashqi qal'a ichida bevosita hukmdor saroyini himoyalash uchun yana bitta mustahkam devor mavjud edi. Agar kimdir, dushman asosiy darvozadan saroyga kirmoqchi bo'lsa, mustahkam devorlar orasidan tor yo'lak orqali kirishi kerak bo'lgan. Tor yo'lakdan yana mustahkam darvozaga duch kelgan. Toshlardan iborat bunday tuzoqqa tushgan dushman har tomonlama hujumga uchrab tor-mor qilingan. Bosqinchilar uchun bu qal'aga kirish qiyinligi sababli "mustahkam devor"li Trinf deb nom olgan. Trinf uzoq vaqt qamal qilingan taqdirda Mikenda bo'lgani kabi saroy ichiga kiruvchi yer osti suv yo'li bo'lgan. Istehkomlarning mustahkam va murakkab qilib qurilganligi doimiy harbiy to'qnashuvlarda qatnashgan axeylarni notinch hayotidan dalolat beradi.



4-rasm. Agamemnon niqobi

Miken. Mil. avv. 2 ming-yillik oxirlarida Bolqon Yunonistonida qabilalarning ko'chishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

Taxminlarga ko'ra bu vaqtda Sharqiy O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida Hind-Yevropa tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar paydo bo'ladi. Bu haqda Mikenda arxeologik

qazishmalar olib borgan Genrix Shlimann ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Miken keyinroq yaratilgan yunon afsonasi bo'lmish Iliada dostonida yunonlarni Troyaga qarshi urushga boshlab borgan Agamemnon ismli afsonaviy hukmdorning yashash joyi bo'lgan. Egey havzasida 400-yil davomida bir xil madaniyatning mavjud bo'lishi, uni shartli ravishda "Miken" madaniyati deb atalishiga sabab bo'ldi. Miken siyosiy markaz sifatida o'z hukmronligini keng qamrovda amalga oshira olmadi. Faqat Mikenda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Miken madaniyatiga mansub inshootlar qazib ochilgan. 1876-yilda arxeolog G. Shliman Mikenada qoyaga o'yilgan shaxta tipidagi qabrlarni topdi. Qabrlarda kumush va oltin bilan bezatilgan bronza (jez) qilichlar, oltin va kumush qadahlar, tilla niqoblar va boshqa buyumlar topildi. Qabr toshlarida ov va jang lavhalari tasvirlangan.

Mil. avv. 1600-yillar atrofida Kritda yuksak rivojlangan madaniyat mavjud bo'lgan paytda Bolqon Yunonistonida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Markaziy va janubiy Yunonistonda qudratli markaz Miken shahri va boshqa shaharlar shakllana boshlaydi.

Biz bugun Mikenning oxirgi yuz-yil davomidagi boyligi va kuch-qudrati, XIV-XV asrlar oldin qurilgan joy-majmualarining xarobalarini ko'ramiz. Ularning arxitekturasi va bezagi diqqat bilan qaralganda, Minoy uslubiga o'xshatiladi, shu bilan birga bir nechta ajoyib farqlari ham bor. Ular odatda tepaliklarda joylashgan bo'lib, hashamatli qalin devorlar bilan o'ralgan va ular Krit makonlaridan farqli o'laroq, ancha kichik edi. Biz Miken hukmdorlarining dastlabki vazifasi mamlakatga bostirib keluvchi raqiblardan mudofaa qilish deb, xulosa qilamiz. Qal'alarni o'rab olinishi yashirinish va istiqomat qilish uchun dastlabki shahar bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik yunonlarda juda katta devorlar insoniyat aqli bovar qilmaydigan darajada ulkan va hashamatli qilib qurilgan. Haqiqatdan ham bunday ishlar, ehtimolki, hukmdor davlati va kuch-qudratini odamlar ko'z o'ngida namoyish qilish uchun kerak bo'lgandir. Shuningdek, Miken makonlari Minoydan farqli o'laroq, turli vaqt oralig'ida o'zlashtirilgan. Krit komplekslarida hovliga tosh yotqizilgan, markazda to'g'ri to'rtburchakli saroylar bo'lib, zal, megarondan tashkil topgan.

Megaron – bayramlarda kengash a'zolari va mehmonlarni kutib olish uchun ishlatiladigan tantanali markaz edi. Birinchi hovli orqali peshayvon va kichik xonaga kiriladi. O'rtada katta xona bo'lib, u yerda plastikdan yasalgan dumaloq o'choq, yon tomonida to'rtta ustun hamda ochiq balkon bo'lgan (U yerda ilohdan madad so'ralgan).

Yangi podsholik davri (miloddan avvalgi 1575-1087-yillar)da Anatoliya, Suriya, Misrga qarshi agressiv harakatlar olib borilgan. Shunga qaramay, O'rta yer dengizi dunyosida Miken madaniyati va boshqa davlatlar bilan diplomatik jarayonlar shakllandi.

Mintaqadagi yana bir muhim markaz haqida Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari ma'lumot beradi. Unda Pilos shahri va Messeniya haqida hikoya qilinadi. "Nestor" makoni Amerika arxeologi Kar Belgans tomonidan 1939-yili Pilosdan topilib, so'nggi bronza davriga oid ekanligi aniqlanadi. Belgans ko'p sonli B chiziqli muhim yozuvlarni topadi. B chiziqli yozuvlar Knoss va boshqa markazlardan ham topilgan. Unda Mikenning iqtisodiy jamiyati haqida ma'lumotlar uchraydi.

Yana bir markaz Pilos hisoblanib, B chiziqli yozuvda "Pu-ro" deyilgan. U yerdagi jo'shqin hayot miloddan avvalgi 1400-1200-yillarning o'rtasigacha cho'zilgan. Nestorda inshootlar miloddan avvalgi 1300-1200-yillar atrofida qurilgan va ular kichikroq ko'rinishda bo'lgan. Pilos podsholigi ikki yuztacha shahar va qishloqlarni o'z ichiga oladi. Hududi 1400 kv. km milyani tashkil qilib, 2 ta viloyatga bo'linadi, viloyatlar esa yetarlicha tumanlarga bo'linadi. Jamiyat piramidasining yuqorisida podsho turgan bo'lib, u "vanaks yoki vanaka" deyilgan. podshodan keyin peshqadamlik armiyada bo'lgan. Markazlashtirilgan ishlab chiqarish va tarqatish tizimi, asosan, hashamatli uylarda yashovchi mansabdorlar uchun xos bo'lib, kichik bo'lgan guruhlarning ba'zi qismi ta'minlangan. Lekin ko'pchilik odamlarning asosiy ishlab chiqaruvchi boyligi – dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Oddiy aholi kamtarona hayot kechirishgan, uylari bir-ikki xonali bo'lib, ularni ozchilik qismigina serhasham yashagan. Ko'pchilik oilalar oliy darajadagi kishilardan yerlarni ijaraga olgan, qolganlari esa o'zining yeriga ega bo'lgan. Hunarmand, chorvador va ruhoniylar yerlarning "shaxsiy"

xo'jayinlari hisoblanishgan. Oddiy qishloq kishisi fermada ishlashi, yer, daraxtlar, tok, uy hayvonlariga qarashi, soliq to'lashi lozim bo'lgan. Bir necha uy xizmatkorlari armiyada ham xizmat qilishgan. Ayollar asosan uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan. Shuningdek, qishloqdagi ayollar mato to'quvchilardan asboblarni ijaraga olib, ulush evaziga jun va zig'irdan buyumlar tayyorlashgan.

Mikenda aholi uyda mahsulot tayyorlab, eksport qilgan. Ayollar to'qimachilik, ko'ylak tayyorlash, choyshab tikish bilan band bo'lsa, erkaklar duradgorlik, kulolchilik, charm tayyorlash va boshqa ishlar bilan shug'ullanishgan.

O'sha vaqtda Yunonistondan mis, qalay, oltin, fil suyagi, bo'yoq, qahrabo va ziravorlar chet davlatlarga eksport qilingan. Ayniqsa, vino va qimmatbaho taqinchoqlar eng ko'p chiqarilgan mahsulotlar sirasiga kirgan.

B chiziqli yozuvga qaraganda, Mikenda aholi Zevs, Poseydon, Germes, Artemidaga ibodat qilgan. Zevsni "Osmon otasi" deb atashgan.

Mikenda doriylar o'z davlatiga asos soladi va bu tarixda "doriylar bosqini" deyiladi. Miken podsholigi miloddan avvalgi 1100-yilgacha yashagan.

Minoy san'ati va arxitekturasi Yaqin Sharq sivilizatsiyalari, avvalo, Misr oldida katta qarzdordir. O'sha paytda ular qadimgi sivilizatsiyalar metod va texnologiyalaridan unumli foydalangan holda o'ziga xos farqli jihatlar va uslub asosida rivojlantirdilar. Tashrif buyuruvchilar uning hashamatli o'lchami (300 xonadan iborat 3.2 akr maydonni egallagan) va arxitekturasining jozibadorligidan hayratga tushganlar. Saroy tosh va g'ishtdan qurilgan bo'lib, shuningdek, ko'plab ustunlar ham ishlatilgan. Ko'plab ayvonlar, peshayvonlar va balkonlar yorqin ranglar bilan bo'yalgan bo'lib, tashqaridan teatrona ko'rinish bergan. Kichkina tuynuklar saroy ichkarisiga toza havo va kunduzi yorug'lik berib turgan. Quvurlar tizimi va kanalizatsiya ko'plab xonalarga chuchuk suv olib kelish va chiqindilarni chiqarib tashlash imkonini bergan. Devorlar va yo'laklar o'simliklar tasviri, hayvonlar hayotidan olingan lavhalar va kishilar faoliyati, ba'zida

diniy jarayonlar yoki marosimlar bilan bezatilgan. Bu kabi tasvirlar shahar va qishloqlardagi biror-bir uylarda uchramaydi.

Krit san'ati nafisligi, hayotiyligi va rang-barangligi sabab bugungi kunda ham undan ilhom oladilar. Freskalar, idishlardagi rasmlar va kichik haykalchalar bizga saroy va villalar egalari o'zlarining qanday tasvirlaganliklarini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Ayol va erkaklar yosh, xushbichim va bejirim tasvirlangan. Erkaklarning soqollari olingan va Misr erkaklari kiyimlariga o'xshash kalta katak yubka kiyganlar. Ayollar va erkaklarning ikkalasi ham uzun sochlarga ega bo'lgan, orasta kiyim va oltin taqinchoqlar taqishgan.

Mil. avv. 3 ming yillik oxirlarida Bolqon Yunonistonida qabilalarning ko'chishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taxminlarga ko'ra bu vaqtda Sharqiy O'rta Yer dengizi qirg'og'ida hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar paydo bo'ladi.

Mil. avv. 2 ming-yillik boshlarida kulolchilikda, kumushga ishlov berish ishlarida, urf-odat, an'analarda (jumladan, uy ichida, pol ostida yoki devor orasida bolalar qabri) yangi jihatlar paydo bo'ladi. Yangi etnik birliklar eskilari bilan aralashib yangi moddiy va ma'naviy madaniyatni vujudga keltirdilar.

Mil. avv. 1 ming-yillikning oxirida Kipr Kichik Osiyodagi panfiliyalik axeylar tomonidan o'zlashtiriladi. Mil. avv. XIV asrda Kichik Osiyoda Axeya davlati mavjud bo'lgani to'g'risida mixxat yozuvlari ma'lumot beradi. Xett manbalarida (XIV-XIII asrlarda) Axeya deb atalgan davlatni tadqiqotchilar Bolqon yarim oroli Kichik Osiyo va Rodos orolida deb turli farazlar qiladilar.

Mil. avv. XII asr boshida Sharqiy O'rta Yer dengizining Osiyo qirg'og'ida filimstinlar deb atalgan xalqlar o'rnashadi. Ularning manzilgohlarida bu yerda ilgari bo'lmagan, shu yerning o'zida ishlab chiqarilgan Miken sopol buyumlari ko'plab topilgan. Bu vaqtda Bolqon Yunonistoniga shimoldan turli qabila guruhlarining ko'chishi boshlanadi. Yodgorliklarda moddiy-ma'naviy madaniyatning tushkunligi ko'rinadi. Bu vaqtdan boshlab temir o'zlashtirila boshlanadi. Peloponnes yarim oroli va Kritga doriylar

kelib o'rnashadilar. Doriylarning kirib kelishi bilan mavjud sivilizatsiya yo'q qilib yuborildi.

Davlat tuzilishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi.

Saroylar va qudratli qal'alar mavjudligi so'nggi ellada davrining oxirlarida Bolqonda allaqachon rivojlangan davlatchilik sivilizatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Biroq olimlar Mikenlar hech bo'lmaganda qisqa vaqt ichida yagona davlat yaratishga muvaffaq bo'ldimi yoki Axey saroylari hukmdorlari o'z mustaqilligini saqlab qola oldilarmi degan savol yuzasidan bahslarni davom ettirmoqda. Har bir saroy kichik davlatning markazi bo'lib, hukmdor ma'muriyatining deyarli barcha vakillari saroy hududida bo'lgan. Yozuvlarga ko'ra saroyning eng yuqori kishisi, davlatda yuqori hokimiyatga ega bo'lgan Pilosning vanaka (yoki anakt) shohi bo'lgan. U katta yer uchastkasiga egalik qilgan (1800 o'lchov birligidagi don egasi). Vanaka sud va ruhoniy vazifalarini ham bajargan. Faqatgina ba'zi amaldorlarning bir qismi hukmdorga bo'ysungan (Pilos lavhalarida "qirollik" deb nomlangan amaldorlar tilga olingan). Hukmdor ma'muriyatiga unga tegishli bo'lgan va saroyga aloqador barcha narsalar to'g'risida batafsil hisob yuritadigan ulamolar ham kirgan. Ularning binolari megaron yaqinida joylashgan bo'lib, u yerdan podsho o'z amaldorlarini boshqarish uchun qulay bo'lgan. Shtatdagi ikkinchi eng muhim shaxs qo'shin boshlig'i-lavaget edi. Podshoh singari, u ham yer uchastkasiga egalik qilgan (ammo kichikroq hajmda - 600 o'lchov birligida don egasi) va uning ixtiyorida "sarkarda" deb nomlangan amaldorlar bo'lgan. Ijtimoiy iyerarxiyada 300 o'lchovli don uchastkalariga ega bo'lgan ruhoniylar keyingi o'rinda turgan. podsholiklarning ayrim hududlari basiley tomonidan boshqarilgan. Saroy nafaqat hukmdorning qarorgohi, davlatning siyosiy hayotining markazi, balki muhim iqtisodiy markaz ham bo'lgan. Saroy iqtisodiyoti, saroy hisobotlariga ko'ra, ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini qamrab olgan va sivilizatsiyaning iqtisodiy taraqqiyotini aks ettirgan.

Saroy ma'muriyati birinchi navbatda saroy xo'jaligining samarali ishlashini tashkil qildi. Pilos yorliq-taxtachalariga qaraganda, unda qullar mehnati keng qo'llanilgan bo'lib, ular ayol

qullar mehnatidan foydalangan. Ayollar donni maydalashgan, jundan ip yigirib to'qigan va xizmatkor sifatida ishlaganlar. Ba'zida qullar soni yuzdan oshiq kishiga yetgan. Shuningdek, qullarning bolalari bo'lgan o'g'il-qizlar ham (bundan tashqari, ishchilar va ularning farzandlariga omborxonalardan berilgan oziq-ovqat haqida ham ma'lumot bor) qul sifatida foydalanilgan. Fermer xo'jaligida erkak hunarmandlarning mehnati ham qo'llanilgan, ammo odatda o'ndan ortiq erkak qullar bo'lmagan. Hukmdor ma'muriyatining yana bir muhim vazifasi podsholik hududida joylashgan jamoalarni boshqarish edi. Jamoalar saroyga mahsulot – "natura" tarzida soliq to'lashlari shart edi. (hajmi jamoaga qarashli yerlarning miqdori va sifatiga qarab belgilangan) Jamoalar tomonidan belgilangan miqdordagi to'lovlarning miqdori va o'z vaqtida bajarilishini mansabdor shaxslar qat'iy nazorat qilgan. Jamoalarning majburiy ravishda natura ta'minotidan tashqari ishchilarni jamoalarning davlat foydasiga yuklatilgan vazifalari: saroyda ishlash uchun bepul hunarmandlarni jalb qilish amaliyoti ham qo'llanilgan. (manbalarda "bitta g'isht teruvchi kelmadi", "u yerda 10 kishi bor edi va 4 kishi yo'q edi" va boshqa ma'lumotlar bor). Xomashyo, avvalambor, hunarmandchilik mahsulotlarining qat'iy hisobi o'rnatilgan va uning eng muhim tarmoqlarini monopollashtirgan .

Oddiy aholi saroydan tashqarida yashar edi. Uning devorlari shaharnikidan pastroq joylashgan bo'lib, u yerda aholining asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, savdo va ma'muriyatning ehtiyojlariga xizmat ko'rsatgan. Biroq podsholik aholisining aksariyat qismi jamoalarga (damoslarga) birlashgan bo'lib, vodiylar va tog' yonbag'irlari bo'ylab tarqalgan ko'plab aholi punktlarida yashagan va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Jamoalarning o'zaro aloqalari juda mustahkam bo'lgan. Yerlarning bir qismi xususiy mulkka tegishli edi, ammo asosiy yer fondi hamon jamoalarga tegishli edi. Jamoa yerlaridan davlat xizmatini bajarganlar uchun yer ajratilgan. Manbalarda ushbu toifadagi yerlar "xalqdan olingan yerlar" deb nomlangan. Podsho temenoslari (muqaddas yerlari) va Lavaget, ruhoniylar va boshqa mansabdor shaxslar uchun ajratmalar shular jumlasidandir.

Pilos va Knoss taxtachalaridagi matnlarga ko'ra, saroy iqtisodiyoti jamiyatning deyarli butun iqtisodiy hayotini boshqaradigan qudratli tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Saroy iqtisodiyotini samarali boshqarish va hukmdorga bo'ysunadigan hudud iqtisodiyotini boshqarish barcha mehnat va xomashyolarni, bajarilgan ishlarni va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qat'iy hisobga olish va nazorat qilishga asoslangan edi. Xususiy uy xo'jaliklari ikkinchi darajali rol o'ynagan bo'lib, ular saroyga ham qaram bo'lgan. Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki, Axey Yunonistonida bronza davrining O'rta Yer dengizi va O'rta Sharq mintaqalariga xos bo'lgan markazlashgan iqtisodiyot turi shakllangan bo'lib, uning asosini saroy yoki ibodatxona iqtisodiyoti tashkil etadi.

Axey Yunonistoni tarixiga oid ko'plab manbalar, shu jumladan, yozma manbalar mavjud bo'lishiga qaramay, qadimgi jamiyat hayotining bir qator jihatlari yaxshi o'rganilmagan. Mikenni eng muhim Axey markazlari bilan bog'laydigan yo'l tizimi qo'shni mamlakatlar o'rtasida doimiy aloqalar mavjudligini ko'rsatadi. Ammo Miken davri saroylarini o'rab turgan qal'alarning qudratli devorlari Bolqon yarim orolidagi notinch vaziyatdan yaqqol dalolat beradi. Qo'shni davlatlar va ibtidoiy qabilalar bilan to'qnashuvlar, yetakchilik va hududlar ustidan hukmronlik Axey shohlari uchun odatiy hayot shartlari bo'lgan. Bunga qo'shnilar hisobiga boyish istagi qo'shiladi. Miflarda Axey rahbarlari o'rtasidagi qonli nizolar to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Biroq hukmdorlar nafaqat bir-birlariga dushmanlik qilishgan, ba'zan umumiy maqsadlar yoki umumiy dushman paydo bo'lganda, ular birgalikdagi harakatlar uchun birlashdilar. Afsonalardan biri Argolidaliklarning yetti podsholari o'sha paytdagi eng kuchli va boy shaharlardan biriga qarshi qilgan yurishi haqida hikoya qiladi.

Gomer dostoni "Iliada"da Argolidalar tomonidan qo'lga olingan, talon-taroj qilingan va vayron qilingani haqida mashhur Troya urushi tasvirlangan. Bu voqea Mikenning eng rivojlangan davrida sodir bo'lgan. Eposga ko'ra, Miken podshosi Agamemnon ushbu yurishni boshqargan. Axey podsholarining deyarli hammasi Troyaga qarshi yurishlarda qatnashdilar va ulkan qo'shin

to'pladilar. Ushbu ko'p yillik qamal xavfli raqibning mol-mulkini egallab olish va yo'q qilish bilan yakunlandi. Eposning mazmuni, shubhasiz, xayoliy bo'lsa-da, uning zamirida tarixiy haqiqat yotadi. Aksariyat zamonaviy olimlar yunonlarning harbiy harakatlarini miloddan avvalgi XIII asrning o'rtalarida yoki ikkinchi yarmida boshlangan deb aytsa, (1260 va 1240-yillar oralig'ida) ba'zi tadqiqotchilar boshqa sanani – XII asrning boshlari, deb hisoblaydi. Ko'pchilik ushbu yurishlarning natijasini Miken gegemonligi ostida birlashgan Axey davlati yaratilganligining isboti deb biladi. Miken bilan yonma-yon joylashgan Argosdan Diomedes va uzoq Iolkusdan Axilles va Iliadadagi boshqa voqeilik Miken shohidan mutlaqo mustaqil hukmdorlar sifatida ko'rinadi. Axey basileylarining Troya yurishlarida qatnashishi Axey hukmdorlarini azaldan bog'lab turgan ittifoqchilik munosabatlari bilan bog'liq edi. Ammo Axey podsholiklarining harbiy-siyosiy birlashmasidan qat'iy nazar yunonlar doimiy ravishda savdo va qo'shni hududlarga harbiy-siyosiy tajovuzni amalga oshirdilar. Mis-bronza konlari bo'lgan Kipr ham Axey tajovuzining obyekti bo'lgan. Kiprliklar bilan faol savdo va siyosiy aloqalar mil. avv. XIII asrda u yerda bir qator Axey shaharlarini vujudga kelishiga yordam berdi.

Yunonlarning ta'siri shunchalik kuchli ediki, ularning yashash joylarida mahalliy madaniyat butunlay yo'q bo'lib ketdi. Yunonlar tomonidan bosib olinganidan keyin taxminan miloddan avvalgi 1400-yil Krit Egey dengizida axeylarning bo'linmagan hukmronligini o'rnatdi va ayni paytda kuchli Misr va Sharqiy O'rta Yer dengizi davlatlari bilan yaqin iqtisodiy aloqalar o'rnatildi (bunga ko'plab sopol buyumlar keltirilgan). Shimoliy Bolqon qabilalaridan, ularning yerlarida eng boy ma'dan konlari bo'lgan, yunonlar Axey hunarmandlarining mahsulotlari evaziga metall olishgan. Shuningdek, Italiyaning janubi va Sitsiliya oroli bilan doimiy aloqalar o'rnatiladi. Arxeologlar Miken va boshqa Axey markazlarida Osiyo, Afrika va hatto Boltiqbo'yi sohillaridan ko'plab topilmalarni topgan. Axeylar Kichik Osiyoda o'zini eng tajovuzkorligi bilan Kichik Osiyo qirg'og'ining ba'zi qismlarini egallashga muvaffaq bo'lgan. Ularning hududining kengayishi jarayonida Miletni birinchi bo'lib egallashgan va bu yerdagi aholi

punktlari XVI asrda paydo bo'lgan. Ikki asr o'tgach esa Milet kuchli mudofaa devori bilan o'ralgan shahar sifatida paydo bo'ldi. Axeylar aynan shu yerdan butun yarim orol bo'ylab joylasha boshladilar. Bu esa muqarrar ravishda kuchli Xett qudrati bilan to'qnashuvga olib keladi. Mil. avv. XIV asr Xett manbalarida xavfli dushman sifatida Axiyava (Yunoniston Axey) mamlakati eslatib o'tilgan. Doimiy hujumlar olib borilishi natijasida yunonlar tinch aholini talon-taroj qildilar va aholini qullikka mahkum qiladi. Kichik Osiyodagi harbiy bosqinlarning natijasi Axey podsholari ittifoqi yurishlari natijasida Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy mintaqasidagi Troadani bosib oldi. Troadaning bosib olinishi yunonlarga katta moddiy boyliklar keltirdi va Sharqiy O'rta dengizda ularning ta'sirini oshirishdi. Biroq ushbu yurish natijalari kutilganidan mutlaqo teskari bo'lib chiqdi. Mil. avv. XIII asrning ikkinchi yarmida Axey jamiyatining iqtisodiy va siyosiy mavqei yomonlasha boshladi va yunonlar sivilizatsiyasi tanazzulga yuz tuta boshladi.

Axey jamiyati madaniyati. Bronza davridagi yunon madaniyati ilk Ellada davrida, ibtidoiy tuzum sharoitida shakllana boshladi. Ammo uning gullab-yashnashi axeylar sivilizatsiyasi paydo bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Axeylar minoyliklardan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarining qurilishi, freska bilan bo'yash texnikasini o'rgangan, ulardan ba'zi turdagi qurol-aslahalar, badiiy va hunarmandchilik mahsulotlarini olgan, kiyim-kechak tayyorlash va soch turmagi uslublarini o'rgangan.

Minoyning ba'zi diniy odatlari va marosimlari, chiziqli yozuvlar Axey yunonlari hayotiga kirib keldi. Taqlid shu qadar kuchli ediki, Miken jamiyatining ilk tadqiqotchilari qabrlarni o'rganish natijasida Miken davri Kritning to'liq siyosiy nazorati ostida edi, degan hulosaga kelishgan. Biroq miloddan avvalgi 1600-yilga kelib Bolqon yunonlari madaniyatida sezilarli o'ziga xoslik kuzatiladi. Bu birinchi navbatda arxitekturaga tegishli bo'lib, Yunoniston me'morlari mahalliy an'ana asosida yangi me'morchilik texnikasini ishlab chiqdilar va shuning uchun Axey saroylari hech qachon Minoynikidan nusxa ko'chirmadilar. Ularning tartibi odatdagi yunonlarning qattiq iqlim sharoitiga mos keladigan an'anaviy uy-joyiga asoslangan edi. Ular nisbatan

kichikroq bo'lib, ularning markazi endi ichki hovli emas, balki megaron-yopiq katta zal bo'lib, uning o'rtasida bir vaqtni o'zida qurbonlik qilishga mo'ljallangan o'choq joylashtirilgan. Ulkan toshlardan yasalgan (devorlari 8-17 metr uzunlikdagi) istehkomlar noyob hisoblanadi. Shuningdek, Axeylar tomonidan yaratilgan, minoyliklar uchun noma'lum bo'lgan gumbazli qabrlar ham noyob bo'lib, alohida ahamiyatga ega.

Axeylarda mohir sangtaroshlar va o'zlarining badiiy uslublarini rivojlantirgan rassomlar bo'lgan. Jamiyat ongidagi ulkan siljishlarni aks ettirgan holda, ular o'zlarining tashqi ko'rinishi va bezaklari bilan antik davrning arxaik madaniyatlariga xos bo'lgan qonuniyatlaridan ancha uzoqlashadilar. Masalan, Miken qal'asi darvozasi ustida sherlar bilan suratga olish va Pilos saroyining taxt xonasidagi musiqachi tasvirlangan freska va rasmlar badiiy ijodning yuqori darajasidan dalolat beradi. Bunda insonning ichki dunyosini tasvirlashga va tabiat hodisalari uyg'unligini ta'minlashga e'tibor berilgani kuzatiladi.

Miken davri diniy g'oyalar rivojlanganligi bilan ajralib turardi. Axeylar jamiyati ma'naviy dunyosining boyligi haqida XX-XII asr yodgorliklarida qayd etilgan e'tiqod va marosimlarning murakkab tizimi dalolat beradi. Miloddan avvalgi yunon dini miloddan avvalgi 1-ming yillikda Axey jamiyatida yuz bergan barcha tub o'zgarishlarni aks ettirdi. Bu tabiat kuchlarini va butun o'simlik hamda hayvonot dunyosini ilohiylashtirishga asoslangan edi. Avvalo, Miken dehqonlari o'zlarining hayoti bilan bog'liq bo'lgan madaniy o'simliklarni hurmat qilishgan, ammo o'z dinlarida yunonlarning oliy xudosiga bag'ishlangan emanga sig'inishni ham o'z ichiga olgan. Qadimgi sig'inish markazlaridan biri Dodonadagi ibodatxonasi bo'lib, guyoki u yerda Zevs kuchli eman daraxtida yashaydi deb bilishgan. Shu bilan birga Yunonlar uchun chinor va palma daraxtlari ham muqaddas edi. Bronza davrida ham Axeylar hayvonlarga sher, echki va ba'zi qushlarga sig'inishgan. Bu vaqtda muqaddas hayvonlar faqat xudolarning ko'rinishida edi. Masalan, ikki yonida ikkita sher bo'lgan hayvon egasi tasviri saqlanib qolingan. Mikendagi Arslon darvozasida hayvonlar oldingi panjalarini muqaddas ustun ustiga qo'yib turgani tasvirlangan.

Ular shoh saroyining eshigini qo'riqlashiga ishongan. Ammo hayvonlar xudosiga sig'inish axeylar orasida bronza davrida keng tarqalmagan.

Axey panteoni bizga to'liq ma'lumot bermasa-da, Knoss va Pilosning yozma manbalarida keyinchalik olimpiya xudolari Zevs, Poseydon, Gera, Germes, Afina, Artemida, Apollon, Demetra va boshqa ko'plab xudolarning ismlari saqlab qolingan. Ushbu xudolarga sig'inish uchun marosimlar klassik Yunoniston dinida ishlab chiqilgan, saqlanib qolgan va rivojlangan. Qurbonlik muqaddas marosimlarning asosi edi. Dastlabki yunon jamiyatida u suv bilan yuvish va oltingugurt bilan fumigatsiya qilish orqali shaxsiy tozalashdan boshlandi. Keyin qurbonliklar sharob ichish bilan yoki qurbonlik qilingan hayvonlarni so'yish orqali amalga oshirilgan. Ayniqsa, alohida ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda buqa qurbonlik qilinar edi. Unchalik ahamiyatli bo'lmagan narsa uchun kichik chorva mollari yoki parrandalar qurbon qilingan. Qurbonlik xudolarga meva va sabzavotlarni sovg'a qilish bilan to'ldirilgan. Diniy tadbirlar ibodatlar, turli yurishlar, marosim raqslari bilan birga amalga oshirilgan. Dafn marosimi paytida yo kamondan o'q otish musobaqalari yoki mushtlashish yoki otlarga tortilgan aravalar musobaqalari o'tkazilar edi.

Antropomorfik xudolarga sig'inish, yunonlar g'oyalariga ko'ra xudolar yashagan joylarga: bog'lar, toshlar, daryolar, g'orlar, alohida daraxtlarga sig'inish orqali amalga oshirilgan. Axeylik yunonlar ham kichik ibodatxona yaratadilar. Dastlab ular xonadonlarda (saroy megaronida) bo'lib, kamtarona bezaklari bilan ajralib turardi. Unda xudolarning haykalchalari, idishlar va qurbonlik uchun muqaddas narsalar bo'lgan. Ammo Miken davrining oxirlarida, kelajakdagi ibodatxonalarga o'xshash bo'lgan birinchi muqaddas binolar ham paydo bo'ldi. Axey Yunoniston madaniyatida atrofdagi dunyoning badiiy qiyofasi bilan materik va orol Yunonistonining o'ziga xos an'anaviy san'ati uyg'un tarzda birlashtirildi. Bronza davridagi Miken madaniyati keyingi davrlarda yunon jamiyatining rivojlanishiga asos yaratdi.

Bolqonda Bronza davri sivilizatsiyasining inqirozi. Miloddan avvalgi XIII asr oxirida Troya urushidan keyin Axey podsholiklarining saroy xo'jaliklarida iqtisodiy inqiroz alomatlari

sezila boshladi. Bundan tashqari, bu vaqtda Bolqonda siyosiy vaziyat keskin yomonlashdi. Axey davlatlariga qo'shni qabilalar shu paytgacha noma'lum sabablarga ko'ra Bolqon yarim orolining shimolidan janubga ko'chib o'tishgan bo'lib, bu xalqlarning barchasi hali ham ibtidoiy jamoaviy munosabatlar bosqichida edi. Ularning aksariyati doriy lahjasida gaplashadigan axeylar bilan bog'liq bo'lgan yunon qabilalari bo'lgan. Doriylarning ko'chishi, qirg'inlarga, talon-tarojlikka olib keladi. Axey qal'alarini musofirlardan himoya qilish uchun eski istehkomlar shoshilinch ravishda ta'mirlanib, yangilari barpo etildi. Garchi eng yirik qal'alar (Miken, Tirinf va Afina) va doriylarning hujumini qaytarishga muvaffaq bo'lishgan bo'lsa-da, xarobadan keyin Miken davridagi saroylarning aksariyati (Pilosdagi saroy) va aholi punktlari qayta tiklanmadi. Ibtidoiy davr vakillarining bu bosqini Yunonistonda bronza davri sivilizatsiyasini yo'qotilishiga olib keldi. Boshpana izlab ba'zi axeylar varvarlar bosqini ta'siriga uchramagan joylarga ko'chib ketishdi (masalan, Attika, Elid, Axaya), boshqalari Bolqon yarim orolini tark etishdi. Doriylar istilosidan keyin vayronagarchilik aholi punktlari va aholi sonini bir necha bor kamayishiga, hunarmandchilik ishlab chiqarilishi va monumental qurilish kamayishiga sabab bo'ldi. Savdo hajmi keskin tushib ketdi va Sharq bilan savdo deyarli butunlay to'xtaydi. Yunon olamini qadimgi Sharq sivilizatsiyalaridan uzoq vaqt ajralib qolish davri boshlandi. Vayron bo'lgan Miken jamiyati avvalgidek bo'la olmadi. Miken, Trinf va Afinadagi saroylar taxminan yuz yildan keyin bo'shab qoldi. Ko'p o'tmay boshqa qal'alarda ham hayot to'xtadi. Bolqonda bronza davri sivilizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy asoslari bo'lgan saroylarning tugashi bilan birga Miken davri tugaydi. Uning tarixiy maydondan ketishiga ijtimoiy-iqtisodiy holatlar sabab edi. Bronza davrida ishlatilgan mis, suyak, tosh va hattoki yog'ochdan yasalgan oddiy asboblar yoki bronzadan o'ta qimmat bo'lgan buyumlar iqtisodiy va mehnat faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. Bunday ibtidoiy va samarasiz mehnat qurollaridan foydalanish xo'jalik ishlab chiqarishini takomillashishiga to'sqinlik qildi. Bu kabi ishlab chiqarish qurollari bilan ishchilar ixtisosliklar bo'yicha guruhlangan va

ularning ishi uyushmalarga birlashib, markazlashgan bo'lganida samarali bo'lar edi. Ammo tarixiy tajriba ko'rsatib turibdiki, qadimgi Sharqqa o'xshash ushbu iqtisodiyot turi faqat ma'lum chegaraga qadar boylik to'plashga imkon beradi. Saroylarga bo'ysunuvchi qullar va jamoalar mehnati hisobiga yashagan saroy xo'jaliklari boshqaruvi tarkibini doimiy ravishda kengaytirish va shunga yarasha uni saqlash xarajatlarini ko'paytirishni talab etadi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi va pirovardida saroylar ishlab chiqarish markazlaridan iste'mol markazlariga aylanadi, bu esa iqtisodiyotdagi turg'unlik va inqirozga olib keladi. Axey jamiyati taraqqiyotining imkoniyatlari juda cheklangan edi. Bolqon va Egey dengizi havzasidagi sivilizatsiya saroy va uning atrofidan tashqariga chiqmadi. O'tkir ziddiyatlar nafaqat sivilizatsiyalashgan jamiyat va ibtidoiy qabilalar o'rtasida, balki saroy va bo'ysunuvchi jamoalar o'rtasida ham bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda Krit-Miken jamiyati qadimgi Yunonistonda ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, bu yerda ilk davlatchilik shakllari ko'zga tashlanadi. Lekin bu davlat keyinchalik o'zaro bosqinlar natijasida inqirozga yuz tutgan.

GLOSSARIY

Fol toshi – Krit dini va madaniyatiga oid yozma manba.

Axeylar – mil. avv. 2 ming yillik boshlaridan Fessaliyada yashagan asosiy yunon qabilalaridan biri, Peloponnesda ham yashaganlar. Axeylar so'zi Xett hujjatlarida (mil. avv. XIV asr), Gomer asarlarida uchraydi. Axeylar davlatlari: Miken, Pilos va boshqalar. Mil. avv. XII asrlarda doriylar tomonidan Kichik Osiyo, Kipr va boshqa orollarga, Peloponnesning shimoliga siqib chiqarilgan (viloyat Axeyya nomini olgan).

"A" va "B" chiziqli yozuv – Krit orolining eng qadimgi yozuvlari tizimi; A va B turlari farqlanadi. Chiziqli yozuvning B turi (Krit-Miken bo'g'in yozuvi)da bitilgan matnlar yunon tili lahjalaridan birini namoyon qiladi. Mil. avv. XV-XIV asrlarga mansub ushbu matnlar XIX asr oxirlarida Krit orolida, mil. avv. XIII asrga mansub matnlar esa 1939-yilda Peloponnesning janubiy qismidan topilgan. Bu yozuvdagi matnlar birinchi marta ingliz olimi A. Evans tomonidan 1909-yilda e'lon qilingan. Chiziqli

yozuvni o'qishga ingliz olimlari M. Ventris va J. Chedviklar muvaffaq bo'lishgan (1953). Ba'zi olimlarning fikricha, Krit-Miken yozuvining ayrim unlilarga yoki undosh va unlidan iborat tovush guruhdariga muvofiq keladigan belgilari keyinchalik yunon tiliga o'zlashtirilgan va moslashtirilgan. Bo'g'inli Kipr yozuvi ham shu yozuv asosida paydo bo'lgan. Chiziqli yozuvning A turi hali o'qilmagan va uning hind-yevropa tillari (xalqlari)ga aloqadorligi isbotlanmagan.

Nukleus – (lot. nucleus – yadro) – tosh qurollar yasash uchun chaqmoqtosh yoki boshqa tosh parchalaridan uchirib olinadigan tosh bo'lagi. Nukleuslardan qirg'ich va nayzasimon qurollar yasalgan.

Stela – tom taxta. Ularga suratlar uyilgan.

Vanaka – Pilos va Kritda davlat hukmdori unvoni (mil. avv. 2 ming yilliklar). Keyinchalik hukmdor podsho.

Patreve – shoh noiblari.

Megaron – (yun. megaron – katta zal) – Yunonistonda, Egey madaniyati davrida barpo etilgan bino va uy-joylar turi (mil. avv. 3-2 ming yilliklar). Megaronning tuzilishi oddiy: old tomoni to'g'ri burchak shaklida, peshayvoni ustunli bo'lgan. Asosiy xona katta zal bo'lib, o'rtasida o'choq joylashgan. Shiftdan tutun chiqadigan teshik qoldirilgan. Bunday Megaronlar Troya, Tirinf, Miken va b. shaharlardan topilgan. Keyinroq (mil. avv. VIII-VII asrlardan boshlab) Yunonistonda Megaronlar asosida ibodatxonalar barpo etilgan.

3-MAVZU. BUYUK YUNON KOLONIZATSIYASI

Reja:

1. **Yunon polislarining vujudga kelishi.**
2. **Demos va aslzodalar o'rtasida kurash.**
3. **Buyuk yunon kolonlashtirish va uning sabablari.**
4. **Peloponnes davlatlarining tashkil topishi.**
5. **Sparta davlati.**

Qadimgi Yunoniston tarixida mil. avv. IX-VIII asrlarda chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mayda, bir-biridan ayro bo'lgan urug' va qishloq jamoalari yangi ijtimoiy-siyosiy institutlarga aylana boshlaydi. Bunda turli xil ijtimoiy guruhlar o'rtasida qonli to'qnashuvlarga olib kelgan o'tkir qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi, davlatchilik organlari tizimi shakllanadi, yuksak madaniyat yaratiladi. Bu yangi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar polis nomini olib, qadimgi yunon jamiyati, davlatchiligi va madaniyatining asosiy yacheykasiga aylandi.

Tarixiy adabiyotlarda polis eng ko'p "shahar-davlat" deb ta'riflanadi. Ushbu izohni bir muhim tomonini hisobga olibgina to'g'ri deb hisoblash mumkin: polis bilan bog'liq holda "shahar" tushunchasi ham, "davlat" tushunchasi ham faqat "qadimiy" ma'noda talqin qilinishi kerak. Qadimgi yunon tilida "polis" so'zi, albatta, "binolar, ko'chalar, mudofaa inshootlari va boshqalar" va "erkin to'laqonli fuqarolar jamiyatiga ega", "shahar" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi mualliflar "polis" so'zida, avvalo, shahar fuqarolik jamoasini nazarda tutgan bo'lsa, "polis" so'zi davlatni ma'lum bir suveren hokimiyat nazorati ostidagi muayyan hududdagi fuqarolik jamiyatini anglatadi.

Shunday qilib, "polis" tushunchasini "shahar "tushunchasi yoki "davlat" tushunchasi bilan so'zsiz tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ikki yoki undan ortiq shahar markaziga ega bo'lgan (garchi ulardan biri poytaxt rolini o'ynab tursa ham) polislar ham mavjud bo'lgan. Shuningdek, shahar markaziga umuman ega bo'lmagan (lekin kamdan-kam) polislar ham bo'lgan. Masalan, Sparta polisi yoki Ponopeusning hech kim shahar deb atamaydigan polisi edi.

Shunga qaramay, polisni davlat sifatida tashkil etadigan shahar fuqarolik jamiyati sifatida ta'riflash "shahar-davlat" atamasiga eng ma'quli hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonning rivojlanishini asosan belgilab bergan o'ta muhim jarayon arxaik taraqqiyoti mavjud bo'lgunga qadar urbanizatsiya, ya'ni uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri aynan shaharlashish xarakteri bo'lgan. Buni ma'lum darajada yunonlarda shakllangan kichik shahar davlatlari "polis"lar sifatida mavjud bo'lganligi asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Agar arxaik davr boshida yunon olamida shahar hayotining markazlari deyarli mavjud bo'lmagan bo'lsa, keyinchalik Yunoniston haqiqatan ham "shaharlar mamlakati" ga aylandi va ularning aksariyati (Afina, Korinf, Fiva, Argos, Milet, Efes) va boshqalar) eng yirik iqtisodiy, siyosiy, madaniy markazlarga aylandi. Shaharlar turli yo'llar bilan shakllandi. Uning eng keng tarqalganlaridan biri bu sinoykizm (so'zma-so'z "turar-joy") deb nomlangan bo'lib, bu – bir viloyat hududida bir-biriga yaqin joylashgan bir nechta qishloq tipidagi kichik aholi punktlarining bir siyosiy birlikka qo'shilishidir. Ushbu jarayon bir shaharda bir nechta qishloq aholisini ko'chirilishi bilan ham amalga oshirilishi mumkin edi.

Klassik davrda ham Afina fuqarolarining yarmidan ko'pi dehqonchilik bilan shug'illanish mumkin bo'lgan yer maydonlarida yashagan. Afinaning o'zida faqat jamoaviy hukumat organlari bo'lgan. Arxaik davrdagi Yunonistonda shahar, atrofdagi hudud uchun ma'muriy markaz, aniqrog'i ma'muriy-diniy markaz rolini o'ynagan, chunki qadimgi davrlarda din davlat hayoti bilan chambarchas bog'liq edi. Shu bilan birga shahar ayni paytda eng muhim iqtisodiy markaz, hunarmandchilik ishlab chiqarish va savdo markazi bo'lgan. Shunday qilib, qadimgi yunon shaharlari vazifalarini sanab o'tish o'rinli. Bu deyarli har bir shaharda ikkita markaz mavjudligida ifodalangan. Ulardan biri qal'a - akropol (akrosdan - yuqori + polis - shahar) bo'lgan. Odatda u tepalikda yoki qoyada joylashgan va mudofaa inshootlari majmuasiga ega bo'lgan. Akropol shahar va butun davlatning yuragi edi. Unda asosiy ibodatxonalar joylashgan, asosiy diniy odat-an'analar yo'lga qo'yilgan. Akropolda dastlab siyosatni boshqarish organlari binolari bo'lgan. Bundan tashqari, dushmanlar hujum qilgan

taqdirda, akropol himoyachilarning so'nggi tayanch punkti bo'lib xizmat qilgan.

Shaharning ikkinchi "markazi" – "agora" asosiy shahar maydoni bo'lib, u ko'pincha bozorda yoki uning atrofida joylashgan. Agora, akropol singari, muqaddas makon deb hisoblangan. Agora atrofida hunarmandlar, savdogarlar (ammo ular aholining ozchilik qismini tashkil etgan), shuningdek, har kuni shaharga yaqin joylashgan yer uchastkalarida ishlashga ketadigan dehqonlar yashaydigan shahar kvartallari gavjum edi. U paydo bo'lganidan so'ng, shahar arxaik davrda ma'lum bir evolyutsiyani boshdan kechirdi. Avvalo, agoraning ahamiyatini bosqichma-bosqich oshirib borishi, asosiy ma'muriy funksiyalarni akropoldan unga o'tishi oxir-oqibat akropolni deyarli diniy marosimlarni o'tkazish joyiga aylantirdi. Yunonistonning turli shaharlarida bu jarayon turli xil tezlikda siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda rivojlandi.

Jang san'atining jadal rivojlanishi tezkor ravishda shaharlarda nafaqat akropol qal'asini, balki butun shahar hududini qamrab oladigan istehkomlar tizimini yaratishni talab qildi. Arxaik davrning oxiriga kelib, ko'plab shaharlar, hech bo'lmaganda, eng katta va eng obod bo'lgan mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Biroq yunon dunyosining barcha hududlarida ham urbanizatsiya yuqori darajada rivojlanmagan. Elis, Aetolia, Akarnania, Axaya kabi shaharlarda hayot hali ancha vaqtgacha ibtidoiy darajada bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, aholining o'sishi tabiiy resurslarga, shu jumladan, unumdor tuproqlarga boy mintaqada kuzatildi. Natijada, Yunonistonning ayrim hududlarida stenoxoriya, ya'ni "agrar" aholi sonining ko'payishi, yerga bo'lgan muxtojlikni oshishiga olib keladi. Stenoxoriya Istmda (Peloponnesni Markaziy Yunoniston bilan bog'laydigan joy nomi) va uning atroflarida, shuningdek, Egey dengizining ba'zi orollarida (ayniqsa, Evbeyada), Kichik Osiyoda namoyon bo'ldi. Aholi zich joylashgan bu joylarda qishloq xo'jaligi yerlari ahamiyatsiz edi. Stenoxoriya Attikada kamroq darajada sezilgan. Beotiya, Fessaliya, Peloponnes janubida ishlov berilgan yerlarning katta maydonlari va

tuproqning yuqori unumdorligi tufayli demografik portlashi salbiy oqibatlarga olib kelmadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yunon shahar-davlatlarining asosiy elementlari so'nggi zulmat asridayoq paydo bo'lgan edi. Butun zulmat asrida mavjud bo'lgan poytaxt shaharlar shahar-davlatlarga aylandi va ularning ko'pchiligi Miken davridayoq markaz shaharlarga aylanib ulgurgan edi. Gomer eposlarida tasvirlangan yunon shahar-davlatlarining ikki asosiy boshqaruv organlari bo'lmish chaqiruv yoshidagi erkaklar yig'ini va "oqsoqollar" kengashi to'la rivojlanib bo'lgan edi. Mil. avv. 800-yilda demos jamiyatlari mavjud bo'lgan bo'lsa, mil. avv. 700-yillarga kelib mazkur jamoalar shahar-davlatlar ko'rinishida faoliyat yurita boshladi. Mil. avv. VII-VI asrga kelib esa quldorlik jamiyati va polis tizimi shaklidagi davlat tuzildi. Bu sinfiy jamiyat taraqqiyoti va davlat tuzumida yangi yo'l bo'lgan.

Ishlab chiqarish kuchlari 2 ming yilliklarga nisbatan mil. avv. VIII-VI asrlarda yuqori darajada rivojlandi. Yangi metall-temirning ixtiro qilinishi ishlab chiqarish kuchlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Temir uskunalar yordamida tosh yerlarni tozalash va daraxtzor yerlarni kesib, ularni tekisliklarga aylantirish imkoni paydo bo'ladi.

Tabiiyki, bu material yunonlarning xomashyoga ega bo'lish imkonini beradi. Murakkab iqtisodiyot vujudga keldi, tovar ishlab chiqarish tezlashdi. Bu jihat xo'jalik va jamiyat rivojlanishi uchun sabab bo'ldi. Yunoniston tabiati qadimgi sharq mamlakatlaridan ko'ra boshqacharoq bo'lib, hududda yerga ishlov berish uchun murakkab gidrotexnika shart bo'lmagan. Bu sharoit xususiy yerlarning rivojlanishi uchun imkon bergan. Davlatga asosiy daromad podsho yerlaridan emas, balki qullar ishlagan xususiy yerlardan kelgan.

VIII-VI asrda yunon jamiyatining rivojlanishi kichik hududlardagi o'rta boy tabaqaga bog'liq bo'lgan. Shu kichik mamlakatlar va jamiyatlarda iqtisod rivojlanishi uchun zamin yaratildi. Albatta, har bir polis o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lgan.

Hududi va aholi soni bo'yicha yunon polislari bir-biridan ajralib turgan. Polislar orasida juda kattalari ham bo'lgan.

Masalan, Lokedemon yoki Sparta hududi 8400 km, aholisi taxminan 200-300 ming kishi atrofida bo'lgan. Afina polisining hududi 2,5 km.kv bo'lib, 250-300 ming atrofida aholi yashagan. Lekin shunday polislar ham bo'lganki, hududi 30-40 km.kv dan iborat bo'lib, bir necha yuz aholiga ega bo'lgan, xolos. Mintaqadagi Fokid polisi, Panopey (Beotiya) polislari shular jumlasidandir.

Eng ommalashgan va keng tarqalgan yunon polisining hududi 100-200 km.kv, ya'ni 10x10, 10x20 km.ni tashkil etgan. Aholisi 5 mingdan 10 minggacha bo'lib, uning tarkibi: bolalar, ayollar, chet elliklar va qullardan iborat bo'lgan. Aristotel aytganidek, polis hududi ko'zga ko'rinadigan bo'lishi kerak, sababi himoya qilish oson bo'ladi. Polis markazida shahar joylashgan. Bu shaharning vazifasi polisning barcha hududiga yordam jo'natish, o'rmon mahsulotlarini yetkazib berish, bu mahsulotlarni o'sha yerning o'zida qayta ishlash vazifasini bajaruvchi markaziy punkt bo'lishi lozim bo'lgan.

Shahar va polislarning dengizga chiqish imkoniyati bo'lishi ular uchun juda katta ustunlikni ta'minlagan. Birinchidan, davlat xavfsizligini ta'minlangan, ikkinchidan, mahsulotlarni yetkazib berish qulay bo'lgan. Bu kabi qulayliklarga ega bo'lgan polis Aristotelning fikricha ideal ko'rinishdagi polis hisoblangan.

Odatda yunon polislari kichik-kichik davlat ko'rimishini eslatadi. Hududining kichik bo'lishi polis hududining boshidan oxirigacha borib-kelish oson bo'lishini ta'minlagan. Shaharni bir necha soatlarda aylanib chiqish mumkin bo'lgan. Aholisi ham kam bo'lib ko'pchilik bir-birini tanigan. Markaz bitta bo'lib xalq shu yerda yig'ilgan. Bu yerda ibodatxona, hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan. Shahar dengiz qirg'og'ida yoki bir necha km uzoqlikda joylashgan. Shaharning markaziy polisi mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lishi kerak edi. Shaharda aholining 50% dan ortig'i istiqomat qilgan. Yer egalari va yerga ishlov beruvchilar har hafta unga ishlov berishga borishgan. Chunki, yer markazga yaqin bo'lgan. Markaziy maydonda turli xil bayramlar, savdo operatsiyalari, sport o'yinlari o'tkazilgan. Polis hududida bir nechta qishloq aholisi bo'lishiga qaramay, shahar markazi butun bir davlat hududida bitta edi.

Polisning asosiy iqtisodi yer hisoblangan.Tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda yunon shaharlarining katta qismi va qishloq xo'jaligi murakkab tuzilishga ega edi. Masalan, qishloq xo'jaligining o'zi bir necha tarmoqqa bo'lingan bo'lib, g'allachilik, uzumchilik, zaytun yetishtirish, bog'dorchilik, polizchilik, chorvachilik asosiy xo'jalik turlarini tashkil qilgan.

Uzumchilik, polizchilik va zaytun yetishtirish juda katta mehnat va mablag' talab qilar edi. Shuning uchun iqtisodiy imkoniyatni hisobga olib, qo'shimcha qullar kuchidan foydalanishgan. Ko'p hollarda shahar markazlari dengiz bo'yida joylashganligi sababli u yerda hunarmand, savdogarlar mol ayirboshlash va savdo operatsiyalarini qulay sharoitlarda olib borishgan. Kichik hajmdagi yunon polislarining hududida zarur metallar ya'ni, temir, mis, bronza va boshqa turli xil xom ashyolar yetishmas edi.

Tovarga bo'lgan munosabat va bozor orqali mahsulot savdosi olib borilishi polis xo'jaligining asosiga aylandi. Yer egalari va dehqonlar bozorga sharob, yog', don, jun olib kelib sotishar edi. Sharqqa nisbatan polislardagi iqtisod keng imkoniyatlarni ochdi, ya'ni tovar-pul munosabatlarini rivojlantirdi. Qishloq joylarda katta yer egalari, shaharda esa yirik hunarmandchilik do'konlari paydo bo'ldi.

Polisning ijtimoiy tarkibi uchta tabaqadan iborat bo'lgan:

1. Quldorlar.
2. Erkin mayda ishlab chiqaruvchilar.
3. Turli kategoriyadagi qullar.

Quldorlar toifasiga katta yer egalari, hunarmandchilik do'konlari xo'jayinlari, savdo kemalari sohiblari kirgan. Erkin mayda ishlab chiqaruvchilar polis aholisining asosiy qismi bo'lib, dehqonlar, hunarmandlar, Afinaning ijtimoiy hayotidagi zegvit va fetlar, savdogar ya'ni o'z mehnati evaziga o'z rizqini topuvchilar ham shular jumlasidandir.

Mil. avv. VI asrda qullar toifasi kam sonli bo'lgan. Qullar katta yer egalarida ham kam sonli bo'lib, hunarmandchilik do'konlarida ham ularning roli sezilarli bo'lmagan. Biroq polis iqtisodiyotining qiyinlashuvi, hunarmandchilik ishlab chiqarilishining rivojlanishi,

savdo operatsiyalarining kengayishi natijasida qullar soni o'sib bordi.

Yunon polislarining o'ziga xos muhim bir ijtimoiy tarkibi ijtimoiy kategoriya, ya'ni teng huquqli fuqarolar jamoasidan iborat.

Polis fuqaroligini quyidagi toifalargina qabul qila olgan:

Avloddan-avlodga o'tadigan yer merosxo'rlari; xalq xizmatchilari; falangadagi og'ir qurollangan goplitlar. Boshqa shaharlardan kelgan, hattoki qo'shni polisdan kelgan kishilar ham bu yerning fuqaroligiga kirmagan.

Yer tomorqalarini yo'qotish fuqarolik huquqidan va fuqarolar jamoasidan mahrum bo'lishga olib kelgan. Savdo va hunarmandchilik rivojlangan markazlar Korinf va Afinada yer tomorqalaridan mahrum bo'lgan fuqarolar hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanishga majbur edi. Bunday odamlar fuqarolik huquqidan mahrum bo'lmas edi, lekin ikkinchi darajali fuqarolarga aylanar edi. Ular birinchi imkoniyatdayoq tomorqalarini qaytarib olishga harakat qilgan va shu bilan o'zlarining jamiyat oldidagi obro'larini tiklab olganlar. Polis hukumati yerdan ajragan fuqarolarga siyosiy yordam ko'rsatgan.

Har bir polisda xususiy yerdan tashqari zahiradagi fond yerlari ham bo'lgan. Ushbu joylar fuqarolarga bo'lib berilgan(agerpublikus). Bu yerlar tarkibiga yaroqsiz, ya'ni, botqoqliklar, o'rmonlar kirgan. Fuqarolar jamoasi shu yerlardan foydalanganlar va shu yerga egalik qilish butun bir polis oldida va fuqarolar oldida fuqarolik majburiyati sifatida ko'rib chiqilar edi. Yer sotish chegaralab qo'yilgan edi, chunki yer uchastkalarini yo'qotilishi fuqarolik huquqidan mahrum qilish darajasigacha borgan.

Iqtisodiy rivojlanish jarayoni fuqarolik jamoasini mol-mulkka bo'lgan egaligini kuchaytirdi va uning oqibatida fuqarolik jamoasining ijtimoiy jihatdan ajraluviga olib keldi.

Ayrim fuqarolarning birdamligini quvvatlash uchun polis hukumati bir nechta chora-tadbirlar qabul qilgan. Boy fuqarolarga lutergiyalar, ya'ni o'zlarining mulklaridan jamiyat ehtiyojlariga sarflash, kemalar yetkazib berish, bayramlarni o'tkazish va boshqa majburiyatlar belgilangan. Jamiyat fikri bo'yicha pul yig'ib

to'plaganlar muhokama qilinib, qoralangan. Aksincha namunali fuqarolar sifatida o'rta yer egalari, o'zining xo'jaligini yaxshi tashkil qilib, fuqarolik burchlarini bajargan, o'zlarining polislarini vijdonan himoyachilari tan olingan.

Bir tarafdan o'zaro munosabatlar, ya'ni erkin va xususiy mulkdorlarning munosabati ularni tashqi olamga qarshi birlashtiradi. Davlat boshqaruvi nuqtai-nazaridan Yunon polisi respublika tizimiga ega edi. Oliy hukumat va qonunchilik xalq yig'iniga tegishli edi. Xalq yig'ini polisni amaldor shaxslar bilan birgalikda qonun bo'yicha bir yil boshqargan. Doimiy davlat apparati bo'lmagan. Amaldor shaxslar muddatidan keyin xalq yig'ini oldida hisobot bergan.

Polis fuqarosi vatanparvarlik odob-qoidalariga binoan kuchli bo'lishi kerak edi. Yunonlar faqat o'zining kichik davlatida fuqaro edi. Agar u qo'shni davlatga borsa haq-huquqsiz metekga aylanar edi. Mana shuning uchun yunonlar o'zlarining polislarini qadrlashgan. Ular o'zlarining kichik shahar davlatida chin erkinligini sezishar hamda haqiqiy shaxs sifatida his qilishgan. Barcha yunon shahar-davlatlari ikkita asosiy tipga bo'lingan edi:

1. Agrar polis. Qishloq xo'jaligi rivojlangan, biroq savdo-hunarmandchilik va tovar-pul munosabatlari zaif bo'lgan; misol uchun Sparta va Lakemidonni aytish mumkin.

2.Tovar-pul munosabatlari, savdo-hunarmandchilik ishlab chiqarishda qo'l mehnatidan foydalanib rivojlangan polis. Jumladan, Afina polisi shunday polislar tarkibiga kirgan. Umuman olganda qadimgi yunon sivilizatsiyasi rivojida polislarning mavjud bo'lishi alohida o'rin egallagan.

Demos va aslzodalar o'rtasida kurash. Arxaik davrning boshlarida yunon jamiyatida aslzodalar, Gomer davridagi basileylarning avlodlari va boshqa zodagon oilalar a'zolari yetakchi rol o'ynagan. Ularning qo'lida barcha hokimiyat to'plangan edi. Aslzodalar vakillari siyosatning barcha davlat boshqaruv organlari ishlariga jalb qilingan. Oddiy fuqarolar ishtirok etgan xalq yig'ilishlari kamdan-kam hollarda chaqirilgan va aksariyat hollarda faqat kengashlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni ma'qullagan, shuning uchun oddiy fuqarolar aslzodalar qo'lida itoatkor vosita bo'lgan. Shubhasiz, aslzodalar yetakchi

iqtisodiy lavozimlarni egallab olishdi, bu uning qo'lidagi katta yer egaliklari hamda harbiy yurishlar natijasida qo'lga kiritilgan boyliklar bilan bog'liq edi. Arxaik Yunoniston umuman olganda kambag'al jamiyat edi. Sharqdagi kabi ajoyib afsonaviy boylar yunon olamida hech qachon bo'lmagan. O'sha paytdagi eng katta boyliklar ham, bizning me'yorlarimiz bo'yicha, juda kamtar edi. Turmush tarzi bo'yicha aslzodalar o'zlarining polislarning qolgan aholisidan unchalik farq qilmasdi.

Aslzodalarning an'anaviy hukmronligi bu diniy hayotini boshqarishda edi, ular ruhoniy mavqeini egallagan. Yozma qonunlar bo'lmagan taqdirda, ular og'zaki qonun normalarini o'z xohishiga ko'ra sharhlab sudyalik ham qilar edilar. Aslzodalar qo'shinda ham muhim rol o'ynagan. Kundalik jismoniy mehnatdan holi bo'lganligi sababli ta'lim olish uchun bo'sh vaqt mavjudligi zodagonlarni jamiyatning intellektual elitasiga aylantirdi. Qolgan oddiy aholining ahvoli juda qiyin edi. Demoslar asosan turli darajadagi siyosiy va iqtisodiy darajada aslzodalarga qaram bo'lgan. Ba'zi hollarda, bu qaramlik haqiqiy qullikka aylandi. Shunday qilib, boy aslzodaga o'z yer uchastkasini garovga qo'yishga qarzdor bo'lgan, vayron bo'lgan dehqon, unga qullik uchun oila a'zolarini berishga majbur bo'ldi va oxir-oqibat u o'zini qarz qulligiga aylantirishi mumkin edi. Biroq aslida erkin shaxs maqomini yo'qotgan (vaqtincha bo'lsa ham) qarzdor ham, siyosiy jihatdan fuqaro bo'lib qolishda davom etdi. Hayotning bunday paradoks asoslari davlatdagi barqarorlikka putur yetkazdi va qat'iy islohotlarni talab qildi. Arxaik davrning ikkinchi yarmida vaziyat o'zgaradi: aslzodalar o'zlarining yetakchi mavqelarini yo'qotishni boshlaydilar. Falangalarning paydo bo'lishi bilan ularning armiyadagi o'rni pasayadi: goplitlar, asosan yollangan boy dehqonlar tomonidan, aslzoda otliq askarlarni amalda keraksiz holga keltirdi. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi bilan oddiy aholi (demos) ham ortiqcha pulning paydo bo'lishi bilan, zodagonlar bilan tobora muvaffaqiyatli raqobatlasha boshlagan savdo va hunarmandchilik elitasi shakllandi. Arxaik davrning oxiriga kelib, aholining asosiy qismi unchalik o'ziga ishochi bo'lmasa ham o'zlarining tengliklari uchun xaq huquqlarini talab qila boshladilar. Oddiy fuqarolarning kurashi

eng rivojlangan hududlarda muvaffaqiyatli bo'ldi. Oddiy fuqarolarning ahvolini yaxshilash, ularning siyosiy rolini oshirish uchun kurash uzoq va qiyin kechdi. Uzoq vaqt davomida zodagonlar yunon dunyosining ijtimoiy hayotida juda muhim o'rin egallashni davom ettirdilar. Biroq miloddan avvalgi VII asrning oxiri - VI asrning boshlarida ko'plab siyosiy hayotda demos fuqarolari qarz qulligiga aylantirish taqiqiga erishdi. Bundan buyon qadimgi yunon sivilizatsiyasining nihoyatda muhim yutug'i bo'lgan "qul" tushunchasi o'rniga "fuqaro" tushunchasi qo'llaniladigan bo'ldi.

Arxaik davrdagi yunon shahar-davlatlarida siyosiy hayot o'ta shiddatli, keskin ichki mojarolar bilan ajralib turar, ba'zan esa fuqarolar urushlariga sabab bo'lgan. Aslzodalar guruhlari o'zaro raqobatlashdilar. O'z navbatida boy savdogarlar va oddiy odamlar, "eski" dvoryanlar bilan siyosiy tenglikka harakat qildilar. Va nihoyat, oddiy yunoncha demoslarning xaq-huquqlari uchun kurashi tobora kuchayib bordi. Ular o'zlari uchun jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, mulk holatini yaxshilash, qarzlarni bekor qilish va yerlarni to'liq tenglik asosida qayta taqsimlashni talab qildilar. Bularning barchasi ichki siyosiy kurashdan chetlashgan hunarmandchilik ustaxonalarining deyarli doimiy egalari uchun o'ta qiyin vaziyatni yaratdi. Norozilikni to'xtatish uchun ko'plab shaharlar yon berish uchun vositachilarni taklif qilishga majbur bo'ldilar. Bunday "yarashtiruvchilar" ma'lum bir davrda tinch aholining favqulodda vakolatlarini nisbiy uyg'unlikka yetkazishga, barcha qatlamlar ichida tinchlik va barqarorlikni tiklashga intilib, islohotlar o'tkazdilar.

"Yarashtiruvchilar" faoliyatining eng muhim natijasi – bu avvalgi amalda bo'lgan odatiy og'zaki qonun o'rnini bosuvchi, yozma qonunlarning dastlabki to'plamlarining bir qator siyosatlarida paydo bo'lishi edi. Dastlabki yunon qonun chiqaruvchilari haqida ma'lumotlar juda kam.

Mil. avv. VIII-VI asrlarda yunon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti qadimgi yunon tarixida Buyuk kolonlashtirish jarayonini boshlab beradi. Aholi Egey havzasidagi yunon shaharlaridan O'rta Yer va Qora dengiz sohillari bo'ylab joylashgan ko'p sonli koloniyalarga (yunoncha

"apoykiya") ko'chib o'tadi. Umumiy aholisi 1,5-2 mln. kishi bo'lgan bir necha yuz koloniyalar vujudga keldi. Buyuk kolonlashtirishning bir necha sabablari bor edi. Birinchidan yangidan paydo bo'layotgan yunon polislarida hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi faoliyat maydonini kengaytirishni talab qilardi: o'zining chek yerlarini yo'qotgan fuqarolar uchun yangi yerlar kerak edi, hunarmand ustalar uchun xomashyo manbalari va sotish uchun bozor talab qilinardi. Bu sharoitlarni barchasini atrofi mahalliy qabilalar bilan o'ralgan O'rtaer va Qora dengizning boy va qulay viloyatlaridan topish mumkin edi.

Koloniyalarning vujudga kelishining yana bir sababi yunon jamiyatida tabaqalashuv va ijtimoiy differensiyalash jarayoni bo'ldi. O'zining yerini yo'qotgan kambag'allar, sudxo'rlar domiga tushganlar, turli ijtimoiy kurashlarda mag'lubiyatga uchragan guruh vakillari o'zga koloniyalardan omad va farovonlik qidirdilar. Aslzodalar bunday ko'chishlarga qarshilik qilmadilar. Chunki koloniyalarga hukmron tabaqa uchun xavfli bo'lgan, norozi bo'lib yurgan siyosiy raqiblar ketayotgan edi. Shu bilan birga shahar-metropoliya hukmron doirasi uchun ham o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilgan, qimmatbaho xomashyo olish mumkin bo'lgan koloniyalarning bo'lishi manfaatli edi, shu tarzda metropoliyalar o'zlarining siyosiy ta'sirini kengaytirishi mumkin edi.

Koloniyalarga ko'p sonli aholining ko'chishi umumiy yunon aholisi sonini ko'paymasdan sodir bo'lmagan.

Buyuk yunon kolonizatsiyasi uchta yo'nalishda amalga oshirildi. Ular orasida birmuncha kuchlirog'i g'arbiy yo'nalish edi. Miloddan avvalgi VIII asrda ko'plab aholi Yunonistondan Sitsiliya va Italiyaning janubiga qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ko'chib ketadi. Ular g'arbga qishloq xo'jaligi uchun emas, balki savdo-sotiq tufayli borgan ilk sayohatchilar ortidan ergashdilar. Tez orada yirik va gullab-yashnagan g'arbiy Yunon polislariga aylangan shaharlar - Sirakuza (mil. avv. 733-y.), Zankla (mil. avv. 730-y.), keyinchalik Messana deb nomlangan Regiya (mil. avv. 720-y.), Tarent (mil. avv. 706-y.), Sibaris, Kroton, Gela, Selinunt Akragant va boshqalarga asos solindi. Sitsiliya va Janubiy Italiyada yunon kolonistlari shu darajada zich o'rnashgan

edilarki, bu hududlarni "Buyuk Yunoniston" atamasi bilan atay boshladilar.

Yana bir kuchli kolonizatsiya harakatlari shimoliy-sharqiy yo'nalishda yuz berdi. Bunda yirik va boy yunon shaharlaridan biri bo'lgan Milet yetakchi rol o'ynadi. Rivoyatlarga ko'ra, Miletdan 100 ga yaqin manzilgoh va koloniyalar ajrab chiqqan. Bu yo'nalishda Kizik (mil. avv. 756-y.), Xalkedon (mil. avv. 685-y.), Vizantiy (mil. avv. 667-y.)lar eng mashhurlari sanalgan. Mil. avv. VI asrda kolonizatsiya to'lqini Shimoliy Qora dengiz bo'yiga etib boradi. Bu yerdagi yunon koloniyalaridan Olviya, Tavriya, Pantikapey, Tir, Gorgippiya va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Yunon kolonizatsiyasining birmuncha kuchsiz yo'nalishi sifatida janubiy-sharqiy va janubiy yo'nalishlar bo'lib, Finikiya sohillari, Misr va Liviyaning dengizbo'yi hududlari hisoblangan. Bu hududlarda Yunon koloniyachilari qudratli Ossuriya va Yangi Bobil podsholari va Misr fir'avnlari qo'llab turgan Finikiya savdogarlarining qattiq qarshiligiga duch keladi. Shu boisdan bu hududlarda faqatgina bir nechta savdo faktoriyalari rolini o'ynagan va mahalliy hukmdorlarga bo'ysungan sanoqli manzilgohlarga asos solingan, xolos. Bular Shimoliy Suriyadagi El Mina, Finikiyadagi Sukas, Misrdagi Dafna va Navkratislardir. Faqatgina dengizdan bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan, Finikiya savdogarlari va Misr fir'avnlari qo'li yetmagan Kirena (mil. avv. 630-y.) rivojlangan Yunon polisi sifatida Bolqon Yunonistoni shaharlari bilan faol savdo aloqalarini olib boradi.

Yunon kolonistlari xalqaro savdo ittifoqiga qo'shilganlar va hech qancha vaqt o'tmasdan boshqa Evbeyaliklar Italiyaning janubidagi Pitekussada savdo koloniyasiga asos solganlar. Shu bilan birga ko'p sonli yunon kemalari O'rtayer dengizi bo'ylab o'tgan savdo yo'llarida suzganlar va hattoki O'rtayer dengizidagi yetakchi dengiz savdogarlari bo'lgan finikiyaliklar bilan ham raqobatlashganlar. G'arbda paydo bo'lgan yangi yunon koloniyalari nafaqat dehqonchilik uchun qulay yerlar, balki o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish va qadimgi Yunoniston bilan shimoliy Yevropa aholisi uchun xomashyo materiallar, ayniqsa, metallga ehtiyoj tufayli ham borgan edilar.

Birinchi koloniyalarning aholisi uncha ko'p bo'lmagan. Ko'chib borgan guruhlar odatda bir necha yuz kishidan iborat bo'lgan. Koloniyachilar ma'lum darajada mahalliy aholi bilan aloqaga kirishishi lozim bo'lgan. Odatda (har doim ham emas) bunday aloqalar tinch o'tmagan, kolonistlar agressiv siyosat olib borish uchun kamchilik qilganlar. O'z navbatida mahalliy qabila boshliqlari ularga vino, zaytun yog'i, taqinchoq buyumlari olib keladigan birmuncha sivilizatsiyalashgan yunonlar bilan aloqa o'rnatishga qiziqqanlar. Begona joyga ko'chib borgan birinchi ko'chmanchilar metropoliya bilan qalin aloqalarni saqlab qolganlar va ularning har tomonlama qo'llab-quvvatlashiga tayanganlar. Biroq bunday qalin aloqalar va yaqin qarindoshchilik munosabatlariga qaramasdan koloniyalar mustaqil polis sifatida tashkil etiladi.

Mil. avv. VIII-VI asrlardagi buyuk kolonlashtirish butun yunon dunyosining siyosiy-iqtisodiy va madaniy rivojidagi eng muhim omillardan biri bo'ldi. Ko'chib boruvchilarning yangi qabilalar, mamlakatlar bilan tanishishi yunonlarning madaniy jihatdan dunyoqarashini kengaytirdi. Yangi shaharlarni qurish, hududlarni o'zlashtirish zarurati shahar qurilishi va arxitektura hamda tasviriy san'atning rivojiga katta turtki beradi. Qadimiy sharq mamlakatlari madaniyati, O'rta yer dengizi qabilalari dunyosi bilan o'zaro aloqalar yunon madaniyatini yangi g'oyalar va bilimlar bilan boyitdi, yunon falsafasi va adabiyotini rivoji uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

Peloponnes hududida ilk davlatlarning paydo bo'lishi. Peloponnesda mil. avv. XII-X asrlarda Miken sivilizatsiyasi qulaganidan so'ng Yunonistonning hamma joyida bo'lganidek to'xtovsiz ravishda qabilalarning ko'chishlari sodir bo'ladi. Uch asr davomida yarim orol hududida aholining sezilarli qismi almashadi. Mil. avv. 2 ming yillikda Peloponnesda o'rnashgan axey va ioniylarning bir qismi o'z yerlarini tashlab Sharqqa – Kichik Osiyo va Kiprga qochadilar, bir qismi esa yarim orolning Arkadiya deb nomlangan ichki tog'li hududlariga siqib chiqarilgan. Biroq ularning katta qismi o'z yerlarida qolib yoki ko'chib kelganlar bilan aralashib ketdi. Ba'zi qabilalar bo'ysundirilib, tovon to'lashga majbur qilindi. Peloponnesning shimoli va janubidagi nisbatan

hosildor hududlar hisoblangan Argolida Istma rayoni yoki Korinf bo'yni, Lakonika va Messeniyaga shimoliy-g'arbiy Yunonistondan (Epir rayoni) ko'chib kelgan jangovor doriy qabilalari joylashadi. Argolida va Lakonika hududlariga birinchi doriy qabilalarining kirib kelishi mil. avv. XI-X asrlarda yuz beradi. Taxminan shu davrda Peloponnesning shimoliy-g'arbiy viloyatlari sanalgan Korinf ko'rfazining janubiy sohillaridagi Axayya va Elidani – doriylar kabi yunon xalqining shimoliy-g'arbiy tarmog'iga tegishli ko'chmanchilar egallab olishadi.

Bu ko'chishlar natijasida Peloponnes aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllanadi. Ba'zi joylarda yunon tilining turli shevalarida so'zlashadigan turli xil etnik guruhlar yonma-yon joylashadi. Ba'zi joylarda esa bosqinchilar va ular tomonidan bo'ysundirilgan mahalliy aholining qoldiqlari o'rtasida o'tkir tabaqaviy dushmanlik avj oladi. Mag'lub etilgan axeylar g'olib doriylar tomonidan yerga bog'lab qo'yilgan ishchilarga aylantiriladi. Bularga misol sifatida birmuncha taniqli bo'lgan Sparta ilotlari va ular bilan bir xil darajadagi Peloponnesning doriy davlatlari bo'lgan Argos, Sikion, Epidavr, shuningdek, Krit oroli va uning atrofidagi doriylar hukmron bo'lgan joylar aholisini keltirish mumkin.

Butun arxaik davr, ya'ni mil. avv. VIII-VI asrlarda Peloponnes asosiy hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji bir maromda kechmagan. Bu jihat asosan ularning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari o'zaro bog'liq bo'lganligi bilan izohlanadi. Dengizdan uzoqda joylashgan tog'li Arkadiyaning asosiy iqtisodiyoti mil. avv. V-IV asrlarda ham qishloq xo'jaligi bo'lib, unda chorvachilik yetakchi o'rin tutgan edi. Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmiga qadar ham bu yerda birorta shahar bo'lmagan. Shuningdek, Peloponnesning janubiy va g'arbiy viloyatlari bo'lgan Lakonika, Messeniya va Axeyya ham asosan Egey dengizidan uzoqda bo'lganligi uchun iqtisodiy taraqqiyotda ancha orqada qolgan edi.

Sparta davlati. Mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmida Peloponnes davlatlarining ichida Sparta alohida yetakchi sifatida ajralib chiqadi. Butun davlatga o'z nomini bergan Sparta shahri mil. avv. XI yoki X asrda vujudga kelgan. Lakonikaga bostirib

kirgan doriylar hosildor yerlarga borib o'rnashadilar. Mil. avv. IX-VIII asrning birinchi yarmida spartaliklar qo'shni qabilalar bilan Lakonika ustidan hukmronlik qilish uchun shiddatli kurash olib bordilar. Oxir oqibat ular janubda Arkadiya tog' yonbag'irlaridan Peloponnesning janubidagi Tenar va Maleya burnigacha bo'lgan bo'lgan yerlarni o'z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Mahalliy aholining asosiy qismi (aftidan asosan axeylar) asoratga olinib, ilotlarga aylantiriladi. Lakonikaning eng hosildor yerlariga o'rnashib olgan spartaliklar o'z manfaatlari yo'lida siyosat olib bordilar. Tog' yonbag'irlaridagi kam hosilli yerlarni egallagan boshqa Lakonika jamoalari ko'ngilli ravishda Spartaning ustunligini tan olib, aholisi perieklar (atrofda yashovchilar) deb nomlangan Lakedemoniya davlati tarkibiga kirganlar. Ilotlardan farqli ravishda perieklar erkin ozod hisoblangan va hattoki yashagan polislari yoki polislaridagi hududlarda fuqarolik huquqlardan ham foydalanganlar. Shu tariqa Sparta jamiyatida uchta tabaqa: to'la huquqli spartaliklar, qul qilingan ilotlar va erkin lekin to'la huquqli bo'lmagan perieklar shakllangan.

Xuddi shu davrda o'zining barqarorligi va ko'p asrlar davomida kam o'zgarganligi bilan ajralib turgan Spartaning davlatchilik asoslari yaratilgan. Bu o'ziga xos siyosiy tizimning muhim elementlari juft podsholik hokimiyati, oqsoqollar kengashi yoki gerusiya va xalq kengashi yoki apella hisoblangan. Qadimgi davrlardan Spartada bir vaqtning o'zida ba'zida o'zaro raqobatlashgan va dushmanlashgan ikkita podsho sulolasi hukmronlik qilgan. Kelib chiqishi Geraklning o'ziga borib taqaladigan podsholar hurmat va ehtiromga sazovor bo'lganlar. Biroq ularning hokimiyati qonun yo'li bilan chegaralab qo'yilgan. Harbiy vaqtlarda ular harbiy yo'lboshchilar vazifasini bajargan, tinchlik vaqtida esa sud va din ishlari bilan shug'ullanganlar. Ikkala podsho ham oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan bo'lib, (ular bilan 30 kishi bo'lgan) asosan davlat boshqaruvi masalalari hal qilinadigan yig'ilishlarda ishtirok etganlar. Butun to'la huquqli Sparta fuqarolarini qamrab olgan Xalq yig'ilishi bu davlat tizimida ikkinchi darajali rolni o'ynagan. O'zining mohiyatiga ko'ra u faqatgina podsholar va oqsoqollarning qo'shma yig'ilishida qabul qilingan qarorlarni tasdiqlagan, xolos.

Spartaning ilk tarixida Messeniya urushlari deb nomlangan davr alohida o'rin tutadi. Taxminan mil. avv. VIII asrda boshqa yunon davlatlarida bo'lgani kabi hududda o'tkir yer yetishmovchiligi sodir bo'ladi. Bu muammoni hal qilish uchun spartaliklar boshqa yunon polislari kabi kolonlashtirish siyosatini olib bormay, qo'shnilarining hududlari orqali yerlarni kengaytirishga kirishadilar. Sparta ekspansiyasining asosiy obyekti Peloponnesning janubiy-g'arbidagi boy va keng viloyat – Messeniya bo'ldi.

Messeniya uchun kurash uzoq va mashaqqatli kechgan. Birinchi Messeniya urushi (mil. avv. VIII asrning ikkinchi yarmi) 20-yil davom etdi va spartaliklarning g'alabasi bilan tugadi. Ular Messeniya aholisini-yillik oladigan hosilining teng yarmini tovon sifatida to'lashga majbur qiladilar. Messeniya yerlarining bir qismi spartaliklar tomonidan o'zaro bo'lishib olinadi. Biroq bu barcha yerga muhtojlarning ehtiyojini qondirish uchun yetarli bo'lmadi. Spartada fuqarolar o'rtasida nizolar va isyonlar boshlanadi.

Shu bilan birga messeniyaliklar spartaliklar hukmronligiga qarshi bosh ko'taradilar. Avvalgisidan kam davom etmagan yangi urush (mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmi) boshlanadi. Messeniyaliklarning mardligi va qahramonligi, shuningdek, Spartaning kuchayib ketayotganidan tashvishga tushgan ayrim Peloponnes davlatlarining yordamiga qaramasdan ular yana mag'lub etiladilar. Bu safar bir nechta periek mavqei berilgan dengizbo'yi shaharlari aholisini hisobga olmaganda aksariyat fuqarolar ilotlarga aylantiriladi va ularga tegishli yerlar spartaliklar ixtiyoriga o'tadi.

Hosildor Messeniya yerlarining egallanishi Sparta hukumatiga o'sib borayotgan agrar inqirozni to'xtatishga yordam beradi. Ikkinchi Messeniya urushidan so'ng chek yer egalari va to'la huquqli fuqarolar miqdori qat'iy tenglashtirish prinsipiga asoslangan yer egaligi tizimi vujudga keladi. Lakonika va Messeniyadagi birmuncha hosildor yerlar daromad keltirishiga, ko'ra bir-biriga yaqinroq bo'lgan 9000 ulush (yer bo'lagi) ga bo'linadi va shunga mos ravishda spartaliklar o'rtasida taqsimlanadi. Keyinchalik Sparta hukumati alohida ulushlar har doim o'zgarishsiz qolishini (masalan uni meros sifatida bo'lib

berish mumkin emas edi) diqqat bilan kuzatadi. Yerlar bilan birga bo'ysundirilgan Lakonika va Messeniya aholisi ilotlar sifatida ularga biriktirilgan. Bunda har bir ulushga bir nechtadan ilot oilasi to'g'ri kelib, o'zining mehnati bilan ulushning xo'jayini va oilasini butun kerakli buyumlar bilan ta'minlashi kerak edi. Har yili ilot o'zining xo'jayiniga arpa doni yoki un, vino, yog'i va boshqa mahsulotlar ko'rinishida obrok to'lagan. Odatda bu norma qonun bilan belgilanib (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u hosilning yarmini tashkil qilgan), spartalik o'z xohishiga ko'ra uni o'zgartirishi mumkin bo'lmagan. Obrokdan ortib qolgan qismini xohishiga qarab ishlatish mumkin bo'lgan. Spartaliklar odatda ularning ishiga aralashmaganlar, ilotlar ham o'z vaqtida to'laganlar. Spartaliklar ilotlarni o'ldirish yoki sotish huquqiga ega bo'lmaganlar, Spartada qullar yer kabi davlat mulki hisoblangan. Shu bilan birga ilotlar o'zlarining yo'qotilgan ozodligini hech qachon unutmaganlar.

Sparta hududidagi arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, mil. avv. VII-VI asrning birinchi yarmida ushbu davlat butun Yunonistondagi eng sezilarli badiiy hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Bu davr Lakonika hunarmandlarining mahsulotlari Afina, Korinf va Evbeya hunarmandlarining eng yaxshi buyumlaridan qolishmagan.

Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida Lakonika maktabi keskin inqirozga uchraydi va butunlay yo'qolib ketadi. Bu davrda chetdan Spartaga o'zga yurt hunarmandlarining buyumlarini kirib kelishiga ham chek qo'yiladi. Shuningdek, katta ibodatxonalar va boshqa me'moriy inshootlar qurilishi ham to'xtatiladi. Ajablanarlisi, mil. avv. VI asr Olimpiada o'yinlarida spartaliklar o'yin g'oliblarining deyarli yarmini tashkil qilgan bo'lsa ham, mazkur o'yinlardan qatnashishdan voz kechishadi. Shu tariqa Sparta uzoq vaqtgacha o'zini-o'zi yakkalab boshqa yunon polislari bilan xo'jalik va madaniy aloqalarni ongli ravishda uzadi.

Messeniya egallanganidan so'ng Sparta jamiyati ko'p minglab ilotlar jamoasi ustidan hukmronlik qiladigan professional jangchi-goplitlar toifasiga aylandi. Spartaning ko'pchiligini tashkil qiladigan ilotlar doimo spartalik bosqinchilarning hukmronligidan ozod bo'lishni o'ylar edilar. Ularni tizimli va shafqatsiz terror

yordamida ushlab turishga urinishgan. Plutarxning ma'lumotlariga ko'ra, Sparta hukumati vaqti-vaqti bilan ilotlar qirg'inini uyushtirib turgan. Bunday turdagi operatsiyalar "kriptiya" (yunonchada "kriptos" – "yashirin", "sirli") deb nomlangan.

Doimiy ilotlar qo'zg'oloni xavfi Sparta hukmron tabaqasidan yuqori darajada birdamlik va hamjihatlilikni talab qilgan. Shuning uchun yer islohoti bilan birga Sparta qonun chiqaruvchisi Likurg tomonidan tarixga Likurg qonunlari nomi bilan kirgan bir qator muhim ijtimoiy islohotlar o'tkaziladi. Bu islohotlar Sparta davlati qiyofasini o'zgartirib, uni qat'iy tartib-intizomga bo'ysungan yagona harbiy lagerga aylantiradi. Spartada Likurg qonunlariga so'zsiz amal qilganlargina to'la huquqli fuqarolar hisoblangan. Ushbu qonunlarda Sparta fuqarolari amal qilish kerak bo'lgan ko'ylagining andozasidan tortib, soqol va mo'ylov shakli kabi eng mayda detallargacha belgilab qo'yilgan edi.

Qonun har bir spartalikka yetti yoshga to'lgan o'g'lini maxsus lager-agellarga (ma'nosi "poda") berish majburiyatini yuklagan. U yerda chidamlilik, kattalarga xurmat, ayyorlik, shafqatsizlik, buyruq bera olish qobiliyati va boshqa "haqiqiy spartalikka" xos bo'lgan sifatlar o'rgatilgan.

Bu kabi tartib-qoidalar Sparta davlatini mustahkam jamoaga aylantirib, o'ziga xos tarix sinovlariga bardosh berishiga olib kelgan. Masalan, mil. avv. 464-yildagi buyuk ilotlar qo'zg'oloni yoki mil. avv. 431-404-yillardagi Peloponnes urushlarida doimiy harbiy tayyorgarliklar o'z mevasini beradi. Mashhur Sparta falangasi (og'ir qurolangan piyodalar) uzoq vaqtgacha kurash maydonlarida engilmagan. Mil. avv. VI asrning o'rtalaridayoq Sparta Peloponnes davlatlari o'rtasida gegemonlik o'rnatib, Peloponnes ittifoqiga asos solgan edi.

Keyinchalik spartaliklar boshqa yunon davlatlariga ham o'z ta'sirini yoyishga urindilar. Biroq Spartaning buyuk davlatchilik uchun bo'lgan da'volari faqatgina harbiy kuchga asoslangan edi. U madaniy va iqtisodiy jihatdan boshqa yunon polislaridan ancha ortda qolgan. Siyosiy biqiqlik va tashqi dunyoga dushmanona kayfiyat, demokratik qarashlardagi Yunonistonda unga qarshi noroziliklarni keltirib chiqargan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yunon polisilarining shakllanish shart-sharoitlari, asosiy sabablari va shakllanish omillarini quyidagicha izohlash o'rinlidir.

Birinchidan, temirdan foydalanishning rivojlanishi va keng tarqalishi dehqonchilikka qaraganda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning tezroq sur'atlarini rivojlanishini belgiladi, tovar ishlab chiqarishning paydo bo'lishiga shart-sharoitlar yaratdi. Temir tom ma'noda iqtisodiyotda-kichik va o'rta dehqonlar va hunarmandlar yashovchan iqtisodiyotni rivojlantirishga, ijtimoiy-siyosiy hayotda esa xarbiylarning temir qurollar bilan qurollanishga buning natijasida ularning siyosiy hayotda o'z mavqeini mustahkamlanishiga olib keldi. Bu albatta o'sha davrining inqilobi deb aytish mumkin edi.

Ikiknchidan, tashqi omil yani Yunonistonning bu davrdagi rivojlanishi tashqi aralashuvsiz - Sharq davlatlari o'rtasidagi to'qnashuvlardan holi bo'ldi. Uzoq muddat mintaqadagi barqaror vaziyat polis tizimining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Uchunchidan, tabiiy sharoit - Yunonistonning landshafti va Bolqon yarim orolida katta daryolarning yo'qligi butun iqtisodiy hayotni boshqaradigan katta ma'muriy apparatga ega kuchli Markaziy hukumat tuzishni talab qilmadi. Shuning uchun Gretsiyadagi jamoalar iqtisodiy, ijtimoiy va ijtimoiy hayotda mustaqil ravishda rivojlandi.

To'rtinchidan, aristokratiya va demoslarning kurash jarayonida erishilgan murosasi. Avom (demos) va ajdodlar zodagonlari (aristokratiya) kurashi natijasida o'ziga xos ijtimoiy murosaga erishildi, unda har ikki tomon chet el qullaridan shakllangan yangi ijtimoiy tartibga kelishib oldilar. Demos aristokratiya hukmronligini yanchib tashlaganiga qaramay, unga o'zi yon berdi, shu tufayli jamiyatda qonuniylik va rozilik tamoyillari o'rnatildi.

Beshinchidan, Buyuk yunon mustamlakasi- o'ziga xos tarixiy hodisa sifatida paydo bo'lgan siyosatning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan va siyosatning butun dunyo bo'ylab tarqalishidagi eng muhim omillardan biri hamda ichki muammolarni hal qilish yo'llaridan biriga aylangan. Mustamlakachilik tufayli yunonlar avj olgan ijtimoiy vaziyatni izdan chiqarib, odamlar soni va bu aholi

mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan hududning kattaligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlay oldilar.

GLOSSARIY

Aristokratiya – aslzoda, Yuqori qatlam.

Apoykiya – mil. avv. VIII-VI asrlarda Qadimgi Yunonistonda buyuk ko'chishlar jarayonida yunonlar o'z polislari tarixini va madaniyatini unutmagan holda mustaqil polislarga asos solganlar. Shu polislarni apoykiya deb ataganlar

Pitekussa – Janubiy Italiyadagi Yunon koloniyasi.

Arxaget – Sparta podshosiga nisbatan ishlatilgan atama: (basiley ham deyilgan).

Apella – Spartada 30 yoshga yetgan erkaklarning xalq yig'ini. Urush va sulh masalalari hal qilingan.

Gerusiya – Sparta davlatining oliy aslzodalik tashkiloti – oqsoqollari kengashi.

4-MAVZU MAVZU: ATTIKA XO'JALIGI, IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI

Reja:

1. **Attika jamiyati.**
2. **Drakon va Solon islohotlari.**
3. **Pisistrat tiraniyasi.**
4. **Klisfen qonunchiligi. Polis demokratiyasini tashkil topishi.**

Attika jamiyati. Attika uchburchakning shaklida bo'lib, O'rta Yunonistonning janubiy-sharqiy qismida joylashgan viloyat. Sharqdan va janubdan uning yerlari Egey dengizining suvlari bilan yuvilgan. Attikaning maydoni 2250 km kv bo'lib, maydoni bo'yicha Spartadan keyingi o'rinda turgan. Barcha tomonlari dengiz va tog'lar bilan o'ralgan Attika dehqonchilik uchun noqulay bo'lib, unumdor yer kam bo'lgan. Tuproq g'alla ekinlarini yetishtirish uchun mos bo'lmagan, shuning uchun afinaliklar doimo non yetishmovchiligini sezgan va donni chetdan olib kirishga majbur bo'lganlar. Shu bilan birga, zaytun daraxtlarini yetishtirish uchun sharoit juda qulay edi. Zaytun Afinaning asosiy xazinalaridan biri bo'lgan. Zaytun daraxtining Afina ma'budasi Afina homiysining muqaddas ramzi sifatida hurmat qilinishi bejiz emas.

Yunoniston bo'yicha Attika minerallarga boy edi. Mintaqaning janubida, Lavriyada kumushning yirik konlari bo'lgan. Ushbu konlar jadal rivojlana boshlagach, klassik davrda Afinaning iqtisodiy farovonligining asosiy omillaridan biriga aylandi. Kumush konlari, marmarning mo'l-ko'lligi savdo-hunarmandchilikning ilk taraqqiyotiga yordam berdi.

Yunonistonning markaziy viloyatlaridan biri bo'lgan Attika atrofi suv bilan o'ralgan bo'lganligi dengizchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Dastlab Attika aholisi kichik qishloqlarda yashagan. Keyinchalik esa ular qoyatosh bag'rida joylashgan Afina akropoli markazi bo'lgan shahar atrofida birlashdilar. Attikaning qadimgi aholisi bo'lgan ioniylar va pelasglarga doriylarning ko'chishi ta'sir qilmadi. Attika doriylar hujumini qaytardi. Attikada doriylar

Peloponnesdan haydab yuborgan axeylarning bir qismi panoh topdi. Attikada yunon tilining ioniy shevasida so'zlashadigan qabilalar guruhi to'rt urug' yoki qabila (fila)ga bo'lingan edi. Har bir fila bir necha o'nlab urug'lardan iborat bo'lgan uch fratriyaga bo'lingan. Gomer davrida Attika aholisini urug' zodagonlaridan chiqqan yo'lboshchi basileylar boshqargan. Basileylar oliy hukmdor, sudya, kohin va harbiy boshliq vazifasini bajarganlar. Boshqa yunon polislarida bo'lganidek, basileylar huzurida Afinada oqsoqollar kengashi – areopag bor edi. Afsonalarga ko'ra, Afina aholisini birlashtirgan afsonaviy Tesey aholini uch guruhga bo'ladi: yer egalari – yevpatridlar, dehqonlar – geomorlar va hunarmandlar – demiurglar. Attika viloyati 12 ta alohida hudud – qabila okruglariga bo'lingan. Ularning markazlari Afina, Torika, Marafon, Afidna bo'lgan. Mil. avv. VIII asr davomida xo'jalik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi natijasida yevpatridlar basileylar-ning huquqini asta-sekin cheklay boshladilar. Ular o'zlarining ichidan arxontlar (oqsoqollar)ni saylay boshlaydilar. Basileylarning boshqaruv vakolatlari harbiy arxont (boshliq, sudya)ga o'ta boshladi. Natijada basileylarga faqat kohinlik vazifasi qoldi va u saylana boshlandi. Shunday qilib, Afinada hokimiyatni yevpatridlar orasidan har-yili saylanadigan 9 arxont boshqara boshladi. Ularning o'rtasida ijroiya, harbiy va sud hokimiyati taqsimlangan edi.-yil davomida arxont vazifasini bajargan yevpatridlar o'z o'rinlarini yangi saylanganlarga bo'shatib berib, o'zlari areopagning umrbod a'zolari bo'lib qolar edilar. Areopag mil. avv. VIII–VII asrlarda eng obro'li hokimiyat organi bo'lgan. Yevpatridlar kolonizatsiya va dengiz savdosida faol qatnashdilar.

Mil. avv. VIII asrdan qishloq jamoalarida yer oilalarga bo'lib berildi. Yer xususiy mulkka aylanib, asosan mayda dehqon xo'jaligi paydo bo'ldi. G'allachilik, uzumchilik, zaytun daraxtlarini ekish dehqon xo'jaligining asosoiy mashg'uloti bo'ldi. Asta-sekin ishbilarmon dehqonlar, urug' oqsoqollari mayda dehqonlarning yerlarini turli yo'llar bilan bosib ola boshladilar. Qarzga botgan kambag'al dehqonlar yerlaridan ajralib, qarzlari uchun qullikka tushib qoldilar. Yeri bo'lmagan yoki yeridan ajralgan bir qism dehqonlar hunarmandchilik bilan shug'ullandilar. Kulolchilik



5-rasm. Yunon gopliti

sohasi, metallga ishlov berish, qayiq yasash va boshqa sohalar rivojlandi. Ikki-uch kishi ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalari paydo bo'ldi. Bu ustaxonalarning barchasi katta-kichik shaharlarda to'plandi, ichki va tashqi savdo rivojlandi.

Savdo, hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan aholi orasida ham tabaqalanish kuchayib, boy, o'rta va mayda savdogar, hunarmandga ajraldi. Dehqonlar, hunarmand-savdogarlar yollanib ishlaydigan demos (xalq) aholining asosoiy qismini tashkil qildi. Demos ichidan boy dehqonlar, boy tadbirkor hunarmand-savdogarlar, kema egalari ajralib chiqdi. Dastlab polislarda hokimiyatni egallab olgan katta yer egalari – zodagon yevpatridlar o'z mavqelarini yo'qota boshladilar. Yunon polislarida mil. avv. VII asrda o'tkazilgan harbiy islohotlar natijasida zodagonlarning jang aravalari va otliq qism o'rniga polisning o'ziga tog' aholisi demosdan shakllantiriladigan og'ir qurollangan piyoda goplitlar paydo bo'ldi. Natijada zodagonlar polisning harbiy tashkilotida o'zlarining avvalgi imtiyozli mavqelaridan mahrum bo'ldilar. Endilikda demos boy yunon polis-davlatlarining iqtisodiy-siyosiy hayotida muhim o'rinni egallay boshladi. Bu yangi qatlam hokimiyatni bosib olgan urug' zodagonlari bilan hokimiyat uchun kurashga kirishdi. Tovar ishlab chiqarish, savdo, hunarmandchilik tez rivojlanishi natijasida Attikada demos o'z haq-huquqi uchun harakatga keldi. Attikada dehqonlarni qarzga botish jarayoni kuchayib ketdi va natijada qarzi uchun qul qilish odatdagi holga aylanib qoldi.

Attikada davlatchilik institutlari Peloponnesning turli viloyatlariga nisbatan erta shakllana boshlagan bo'lsa ham Afina faqatgina katta va qudratli davlat birlashmasi bo'lib qolmasdan, polis Yunonistonining ramzi, klassik davrdagi Elladaning markaziga aylandi.

Attikada polis tizimi urug' muassasalarining doimiy ichki transformatsiyasi orqali sodir bo'ldi.

Arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, Attikada neolit davridayoq aholi istiqomat qilgan. Uning hududida mil. avv. 2 ming yillik oxirida qadimgi podsholik shakllangan. Peloponnesda qabilalarning jiddiy ko'chishlariga sabab bo'lgan doriylar bosqini Attikaga unchalik ta'sir o'tkazmagan. Doriylar Attikaga suqilib kira olmaganlar, bu yerda asosan qadimgi aholi (ioniylar va pelasglar) yashagan. Shu bilan birga Attikada Peloponnesdan siqib chiqarilgan ba'zi axey qabilalari ham boshpana topgan. Bu elementlardan mil. avv. 1 ming-yillik boshlarida yunon tilining ioniy lahjasida gaplashadigan Afina qabila guruhlari paydo bo'ladi. Gomer davrida Attika hududida basileylar va oqsoqollar kengashi tomonidan boshqarilgan mustaqil urug' jamoalar bo'lgan. Aholi qon-qarindoshchilik belgilari bo'yicha 4 fila (qabila), u esa o'z navbatida 3 ta fratriyadan tashkil topgan. Har bir fratriyada bir necha o'nlab urug'lar mavjud bo'lgan.

Attikada boshqa yunon viloyatlarida bo'lganidek, mil. avv. IX-VIII asrlarda urug' jamoa munosabatlari yemirilib, ilk davlatchilik belgilari paydo bo'ladi. Attikada polis tizimini paydo bo'lishi boshqa urug' manzilgohlar ichida Afinani yuksalishiga imkon beradi. Afinada sifatli gil tuproq bo'lgan va u kulolchilikni rivojlanishi uchun katta turtki bergan. Mazkur tuproqlar Afinadagi Dipilon rayonidan topilgani uchun Dipilon ko'zalari deb nomlanib, butun Yunonistonda mashhur bo'lgan.


Afina dengizdan 5 km uzoqlikda joylashib, qaroqchilarning hujumidan pana bo'lgan qoyali Akropolda joylashganligi Attikani boshqa manzilgohlariga nisbatan aholining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Afina atrofida Attikadagi barcha urug' jamoalar, ularning bir qismi ko'ngilli, bir qismi majburiy ravishda qo'shilish jarayoniga (sinoykizm) jalb qilinadi. Bunday birlashuvni rivoyatlarga ko'ra Afina qahramoni Tesey oxiriga etkazadi. Tesey butun urug' manzilgohlaridagi boshqaruv organlarini yo'q qiladi. Butun Attikada barcha ishlar bilan Afinada joylashgan basileylardan iborat oqsoqollar kengashi shug'ullana boshlaydi. Mahalliy xudo Afina – shahar homiysi sifatida Attika xudosiga aylanadi. Uning

sharafiga Panafin diniy bayrami ta'sis qilinib, mahalliy aholi uni tantanali nishonlaydigan bo'ldi. Afinaga boshqa manzilgohlardan ko'plab urug' zodagonlarining ko'chib kelishi shahar aholisining ko'payishiga olib keladi.

Mulkiy va xo'jalik jihatdan tabaqalanish Afina jamiyatini uchta ijtimoiy guruhga ajralishiga olib keladi: yevpatridlar nomini olgan urug' zodagonlari, aholining asosiy qismi bo'lgan dehqon-geomorlar va hunarmand - demiurglar. Siyosiy sohada basileylar - qabila sardorlari o'z o'rnini arxontlarga bo'shatib beradi. Oqsoqollar yig'ini bo'lsa o'z muddatini bajarib bo'lgan arxontlardan iborat Areopag yig'ini yoki Areopagga aylanadi. Garchi arxontlar va Areopag urug' zodagonlari orasidan shakllantirilgan bo'lsa ham yangi lavozimlar va yangi yig'in urug' tizimining an'anaviy organlariga zarba beradi.

Mil. avv. VIII-VII asrlarda shakllanayotgan Afina polisida yetakchi rolni urug' zodagonlari - yevpatridlar egallaydi. Avval barcha qabiladoshlarga tegishli bo'lgan ko'plab yerlar zodagonlar tomonidan o'zlashtirib olinadi. Yeridan ajralgan qarindoshlarning aksariyat qismi qashshoqlashadi va yevpatridlarga qaram bo'lib qoladi. O'sha davr an'analariga ko'ra urug' tartiblari, ya'ni huquq qoidalari yozilmagan, bu esa zodagonlarning o'z manfaatlarini suiste'mol qilishlariga sabab bo'lgan. Yevpatridlar urug' munosabatlari qoldiqlaridan yangi sharoitlarda o'z hukmronliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida foydalanganlar.



6-rasm. Qadimgi Afinadagi Drakon qonunlari

Drakont va Solon islohotlari.

Drakont islohotlari. Urug' muassasalariga eng katta zarba Afinadagi mavjud huquq normalarini mil. avv. 621-yilda arxont Drakont tomonidan yozma holga keltirishi bo'ladi. Drakont faqatgina qadimgi davrlardan yetib kelayotgan amaldagi huquqni yozib qolmay, balki qonunchilikka o'sha davr ijtimoiy iqtisodiy vaziyatini aks ettiradigan

bir qator yangi qonunlarni ham qo'shadi. Drakont qonunlari bo'yicha qadimgi xun olish bekor qilinadi. Yangi sud tizimi kiritiladi, qasddan va ehtiyotsizlik tufayli yuz bergan qotillik o'rtasidagi farq o'rnatiladi. Qonunlar shaxsiy mulk huquqini mustahkamlab, shaxsiy mulkka ko'z olaytirishga (u tomorqadan sabzavot o'g'irlash bo'ladimi yoki yer maydonini o'zlashtirib olish bo'ladimi) eng oliy jazo o'lim belgilanadi. Bunday qat'iy tartib qoidalar o'sha davrda shakllanayotgan shaxsiy mulkni urug' tuzumidagi jamoa munosabatlari institutidan himoya qilish edi.

Drakont qonunchiligi yangi davlatchilik tartiblarining o'rnatilishi va fuqarolarni qattiq ekspluatatsiya qilishdan manfaatdor bo'lgan yevpatridlarning yirik g'alabasi edi.

Biroq Afina aholisining asosiy qismi og'ir ahvolda yashashda davom etdi. Chunki, jamoa boyligining asosi bo'lgan yer, iqtisodiy hayotning dastagi yevpatridlar qo'lida edi. Bu esa Afina fuqarolari o'rtasida o'tkir norozilikni keltirib chiqaradi. "Bundan so'ng uzoq vaqtgacha zodagonlar va xalq o'rtasida nizolar kelib chiqadi", deb yozgan edi, Aristotel. Bu davlatchilik tizimi oligarxik ko'rinish olgan edi. Asosiysi kambag'allar faqat o'zlari emas, balki xotin bolalari bilan qullikka tushib qoladilar. Ular pelatlar deb atalib, hosilning 1/6 qismi yoki 17% evaziga boylarning yerlarida mehnat qilganlar. Yerlarning deyarli barchasi ozchilik qo'lida edi. Agar ijara to'lovlarini to'lamasa o'zini yoki bolalarini qul sifatida olib ketishlari mukin edi. Bu holat Solon davrigacha davom etadi.

Afinada mil. avv. VII asrda ijtimoiy qarama-qarshilik shu qadar murakkab ko'rinish oldiki, bundan qonli to'qnashuvlar xavfi kelib chiqadi. Bunday murakkab sharoitlarda yevpatridlar yon berib Solonni arxont sifatida saylashga majbur bo'ladilar. Unga vaziyatni mo''tadillashtirishdan iborat bo'lgan og'ir vazifani yuklaydilar (mil. avv. 594-yil).

Solon islohotlari. Solon atoqli siyosiy arbob, mutaffakkir va shoir bo'lgan. U yuzaga kelgan ijtimoiy iqtisodiy vaziyatning murakkabligini yaxshi tushungan. Solon kelib chiqishiga ko'ra yevpatrid bo'lib, savdo-sotiq bilan shug'ulangan va Afina savdo-hunarmandchilik qatlamining ehtiyojlarini yaxshi bilgan. U urug' munosabatlari qoldiqlariga tayanib qullik va ekspualatatsiya hisobiga quvonib yashaydigan zodagon yer egalari Afinaning

iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga to'siq bo'layotgani, ichki hayotda portlash xavfini keltirib chiqarayotganini teran his qilib turardi. Solon Afinaning yorqin kelajagini iqtisodiyotni umumiy jonlantirish, yer egaligini takomillashtirish, hunarmandchilik ishlab chiqarishini keng yoyish, savdo-sotiqni kengaytirish, Afina o'rta tabaqasining xo'jalik va savdo-hunarmandchilik faoliyati uchun kafolatlarni yaratish, davlatchilik tartiblarini yangilash va siyosiy hayotga aholining keng qatlamlarini jalb qilish kabilarda ko'radi.

Katta vakolatlar bilan arxontlikka saylangan Solon o'zining Afina davlatchilik va jamiyat tizimini isloh qilishga qaratilgan dasturini amalga oshirishga kirishadi. Solon islohotlari deyarli Afina jamiyatining barcha sohalarini qamrab oladi: iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy tizim, harbiy ish va davlat boshqaruvi.

Iqtisodiy sohada Afina xo'jaligini umumiy faollashtirish choralarini ko'radi. Odatda, qurg'oqchilikdan jabr chekadigan Attika hududida suv bilan ta'minlash tizimini tartibga keltirishga harakat qiladi. Zaytun yetishtirishni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi: zaytunni Attika hududidan eksport qilishga ruxsat beriladi. O'z navbatida donni olib chiqib ketish qonun yo'li bilan taqiqlanadi. Zaytun daraxtlarini o'tqazish va qayta ishlash tartibga solinadi. Ko'rilgan choralar natijasida Attikada yog' ishlab chiqarish qishloq xo'jaligining serdaromad va gullab-yashnagan sohasiga aylangan. Afina zaytun yog'i mashhurligi jihatidan butun yunon dunyosida qadrlangan.

Solon savdo-sotiqni yanada rivojlantirishga qulay sharoitlar yaratish uchun arxaik fidon og'irlik va uzunlik o'lchov birligi va beso'naqay Egina pul tizimi o'rniga birmuncha qulay va Egey havzasida keng tarqalgan Evbeya og'irlik va pul tizimini joriy qiladi.

Solon Afina jamiyati ichida Afinaning iqtisodiy taraqqiyotiga butun diqqat e'tiborni jamlash uchun bir qator dabdabalar va ishlab chiqarishga yo'naltirilmagan harajatlarga qarshi faol kurash olib boradi. Qimmatbaho dafnlar, maqsadsiz ko'p miqdorda hayvonlarni qurbonlikka keltirish, hashamatli maqbaralar qurish ta'qiqlanadi.

Solon islohotlarining eng muhim jihatlaridan biri Afinaning erkin tub aholisini 4 toifaga ajratgani bo'ldi. Bular eng ko'p daaromadga ega bo'lgan-pentakosiomedlar, ikkinchi toifa otliqlar, uchinchi toifa zevgitlar, to'rtinchi eng quyi toifa fetlar edi. Kishilarni ma'lum bir toifaga tegishliligiga qarab huquq va majburiyatlar belgilangan edi. Birinchi va ikkinchi toifa vakillari otliq qo'shinda xizmat qilgan, yuqori lavozimlarga saylangan, zevgitlar og'ir qurolli piyoda qo'shinlarga chaqirilgan, fetlar faqat Xalq yig'inida ovoz berganlar.

Solon islohotlarning yana bir muhim jihati qarz munosabatlari bo'yicha edi. Avvalo, barcha qarzlar bekor qilinib qarz toshlari olib tashlanadi. Bir vaqtning o'zida qarz evaziga qullik bekor qilinadi. Qarz toshlarining olib tashlanishi va qarz evaziga qullikni bekor qilinishi zodagonlarga berilgan katta zarba bo'ladi. Solon o'rta toifa vakillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qarz foizlariga ham cheklovlar kiritdi. Bu keskin choralar Afina dehqonlarining asosiy qismini iqtisodiy holatini mustahkamlab, ularning umumiy farovonligiga xizmat qilishi kerak edi.

Harbiy siyosiy sohada ham muhim o'zgartirishlar amalga oshirildi. Qo'shindagi Afina jamiyatini to'rt toifaga bo'linishi o'zaro bir-biri bilan chamcharchas bog'liq bo'ldi. Endilikda harbiy tuzilishning asosini zevgitlardan iborat bo'lgan og'ir piyoda goplitlar tashkil etardi.

Solon tomonidan amalga oshirilgan chora- tadbirlar natijasida Xalq yig'inining faoliyati yanada faollashadi. Xalq yig'inida muhim davlat ishlari muhokama qilinadigan, zodagonlarga qarshi qonunlar qabul qilinadigan bo'ladi. Solon xalq yig'ini ishlarini yaxshi tashkillashtirish maqsadida 400 kishidan iborat yangi Kengash (har bir filadan 100 kishi) ta'sis qiladi. U Xalq yig'iniga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qilib, bir qator muhim boshqaruv ishlarini muhokama qilardi. Xalq yig'ini rolining oshishi va 400 lar Kengashining ta'sis qilinishi Aristokratik kengash Areopag vazifalarining cheklanishiga olib keladi. Yangi davlat organi gelieya ko'p sonli sud jamoasi bo'lib, barcha fuqarolardan, shu jumladan, fetlardan ham saylangan. Gelieya boshqa davlat organlari ichida eng demokratiga aylanadi. Politsiya vazifasini 11 kishidan iborat jamoa bajargan. Solon islohotlarining asosiy

mohiyati shunda ediki, unda demosning keng qatlamlari ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Keyinchalik u demokratiya nomini oladi. Solon mil. avv. V-IV asrlarda o'z rivojiga erishgan Afina demokratiyasiga asos soladi.

Solon islohotlari polis demokratiyasi asosiga tamal toshini qo'ydi, lekin qisqa muddatda urug' tuzumining barcha qoldiqlarini ildizi bilan sug'urib tashlashga hamda zodagonlar hukmronligiga to'la barham bera olmadi. Demos va zodagonlar o'rtasidagi kurash Solon islohotlaridan keyin ham davom etdi, lekin u endilikda yangi mazmun kasb etdi. Solondan so'ng Afinada urug' zodagonlari vakillari boshchilik qilgan uchta siyosiy guruh shakllanadi: Likurg boshchiligidagi pedieylar, Megakl boshchiligidagi paraliylar va Pisistrat boshchiligidagi diakriylar. Ular urug' zodagonlarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan guruhlar edi.

Siyosiy guruhlar o'rtasidagi o'tkir kurashlar Pisistrat boshchiligidagi diakriylarning g'alabasi bilan tugadi. U mil. avv. 560-yilda Afinani egallaydi va o'zini polisning oliy hukmdori deb e'lon qiladi. Uning vazifasi o'zining hokimiyati mustahkamligini ta'minlash va uni qo'llab-quvvatlagan ijtimoiy guruhlar va urug' zodagonlarning manfaatlarini himoya qilish edi.

Pisistrat o'zi boshqargan tuzumni aholining turli qatlamlari – dehqonlar, savdogar-hunarmandlar toifasi, zodagonlarning bir qismining ehtiyojlarini ta'minlaydigan jamiyat sifatida ko'rsatishni istardi. Pisistrat dehqonlarga g'amxo'rlik qilib, ularga dehqonchilik ishlari uchun qulay foizli qarzlar taqdim etadi. Dehqonlarni qishloq xo'jalik ishlaridan chalg'itmagan holda yuzaga kelgan bahslarni hal qilish uchun sayyor sudlar tashkil qildi. Pisistrat og'ir ishlar o'rniga o'zining g'aznasiga hosilning 10 %i miqdorida soliq joriy qildi.

Uning davrida Afinada keng qurilish ishlari boshlanadi: Akropolda Afina ibodatxonasi, Zevs va Apollon ibodatxonalari qurilishi boshlanadi. Shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun vodoprovod olib kelinadi. Pisistrat Egey havzasida faol siyosat olib boradi, dengiz savdosini kengaytiradi. Bu esa kemasozlikni rivojlanishiga olib keladi. Pisistrat davriga kelib mashhur ko'zalardagi qora rang nisbatan ko'rkamroq bo'lgan qizil rangga

o'zgaradi. Bu esa kulolchilik ishlab chiqarishiga katta turtki beradi. Keramika – kulollar mavzesida yangi ustaxonalar ochiladi.

Pisistrat o'ziga raqib zodagonlarning yerlarini musodara qilib ularning bir qismini kambag'al dehqonlarga bo'lib beradi. Lekin urug' zodagonlarining aksariyat qismi o'zining boyliklarini saqlab qoladi. Ular boshqalarga ta'sir ko'rsatish bilan tiran foydasiga harakat qilishi lozim edi.

Pisistrat saroyga yunon adabiyoti va san'atining yorqin namoyondalarini taklif qiladi. U ommaviy bayramlarni tashkillashtirish uchun pullarni ayamaydi. Uning davrida Afina va Dionis xudolariga bag'ishlab o'tkaziladigan bayramlar umumattika, umumdavlat miqyosiga ko'tariladi va juda tantanali o'tadi.

Afina tiranlarining tashqi siyosati ham muvaffaqiyatli va keng miqyosli bo'ladi. Uning asosiy maqsadi dengiz qo'ltiqlari va Qora dengizgacha olib boradigan muhim punktlar ustidan nazorat o'rnatish edi. Pisistrat Frakiya sohillarida joylashgan Pangeyadagi boy konlarni egallashga muvaffaq bo'ladi, afinaliklar Lemnos va Imbrosga o'rnashadilar. Gellespontga kirishdan uzoqda bo'lmagan Osiyo qirg'og'idagi Sigey ham bosib olinadi. Yevpatridlardan biri Miltiad Frakiya Xersonesini egallaydi.

Pisistratning o'g'illari Gippiy va Gipparxlar mil. avv. 527-yilda otasining o'limidan so'ng uning siyosatini davom ettirdilar. Lekin ular hokimiyatni o'z qo'llarida tutib tura olmadilar. Mil. avv. 514-yili fitna natijasida Gipparx o'ldiriladi, Gippiy bo'lsa umumiy norozilikni keltirib chiqargan shafqatsiz rejimni kuchaytiradi. Afinaning tashqi siyosiy holati ham yomonlashadi. Ulkan Ahamoniylar imperiyasi Kichik Osiyodagi barcha yunon shaharlari va Egey havzasidagi orollarning katta qismini bosib oladi. Afinaliklar Frakiya Xersonesidan ketishga majbur bo'ladilar. Pisistratlar tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklaridan raqib alkmeonidlar foydalanib, kuch yig'ishni boshladilar va Afinadagi tiraniyaga qarshi chiqadilar. Ular Delfiya orakullari va Spartani o'z tarafiga og'dirib oladilar. Sparta podshosi Kleomen kuchli qo'shin bilan Attikaga bostirib kiradi va himoyalangan Akropolni qamal qiladi. Har qanday yordamdan mahrum bo'lgan Gippiy taslim

bo'ladi va Eronga qochib ketadi. Mil. avv. 510-yilda Afinada tiraniya qulaydi.

Pisistrat va uning o'g'illarining tiraniyasi kam davom etgan bo'lsa ham Afinaning rivojida muhim o'rin tutadi. Garchi tiranlar ma'lum darajada o'z manfaatlarini o'ylab ish tutgan bo'lsalarda, ularning siyosati aholining keng qatlamlari tomonidan iliq qarshi olindi. U Afina jamiyatining iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy tinchligi, iqtisodiy va madaniy rivojiga sabab bo'lgan edi. Tiranlar Solon qonunchiligini bekor qilmadilar va jamiyatda Solon tomonidan asos solingan polis tartiblari mustahkamlanishda davom etdi.

Klisfen qonunchiligi. Polis demokratiyasining tashkil topishi. Gippiy tiraniyasining ag'darilishi ichki kurashni keltirib chiqardi. Natijada Afina rahbarligiga Alkmeoniylar urug'i keladi. Uning vakili Klisfen urug' munosabatlarni ildizi bilan sug'urib tashlashga qaratilgan va polis qurilishini demokratik ko'rinishda rasmiylashtirishni nazarda tutgan islohotlar dasturi bilan chiqadi.

Islohotlarda Attikani ma'muriy jihatdan yangi bo'linishiga e'tibor qaratiladi. Gap shunda ediki Attikaning an'anaviy bo'linishi filalar, fratriya va urug'larga bog'liq edi. Klisfen bu tizimni ildizi bilan yo'qotib tashlashga harakat qiladi. Butun Attika hududi har bir uch rayondan iborat 10 ta viloyatga bo'linadi. Har bir rayon (trittiy) quyi ma'muriy birlik bo'lgan demlardan iborat edi. Har 10 ta viloyatning biri o'zida yaxlit hududni aks ettirmagan. Ular Attikaning turli joylarida (biri Afinaning shahar qismida, boshqasi dengizbo'yi qismida, uchinchisi Attikaning ichki qismida) joylashgan edi. Avvalgi urug' jamoalari turli dem, trittiy va filalarga sochilib ketadi.

Mil. avv. VI asr oxirida Afina yirik va ko'p sonli aholiga ega shahar markaziga aylanadi. Bu yerda yirik ustaxona egalari, qullar, matroslar va eshkakchilardan tortib turli xil kishilar yashagan. Bu yirik markazda kelib chiqishi boshqa yunon shaharlari – Milet, Megara, Samos, Sigey, Korinf va boshqalardan bo'lgan hamda doimiy aholiga aylangan kishilar ham bo'lgan. Bu kishilar meteklar toifasini to'ldirib, afinaliklardan fuqarolik huquqlari yo'qligi bilan farqlangan. Masalan, ular xalq yig'inida

qatnashmagan, yer maydonlariga ega bo'lmagan, lekin ustaxona ochishi yoki kema sotib olishi mumkin bo'lgan.

Shahar aholisini eski aristokratiyaga qarshi qo'yish va uning siyosiy ahamiyatini oshirish uchun Klisfen yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanadi. Yangi filalarni tashkil qilib, fuqarolarning tarkibiga sezilarli miqdorda ozod qilingan qullar va meteklarni kiritadi.

Solon davridan beri ko'plab yersiz dehqonlar mavjudligi sababli, davom etib kelayotgan agrar muammoni hal qiladi. Klisfen metek va qullarni yer sotib olishi mumkin bo'lgan qatlam tarkibiga kiritadi.

Klisfen yangi hududiy bo'linish prinsipini o'rnatib, polisning hokimiyat organlari tizimini ham shunga moslashtiradi. Eski urug' filalaridan tashkil topgan 400 lar kengashi tarqatib yuboriladi. Uning o'rniga har bir yangi filadan 50 kishi kirgan 500 lar kengashi ta'sis qilinadi. Filalar ichida 500 lar kengashiga nomzodlar demlar va trittiya asosida saylab olingan. Yangi lavozimlar apodekt (turli badallar yig'uvchilar, ularning soni 10 ta bo'lgan) va strateglar (10 harbiy qo'mondonlar) joriy qilingan.

Yangi 500 lar kengashining vakolatlari kengaytirilib, u doimiy ko'rinish oladi va faqatgina Xalq yig'iniga masalalarni tayyorlab qolmasdan boshqaruv ishlari bilan ham shug'ullangan. Aristokratik Areopagning funksiyalari cheklanadi va u bora-bora siyosiy mavqeini yo'qotib, oddiy sud bo'g'iniga aylanadi.

Klisfen qonunchiligi va uning tarafdorlari Solon davrida boshlangan Afina jamiyatini isloh qilish ishlarini yakunlagan. Klisfen qonunlari mil. avv. VIII asrda boshlangan Attikaning demokratik ko'rinishidagi davlat va jamiyat shakllanishini yakunlab beradi.

Afina davlatini yanada demokratlashtirish uchun Femistokl, Efialt, Perikl islohotlari. Miloddan avvalgi V asrning boshlarida demokratik harakat boshida arxontlarning to'g'ridan-to'g'ri saylovlari qur'a tashlash bilan almashtirildi. Otliqlar arxont etib saylanish huquqini oldilar. Ushbu islohot urushlar paytida strateglar jamoasining o'sishi bilan bog'liq edi. Arxontlar jamoasining qadr-qimmati pasaytirildi; u o'zining aristokratik xususiyatini yo'qotdi. Yagona imtiyozli organ Areopag bo'lib,

partiya o'z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun undan foydalanishga harakat qildi. Femistokl taklifiga binoan Efialt Areopagning ba'zi a'zolarining korrupsiyasi aybladi. Bu bilan ular aeropagni hurmatsizlantirmoqchi, a'zolarini ishonchsizlikda ayblamoqchi edi. Aeropag a'zolarining jinoyatlari tasdiqlanishi bilan, miloddan avvalgi 462-yilda Milliy Majlis Areopagni siyosiy hokimiyatdan mahrum qiluvchi qonun qabul qildi. Xalq yig'ilishining qarorlariga veto qo'yish huquqi geliyaga, mansabdor shaxslarni nazorat qilish va qonunlarning bajarilishini nazorat qilish huquqi xalq yig'ilishiga besh yuzlar kengashi berildi.

Efialt mansabdor shaxslarning hisobot tizimini o'zgartirdi. Endi Afinaning har qanday fuqarosi magistratura tomonidan hisobot topshirgandan so'ng, istefoga chiqayotgan shaxs ustidan shikoyat qilishi mumkin edi. Qonunlarni jamoat nazorati uchun oshkor qilish odati o'rnatilishi ham Efialt nomi bilan bog'liq.

Mil. avv. 461-yilda Efialt o'ldirilgandan so'ng Perikl Afina demokratiyasiga rahbarlik qildi. Perikl davrida vakolatlarning aniqroq taqsimlanishi amalga oshiriladi: Milliy Majlis qonun chiqaruvchi organ, hukumat funktsiyalarini Besh yuzlar kengashi va magistratlar amalga oshiradilar, sud vakolatlari Geliaga va boshqa sud organlariga tegishli bo'ladi. Qur'a tashlash marosimi avval tanlangan lavozimlarning aksariyat qismiga ham uzaytirildi. Periklning taklifiga binoan jamoat majburiyatlarini bajarishga xaq to'lana boshlandi. Avvalo sudyalar, keyin boshqa mansabdor shaxslar uchun to'lovlar belgilandi. Ushbu yangilik Afinalik oddiy fuqarolarning katta qismining davlat boshqaruvida ishtirok etishiga yo'l ochdi. "Perikl fuqarolik islohotini o'tkazdi. Otasi va onasi afinalik bo'lganlargagina Afinaning to'la fuqarosi bo'lish belgilandi. Chunki bu davrga kelib Afina fuqarolari haddan tashqari ko'payib ketgan edi. Shu sababli aholi soniga nisbatan optimal fuqarolik jamiyatini qurish va davlat boshqaruvini muvofiqlashtirish asosiy maqsad qilib olindi.

Perikl Afinani dengiz kuchiga aylantirish uchun katta ish qildi. Afinaning dengiz qudratini kuchaytirish, savdo aloqalarini kengaytirish aholining dengiz bilan bog'liq qatlamlarining sonini ko'paytirdi. Afina demokratiyasining ijtimoiy asosini endi port atrofida yashaydigan aholi tashkil eta boshladi.

Miloddan avvalgi V asrdagi Afina jamiyatiga xos bo'lgan ijtimoiy ziddiyatlar Afina ijtimoiy tizimi davlat tizimini demokratlashtirish yo'q qilmadi. Xususiy mulkning rivojlanishi mulkni sezilarli darajada farqlanishiga olib keldi. Erkin Afina fuqarolari orasida yirik mulkdorlarning kichik bir guruhi ajralib turdi, aholining asosiy qismi kambag'allardan iborat edi. Erkin fuqarolar qullarga nisbatan ancha kam bo'lgan. Qullar davlat va shaxsiy qullarga ajratilgan. Qullar mehnati uy ishlarida, qishloq xo'jaligida, qurilishda va boshqalarda keng qo'llanilgan. Davlat qullariga shaxsiy mulkka egalik qilish huquqi berilgan.

To'liq Afina fuqarolari (onasi va otasi Afina fuqarosi bo'lgan), 18 yoshga to'lganidan so'ng demos a'zolari ro'yxatiga kiritilgan. Fuqarolik huquqlari ma'lum huquq va majburiyatlar majmuini o'z ichiga olgan. Fuqarolarning eng muhim huquqlaridan biri shaxsiy erkinlik va shaxsiy mustaqillik huquqi edi. Shu bilan birga polis hududida yer uchastkasiga egalik qilish huquq va moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelganda, davlat tomonidan iqtisodiy yordam olish huquqi, qurol olib yurish va xizmat qilish, davlat ishlarida qatnashish (Milliy Majlisda, saylanadigan organlarda qatnashish), xudolarini sharaflash va himoya qilish, tantanalarda qatnashish huquqi, Afina qonunlarini himoya qilish va ularga homiylik qilish huquqlari mavjud edi.

Fuqarolik huquqini fuqaro sha'nini himoya qilish belgilagan. Jinoyat uchun fuqarolar sud tomonidan o'z huquqlarini cheklashlari uning sha'niga tegish edi. 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan fuqarolar harbiy xizmat majburiy hisoblanardi. Boy fuqarolarga davlat foydasiga liturgiya vazifasi topshirildi. Bu butun mulkdorlar sinfining manfaatlari uchun xususiy mulkni cheklashning bir turi edi.

Meteklar (Afinada yashovchi chet elliklar) fuqarolik huquqiga ega emas edilar. Ular ko'chmas mulk sotib ololmasdilar; metek va Afina fuqarolari o'rtasidagi nikohlar noqonuniy deb hisoblandi. Meteklardan maxsus soliq yig'ilgan, ular boshqa ko'plab vazifalarni bajargan, harbiy xizmatga jalb qilingan.

Afina demokratiyasining davlat apparati quyidagi hokimiyatlardan iborat edi: Milliy majlis, Geliya, besh yuzlar kengashi, strateglar jamoasi va arxonlar jamoasi.

Xalq yig'ilishi asosiy organ edi. Yigirma yoshda, mulkiy holati va kasbidan qat'iy nazar Milliy Majlisda qatnashish huquqiga ega edi. Milliy Majlisning vakolatlari juda keng edi va Afina hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi.

Xalq yig'inining vakolatlari juda keng bo'lib, qonunlar qabul qilish, urush va tinchlik masalalarini hal qilish, mansabdor shaxslarni saylash, vakolat muddati tugagandan so'ng magistratlarning hisobotlarini eshitish, shaharni oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qilar edi. Davlat byudjetini, vakolatlarini muhokama qilib, tasdiqlardi. Xalq yig'ilishi asosiy qonunlarni himoya qilish bo'yicha Xalq yig'ilishining huquqlarini o'z ichiga olgan maxsus kollegiya tashkil etilgan, u Milliy Majlisdan vakolatlarni olgan holda, Afina davlatining barcha asosiy qonunlarini hukumat organlari tomonidan qat'iy bajarilishini nazorat qildi. Bundan tashqari, Milliy Majlisning har qanday a'zosi davlat tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risida favqulodda bayonot berish huquqiga ega edi. Shu jumladan, Milliy Majlisga amaldagi qonunlarni buzgan takliflarni taqdim etgan shaxslarga nisbatan yozma shikoyatlar (qonunga qarshi shikoyat deb atalmish "qarshi shikoyatlar" qonunidan foydalanib, "asosiy qonunlarning daxlsizligini qonunchilik hujjatlari orqali odamlarning huquqlariga ziyon yetkazishda ularni o'zgartirish yoki cheklash urinishlaridan himoya qilardi. Afinalik har bir fuqaroning "qonunga qarshi shikoyat yuborish" huquqi haqiqiy va asosiy bo'lib qoldi.

Xalq assambleyasi juda demokratik qoidalar asosida ishlagan. Har qanday ishtirokchi so'zga chiqishi mumkin edi, lekin u o'z nutqida boshqalarning fikrini takrorlamasligi, o'zini nazorat qila olishi va Afina fuqarolarini (erkaklarini) haqorat qilmasligi kerak edi.

Odatda, har bir tayinlash (ya'ni, Kengashning hozirgi ishini bevosita boshqaradigan Besh yuzlar kengashining o'ninchi qismining vazifasi va vazifasi davri) 8-9 kun ichida to'rt marta Milliy Majlisni chaqirgan. Muntazam yig'inlardan tashqari, tez-tez uchraydigan masalalar bo'yicha navbatdan tashqari yig'ilishlar ham o'tkazilgan.

Miloddan avvalgi V asrning oxirida Milliy Majlisda qatnashish uchun avval obola (pul birligi) miqdorida, so'ngra oltita obola to'lov kiritilgan. Buning sharofati bilan keng xalq ommasi yig'ilishlarda real ishtirok etadigan bo'ldi.

Besh yuz kishilik kengash (bulle) o'ttiz yoshga to'lgan to'laqonli fuqarolar orasidan har 10 filadan 50 kishi qur'a tashlash yo'li bilan saylandi. Aholining barcha toifalari vakillari Besh yuzlar kengashiga kirishi mumkin edi. Kengash vakolatiga ko'plab masalalar kiritilgan. Pritan(davlat kengashi a'zosi)lar Milliy Majlisni chaqirar va ulardan biri yig'ilishga raislik qilardi. Kengash muhokamaga qo'ygan barcha ishlarni va Xalq yig'ilishining qarorini tayyorlagan va muhokama qilgan. Xalq majlisiga taqdim etish uchun dastlabki xulosani chiqargan.

Bundan tashqari Kengash Xalq yig'ilishi qarorlarining bajarilishini, barcha mansabdor shaxslarning faoliyatini nazorat qilgan va ularning ko'pchiligining hisobotlarini tinglagan. Kengashning muhim vazifasi flotning qurilishini tashkil etish edi.

Kengash, aksariyat, jamoat va davlat ishlarini boshqa amaldorlar bilan birgalikda keyingi yil uchun to'qqizta arxont va Kengash a'zoligiga nomzodlarni tekshirish (ommaviy), barcha jamoat binolarini nazorat qilish huquqiga ega edi. Kengash mansabdor shaxslarni, birinchi navbatda, davlat mablag'larini noto'g'ri sarflashda aybdor bo'lganlarni javobgarlikka tortish huquqiga ham ega edi. Kengashning qarorlari ustidan geliyaga shikoyat qilinishi mumkin edi.

Afina davlatining butun moliyaviy va ma'muriy apparati Besh yuzlar kengashining rahbarligi va bevosita rahbarligi ostida ish yuritgan. Kengashda muhokama qilingan ko'plab masalalar an'anviy-doimiy kunlik majlislarda muhokama qilingan. Navbatdan tashqari ishlarni Kengashning o'ninchi qismi, ya'ni bitta to'g'ridan-to'g'ri Fila boshqargan. Uning a'zolari, pritanlar, har kuni ularning orasidan qur'a tashlab rais sayladilar, u ham Milliy Majlisga rahbarlik qildi. Vakolat muddati tugagandan so'ng (1-yil) Kengash a'zolari xalqqa hisobot bergan. Qayta saylovga bir necha yildan so'ng va faqat bir marta ruxsat berilgan, ya'ni Kengash har yili yangilangan. Kengash a'zolari 5-6 oboladan ish haqi olishgan.

Davlat organlari tizimida Areopag saqlanib qoldi. Afina zodagonlari vakillari unga umrbod qo'shilgan. Aristokratlar va demoslar o'rtasidagi kurash paytida Areopagning davlat organi sifatida funksiyalari juda cheklangan edi. Miloddan avvalgi V asrda Areopag sud mahkamasi sifatida ish olib borgan (qotillik, o't qo'yish, tan jarohati yetkazish, diniy qoidalarni buzish holatlarida) va axloq holatini kuzatib borgan.

Afinadagi ijro etuvchi hokimiyatlar orasida ikkita kollegiyani – strateg va arxonlarning ham o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Strateglar boshqa lavozimlar qatorida alohida mavqega ega edilar. Ular nafaqat harbiy rahbarlar, balki diplomatlar va moliyachilar ham edilar. Shu sababli, Milliy Majlislarda eng taniqli odamlar orasidan ochiq ovoz berish (qo'l ko'rsatish) orqali strateglar tanlandi. Strateglar boshqa amaldorlardan farqli o'laroq, maosh olmaganliklari sababli, bu lavozimni faqat juda badavlat odamlar egallashi mumkin edi. Forslar bilan urush hokimiyatning bir qo'lda to'planishini talab qildi. Birinchi strategning mavqei mana shunday ko'tariladi, u ham shtatdagi birinchi amaldorga aylandi. Ko'p yillar ketma-ket strateg bo'lishi mumkin edi. Ko'pincha strateg u yoki bu partiyaning yetakchisi bo'lgan.

Arxontlar jamoasi diniy va oilaviy masalalar, shuningdek, axloq bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullangan edi. To'qqiz arxont (6 ta fesmofet, arxont-epinim, basiley va polemarx) va kotib "har bir filadan bittadan qur'a tashlash orqali tanlangan. Keyin kotibdan tashqari arxonlar besh kishilik Kengashda tekshiruvdan o'tkazildi (komissiyaga qadar). Arxontlarning ikkinchi tekshiruvi geliyada bo'lib o'tdi, u yerda ovoz berish toshlar berildi, arxont, basiley va polemarx teng kuchga ega edilar va ularning har biri o'zi uchun ikkita o'rtoqni sayladilar.

Arxontlar jamoasi rahbarligi ostida eng yuqori sud organi ish olib borar edi. U faqat sud funksiyalaridan tashqari, qonunchilik sohasida ham o'z vazifalarini bajardi. Geliya 6 ming kishidan iborat edi (har bir filadan 600 ta), ular har yili kamida 30 yoshga to'lgan to'liq fuqarolar bo'yicha qur'a tashlash orqali tanlangan. Geliyaning funksiyalari nafaqat sud ishlari bilan bilan bog'liq edi, Konstitutsiya va qonun hujjatlarini himoya qilishda ishtirok etish geliyaga juda katta siyosiy o'rin berardi. U Afina fuqarolarining

eng muhim shaxsiy ishlari, davlat ishlari, geliya o'rtasidagi ziddiyatli masalalar, ittifoqchilar va ittifoqdosh davlatlar fuqarolarining barcha muhim ishlari bilan shug'ullangan.

Afinada geliyadan tashqari yana bir nechta sud hay'atlari faoliyat yuritgan, ular areopaglar, efetlarning to'rtta kengashi, dietetlar sudi, qirq kishilik hay'at va boshqa ba'zi ishlarni ko'rib chiqishgan. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Afina demokratiyasi yaxshi rivojlangan siyosiy tizim edi. Hukumat lavozimlarini almashtirish saylov, kollegiallik, hisobdorlik, jazo olish va iyerarxiyaning yo'qligi tamoyillariga asoslandi. Afina davlati insoniyat tarixidagi demokratik respublikaning birinchi tajribasini aks ettiradi. Ushbu demokratiya cheklangan edi.

Birinchidan, bu faqat erkin aholining to'liq huquqlarini ta'minladi.

Ikkinchidan, bu faqat ota-onasi afinalik bo'lganlarga taalluqli bo'lib, begona odamlarning Afina fuqarolari safiga kirishiga to'sqinlik qildi. Ammo Afina fuqarosi maqomiga ega bo'lganlar orasida ham hamma ovoz berish huquqidan foydalanmagan va siyosiy hayotda faol ishtirok etgan.

Afinaga tog'li hududlardan yetib borish qiyin bo'lgan va o'z hosiliga g'amxo'rlik qilish Milliy Majlisdagi uchrashuvlardan ko'ra muhimroq bo'lgan dehqonlar juda konservativ edilar. 43 ming to'laqonli fuqarolarning 2-3 ming nafari yig'ilishlarda qatnashgan. Jamiyatni boshqarishni partiyalar va ularning rahbarlari – demagoglar amalga oshirgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib oldingi partiyalar o'rniga ikkita: tadbirkorlar, yollanma ishchilar va dengizchilarga tayanib, mulkdor aristokratiya va boy savdogarlar manfaatlarini himoya qiluvchi oligarxiya partiyasi va demokratik partiya tuzildi.

5-MAVZU: YUNON-FORS URUSHLARI

Reja:

1.Yunon-fors urushlarining kelib chiqish sabablari va bosqichlari.

2. Milet va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining qo'zg'oloni.

3. Forslarning Bolqon Yunonistoniga birinchi hujumi (mil. avv. 492-490-y.).

4. Kserksning harbiy yurishlari.

5. Yunon-fors urushlarining yakuni.

Yunon-Fors urushlarining kelib chiqish sabablari. Yunon polislarining ijtimoiy, siyosiy jihatdan tashkil topishi miloddan avvalgi VI asrga kelib tugallandi. Natijada Bolqon Yunonistonidagi ko'plab polislarda ichki holat me'yorlashdi, xo'jalik hayoti rivojlandi, aholi o'rta qatlamining siyosiy ahvoli o'zgardi. Xullas, madaniyatni yuksaltirish uchun sharoit yaratildi.

Miloddan avvalgi VI asr oxirida yunon polislari uchun xavfli dushman paydo bo'ldi. Bu ham bo'lsa, dastlab Fors viloyatida tashkil topgan hamda keyinchalik ulkan imperiyaga aylangan Ahamoniylar podsholigi edi. Kambiz vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Doro I (mil. avv. 522-486-y.) ning iqtisodiy va harbiy islohotlaridan so'ng forslar imperiyasi yanada ravnaq topdi. Mil. avv. VI asr oxiriga kelib podsholik hududi jihatidan ham ulkan saltanatga aylandi.

Ahamoniylar Kichik Osiyo shaharlari va Egey dengizining sharqiy qirg'oqlarini egallab olganlaridan so'ng, ular Bolqon Yunonistonidagi polislarni bosib olishning turli xil rejalarini tuza boshladilar. Ahamoniylarning harbiy-iqtisodiy potensialining ortib borishi, cheklanmagan moliyaviy imkoniyat, ulkan armiyani mavjudligi hamda yunon polislarining bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lganligi kabi sabablar urushni boshlash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilgan.

O'sha vaqtda yunon shaharlari savdo-sotiq markazi, ulkan madaniyat o'chog'i sifatida mashhur bo'lgan. Bu yerlarni

egallanishi forslar g'aznasini ulkan boylik bilan to'ldirgan bo'lar edi.

Bolqon Yunonistonini egallash Ahamoniylar ulkan strategik ahamiyat ham kasb etgan. Forslar Sharqiy O'rtayer dengizini buyuk podsholiklarini ham qo'l ostiga olmoqchi bo'lishgan. Yunon polislari uchun forslarni mintaqada paydo bo'lishi o'lim xavfidek tuyulgan.

Yunon-fors urushlari miloddan avvalgi 500-449-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan. Bu urush uzoq davom etgan dunyodagi urushlardan biridir. Jahon tarixshunosligining so'nggi yutuqlariga asoslanib, mazkur urushni 5 ta bosqichga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1) Mil. avv. 500-494-yillar – Milet va Kichik Osiyo yunon shaharlarining forslarga qarshi qo'zg'oloni;

2) Mil. avv. 492-490-yillar – fors qo'shinlarining Bolqon Yunonistoniga birinchi hujumi;

3) Mil. avv. 480-479-yillar – Yunonistonga Kserksning harbiy yurishi – yunon-fors urushlarining kulminatsion nuqtasi;

4) Mil. avv. 478-459-yillar – urush harakatlari xarakterining o'zgarishi, ustunlikni yunonlar qo'liga o'tishi, Egey dengizi va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining forslar zulmidan ozod bo'lishi.

5) Mil. avv. 459-449-yillar Afinaning harbiy ekspeditsiyasi. Misr bilan ittifoqi va yunon-fors urushlarining tugashi.

Yunon-fors urushlari voqealarini aks ettiruvchi asosiy manba Gerodotning "Tarix" asari hisoblanadi. Bundan tashqari ayrim tarixchilar bu urushga o'z munosabatlarini bildirib, ayrim xususiyatlarini hikoya qiladilar. Jumladan, Fukidid Gerodot hikoyalaridan foydalangan, lekin boshqa manbalarga asoslanib uning ba'zi talqinlarini to'g'rilagan. Shuningdek, qadimgi Yunon dramaturgi Esxil (u ikkala tarixchidan katta bo'lib) o'zi mazkur urushlarda qatnashgan. Esxil "Forslar" tragediyasida bevosita ishtirokchi sifatida Salamin oroli yonida yunonlarning forslar bilan qilgan dengiz jangini yorqin obrazlarda tasvirlagan, lekin unda urg'u urushning borishiga emas, balki yunonlarning qahramonligiga qaratilgan. Bu shaxslar nazarida fors urushi – sivilizatsiya tarixidagi markaziy hodisadir. Forslar nuqtai

nazaridan esa u bir talay katta bo'lmagan to'qnashuvlardir va bu to'qnashuvlar muvaffaqiyatsiz bo'lgani sababli umuman e'tiborsiz qoldirilgan.

Keyinroq yunon-fors urushlari tarixi Diodor asarlarida ham yoritilgan. Plutarx o'sha zamonda Afinaning atoqli siyosiy va harbiy arboblari bo'lmish Femistokl, Aristid va Kimonning tarjimai hollarini yozgan.

Fors tarixi bo'yicha manbalar afsuski cheklangan. Forslar mixxat yozuvi asosida o'z alifbolarini yaratgan bo'lsalar ham, fors shohlari qurilish ishlariga bag'ishlangan yozuvlardan tashqari hech qanday fors adabiyoti namunalari saqlanib qolmagan. Shuning uchun forslar tarixi forsiy bo'lmagan manbalar Bobil, oromiy, ivrit va boshqa xalqlar tarixi manbalarida keng uchraydi.

Milet qo'zg'oloni va Kichik Osiyoning yunon shaharlari. Kichik Osiyoning yunon shaharlari fors shohi Kir II tomonidan mil. avv. VI asrning 40-30-yillarida egallangan edi. Boshida yunonlar bilan iliq siyosat olib borilgan, ulardan soliq olinmagan hamda ichki ishlariga kam aralashilgan. Kichik Osiyoda savdo bilan shug'ullanuvchi mahalliy shaharlar doimo rag'batlantirib borilgan.

Doro I taxtga kelgandan so'ng esa hududdagi yunon shaharlariga nisbatan agressiv siyosat yurita boshladi. Yunon shaharlarining ichki hayotiga markaziy hokimiyat tomonidan aralashish boshlandi. Fors boshliqlari – tiranlarga (yunonlar ularni shunday atashgan) ko'plab shahar hokimliklari berildi. Shaharlar qaramligi tufayli soliq to'lashga majbur etildi.

Kichik Osiyodagi Milet shahri forslarga qarshi turgan eng kuchli shahar edi. Miletda nafsga va boylikka berilgan Aristagor ismli harbiy o'zining shaharida ko'p yillardan beri tiran sifatida hukmronlik qilgan. Endi u o'z hududlarini kengaytirmoqchi bo'ladi. Aristagor Sardning fors hukmdori qarorgohiga tashrif buyurib, agar forslar unga o'z kema va askarlarini bersalar, u Eron manfaatlari nuqtai nazaridan Kiklada yunon orollarini istilo qilishni taklif qiladi.

Forslar vakili Artafern bu rejani qabul qiladi va Aristagor, butun boshli orollar kichik saltanatining hukmdori bo'lish imkoniyatidan xursand bo'lib, hujum uchun qo'shinlarni

birlashtirib, o'zining birinchi maqsadi – Naksosni egallash uchun jo'nab ketadi.

Baxtga qarshi, Naksosdagi yunonlar shahrini bosib olish oson emasdi. Shahar aholisi jang qilmasdan, barcha oziq-ovqat va chorva mollarini shahar ichiga yig'ib, darvozani qulflab oladilar. To'rt oylik qamaldan so'ng Aristagor forslar bergan barcha mablag'ni sarflab bo'ladi va Artafern tiranning harbiy san'atidan hafsalasi pir bo'lib, uni qo'llab-quvvatlashdan voz kechadi. Aristagorning rejalari amalga oshmay, izzat-nafsi barbod bo'lib, Miletga qaytib ketishga majbur bo'ldi.

Biroq u mazkur muvaffaqiyatsizlikdan birmuncha saboq oldi, suv ortidan yunon siyosatini kuzatib, afinalik har qanday yaxshi strateg singari, o'z siyosatini o'zgartirdi. U forslar bilan ittifoqlashish o'rniga ularga qarshi va umuman beg'araz ittifoqlar tuzish qaroriga keladi. Aristagor Kichik Osiyo yunon shaharlarini Eronning hukmronligiga qarshi isyon ko'tarishga da'vat qiladi va ma'lum vaqt o'tib, ularni o'z boshchiligi ostida birlashtirish mumkin, degan xulosaga keladi.

Darhaqiqat, Ioniya hukmdorlari bilan ehtiyotkorona munosabatlar jarayonida ular ham isyonga qo'shilishmoqchi ekanligini anglab yetadi. Lekin o'zining Naksosda barbod bo'lgan harbiy yurishidan Aristagor urush – qimmatga tushadigan ish ekan, degan xulosa chiqaradi. Eronga qarshi urush uchun esa dastlab uni qo'llab-quvvatlovchi katta yordam kerak edi.

Bunday loyihani amalga oshirishda eng birinchi ittifoqchi, shubhasiz, jangovar Sparta bo'lishi kerak edi. Sparta yunon shahar-davlatlarining (polislarining) Peloponess Ligasi deb nomlangan va dushmanlardan birgalikda muhofaza qilish maqsadida tuzilgan erkin ittifoqida asosiy va eng qudratli shahar edi. Agar Sparta Eronga qarshi urushga qo'shilsa, Liganing boshqa shaharlari ham uning qilgan ishidan o'rnak olib, qo'llab-quvvatlashidan umidvor bo'lgan edi. Shuning uchun Aristagor Kleomen bilan uchrashish maqsadida Spartaga boradi. Afsuski, Sparta hokimi dastlab Aristagorni mazax qilib, so'ng uni kuch bilan o'z shahridan chiqarib yuboradi.

"*Spartadan haydalgandan so'ng*, - deb yozadi Gerodot, *Aristagor Afinaga borishga qaror qiladi, chunki u Spartadan keyin*

eng qudratli davlat edi". Bu yerda u o'zini qo'llab-quvvatlovchi kuchni topadi. Afinada ham forslar bilan munosabat yaxshi emas edi. Chunki Afinadan haydalgan tiran Gippiy yurtiga qaytib kelish niyatida forslar unga Afinani bosib olishda yordam berishiga umidvor bo'lib, eronliklar oldida hozir bo'ladi. Artafen uning rejasiga quloq solib, oxirigacha tinglaydi va Afinaga agar Gippiyni qayta qabul qilib olmasalar, urushga tayyorgarlik ko'rishlarini talab qilib maktub yuboradi. Ushbu maktub yetib kelishi bilan Aristagor forslarga qarshi isyon ko'tarish taklifi bilan paydo bo'ladi.

Forslarning keskin talabidan jahli chiqqan Afina Aristagorga yordam sifatida yigirmata harbiy kema yuborishga rozi bo'ladi, ularning ittifoqdoshi hisoblangan qirg'oq bo'yida joylashgan Eretriya shahri ham beshta kema yuboradi.

Aristagor tiranlikdan voz kechib, forslarga qarshi kayfiyatdagi guruhlarga tayanib, Milet aholisini forslarga qarshi qurollantira boshladi. Milet shahri boshqa Ioniya shaharlari bilan birlashadi.

Butun Kichik Osiyoda qo'zg'olonga da'vat etuvchi xabarlar tarqatildi. Bu chaqiriq Kichik Osiyoning barcha shaharlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek, Vizantiya va Xalkidon, Pamfiliya va Kiprgacha bo'lgan hududlar ham bu chaqiriqqa qo'shilish istagini bildirdilar. Qo'zg'olon ko'targan shaharlarda qo'mondonlik joriy etildi.

Isyonga qo'shilgan Ioniya shaharlari Doro I ning harbiy flotiga tegishli uch yuzta kemani musodara qiladilar va ularga yunonlardan qo'mondonlar sayladilar. Doro I darhol o'zining tezkor va yaxshi o'rgatilgan qo'shinini Ioniyadagi isyonni bostirish uchun yuboradi. U yetib borishidan avval Aristagor ittifoqdoshlari bilan birga Sardga bostirib borib, shaharga o't qo'yadi. Baxtga qarshi shahar shu zahotiyoq yona boshlaydi. Dastlab bitta uyga o't qo'yilgan edi, shahardagi barcha uylar asosan qamishdan qurilgan bo'lganligi uchun olov tezda barcha imoratlarga tarqab ketadi.

Gerodot bu hodisani "Sarddagi katta yong'in" deb nomlaydi, yong'in forslarni juda g'azablantiradi. Forslar va ioniyaliklar qo'shinlari Efes yaqinida to'qnashganda, ioniyaliklar tor-mor qilinadi. Ular tarqab ketadi, afinaliklar bu jangda g'alaba qozonmasliklarini bilib, jang maydonini tark etishga qaror

qiladilar. Lekin ioniyaliklarning jangni davom ettirishdan boshqa iloji yo'q edi.

Noilojlikdan ular jangni dengizda davom ettirdilar. Ioniya orollari birlashgan kemalari Gellespontdan o'tib, Vizantiya yaqinida turgan forslar garnizonini surib chiqardilar. So'ng kemalar qirg'oq bo'ylab quyiga, yo'l-yo'lakay ittifoqdoshlarini yig'ib ketadilar. Isyon shu darajada kengayib va jiddiylashib bordiki, u forslarni ko'p yillar davomida tinkasini qurituvchi janglarga giriftor qildi.

Miloddan avvalgi 498-yilning yozida qo'zg'olon ko'targan shaharlarning qo'shinlari Sardga yig'ildi. Kichik Osiyo satrapliklarining qo'shinlari shaharni vayron qilishdi, lekin akropolni olisholmadi. Bu yerda satrap Artafern garnizoni joylashib olgan edi. Keyingi yili Kipr yaqiniga bir qancha Finikiya eskadralari olib kelindi. Kichik Osiyodagi qo'zg'olonning avj olishi fors hokimiyati uchun jiddiy xavf tug'dira boshladi. Doro I ehtiyotkorlik zarurligini tushunib yetdi va buning yechimini topdi. U Kichik Osiyoga qo'shimcha harbiy qism tashladi. Kichik Osiyodagi garnizon ikkita katta armiyaga bo'lindi. Dastlab Kiprning yunon shaharlari va Kichik Osiyoning janubiy qismi o'z itoatkorligini bildirishdi. Keyin Qora dengiz bo'g'ozlarida polislar qo'zg'olonlar ko'taradi(Vizantiya, Xalkedon, Abidos, Lampsak).

Yunon qo'zg'oloni markazlari Ioniya va Milet atroflari asta-sekin kuchsizlanib bordi, chunki qo'zg'olon ittifoqi mustahkam emas edi, natijada ittifoq tez orada parchalanib ketadi.

Forslar qo'zg'olonni tark etganlardan va "targ'ibot" yurg'izganlardan oltin va saxovatini ayashmadi. Shu tariqa ular muvaffaqiyatga erishadi.

Miloddan avvalgi 495-yilda forslar Finikiya kemalaridan (600 ta kema atrofida) iborat katta flot tuzadi. Qo'zg'olon markazi Milet forslar tomonidan qamal qilindi. Mil. avv. 494-yil forslarning 600 kemadan tashkil topgan floti aynan Milet shahrining ro'parasida, ochiq dengizda turgan Ioniya kemalariga yaqinlashib, javob tariqasida zarba berdilar. Forslar katta jangga tayyorgarlik ko'rgan holda ular Ioniya flotini zaif tomonlarini juda yaxshi o'rgangan edilar. Natijada yunonlar flotining 353 kemasidan 300

tasini asirga oldilar. Bu kemalar urushning boshida yunonlar tortib olgan Doro I ning sobiq flotiga tegishli bo'lgan.

Ioniyaning ko'pchilik kemalari odamlari bilan birga cho'kib ketdi. Harbiy omad yunonlardan yuz o'girganligi bois kemalarning bir qismi shunchaki yo'q bo'lib ketdi. Ioniya flotining qo'mondoni Sitsiliyaga qochib ketib, dengiz qaroqchisiga aylandi. U Karfagen va etrussklar kemalarini bosib olar, lekin "yunonlarnikiga tegmas edi". Aristagor esa Kichik Osiyoga qochib ketib, keyinchalik esa Frakiyada paydo bo'ladi va u yerda Frakiya shaharlarining birini bosib olishga uringanida halok bo'ladi.

G'alaba qozongan forslar barcha balolar sababchisi Aristagorning shahri Milet yaqinida kemalardan qirg'oqqa tushadilar. Ular shaharni qamal qilib, tashqaridan har qanday yordam yo'llarini uzib qo'ydilar, devorlar ostidan yo'l qaziydilar, natijada shaharni hujum bilan oladilar. *"Aksariyat erkaklar o'ldirildi,* - deb yozadi Gerodot, *ularning ayollari va farzandlarini... qul qildilar... Tirik qolganlarni Suzaga olib ketdilar"*. Doro I ularni bir vaqtlar xaldeylar istiqomat qilgan Dajla daryosi etagidagi botqoqliklarga joylashtiradi. Harbiy harakatlarni uzoqdan kuzatib turgan Afina urush unga yetib bormagan bo'lsa ham, xavotirda qoladi. Miletning vayron bo'lishi yunonlar uchun jiddiy zarba bo'ldi.

Shahar shafqatsizlik bilan vayron qilindi. Aholisining ko'pi o'ldirildi yoki qullikka berildi. Qo'zg'olon muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Qo'zg'olon Doro I ni butun e'tiborini kuch va vaqtga qaratishga undadi. Bu qo'zg'olondan so'ng yunonlar 6-yil davomida forslar bilan to'g'ridan-to'g'ri urushlarga kira olmadilar.

Forslarning Bolqon Yunonistoniga birinchi yurishi. Kichik Osiyoga yurishlardan so'ng ikki tomon ham bo'lajak hal qiluvchi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rdilar. Forslarning Bolqon Yunonistoniga birinchi yurishi miloddan avvalgi 492-490-yillarda bo'lib o'tgan.

Kichik Osiyoliklar qo'zg'olonidan keyin Doro I Bolqon Yunonistonini bosib olish kerakligini anglab yetdi va rejalar tuza boshladi. U bu yurishni qonuniy amalga oshirish uchun zo'r strategik bahona o'ylab topdi. Unga ko'ra Afina va Eritreyani ioniylarga bergan yordami uchun jazolash kerak edi.

Ahamoniylar tomonidan Kichik Osiyoda 30 ming kishilik va 600 kemadan iborat kuchli korpus tashkil etildi. Mazkur armiyaning boshlig'i etib, podshoning kuyovi, iqtidorli harbiy yo'lboshchi va diplomat Mardoniy tayinlandi. Miloddan avvalgi 492-yilda Mardoniy o'zining armiyasini Egeyning shimolini egallash uchun Gellespont bo'g'ozi (hozirgi Dardanell) orqali harakatlantiradi. Bu kuchlar ikkiga bo'lingan bo'lib, quruqlikdagi qo'shinlar Kichik Osiyo orqali harakat qiladi va Bosforni pontonli ko'priklar yordamida kesib o'tib, Finikiya va Makedoniya orqali janubga qarab yo'naltiriladi. Dengizdagi kuchlar Egey dengizini kesib o'tib, yunonlarning shimoliy shaharlari yaqinida quruqlikdagi qo'shinlar bilan birlashishi kerak edi.

Forslar qirg'oqbo'yi yunon shaharlari, Frakiyaning janubiy qismini, Fasos oroli qabilalarini egallay boshladi. Lekin Afon burnida fors floti kuchli bo'ronga duch keldi. Eron floti mo'ljalga yetay deganda, dengizda po'rtana boshlanib, barcha kemalarni Afon tog'i yaqinidagi qoyalarga uloqtirib tashladi. Quruqlikdagi qo'shinlar keyingi harakatlarni mustaqil bajarish buyrug'i bo'lmaganligi sababli orqaga qayta boshladi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, bu favqulodda holat tufayli Mardoniy 300 ta kema va 20 mingga yaqin odamini yo'qotadi.

Mardoniy qolgan armiyasi bilan Kichik Osiyoga qaytishga majbur bo'ladi. Miloddan avvalgi 492-yilgi omadsiz yurishga qaramay, Mardoniy Egey dengizining shimoliy qismida bo'lajak harbiy harakatlar uchun platsdarm barpo qiladi.

Birinchi omadsiz yurish Doro I rejalarini o'zgartira olmadi, Yunonistonga qarshi yangi yurishga jiddiy tayyorgarlik ko'rildi. 20 minglik qo'shin va katta flotga ega bo'lgan yangi armiya tashkil etildi. Bu armiyaga harbiy boshliq qilib, Datis va podsho qarindoshi Artafern tayinlanadi. Gerodotning ta'kidlashicha, ushbu yangi kuchlar olti yuz kemani tashkil qiladi. Agar bu gap mubolag'a bo'lgan holda ham, dengizdan qilingan hujum shunday qudratli ediki, forslar uni kuchaytirish uchun quruqlikdagi qo'shinlarni yordamga yuborish to'g'risida o'ylab ham o'tirmadilar. Kemalarning birida forslar muxolif tomonni yo'q qilgandan so'ng qaytadan Afinaning tirani bo'lishga va'da bergan, Gippiy bor edi. Aflnadan quvilgan oldingi tiran Gippiy maslahatchi

vazifasini bajara boshladi. Chunki u Afinani harbiy strategiyasini puxta o'rgangan edi.

Forslar Egey dengizini aylanib o'tishdan ko'ra, birmuncha xatarli qaror qabul qilishdi. Ular armiyani to'g'ridan-to'g'ri Kichik Osiyodan Attikaga kemalar orqali olib o'tish va Afinani egallashni maqsad qiladilar. Buning uchun uzoq vaqt diplomatik va harbiy tayyorgarlik ko'rildi.

Miloddan avvalgi 491-yilda Bolqon Yunonistonidagi hamma polislarni forslarga butunlay itoatkorlikka majburlash talab etildi yoki hech bo'lmasa keyingi urushda betaraf (neytral) bo'lishiga erishish lozim edi.

Ko'plab yunon polislari, orollar (masalan Egina), Fessaliya, Beotiya bu talabga bo'ysunishdi, Argos esa o'zining betarafligini bildirdi. Sparta va Afina esa bu talabni rad etishdi. O'z o'rnida yunonlar ham urushga tayyorlana boshlashdi.

Datis va Artafern ehtiyotkorlik yuzasidan qulay ob-havoni kutishdi va o'zining armiyasini Evbeya oroliga olib o'tdi. Fors qo'shinlari Yunonga qarshi hujumini Naksosni vayron qilishdan boshladilar. Aristagor aslida yaxshi sarkarda emasligi aniqlandi: forslar Naksosni bir necha kun ichida bosib oldilar, so'ng Eretriyani qamal qildilar. Bir zarba bilan Eretriya egallanib, aholisi qullikka mahkum etildi.

Keyingi mo'ljal "Attika malikasi", yunon ustidan hukmronlik qilish kaliti bo'lgan – Afina shahri edi. Evbeyani bo'ysundirgandan so'ng, forslar Attikaning shimoli-sharqiy qismiga yo'l olib, Afinadan 42 km uzoqlikda bo'lgan Marafon qishlog'iga yetib keldilar.

Barcha ehtimollar hisobga olinib, Afinaga qarshi harbiy harakatning rejasini Gippiyning maslahati bilan tuzishadi. Forslar uzun Marafon tekisligiga o'z armiyasini qulay qilib joylashtirishdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zining otliq qo'shinidan unumli foydalanish edi. Forslar u yerda mustahkamlanib olgach, hech qanday to'siqlarsiz butun Attikani vayron qilmoqchi bo'lganlar. Vaziyatni kuchaytirish uchun Gippiy o'zining tarafdorlari bilan forslar "foydasiga" targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Forslar hujumining xavfi ostida qolgan afinaliklar Spartaga yordam so'rab chopar yubordilar. Bu chopar Fidippid, "o'rgatilgan chopqir" edi, aytishlaricha, u Sparta va Afina orasidagi 24 milyani (1 milya - 7420 m) atigi yigirma to'rt soat ichida bosib o'tgan. Aftidan, Gerodot bu masofani chopib o'tishga kerak bo'lgan vaqtni juda qisqartirib yuborgan, lekin u chopib o'tilgani shubha tug'dirmaydi*. Biroq spartaliklar yordam berishdan voz kechadilar. Ular diniy bayram nishonlayotgan bo'lib, oy to'lgan vaqt kelmasdan yo'lga tusha olmasdilar.

Spartaliklar haqiqatan xudojo'y (xurofotga berilgan deyilsa ham to'g'ri bo'ladi) bo'lgan, lekin ehtimoldan holi emaski, ular forslar bilan ochiqdan-ochiq jang qilishdan qochishga uringan bo'lishlari mumkin. Forslar Afinaga jazo bermoqchi bo'lib kelganlar, ularning g'azabi Ioniyadagi isyonga qo'shilgan yunonlar shaharlariga qaratilgan edi, Sparta esa uni quvvatlamagan edi.

Shu orada Afinaning forslarga qarshi yuzma-yuz kelishdan boshqa tanlash imkoniyati qolmagan edi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Afina qo'shinida esa harbiy harakatlarga qarshi aniq bir reja mavjud emas bo'lmagan. Strateglar qismi esa passiv taktika qo'llashni va Afina shahrini mudofaa qilish rejasini qo'llab-quvvatlaydi.

Eng oxirida dastlabki rejaning barcha jihatlari o'rganib chiqilib, iste'dodli qo'mondon Miltiad tomonidan mukamallashtirildi.

Miloddan avvalgi VI asr oxirida Miltiad Frakiya Xersoniyasida hokim bo'lgan, bir necha marta forslar bilan to'qnash kelgan va forslar harbiy tuzilmasining nozik tomonlarini yaxshi bilar edi. Miloddan avvalgi 490-yilda Miltiad Afina polisi strateglaridan biri sifatida harbiy harakatlar rejasini qayta ishlab chiqadi. Gerodotning aytishicha, afinalik qo'mondon Miltiad o'zining

---

* Bu "marafon distansiyasi" deb ataladigan yugurish hodisasi bo'lgan. Bir necha asrlar keyin yashagan Plutarx afinaliklarning forslar ustidan g'alaba qozonishi boshqa hodisani tug'dirgan deb ta'kidlaydi, bu: Tersippom yoki Evkl (manbalar har xil ma'lumot beradi) ismli bir kishi g'alaba haqidagi xabar bilan jang maydonidan Afinagacha chopib borgan va xabarni yetkazgandan so'ng darhol jarohatlar tufayli jon bergan. Bu hikoya Fidippidning (unga, ehtimol adashib, g'alabadan keyingi chopish ham mansub bo'lgan deb biladilar) birinchi chopishi asos bo'lib xizmat qilgan haqiqat ham, afsona ham bo'lishi mumkin. Birinchi bo'lib kim (va qanday masofaga) chopganligiga bog'liq bo'lmagan ravishda, mazkur chidamlilik jasoratini hali ham esda tutadilar. Hozirgi zamon Olimpiya tizimidagi yugurishning eng uzun masofasi uning sharafiga bag'ishlangan.

piyoda askarlari Afina *goplit*larini g'ayrioddiy, markazda bo'shroq va ikki yon tomoni kuchaytirilgan tartibda, saflaydi. Goplitlarning nomlanishi ularning dastagi markazida emas, balki yonida bo'lgan qalqonlari, Afina *goplon*lari nomidan kelib chiqadi. Bunda o'ng qo'l nayzadan foydalanish uchun butunlay bo'sh qoladi. Shuningdek, bunda jangchining o'ng tarafi ochiq qoladi, lekin goplon chap tomonga ancha chiqib turgan bo'lgani uchun u keyingi goplitning o'ng tomonini to'sib turardi. Boshqacha qilib aytganda, qurolning bu turi jangchilarni safda yonma-yon zich turib jang qilishga majbur qilardi, bunday saf *falanga* deb nomlangan. Lekin yakka-yolg'iz goplit juda zaif bo'lgan. Goplitlar o'zining himoyasini faqat zich safda turib ta'minlagan.

Miltiad oldindan o'ylab qo'yilgan fikrini forslarga ilgariroq xabar berishni taklif qildi va ularni hujumkor taktikasiga bog'lab qo'ydi.

U o'zining strateglar jamoasini zaif mustahkamlangan Afinada berkinib o'tirmaslikka, butun urush va hal qiluvchi jangni Marafonda bo'lishiga ishontirdi.

Bu jang miloddan avvalgi 490-yilning 12-sentyabrida mashhur Marafon jang maydonida sodir bo'ldi va tarixda antiqa harbiy san'atni namoyish etadi.

Marafon tekisligida qadimgi ikki yirik harbiy tuzilma tizimi to'qnashdi. Birinchisi qadimgi yunon falangasi bo'lib (og'ir qurollangan askarlar, ya'ni goplitlardan tuzilgan), ikkinchisi yoyilib safga tizilgan forslar armiyasi edi. Forslar qo'shinining ustun tomoni mashhur otliq qo'shinlar va mohir kamonchilarni mavjud bo'lganligida edi. Miltiad, odatdagidek, yunonlardan umumiy soni 11 ming kishilik falanga tuzadi. U 1000-1200 nafar harbiylardan iborat bo'lib, 8 qator safga tizilgan. Markazlardagi qatorlarning zichligini kamaytirish uchun cho'zilgan falangalar qo'shni tepalikkacha borib taqalgan edi. Chunki yunonlar fors otliqlarining o'rab olishi va hujumidan saqlanishi kerak bo'lgan.

Mazkur majburiy intizom va fidokorona jasurlik afinaliklarning son jihatdan kamligini qoplagan. "*Afinaliklar*, - deb so'z yuritadi Gerodot, *bosqinchilarni tumtaraqay qochishga majbur qiladi*". Forslar ularning barchasi, aftidan, aqldan ozgan, degan xulosaga keladilar. Darhaqiqat, Afina qo'shinining markazi bir

ondayoq yorib o'tilgan edi. Biroq uning qudratli qanotlari forslarni o'rab olib, siqa boshlaydi, forslar halokatli siquvga chap berib, qutulib qolish uchun chekinishga majbur bo'ladi. Forslar o'z kemalari tomon qocha boshlaganda, botqoqlikka tushib, ko'pchiligi qurollari og'irligidan botib qoladilar. Kemalariga yetib borgan forslar omon qoladi. Lekin afinaliklar yettita kemani qo'lga oladi va dushmanning ko'pchiligini o'ldiradilar. Gerodot 6400 ta o'ldirilgan forsga 192 ta halok bo'lgan afinaliklar to'g'ri keladi, degan ma'lumotida mubolag'a ham bor edi. Biroq Marafon jangi afinaliklarning hayratda qoldiradigan g'alabasi bilan yakunlanadi. Spartaliklar yordam berish uchun kelganlarida o'lganlarni hisoblab chiqilayotgan vaqt edi.

G'alabadan so'ng darrov Afina shahriga chopar yuborildi. U agoraga yetib kelib, "g'alaba" deya yerga yiqilib, jon beradi. Bu epizod Olimpiya o'yinlarida Marafon masofasi nomi bilan saqlanib qoldi. Bu masofaning uzunligi 42 km 192 m ga teng edi.

Biroq g'olib sarkarda Miltiadga minnatdorchilik bildirilmadi, u Eronga sodiq bo'lgan Paros orolini bosib olmagani uchun qo'mondonlikdan chetlatiladi. Miltiadni muvaffaqiyatsiz hujumda olgan jarohatdan azob chekib yotgan ahvolda sudda ishni ko'rishga olib borganlar, ko'p o'tmay u vafot etadi. Afinaliklarning Marafon jangida g'alaba qozonishi katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Bu jang yunon harbiy tizimining ustunligini, bir qancha yunon polislarining kuchini isbotladi. Fors podshosi Elladani egallash uchun fors davlatining butun kuchi kerakligini anglab yetdi.

Kserksning harbiy yurishlari. Doro I o'zining harbiy-siyosiy imkoniyatlari yunonlarga kuchli zarba bo'lishini tushunib yetdi. U Yunonistonga yangi hal qiluvchi yurishni ikki baravar ko'p shiddat bilan boshlashga qaror qildi. Lekin miloddan avvalgi 486-yilda Doro I vafot etadi. Uning o'rnini o'g'li Kserks egallaydi.

Kserks otasining tajribasini yaxshi o'zlashtirgan edi. Doro I singari u qo'shinlarni shohlar saroyida o'zgarishlar bilan birga har doim yuzaga keladigan isyonlarni bostirish uchun yuboradi. Bobilda Ahamoniylarga qarshi ko'tarilgan isyonga javoban, u bobilliklarga tegishli hududni ikki kichikroq satrapliklarga bo'ladi, oqibatda, norozi bo'lganlar qatorlarida kelishmovchiliklar yuz berdi. Misrni esa oddiy harbiy kuch bilan bo'ysundirdi.

Kserks birmuncha xotirjamlik va o'z hokimiyatini mustahkamlaganidan so'ng, Yunonistonga hal qiluvchi yurishlar uchun harbiy tayyorgarlikka jiddiy tarzda kirishadi. 484-yilda butun saltanatning bandargohlarida ommaviy ravishda kemalar qurilar edi. Ulardan 320 tasi yollanma yunon ustalari tomonidan qurilgan bo'lib, 200 tasi Misrdan olib kelinadi. Shuningdek, misrliklar Kserksga yangi pontonli ko'prik qurishda yordam berdilar, bu inshoot Doro I ko'prigidan janub tomonga qarab biroz uzoqroqda joylashgan edi. U Misrning zig'ir tolali arqonlari bilan bog'langan bo'lib, Gellespont ustidan o'tgan. Barcha tayyorgarliklar tugagandan so'ng, imperiya o'zining harbiy kontingentini Kichik Osiyoga yo'naltirib, katta flot barpo qildi, qurol-aslahalarni taxt holga keltirdi va urush uchun oziq-ovqatlarni g'amladi.

Katta armiyani to'g'ridan-to'g'ri Egey dengizi orqali olib o'tish mumkin emasdi. Shuning uchun ham Mardoniy yurgan yo'nalish tanlanadi. Bu yo'nalish ancha uzunroq va shu bilan birga xavfsiz bo'lgan. Ushbu yo'l orqali Egey dengizining shimoliy qirg'oqlari bo'ylab uzunasiga aylanib o'tilar edi. Mazkur jarayonda Makedoniyada fors protektorati o'rnatilganligi tan olinadi. Bu yerda ulkan armiyani ta'minlash uchun omborxonalar qurildi. O'zining xavfsizligini ta'minlsh maqsadida Afon burnida tasodifan ro'y bergan dahshatli girdob va suv ichidagi qoyalarni (xuddi shu yerda miloddan avvalgi 492-yilda katta fors floti halok bo'lgan edi) hisobga olgan holda kemalarni sokin suvda olib o'tish uchun Akte yarim orolida 2 kmlik kanal barpo etiladi.

Urushga diplomatik jihatdan ham puxta tayyorgarlik ko'riladi. Natijada aristokratlar boshchiligidagi polislar hisoblangan Fessaliya, Beotiya, Agros o'zining betaraf ekanligini e'lon qilishdi.

Miloddan avvalgi 481-yilga kelib urushga tayyorgarlik nihoyasiga yetadi. Fors armiyasi endilikda 150-200 ming kishini tashkil etib, katta harbiy flot esa 1200 kemadan iborat edi.

Shu orada Afinada ham kemalar qurilmoqda edi. Ular triyeralar deb nomlanib, uzunligi taxminan 120 fut va kengligi atigi 15 fut* bo'lgan uzun tor kemalardan tarkib topgan edi. Bu


* Ya'ni uzunasiga taxminan 40 metr va kengligi 5 metrga yaqin.

kemalarda 170 ta eshkakchi uchun o'rin bo'lgan, ular suvni xuddi pichoq bilan kesganday kesishi mumkin edi va katta tezlikda boshqa kemalarni urib ishdan chiqarishi mumkin bo'lgan.

Yunoniston ham bu tahdidni qaytarishga tayyorgarlik ko'rdi. Tayyorgarlik asosan harbiy-siyosiy birlikni tashkil qilib, polislar o'rtasidagi dushmanlik kayfiyatini bir tomonga qo'yib turish, forslarni quvib chiqarib, oppozitsiya kuchlarini yo'qotishga qaratilgan edi. Albatta, bu jarayonda har bir polisning harbiy kuch-qudratini oshirishga harakat qilindi. Forslar tajovuzini qaytarish bo'yicha alohida rejalar tuzib chiqildi.

Miloddan avvalgi 481-yilda Yunonistondagi 31 ta polis Korinf kongressida harbiy ittifoqga birlashadi. Asosiy e'tibor qurolli kuchlar va flotni birlashtirib, armiya va flot sonini maksimal darajaga ko'tarishga qaratildi.

Femistoklning dengiz rejasida nafaqat harbiy, balki siyosiy nuqtai nazar ham hisobga olinadi. Uning rejasiga ko'ra, afinaliklarning quyi qatlami rolini oshirishi kerak edi. Solon islohotlaridan keyin aholining to'rtinchi qatlamiga aylangan fetlar Femistokl rejasi bo'yicha flotning asosiy qismini tashkil qilishi kerak bo'lgan. Uning mazkur qarori Afinaning badavlat yer egalari qarshiligiga uchraydi. Shunga qaramay u harbiylarni kuchaytirish, Afina atrofidagi himoya vositalarini mustahkamlash va faol tashqi aloqalarni olib borishga harakat qiladi.



7-rasm. Afina triyera kemalari

Mil. avv. V asrning 80-yillar oxirida Afinadagi saylovlarda Femistoklning jamoasi g'alaba qozonib, uning siyosiy raqibi Aristid esa ostrokizm orqali quvg'in qilinadi. Femistoklning dengiz dasturi hayotga keng tatbiq qilina boshlandi.

Uning muvaffaqqiyatli ish olib borishini ta'minlagan jihatlardan biri arxontlarni Afinada amaldorlarni davlat mansabiga qo'yishda qur'a tanlash yo'li bilan tanlashga asoslangan demokratik islohoti sabab bo'ldi. Oldinlari amaldorlar

ochiq usulda ovoz berish yo'li bilan saylangan bo'lib, jarayonga ular o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Lekin miloddan avvalgi 487-yildan keyin 10 ta hududiy birlashmadan 500 kishi tanlab olingan va ulardan yopiq usulda ovoz berish yo'li bilan 9 ta yuqori magistr arxontlar tanlab olingan.

Forslar bosqini arafasida afinaliklar quvg'in qilingan Aristid va uning tarafdorlarini shaharga qaytishiga ruxsat berishadi. Bundan ko'zlangan maqsad, ularning harbiy mudofaaga yordam berishi mumkinligida edi.

O'sha davrning eng zo'r kemalaridan tashkil topgan Afina floti Sparta og'ir qurollangan piyoda qo'shinlariga katta yordam beradi. Natijada ko'ngilli askarlar va Elladaning boshqa ittifoqchi polislarining kemalari bilan Fors hujumiga qarshi mustahkam ittifoq paydo bo'ladi.

Yunonlarning shimol tomondan dushmanga qarshi turishiga ko'zi yetmasdi. Ular Malian ko'rfazi ortida o'zlarini himoya qilishga qaror qilib, qo'shinlarni esa tog'lar orasi ochilib, tog' yo'li o'tgan Fermopilda joylashtirdilar. Yarim orolning janubiy qismiga Kserks faqatgina shu yagona joydan o'tishi mumkin edi (yana bir maxfiy tog' yo'li bo'lsa ham, uni Kserks topishi dargumon edi). Yunonlar kemalari Evbeya orolining shimoliy chekkasida qoldirilib, bu yerda ular Kserksni kutib turardi.

Shu orada butun Yunoniston katta falokat bo'lishi mumkinligini sezib turgan. Afinaliklar eng yomon kunlarga ham tayyor edilar. Bizgacha Besh yuzlar Kengashi chiqargan qarorning nusxasi yetib kelgan:

"Kengash va xalq tomonidan qaror qilingan... Afina shahrini Afina ilohasiga topshirib... Afinaliklar va Afinada yashab kelayotgan chet elliklar o'z farzandlari va ayollarini xavfsiz shahar Trezenaga jo'natmoqdalar... Ular qariyalarni ko'chirib bo'ladigan mol-mulki bilan xavfsiz shahar Salaminga jo'natmoqdalar. Qimmatbaho narsalar, boyliklar va kohinlar ilohlarning qo'riqlanadigan mol-mulki sifatida Akropolda qoldiriladi. Qolgan jang qilishga layoqatli yoshdagi afinaliklar va chet elliklar 200 ta kemaga joylashtiriladi, bu kemalar tayyor va dushmanlarga (varvarlarga) qarshi hamda o'z ozodligi va boshqa yunonlar ozodligini himoya qilishga tayyor".

Miloddan avvalgi 480-yilning bahor fasli boshlarida Kserksning Elladaga buyuk yurishi boshlandi. Forslar ikkita panton ko'prik yasab, Gellespont bo'g'ozi orqali o'tishdi. Bu kechuv talofatsiz bo'lmadi, kuchli oqim va kengliklar bitta panton ko'prikni buzib tashladi.

Bu talofatdan g'azablangan Kserks o'zini odamlar, balki barcha tirik mavjudotlar podshosi sifatida ko'rib, Gellespont suvlarini qamchilatadi hamda suvga kishan tashladi (Go'yoki bo'ysunmagan suvni jazolash maqsadida). Ko'prikni qurgan ustalar o'ldirildi va yangi ko'prik qurildi.

Oldindan tanlangan yo'nalish orqali forslar barcha Frakiya qirg'oqlari va Makedoniyani eson-omon bosib o'tishdi. Yunonlar birinchi bo'lib himoyani Tempey vodiysining tor kiraverishida ushlashmoqchi bo'lishgan va hatto 10 ming kishilik otryad yuborgan, lekin Fessaliya aristokratlari xoinligidan cho'chib, ushbu pozitsiyani tark etishadi.

Yangi himoya qo'rg'oni sifatida Fessaliyadan O'rta Yunonistonga o'tuvchi yagona tor dara hisoblangan Fermopil tanlandi. Shu yerda himoya vositalari devorlar, minoralar qurildi (Ularning qoldiqlari keyinchalik arxeologlar tomonidan aniqlangan). U yerga 7200 ta goplit va Leonid boshchiligidagi 300 nafar spartalik jangchi yuborildi. Bir vaqtning o'zida 270 ta triyeradan iborat yunon polislari floti Evbeya oroli shimolidagi Artemisiya burniga joylashtiriladi. Ulkan fors qo'shinlari to'rt kun davomida shiddatli hujumlar uyushtirdi. Biroq yunon qo'shinlarining mardonavor kurashlari natijasida Kserks ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Hatto, jangga podshoning saralangan mashhur "o'lmas" jangchilarining jalb qilinishi ham hech qanday natija bermaydi. Spartalik sarkarda Leonid esa jangda kuchli taktikaga ega harbiy ekanligini namoyish etadi. Shunday sharoitda podsho Kserksga fessaliyalik sotqin yordamga keladi. Katta boylik evaziga u yunon qo'shinlarini aylanib o'tuvchi yo'lni ko'rsatadi. Leonid endi kurash olib borish befoydaligini tushunib yetadi va spartaliklardan tashqari jangchilarga chekinishga buyruq beradi. O'zining uch yuz lashkari hamda Fiva va Fespiy yunon shaharlaridan kelgan bir necha guruh lashkarlar bilan Kserksni to'xtatib turish uchun jangga kirishadi. Attikaning

barbod bo'lishi muqarrar ish edi, biroq chekinayotgan askarlar Korinf bo'yinigacha yetib olishga ulgursalar, ular ayollar va bolalar joylashtirilgan Peloponnes va Trezenani, shuningdek, Salaminni, ya'ni Yunonistondan qoladigan arzimas hududni saqlab qolishi mumkin edi. Spartaliklar barchasi halok bo'lguncha jang qildilar. Bu jangda "o'lmaslar" ham katta talafot ko'rdilar. Kserksning ikkita tug'ishgan ukasi halok bo'ldi. Keyingi davrlarda Fermopil yaqinidagi jang jahon tarixida eng mashhur qahramonliklardan biri hisoblanadi. Bu g'alaba forslarning yirik va so'nggi yutug'i edi. Fermopil jangi bilan bir vaqtda Artemisiya burnida uch kun davomida flotlar ishtirokida jang bo'lib o'tadi. Lekin bu to'qnashuvda ikki tomon ham ustunlikka erishmadi. Yunon floti chekinib, Salamin bo'g'oziga joylashdi.

Plutarxning aytishicha, hayajon va umidsizlikka tushgan yunonlarga yetakchilik qilganlar o'rtasida keyingi harakatlar rejasi bo'yicha janjal chiqadi. Afinaliklar Afinani himoya qilish uchun Attikada qolishni talab qilar, qolgan yetakchilar esa shimoldagi katta hududni forslar ulkan qo'shinining bosqinidan ushlab qolishlariga ishonmasdi. Bu gal ular g'olib chiqdilar. Yunonlarning barcha kuchlari janubga, Peloponnesga chekindi, u yerda ular Salamin oroli atrofidagi suvlarda kemalarini to'plashi, shuningdek, Peloponnesni Attika bilan bog'laydigan tor Korinf bo'yinida mudofaani tashkil qilish mumkin edi. Afinaliklar bo'ysundilar, lekin e'tiroz bildirdilar. Bu haqda Plutarx quyidagicha yozadi: *"bunday sotqinlikdan g'azablanib, shuningdek, ittifoqdoshlari ularni qo'llamaganlari sababli cho'chigan va ruhlari tushgan edi"*.

Kserks o'z askarlariga boshchilik qilib, tantana bilan buyuk Afinaga kirib kelib, shaharni vayron qiladi. Fors askarlari Akropolni yoqib yubordilar, ko'rfazning narigi qirg'og'ida afinaliklar qo'l qovushtirib, shaharlarining ustida tutun chiqayotganini ko'rib o'tirishga majbur edilar.

O'ziga ishongan Kserks esa yarimorolni dengiz tomondan qurshovga olish to'g'risida tashvishlanmadi. Buning o'rniga u o'z kemalarini dengizning tor joylariga yuborib, u yerdagi Afina triyeralariga hujum qilishni buyuradi. Femistokl aynan shuni istagan edi. Tezkor va harakatchan triyeralar Salamin atrofidagi

tor joylarda samarali jang qilishi mumkin bo'lib, forslarning kattaroq va baquvvat kemalari ularning teshib yoruvchi zarbalariga chap bera olmasdi.

Salamin jangi mil. avv. 480-yilning 28-sentyabrida bo'lib o'tgan. Femistoklning tashabbusi bilan jangga kirgan kichik va tez harakatlanuvchi triyeralar dushmanga qaqshatqich zarba berdi. O'z navbatida forslarning katta kemalari tor va sayoz joylarda harakatlana olmay, mag'lubiyatga uchradi.

Quruqlikda katta bo'lgan forslar suzishni bilmasdilar. Kemadan tushib qolganlarning tirik qolish imkoni yo'q edi. Jangni kuzatish uchun baland tepalikda oltin taxtda o'tirgan Kserks qattiq g'azablanadi. Bu mag'lubiyat Kserks uchun intiho bo'lmasligi kerak edi, lekin g'azab uni tamomladi. O'z kemalari boshliqlariga – finikiyaliklarga dengizchilarni qo'rqoqligi uchun o'ldirishni buyuradi. Bu barcha finikiyalik dengizchilarni undan yuz o'girishiga olib keladi. Dengizda katta bo'lgan finikiyaliklar ularning hujumi mag'lubiyatga uchraganligining sababini yaxshi tushunardilar.

Shu orada Bobil yana isyon ko'taradi va Femistokl yana o'z rejasiga muvofiq ish tutadi. U asirga olingan forsni qo'yib yuboradi. Mazkur shaxs Kserksga qaytib borib, yunonlar kemalari Gellespontga jo'nab ketmoqchi va u yerda Kserks qo'shinlari bilan birga yetib borguncha pontonli ko'prikni buzmoqchi ekanligi haqida ma'lumot yetkazadi. Bu xabarni eshitgan Kserks uyga qaytib ketishga qaror qiladi.

U Femistoklni tutib olgan kishiga katta mukofot berishini e'lon qiladi so'ngra qo'shinlarining katta qismi bilan Makedoniya va Frakiya orqali ortga qaytib ketadi, kuyovi Mardoniy boshchiligidagi lashkarlarning bir qismi esa Yunonistonda qoldiriladi. Miloddan avvalgi 479-yilda Mardoniy qo'mondonligidagi Eron qo'shinlari Attikaga bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg'ol qilganlar. Sparta, Afina, Megara, Plateya va boshqa polislarning birlashgan kuchlari eronliklarga qarshi kurashga otlangan. Yunonlarning birlashgan qo'shiniga spartalik sarkarda Pavsaniy boshchilik qiladi. Mardoniy qo'shinlari Beotiyaga chekingan. Hal qiluvchi jang shu yili Plateya yonida

bo'lib o'tadi. Unda yunonlar g'alaba qozongan. Eron qo'shini qo'mondoni Mardoniy ham jangda halok bo'lgan.

Yunonlar quruqlikda ham, dengizda ham hujum qiladilar. Bir vaqtning o'zida kemalarini Egey dengizini kesib o'tib, Kichik Osiyo qirg'oqlariga borib turgan fors kemalari qoldiqlariga qarshi yubordilar. Forslar, yunonlar kemalarini ko'rib, ular bilan yana dengizda jang qilib o'tirmaslikka qaror qildilar. Buning o'rniga Kichik Osiyo qirg'og'iga, Mikale shahridan g'arb tomonda kelib to'xtaydilar va quruqlikda jang qilish uchun saflanadilar.

An'anaviy ravishda, ikkala jang, Plateya va Mikale yaqinidagi jang ham, 479-yilning bir kunida yuz bergan, deb hisoblanadi. Mikale yaqinida bo'lib o'tgan jangda forslar o'z qatorlaridagi ioniyalik jangchilarga ishonadilar, ularni orqa tomonni himoya qilish uchun qo'yadilar. Lekin yunonlar yaqinlashganda, ioniyaliklar g'oyib bo'ladilar, forslarni tashlab, o'z shaharlariga tarqab ketadilar. Birlashgan afinalik va spartalik qo'shinlar forslarni poytaxtga olib boradigan yo'l bo'ylab quvib boradilar va o'ldirdilar. Forslarning arzimagan qismi Sard shahri devorlarigacha yetib boradi.

Yunonlarning Plateya va Mikale yaqinidagi g'alabalari fors urushlari natijasiga katta ta'sir o'tkazgan. Shuningdek, Spartadan to Ioniya sohillarigacha joylashgan Yuniston shaharlari umumiy dushmanga qarshi turish maqsadida ko'ngilli ittifoqqa birlashadi. Bu yunonlar dunyosining birlashishga sari qo'yilgan ilk qadam bo'lib, ularning dunyosi siyosiy chegaralar vositasida emas, balki umumiy urf-odatlar va til orqali bir butunlikni tashkil qilgan edi.

Mil. avv. 479-yildan so'ng yunonlar va forslar qarama-qarshiligi deyarli dengizda davom etadi. Yunonlar uchun janglardagi asosiy maqsad Kichik Osiyo va Egey dengizi orollaridagi yunon polislarini forslar hukmronligidan ozod qilish edi. Mazkur harakatlar Mikale jangidan keyinoq boshlandi. Yunonlar floti forslardan birin-ketin shaharlarni jang qilib qaytarib oldilar hamda ozod qilingan shaharlar forslarga qarshi Ellin ittifoqiga birlashib, umumiy dushmanga qarshi kurashga qo'shilardilar. Ushbu kurashlarda Yunonistondagi ikki yetakchi polis – Afina va Sparta o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqa boshladi. Afina dengiz janglarini davom ettirish tarafdori edi. Ellin ittifoqini

boshqargan Sparta esa, kuchli floti bo'lmagani, quruqlikka manfaati bo'lmagani uchun janglarni to'xtatish tarafdori hisoblangan.

Afina va Sparta o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga boshqa omillar ham sabab bo'lgan. Birinchidan dushmanlar Yunonistondan quvilganidan so'ng darhol afinaliklar Femistoklni tashabbusi bilan shaharni kuchli mudofaa devorlari bilan o'rab oldilar. Spartaliklar bu harakatni o'zlariga nisbatan dushmanlik sifatida qabul qiladilar. Oradan bir necha yil o'tgach, spartaliklarning hiyla-nayrangi bilan Femistokl quvg'inga uchraydi, so'ngra xiyonatda ayblanib, sirtdan o'lim jazosiga hukm qilinadi. Taqdir haziliga ko'ra Salamin jangining sobiq qahramoni forslar yurtiga qochib borishga majbur bo'ladi. Uni "buyuk shoh" ochiqko'ngillik bilan kutib olib, hadyalar beradi va Kichik Osiyodagi bir nechta yunon shaharlarini boshqaruvini ham topshiradi.

Ikkinchidan Egey dengizida yunon flotiga qo'mondonlik qilgan spartalik sarkarda Pavsaniy yangi ittifoqchilar – ozod qilingan Ioniya shaharlariga nisbatan shafqatsiz va takabburlik qiladi. Sparta Pavsaniyni qo'mondonlikdan chetlatishga majbur bo'ladi. Forslar ustidan Plateyadagi jang g'olibi amalda spartaliklar hokimiyatidan chiqib ketib, Kichik Osiyodagi Vizantiy shahrini egallab oladi va uni bir necha yil davomida boshqaradi. U Kserks bilan Elladani "topshirish uchun" til biriktirgan, degan mish-mishlar ham tarqaydi. Pavsaniy va nihoyat o'z ona shahriga qaytgach, efor hukmi bilan qatl qilinadi.

Femistokl va Pavsaniy bilan sodir bo'lgan ko'ngilsizliklar Yunonistonda forslar tajovuzi qaytarilgandan so'ng ham notinch vaziyatni yuzaga keltiradi. Sobiq qahramonlar qattiq jazoga duchor bo'ladilar. Bularning barchasi Ellin ittifoqini inqiroziga olib kelib, amalda o'z faoliyatini to'xtatishiga sabab bo'ladi. Sparta ittifoqchilar oldida majburiyatini bajarishdan bosh tortganidan so'ng urushning asosiy qiyinchiliklari Afina gardaniga tushadi. Mil. avv. 478-yilda Afina boshqa polislar bilan hamkorlikda (asosan endigina ozod qilingan, forslar tazyiqiga boshqalarga qaraganda ko'proq uchragan Ioniya shaharlari bilan) forslar davlatiga qarshi kurash uchun yangi ittifoq tuzadilar. Ittifoqning markazida

ioniylarning muqaddas hisoblanuvchi Appolon ibodatxonasi joylashgan bo'lib, shuningdek, u yerda ittifoqning umumiy g'aznasi ham saqlanar edi. Biroq bu birlashmani tarixshunoslikda Delos ittifoqi yoki ko'pincha Birinchi dengiz ittifoqi deb atashadi.

Afina so'zsiz mazkur ittifoqning eng kuchli a'zosi bo'lgan. Qolgan polislar ikki toifaga bo'lingan. Ularning birinchisi ittifoq flotini o'zlarining kemalari bilan to'ldirgan. Afsuski, imtiyozli mavqega ega bo'lgan polislar soni kam (Samos, Xios, Lesbos va b.) bo'lib, ular tomonidan taqdim etiladigan kemalar soni ham unchalik katta bo'lmagan.

Delos ittifoqiga kiradigan aksariyat davlatlar har yillik maxsus to'lov – foros shaklida o'zlarini pul mablag'larini topshirish majburiyatini olganlar. Foros Delosdagi ittifoq g'aznasiga yuborilgan. U esa Afinadagi xalq yig'ini tomonidan 200 ta harbiy kemani saqlab turish uchun ishlatilgan. Ko'pgina polislar uchun harbiy qismlar jo'natgandan ko'ra foros to'lash qulayroq edi. Har yili polislardan yig'iladigan badalning umumiy hajmi 40 talantni tashkil qilib, yillar mobaynida ancha mablag' yig'ilib qolib, afinaliklarning deyarli ixtiyorida edi. Mil. avv. 454-yili ittifoqchilar g'aznasi Delosdan Afinaga ko'chiriladi. Vaqtlar o'tishi bilan ittifoqdagi Afinaning gegemoniyasi tobora kuchayib, teng huquqlilik deyarli yo'qolib boradi. Bu esa ba'zi kuchli polislarning noroziligini keltirib chiqargan. Hattoki ular Afinaga qarshi qo'zg'olon ko'tarishgacha borishadi: mil. avv. 469-yilda Naksos, mil. avv. 463-yilda Fasos isyon ko'taradi. Lekin bu isyonlar kuch bilan bostirilib, ittifoqdan chiqishga intilganlar jazolanar edi. Shu bilan birga imtiyozli mavqeidan ajralib, ularga kema jo'natish o'rniga foros to'lash majburiyati yuklanadi.

Forslar hukmronligidan yangi yunon shaharlarini ozod qilinishi bilan birga Birinchi Afina dengiz ittifoqi a'zolarining soni ham ortib borgan. Miloddan avvalgi V asrning 50-yillarida uyushmani 200 dan ortiq asosan Egey dengizining sharqiy va shimoliy sohillarida joylashgan ko'psonli orollar va Qora dengizga quyilish joylarida joylashgan polislar tashkil qilgan. Delos ittifoqi qadimgi yunon tarixida eng kuchli polislar uyushmasiga aylanib, yunon-fors urushlarining so'nggi o'n yilligidagi voqealar rivojida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Miloddan avvalgi V asrning 70-60-yillarida Afinada davlat boshqaruviga Miltiadni o'g'li iste'dodli sarkarda va qo'mondon Kimonning nomzodi ilgari suriladi. U Aristid bian birga Delos ittifoqini tuzilishida faol ishtirok etadi va natijada ko'p yillar qatorasiga strateg etib saylanadi hamda amalda harbiy-dengiz kuchlariga qo'mondonlik qiladi. Kimon Sparta bilan tinch aloqalarni qo'llab-quvvatlashga intilib, barcha kuchlarni forslar bilan kurashga yo'naltiradi. Uning boshchiligida afinaliklar forslar ustidan quruqlik va dengizda qator yirik g'alabalar qozonib, dushmanni Egeydan surib chiqardilar. Kimonning eng samarali g'alabalaridan biri mil. avv. 466-yilda Evrimedont daryosi (Kichik Osiyoning janubiy-g'arbiy sohillari)da qo'lga kiritilgan. Afinaliklar bu hududda Egey dengizi havzasidagi yunon manzilgohlariga bostirib kirish uchun mo'ljallangan ham quruqlikda ham suvda yirik kuchlarni to'planganidan xabar topadilar. Kimon boshchiligidagi ittifoqchilar qo'shini to'satdan fors harbiy kuchlari joylashgan yerga bostirib keladi. Yunonlar 350 ta kemadan iborat bo'lgan forslar flotini tor-mor qilganidan so'ng quruqlikdagi qo'shinlarni ham mag'lubiyatga uchratadi. Shu kunning o'zida yana dengizga chiqib, Yevrimedont daryosining quyilish joyidagi 80 ta kemadan iborat yana bir dengiz flotini yakson qiladi. Yunon-fors urushlaridagi eng shonli voqealardan biri bo'lgan Yevrimedont yaqinidagi jangdan so'ng Ahamoniylarning yangi hukmdori Artakserks I afinaliklar bilan yunonlarning foydasiga sulh tuzishga majbur bo'ladi.

Afsuski, mil. avv. 461-yilda Kimon ostrakizmda ayblanib, Afinadan quviladi. Kimon yo'qligida Afina siyosatchilari o'zlarini noma'qul tutishib, bir necha yo'nalishlarda harbiy harakatlar olib bordilar.

Artakserks I hokimiyatga kelgach, Misr satrapligi liviyalik Inar boshchiligida mil. avv. 460-yilda forslarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilarga yordam berish uchun afinaliklar 200 ta kemadan iborat flot jo'natishadi. Qo'zg'olonchilar Afina floti yordamida dastlab g'alaba qozonganiga qaramay, Ahamoniylar mil av. 455-454-yillarda yangi armiya tashkil etib, qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldilar. Afinaliklar flotining deyarli barcha floti yakson bo'ladi. Misrda forslar hukmronligini tiklanishi va

afinaliklarning mag'lubiyatga uchrashi, Sharqiy O'rtayer dengizida vaziyatni Ahamoniylar foydasiga o'zgartiradi. Afinada qaytadan strateg lavozimiga tayinlangan Kimon misrlik va kiprliklar ko'magida mil. avv. 450-449-yillarda forslarga qaqshatqich zarbalar beradi. Keyingi harbiy harakatlar ikkala tomon uchun ham istiqbolsiz bo'lib bordi. Mil. avv. 449-yili Kimonning qarindoshi bo'lgan Kalliy Ahamoniylar davlati poytaxti Suzaga yuboriladi. Uning tashabbusi bilan tuzilgan kelishuv "Kalliy sulhi" nomi bilan tarixga kiradi. Mazkur sulhga asosan forslar Kichik Osiyodagi barcha yunon polislari mustaqilligini tan oladi. Hamda ularga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslik va Egey dengizi hududlariga flot kirgizmaslik majburiyatini oldilar. O'z navbatida yunonlar Sharqiy O'rtayer dengizi va Misrdagi forslarga qarashli satrapliklar ichki ishlariga aralashmaslikni zimmasiga oldilar. Shunday qilib, uzoq davom etgan urush yunonlar g'alabasi bilan nihoyasiga yetadi.

Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina. Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina tez tiklandi. Pirey porti qayta qurilib, o'sha davrdagi O'rtayer dengizidagi eng yirik port hisoblangan Karfagen portiga tenglashdi. Dengiz ittifoqiga yetakchilik qilgan Afina yunon dunyosi dengiz savdosida ham birinchi o'rinni egalladi. Afina eksporti Shimoliy Qora dengiz, Sitsiliya, Apuliya, Etruriyani qamrab oladi. Egina, Korinf, Kerkira va boshqa shaharlar savdoda Afinani birinchiligini e'tirof etishga majbur bo'ldilar.


Mil. avv. V asr o'rtalariga kelib Afinada hunarmandchilik va dehqonchilikda foydalaniladigan qullar soni ko'payib ketdi. Afina olib borgan ko'plab urushlar natijasida Kichik Osiyo, Frakiya va Illiriyadan qullar olib kelib sotiladigan Xios orolidagi qul bozori iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo'lgan doimiy ehtiyojini qondirdi.

6-MAVZU. MIL. AVV. V-IV ASRLARDA YUNONISTON. POLIS TIZIMINING INQIROZI

Reja:

1. **Afinada quldorlik demokratiyasining rivoji.**
2. **Peloponnes urushlari (mil. avv. 431-404-y.).**
3. **Polis tizimining inqirozi.**

Afinada quldorlik demokratiyasining rivoji. Yunon shahar-davlatlarining raqobati va Afina demokratiyasining rivoji Yunonistonda fors bosqinini bartaraf qilish jarayonida kuchli ellinistik umumiylik shakllandi. Uchinchi bosqinni oldini olishga intilib, ko'plab yunon polislari urushda harbiy dengiz kuchlari jihatidan alohida o'rin egallagan Afina boshchiligidagi ittifoqqa birlashdilar. Bu ligadan kelgan daromadlar natijasida Afina polisining mavqei yanada ortadi, jamiyatda boshqaruv ishlarida qatnasha oladigan erkaklar soni ko'paygan. Oddiy fuqarolar rivojlanib borayotgan shaharlar aholisining asosiy qismiga aylanib bordi, biroq ular boy va aslzodalarga siyosiy boshqaruvda an'anaviy monopol boshqaruvni qo'llab-quvvatlashlariga halal berardilar. Haqiqatda Afinaning imperiya korxonalari Attikadagi qullar sonini oshirdi va erkak fuqarolari orasida tenglik o'sib borsa-da, ayollarning mavqei pastligicha qolaverdi. Kserks mag'lubiyatidan keyingi o'n yillar mobaynida Afina shahri asosiy madaniy markazga aylandi. Barcha sayohatchilar xudo Dionis sharafiga qo'yiladigan tragediyalarni ko'rishga kelishardi. Afinaliklarning dengizni qo'riqlash uchun olingan pullarning bir qismi diniy marosimlarni nishonlash va Afina tepaligidagi Parfenon kabi ommaviy inshootlar qurish uchun ishlatilar edi. Tragediyachilar Esxil, Yevripid va Sofokllarning barchasi Afinada tug'ilgan, shuningdek, komik dramaturg



8-rasm. Parfenon ibodatxonasi. Afina

Aristofan, haykaltarosh Fidiy va tarixchi Fukididlar ham shular qatorida bo'lishgan.

Mil. avv. V asrlarda Afina Yunonistonning yirik savdo va qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Yunon-Eron urushlari va Afina ittifoqi tashkil topayotgan bir vaqtda, katta o'zgarishlar ro'y berdi. Solon islohotlariga ko'ra Afinaning barcha fuqarolari o'zlari mansub bo'lgan mulkiy tabaqaga ko'ra ma'lum bir harbiy majburiyatlarni ado etganlar. Shuningdek, ular ba'zi huquqlarga ham ega bo'lganlar. Islohotlardan so'ng kambag'al qatlam – "fetlar" Afina siyosiy pillapoyasining eng quyi pog'onasiga tushib qoladilar. Og'ir qurol-yarog'lar sotib olish uchun mablag'i bo'lmaganligi tufayli ular yordamchi bo'linmalarda xizmat qilganlar. Flot Afina dengiz ittifoqining tayanchi bo'lganligi uchun fetlar siyosiy ahamiyati jihatidan asta-sekin Afina demosining nisbatan yuqori darajasi – zevgitlar, qisman esa suvoriylar bilan tenglashib, mil. avv. V asrda Afina qudratining asosiy tayanchi bo'lib qoldilar. Yunon-Eron urushlari davridayoq Afina demosini mavqei oshib, ular hokimiyat uchun kurashganlar.

Afina qishloqlarida, asosan, qishloq demosining vakillari bo'lmish mayda va o'rtahol dehqonlar yashaganlar. Keyinchalik yirik yer egalari paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga Afinada aristokratiya hukmronligi bilan oligarxiya ham rivojlandi. Afina aristokratlari o'z hukmronlik mavqeini yo'qota bordi. Yunon-Eron urushlari tugashi arafasida aristokratik va demokratik guruhlar o'rtasida siyosiy kurash boshlandi.

Aristokratlar harbiy muvaffaqiyatlari tufayli Afina siyosatida ham yetakchilikka intilganlar. Afinada ularga mashhur sarkarda Miltiadning o'g'li Kimon boshchilik qilar, ammo aristokratlar o'sha davr ishlab chiqarishida muhim o'rin tutmaganlar. Vaqt o'tgani sayin ularning yer-mulki kamayib borgan. Ular, aksariyat, demokrat kuchlarning Afinada yo'qligidan foydalanib, boy fuqarolar ko'magi bilan hokimiyatni vaqtincha kuchaytirishga erishdilar. Biroq urush harakatlari tugab, jangchi va dengizchilar urushdan qaytib kelganidan so'ng, Afinada demos qatlamining faolligi kuchaydi. Endi demokratiyaning vazifasi hokimiyatda aristokratlarning siyosiy huquqlarini zaiflashtirishdan iborat bo'ldi.

Peloponnes urushlari (mil. avv. 431-404-y.). Afina va Sparta o'rtasidagi raqobat. Afinada qattiqqo'l va zo'ravon Femistokldan keyin donishmand va oliyjanob Kimon hokimiyat tepasiga keladi. Kimon va Femistokl har bir jabhada bir-biriga qarama-qarshi edi. Ularning biri sekin bo'lganda, biri tez bo'lgan, biri manman bo'lganda, ikkinchisi odobli bo'lgan.

Kimon aqlli bo'lmagan, lekin mohir lashkarboshi edi. U harbiy obro'si tufayli Sparta bilan aloqalarni uzish va demokratiyani rivojlantirish maqsadida bo'lgan. O'z faoliyati davomida Afina yig'inida Efialt boshchiligidagi koalitsiya u bilan hisoblashishga majbur bo'ladi. Shu bilan Kimon katta obro' qozonishda davom etgan. Mil. avv. V asrning 70-yillarida Kimon boshchiligidagi afinaliklar Egey dengizidagi qator orollarni egallab olishga muvaffaq bo'ldilar. Afina polisining Delos ittifoqidagi mavqei yanada ortdi. Bu jarayon ikkinchi yirik polis – Sparta bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Mil. avv. 464-yili Spartada kuchli zilzila ro'y berdi. Zilzila natijasida ko'plab uylar vayron bo'ladi va minglab odamlar qurbon bo'ladi, bundan foydalangan ilotlar esa qo'zg'olon ko'taradilar. Itom tog'ida mustahkamlanib olgan qo'zg'olonchilarni bostirishga kuchi yetmagan spartaliklar, mil. avv. 481-yilda forslarga qarshi urush davomida tuzilgan Ellin ittifoqiga kiradigan shaharlardan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Kimon boshchiligidagi aristokratlar Afina kengashini Spartaga yordam berishga ko'ndirdi. Og'ir qurollangan qo'shin (goplitlar) yetib borgan vaqtda spartaliklar qo'zg'olonni o'z kuchi bilan bostirishga erishib, afinaliklarni orqaga qaytarib yuboradilar. Afina demokratiyasi vakillari Efialt boshchiligida buni o'zlariga haqorat deb bilib, Kimonga qarshi kurash boshladilar. Mamlakatda ostrakizm so'rovi bilan Kimon amalidan ayrilib, quvib yuborildi.

Efialt islohotlari. Efialt Kimonga bosim o'tkazib undan qutulgach, bir qancha sezilarli islohotlarni o'tkazishga erishdi. Biz Efialt islohotlari to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lmasak-da, biroq u qadimgi Oliy sudning mavqei va ta'sirini tushirishni maqsad qilgandi (mil. avv. 462-yilgi qabul qilingan qonun buning isbotidir). Ammo bu idoraning obro'-e'tibori zo'r bo'lganligi bois, Efialtning o'z maqsadiga erisha olishi qiyin kechadi.

U dastlab areopagga qarshi yetarlicha dalillar to'plagan (Areopag-Afinaning oliy sud va hokimiyat organi). Keyinchalik Efialt islohotlar o'tkazishga muvaffaq bo'lib, areopagni siyosiy nazorat imkoniyatidan mahrum qilib, endi u faqat sud ishlarini yuritish bilan cheklanadigan bo'ldi. Qolgan ishlarning barini geliya, ya'ni hakamlar sudi ijro etgan.

Efialt vafotidan so'ng Afina demokratiyasi zaiflashib qoldi. Aristokrat va demokratlar o'rtasida siyosiy kurash keskinlashdi. Bu vaqtda tajribali siyosiy arbob Fukidid aristokratiya sinfi yetakchisi, Perikl esa demokratiya sinfi yo'lboshchisiga aylandi.

Perikl va Afina demokratiyasining rivoji. Perikl Afina demokratiyasi ruhiyatiga sodiq edi, siyosiy kurashlarda demos manfaatlarini himoya qilgani uchun afinaliklar saylovlarda uni qo'llab-quvvatlashadi. Aslida, undan tashqari yana to'qqizta strateg bo'lsa ham boshqa generallar uning ra'yiga qarshi chiqishmagan.

Perikl quldorlik demokratiyasi g'oyalariga sidqidildan sodiq edi. U Afina demosining turmushini yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilgan va uning manfaati yo'lida faoliyat yuritgan. Perikl o'z hayotini Afina demokratiyasiga bag'ishlagan. Uning "Biz oz muddatda yaratganlarimiz qisqa muddat yashamasligi kerak" degan iborasi xalq orasida mashhur edi. Perikl demosning o'rta tabaqalariga tayangan va Afina kambag'al tabaqalarini ish bilan ta'minlashga intilgan. U shahar aholisi bilan birga yirik qurilishlarda ishtirok etgan. Perikl xalq yig'iniga tayanib, 15 yil Afina quldorlik demokratiyasi hokimiyatini boshqardi. Afina demokratiyasi ko'proq xalq yig'iniga tayanib ish ko'rgan. Bu esa Afina siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Peloponnes urushi arafasida Yunoniston. Delos va Peloponnes ittifoqlari. Yunon shahar-davlatlarining gullashi davomiy bo'lib chiqmadi. Bu yunon-fors urushlaridagi g'alabalar va Peloponnes urushlari orasidagi qisqa mo'tadillik va ko'tarilish davri edi. Buning ustiga hatto o'sha davrda ham mo'tadillik nisbiy edi, ko'tarilish esa qulash tendensiyalariga to'la edi. Forslar bilan to'qnashuvda yunonlarning ozod fuqarolar jamiyati forslar despotiyasidan ustun ekanligini ishonch bilan isbotlab berishdi. Shu bilan birga yunon-fors urushlari xo'jalikning kuchli quldorlik

shakllarini rivojlantirgan holda fuqaroviy jamoalarda ijtimoiy va egalik manfaatlarini o'sishiga yordam bergan. Shuningdek, ular umumiy ozodlikning qudratli himoyachilari bo'lgan Afina va Spartani oldingi qatorlarga olib chiqdi. Qadimgi Yunonistonda, aslida shahar-davlatlar orasida asosan ikki qarama-qarshi kuch mavjud bo'lgan. Bir tomonda Sparta Janubiy Yunonistonning katta qismlari bo'yicha konservativ polislarni birlashtirgan holda mil. avv. VI asrdayoq Peloponnes ligasining tashkilotchisiga aylangan edi. Boshqa tomonda keyingi yuz yillikdagi yirik birlashma – Delos, yoki savdo aloqalari jihatida umumiylashgan dengizbo'yi va orol polislarining katta qismini birlashtirgan va forslarga qarshi kurashda o'sha kuchlarni birlashtirishni ko'zlagan Afina dengiz ittifoqini mavqei ortib borardi. Peloponnes ligasining yadrosi konservativ, agrar tipga mansub bo'lgan, asosan savdo-iqtisodiy aloqalarga moslashgan doriylar jamoalari edi. Har jamoa o'z sardorining tashabbusiga bo'ysungan holda ta'sir doirasini saqlab qolish va kengaytirishga intilgan va raqobatchi guruhlar muvaffaqiyatlarini obdon kuzatib borgan. Ikki ittifoq o'rtasidagi bu raqobat o'z o'rnida mil. avv. V asrda Yunoniston jamiyatida shunday siyosiy qarama-qarshilikka aylanganki, u umumiy katta ichki mojaroni, Peloponnes urushi (mil. avv. 431-404-y.)ni keltirib chiqargan. Bunda birinchi o'rinda Afina tashabbuskor tomon sifatida namoyon bo'ladi. Tez rivojlanib borayotgan iqtisodiyot va unga asoslangan ijtimoiy harakatlarga bo'lgan ehtiyoj afinaliklarni o'z ta'sir doirasi, hududini kengaytirishga, xomashyo va resurslarini ko'paytirishga undagan. Afina bilan dengizda raqobatini olib borgan doriylarning savdo shaharlari, eng avvalo, Megara va Korinf, shuningdek, butunlikni saqlab qolish g'amidagi katta yer egalarining barchalari Spartaga murojaat qilishardi. O'z navbatida Sparta ham Peloponnes ligasida siyosiy yaxlitlikni saqlab qolishni xohlardi. Afinaning V asrning 50-yillarida Istma va O'rta Yunonistonda o'z kuchini o'rnatishga bo'lgan harakatlari oxir-oqibat uning Sparta bilan qurolli to'qnashuviga olib keldi. Bu birinchi yoki kichik Peloponnes urushi nomini olgan harbiy to'qnashuvlar (mil. avv. 457–446-yy.) o'ziga xos kuchlarni sinash voqeasi bo'ldi. U ikki tomonga ham muvaffaqiyat keltirmadi,

shunchaki navbatdagi urushga tayyorgarlik vazifasini o'tovchi qisqa vaqt bo'lgan "O'ttiz yillik" tinchlik sulhi bilan tugadi.

Urushning sababi Afina va Sparta o'rtasida Yunonistonda gegemonlik qilish uchun olib borilgan kurash hisoblanadi. Shuningdek, boshqa tomondan Korinf va Megara o'rtasidagi savdo raqobatlari dastlabki mojarolarni keltirib chiqargan edi. Mil. avv. 433-yilda Kerkira va materik orasidagi havzada kerkiraliklar va korinfliklar o'rtasida jang bo'lganda Afina floti unga aralashib kerkiraliklarni mag'lubiyatdan saqlab qoladi. Shunday qilib Korinf va Kerkira o'rtasidagi tortishuv Afina va Korinfning bir-biriga qarshi qurollanishiga sabab bo'lgan. Bu orada Xalkidiki yarimorolidagi Potideya tufayli ikkinchi mojaro kelib chiqdi. Korinfliklar tomonidan asos solingan Potideya Afina dengiz ittifoqi tarkibiga kirgan. Mil. avv. 430-yillarda afinaliklar tomonidan ittifoq to'lovi summasining oshirilishi va Xalkidiki shaharlari ustidan qattiqroq nazoratning o'rnatilishi potideyaliklarning Peloponnes ittifoqiga yaqinlashish yo'llarini qidirishiga olib keldi. Mil. avv. 433-yilda Afinadan ochiqchasiga ajralib chiqqan Potideya yordam so'rab Korinf va Peloponnes ligasiga murojaat qildi. Peloponnesdan Potideyaga ikki ming ko'ngillidan iborat otryad yetib keldi. Afinaliklar o'z o'rnida mil. avv. 432-yilning bahorida qo'zg'olon qilayotgan shaharga yirik harbiy qo'shin yubordi. Nihoyat, uchinchi falokat ham qo'shildi, afinaliklar Megara ustiga yurish qilishdi. Afinaliklar Megaraga Peloponnes ittifoqi bilan aloqalarni uzishni talab qilib, bosim o'tkaza boshlaydi. Bu bosim hech qanday natija bermagach esa megaraliklarga Afina portlari va Afina ittifoqi shaharlariga kirish va savdo qilish taqiqlab qo'yildi. Potideya va Megaraning Peloponnes ittifoqidan ularni qo'llab-quvvatlashini so'rashi va korinfliklarning afinaliklarga qarshi darhol chora ko'rilishini talab qilishi Spartaning hal qiluvchi qadamni tashlash istagini uyg'otdi. Mil. avv. 432-yilning kuzida spartaliklar xalq yig'ini afinaliklarni "O'ttiz yillik" tinchlikni buzganlikda aybdor deb qaror chiqardi. Birozdan so'ng Afinaga qarshi urush boshlashga qaror qilgan Peloponnes ittifoqi a'zolarining Spartada yig'ini bo'lib o'tdi. Yilning kech payti bo'lgani uchun urush darrov boshlanmadi, tomonlar qishni kuchlarni to'plash va ikki tomonlama diplomatik

hujjatlarni tayyorlashga sarflashdi. Spartaliklar Potideya qamalini bekor qilish, Eginaga avtonomiya berish, megaraliklar haqidagi qarorni bekor qilish va nihoyat, Afina qo'li ostidagi barcha yunon shaharlariga ozodlik berish kabi talablarni qo'yadi. Biroq u bilan birga Spartaning boshqa talablari ham rad qilindi. Afinaning yon bosmasligi undagi ichki vaziyat bilan izohlanadi. V asrning 30-yillarning oxiriga kelib Afinadagi siyosiy vaziyat keskinlasha boshladi. Oxirgi 10-yil davomida mamlakat boshqaruv kemasini mutlaq o'zi boshqarib kelayotgan Periklning holati kuchsizlandi. Periklning avtoritar pozitsiyasi turli qatlamlar – oligarx va demokratlar muxolifati asta kuchayib borayotgan guruhlar orasida norozilikni keltirib chiqargan edi.

Urush arafasida Afina piyoda qo'shinlari 30 mingdan ortiq edi. Ulardan 13 mingtasi goplitlar, 1200 tasi otliqlar, 16 mingtasi garnizon jangchilari bo'lgan. Flot 300 ta suzishga tayyor turgan triyeralar va ularga qo'shilishi kerak bo'lgan ittifoqdosh xioslik, lesboslik va kerkiraliklar eskadralaridan iborat edi. Afina dushmanlarining kuch va imkoniyatlari nisbatan ishonchsizroq ko'rinardi. To'g'ri, Peloponnes ittifoqi piyodalar qo'shinini 60 ming kishiga chiqarishi mumkin edi. Biroq peloponnesliklar floti afinaliklarnikidan ikki, uch marta kam edi. Agrar polislarning moliyaviy imkoniyatlari afinaliklarniki bilan hatto tenglasha olmasdi. Peloponnesliklar Attika ustiga hujum qilishni rejalashtirar edi. Ular odamlar urushga jalb qilinishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jaligi hududlarini yakson qilib, birinchi jangdayoq urushni yutib chiqmoqchi bo'ldilar. Periklning rejasi quruqlikda Afinaning o'zini va boshqa qal'alarni himoya qilish bilan cheklanish, faol operatsiyalarni esa dengizda olib borishdan iborat edi. Peloponnes qirg'oqlarini qurshab olib, qo'shinlarni kiritib va tobe aholida qo'zg'olon uyg'otish bilan afinaliklar o'z dushmanlari davlatining qulashi va yakson bo'lishiga umid qilishadi.

Arxidam urushi va mustahkam bo'lmagan yarashuv. Mil. avv. 431-yilning bahoriga kelib tomonlar tayyorgarlikni tugatishdi. Urush harakatlari fivaliklarning Afinaga ittifoqdosh bo'lgan beotiylar shahri Plateyaga kutilmagan hujumi bilan boshlandi, lekin fivaliklar otryadi tor-mor etildi. Asirga olingan

jangchilar qatl etildi. Ular orasida ko'zga ko'ringan fivalik aristokratlar ham bor edi. Javob tariqasida katta Peloponnes qo'shinlari yoz oyi boshida Attika hududiga kirib bordi. Peloponnesliklarga spartalik hukmdor Arxidam qo'mondonlik qildi. Shuning uchun ham Peloponnes urushlarining butun birinchi davrini mil. avv. 421-yilgacha Arxidam urushi deb atashadi. Dushmanlarning hujumi qishloq aholisini shaharga ko'chib, uning devorlaridan panoh topishga majbur qildi. Ammo Perikl dushmanning ustun qo'shinlari bilan ochiqdan-ochiq jangga kirish tavakkal ekanini anglab turardi va shuning uchun yurtdoshlarini bunday to'qnashuvdan saqlab qolishni uddaladi. Attikaning shimoliy qismini bo'm-bo'sh qilgach, Arxidam tezda o'z qo'shinini Peloponnesga qaytarib olib ketdi, afinaliklar esa jonli kuchlarini saqlab qolishdi. Bu orada Afinaning floti Peloponnes bo'ylab tekshiruv, reyd o'tkazib ulgurgandi. Afinaliklar qirg'oqbo'yi hududlarini bo'shatib, ularni o'zlarining Kefalleniy orollari ittifoqiga birlashtirishdi hamda Korinfning bir koloniyasini ham qo'lga kiritishdi. Undan tashqari afinaliklar ikkita qaqshatqich operatsiyani amalga oshirishdi: Eginadan spartaliklarni qo'llab-quvvatlagani uchun mahalliy aholi quvg'in qilindi va u yerga Afina koloniyalari joylashtirildi, yil oxiriga borib esa Megaraga yurish qilindi. Mil. avv. 430-yilda peloponnesliklar Attikaga takror yurish qildi, bu safar Arxidam ancha ichkariga kirib bordi va mamlakatda deyarli bir yarim oy qolib ketdi. Dushmanlar yana ekinlarni yo'q qilib, Afina dehqonlarining uylarini yoqib yuborishardi. Qishloq xo'jaligi hududlarining vayron etilishi afinaliklar uchun og'ir zarba bo'ldi, ammo undan ham yomoni shundaki, Pirey bandargohi, so'ngra Afinaning o'zida ham vabo tarqaldi. Uncha katta hududga ega bo'lmagan va oddiy gigiena shart-sharoitlari mavjud bo'lmagan bu shaharda 200 minggacha odam to'plangan edi. Epidemiya aql bovar qilmas darajada tez tarqalib borardi. Fukididning guvohlik berishicha, jang salohiyatiga ega bo'lgan armiyaning to'rtdan bir qismi halok bo'ldi. Bundan tashqari Afina xalqining ma'naviy ahvoli og'irlashib, ishonchsizlik kayfiyati avj olib borardi. O'sha vaqtning o'zidayoq Perikl floti yordamida Peloponnes atrofida yana reyd o'tkazdi, biroq shimoliy va sharqiy sohildagi bir nechta

punktlarning vayron etilishidan boshqa natijaga erishilmadi. Keyin flot va qo'shin Xalkidiki qirg'oqlariga yo'naltirildi, lekin bu yerda afinaliklarning harakatlari epidemiya tufayli mutlaq cheklangan edi. Kasallik yangi qo'shilgan jangchilarning uchdan birini nobud qildi va mil. avv. 432-yildan beri Potideyani qamal qilib kelayotgan Afina qo'shinlariga o'tdi. Bu hamma muvaffaqiyatsizliklar natijasida Perikl siyosiy jihatdan quladi. Mil. avv. 430-yilning yozida navbatdagi mehnat yili uchun strateglar tanlash saylovida oxirgi 15-yil ichida birinchi bo'lib, u Afinadagi eng muhim bu lavozimga saylanmadi. Ammo Periklning chetlatilishi Afinada siyosiy oqimning o'zgarishiga olib bormadi. Sparta bilan muzokaralar olib borish haqidagi taklif va urinishlar tez orada qoldirildi: ikkala tomon ham yon bosishni xohlamasdi, urush davom etdi. Mil. avv. 430-29-yilning qishida afinaliklar holati biroz yaxshilandi, ular nihoyat Potideyani qo'lga kiritishdi. Afina floti Korinf ko'rfaziga kirib borib, Korinfni qamal qila boshladi. Afinada siyosiy vaziyat biroz yengillashadi. Periklдan ayblari olib tashlanib, u yana strateg etib tanlandi. Lekin bu mashhur afinalik siyosatchining so'nggi zafari edi, mil. avv. 429-yilning kuzida uning o'zi shafqatsiz kasallikning qurboni bo'ldi. Periklдan so'ng Xalq yig'inida Kleon ancha ko'zga ko'ringan edi, lekin u shunchaki demagog (balandparvoz so'zlar, va'dalar bilangina cheklanadigan siyosiy arbob) edi, harbiy ishlarga esa Perikl davrasidan bo'lgan Nikiy ismli aslzoda strateg boshchilik qilardi. Tashabbuskor sardorning yo'qligi darrov sezildi, mil. avv. 429-yilda afinaliklar bironta ham faol harbiy yurishlarni amalga oshirishmadi. Ammo dushman tomon dadil harakat qilardi, peloponnesliklar Plateyani qamal qilishni boshlab g'arb tomonga ikkita: quruqlikda – Akarnaniyaga, dengizda esa – Navpaktdagi Afina flotiga qarshi hujum uyushtirishadi. To'g'ri, ikkala harakat ham omadsizlik bilan tugadi, biroq peloponnesliklarning dengizda ancha faol ekanligi namoyon bo'ldi. Mil. avv. 428-yil afinaliklar uchun og'ir sinovlar yili bo'ldi. Spartaliklar yana Attikaga hujum qilishdi va deyarli darhol shu voqeadan keyin muhim orol Lesbosda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu orolning ajralib chiqishi Afinaning Egey dengizini shimoli-sharqiy qismida hukmronligini xavf ostida qoldirardi. Afina xalq yig'inida bosh ko'targan

lesbosliklar harakati bostirildi. Lesbos shaharlari (sodiq qolgan Metimnadan tashqari) o'z avtonomiyasi va flotidan mahrum qilindi, qatl hukmi faqatgina qo'zg'olonning eng faol ming nafar ishtirokchilariga berildi. Lesbos yerlarining sezilarli qismi esa 2700 ta Afina kolonistlariga bo'lib berildi.

Lesbos va Kerkiradagi voqealar Afina himoyasining kuchsiz tomonini ko'rsatib qo'ydi. Separatchilik harakatlari va davlat qulashining ehtimoli kuchayib borar edi. Afinaliklar o'z manfaatlari yo'lida olib borgan urush ittifoqchilarning noroziligini keltirib chiqardi, xolos. Shu bilan birga, Afinaning xatti-harakatlari ittifoqdosh shaharlarda noroziliklarni keltirib chiqardi. Natijada Peloponnes urushlari xususiy jangovar to'qnashuvdan ko'ra ko'proq butunyunon ijtimoiy-siyosiy nizosiga aylanib borar edi.

Mil. avv. 427-yilning kuzida strateg Laxet 20 ta kema bilan Sitsiliyaga suzib ketdi. U ulkan-ulkan zafarlar quchdi. Shu tariqa Messapa afinaliklar tomoniga o'tdi. Mil. avv. 426-yilda muvafaqqiyatdan ruhlangan afinaliklar spartaliklarni muzokaralar boshlashga urinishini rad etganlaridan so'ng 425-yilda spartaliklar 5-marta Attikaga hujum qilishdi. Bu orada afinaliklar Sitsiliyaga 40 ta kemadan iborat yangi eskadrani yuborishdi. Ekspeditsiyaga bosh etib mohir strateg Demosfen tayinlandi. U dushmanga sezdirmasdan Messeniyaning g'arbiy sohilidagi Pilos bandargohiga tushdi va u yerda uncha katta bo'lmagan otryad bilan qolib, himoya qo'rg'oni qura boshladi. Afinaliklarning Messeniyaga, ya'ni doimo ilotlarning bosh ko'tarishiga tayyor bo'lgan mamalakatga o'rnashib olishi spartaliklarni Attikaga yurishini darrov to'xtatishga majbur etdi. Demosfenni tashqi dunyodan uzib qo'yish maqsadida spartaliklar Pilos bandargohiga boradigan yo'lni to'sib qo'yadigan Sfakteriya orollarini egallashadi. Shu vaqtda Sitsiliyaga yuborilgan Afina floti yetib keldi. Afinaliklar Peloponnes eskadrasini yakson qildi va spartaliklarning Sfakteriyadagi garnizonini qamalga oldi. Spartaliklar tinchlik muzokaralarini olib borishni taklif qilishdi. Nikiyning guruhi, aftidan, bu taklifni qabul qilishga moyil edi, lekin Kleonning partiyasi bunga rozilik bermadi.

Mil. avv. 424-yilda afinaliklarning yangi hujumi bilan boshlandi. Nikiy Lakon sohillari yaqinida joylashgan Kifer

orollarini qo'lga kiritdi, boshqa strateglar esa megaralik demokratlar bilan til biriktirib Megaraning bandargohi Piseyani qo'lga kiritishadi. Bu Afina zafarlarining eng yuqori nuqtasi edi, biroq g'alabadan mast bo'lgan Megaradagi afinaliklar shunday natijaga Beotiyada ham erishmoqchi bo'ladilar. Afina qo'shinlarining Beotiyadagi harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

O'sha vaqtda afinaliklar uchun shimoldagi vaziyat keskinlashdi. Yosh spartalik qo'mondon Brasid ajoyib g'oyani ilgari surdi. U Frakiyada yangi front ochish, Afinadan norozi ittifoqchilarni o'z tomoniga og'dirib, shu yo'l bilan Afinaga qaqshatqich zarba berish rejasini tuzadi. Brasid ilotlar va yollanma jangchilardan uncha katta bo'lmagan otryad tuzib, Xalkidikiga yetib keldi. Makedoniyalik hukmdor Perdikka darhol Sparta tomonga o'tdi. Brasid Afinaning shimoldagi hukmronligining poydevori bo'lgan Amfiopol shahrini qo'lga kiritdi. Afinaliklarning Beotiya va Frakiyadagi mag'lubiyatlariga yana bittasi qo'shildi: afinaliklarning faolligidan qo'rqqan Sitsiliyadagi yunon shaharlari ichki urushlarni to'xtatish haqida kelishib olishdi va Afina floti oldiga kelgan joyiga qaytib ketish shartini ko'ndalang qo'ydi. Bu ketma-ket muvaffaqiyatsizliklar harbiy partiyaning obro'sini zaiflashtirib qo'ydi. Sparta bilan tinchlik haqida muzokaralar boshlanadi. Yil tugashi bilan Kleon urush harakatlarini qayta tiklab, uning o'zi shimolga yurishga boshchilik qildi va qisqa muddat ichida boy berilgan punktlar ustidan Afina nazoratini qaytardi. Lekin Amfipolga ketishda Kleonni Brasid qarshi oldi va Kleon mag'lub bo'ldi. Afina mag'lubiyatga uchradi. Kleonning o'zi esa jangda halok bo'ldi. Spartaliklar kam talafot ko'rishdi, lekin nobud bo'lganlar ichida Brasidning o'zi ham bor edi (mil. avv. 422-yil). Jang qilayotgan ikkala tomonning sardorlarini bir vaqtdagi o'limi yana tinchlik muzokaralari uchun yo'l ochadi. Ikki tomon ham 10 yillik urush davomida bir-birini yengish mumkin emasligiga ishonch hosil qildi. Afinada moliyaviy va odam resurslari sarflanib bo'lgan edi. So'nggi mag'lubiyatlar dengiz qo'shinlarini ancha kuchsizlantirib, g'alabaga bo'lgan ishonchini so'ndirdi. Spartaning ham og'irlashdi.

Bunday sharoitda mil. avv. 421-yil bahorida Sparta va Afina tinchlikka erishdi.

Tomonlar urushdan avvalgi vaziyatga qaytib, afinaliklar Pilos va Kiferani, spartaliklar – Amfipolni qaytarib berishga kelishib oldilar. Afinadan ajralib chiqqan Xalkidiki shaharlari o'z mustaqilligini saqlab qoldilar, ammo afinaliklarga dastlab belgilangan hisobda o'lpon to'lab turish majburiyati belgilandi. Barcha asirlar kelishilgan holda almashildi. Bu tinchlik tantanali ravishda 50-yilga qabul qilindi. Bu kelishuv uning afinalik tashabbuskori Nikiy sharafiga "Nikiy sulhi" deb ataldi.

Mil. avv. 421-yilda tuzilgan kelishuv unchalik mustahkam bo'lmagan yarashuv edi. Sulhni tuzgan ikki davlat uning shartlarini bajarishga unchalik shoshilmadilar. Sparta Amfipolning Afinaga qaytarib berilishini ta'minlamadi (ular, shunchaki, o'z qo'shinlarini shahardan olib chiqib ketdilar, biroq shahar mustaqilligini saqlab qolgan edi), afinaliklar ham o'z o'rnida Pilos va Kiferani qaytarishga shoshilmadilar. Na Potideya va Kerkira, shuningdek, Afina qo'li ostida qolib ketganiga sira ko'nika olmagan Korinf, na Xalkidiki shaharlari Nikiy tinchlik sulhini tan olmadilar.

Bu orada Afinada tinchlik tarafdori bo'lgan partiyaning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. Periklning jiyani bo'lgan Alkiviad urush tarafdori edi. Mil. avv. 420-yilda Alkiviad birinchi strateg etib tayinlandi va o'shandan boshlab o'z davlatining siyosatiga ta'sir ko'rsatib, uni urush tomon yaqinlashtirdi. Afinada urush kayfiyatiga qaytayotganligini uning mil. avv. 420-yilda Argos, Mantineya va Elida bilan ittifoqqa kirishi guvohlik beradi. Natijada Korinf Spartaga qarshi ittifoqdan chiqib, u bilan yaqinlashib oldi. Mil. avv. 419-yilda Afina va Argos Epidavrga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. Epidavrga spartaliklar yordamga kelishdi, mil. avv. 418-yilda esa vaziyat Sparta va Afina yordam berayotgan o'sha Peloponnes ittifoqi o'rtasida ochiq urush bo'lishigacha yetib bordi. Nikiyning noto'g'ri harakatlari va qaror qabul qila olmaslik qobiliyati tufayli Afina yomon ahvolda edi. Sparta Mantineya yaqinidagi jangda dushmanlarini yer bilan yakson qildi va butun Peloponnesda o'z gegemonligini o'rnatdi. Bu Afinada siyosiy inqirozga olib keldi:

Giperbolning tashabbusiga ko'ra demokratiya siyosiy arboblarni ostrakisizmga (qadimgi Yunonistonda sodiq bo'lmagan fuqarolarni quvg'in qilish) hukm qildi. Keyingi yillarda Afinada hal qiluvchi rolni Nikiy va Alkiviad o'ynadi. Mil. avv. 415-yilda bir nechta tashqi siyosiy zafarlardan keyin Sitsiliyaga ajoyib ekspeditsiyani uyushtirishga kelishildi.

Sitsiliya ekspeditsiyasi va Dekeley urushi. Mil. avv. 416-yilda Sitsiliyaning kichik bir shahri Egesta o'z qo'shnisi, qudratli Sirakuza qo'llab-quvvatlab turgan, doriylarning Selinuntiga qarshi kurashda Afinadan yordam so'raydi. Afina savdogarlarini Sitsiliyaning hosildor yerlari o'ziga jalb qilgan bo'lsa, dengizchi va eshkakchilarni uzoq sayohat o'ziga tortardi. Xalq yig'ini katta flot va qo'shin yuborishga qaror qildi. Tashqaridan qaraganda bu Egestaga ko'rsatiladigan yordam edi, aslida esa ular Sirakuzaga qarshi kurashib, butun Sitsiliyani egallab olishmoqchi edi. Bu ekspeditsiya uchta strateg – Alkiviad, Nikiy va Lamaxga bo'lib berilgan edi. Mil. avv. 415-yilning bahoriga kelib hammasi tayyor bo'ldi va 6 mingdan ortiqroq jangchi joylashtirilgan ulkan armada urushga shay holatda Pirey portida jamlandi. Ammo suzib ketish oldidan boshlangan barcha harakatlarga soya solgan noxushlik sodir bo'ldi. Bir kechada Afinada qandaydir bezorilar hamma germlarni – savdo va sayohat xudosi Germes tasvirlangan tosh ustunlarni buzib ketishadi. Ammo bu voqea ko'pchilik tomonidan shunchaki bir necha ichib olgan yoshlarning bezoriligi emas, balki fitnachilarning demokratiyaga qilgan tahdid da'vati sifatida qabul qilindi. Bunda Alkiviad shubha ostiga olindi. O'z navbatida Sitsiliyada afinaliklarni yaxshi kutib olishmadi. Naksos darvozalarini ochdi, lekin Katanga kuch bilan kirishga to'g'ri keldi. Bu ikki shaharda o'rnashib olgach, afinaliklar Sitsiliya qirg'oqlaridan ichkariga suzishdi. Afinaliklarning asl maqsadi ko'pgina sitsiliyaliklarga ayon bo'lib bo'lgan edi.

Bu orada Afinada "muqaddas marosim" tergov ishlari davom etardi. Alkiviadga qarshi ish ochildi va uni Afina sudiga olib kelish uchun Sitsiliyaga maxsus kema yuborildi. Alkiviad kelganlar bilan yo'lga tushdi, ammo yo'lda kemadan qochib, qirg'oqqa yashirinishga muvaffaq bo'ldi. U suddan qochganligi bilan o'z aybini isbotladi. Afinada uni o'limga hukm qilishdi, ismini

la'natlab, mulkini musodara qilishdi. Bu esa voqealar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bosh qo'mondonga aylangan Nikiy maqbul yo'llar bilan harakat qilmayotgan edi. Mil. avv. 414-yilning bahorida afinaliklar Sirakuzaga yaqin kelib uni qamal qila boshlaydi. Qish bo'yi sirakuzaliklar shahar atrofida yangi himoya chizig'ini yaratishdi, kuchli qo'shin to'plab Peloponnes davlatlarining qo'llab-quvvatlashi va yordamidan bahramand bo'layotgan edilar. Ular afinaliklarning qamal harakatlarini yo'qqa chiqarishni uddalashdi. Mil. avv. 413-yilning bahorida sirakuzaliklar dengizda ham ancha jonli harakat qilishga o'tishdi. Sirakuza yonidagi Afina qo'shinlari xavf ostida qolgandi. Bu orada Yunonistonning o'zida ham urush qayta boshlandi. Mil. avv. 414-yildayoq spartaliklar armiyasi Afinaning ittifoqdoshi Argos yerlariga bostirib kirgan edi. Afinaliklar floti javob tariqasida Lakonika qirg'og'iga hujum qiladi. Afinani tinchlik sulhini buzganlikda ayblab spartaliklar qo'shini shoh Agis qo'mondonligida keyingi bahorda Attikaga bostirib kirishdi. Bu paytga kelib Spartaga o'tishga muvaffaq bo'lgan Alkiviadning maslahatiga ko'ra ular Afina shimolidan 20 km uzoqlikda joylashgan Dekeleyani egallashdi va Attikaning yarmini doimiy kuzatuv ostiga olishdi. Spartaliklar Afinaga qarshi hamma operatsiyalarini Dekeleyadagi bazalariga tayanib olib borganliklari uchun Peloponnes urushlarining bu bosqichini Dekeleya urushi deb ham nomlashadi.

Spartaliklar qo'shinini Afinaga bu qadar yaqin ekanligi dahshatli tahdid uyg'otardi. Shunga qaramay afinaliklar Sitsiliyadagi kampaniyani davom ettirishardi. Mil. avv. 413-yilning yozida ular u yerga yangi, avvalgisidek katta flot va qo'shinlarni mashhur Demosfen boshchiligida yuborishdi. Biroq Sitsiliya va Peloponnesdagi ittifoqdoshlaridan yordam etib kelishi natijasida sirakuzaliklar bilan bo'lgan ikkita jangda Afina floti mag'lub bo'ldi. Afinaliklar Sitsiliya janubiga yo'l olishdi. Ularning bir qismi asirga tushdi, Nikiy va Demosfenni esa tinch holatdagi davlatga asossiz hujum qilgan qo'mondonlar sifatida qatl qilishdi. Afinaning Sitsiliyadagi mag'lubiyati ulkan talofatli bo'ldi. Shunchalik ko'p odam va kemalar yo'qotilgan ediki, ularni yaqin yillar ichida tiklab olishning iloji yo'q edi. Afinaning eng muhim ittifoqdosh

shaharlari – Evbeya, Lesbos va Xios yashirincha peloponnesliklar bilan aloqaga kirishishdi. Tez orada bu harakat butun Ioniya va Eliadani egalladi. Separatistlarni qo'llab-quvvatlash uchun spartaliklarga katta flot kerak edi. Biroq uni qurish katta mablag'ni talab qilardi, spartaliklarda esa bu mablag' yo'q edi. Shunday sharoitda Sparta Eron bilan yaqinlashdi. Sparta kerakli ko'makni oldi, ammo ular fors hukmdorining butun Kichik Osiyoda, bir necha sohilbo'yi yunon shaharlarini ham hisoblagan holda, hukmronligi va hokimiyatini tan oldilar. Eron Sparta yordamida o'zining eski dushmani Afina bilan hisobni tenglashtirib olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mil. avv. 411-yilning boshiga kelib Afina qo'li ostida Lesbos, Samos, Kos va ikki-uchta Kichik Osiyo sohillaridagi shaharlar qoldi. Barcha omadsizliklar natijasida mil. avv. 411-yili Afinada siyosiy inqiroz yuzaga keldi. Sofist Antifont, Frinix hamda Pisandrning sa'y-harakatlari bilan butun hokimiyat oligarxlarning 400 lar Kengashiga topshirildi. Oligarxiya g'olib bo'ldi, ammo ularning g'alabasi uzoqqa cho'zilmadi. Aholining katta qismi demokratik an'analar davomchisi bo'lgan Afinada oligarxik tuzumning mustahkam va uzoq davom etishi uchun poydevor yo'q edi. Oligarxlarning Samosdagi flot va qo'shinni o'z nazoratiga olish harakatlari samarasiz bo'ldi. Demokratiyaga moslashgan jangchilar dengizchilar, eshkakchilar oligarxiya haqida eshitishni ham xohlashmasdi. Afinadagi ichki inqirozdan foydalangan spartaliklar kanallarda operatsiyalarni boshlab yuborishdi. Ularning paydo bo'lishlarining o'ziyoq Afina ittifoqchilarining ajralib ketishi uchun yetarli edi. Afinaliklar uchun yana bir dahshatli zarba Evbeyaning boy berilishi bo'ldi. Evbeyaning boy berilishi Afinani yangi inqirozga olib keldi, 400 lar hukumati quladi va boshqaruvga Feramenning konservativ ruhdagi guruhi keldi (mil. avv. 411-yil kuz). Yangi yo'nalish ishlab chiqildi va yangi hukumat Alkiviadga amnistiya haqida qaror qabul qildi hamda flot bilan hamkorlikka yo'l ochdi. Uchta ketma-ket jangda Alkiviad va afinaliklar Peloponnes flotini yer tishlatishdi hamda suv yo'llari ustidan deyarli mutlaq nazoratni qo'lga olishdi. Afinada bu g'alabalardan ruhlangan xalq bosh ko'tardi va mil. avv. 410-yil bahorda demokratik tuzum to'laligicha tiklandi.

Muvaffaqiyatlarda Alkiviadning hissasi katta edi. Mil. avv. 407-yilda Alkiviad o'z yurtiga qaytdi va Afina xalqi tomonidan yuksak kutib olindi. U quruqlik va dengizdagi yakka qo'mondon etib tayinlandi. O'sha yilning so'ngidayoq 100 ta triyeradan iborat eskadraga bosh bo'lib Alkiviad Ioniyani zabt etish uchun yo'lga chiqdi. Bu orada spartaliklar o'z flotlarini tiklab olishdi va Efesda afinaliklarni ham deyarli o'shanday eskadra kutib turardi. Sparta flotining qo'mondoni mohir sarkarda Lisandr edi. U Sparta flotining ta'minotini o'z bo'yniga olgan Kir Kichkina bilan yaxshi aloqalar o'rnatgan edi. Mil. avv. 406-yilning bahorida Alkiviadning vaqtinchalik yo'qligidan foydalangan Lisandr Afina flotiga qisman talofot yetkazdi. Bu orada Sparta floti 140 ta triyeraga etdi. Afina floti Lesbosdagi Mitelena bandargohida yakson qilindi. Mil. avv. 405-yilning bahorida Lisandr boshchiligidagi Sparta floti Gellespontda urush harakatlarini boshlab yubordi. Lisandr qulay fursatni poylab kutilmaganda afinaliklarga hujum qildi. Afina kemalari qirg'oqda ekipajsiz turar edilar va spartaliklar ularni osongina egallashdi. Bu mag'lubiyat afinaliklar uchun katta falokat edi. Endi ularda yo'qotilganlarni tiklab olishning hech qanday imkoniyati qolmagan, Afina davlatining taqdiri hal bo'lgan edi. Afina mulklari bo'ylab Lisandr o'z reydini boshladi. Hamma shaharlarda haydab chiqarilayotgan Afina garnizonlarining o'rniga o'zinikilarni joylashtirdi hamda oligarxik hukumat – dekarxiya (10 lar komiteti)ni o'rnatdi. Mil. avv. 405-yilning kuzida Lisandr 150 ta kema bilan Afina yaqinida paydo bo'ldi. Bir vaqtning o'zida shaharga ikki tomondan spartalik piyoda qo'shinlar yaqin kela boshlashdi.

Mil. avv. 404-yilning bahorida qamaldagilarning ahvoli chidab bo'lmas darajaga keldi. Tinchlik tarafdorlari ustun kelishdi, Afina uchun juda og'ir sharoitlarda tinchlik sulhi tuzildi. Ular barcha tashqi mulklaridan ayrilishdi. Afinaning tashqi siyosati butunlay Spartaga qaram bo'lib qoldi. Mil. avv. 404-yilning aprelida Lisandr Afinaga kirib bordi va darhol g'oliblar xursandchiligida uzun devorlar buzilishi boshlandi. Keyin Lisandr Samosga yo'l oldi. U yerda mahalliy demokratiya Afinaga chindan sodiq qolgan edi. Uzoq muddatli qamaldan so'ng samosliklar ham

mag'lub qilindi va shu bilan Peloponnes urushi o'z nihoyasiga yetdi.

Peloponnes urushlari yakuni va oqibatlari. Peloponnes urushining asosiy natijasi Afinaning Sparta bilan uzoq kurashidan so'ng batamom mag'lubiyatga uchragani bo'ldi. Afinaliklar mag'lubiyatining ko'plab sabablari bor edi. Avvalo, Afinaning siyosati uning ittifoqdoshlarida norozilik uyg'otdi. Afinaning qudratli paytida ittifoqdoshlar foyda ko'rar edi, biroq yetakchining kuchi va irodasi sustlasha boshlaganda, ittifoq tarqaldi. Afina mag'lubiyatining boshqa sababi urush rejasining nobopligi edi, dengiz jangi bilan Spartadek kontinental davlatni qulatib bo'lmasdi. Afinaning qishloq xo'jaligi hududlari bilan aloqalarning uzilishi og'ir oqibatlarga olib keldi. Bundan tashqari afinaliklarda mustahkam boshqaruv yo'qolgan edi, operatsiyalarni amalga oshirishda noma'qulchiliklar ham bor edi. Bunga Sitsiliyaga uyushtirilgan ekspeditsiya misol bo'la oladi. U barbod bo'lgan edi. Va nihoyat, Afinaning mag'lubiyatiga spartaliklarga forslarning moliyaviy yordam ko'rsatgani ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu yordam spartaliklarga qudratli flot tuzib, afinaliklar eng kuchli bo'lgan joyda – dengizda ularni mag'lub qilish imkonini bergandi. Xo'sh, spartaliklarning g'alabasi yunon polislariga nima olib keldi? Sparta urushni eilin ozodligini afinaliklar zulmidan qutqarish shiori ostida olib borgan. Ammo Spartani qo'llab-quvvatlash va uning tarafida bo'lish bilan yunonlar aytarli hech nimaga erishishmadi. Afina gegemonligi o'rniga Spartaniki keldi, xolos.

Nihoyat, Afinada mil. avv. 403-yilning kuzida demokratiya qayta tiklandi. Biroq bu urushdan oldin Afinada hukm surgan o'sha buyuk demokratiyaning soyasi edi, xolos. Umuman olganda, yunonlar uchun Peloponnes urushining mohiyati salbiy bo'ldi. Yangi tinchlik va yangi boshqaruv tizimi avvalgidek mustahkam emasdi va tez orada ellinlar yangi ichki nizolar, kelishmovchiliklar ichida qoldilar. Urush fuqaroviy jamoalar o'rtasida kelishmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. U kambag'al va boylar, shahar demosi va qishloq xo'jaligi aristokratlari, demokratlar va oligarxlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada keskinlashtirdi.

Polis tuzumining inqirozi. Miloddan avvalgi V asr so'nggida yunon polislari uzoq davom etgan tushkunlik pallasiga kirdi. Fuqarolarning yopiq jamoasiga asoslangan yunon polislarida endilikda yer mulkchilik munosabatlarida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yerga ishlov berishdan keladigan daromaddan ko'ra sudxo'rlikdan olinadigan foyda o'sib ketdi. Yerni sotish keng tarqaldi. Katta yer maydonlari ayrim fuqarolar qo'liga o'tib qoldi. Kambag'allashgan, yeridan ajragan fuqarolar o'z fuqarolik majburiyatini bajarmay qo'ydilar.

Mil. avv. V asrda boylik ayrim xususiy kishilar qo'lida to'plandi va ular o'zlarining fuqarolik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlay boshladi. Ularning ko'pchiligi o'z mablag'larini dengiz savdosiga qo'yib, o'z polislaridan boshqa hududlarda katta-katta yer maydonlariga egalik qila boshladilar. Endi ma'lum bir polis fuqarosi bo'lish ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Bu davrda yunon polislarida davlat xo'jaligining mavjud emasligi hukumat g'aznasiga daromad tushmasligiga olib keladi. Polislarning moliyaviy qiyinchiliklari uzluksiz urushlar, yollanma qo'shinlarning keng tarqalishi hamda harbiy ehtiyojlarga xarajatlarning muntazam ravishda o'sib borishi bilan qiyinlashdi.

Demokratik polislarda lavozimlarga haq to'lash, kambag'al fuqarolarga muntazam nafaqa berish tizimi bu qiyinchiliklarni yanada chuqurlashtirdi.

Avvallari Afina o'z xarajatlarini ittifoqchilar hisobidan to'ldirgan bo'lsa, mil. avv. IV asrga kelib mulkdan olinadigan favqulodda soliq **eysfora** bilan qoplay boshladi.

Mil. avv. V asr so'nggida meteklar va chet elliklarga alohida xizmatlari uchun polis hududida yer va uylarga egalik qilish hollari tarqaldi.

Polis tushkunligi yollanma askarlarning tarqalishida ham ko'rindi. Chunki yer-mulkidan ajrab, qarzga botib, kambag'allashib qolgan fuqaro qurol-yarog' olishga mablag'i yo'q edi. Endi u begonalar manfaati uchun jang qilishni xohlamas edi.

Yunon polislarining tushkunligi quldorlik tuzumining inqirozi emas edi, chunki qulchilik yanada rivojlandi.

Mil. avv. IV asrda polislar tizimida turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi.

Biror-bir polis qandaydir mustahkam birlashuvni tashkil qilish va unga rahbarlik qilish qobiliyatiga ega emas edi. Yunon polislari endilikda iqtisodiy-siyosiy jihatdan to'liq inqirozga yuz tutgan edi.

GLOSSARIY

Areopag – Afinaning oliy sud va hokimiyat organi.

Agora – Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq majlislari bo'ladigan maydon.

Varvar – dastlab, yunon tilida so'zlashmaydigan har qanday chet ellik kishi; keyinchalik bu so'z madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi.

Goplit – og'ir qurollangan yunon askarlari.

Demagog – balandparvoz so'zlar, va'dalar bilangina cheklanadigan siyosiy arbob.

Ostrakizm – qadimgi Gretsiyada sodiq bo'lmagan fuqarolarni quvg'in qilish.

Demokratiya – yunoncha «xalq hokimiyati», har bir fuqaro o'z mamlakatini boshqarish masalasi bo'yicha o'z fikrini bayon etadigan, shuningdek, davlat boshqaruvida ishtirok etadigan ijtimoiy tuzum

7-MAVZU. ALEKSANDR MAKEDONSKIY IMPERIYASI VA ELLINIZMNING SHARQQA YOYILISHI. ELLINISTIK BOSQICH VA UNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. **Filipp II va Makedoniyaning yuksalishi.**
2. **Aleksandr Makedonskiy imperiyasi.**
3. **Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari.**

Filipp II va Makedoniyaning yuksalishi. Qadimgi yunonlar tarixining o'ziga xos jihatlaridan biri hududda uzoq vaqt davomida o'z mustaqilliklarini saqlab kelgan yunon polislarining mavjud bo'lganligidir. Ularning kichik hajmi va beqarorligi antik davrda ham hayratlanarli bo'lishiga qaramasdan forslar hujumidan omon qolganlar. Mil. avv. IV asrda xorijliklar bosqini xavfi ajablanarli holat emas edi, lekin bu xavf-xatar qudratli Fors imperiyasidan emas, balki o'sha vaqtgacha unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan Makedon yoki Makedoniya nomlari bilan tanilgan podsholik tomonidan edi.

Makedoniyaning muvaffaqiyatlariga Afinadagi siyosiy bo'linishlar va iqtisodiy bosim hamda yunon polislarining parokandalikka uchrashi sabab bo'lgan edi. Bularning barchasi mil. avv. 359-yilda Makedoniya shohi bo'lgan noyob harbiy va diplomatik mahoratga ega Filipp II uchun imkoniyat yaratdi.

Filipp II mil. avv. 382-yilda tug'ilgan bo'lib, Aminta III va uning Illiriyalik xotini Evridikaning farzandi bo'lgan. Plutarxning yozishicha, Evridika bolalarini tarbiyalash uchun o'qishni o'rgangan, lekin Fillppni o'qishi akasi Aleksandr II mag'lubiyati natijasida mil. avv. 369-367-yillarda Fivaga garov sifatida asirlikka jo'natish bahonasida to'xtab qoladi. Uning garov sifatida ushlab turilishi unchalik katta yo'qotish bo'lmadi. Filipp Fivada bo'lganida Lektra ustidan g'alaba unga zamonaviy yunon siyosati va harbiy taktikasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni o'rganishiga turtki beradi.

Filipp mil. avv. 367-yilda Makedoniyaga qaytganida mamlakatda hamon tartibsizlik hukm surardi. So'nggi yetti yil mobaynida uchta podsho davlatni boshqargan edi. Siyosiy

beqarorlik Filippga kutilmagan imkoniyatni hosil qiladi va u Predikass o'limidan keyin hokimiyatni egallashga da'vo qila boshladi.

Filipp II mil. avv. 359-yili Makedoniya podshosi bo'ldi. U taxtga kelganida, Makedoniya har taraflama og'ir iqtisodiy, siyosiy inqiroz holatida edi.

Filipp II o'zidan oldingi hukmdorlarning siyosiy harakatlaridan voz kechadi. Makedoniyani birlashtirib, davlatni mustahkamladi. O'zidan avvalgi podsholarning markaziy hokimiyatni mustahkamlash borasidagi yagona sistemasini mantiqan tugatgan. Shu tufayli Filipp II Makedoniyani Yunon dunyosidagi kuchli davlatlardan biriga aylantirish orqali Forslar bilan raqobatlasha oladigan davlat maqomiga olib chiqqan. Filipp II birinchi bo'lib Makedoniyaning xo'jalik ishlarini rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratgan. U iqtisodiy jihatdan tog'li hududlardan yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloq aholisining bir qismini o'sha yerga ko'chirgan. Bu yangi shaharlar (masalan, Filipp shahri) strategik jihatdan qulay joyga qurilganligidan tashqari iqtisodiy-harbiy tomondan ham markaz bo'lgan. Filipp II bor harakatini konlarni topishga va u yerdan temir ishlab chiqarib, harbiy jihatdan armiyasini kuchaytirishga jalb etadi. Filipp II Pangeya konlarini bosib olib, u yerdagi ishlab chiqarishni kuchaytirish orqali yiliga 1000 talant oltin foyda ko'rgan. Bu unga o'zining oltin tangalarini ko'plab ishlab chiqarish imkonini bergan. Oltin va kumush tangalardan iborat katta zaxiraga ega bo'lishi Makedoniyaga Egey dengizi, Qora dengiz qirg'oqlari va Sharqiy O'rtayer dengizi hududlarida savdo aloqalarini olib borish imkonini berdi. Ulkan flot qurilishi bilan dengizda u katta o'ljalarga ega bo'ldi. Filipp II bir necha yil Yunonistonda (Fivada) yashagani bois, yunon harbiy qismlari kamchiliklarini yaxshi bilgan. Filipp II ning islohotlaridan biri yunon harbiylarining kuchli taraflarini o'z armiyasiga joriy qilganida edi. Asosiy harbiy tuzilishga kiritilgan o'zgarishlardan biri sifatida og'ir qurollangan piyoda qismlarni ta'kidlash lozim. Agar yunon qo'mondonlari o'zining harbiy qatorlarini bitta qismga birlashtirgan bo'lsa, Filipp II buni aksini qilgan va jangda ushbu harbiy taktika ustunlikni

ta'minlagan. Bunday taktika va tuzilish unga jangda muvaffaqiyatlar garovi bo'lgan.

Filipp II davlat boshqaruvida ham katta islohotlarni amalga oshirdi. Birinchi bo'lib mustaqil knyazliklarni yo'q qildi. U aristokratlarni to'plab davlat xizmatiga oldi. Filipp II mamlakatdagi yoshlardan shaxsiy gvardiya tuzib, podsho xos soqchilarini tayyorlagan va o'ziga sodiqlik ruhida tarbiyalagan. Filipp II o'z oldiga davlatni markazlashtirish maqsadini qo'yadi. Boshqaruvining birinchi besh yilligida bir qancha islohotlarni bajarishga harakat qiladi.

Jumladan, o'zining shimoliy chegaralarini illiriyalik va frakiyaliklar hujumlaridan himoyalash va o'z ta'sir kuchini Xalkidiki yarim oroliga yoyish edi. U frakiyalik bilan illiriyaliklarga qarshi kurashish uchun ittifoq tuzdi. Chunki ular mamlakat shimoli-sharqini talon-taroj qilayotgan edi. Keyinchalik u Malos qabilasi oqsoqolining qiziga uylanib, ular bilan ittifoq tuzadi. Illiriyaliklar yengiladi va tinchlik so'rashadi. Filipp II Olimp shaharlari bilan kurashish uchun Afinaga yon berishga majbur bo'ladi. Ayniqsa, Filipp Anfiopol shahri bilan strategik aloqani yo'lga qo'yadi. Bu shaharga o'z vaqtida Afina da'vogar edi, biroz vaqt o'tib bu safar Olimp bilan ittifoq tuzib shu shaharni egallaydi. Mil. avv. IV asrning 50-yillari o'rtasida Filipp sharqqa qarab yura boshlaydi va Frakiyaning Egey dengizi qirg'oqlarigacha yetib boradi va Filipp shahriga asos soladi. Makedoniyani Xalkidiki yarimoroliga harbiy yurishlari Frakiya podsholarini birlashishga majbur etdi va Olimp hamda Afina boshchiligida Xalkidiki ittifoqi tashkil etiladi. Lekin Afina ittifoqchilariga o'z qo'shini bilan unchalik ko'p yordam berolmaydi va makedoniyaliklar tomonidan mag'lub etiladi.

Filipp II o'zining shimoliy chegaralari va Xalkidikidagi siyosiy maqomini mustahkamlab olgandan so'ng, o'rta yunon siyosatiga ta'sir ko'rsata boshladi. Yunon shaharlarini ichki ishlariga aralashishi oqibatida yunon-shahar davlatlarining Vatan urushi (mil. avv. 355-346-y.) boshlanadi. Harbiy yurishlar natijasida Apollon ibodatxonasiga tegishli bir qancha hududlarni egallab oladi. Apollon xudosiga o'z muhabbatini ko'rsatish uchun Filipp

3000 ta fakidiyalik asirlarni dengizga cho'ktirib yubordi. Fessaliya ham Filipp II ning qudratini tan olishga majbur bo'ladi.

Filipp II ning Yunonistonda mavqeini ortib borishi, doimiy ichki ishlarga aralashuvi Afinani ehtiyot bo'lishga undaydi. Makedoniya armiyasini O'rta Yunonistonga kirib borishini to'xtatish uchun Fermopil yo'lini egallab oladi va Filippni Fessaliyaga kirib borishini to'sib qo'yadi. Makedoniyaliklarni O'rta Yunonistonga yurishi omadsiz tugagandan so'ng ular yana janubiy Frakiya hududlarini bosib olishni boshlaydi. Kuchli tayyorgarlikdan keyin Xalkidiki ittifoqi markazi bo'lgan Olimp shahriga hujum qiladi. Afinaliklar Olimpga yordam berish uchun unga 17 ta triyera 300 nafar otliq va 400 ta goplit jo'natadi. Lekin Filipp yordam kelgunga qadar shahar taqdirini hal qiladi.

Yunonlarning eng katta shaharlaridan biri bo'lgan Olimp vayron qilinadi va aholisi shaharni tark etadi (mil. avv. 348-y.). Xalkidiki ittifoqi tarqatib yuboriladi.

Filipp II yana Vatan urushiga aralashishni boshlaydi. Afina esa Xalkidiki va janubiy Frakiyadagi yo'qotishlardan keyin bu tarafdagi o'z hududlarini saqlab qolish maqsadida Filipp II bilan sulh tuzadi. (Bu sulh mil. avv. 346-yilda Filokrad sulhi nomi bilan tarixga kirgan). Filipp II Afina bilan urushni to'xtatgandan keyin markaziy Yunoniston ishlariga aralasha boshladi. U Fivani taklifini qabul qilib o'zining armiyasini Fakidiya hududlariga olib kiradi. Filipp II o'zining bor e'tiborini Fakidiya va Fermopil yaqinidagi muhim strategik punktlarini nazorat qilishga qaratadi. Mil. avv. 346-yil qariyb o'n yil davom etgan Vatan urushi nihoyasiga yetadi. Bu urush bir tarafdan yunon polislarining kuchsizlanishiga olib kelgan bo'lsa, Makedoniya davlatining siyosiy hokimiyatini yanada kuchaytirdi.

Korinf Kongressi. Mil. avv. 337-yil Filipp II tashabbusi bilan Korinfda umumyunon kongressi chaqirildi. Bu yo'l kongressda Yunonistondagi Makedoniya gegemonligini huquqiy jihatdan mustahkamlash va yunonlarni Makedon podshosi qo'li ostida birlashtirish edi. Kongressda yunon xalqlarining Ellin ittifoqi tuzildi, Filipp II esa gegemon sifatida e'lon qilindi. U harbiy qo'shin oliy bosh qo'mondoni bo'ldi va tashqi siyosat boshqaruvini ham o'z qo'liga oldi. Barcha yunon urushlari to'xtatildi va Yunonistonda

umumiy tinchlik o'rnatildi. Bir-birining ichki ishlariga aralashish taqiqlandi va siyosiy tuzilishni o'zgartirish man qilindi. Qaroqchilarga qarshi urush e'lon qilindi. Dengizlarda savdo-sotiq maqsadida suzuvchilarni ozodligi mustahkamlandi. Filipp II mil. avv. 336-yilda Kichik Osiyoga yurish arafasida o'z xizmatkori tomonidan o'ldiriladi. Makedoniyalik podshoning vorisi sifatida uning o'g'li Aleksandr taxtga o'tiradi. Uning ismi bilan yunon tarixida ellinizm yangi davrga o'tadi.

Aleksandr Makedonskiy imperiyasi. Filipp II imperiyani boshqara turib Makedoniyani Dunay daryosidan markaziy Yunonistongacha bo'lgan hududda yetakchi harbiy mamlakatga aylantirdi. Uning o'limi Osiyoga rejalashtirilgan hujumlar va barcha yutuqlarni xavf ostiga qo'ydi. Aleksandr III miloddan avvalgi 336-yilda otasi o'lgan vaqtda 20 yoshda edi. Bashoratchilar keyinroq uning hukmronligi haqida aytgan edilar. Garchi Filippni bir nechta xotinlaridan merosxo'rlari bo'lsa ham, Aleksandrga Filippning butun hokimiyati merosxo'ri sifatida qaraganlar va uning kelajagi uchun qattiq qayg'urganlar. Aristotel bilan birga bir nechta yunon ustozlari yunon adabiyoti va madaniyatidan ta'lim bergan. Aleksandr ulardan bir umrlik Gomerga muhabbatni va afsonaviy ajdodlari Axill va Geraklning



9-rasm. Aleksandr Makedonski impeiyasi hududi

qahramonliklariga tenglashish yoki o'tib ketish maqsadini oldi.

Aleksandrda, shuningdek, Filipp yo'q paytida davlatni boshqarish bo'yicha amaliy tajriba bor edi va Frakiya qo'zg'olonini bostirgan edi. U hattoki, miloddan avvalgi 338-yildagi Xeroneya jangida otliq qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan edi. Shunday bo'lsa-da, uning davomchiligini hech kim kafolatlamagan edi. Filippning eng keksa qo'mondoni Antipeyter Aleksandrni xavf-xatarlardan qutqarib hukmronlik ramzi bo'lgan Egey dengizidagi makedon qo'shinlarini unga taqdim qildi.

Aleksandrning shaxsiy mavqei imperiyaning dastlabki inqirozli yilida unchalik mustahkam emas edi. Bunga Filippning ba'zi amaldorlari Yunonistonni qo'ldan berish xavfi tufayli Makedoniyaning shimoliy o'lkalarini mustaqil qilishga bo'lgan harakatlari sabab bo'ldi.

Yunoniston Aleksandrning e'tiborini tortdi. Filippning dafn marosimi tugashi bilanoq, Aleksandr Filippning o'chini olish uchun o'zini mustaqil deb e'lon qilgan Yunonistonning asosiy polislari Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qildi. Aleksandr Makedoniyaning Fessaliya va Korinf Ligalaridagi gegemonligini tasdiqladi. Yunonistondan qaytgan Aleksandr mil. avv. 335-yil bahorida Filipp o'limidan keyin Makedoniya asoratidan qulutishga harakat qilgan Tirakiya va Illiriyaga qarshi yurish qildi.

Aleksandr harbiy harakatlarni Danube daryosining shimoligacha uzaytirdi. Filipp II ning mil. avv. 339-yil Skutiyadagi g'alabasidan keyin kamsitilgan Triballi Aleksandrdan xotinlari va bolalari bilan yashayotgan orolga omonlik so'raydi. Qolgan Tirakiya qabilalari Geta va Danube orasida qolishga majbur bo'lishdi.

Kichik Osiyoning istilo etilishi. Makedoniya mustahkamlangach, Aleksandr mil. avv. 334-yilning bahorida Osiyoga yurish boshladi. Uning armiyasi to'liq 37.000 kishi edi, bundan Makedoniya falanga piyodalari 12.000 nafar, qo'shimcha 3.000 kishilik "qirol gvardiyasi" va 1800 kishilik otliq askarlar bo'lgan. Bundan tashqari, Illiriya va Tihrasaning 9.000 ga yaqin yunon piyoda va otliq askarlari ham mavjud edi. Qo'shinlarning transport vositasi bo'lib 200 ta yunon kemalari xizmat qilardi.

Aleksandrning Osiyodagi dastlabki harakatlari xuddi teatr sahnasi kabi ko'rinish oldi. U Osiyo tuprog'iga qadam qo'ygan ilk

Makedoniya podshosi bo'ldi. Keyinchalik Aleksandr Troya shahriga bordi, afsonaviy Troya shohi Triamdan Afinani bosib olgani uchun kechirim so'radi va ajdodi Axillesga hurmat ko'rsatdi.

Granik jangi (mil. avv. 334-yil) Forslar Aleksandrni dastlab hozirgi Turkiya hududida kutib olishdi. Ilk to'qnashuv Granik daryosi, hozirgi Ko'chabosh bo'yida, Anatoliyaning shimoli-g'arbida bo'lib o'tadi. Bu davrda forslar tomonida yunon yollanma askarlari ham bo'lgan. Jangda Aleksandr Troyadan Afinaga keltirilgan zirhda tushadi. "Axilles zirhi" deb nom olgan bu zirh forslarni sarosimaga soldi. Jangda Aleksandr yaralanib, uning hayotini hamshirasining akasi Klit qutqarib qoladi. Jangda Aleksandr 2.000 nafar vatan xoinini qatl ettirdi, tirik qolganlarini Makedoniyagacha bo'yinlarida zanjir bilan olib bordi.

Aleksandr askarlari Anatoliyaning janubi bo'ylab g'arbga harakat qila boshladi va fors satrapliklari Lidiya, Kariava Lusiani egalladi. Mil. avv. 333-yil bahorigacha Aleksandr hozirgi Anatoliya markazi Anqara, o'sha paytdagi Frigiya poytaxti Gordiumga yetib bordi.

Kichik Osiyodagi mag'lubiyatlardan keyin Doro III qo'shinga iste'dodli sarkarda Memnonni qo'mondon qilib tayinlaydi. Memnon Milet shahrini mustahkamlashga harakat qiladi, lekin tasodifiy halokat tufayli vafot etadi. Aleksandr ixtiyorida otliq va piyoda qo'shinlardan tashqari, harbiy flot bo'lganligi va qamal dengizdan ham amalga oshirilganligi hisobiga Milet shahri egallandi. Endi Aleksandr Kichik Osiyoning ichiga – Kappadokiyaga qarab harakat boshladi. Bu yerlarda yashovchi mahalliy qabila va elatlar Eron hokimiyati ostida bo'lsalar ham, mustaqillikka intilar va Eron zulmidan aziyat chekar edilar. Shu tufayli ular Aleksandr va Makedoniya armiyasini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Iss jangi (mil. avv. 333-yil). Kichik Osiyo yarimorolida, O'rta Yer dengizi shimoli-sharqiy qirg'og'idagi Iss shahri yaqinida Fors podshosi Doro III va Makedoniya podshosi Aleksandr o'rtasida dastlabki yirik jang bo'lib o'tdi. Doro III taktikasiga ko'ra, podsho otryadi va eng yaxshi harbiy tuzilmalar qo'shin markazida joylashgan edi. Eron armiyasida chap qanot ham kuchli bo'lgan.

Jang davomida forslar Filippning yaqin do'sti Parmenion boshchilik qilayotgan Makedoniya armiyasining o'ng qanotini qisib qo'ydilar. Natijada, Aleksandr yordamga yetib keldi va forslarning rejasini barbod qildi.

Aleksandr fors qo'shinlari markaziga nisbatan kuchli bo'lgan otliq qo'shinlarini yuboradi. Jang maydoni noqulay bo'lganligi sababli forslar butun boshli qo'shinni ishga sola olmaydilar. Jang og'ir bo'ldi va yakunda Eron qo'shini tor-mor keltirildi. Aleksandr shohning barcha aravalarini egalladi, ularning orasida Doro III ning oilasi ham bor edi.

Iss jangidan keyin forslar qarshiligini yetarli miqdorda yenggan Aleksandr Suriya va Finikiya tomon yo'l oldi. Lekin bu hududda Tir shahrigina ma'lum vaqt qarshilik ko'rsatdi. Qattiq qamal bo'lganiga qaramasdan Aleksandr Tir shahrini egalladi va shaharni vayron etdi, 30.000 ga yaqin shahar aholisi qul qilib sotib yuborildi.

Aleksandr Makedonskiy Misrda. Aleksandr yurishni Finikiyadan janubga qarab davom ettiradi. Mil. avv. 332-yilda Aleksandr Misrga yurish qildi. Misrliklar Makedon qo'shinlarini xursandchilik bilan kutib oldilar. Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik ko'rsatish o'rniga unga xayrixohlik bildirdi va kohinlar bilan birga Aleksandrni kutib olgani chiqdi. Misrliklar Eron asoratidan qutulganlariga xursand edilar. Ularning xursand bo'lishiga yana bir sabab Aleksandrning Misr xudolariga qurbonlik qilish haqida buyruq berganligi va Misr kohinlaridan bu diniy rusum qanday bajarilishi haqida so'raganligi bo'ldi. Nafaqat oddiy Misr ahli, balki, zodagonlar va kohinlar ham yosh Aleksandrning Misr dini va urf-odatlariga muhabbatini ko'rib xursand bo'lganlar. Kohinlar Aleksandrni fir'avn deb e'lon qildilar va o'z-o'zidan Aleksandr quyosh xudosi Amon-Raning o'g'liga aylandi. Mil. avv. 332-yilda Aleksandr Nil daryosi quyilish joyidagi deltada Aleksandriya shahrini qurdirdi. Bu shahar keyinchalik shakllangan ellinistik dunyoning eng ravnaq topgan shahriga aylandi.

Aleksandriyadan Persepolisgacha (mil. avv. 331-330-y.). Aleksandriyada qisqa vaqt to'xtagan Aleksandr Misrni tark etdi va Doro III bilan hal qiluvchi jangga hozirlik ko'rdi. Doro III unga jang

oldidan o'zining to'ng'ich qiziga uylanishni va Frot daryosidan g'arbdagi barcha yerlarni olishi va oilasining barcha a'zolarini katta pul evaziga qutqarib qolishni taklif qildi.

Parmenion Aleksandrga Doro III ning taklifini qabul qilish kerakligini aytdi. Biroq Aleksandr unga "Men Parmenion bo'lganimda rozi bo'lardim, lekin unday emas" deb javob berdi. Aleksandrdan rad javobini olgan Doro III shoshma-shosharlik bilan makedoniyaliklarga qarshi qo'shin to'pladi. Ikki o'rtadagi hal qiluvchi jang mil. avv. 331-yil 1-oktyabr kuni shimoli-sharqiy Iroqdagi Gavgamel qishlog'ida bo'lib o'tdi. Doro III boshliq forslarning mag'lub bo'lishi tufayli bu jang yunon tarixidagi eng yaxshi ta'riflangan jang bo'ldi.

Gavgamel jangi (mil. avv. 331-yil). Iss jangida mag'lub bo'lganidan keyingi yillar davomida Doro III armiyasiga askarlarni ehtiyotkorlik bilan tanladi. Yangi armiyaning otliq qo'shini kuchli bo'lgani holda piyoda askarlarning oldingi qatori kuchsiz edi. Doro III Gavgamel jangida qo'llagan rejasi bo'yicha otliq qo'shinlar Aleksandr qo'shinlarini o'rab olishga umid qilgan. Doroning ehtiyotkorlik bilan qilgan tadbirlariga qaramasdan, Gavgamel jangi natijasi ham Issga o'xshash bo'ldi. Jangda Aleksandr otliq qo'shini Fors armiyasining markaziga hujum qildi. Doro III jang maydonini tark etdi va Eronning sharqi tomon qochadi. Aleksandr Doro III ni asirga ololmagan bo'lsa-da, Fors imperiyasining markazini egalladi. Doro III ning omon qolgan askarlari Aleksandrni Osiyoning shohi deb olqishlashdi. Aleksandr Bobil, Suza va Persepolni egalladi. Bu shaharlar Aleksandr uchun berilgan uch ulkan in'om bo'ldi. Aleksandr Bobilga mil. avv. 331-yil oktyabr oyi o'rtalarida tantana bilan kirib keldi. Misrdagidek, Aleksandr ruhoniylarni tinchlantirish yo'lini qidirdi, Bobilning bosh xudosi Marduqqa qurbonlik qilishni taklif qildi va forsliklar deyarli bir asr oldin qo'zg'olonchilarni jazolash uchun buzgan ibodatxonasini qaytadan qurish to'g'risida buyruq berdi. Aleksandr taslim bo'lgan va uning tomoniga o'tgan Suza va Bobil satraplarini mukofotlaydi. Lekin Persepol shahri va aholisining ahvoli boshqacha bo'ldi.

Persepolning vayron etilishi. Persepol Fors imperiyasining markazi bo'lib, forslarning ommaviy tadbirlari va yangi-yil

bayramlari, shuningdek, soliq topshirishga oid diniy marosimlari ham shu yerda o'tkazilgan. Bu yerda Doro I hukmronligi davrida yunon elchilari kamsitilgan edi. Persepol yunonlarga va boshqa xalqlarga forslar hukmronligini ko'rsatishi kerak edi, shuningdek, boshqa insonlarga bu qo'rquvni tarqatishi kerak bo'lgan. Aleksandr bu ishlarni mil. avv. V asrda yunon-fors urushlarida vayron etilgan shaharlar uchun o'ch olish maqsadida tanladi. Mil. avv. 330-yil aprelida Persepolni tark etishdan oldin makedoniyaliklar shahardagi saroylarga o't qo'ydilar.

Harbiy bo'lmagan ko'pchilik aholi, xususan, ayollar, bolalar va barcha xohlovchilar armiyaga qo'shilishdi. Aytishlaricha, shirakayf ahvolda bo'lgan afinalik Tais Aleksandrga mil. avv. 480-yil forslar tomonidan vayron etilgan Afina uchun qasos olish maqsadida Persepolni yondirishni taklif qildi, Persepolni yondirishga askarlarni ruhlantirdi, lekin Aleksandr shaharni butunlay zabt etish va vayron qilishga qaror qildi. Taslim bo'lganiga qaramasdan, Persepolning taqdiri Fiva va Tirga o'xshash bo'ldi. XX asrda amerikalik arxeologlar Persepolni qazib topishdi. Qazishmalar, shuningdek, bu yerdagi saroylar xazinalarga boy bo'lgani, ular Fors imperiyasi hukmronligi davrida ikki asr davomida to'plangani va haqiqatan yong'in natijasida vayron bo'lganini ko'rsatdi. Persepolning yondirilishi bilan Aleksandr yunon yurishlarining oxiri g'alaba bilan tugaganiga ishora berdi.

Aleksandr O'rta Osiyoda. Aleksandr Persepolning yonishini kuzatar ekan, oldinda uni to'rt yillik mashaqqatli yurishlar kutayotganini bilmagan edi. Birinchidan, uning omadli taqdiri chegarasi davom etayotgandek tuyulardi. Doro III Midiyadan sharqqa tomon qochdi. Aleksandr Ekbatanni va Doro III ning xazinalarini to'laligicha egalladi. Fors va Midiya xavfsiz bo'lgach. Aleksandr Doro III ning yunon askarlarini ozod qildi. Bularning barchasi Doro III ni asirga olish va Ahamoniylar sulolasini tugatish uchun qaratilgan edi.

Aleksandr Doro III hozirgi Afg'onistonga yetib bormasidan avval xalaqit qilishga umid qildi va uni ta'qib etishni davom ettirdi. Biroq sharqiy satrapliklardagi siyosiy to'da boshlig'i Baqtriya satrapi Bess tomonidan mil.av. 330-yilda Doro III

o'ldirildi. Afsuski, Bess Baqtriyaga qochdi va u yerda Artakserks IV nomi bilan Fors taxtiga o'tirdi.

Doroning o'limidan Aleksandr Makedoniya va Eronni birlashtirish uchun o'ziga xos belgi sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Doroning jasadi Eronga qaytarildi va shohona e'tibor bilan yondirildi. Shundan keyin, "Aleksandr Doroning qasdini oldi", degan mish-mish tarqaldi.

Aleksandrning strategiyasi aqlli va foydali edi. Chunki, omon qolgan Ahamoniylar oilasi vakillari va Fors zodagonlari Aleksandr Makedonskiyga qo'shildi. Unga qarshi bo'lib qolgan Bess kuch-quvvatdan siqib qo'yildi. Qarshilik natijasida Aleksandr Iroq sharqigacha siljidi. Oxiri, mil.avv. 329-yil bahorida Bessning do'stlari uning tirik qolishidan xavfsirab, Aleksandrdan kechirim so'rashga majbur qilishdi. Ahamoniylar davomchilarining bu harakatlari tufayli Aleksandr Makedonskiy Bessni sudga keltirdi va qatl hukmini ijro etdi.

Baqtriya va So'g'diyona uchun kurash (mil. avv. 330-327-y.). So'g'diyona va Baqtriya chegaralari bo'ylab makedonlarga qarshi ozodlik kurashi boshlandi. Qo'zg'olon uch yil davom etdi. Qo'zg'olon tugaguncha, ya'ni mil.avv. 327-yilgacha Aleksandr Makedonskiy harbiy mag'lubiyatlardan aziyat chekdi va hududni nazorat qilish bo'yicha qiyinchiliklarga uchradi. Hukmdor Eron satraplari o'rniga yunon va makedon rasmiylarini qo'ydi. U, shuningdek, armiyada bo'shab qolgan o'rinlarni to'ldirish uchun So'g'diyona va Baqtriya yoshlarini tanladi.

Yunon va makedoniyaliklardan iborat bo'lgan armiya uzoq vaqt uydan olisda bo'lishdan charchagan edi. Aleksandr Makedonskiy qo'shinlarga ortga qaytish muddatini Doroning o'limi deb aytgan edi. Lekin Baqtriya va So'g'diyona bosib olingani bilan ham ortga qaytish haqida buyruq berilmadi. Ko'pchilik makedoniyaliklar podshoni tashlab ketib, Eron hududida Makedoniya podsholigi nusxasidagi podsholik tuzish niyatida edilar. Norozilikning eng yuqori cho'qqisi mil. avv. 327-yil bahorida Aleksandr Makedonskiyning obro'li So'g'd zodagonining qizi Roksanaga uylanishi bo'ldi.

Nikohdan, albatta, siyosiy manfaat ko'zlangan edi. Endi Baqtriya va So'g'diyona qabila yo'lboshchilari unga ittifoqchi

edilar. Aleksandr Makedonskiy bu keng hududni ular orqali boshqarmoqchi edi.

Aleksandr Makedonskiyning muvaffaqiyatsiz qarorlaridan biri bu diniy sohaga oid edi. Aleksandrning xudo Amonning o'g'li deb e'lon qilinishi ham qo'shin orasida ma'lum noroziliklarni keltirib chiqargandi. Bu haqidagi qarashlarni Arrian va Plutarx asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Muammoning dastlabki belgisi mil. avv. 330-yil oxirida otliq qo'shinlar sarkardasi, Parmenionning o'g'li Filotas bilan sodir bo'ldi. U podshoga qaratilgan fitnada aybdor sifatida qatl etildi. Shuningdek, ushbu fitnaga aloqador deb topilgan Antipaterning o'g'li Aleksandr Linkestis ham o'ldirildi.

Eng dahshatli fojia mil. avv. 328-yil kuzida ro'y berdi. Klit Qora Aleksandrning hayotini Granik jangida asrab qolgan edi. Keyinchalik, Klit hukmdorning forslarni qo'llab-quvvatlash siyosatiga qarshi chiqdi. Aleksandr Makedonskiyning tarixchisi Kallistenis ma'lumotlariga ko'ra, u qo'lga olindi va o'ldirildi.

Mil. avv. 327-yil yozigacha So'g'diyona va Baqtriya mustahkamlandi. Bu Aleksandr Makedonskiyga holdan toygan va ma'lum miqdorda zerikkan armiyani qaytadan to'ldirish va shakllantirishga imkon yaratdi.

Aleksandrning atrofida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Perdika, Krater, Lusimax va Ptolomeylar Makedoniyaning "eski qo'shin"iga aylandi. Ular Aleksandr o'limidan keyin bo'lgan siyosiy o'zgarishlarda muhim rol o'ynadi.

Hindistonga yurish. Aleksandr Makedonskiy mil. avv. 327-yil Hindistonga yetib kelganida, noma'lum dunyoning oxiriga yetib keldim deb ishongan edi. Yunonlar va forslar hozirgi Pokiston hududidagi Hind daryosini yerning oxiri deb ishonishgan. Aristotel Hindistondan chetda bor-yo'g'i buyuk cho'l va okean bor deb aytgan. Doro I davrida forslar Hindistonni Fors imperiyasi tarkibiga qo'shib olganlariga qaramasdan ular yunonlar borgan hududlarga yetib bormagan edilar. Aleksandr Makedonskiy Dionis va Gerakl, afsonaviy Ossuriya malikasi Semiramida bora olmagan afsonaviy hududlar, daraxt yaproqlaridan kiyim kiyadigan odamxo'r va vahshiy odamlar va hayvonlar yashaydigan, chumolilar oltin qazib oladigan yerlarga yetdim, deb hisoblagan.

Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari dastlab Hind vodiysidagi Panjobga kiradi. U tarqoq holda bo'lgan hind knyazlaridan ma'lum qismini o'z tomoniga og'dirdi. Panjob o'lkasida Aleksandr Makedonskiyga taniqli hind sarkardasi Por qarshilik ko'rsatdi. Gidasp jangida makedon va hind qo'shinlari to'qnash keldilar. Hind armiyasining asosiy yutug'i jangovar fillarning mavjud bo'lganligi edi. Makedonlarning kuchli otliq qo'shinlaridagi otlar fillardan qo'rqar edi. Biroq Aleksandr Makedonskiy buyrug'i bilan askarlar fillarning orqa tarafidan borib, ularning maxsus oyoq tomirlarini kesib tashlash orqali fillarni zararsizlantirishdi. Shiddatli jang natijasiga ko'ra, makedonlar g'alaba qozonishdi.

Aleksandr Makedonskiy ulkan imperiya tarkibiga kirgan Hindiston hududini bevosita Makedoniyadan turib boshqarish mumkin emasligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham u Hind vodiysidagi yerlarni boshqarishni mahalliy hukmdorlar ixtiyorida qoldirdi. Natijada, bevosita ulkan hudud Makedoniyaning vassaliga aylandi. Aleksandr Makedonskiy Gang daryosi vodiysigacha borish niyatida edi, lekin bu davrda mamlakatda boshlangan kuchli yog'ingarchilik oqibatida qo'shin orasida bezgak va boshqa kasalliklar tarqala boshladi. Natijada, qo'shin podsho bilan Gang vodiysiga borishdan bosh tortdi.

Aleksandr Makedonskiy yurtiga qaytishga hozirlanib, yangi hududlar orqali qaytishga qaror qildi. Uning buyrug'iga ko'ra, harbiy kemalar qurildi va qo'shin Hind daryosi orqali Hind okeanigacha suzib boradi. Shundan keyin qo'shin ikki qismga bo'linadi. Quruqlikdagi qo'shinga shaxsan Aleksandr Makedonskiy boshchilik qiladi va Gedroziya cho'li orqali ortga qaytadi. Ikkinchi qismi Aleksandrning yordamchisi Nearx boshchiligida kemalarda Hind okeani orqali Fors ko'rfazidan o'tib, Frot orqali Bobilga chiqishi lozim edi. Aleksandr Makedonskiy ulkan imperiya poytaxti etib aynan Bobil shahrini tanladi.

Gedroziya cho'li orqali orqaga qaytar ekan, qo'shin juda ham mashaqqatli sinovlarni boshdan kechirdi. Cho'ldagi suvsizlikdan qutulish uchun quduqlar qazildi, lekin suvsizlik o'z kuchini ko'rsatdi. Natijada qo'shinning uchdan bir qismi qirilib ketdi. Og'ir qiyinchiliklarga qaramay, armiyaning ikki qismi ham Bobilga yetib keldi.

Mil. avv. 323-yil bahorida Bobil shahrida Aleksandr Makedonskiy o'zi bosib olgan davlatlardan kelgan delegatsiyalarni qabul qildi. Jumladan, yunonlarning ham maxsus delegatsiyalari kelgan edi. Aleksandr marosim davomida kelgusi rejasi Arabistonni bosib olish kerakligini aytdi.

Lekin hech qancha vaqt o'tmay mash'um voqea sodir bo'ldi. Mil. avv. 323-yil 29-may kuni bo'lgan bazmda Aleksandr Makedonskiy o'z askarlari tomonidan zaharlandi. Ikki haftalik og'ir betoblikdan so'ng, mil. avv. 323-yil 10-iyun kuni Aleksandr vafot etdi. Bobilda vafot etgan paytida Aleksandr Makedonskiy hali o'ttiz uch yoshga ham to'lmagan edi.

Diadoxlar urushlari. Aleksandr muvaffaqiyatli g'alabalari va uni qo'llab-quvvatlagan yunon-makedon zodagonlar ko'magi tufayli keng hududni egallab, ulkan imperiyani yaratdi. Uning "Jahon" davlati tarkibiga Makedoniya, Bolqon va Yunoniston orollari, sobiq Fors davlatining hududi, Shimoli-g'arbiy Hindistonning bir qismi kirar edi. Faqat qurol kuchi bilan birlashtirilgan davlatning ichki zaifligini tushunib, Aleksandr bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy choralar bilan bo'shashgan davlatni kuchaytirishga, islohotlarni hayotga tatbiq etishga harakat qildi. Erta o'lim buyuk fotihni bu ishni davom ettirishiga to'sqinlik qildi.

Jahon imperiyasining qulashi va uning xarobalari o'rnida yangi davlatlar tashkil topish jarayoni tinch yo'l bilan sodir bo'lmadi, balki Aleksandr Makedonskiyning eng yaqin qo'mondonlari (ular diadoxlar deb ataladi) o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar jarayonida, 40-yildan ortiq vaqt mobaynida davom qilgan urushlar natijasida qo'mondon va sarkardalar kechagi ustozining merosini taqsimlab oldilar. Aleksandr vafotidan keyingi dastlabki yillarda ushbu ulkan imperiyani Filipp (Aleksandr sulolasi) tomonidan boshqarilish g'oyasi Makedoniya armiyasi doiralarida juda mashhur edi. Bobilda Aleksandrning o'limidan so'ng, uning davlat boshqarishga qobiliyatsiz ukasi (Filipp II ning asrandi o'g'li) va Aleksandrning yangi tug'ilgan o'g'li – Aleksandr IV nomli chaqaloq davlat boshlig'i deb e'lon qilindi. Ikkala podshoh ham boshqaruvga qodir emasligi sababli, makedoniyalik harbiy rahbarlar kengashi sobiq makedoniyalik

zodagon bo'lgan Perdikkani (mil. avv. 323-yil) Filipp II va Aleksandrning tajribali hamkori va vakili, regent – hukmdor etib saylashdi. Boshqa qo'mondonlar Aleksandr imperiyasining turli qismlarini boshqarib, o'z qo'shinlari bilan xizmat qilishdi. Diadoxlar hukmronligining dastlabki yillarida harbiy sarkardalar o'zlarining yangi mulklarida regent hukmdor bilan, ya'ni o'zlaridan ham kuchsiz shohlar hukmronligi bilan hisoblashishni istamaganligini ko'rsatishdi. Mamlakatning turli burchaklarida separatizmni bostirish uchun harakatlar boshlandi. Perdikka o'ziga bo'ysunishni istamagan bunday generallardan birini jazolashga qaror qildi. Bu paytda Misrda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Ptolemey Lag va uning safdoshlariga qarshi yurish tashkil qilindi. Biroq bu yurish muvaffaqiyatsiz yakunlandi va regent chodirida o'z qo'mondonlari tomonidan pichoqlandi. Miloddan avvalgi 321-yilda Suriya hududlaridagi Triparadisda yig'ilish bo'lib o'tdi va diadoxlar o'rtasida ta'sir doiralarini va satrapiyalarni taqsimlash bo'yicha yangi shartnoma tuzildi. Misr Ptolemey Lagga taqdim qilindi, Makedoniya va Yunoniston Antipatra va uning o'g'li Kassandra manfaatlari doirasi, deb tan olindi. Bir ko'zli Antigon Kichik Osiyo, Mesopotamiya Salavkaga, Frakiya, Propontida viloyati, Kichik Osiyoning bir qismi Lisimaxning ta'sir zonasiga biriktirildi.

Biroq Aleksandrning yagona imperiya g'oyasi hali ham mavjud edi: ayrim hududlarning hukmdorlari, ya'ni satraplari o'z hududlarida hokimiyatini mustahkamlab, qo'shni davlatlarni ham bo'ysundirish choralarini ko'rishni boshlaydi. Yagona imperiya g'oyasi Filipp-Aleksandr sulolasi va bir paytlar ushbu sulolaning sadoqatli xizmatchisi bo'lgan bir ko'zli Antigon va uning o'g'li Demetriy (shaharlarni qamal qiluvchi) o'rtasida kurashni boshlab berdi. Ular Aleksandr imperiyasining katta qismini – butun Kichik Osiyo, Suriya, Bobil, Midiyani o'z ta'siriga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lishdi. Bir ko'zli Antigon ta'sirining kuchaya borishi Ptolemey Lag boshchiligidagi boshqa barcha unga qarshi tura olmaydigan diadoxlar koalitsiyasini shakllanishiga olib keldi. Yangi shartnoma bilan mustahkamlangan kuchlarning vaqtinchalik muvozanati paydo bo'ldi, unda diadoxlarning qo'lga olingan mol-mulkiga bo'lgan huquqlari yana bir marotaba

tasdiqlandi (mil. avv. 311-yilda). Xuddi shu yili, barcha diadoxlarning roziligi bilan imperiyaning nominal shohlari Filipp III Arridey va 12 yoshli Aleksandr IV o'ldirildi. Shu sanadan e'tiboran Filipp-Aleksandrlar sulolasi mavjud bo'lishdan to'xtadi va yagona imperiya g'oyasi aslida o'z ma'nosini yo'qotdi. diadoxlarning hech biri butun imperiyaning oliy hukmdori rolini talab qilish uchun yetarli kuch va axloqiy huquqqa ega emas edi. Endi har bir diadox o'zi va uning avlodlari uchun Aleksandr imperiyasining bir yoki boshqa qismida hokimiyatni mustahkamlash haqida o'ylardi.

Aleksandr Makedonskiy merosi uchun qattiq kurashlar miloddan avvalgi 306-yilda yakunlandi. Eng yirik diadoxlar bir ko'zli Antigon, Demetriy, Ptolemey Lag, Lisimax, Salavka, Kassandrlar Aleksandrning jahon imperiyasi xarobalari o'rnida o'z davlatlarini yaratish istagini bildirib, shohlarni e'lon qildi.

To'g'ri, bir ko'zli Antigon va Demetriy so'nggi marta Aleksandrning tarqoq dunyo davlatini birlashtirishga urinib ko'rdi, ammo bu urinish butunlay muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Miloddan avvalgi 301-yilda Kichik Osiyoning markaziy qismidagi Ips yaqinidagi qonli jangda Salavka, Kassandra, Lisimax armiyalarining kuchli koalitsiyasi va ularni qo'llab-quvvatlagan Ptolemey armiyasi bir ko'zli Antigon ustidan to'liq g'alaba qozondi. Antigonning o'zi jangda vafot etdi va uning o'g'li Demetriy tez orada Salavka tomonidan qo'lga olindi. diadoxlar o'rtasidagi ichki kurashning so'nggisi mil. avv. 281-yilda sodir bo'ldi. Kurupedion jangida Salavka armiyasi Lisimax qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi va ularning mol-mulki boshqa yunon hukmdorlari o'rtasida bo'lindi. 281-yilda deyarli uzluksiz harbiy to'qnashuvlar va shafqatsiz ichki kurash ostida yangi voqelik sodir bo'ldi. Natijada Aleksandr tomonidan yaratilgan ulkan imperiya parchalandi va uning xarobalarida yangi davlat tuzilmalari va yangi ijtimoiy munosabatlar paydo bo'ldi.

Aleksandr Makedonskiy vafotidan keyingi Makedoniya podshohligi. Makedoniya ellin dunyosining buyuk davlatlaridan biri edi. Biroq uning harbiy va iqtisodiy salohiyati Ptolemey va Salavkiylar davlatlaridan kamroq bo'lgan. Makedoniyaning siyosiy tarixi asosan geografik joylashuvi bilan belgilanib, janubda

Yunoniston va shimolda "varvar" xalqlari bilan (asosan frakiyaliklar) chegaradosh ekanligi davlatning keyingi taqdirida muhim rol o'ynagan. Makedoniyalik podshohlardan biri Antigonid davlatning qadimiy strategiyasiga bog'liq bo'lgan holatda Yunonistonni nazorat qilishni xohlardi, boshqa tomondan esa ular shimolga qarab yurishlarni doimiy ravishda davom ettirishlari kerak edi.

E'tiborli jihati shundaki, Makedoniyaning resurslari Yunonistonni doimiy nazorat qilish uchun yetarli bo'lmagan. Makedoniya eng muhim strategik nuqtalarda bir qator garnizonlarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa, Korinf shahri Peloponnesdan Markaziy Yunonistonga boradigan asosiy yo'lni nazorat qilish imkonini yaratardi. Korinf Makedoniyaning qo'lida bo'lgan paytda Yunoniston to'lig'icha birlasha olmadi. Bundan tashqari, Korinfning Makedoniya bilan aloqasini ta'minlaydigan bir qator nuqtalarda Xalkida, Evbeya kabi garnizonlar bor edi. Makedoniya mintaqadagi siyosatida promakedon zodogonlarini qo'llab-quvvatlab, Elladada makedoniyaliklar ta'sirni ta'minlaydigan ittifoq tizimini yaratishga harakat qilardi.

O'z navbatida yunon polislarining kattagina qismi Makedoniyaga dushmanlik kayfiyatida edi. Ushbu holatlar Makedoniyani zaiflashtirishga intilgan Ptolemeylarning doimiy harakatlari boshlanishi bilan yanada murakkablasha boshladi. Ptolomeylar shuning uchun ko'pincha Makedoniyaning dushmanlarini qo'llab-quvvatlash siyosatini yurita boshladi. Bunday o'yinlar ko'pincha subsidiyalar berish orqali hosil qilinardi. Keyinchalik Yunoniston ishlariga Makedoniyaning pozitsiyalarini zaiflashtirish uchun "yunonlar erkinligi" shiorini juda mohirlik bilan ishlatib, Rim aralasha boshlaydi. Garchi, Makedoniya va Salavkiylar sulolasi o'rtasida vaqti-vaqti bilan to'qnashuvlar yuz berib tursa-da, ushbu ikki davlat o'rtasida do'stona munosabatlar mavjud edi.

Ellin davlatlaridan birining asoschisi Kassandr edi (mil. avv. 355-297-yillarda hukmronlik qilgan). U Antipatrning eng katta o'g'li, birinchi marta u Bobilda Buyuk imperator huzuridagi sudda qatnashib, u yerda otasining foydasiga oqilona nutq so'zlagan va

Aleksandrni adolatsiz ayblagan edi. Antipatr Poliperhonga regentlikni topshirgach, Kassandr o'z ittifoqchilarini Makedoniyaning tashqarisidan qidira boshladi. Oxir-oqibat, u Ptolemey Lag va Antigon bilan ittifoq tuzdi va regentga qarshi urush e'lon qildi. Yunon polislarining aksariyati, jumladan, Afina ularga qo'shildi. Shuningdek, u Makedoniya podshohi Filipp III Arrideyning obro'li xotini Evredikaning yordamiga ham suyangan. Lekin Evredika ham, uning amakisi ham, Kassandrning akasi Nikanor ham tez orada Olimpiada buyrug'iga binoan yo'q qilindi. Kassandr Olimpiadaga qarshi chiqdi va oxir-oqibat uni taslim bo'lishga majbur qildi. Mil. avv. 316-yilda malika o'ldirildi. Mil. avv. 310-309-yillarda Makedoniyalik Aleksandrning xotini Roksanani ham o'ldirdi va Geraklning oxirgi noqonuniy o'g'li ham Kassandr tomonidan zaharlandi.

Kassandra podshoh oilasi bilan yaqinlashib, Iskandarning yagona singlisiga uylandi va Salavka, Ptolemey va Lisimax bilan Antigonga qarshi ittifoq tuzdi. Antigon mil. avv. 301-yilda yo'q qilindi. Shu voqeadan keyin Kassandra Makedoniyaning hukmdori bo'ldi. Ammo ko'p o'tmay mil. avv. 297-yilda vafot etdi.

Kassandr shafqatsiz bo'lsa-da, adabiyot va san'atni qadrlovchi hukmdor edi. O'z faoliyati davomida Kassandr Aleksandr Makedonskiy tomonidan vayron qilingan Fiva shahrini qayta tikladi, Fessalonika va Kassandra shaharlariga asos solgan.

Aleksandr V Makedonskiy mil. avv. 295-294-yillarda Makedoniyani boshqargan. Aleksandr V Buyuk Aleksandrning singlisi Salonika va Kassandralarning nikohidan tug'ilgan uchinchi va eng kichik o'g'li edi. U dastlab akasi Antipatr bilan birga hukmronlik qila boshladi. Antipatr onasini o'ldirib, Aleksandrni Makedoniyadan chiqarib yuborganida, u taxtini tiklashda yordam berish uchun Pirr va Demetriy Poliorketga murojaat qildi. Yordam uchun to'lov sifatida Aleksandr Makedoniyaning dengiz sohilida joylashgan so'lim go'shalarni, shuningdek, Ambrakiya, Akarnaniya va Amfiloxiya viloyatlaridagi yerlarni taklif qildi. Ko'p o'tmay, Iskandar hukmronligi ostida Makedoniyaning katta qismi tiklandi. Makedoniyani Pirr tark etgach, Aleksandr Demetriyning yordamidan ham voz kechadi. Ikki makedoniyaliklar o'rtasida keskinlik yuzaga keldi. Har ikkisi ham bir-birini o'ldirishni

xohlashardi. Poliorket ketmoqchi bo'lganida, Aleksandr uni Fessaliyagacha kuzatib borish buyrug'ini berdi. Poliorket Larissada Demetriyning oldiga tushlik qilish uchun keldi va shu joyda do'stlari bilan o'ldirildi. Demetriy I Poliorket (mil. avv. 336-283) – bir ko'zli Antigonning o'g'li, miloddan avvalgi 294-288-yillarda Makedoniyani boshqargan. Uning butun hayoti katta diadoxlar (Ptolemey va Kassandr) bilan uzluksiz to'qnashuvlar zanjirida o'tdi. Keyinchalik u ham otasining Kichik Osiyo imperiyasini qayta tiklash uchun tinimsiz harakatlar olib boradi.

So'ngra 22 yoshli Demetriy otasi tomonidan Misr shohi Ptolemeyga qarshi kurashga yo'naltirildi. Ammo mil. avv. 312-yilda G'azo yaqinida bo'lgan jangda halokatga uchrab, 5 ming askarni yo'qotdi. Keyinchalik Demetriy Suriyada misrliklarni mag'lubiyatga uchratib, Nabateylar viloyatiga hujum qildi. Salavkaning yo'qligidan foydalanib, Demetriy Bobilga yaqinlashadi va uning atrofini talon-taroj qiladi. Mil. avv. 307-yillarda Afinani Kassandraga tobelikdan ozod qiladi va afinaliklar tomonidan "Soter" ("qutqaruvchi") nomi bilan ulug'lana boshlaydi.

Mil. avv. 306-yilda Salamin (Kipr yaqinida)da Ptolemeyning ukasi rahbarligidagi Misr armiyasini quruqlikda, so'ngra Ptolemeyning o'zi rahbarligidagi Misr dengiz flotini mag'lub etdi. Bu g'alaba sharafiga Demetriy uchun Nik Samofrakiya haykali yaratildi.

Mil. avv. 305-yilda Antigonid tomonidan qurilgan ulkan qamal qurollari va mashinalarining ko'pchiligi bilan Rodosni uzoq va muvaffaqiyatsiz qamal qildilar, buni sharafiga Poliorket "shaharlarni qamal qiluvchi" laqabini oldi. Uning zamondoshlari minglab askarlar yordamida 60 metr qalinlik va 30 metr balandlikdagi qamal minorasi qurilganligini hayrat bilan eslashadi. Qamaldan qutulish sharafiga Poliorket Kolossasi qurilgan edi (ushbu tosh ustunning qurilishi uchun mablag' qamal qurilmalarining bir qismini sotishdan olingan).

Mil. avv. 301-yilda Ips jangidagi otasining halokatidan keyin Demetriy 9 ming kishilik qo'shin bilan dastlab Efesga, keyinchalik esa, Yunonistonga suzib bordi. Biroq Afina mag'lubiyatga uchragan qo'mondonni qabul qilishdan bosh tortdi. Pirr Yunonistonni tark etgach, Demetriy Lisimahning Bolqon yarim

orolidagi hokimiyatini yo'q qilishga kirishdi. Mil. avv. 294-yilda u Afinani qo'lga kiritdi, Aleksandrning o'g'li Kassandrovni o'ldirdi va yeti yil mobaynida Makedoniyada hukmronlik qildi. Uning Makedoniyadagi hukmronligiga Lisimax va Pirrning birgalikdagi sa'y-harakatlari chek qo'ydi. Shundan so'ng Demetriy Pirrga qarshi chiqishga qaror qildi, ammo uning qo'shinlari jang qilishdan bosh tortdi va qochishga majbur bo'ldi. Muvaffaqiyatsiz qamaldan so'ng Demetriy o'z tarafdorlari bilan Miletga ko'chib o'tadi. U yerdan Lisimah jamoasi tomonidan ta'qib qilinib, Frigiya va Tavrdan Tarsga o'tadi. Demetriy mil. avv. 285-yilda Kilikiyada kuyovi Salavkaga taslim bo'ldi va 54 yoshida asirlikda vafot etdi. Demetriy Korinfda sharaflangan holatda dafn qilindi.

Barqarorlik davrining boshida (diadohlar urushlari tugaganidan keyin) Makedoniya kuchli inqiroz holatida bo'lib, harbiy qismning asosiy tarkibi Sharqqa yo'naltirilgan edi. Mamlakat hududida sodir bo'lgan bir qancha urushlar, galatlarning bosib olinishi kabi voqealar mamlakat iqtisodiyoti va aholi hayotiga juda jiddiy ta'sir ko'rsatardi. Taxtga ko'tarilgan Antigon Gonat mamlakat iqtisodiyotini tiklash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Iqtisodiyotga alohida e'tibor makedon sulolasining an'anasiga aylandi, Antigon mamlakat resurslari kamligini, ammo hokimiyatni buyuk kuch darajasida saqlab qolish uchun maxsus harakatlarga muhtoj ekanini juda yaxshi his qilardi. Makedoniya podsholari shaharlarning o'zini o'zi tiklashlariga yordam berdi, aholini bo'sh joylarga ko'chirdi, ma'danlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya boshladi.

Yangi shaharlarning aksariyati Kassandra hukmronligi davrida tashkil etilgan bo'lsa-da, Antigonidlar davrida ham (kichik miqdordagi bo'lsa-da) shaharlarga asos solinishi an'anasi davom etdi. Shaharlar muayyan maydonlarda vujudga kelib, ular podsho ma'muriyati nazorati ostida edilar. Odatda, shaharlar boshqaruvi uchun alohida podshoh vakili – epistat lavozimi tayinlanar edi. Ta'kidlash lozimki, Makedoniya shaharlari ichki faoliyatlarida muxtoriyat huquqlaridan foydalanishgan. Hatto, ko'plab eski makedon shaharlari ham yunon modeli bo'yicha o'z-o'zini boshqarish darajasiga yetishgan edi. Shaharlarning farovonligini ta'minlashga urinib, podshohlar shahar yerlarini bo'sh

qoldirmaslikka harakat qilishardi. Bu holat podshoh Filipp V ning Larissa shahri bilan yozishmalarida yaqqol namoyon bo'lardi. Podshoh "sizning shahringiz urushlar tufayli ko'plab aholiga muhtoj", deb xabar berganini yozadi, shuning uchun u salonikaliklarga va umuman yunonlarga fuqarolik berishni taklif qiladi: "bu men uchun ham, shahar uchun ham foydali bo'ladi va yerdan foydalanish imkoniyati oshadi", deb ta'kidlangan edi yozishmalarda. Shaharlar soliqqa tortilardi, shuning uchun podshoh xazinasi ularning farovonligini ta'minlash uchun harakat qilardi. Chunki shu yo'l bilan soliqlar tushumi yanada oshardi. Hududda olib borilgan arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatdiki, Makedoniya shaharlari bu davrda ko'tarilish davrini boshdan kechirmoqda edi. Nisbatan to'liq o'rganilgan Makedoniyaning poytaxti Pella shahri bunga aniq misol bo'la olardi. Ellinizm davrida shahar 2-1,5 km maydonni egallagan. Janubdan u ko'lning o'rtasida orolda joylashgan qal'a bilan himoyalangan. Shoh xazinasi va qamoqxonasi bor edi. Yuqori ikki boshli tepalik Akropolisda eski podshohlik saroyi va Afina Alkidema ibodatxonasi joylashgan. Aslida, shahar dunyo bo'ylab yo'naltirilgan ko'chalarning muntazam tartibiga ega edi. Shaharning markaziy qismida joylashgan turarjoy va jamoat binolari, odatda, bir (ba'zan bir nechta) peristil hovliga ega edi. Bir qator marosim xonalarining qavatlari mozaik panellar bilan bezatilgan, ularning ba'zilari juda yuqori sifatga ega bo'lgan. Sahnalardan birida tarixiy hikoya: Iskandar va Kraterning sher ovlashi manzarasi aks ettirilgan. Mamlakatning muhim iqtisodiy markazi Salonika shahri ham muntazam tartibga ega edi. Shahar atrofida nekropollar bo'lgan. Ko'plab joylarda o'ziga xos rejadagi monumental tosh qabrlari mavjudligini ta'kidlovchi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, makedoniyalik zodagonlarning boyligini ko'rsatadigan mo'l-ko'l uskunalar bilan ta'minlangandi.

Filipp II ning katta mablag'larini o'z vaqtida bergan eski oltin konlari allaqachon tasarruf etilgan bo'lsa-da, konchilik Makedoniya iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri edi. Rimliklar Makedoniyani mag'lubiyatga uchratib, uni to'rt respublikaga bo'lib, mamlakatda tog'-kon sanoatining qat'iyan man etganligi Makedoniyaning iqtisodiy qudratini qayta

tiklanishidan qo'rquv natijasida bo'lgan. Shuningdek, o'rmonlar mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynardi, chunki o'rmonlar kemalar qurilishida zarur xomashyo edi. Makedoniya iqtisodiyotining asosi hali ham qishloq xo'jaligiga tayanar, biroq qishloq xo'jaligida yuqori mahsuldorlik kuzatilmas edi. Yer solig'i 200 talant miqdorida xazinaga borib tushardi. Podshohlar hisobiga hosilning 10/1 qismi hajmida soliq undirilgan. Makedoniya podshohlari oltin, kumush va bronza tangalarni zarb qildilar. Filipp II davridan farqli o'laroq, asosiy tangalar kumushdan tayyorlanar edi. Makedoniya podshohlari juda puxta iqtisodiy siyosatni amalga oshirganlar. Shunday qilib, Axey ittifoqini qo'llab-quvvatlash uchun Peloponnesda Filipp V boshchiligidagi harbiy harakatlar paytida u bir necha oy davomida Makedoniya armiyasini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli miqdorda pul oladi. Filipp nafaqat bu harbiy harakatlar bilan siyosiy maqsadlarga erishdi, balki Axey ittifoqi tomonidan urushni moliyalashtirishga muvaffaq bo'ldi. Boshqa tomondan, ba'zan xazina butunlay bo'sh bo'lar edi. Polibiyning yozishicha, hattoki, Filipp V o'z podshohligi davrida qo'shinlarini ta'minlash uchun o'z kumush idishlarini sotishga majbur bo'ladi. Oxir-oqibat makedoniyalik podshohlar katta miqdorda mablag' to'plashga muvaffaq bo'lishdi.

Makedoniyada, avvalgi davrda bo'lgani kabi, aholining asosiy qismi o'z yer uchastkalariga ega bo'lgan va jamoalarga o'xshagan erkin dehqonlar birlashmalaridan iborat edi. Shaharlar, shuningdek, ularga tegishli bo'lgan yerlar fuqarolik jamoasi tomonidan boshqarilgan. Makedoniyaning haqiqiy hududida bevosita podshohga qarashli bo'lgan domen yerlar mavjud bo'lmagan. Faqat o'rmonlar va yaylovlargina podshohga tegishli edi. Ammo Makedoniyaga Xalkedonika va Peoniya hududlari qo'shib olingandan keyin vaziyat boshqacha tus oldi. Podshoh bu yerlarni "nayza bilan fath qilingan" degan titul ostida boshqargan. Ba'zi yerlar to'g'ridan-to'g'ri shohga tegishli hisoblangan. Bu hududlar qaram dehqonlar tomonidan qayta ishlangan (ehtimol, shajaraviy asosdagi ijara asosida). Yerning yana bir qismi harbiy xizmatchilarga foydalanishga berilardi. Yer egasiga aylangan harbiy xizmatchi xizmatni o'tash davomida soliq to'lardi. Dastlab,

bunday yerlar katta miqdorda bo'lmasa ham, lekin vaqt o'tishi bilan bunday yer uchastkalari sotila boshlandi (garchi harbiylar vazifasi o'zgarishsiz qolgan bo'lsa-da, yerga egalik shakllari o'zgarib ketdi). Makedoniyaning tub aholisi bo'lmaganligi sababli, Makedoniyada joylashgan varvarlar – frakiyaliklar harbiy xizmatni o'tash majburiyatlari evaziga yer uchastkalarini olishardi. Shuningdek, yer egaligining boshqa shakli ham mavjud bo'lib, zodagonlarning vakillariga yerlar "hadya" sifatida ham berilardi.

Ellinizm davrida Makedoniyada qulchilik munosabatlari keng tarqalgan. Garchi mavjud manbalar ishlab chiqarishda qul mehnatini qo'llash haqida juda kam tilga kirsa-da, makedoniyalik aristokratlarning turmush tarzi va xo'jalikda juda ko'plab qul xizmatkorlar mavjudligi haqidagi xabarlar yetarli darajada edi. Harbiy harakatlar paytida asirlikka olinganlarning kattagina qismi asoratga solinib, qulga aylantirilardi. Shuningdek, qullarning aksariyat qismi qul bozorlaridan sotib olinib, o'z navbatida ular iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan olib kelinardi. Makedoniyada qullarni ozod qilish amaliyoti mavjud edi. Makedoniyalik manumislarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, qullarning ozod qilinishi podshoh hokimiyati tomonidan nazorat qilingan. Shubhasiz, qul xo'jaligini rivojlantirishning asosiy markazlari shaharlar edi.

Makedoniyadagi podsho hokimiyatining xarakteri, boshqa yunon monarxiyalariga tobora yaqinlashib, Filipp II va Aleksandr davrining ibtidoiy xususiyatlarini asta-sekin yo'qota bordi. Makedoniya urug'-zodagonlarining siyosiy ahamiyati pasaya borib, bu jarayon qisman Aleksandr hukmronligi va diadoxlar kurashida ko'plab oliynasab xonadonlarning o'ldirib yuborilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, makedon xalqining irodasi sifatida Harbiy Kengash hali ham muhim ahamiyatga ega edi. O'z navbatida armiya merosxo'r Makedoniya podshohining taxtga kelishini tasdiqlagan hamda davlatga xiyonat qilish masalalari bo'yicha oliy sud sifatida harakat qilgan. Makedoniya podshohi Fessaliyaning uniya huquqini tan olib hukmronlik yuritgan bo'lsa-da, ba'zan Fessaliyada isyonlar ko'tarilib, mustaqillikni tiklashga harakatlar sodir bo'lib turardi. Yuqorida ta'kidlanganidek,

podshohning hududlardagi vakillari epistatlar hisoblangan. Makedoniyaga bevosita bo'ysunmagan hududlarda hokimiyat podshoh tomonidan tayinlangan strateglarga tegishli edi. Makedoniyada Salavkiylar va ayniqsa, Ptolemeylar davlatida mavjud bo'lgan puxta rivojlangan byurokratik apparatlar yo'q edi, Makedoniyaga qaram bo'lgan ba'zi yunon shaharlarida Antigonidlarga ilohiy sharaflar berilgan bo'lsa-da, davlatning barcha joylarida bunday holat kuzatilmagan.

Makedon shohlari siyosatining eng muhim vositasi armiya bo'lib, u uch qismdan: podsho gvardiyasi – agema, yollanma askarlar va falangada xizmat qilgan dehqonlar qo'shinlaridan iborat edi. Falanga faqat harbiy holat yuz bergan paytda chaqirilardi. O'z navbatida agema va yollanma askarlar doimiy xizmatni olib borardilar. Makedoniya armiyasi Salavkiylar va Misr Ptolomeylarining qo'shinlaridan ancha kamroq edi. Selassiya jangida Antigon Doson qo'shinida 28 ming piyoda askar va 1,2 ming chavandoz bor edi, xolos. Mil. avv. 171-yildagi Eron urushida esa 43 ming askardan iborat qo'shin yaratishga muvaffaq bo'lindi. Yollanma askarlar orasida varvarlar (frakiyaliklar, illiriyaliklar, gallar) katta qismni tashkil qilgan. Ularning ko'pchiligi xizmat muddati tugagandan so'ng podshoh yerlaridan joy olishar edi. Yollanma askarlar, qoida tariqasida, chegarani qo'riqlab, Antigonidlarga qarashli yunon shaharlarida garnizonlarda xizmat qilishgan. Antigonidlar Makedoniyani buyuk dengiz kuchiga aylantirishga harakat qilishadi. Shuning natijasida Makedoniya floti Kos orolidagi mashhur Misr flotining kuchini ezishga muvaffaq bo'ldi, undan keyin Ptolemeylar Egey dengizidagi hukmronligini yo'qotdilar. Biroq Makedoniyada og'ir harbiy kemalardan tashkil topgan kuchli armiya va kuchli flot tashkil topmadi. Shuning uchun Filipp V illiriyaliklar tomonidan ishlatiladigan yangi turdagi yengil galeralarni sotib olib, yangi flot shakllantirdi.

Axey va Etoliya uyushmalari. Qadimgi yunon jamiyatining siyosiy hayotida eng ko'zga ko'ringan hodisa qabilalar birlashmalarini ifodalovchi turli xil uyushmalarning keng tarqalishi hisoblanadi. Mahalliy (qabila) uyushmalarining Peloponnes yoki Afina dengiz Ittifoqi kabi siyosiy tashkilotlarning

yirik uyushmalari arxaik va klassik davrda mavjud bo'lgan bo'lsada, ellinizm davriga kelib ular jamiyat siyosiy hayotining yetakchi shakliga aylanib ulgurishdi.

Ellinizm davrda an'anaviy turdagi siyosiy uyushmalar mavjud bo'lib, unga qaram bo'lgan siyosiy tuzilmalarni birlashtirgan kuchli gegemon davlatchilik davom etdi. Bir necha bor, masalan, Xeroneya yaqinidagi jangdan so'ng Filipp II tomonidan yaratilgan Korinf ittifoqini qayta tiklashga urinishlar bo'lgan. Shunday qilib, mil. avv. 302-yilda ushbu ittifoqni Demetriy Poliorket qayta tiklashga harakat qildi, ammo mag'lubiyatidan so'ng ushbu ittifoq darhol parchalanib ketdi. Mil. avv. 224-yilda Korinf ittifoqini qayta tiklash uchun yana bir urinish Makedoniya shohi Antigon Doson tomonidan amalga oshirildi, ammo u oxir-oqibat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shunday qilib, Makedoniyaning gegemoniyasi ostida Pan-Uels ittifoqini yaratishga bo'lgan barcha urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi va bu bitimlar juda qisqa vaqt ichida mavjud bo'ldi. Makedoniya uzoq vaqt davomida Yunoniston ustidan nazoratni ta'minlash uchun yetarli harbiy va iqtisodiy imkoniyatlarga ega emas edi. Ushbu turdagi mahalliy uyushmalar ko'proq hayotiy xarakterga ega edi. Shunday qilib, uzoq vaqt davomida Kiklada arxipelagining orollarini va uning markazi Delos orolini birlashtirgan "Nesiotlar Ittifoqi" (Orollar ittifoqi) mavjud bo'lib, Ittifoq Ptolemeylarning protektorati ostida edi.

Biroq mazkur uyushma ellinizm davriga xos bo'lgan, gegemon bo'lmagan va bir qator siyosiy tashkilotlar yoki qabila uyushmasining birlashuvi natijasida paydo bo'lgan, ittifoqdoshlarning barcha a'zolari teng huquqqa ega bo'lgan ittifoq edi. Ushbu ittifoqlar turli darajadagi birliklarga ega bo'lib, ba'zan tashkilotlar davlatlararo ittifoqchilik xususiyatini kasb etardi. Oxir-oqibatda, Yunonistonning butun hududi turli uyushmalar o'rtasida bo'lingan edi. Ittifoqdan tashqarida faqat Afina va Spartagina qolib, ular ham oxir-oqibatda Axeyya Ittifoqi tarkibiga kirishga majbur bo'lishgan.

Ittifoqlarning siyosiy tuzilishi, odatda, polis tizimi andozasida shakllantirilgan edi. Deyarli barcha hududda eng yuqori organ Xalq Majlisi bo'lib, magistrlar kengashi va xalq hokimiyati

tizimlarining mavjudligi shakliga ega edi. Biroq ushbu tuzilmalarda ham polislar o'z ahamiyatini saqlab qoldi va kamdan-kam istisno holatlardan tashqari, ittifoq tuzish jarayonida yagona davlatchilik paydo bo'lmadi. Polislar o'z hududini, siyosiy tashkilotini, fuqaroligini saqlab qola oldi. Ittifoqning tugallanmaganligi, ittifoq va polis tuzilmalarining birgalikdagi faoliyati Yunonistonning ellinizm davriga xos bo'lgan xarakterli xususiyati bo'lib, ittifoqlarning ichki zaifligini doimiy sabablaridan biri edi. Ittifoqlar tashkil etish jarayonida odatda quyidagi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan: bir polisning fuqarolari boshqa polisdan yer uchastkalarini sotib olish huquqiga ega bo'lishi, turli polislar fuqarolari o'rtasida nikohlarga ruxsat berilishi, polislararo sud oldida ittifoqning barcha fuqarolari teng huquqlarga ega bo'lishlari kabi huquqlar shular jumlasidandir. Agar muayyan polis fuqarosi bir polisdan ikkinchisiga doimiy yashash uchun ko'chib kelgan taqdirda ushbu fuqaro bu yerda to'liq fuqarolik huquqlarini olardi.

Ittifoq birlashmalarini yaratish uchun bir necha sabablar mavjud edi. Eng birlamchi sabab, tashqi tahdidga, xususan, Makedoniya xavfiga qarshi turish zarurati bo'lsa, boshqa tomondan, bunday yirik davlat tuzilmalarida polis eksklyuzivligi tamoyillarini ma'lum darajada yengib o'tildi. Mulkni sotib olish huquqining keng tarqalishi biror mahalliy polisdan tashqarida ham yer-mulkka ega bo'lish imkoni berilganligi edi. Misol uchun, Axey Ittifoqining strategi Arat Sikion polisi fuqarosi bo'lishi bilan bir holatda Korinf hududlarida mulkka egalik qilardi. Ittifoqlarni yaratish Yunonistonning hukmron qatlamlari uchun har tomonlama foydali bo'ldi. Biroq ittifoqlarning tashkil etilishi Yunonistonning polislarga bo'linishini yengishga olib kelmadi. Yuzlab polislarning sobiq raqobati endi ittifoqlarning doimiy dushmanligiga aylana bordi. Yunonistonning siyosiy tarixida Etoliya va Axeyya ittifoqlarining raqobati katta rol o'ynadi.

Etoliya Ittifoqi klassik davrda paydo bo'lib, (mil. avv. 367-yilda) bu vaqtda Yunonistonning eng qoloq hududlaridan biri edi. Hududda hali polislar tizimi ham mavjud bo'lmasdan, aholi "qishloqlarda" yashardi. Etoliya ittifoqi dastlab qabilalar birlashmasi shaklida vujudga keladi va uning butun xarakteri

harbiy-demokratik xususiyatni aks ettirar edi. Ittifoqning markazi Termda joylashgan bo'lib, umumittifoq mablag'i joylashgan hudud hisoblangan. Etoliya Makedoniya bilan doimiy va faol kurash olib bordi. Ular Markaziy Yunonistonning ko'p qismini, shu jumladan, Delfiyadagi eng muqaddas yunon ibodatxonalarining nazoratini qo'lga kiritishgan edi. Yunonistonga keltlar bosqini paytida, Etoliya ittifoqi namoyandalari Delfiyani himoya qila olishdi, bu esa ularning nufuzini yanada oshirdi. Shu voqeadan keyin Beotiya, Fessaliyaning katta qismi ittifoqqa qo'shiladi, uning ta'siri Kichik Osiyoga ham sezila boshladi.

Nihoyat, ittifoqning ko'plab polislariga "asiliya" huquqlari taqdim etildi, ya'ni, endilikda ularning hududi Etoliya hayotida katta rol o'ynagan Etoliya zodagonlarining talon-tarojiga aylanmasligi kafolatlandi. O'sib borayotgan mahalliy zodagonlar ittifoqni boyitish uchun asosan hunarmandchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Polibiyning ta'kidlashicha, etoliylar faqat urush olib borgan xalqlarni emas, balki bir-birlari bilan jang qilgan xalqlarni ham talon-taroj qilish odatiga ega edi. Ittifoqning boshqaruv organlari qaroqchilikni nazorat ostiga oldi, buning natijasida talonchilik xususiy holatdan davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Turli polislarga "asiliya"ni va'da qilib, etolianlar bu davlatlardan turli imtiyozlarga ega bo'lishar edi.

Etoliya Ittifoqining siyosiy tizimi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan. Oliy hokimiyat Xalq Majlisiga tegishli edi. Muntazam yig'inlar yiliga ikki marta chaqirilardi, agar zaruriyat tug'ilsa, favqulodda yig'inlar o'tkazilishi belgilangan edi. Xalq Majlisining vakolatlari urush va tinchlik masalalari, umumittifoq qonunchiligini shakllantirishdan iborat bo'lgan. Xalq Majlisida Etoliyaning barcha fuqarolari ishtirok etish huquqiga ega edilar. Biroq fuqarolik huquqi mulkiy senzura bilan belgilanganligi to'g'risida taxminlar mavjud. Kengash (Bule) polis va qabila hududlari vakillaridan iborat edi (fuqarolar miqdoriga qarab). Dastlab, Kengash 550 a'zodan iborat bo'lib, keyinchalik a'zolar soni 1000 kishiga yetdi. Boshqaruvdagi ijrochilik vazifasi strategga tegishli bo'lib, undan keyingi o'rinda magistrat, so'ngra gipparx (otliq qo'shinlar boshlig'i), keyingi pog'onada kotib (keyinchalik ularning soni ikki nafarga yetdi) turgan. O'z

navbatida yetti nafar xazinabon lavozimi ham ijro hokimiyati tarkibida edi. Ushbu lavozimlarning barchasi har yili Xalq Majlisi tomonidan saylanardi.

Ittifoq hududlarining kengayib borishi Xalq majlisi faoliyatini muntazam yuritishga imkon bermadi, aynan shu sababdan Kengash doimiy ravishda ishlay olish qobiliyatini yo'qotdi. Shunday holatda kengashdan ajralgan tarzda apokletlardan iborat bo'lgan maxsus komissiya tuziladi, ushbu komissiyaga (magistrlar bilan birgalikda) Ittifoqning kundalik hayotiga rahbarlik qilish vazifasi yuklatiladi. Komissiya katta vakolatlarga ega edi: u xorijiy davlatlar bilan aloqa qilishi, armiyaga qo'mondonlik qilishi mumkin edi. Komissiya yig'inlari yopiq holatda o'tkazilgan. Etoliyada asta-sekin oligarxik rejim demokratik tizim o'rnini egallay boshladi. Shu bilan bir qatorda mulkiy tengsizlik holatlari ham kuzatila boshlandi. Mil. avv. III asr oxirlariga kelganda to'lanmagan qarzdorlik evaziga shakllangan kambag'allar soni keskin oshdi. Qo'mondon Skopas qarzlarni bekor qilishga urinib ko'rdi, ammo boylarning kuchli qarshiligiga duchor bo'lib, Etoliyani tark etishga majbur bo'ladi.

Axeyya Ittifoqining boshlang'ich o'zagi (mil. avv. 280-yillar atrofida shakllangan) Peloponnesning shimolidagi Axeyya polisidan boshlangan. Mil. avv. III asrda Axeyya Ittifoqi yarim orolning kattagina qismini o'z ichiga olgan bo'lib, uning tarkibida Argos, Korinf, Sikion, Megara, Megalopol kabi yirik markazlar bo'lgan. Axeyya Ittifoqi klassik davrda paydo bo'lib, diadoxlar kurashi davrida esa tarqalib ketgan. Mil. avv. 281-280-yillarda ittifoq qayta tiklandi. Keyingi davrlarda ittifoqning kengayishi Makedoniya va Peloponnesning ko'plab polislarida mavjud bo'lgan zolim rejimlarga qarshi kurashish shiori ostida o'tdi. 275-yilda Egion fuqarolari makedoniyaliklar garnizonini o'zlarining hududlaridan chiqarib tashladilar va ittifoqqa kirdilar. Egion bundan keyin Axeyya Ittifoqining poytaxti sifatida tan olindi. Mil. avv. 251-yilda Arat boshchiligidagi Axeyya qo'shinlari to'satdan Sikionni qo'lga kiritdilar. Mil. avv. 243-yilda makedoniyaliklar Akrokorinf va Megarani egallashdi. Mil. avv. 229-yilda Argos qo'lga olindi. Natijada, Spartadan tashqari butun Peloponnes hududlari Ahey Ittifoqi tarkibiga kirdi.

Axeyya Ittifoqi siyosiy boshqaruvining faqat asosiy xususiyatlarigina bizgacha ma'lum, xolos. Afsuski, tarixchi Polibiy, axeylar konstitutsiyasi yaratilishining mufassal ta'rifini yozib qoldirmagan. Tarixiy manbalarning qayd etishicha, mil. avv. 217-yilda ittifoqda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi. Unga ko'ra ittifoqni tashkil etishda ikki bosqich mavjudligi qayd qilinadi. Oliy hokimiyat Xalq Majlisi (Sinod) bo'lib, u urush va tinchlik masalalarini muhokama qilib, ittifoq magistrlarini saylagan. Kengash (Bule) juda muhim organ edi. Kengash bir necha yuz kishini (aniq raqami noma'lum) o'z ichiga olgan bo'lib, u mutanosiblik tamoyillari asosida (polislardagi fuqarolar soniga qarab) shakllanardi. Ijro hokimiyatining boshlig'i bir yil muddatga tayinlangan strateg (dastlab ikki nafar bo'lgan) edi. Ikki yil ketmaket bu lavozimni egallash ta'qiqlangan. Bundan tashqari, gipparx (otliq boshlig'i), navarx (admiral), kotib, o'nta demiurg kollegiyasi (tashqi siyosiy masalalarni o'z ichiga olgan vakolatga ega) kabi lavozimlar mavjud edi. Axeyya Ittifoqining sodiq fuqarosi Polibiy uni demokratiya va erkinlikning qal'asi sifatida ta'riflasa-da, Ittifoq siyosati asosan Peloponnes shaharlaridagi mavjud yuqori qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Yosh va mulk senzlari kambag'al fuqarolarga Xalq Majlisi majlislarida ishtirok etishga to'sqinlik qilardi. Demurglar kengashi majlislari oliy magistrlar faoliyati bilan birgalikda ko'pincha yashirincha o'tardi.

Xalq Majlislari yig'ilishlarini muntazam o'tkazish imkoniyatining mavjud emasligi, odatda ushbu yig'ilishlarning umuman to'xtab qolishiga sabab bo'ldi (favqulodda holatlardan tashqari). Ittifoqda Favqulodda yig'ilishni Sinklit deb atashgan.

Shunday qilib, Axeyya Ittifoqi, harbiy kuchiga qaramay (Polibiyning ma'lumotiga ko'ra, 30-40 ming jangchi-goplitlardan iborat), juda zaif birlashma bo'lib qoldi. Axeyya Ittifoqi siyosatida ikkiyuzlamachilik (Yunonistonni Makedoniyaning ta'siridan ozod qilish va yunon polislarining mavjud qatlamlarini himoya qilish istagi) oxir-oqibat eng kuchli inqirozga olib keldi.

Salavkiylar davlati. Bu davlat mil. avv. 312-yili vujudga kelgan bo'lib, uning asoschisi Salavka I Nikator bo'lgan. Salavka mil. avv. 323-yili Iskandar vafotidan keyin lashkarboshi Perdikkaning fuqarolar urushini boshlaganidan so'ng siyosiy

maydonga chiqqan edi. U Perdikkaning mil. avv. 321-yili Misrga yurishi davrida Mesopatamiyaning satrapi lavozimiga erishadi va uning o'ldirilishida qatnashadi. Mil. avv. 312-yili sharqiy Anatoliya, Fors, Parfiya, Baqtriya va Arabistonning bir qismi Mesopotamiya hukmdori Salavka I ning hokimiyatini tan oladi. Ammo Hindiston rojasi Chandragupta Maurya ushbu ellin davlatiga bo'ysunmaydi. Natijada Chandragupta Salavka bilan sulh tuzib, 500 ta filni sovg'a qilib jo'natadi. Hindistonga Araxosiya, Parolamis, Gedrossiya o'tib ketadi. Mil. avv. 301-yili Kichik Osiyo hukmdori Antigon Birko'z Ips yonidagi jangda g'alabaga erishadi. Sharqiy Kichik Osiyo va Shimoliy Suriya egallanadi. Bu yerda Antioxiya quriladi. Mil. avv. 280-yili taxtni Antiox I Sotep (mil. avv. 280-261-y.) egallaydi. Dastlab, u vifiniyaliklardan mag'lubiyatga uchraydi. Ammo ko'p o'tmay ularni va galatlarni mag'lub etadi (mil. avv. 277-yil). So'ngra Amudaryo ustidan ko'prik o'tkazadi. Tarmitta shahriga, ya'ni hozirgi Termiz shahriga asos solinadi. Marg'iyonada ham Antioxiya shahrini quradi. Antiox I davrida Salavkiylar davlati yuksala boshlaydi, ammo Pergam podsholigi bilan bo'lgan urush mamlakatni kuchsizlantiradi. Salavkiylar davlati 72 ta kichik satrapliklarga bo'linib, Antioxiya, Salavkiya, Apamiya, Laodikiya kabi yirik shaharlari bo'lgan. Salavkaning o'zi 75 ga yaqin shaharga asos soladi. Antiox esa 16 ta shahar qurdirgan. Uchta Apameya shahri ham qurilgan. Boshqaruv harbiy len tizimi asosida amalga oshirilgan. Otliq qo'shin getayra va agen deb nomlangan. Piyoda qo'shin argiraspit (kumush qalqonlar) deb atalgan. Piyoda qo'shinlar soni 10 mingga yaqin bo'lgan. Bundan tashqari yengil piyodalar ham bo'lib, ular hatto falangaga ham olingan. Shuningdek, jang aravalari va Hindiston fillari ham ishlatilgan. Qo'shinning soni 70 mingdan oshgan. Otliq qo'shin 12 ming kishiga yetgan. Asosiy o'lpon-foros deb atalib, qishloq jamoalaridan undirilgan. Ushbu soliqni hamma to'lashi majbur bo'lgan. Faqat podshoning imtiyozi bilan bundan xalos bo'lish mumkin edi. Foros miqdori talantlar orqali to'langan. Bundan tashqari jon solig'i, toj solig'i, tuz solig'i, ibodatxonalar uchun turli xil yig'imlar amalga oshirilgan. Bojxona har bir satrapliklar chegaralarida ham bo'lib, ichki va tashqi bojxona tizimi shakllantirilgan edi. Qul savdosidan ham alohida soliq undirilgan.

Mamlakatning butun viloyat va shaharlari mol-mulk solig'ini to'lashgan.

Mil. avv. 226-yili Salavkiylar taxtiga Salavka III Keravn chiqariladi. U Salavka II va malika Laodikaning o'g'li edi. Ammo ko'p o'tmay o'z lashkarboshilaridan biri tomonidan o'ldiriladi. Shu payt uning ukasi Antiox esa Yuqori Osiyo (Frot daryosining sharqi)da edi. Mil. avv. 223-yili taxtga podsho Antiox III chiqadi. Yangi podsho Kichik Osiyo viloyatlaridan to Tavr tog'larigacha bo'lgan yerlarning noibi etib Axeyni tayinlaydi. Midiya va Fors hududlariga lashkarboshilari aka-uka Molon va Aleksandrlarni javobgar qilib qo'yadi. Bir yil o'tgach u Pond podshosi Mitridat II ning qiziga uylanadi. Mil. avv. 222-yil aka-uka Molon va Aleksandrlar podshoga xiyonat qilib, Midiya va Forsda isyon ko'tarishadi. Katta qo'shin yig'ib Salavkiya shahriga boshlab boradilar. Antiox III lashkarboshi Ksenoyni yuboradi, ammo isyonchilar uni tor-mor etishadi. Molon qo'shini Dajladan o'tib Bobil va Suzani egallaydi. Natijada Mesopotamiyaning katta qismi qo'ldan chiqib ketadi.

Mil. avv. 220-yil bahorida Antiox III ning lashkarboshisi Zevksis maslahati bilan Dajla daryosidan o'tib oladi. Oqibatda Molonning Midiyaga chekinish yo'lini kesib qo'yadilar. Apolloniatida yonidagi jangda Molon qo'shinining katta qismi Antiox III tomoniga o'tib ketadi. Qolganlari qurshovga tushib qoladi va taslim bo'ladi. Shu vaqt Molon esa o'z joniga qasd qiladi. So'ngra uning ukasi Aleksandr ham o'zini o'ldiradi. Kichik Osiyo satrapi Axey o'zini podsho deb e'lon qiladi va Suriyaga yurish qilmoqchi bo'ladi. Ammo qo'shin podsho Antiox III ga sodiq qoladi, natijada Axey Lidiyaga qaytishga majbur bo'lgan. Satraplar isyonini oxirigacha bostirib bo'lmasdan podsho Misrga tegishli bo'lgan Kelesiriyaga yurishga tayyorgarlik ko'radi. Biroq mil. avv. 217-yilning 22-iyunida Rafiya yonida misrliklardan mag'lubiyatga uchraydi va Misr bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. So'ngra Pergam podshosi Attal I bilan ittifoq tuzadi. Shundan keyin mil. avv. 216-yil Axeyga qarshi yurishni davom ettiradi. Tez orada Axey o'z qarorgohi Sardida ikki-yil qamal qilinadi. Ochlik va kasalliklardan qiynalgan shahar taslim bo'lgach, Axey qatl ettiriladi.

G'arbdagi vaziyatni o'z nazoratiga olgan Antiox III mil. avv. 212-yil Sharqqa harbiy yurish boshlaydi. Mil. avv. 209-yilda Midiyada qo'shinlarni jamlab Parfiyaga kirib boradi. Bu davrda Parfiyani Artaban I (mil. avv. 211-191-y.) boshqarayotgan edi. Qo'shinlar Gekotompilni egallab, Girkaniyaga bostirib kiradi. So'ngra Yunon-Baqtriya ustiga qo'shin tortadi. Yunon-Baqtriya podshosi Yevtidem I qo'shinlarini Ariya (Tajan daryosi hoz. Afg'oniston) yonida yengadi va Baqtriyani qamal qiladi. So'ngra katta talofot ko'rgach, Antiox III Yevtidem I bilan sulh tuzadi. Mil. avv. 205-yili Suriyaga qaytadi, uning ushbu 7-yillik urushi Salavkiylar davlatini vaqtincha yuksaltirdi va Antiox Buyuk nomi bilan tarixda qoldi. Mil. avv. 205-204-yillarda Arabistonga yurish qilib ayrim arab qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. Mil. avv. 202-yilda Misr bilan beshinchi Suriya urushini boshlaydi va Keliseriyaga hujum qiladi. Mil. avv. 200-yilda Misr lashkarboshisi Skofus olti minglik qo'shini bilan Yahudiyani bosib oladi, lekin ko'p o'tmay Salavkiylar Quddusni egallaydi. Mil. avv. 197-yilda Kichik Osiyoga yurish vaqtida uning o'g'illari Ardiya va Mitridat hamrohlik qilishadi. Uch yuzta kema bilan o'zi Kichik Osiyoga yurish qiladi. Smirna va Lampsaka shaharlari qamal qilinadi. Mil. avv. 195-yilda Misr Klisirayini Salavkiylarga tegishli ekanligini tan oladi. Mil. avv. 193-yili Antiox III Zevksiz nomli sarkardasini Rimga elchi qilib yuboradi. Rimliklar Antiox III ga yunon shaharlariga hujumlarini kuchaytiraversa urush boshlashlarini e'lon qiladi. Ammo Senat muzokaralarni cho'zib yuboradi. Tarixchi Tit Liviy ma'lumotiga ko'ra muzokaralar hech qanday natija bermagan edi. Mil. avv. 192-yilda Antiox III Egey dengizidan o'tib, Fessaliyaga qo'shin tushiradi va axeylik, rimliklarning kichik qo'shinini yengib, Evbiyaga yurish qiladi. Mil. avv. 191-yilda Rim lashkarboshisi Maniatsili Glabrion Antiox III qo'shinlarini Fermopil yaqinida mag'lubiyatga uchratadi. Natijada podshoh Osiyoga qaytishga majbur bo'ladi. Mil. avv. 190-yilda Pergamga yurish qilinadi. Bu yerning podshosi Evmen II Rimning ittifoqchisi bo'lgani uchun Rim qo'shini Kichik Osiyoga qo'shin tushiradi. Antiox III rimliklarga sulh taklif qiladi.

Mil. avv. 190-yili Rim qo'shinlari Suriyaga kirib boradi. Magnesiya yonidagi jangda Antiox III qo'shinlari mutlaq

mag'lubiyatga uchraydi. Mil. avv. 188-yilda Apameya sulhi tuziladi. Unga ko'ra Tavr tog'laridan g'arbdagi barcha yerlaridan Antiox III voz kechadi va o'n besh ming talant tovon to'lashi kerak bo'ladi. Mil. avv. 187-yili Antiox III Elliniyadagi Bella ibodatxonasini talon-taroj qilingan vaqtda vafot etadi. Mil. avv. 187-yilda Antiox III ning o'g'li Antiox Filopatr hokimiyatga keladi. Ammo mamlakat og'ir vaziyatda edi. Iqtisodiy inqiroz boshlanib ketadi. Mil. avv. 185-yili Axey ittifoqi bilan kelishuvlar imzolanadi. Podsho Kichik Osiyodagi siyosiy jarayonlarga aralashadi, shu bilan birga Makedoniya podshosi Persey bilan ittifoq tuzadi. Bu bilan u Rimga qarshi tashqi siyosat yurgizayotganligini bildirib qo'yadi. Xatto qizi Laodikani Perseyga turmushga ham bergan. Makedoniyaning mag'lubiyatidan so'ng o'z o'g'li Demetriyni Rimga garovga jo'natadi. Mil. avv. 175-yili saroy a'yonlaridan bo'lgan Geliodor tomonidan o'ldiriladi. So'ngra taxtni Antiox IV Eppifan egallaydi va mamlakatni mil. av 164-yilgacha boshqaradi. Butun mamlakatni ellinlashtirish boshlanadi. Natijada Yahudiyada qo'zg'olon yuz beradi va Makkavey urushlari ham kelib chiqadi. Bu orada Parfiyaning sharqdagi hujumi kuchayadi.

Ellinlashtirish natijasida ko'plab teatr va gimnaziyalar qurilib, ellin madaniyati ulug'lanadi. Antioxiyaning yaqinidagi Defnada triumf o'tkazilib, Rimga nisbatan taqlid qilinadi. Ko'p o'tmay Misr bilan urush boshlanib ketadi. U yerga ikki marta yirik yurish tashkil etiladi. Ammo kutilgan natijaga erishilmaydi. Mil. avv. 165-yili sharqqa yurish qilib, birinchi zarbaga Armaniston duchor bo'ladi. Bu yerda Artashes hukmronlik qilayotgan bo'lib, Salavkiylarga deyarli bo'ysunmay qo'ygan edi. Appianning ma'lumotiga ko'ra lashkarboshi Eppifan Arman podshosini asirga oladi. Butun Armanistonga Salavkiylar garnizoni joylashtiriladi. Numeniya degan shaxs strateg etib tayinlanadi. Ammo armanlar qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Mil. avv. 164-yili Artashes Bobil va Midiyadagi qo'zg'olonga aralashadi. Mil. avv. 164-yilda Ekbatan shahri Eppifaniya deb o'zgartiriladi, ammo shu yili podsho vafot etadi. Taxtga Antiox V Epfatr keladi. Ammo mil. avv. 162-yili Rimdan qaytib kelgan Demetriy taxtni egallaydi. Demetriy mil. avv. 150-yilgacha hukmronlik qiladi. Rim uning hukmronligini tan oladi. U Bobilni egallab satrap Timarxni hokimiyatdan

chetlashtiradi va Sotter degan taxallusini oladi. So'ngra Midiyani Parfiya hujumidan saqlab qoladi. Demetriy Yaqin Sharqdagi Misrni ta'sirini susaytirish uchun Aleksandr Balasga yordam ham beradi va mil. avv. 150-yili fuqarolar urushi natijasida vafot etadi. Aleksandr Balas mil. avv. 145-yilgacha hukmronlik qiladi va Misr bilan bo'lgan jangda vafot etadi. So'ng hokimiyatga Demetriy II Nikator (mil. avv. 145-139-yillar, keyinchalik 129-126-yillar) keladi. U yoshligida onasi bilan Krit orolida panoh topgan edi. Taxtni egallashda unga Misr podshosi Ptolomey VI yordam beradi va uning evaziga firavnning qizi Kleopatra Teyaga uylanadi. Ptolomey VI Aleksandr Balasni yenggach, Demetriy II ni taxtga o'tqazadi. Ammo u xalq orasida unchalik tanilmagan bo'lib, asosiy qo'shini yollanma kritliklardan iborat bo'lgan. Rimliklar Demetriyni Suriyadagi hukmronligini tan olishadi. So'ngra Antioxiyada qo'zg'olon ko'tariladi, bu qo'zg'olonni Demetriy shafqatsizlarcha bostiradi. Mil. avv. 139-yili Demetriy II kuchayib borayotgan Parfiya podshosi Mitridat I ga qarshi yurish qiladi. Ammo mag'lubiyatga uchrab asirga tushib qoladi. Bobil viloyati Parfiya podsholigi tarkibiga o'tib ketadi. Bu orada Demetriyning ukasi Antiox VII Sidetom Suriyadagi taxtni egallaydi. Mitridat I Demetriy II hayotini saqlab qoladi, xatto qizi Rodogunani unga turmushga beradi. Mil. avv. 130-yili Antiox VII Parfiyaga yurish qiladi, Mesopotamiya va Midiya Antiox VII ga bo'ysunadi. Salavkiylar podshosi Firaat II Demetriy II ni asirlikdan qo'yib yuboradi. Mil. avv. 129-yili Salavkiylar qo'shini mag'lubiyatga uchraydi va Antiox VII halok bo'ladi. Demetriy II asirlikdan chiqib Suriyaga qaytib keladi (mil. avv. 129-yil). Salavkiylar davlati yirik mamlakat sifatidagi maqomini yo'qotadi. Bu orada Misrdagi fuqarolar urushiga aralashib qoladi va Misrdan mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng Salavkiylar davlati inqirozga yuz tutadi. Filip II Filoromey Salavkiylar davlatining so'nggi hukmdori bo'ladi. Mil. avv. 64-yili Rim konsuli Pompey Salavkiylar davlatiga tegishli Suriyani Rim tarkibiga qo'shib oladi va bu davlat jahon siyosiy xaritasidan o'chib ketadi.

Yunon-Baqtriya podsholigi. Taxminan mil. avv. 250-yilda Baqtriya noibi Diodot I (mil. avv. 250–248-yillar) Salavkiylar davlatidan o'z mulkini ajratib oladi. Uning harakatlariga mahalliy

Eron zodagonlari yordami va Suriyadagi salavkiylarni olib borgan urushlari qo'l keldi. Uning o'g'li Diodot II (mil. avv. 248-235-yillar) parfiyaliklarni harbiy harakatlari hisobiga Baqtriya mustaqilligini himoya qilgan. Biroq varvarlar bilan ittifoqchilikdagi bunday pozitsiya Baqtriyadagi yunon-makedon harbiy doiralari o'rtasida norozilik keltirib chiqardi, natijada Baqtriyaning Sug'diyonadagi noibi Yevtidem mil. avv. 235-yilda podsholik taxtini egalladi. Shu orada Salavkiylar hukmdori Antiox III parfiyaliklarni mag'lub qilib, Parfiya shohi Artaban I ni Salavkiylarga qaramlikni tan olishga majbur qildi, mil. avv. 208-yilda Yevtidemning 10 minglik otliq askarlarini mag'lubiyatga uchratdi va Baqtriya poytaxtini qamal qildi.

Qamal ikki yilcha davom etadi. Nihoyat, og'ir urushlardan charchagan Antiox III o'zining ishonchli kishisi Teleyni Baqtriya vazilevsi (podsho) Yevtidem bilan muzokara olib borish uchun yuboradi. U Baqtriyadagi mustaqil podsholikni yo'q qilishdan suriyaliklarga naf yo'qligiga podshoni ishontirdi, chunki sharqdan ko'chmanchilarning katta qismi (saklarning sakarauk, assian va boshqa ko'chmanchilar) xavf solayotgan edi. Hozir, degan edi Yevtidem, baqtriyaliklar ulardan butun Osiyoni himoya qilib turibdilar, agar baqtriyaliklar bo'ysundirilsa, u holda Antiox III ular bilan o'zi jang qilishiga to'g'ri keladi, bu esa oson ish emas. Antiox III bu vajlarni qabul qildi va mil. avv. 206-yilda Yevtidem bilan tinchlik sulhi tuzdi, unga ko'ra baqtriyaliklar Salavkiylarning oliy hokimiyatini qabul qilishlari kerak bo'lsa-da, Baqtriya hukmdorlari uchun podsholik unvoni rasman tan olindi. Bu ittifoq Yevtidemning o'g'li Demetriyning Antiox III ning qizi bilan sulolaviy nikohi orqali mustahkamlandi.

Yevtidemning vorisi podsho Demetriy I davrida (taxminan mil. avv. 200-185-yillar) Yunon-Baqtriya podsholigi birmuncha gullab-yashnadi. Maurya imperiyasining qulashi va buning ortidan boshlangan buddaviylar va hinduiylar o'rtasidagi diniy g'alayonlar avj olganidan foydalanib, mil. avv. 180-yilda Demetriy Hindiqush tog'ini kesib o'tdi va hindlarning Shung sulolasi tomonidan boshqarilayotgan Shimoliy Hind vodiysini bosib oldi. Harbiy yurishlar natijasida Araxosiya va Panjob hududlari uning qo'l ostiga o'tdi.

Demetriy davrida buddaviylik dini qo'llab-quvvatlanadi, bu esa yangi dinni O'rta Osiyoning janubiga ilk bora tarqalishiga olib keldi. Hindiston tomon yo'naltirilgan bosqinchilik siyosati Yevkratidning harbiy qo'zg'oloniga sabab bo'ladi. U Baqtriya podsholarining uchinchi sulolasiga asos soladi. Tez orada Yevtidemning o'g'li Menandr I boshchiligidagi buddaviylar Shimoliy Hindistondagi yerlarini (keyinchalik Hind-yunon podsholigi nomini olgan) Baqtriyadan ajratib oladi. Ko'p o'tmay (Mil. avv. II asr 40-yillari), saklar migratsiyasi natijasida Qang'yuy tarkibiga kirgan So'g'diyona ham Yunon-Baqtriya tarkibidan chiqib ketadi. Deyarli shu vaqtda Parfiya podshosi Mitridat I Marg'iyonani qo'lga kiritgan edi.

Xan sulolasi davriga oid Xitoy-yilnomalariga ko'ra, mil. avv. 162-yilda xunnlar tomonidan mag'lub etilgach, yuechji qabilasi ko'chmanchilari Torim havzasidan taxminan Farg'ona orqali g'arbga qochib, Baqtriya hududining shimoliy qismini egallab, hozirgi O'zbekiston va Qozog'iston hududidagi Amudaryoning shimoliga joylashgan bo'lib, keyinchalik yuechjilar yunonlarni siqib chiqara boshlaganlar.

Baqtriyaga tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chjan Syanning yozishicha, yuechjilarda yuzdan to ikki yuz minggacha kamonchilar qo'shini mavjud bo'lib, ular xun (syunnu)larning urf-odatlariga o'xshash ko'chmanchi odatlarga ega edilar. Chjan Syan mil. avv. 126-yilda Baqtriya (Dahya)ga ham tashrif buyurgan, shaharlarning rivojlangan infratuzilmasiga qaramasdan, mamlakatni to'liq tushkunlikda deb ta'riflagan edi.

Yuechjilar mil. avv. 120-yilda Baqtriyaga hujum qildilar, aftidan, bunga usunlarning ularni shimoldan quvib chiqarganliklari sabab bo'lgan. O'z navbatida, yuechjilar skiflarni Hindiston tomon burib yubordilar, oqibatda Hind-skif podsholigi shakllandi.

Yuechjilar Baqtriyada yana yuz yildan oshiq vaqt qoldilar. Ular yunon madaniyatini o'zlashtirib, o'zlarining eron tillari guruhiga mansub tillari uchun yunon alifbosini ishlatishdi hamda tangalarida Yunon-Baqtriya podsholigi uslublariga taqlid qildilar.

Baqtriyadan sharqda, Shimoli-G'arbiy Hindiston hududida Yevtidem va Yevkratid avlodlari tomonidan boshqarilgan kichik

yunon-hind podsholiklari saqlanib qolingan edi (mil. avv. 165-155-yillar).

Mil. avv. 140-yilda Oyxonim shahri butunlay yondirilib, vayron bo'ladi va u bundan keyin qayta tiklanmadi. Bu paytda, so'nggi podsho Geliokl Baqtradan chiqib, poytaxtni Kobul vodiysiga ko'chirdi, bu yerdan turib u janubiy mulklarini boshqardi. Garchi uning vorislari Hindikushning ortigacha o'tib, Hind-yunon podsholigining g'arbiy qismlarini egallagan bo'lsalar ham, Geliokl Yunon-Baqtriya podsholigining so'nggi hukmdori hisoblanadi. Bunday so'nggi podsholardan biri Germey taxminan mil. avv. 70-yilda yuechjilar uning hududi hisoblangan Paropamisga bostirib kirmaguniga qadar hukmronlik qilgan.

Harbiy tizim. Boshqaruvda ellin madaniyatini qabul qilgan mahalliy xalq mil. avv. 155-yil podsho Yevkratid o'ldirilgandan so'ng siyosiy inqirozni o'z boshidan kechirayotgan edi. Yunon-Baqtriyaning yangi podshosi Geliokl (mil. avv. 155-140-yil) davrida mamlakat bir necha qismlarga bo'linadi. Bu o'troq ziroatkor davlatda hukumat yunon tilida davlat ishlarini olib borgan. Armiya esa, asosan yunon qo'shini qurollari bilan ta'minlangan edi. Ya'ni kalta dudamali "ksifos" va egri "maxayra" qilichlarini janglarda ishlatganlar. Shu bilan birga uzun nayza ("sarissa") va kalta uloqtiruvchi drotiklardan (sak qurolsozlik madaniyati) foydalanganlar. Bu yerda yana qadimdan yilqichilik ham keng tarqalgan edi.

Yunon kulolchiligi san'ati mahalliy madaniyatni yanada boyitdi. Ayniqsa, Dalvarzintepa va Oyxonim manzilgohlaridan topilgan mo'jaz qadahlar hududda uzumchilikni rivojlanganligidan dalolat berar edi.

Qadimgi Xitoy tarixchilari katta yuechjilarning "xi-xeu" (knyazlik)liklari tuzilishiga qadar Baqtriyaning aholisi qay yo'sinda ko'chmanchilar bilan qo'shnichilikda yashaganliklari haqida yetarli ma'lumotlar bermaydi. Lekin iqtisodiy manfaatlar o'troq va ko'chmanchi aholini doimiy ravishda manfaatli aloqalar bog'lashga undagan. Chunki shimolda Baqtriya o'lkasining hududi ko'chmanchilarning chorvalari uchun qulay qir va adirlarga boy bo'lgan.

Yunon-Baqtriya podsholigi xo'jaligi. Yunon-Baqtriya podsholigi aholisi xilma-xil edi. Kam sonli, ammo rivojlangan harbiy texnologiyalarga ega bo'lgan (getayrlar, falanga, harbiy fillar) yunon-makedon mustamlakachilari ("ionaka") harbiy va ma'muriy lavozimlarni egallagan edilar. Avvaliga ular o'zlarning ellin madaniyatini (gimnaziyalar, teatr, megaronlar, haykallar, vakxanaliyalarni) astoydil saqlab kelganlar, bu haqda qadimgi Oyxonim xarobalari darak beradi. Ular, shuningdek, eroniyzabon mahalliy aholining ellinlashtirilishini mamnuniyat bilan kutib oldilar, ammo bu muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shunga qaramay, arxeologlar Yunon-Baqtriya ta'sirining izlarini G'arbiy Xitoyda ham topishga muvaffaq bo'lishdi (geometrik naqshlar, yunon askarlari haykallari).

Milodiy II asrda yashagan xristian muallifi Iskandariyalik Klement baqtriyaliklar (u davrda sharqiy yunonlarni "baqtriyalik" deb nomlashgan) orasida buddaviylar borligi haqida guvohlik beradi va ularning yunon tafakkuriga ta'siri haqida so'z yuritadi ("Stromata", I kitobi, XV qism). Iqtisodiyot asosini yuzaga kelayotgan Buyuk Ipak yo'li tranziti va oltin qazib olish tashkil etgan.

Yunon-Baqtriya podsholigi hududida yunon hamda oromiy yozuvlari ishlatilgan. Mustamlakachilarning dini (qadimgi yunon dini) mahalliy aholi dini (zardushtiylik, vedalar dini)dan farq qilgan.

Ptolomeylar sulolasi davrida Misr. Davlat asoschisi Ptolemey I Soter (mil. avv. 305-282-yil) tashqi siyosat sohasida o'zini iste'dodli hukmdor va malakali siyosatchi sifatida ko'rsata oldi. Ma'lumki, u o'z o'limi bilan vafot etgan yagona diadox edi. Ptolemey o'z davlatining chegaralariga yaqin hududlarni bosib olish uchun jiddiy choralar ko'rdi. Bu nafaqat istalgan yunon hukmdoriga xos tajovuzkor maqsadlarda, balki O'rtayer dengizidagi davlatlar xavfsizligini ta'minlash istagida ham namoyon bo'ldi. Makedoniya namunasiga ko'ra tashkil etilgan makedoniyaliklar va yunonlardan tashkil topgan kuchli armiya uning tashqi siyosatidagi harakatlarining asosiy tayanchi edi. U, shuningdek, yunon yollanma askarlarini ham jalb qiladi, ammo mahalliy Misr aholisi vakillari muntazam qo'shinda xizmat

qilmadilar, chunki ular yunon dunyosida qabul qilingan namunaga ko'ra o'qitilmagan edilar. Faqatgina vaqt o'tishi bilan bu holat biroz o'zgardi, biroq bu ancha keyinroq yuz berdi.

Diadoxlar urushi davridayoq Ptolemey buyuk, ammo mustahkam bo'lmagan Aleksandr davlatining qulashi muqarrarligini birinchi bo'lib tushunib yetgandi. Misrda mustahkamlanib olgach, u Aleksandr tomonidan bosib olingan Kirenaikani (hozirgi Liviyaning shimoli-sharqiy qismi) hokimiyatiga bo'ysundirib, Suriya va Finikiyaga bostirib kirdi va yo'l-yo'lakay mis va yog'ochga boy Kiprni bosib oldi.

Ptolemey I Soterning o'g'li Ptolemey II Filadelf (mil. avv. 283-246-yillar) va nabirasi Ptolemey III Everget (mil. avv. 246-221-yil)lar ham oldingi siyosatni davom ettirib, o'z hokimiyatlarini Kichik Osiyo va Egey dengizidagi bir qator shaharlarga yoyishdi. Mil. avv. III asr oxirlarida Misr eng kuchli dengiz floti bo'lgan va yunon davlatlari tizimida yetakchi o'rinni egallagan davlat edi. Ptolemeylarning asosiy raqiblari Makedoniya va Salavkiylar davlatining hukmdorlari, shuningdek, Kichik Osiyodagi kamroq ahamiyatga ega ellin davlat birlashmalari (masalan, Pergam, Bitiniya va boshqalar) edi.

Ptolemey II Filadelf davrida Salavkiylar davlati bilan munosabatlar keskinlashdi. Daromadlar oqimini ta'minlash istagi Ips jangidan keyin Ptolemey I tomonidan qo'lga kiritilgan Kolesuriya (janubiy Suriya va Finikiya hududlari), shuningdek, bu yerda joylashgan savdo va strategik bazalarni mustahkamlash masalalari bir necha marta yuz bergan Suriya urushlariga sabab bo'ldi. Antiox I Salavk tomonidan qo'llab-quvvatlangan Birinchi Suriya urushi (mil. avv. 274-271-yil) Kirenaikadagi g'alayon bilan boshlandi. Ptolomey II ushbu harakatni to'xtatib, tashabbusni qo'lga oldi va Suriya va Kichik Osiyodagi bir qator g'alabalarni qo'lga kiritadi. Makedoniyaning ellin hukmdori Antigona Gonatning Antiox I tomonda urushga kirishi vaziyatni o'zgartirdi va Ptolemey tinchlik sulhi tuzishga rozi bo'ldi. Uning shartlariga ko'ra, Misr o'zining oldingi hududlarini saqlab qolish bilan birga Kichik Osiyoning janubiy sohillaridagi bir qator shaharlarni ham oldi. Shu bilan birga, Ptolemey II bir qator orol va Kichik Osiyodagi

yunon shaharlarining fuqarolari bilan ittifoqchilik bitimlarini tuzib, ularni o'z tomoniga og'dirdi.

Ikkinchi Suriya urushi (mil. avv. 258-253-yillar) sulolaviy nikoh bilan yakunlandi. Ptolomey II o'z qizini Antiox I ga berdi, unga ikki o'rtada tortishuvlarga sabab bo'lgan bir qator hududlarni ham taqdim etdi. Bu Ptolemeyning harbiy harakatlarda muayyan muvaffaqiyatsizliklarga uchraganidan dalolat beradi. Bunga qo'shimcha ravishda, Ptolemey II va Antigona Gonat flotlarining Ptolemey mag'lubiyati bilan tugagan Kosadagi dengiz jangi uni yanada tinch yo'l bilan harakat qilishga undadi. Bu muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, Ptolemey II o'z kuch-qudratining yuksalgan davrida Kireniya, Kipr, Pamfiliya, Likeya, Kelesuriyalarga egalik qilib, Kiklada orollari konfederatsiyasi siyosatiga ta'sir ko'rsatdi. Bu hukmdor Bolqon Yunonistonidagi vaziyatni ham e'tiborsiz qoldirmadi, bu yerda antimakedonlarni faol qo'llab-quvvatladi. Natijada, Misr floti Xremonid jangida (mil. avv. 267-262-yillarda) muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da, ishtirok etdi. Attikaga o'rnashish va makedoniyaliklar tomonidan qamal qilingan afinaliklarga yordam berishga urinish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Davlat boshqaruvi Ptolemeylar sulolasi davrida yunon tilida olib borilgan. Amaldorlar mahalliy kishilardan ham tayinlangan. Yirik lavozimlarni yunonlar egallashgan. Podsho "jurnali" asosida amaldorlar tayinlangan. Ularning ichida "birinchi do'stlar", "Birinchi do'stlarga teng do'stlar", "do'stlar", "vorislar" qatlami kiritilgan. Bosh vazir lavozimi Dioiket deb atalgan. Ushbu so'z boshqaruvchi degan ma'noni anglatgan, moliya ishlarini nazorat qilib, g'aznaga kiruvchi kirim-chiqim masalalari uning nazoratidan o'tgan. Ptolemey II davrida deyarli barcha ishlarni mashhur Dioiket Appoloni bajargan. Shaharlar polis deb nomlangan. Misr viloyatlari "xoru" deb nomlanib, xorlar o'z navbatida "nomlarga", nomlar esa "toparxiya"ga, toparxiyalar "kom"larga bo'lingan. Yuqori va quyi Misr tushunchalari mavjud bo'lib, nomarxlar strateg deb atalgan. Har bir nomlikda podsho kotiblari bo'lgan. Shunga o'xshash kotiblar toparxiya va komlarda ham mavjud bo'lib, ular o'z hududlaridagi soliqlar tushumini nazorat qilgan. Ularni dioiket tayinlagan. Nomliklardagi bosh iqtisodchi "ekonom"

deyilgan. Ularni taftishi kontrolyor tomonidan amalga oshirilgan. G'aznachi "trapeza" deyilgan bo'lsa "trapezitom" bankir vazifasini bajargan.

Sud tizimi ellin va mahalliy Misr urf-odatlar asosida tuzilgan edi. Mil. avv. 257-yil "O'lponlar to'g'risidagi nizom"ga muvofiq yunon hamda misrlik o'rtasidagi kelishmovchiliklar ikki sudya tomonidan birgalikda hal etilgan.

Mil. avv. 222-yil Misr taxtiga Ptolemey IV Filopator chiqadi. U davlat ishlariga kam qiziqar asosan maishatparastlikka berilib ketgan edi. Mamlakat Sosibiy ismli vazir qo'lida bo'lgan. Uning garchand fan va madaniyatga qiziqishi yuqori bo'lsa-da siyosatdan yiroqda edi. Mil. avv. 219-yil Sosibiy, muhojirlikda bo'lgan Sparta podshosi Kleomen III ning yollanma qo'shinlar orasidagi mavqeidan xavfsirab o'z yo'lidan olib tashlaydi. Spartaliklar qo'zg'olon paytida qurshab olinadi so'ngra ular o'z jonlariga qasd qiladilar.

Tarixchi Yustinning ta'kidlashicha, davlat amaldorlari va harbiylar ham podshoga taqlid qilib maishat hamda ishratga berilib ketadilar. Podsho, Agafokliya ismli "getera" (raqqosa) ta'siriga tushib qoladi. Agafokliya davlat lavozimlarini sotish bilan ham shug'ullangan. Shu bilan birga qarindoshlarini yirik mansablarga tayinlaydi.

Mil. avv. 219-yil Salavkiylar podshosi Antiox III misrliklarga tegishli bo'lgan Kelesiriyaga (Suriya) hujum qiladi. Misr qo'shiniga Etoliyalik Teodot boshchilik qiladi, salavkiylar ushbu to'qnashuvda mag'lub bo'ladilar. Antiox III harbiy yurishni Sharqqa qaratadi natijada Misr yangi hujumdan omon qoladi. Ammo ko'p o'tmay urush yana boshlanib ketadi. Mil. avv. 218-yil Salavkiylar armiyasi Falastinni egallaydi. Arab qabilalari Antiox III bilan ittifoq tuzadilar. Mil. avv. 217-yili misrliklar 70 ming piyoda, 5 ming otliq va 73 ta Afrika fillari bilan Rafiya yonida salavkiylarning 63 ming piyoda, 6 ming otliq va 102 ta hind fillari bilan to'qnashadi. Jangda Ptolemey IV ning armiyasi g'alabaga erishadi. Qobiliyatsiz va maishatparast podsho yurishni davom ettirmadi va sulh tuzadi. So'ngra Misrda qo'zg'olonlar va isyonlar avj oladi. Vazir Sosibiy ularni qiyinchilik bilan bostiradi. Mil. avv. 205-yil podsho Ptolemey IV vafot etishi bilan Agafokliya va uning

onasi g'aznani o'mara boshlaydilar. Mil. avv. 203-yil 28-noyabrida yosh Ptolemey V Epifan taxtga o'tqaziladi. Ko'p o'tmay Agafokliya va uning oilasini Sosibiy yosh podsho nomidan qonundan tashqari deb e'lon qiladi va Iskandariya shahri aholisiga topshiradi. Shaharliklar ularni maydonga olib chiqib o'ldiradilar.

Mil. avv. 196-yil salavkiylar podshosi Antiox III Suriyani bosib oladi. Bu safar misrliklar bunga ko'nishga majbur bo'ladilar. Mil. avv. 192-yil Ptolemey V Epifan Rafiya shahrida, Antiox III ning qizi Kleopatraga uylanadi va sulh rasmiylashtiriladi. Kelesiriyadan tushadigan soliq Misr va Salavkiylar davlati o'rtasida taqsimlanadigan bo'ladi. Ptolemey V Epifan mil. avv. 180-yil 28 yoshda vafot etadi. Songra taxtga Ptolemey VI taxtga o'tqaziladi ammo podsho yosh bo'lgani uchun mamlakatni uning onasi Kleopatra I boshqaradi. Malika Rim respublikasi bilan aloqani uzib Salavkiylar davlati bilan urush qilishdan voz kechadi. Ammo fir'avn Kleopatra I ham 4-yildan so'ng vafot etadi. Endi davlat ishlarini forslardan bo'lgan Evley ismli saroy og'asi boshqaradi. Mil. avv. 172-yil Misrga Rim va Salavkiylar davlatlari o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Natijada mil. avv. 146-yil Ptolemey VI Suriyaga (Aleksandr Balasga qarshi) harbiy yurishi paytida vafot etadi. So'ngra taxtni Ptolemey VII egallaydi. Uning hukmronligi bir necha oy davom etadi, xolos. Ptolemey VII dan keyin taxtga Ptolemey VIII keladi. Uning asl ismi Everget bo'lib, mil. avv. 145-116-yillarda davlatni boshqargan. Uning davrida Kipr masalasida Rim bilan kelishmovchilik yuzaga keladi. Ammo bunda Rim diplomatiyani ishga solib, bu masalani o'z foydasiga hal etadi. Mil. avv. 130-yili Ptolomey VIII o'z singlisi Kleopatra II bilan taxt uchun kurashadi va yuqori Misrda panoh topadi. Mil. av.124-yili Ptolomey VIII Kleopatriya II ni Misrga qaytarishga rozi bo'ladi va malika unvonini beradi. Mil. avv. 116-yili 13-yillik hukmronligidan so'ng vafot etadi. Unga keyingi hukmdorlar Ptolomey IX (mil. avv. 116-107-yillar) va (mil. avv. 89-81-yillar), Ptolomey X (mil. avv. 107-89-yillar) davrlarida mamlakat kuchsizlanadi. Shundan so'ng, Rimni ta'siri oshib boradi. Ptolomey XII Neos, Dionislar (mil. avv. 80-51-yil) davrida ichki nizolar kuchayadi. Armaniston hukmdori Tigran II Suriyaga xavf sola boshlaydi. Pont podsholigi ham Arman podsholigining ittifoqchisiga aylanadi. So'ngra Ptolomey XIII (mil.

avv. 51-47-yil) davrida Misrda fuqarolar urushi boshlanadi. Bu urushga Yuliy Sezar aralashadi va Kleopatra VII ni taxtga o'tqazadi. So'ngra Kleopatra Sezar vafotidan keyin Mark Antoniy bilan birga Misrni idora qiladi. Mil. avv. 30-yilda Misr Oktavian Avgust qo'shini tomonidan ishg'ol etilib, Rim provinsiyalaridan biriga aylantiriladi. Misrning birinchi prefekti etib Gay Karneliy Gall tayinlanadi. Yuqori Misr uning davrida egallanadi. U Arabiston yarimoroliga ham yurish qiladi.

Mil. avv. III–II asrlarda Pergam podshohligi. Ellin davlatlari tizimida Pergam podsholigi mil. avv. III-II asrlarda juda katta rol o'ynaydi. Pergamning dastlabki hududi Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, asosiy shahri Pergam bo'lgan Kaika daryosining unumdor vodiysida joylashgan Misiya viloyati edi. Pergam davlatiga mil. avv. 283-yilda millati yunon bo'lgan Attalning o'g'li Fileteri tomonidan asos solingan. Shu tariqa Attalidlar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Ushbu sulola Pergam davlatini mil. avv. 283-129-yillarda boshqargan. Diplomatik mahorat tufayli Pergam hukmdorlari Attal I (mil. avv. 241-197-y.) va Evmen II (mil. avv. 197-160-y.) o'z podshohligining chegaralarini kengaytirib, Kichik Osiyoning kattagina qismini egallab olishdi. Mil. avv. II asr boshlariga kelib Pergam podshohligi hududdagi eng yirik va qudratli ellin davlatlaridan biri bo'lib, mil. avv. II asrning oxirlarida yunon dunyosining taqdirida asosiy rol o'ynagan.

Pergam iqtisodiyotida antik tizimning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lgan, xususan, iqtisodiyotning ko'plab sohalarida qullardan foydalanish, mehnatni ekspluatatsiya qilishning intensiv usullari va tovar ishlab chiqarish elementlarini joriy etish kabilar shular jumlasidandir. Pergamning iqtisodiy farovonligi qulay tabiiy sharoit va iqlim, Kaika vodiysining unumdor tuproqlari, daryo vodiylari, uzumzorlar va serhosil daraxtlar, bepoyon yaylovlar, qora dengiz bo'g'ozlari yaqinidagi mamlakatning foydali qazilmalarga boy joylari, eng muhim savdo yo'llari kesishgan mintaqalar o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etardi. Pergamda donning katta miqdorini yetishtiruvchi manbalar ya'ni dalalar bor edi va o'z navbatida Pergam Misr bilan birga donli ekinlarning yirik eksportchisi bo'lgan. O'rtayer dengizi

bozorlarida Pergamda ishlab chiqariladigan zaytun moyi qadrlangan va Pergamning mashhur to'quvchilik ustaxonalari mahalliy jun va terilardan ajoyib matolar tayyorlar edi. Boshqa ellin davlatlarida bo'lgani kabi Pergam hukmdorlari butun mamlakatda foydalanilayotgan yer maydonlarini podshohlik mulki sifatida e'lon qilgan va davlat yerlarida ishlovchi dehqonlar juda katta miqdorda soliq to'lash va podshohlik xazinasi foydasiga ijara mas'uliyatini o'tashi zarur edi. Podshoh yerlarining bir qismi hukmron elita, byurokratiya, yuqori qo'mondonlik xodimlari vakillariga erkin egalik qilish uchun taqdim qilinardi. Keyinchalik bu yer uchastkalarida qul mehnati bilan ishlov beriladigan katta mulklar paydo bo'ladi. Yunon shaharlari tipida aholini asoratga soluvchi polis tizimlari shakllari bo'lgan. Yollanma askarlar kleruxiya deb ataladigan maxsus aholi punktlariga joylashtirilar, o'z navbatida bunday uchastkalar qullar mehnati evaziga obod qilinar edi. Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotida Pergamdagi xususiy xo'jaliklarining roli Salavkiylar va Ptolemeylar davlatlariga qaraganda ancha yuqori edi.

Pergam iqtisodiyotida savdo, hunarmandchilik va tovar ishlab chiqarishning o'ziga xos ko'rinishi mavjud bo'lib, uni polis xo'jaligining umumiy tuzilishi bilan izohlash mumkin. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi mahalliy xomashyoning boy zaxiralariga tayanib, o'z chorva mollaridan olingan teri va junning yuqori sifati, metall, yog'och va qatronning yaxshi navlari hunarmandchilik mahsulotlariga o'zgacha nafislik baxsh etardi. Hunarmandchilik ustaxonalari turli mahsulotlar – zargarlik buyumlari, yozuv materiallari – pergament, turli xil matolar, jumladan, oltin iplar bilan bezatilgan mashhur Attalidlar bilan to'lib-toshib yotardi. Va o'z navbatida bu mahsulotlar O'rtayer dengizi bo'ylab juda mashhur bo'lgan. Ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, qurol, pergament va parcha matolar ishlab chiqarish podshohlikning alohida monopoliyasi bo'lib, ushbu mahsulotlar podshohlik ustaxonalarida ishlab chiqarilgan. Bunday ishlab chiqarish birlashmalarida qul mehnati keng qo'llanilgan. Shu bilan birga, Pergam podshohligining ko'plab shaharlarida qul mehnatidan xususiy holatlarda ham foydalanilgan va bozorlarda ishlagan ko'plab kichik va o'rta

hunarmandchilik ustaxonalarida ushbu holatni ko'rish mumkin bo'lgan.

Dengiz savdosidan katta daromad topayotgan Attalidlar mintaqa savdosida katta imtiyoz siyosatini olib borardilar. Pergam hukmdorlari yunon tipidagi ko'plab yangi shaharlarni tashkil etdilar va bu shaharlarning deyarli barchasi muhim savdo markazlariga aylandi. Shunday qilib, oddiy bandargohlardan biri bo'lgan Eleya Pergam shahrining yaxshi jihozlangan portiga aylandi. Protontidaning qirg'og'ida Gelendopolning port shahri qurildi, u orqali Qoradengiz hududiga savdo-sotiq munosabatlari olib kirildi. Kichik Osiyoning Janubiy qirg'og'ida Pamfiliyada-Attalia-Misr bilan savdo qilish porti barpo qilinib, ushbu port shahar mamlakatning eng yirik ichki markazlari bilan quruqlik yo'li orqali bog'langan. Pergamning gullab-yashnayotgan iqtisodiyoti Attalidlarni yunon dunyosining boy hukmdorlaridan biriga aylantirdi, ularning qo'lida katta boylik to'planib, nafaqat Pergamning qo'shnilari, balki uzoq Rim davlati ham ularga hasad qilardi. Pergam iqtisodiyotining tuzilishi, shuningdek, pergamliklarning yunon jamiyati ijtimoiy sinf tuzilmasidagi o'ziga xos xususiyatlarini, birinchi navbatda, ellin tipidagi qulchilik munosabatlarida ko'rishimiz mumkin.

Qullar zodagonlarning mulklarida, kotiblar, yunon shaharlari aholisi, katta va o'rta hunarmandchilik ustaxonalarida ishlashar edi. Qullar bilan bir qatorda, asosiy ishlab chiqaruvchilar erkin odamlar, qaram ijarachilar yoki hunarmandlar, kichik savdogarlar qatlamlaridan iborat edi. Yunonistonning boshqa davlatlariga qaraganda, qul mehnati va qulni ekspluatatsiya qilish usullarining o'rni, Pergam jamiyatida yanada keskin ijtimoiy muhitni yaratdi va bu holat Aristonik qo'zg'olonida yaqqol ifodasini topdi.

Jamiyatdagi o'ziga xoslik hukmron sinfning bir qismigagina taalluqli bo'lib, unda imtiyozli yunon-makedonlar hukumat tepasida turar va mahalliy zodogonlarda bunday keskin sinfiy bo'linish yo'q edi. Aleksandr Makedonskiy bosqinidan oldin ham mahalliy zodagonlar yunon sivilizatsiyasi bilan yaxshi tanish edi, Pergamda bir necha makedon urug'lari mavjud bo'lib, ular o'z navbatida hukmron sinf atrofida Ptolemeylar yoki Salavkiylar davlatiga qaraganda ko'proq birlashardilar. Shu bilan birga, ushbu

urug' zodagonlari hukmronlik sulolasi, davlat boshqaruvi va armiyasiga juda yaqindan bog'liq emas edilar. Qishloq joylarida ham, shaharlarda ham xususiy xo'jaliklarning sezilarli roli bilan bir qatorda Pergamdagi byurokratiyaning zaif rivojlanishini va hukmron sulolaga nisbatan hukmron sinfning mustaqilligini belgilardi. Lekin mavjud ijtimoiy tartibotni saqlab qolishdan manfaatdor aholining o'rta qatlamlari davlat mustaqilligi uchun oxirigacha kurasha olardi.

Pergam monarxiyasining siyosiy tashkiloti Salavkiylar yoki Ptolemeylarning urf-odatlaridan tubdan farq qilardi. Attalidlar "demokratik" monarxlar deb hisoblanardi: Pergamda podshoh va malikaga sig'inishning maxsus rutbasi yo'q edi, ba'zi farmonlarda podshohlar o'zlarini podshohlar emas, balki Pergam fuqarolari deb atashardi. Salavkiylar va Ptolemeylar farmonlarida esa "biz buyruq beramiz" kabi odatiy bo'lgan jumlalar tez-tez uchrab turardi. Salavkiylar va Ptolemeylarda katta imtiyozga ega bo'lgan va davlat ishlariga ta'sir ko'rsatadigan armiya mahalliy elementlarga qarshi bo'lgan yunonlar va makedoniyaliklardan iborat edi. Pergamda yollanma askarlar butun aholi, shu jumladan, mahalliy xalq vakillaridan iborat bo'lib, Salavkiy va Ptolemeylar monarxiyasida bo'lgani kabi, siyosiy va ijtimoiy rol o'ynamadi, bu esa yunon jamiyati mil. avv. IV asrlar uchun odatiy bo'lgan yollanma askarlar tizimini eslatgan.

Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari. Makedoniya, Yunoniston, O'rtayer dengizining sharqiy sohillari, G'arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr istilosidan mil. av.30-yilda Misr Rim qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgan paytgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ellinizm atamasi ilk bor nemis olimi I.G.Droyzenning 1836-1843-yillarda chop etilgan 2 ta jildlik "Ellinizm tarixi" asarida qo'llanilgan. Unda yunon madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Ellinizm davri sharqiy mamlakatlar uchun taraqqiyotning yangi bosqichi bo'ldi. Yunon-makedonlar sharqqa ishlab chiqarish malakalarini, o'z davlat va huquq me'yorlarini, urf-odat, din va madaniyatlarini olib keldilar. O'z navbatida, Sharqning qator yutuqlari ham o'zlashtirildi. Yunonlarning qadimiy nomi "ellinlar" atamasi o'z

etnik mazmunini asta-sekin yo'qota borib, makedoniyalik, yunon va mahalliy yuqori tabaqaga mansub kishilarni ifodalaydigan so'zga aylanib qoldi. Bu davrda Aleksandriya, Antioxiya, Salavkiya Pergam kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida yuksaldi. Qizil dengiz hamda Fors qo'ltig'i bo'ylab Hindistonga savdo yo'li ochildi. Misr, Qora dengiz atroflari, Karfagen va Rim bilan savdo aloqasini yo'lga qo'ydi. Pul va savdo munosabatlari rivojlangan o'lkalarda polislar ravnaq topdi. Polislar o'zgardi, ya'ni ular mustaqil respublika bo'lmay, ma'lum siyosiy va iqtisodiy imtiyozlarga ega shahar jamoalariga aylandilar.

Mil. avv. IV asrdan Markaziy Osiyo xalqlari tarixida yangi davr boshlangan. Hindistondan Yevropagacha, Yevropadan Misrgacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan ellinistik davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotida Markaziy Osiyo xalqlari ham ishtirok etadilar. Shu tariqa ellinizm davri Sharq va yunon xalqlari madaniyati, adabiyotlarining o'zaro boyishi jarayonining oliy cho'qqisi bo'ldi. Ellinizm Aleksandr Makedonskiy bosib olgan yurtlardagi xalqlar hayotining turli sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy-madaniy hayotiga katta o'zgarishlarni olib kirib, ellinistik madaniyatning ravnaq topishi va keng tarqalishiga zamin hozirlagan. Osiyo va Yevropaning hamma mintaqalarida ellininizm bir tekisda rivoj topmagan. Ammo ellinistik davlatlar inqirozga uchragandan so'ng bir necha asrlar mobaynida ellin madaniyati an'analar adabiyot va san'atda davom etib kelgan

Ellinizm davrida ilm-fan. Ellin taraqqiyotini asosan ilm-fan sohasida ko'rish mumkin. Avvalo yunonlarning ilk bor sharq madaniyati bilan yaqindan tanishishlari ularning ongini yana ham kengaytirib, fanning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda ijod qilgan olimlar Evklid, Arximed matematikani; Aristarx, Gipparx astranomiyani; Eratosfen geografiyani yuksak darajaga ko'tarib, jahon ilmining keyingi taraqqiyotiga yo'l ochdilar. Buni, ayniqsa, ptolomeylar podsholigida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Aleksandr Makedonskiyga o'xshab, Ptolomey I va uning vorislari yunon olim va faylasuflaridan ruhlanishgan. Olimlar, shoirlar va san'at ahlining ishlari uchun qulay sharoit tug'dirish maqsadida Misrning dastlabki Ptolomey xoqonlari Aleksandriya shahrida

hozirgi fanlar akademiyasiga o'xshash muassasa "muzey", ya'ni muzalar koshonasini ochadilar. Ular ma'budlarga bag'ishlov joyi hisoblangan. Yunonistonning turli yerlaridan chaqirilgan olimlar muzey darsxonalarida ma'ruzalar o'qiydilar, laboratoriyalarda har xil tajriba ishlarini o'tkazadilar. Muzey qoshida maxsus kutubxona ham bo'lgan. Muzey olimlariga yordam berish maqsadida Ptolomey I yunon tilida yozilgan har bir kitobning nusxasidan tashkil topgan kutubxonaga asos soldi. Kutubxonaning kolleksiyasi 700 ming papirus o'ramlariga yetgan (700 mingta kitob). Ptolomeylarning kutubxonalarga qiziqishi afsonaviy edi. Ptolomey II Bibliyaning yunon tiliga tarjima qilinishiga homiylik qilgan va Ptolomey III esa 3 ta diniy tragediyachilarning asarlarini Afina nusxalarini o'g'irlagan. Hattoki, olim va shoir Kallimax 120 ta kitobni kutubxona katalogiga kiritgan. Ular yunon adabiyoti tarixi uchun asos bo'ladi. Aleksandriya yozuvchilari yunon madaniyatida juda muhim yangiliklarni qilishgan. Suqrot g'arb adabiyotiga ham dunyoviy ham diniy usulni tanishtirgan.

Misr Aleksandriyasi juda mashhur shaharlardan biri bo'lib, unda Aleksandrning qabri joylashgan edi. U misrliklar, ptolomeylar, yunonlar, makedoniyaliklarni o'z ichiga olgan ellinistik dunyoning eng mashhur shahri hisoblanadi. Aleksandriya jo'shqinligining va haqiqiyligining eng yaqqol ramzi bu uning monumenti hisoblangan Faros edi. Ptolomey II tomonidan qurilgan Faros birinchi osmono'par bino bo'lgan. 400 fut balandlikdagi bino Aleksandriya shahriga kelayotgan kemalarni yoritib turadigan mayoq va Zevs haykali tomonidan yuksaltirilgan. Ptolomeylar Aleksandriyani yunon dunyosining markaziga aylantirdilar.

Ellinizm namoyandalari, shuningdek, adabiyot sohasiga ham katta hissa qo'shdilar. Kallimax va faylasuflar, masalan, Zenodet va Aristavx biz hanuzgacha foydalanadigan shoirlarning ajdodlari va Gomer she'rlarini tayyorlab, yunon adabiyoti va yunon tilining tanqidiy ilmiga asos soldilar. Matematik va geograf Aristofen ilmiy kartografiya prinsiplariga asos solgan va yerning holatini ishlab chiqdi. Taniqli bo'lmagan Ptolomey esa Sudan va Misr bugungi kungacha hanuz foydalanilayotgan hayvon kuchi yordamida harakatlanadigan chig'irni kashf qilgan. Doktorlar Gerofil va

Eratistrat anatomiyada asosli kashfiyotlarni amalga oshirib, inson nerv sistemasining funksiyalari, optik va hazm qilish sistemalari ustida ilmiy izlanishlar olib bordilar.

San'at. Mazkur davr san'ati ellinistik davrning yangi va eskiliklari uyg'unligini o'zida aks ettiradi. Klassik san'atkorlar chegaralangan janr va turlarni mukammallashtirgan. Masalan, ideal hissiz yosh erkak figurasini olaylik. Bunday turdagi figuralar ellinizm podsholarini qahramon sifatida namoyon etadi. Kichik geldan figuralar yasash mil. avv. IV asrdan boshlangan va ellinistik davrda gullab-yashnagan. Bunday qolip qilingan figurachalar yunon dunyosi bo'ylab mashhur bo'lgan va unchalik qimmat bo'lmagan.

Ellinistik din. Yunon dini ellin dunyosida ko'pqirrali o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Misrda masalan, Ptolomey I Aleksandriyaning yangi homiy xudosi sifatida yangi xudoni yaratishga buyurgan. Yangi xudo Sarapis, Osiris, Zevz, Dionis, Xadesning umumlashma holatini birlashtirgan Misr xudosi edi. Aleksandriyadan tashqari yunonlar odatiy Misr xudolari, jumladan, Osirisga sig'inishgan. Yunoncha madaniyat ta'sirida Misr xudolari o'zgargan, masalan, Isida (Isis) – Osirisning xotini va Xorusning onasi edi. Uni Afrotida, Demetra, Afinalar bilan o'xshatishgan. U koinot malikasi, barcha odamlarga muruvvat qiluvchi, sivilizatsiya asoschisi bo'lgan.

GLOSSARIY

Falanga – makedoncha qo'shinning kombinatsiyalashtirilgan shakli. Filip II ning harbiy islohotiga binoan qo'shin markazida og'ir qurollangan piyoda askarlar otryadi, ularning orqa va yon tomonlarida og'ir va yengil otliqlar oldida yengil qurollangan piyodalar va otliqlar joylashuvi falanga deb ataladi.

Falsafa – Yunoncha "filo" sevish "sofiya" donishmandlik tushunchalarini anglatadi.

Sofist – Dastlab biron-bir kasbning mohir ustasi, ya'ni shoirlar, musiqachilar, qonunshunoslar, donishmandlarga nisbatan ishlatilgan atama. Sofistlarning dastlabki maktablari Sitsiliya shaharlarida yuzaga kelgan. Mil. avv. V asrda Afinada demokratiyaning rivojlanishi hamda Yunonistondagi boshqa

polislar bilan har tomonlama aloqalar taraqqiy etishi natijasida sofistlarning ta'siri kuchayadi. Sofistlar ikki guruhga bo'lingan: katta guruh sofistlari; kichik guruh sofistlari; katta guruh sofistlariga: Protogor, Gorgiy, Gippiy va Predikllar; kichik guruh sofistlariga: Likkafron va Alkidamantlar kirgan.

Oykumena – yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

8-MAVZU. QADIMGI YUNONISTON MADANIYATI

Reja:

1. **Qadimgi Yunonlarning ma'naviy hayoti.**
2. **Qadimgi Yunoniston madaniyatida ilm-fanning roli.**
3. **Qadimgi Yunoniston dini.**

Panafin bayrami. Afina jamiyatining ma'naviy hayoti Afina Pallada xudosi avlodi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Unga bag'ishlangan Panafin tantanali bayrami (ya'ni Afinaning hamma bayramlari)da barcha Afina aholisi ishtirok etgan. Bu yerda diniy sohada mashhur bo'lgan kohin va ruhoniylar ham qatnashganlar. Afsonaga ko'ra, Pisistratlar davrida an'anaga aylangan, Afina sharafiga bag'ishlangan tantanali bayramni nishonlash miloddan avvalgi V asrga to'g'ri keladi.

Panafin katta tantanali bayrami yozning o'rtasida har to'rt yilda bir marta nishonlanadi (kichik Panafin bayrami esa har yili o'tkaziladi). Bayram musiqiy chiqishlar va raqslar bilan boshlangan hamda kechasi mash'alalar yoqib, yuqori kayfiyatda nishonlashgan. Ertasi kuni Agenadan Akropolgacha bo'lgan afinaliklarning tantanali marosimi bo'lib o'tardi. Qavmning eng obro'li kishilari bayramni boshqarganlar.

Namoyish qatnashchilari Erexteon ibodatxonasidagi Afina haykali uchun yangi hashamatli kiyim olib kelardilar (bu kiyimlar bir necha oy davomida afinalik eng odobli, oqila qizlar tomonidan tikiladi), shuningdek, buqani qurbonlik uchun so'yadilar. Diniy marosimning oxirida ot poygalari musobaqasi o'tkaziladi. Vaqt o'tishi bilan Panafin o'yinlari shu zaylda nishonlanib kelindi. Perikl davrida bayramni she'r va musiqiy musobaqalar bilan o'tkazishlari uchun maxsus Odeon nomli teatr binosi qurildi. Panafin o'yinlaridagi musobaqa g'oliblariga yozuvli, zaytun moyi bilan to'ldirilgan sopol idish ya'ni amfora berilgan. Juda ko'p amforalar topilganligiga qaraganda, mazkur musobaqalarning mashhur bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Arxaik davrning oxiriga kelib Dionis – uzumchilik va vinochilik xudosiga sig'inish ham keng tarqaladi. Afinada mashhur bo'lgan bayram kuzdan bahorgacha davom etadi. Bayram

qatnashchilari echkining terisini kiyib, yo'ldosh Dionisni satirik (kulgili taqlid) aks ettirishadi. Ular quvnoq xudosi haqida afsonaviy sahna ko'rinishlarini ijro etadilar va uni mashhur qiluvchi difiramb (madhiya) kuylaydilar. Miloddan avvalgi VI asrda bu qo'shiqlardan fojiali sahna ko'rinishlari paydo bo'ldi (echki qo'shig'i). Teatr demokratik Afina hayotining asosiy elementlaridan biriga aylandi. Shahar aholisi hayotining agonal xarakterining asosiy xususiyatlari, madaniyati aniq va ravshan tarzda qadimgi Yunon teatrlarida mujassamlashtirilgan.

Dionis sharafiga bag'ishlangan so'nggi diniy marosim miloddan avvalgi 500-yillarda o'tkazilgan. Afinadan kelgan ko'pgina vakillar ushbu namoyishlardan zavqlanishardi. Ular Mart oyining oxirlari – Aprel oyining boshlarida bayramni nishonlaganlar. Bayramdan bir necha kun oldin Afinadagi Dionis haykalini ko'chirish marosimi o'tkazilib, u teatr yaqinidagi dargohga joylashtiriladi. Arxont-eponim bayramga boshchilik qilgan. Aholining mansabdor kishilari, ruhoniylar bayramni hashamatli tarzda boshlaydilar. Ko'pgina bayram qatnashchilari yelkalarida vino bilan terili mo'yna, don mahsulotlari, mevali savatcha, gullar, diniy ramzlar, qurbonlik uchun buqalar ko'tarib yurish marosimlarida qatnashadilar (ular yuztadan ko'p bo'ladilar). Dionis mehrobida olimpiya xudolari uchun hayvonlarni qurbonlikka atab so'yishadi. Diniy marosim va ovqatlanishdan so'ng ishtirokchilar shahar ko'chalarida timpan (musiqa asbobi) da quvnoq musiqa chalib qo'shiq aytadilar. Keyingi ikki kun ichida Dionis sharafiga bag'ishlab, yosh yigitlar jo'r bo'lib difiramb (diniy madhiya) kuylash musobaqasi o'tkaziladi. Musobaqa g'olibiga Afina ko'chasi Dionis dargohidan ko'chirib olingan uch oyoqli kursi sovg'a qilinadi. Shundan so'ng Akropolning janubiy yonbag'rida joylashgan Dionis teatrida 17 ming tomoshabinni qamrab olgan teatr namoyishlari boshlanadi.



10-rasm. Qadimgi yunon amforasi

Tomoshabinlar yarim doirasimon tepalikda qiya joylashgan o'rindiqlarda o'tirishadi. Ularning etagida, ya'ni o'rindiqlarning pastki qismidagi sahnada orkestrlar joylashadi hamda ularning yonida aktyorlar namoyishi va xor ijro etiladi. Keyinchalik afinaliklar teatr namoyishlari uchun dekoratsiya qilingan bino qurishga kirishdilar. Teatrga kirish uchun 2 obolaga bilet (chipta) sotib olishgan, kam ta'minlangan fuqarolarga teatrga kirish uchun maxsus pullar yasab tarqatishgan. Oldingi qatordagi 76 ta marmardan yasalgan o'rindiqlarga ruhoniylar, yuqori martabali fuqarolar joylashgan. Teatr namoyishi agon tamoyillari nuqtai nazaridan kelib chiqib, musobaqa tarzida o'tkazilgan. Musobaqada uchta dramaturglar, aktyorlar, shuningdek, o'z hisobidan qimmat turuvchi sahna asarlari namoyishlarini boshqarib boruvchi xoreograflar ham ishtirok etadilar. Balog'at yoshiga yetgan bolalar tomoshabinlarga davlat tomonidan olgan qurollari bilan namoyish ko'rsatganlar. Yoshi ulug' ruhoniy va donishmandlar ichidan qur'a tashlab, o'nta hakam tanlab olinadi, ular har bir qavm qatnashchilari orasidan musobaqa g'olibini aniqlab, g'olibga gulchambar beradilar shunday qilib, Buyuk Dionis sharafiga o'tkaziladigan bayramda barcha qavmda yashovchi fuqarolar qatnashadilar.

Afina shahrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidan muhim o'rin olgan mazkur diniy bayram qavmda yashovchi fuqarolarning xarakteri, turmush tarzi, marosimlarini o'z ichiga qamrab olgan edi.

Qadimgi yunon dramaturgiyasi. Qadimgi yunon teatrining taraqqiyoti dramatik fojia (tragediya) janrini yaratish bilan bog'liq bo'lgan. Fojiaviy asarlar, odatda, afsonalar asosida yaratilgan. Ular o'z asarlarida hayotdagi zulmatli kuchlarga qarshi kurashib, adolat g'alaba qozonishini, yaxshilik yomonlikdan ustun bo'lishini targ'ib etganlar. Bu kurash ko'pincha qahramonning o'limi bilan tugagan, Lekin tomoshabin voqea rivojini kuzatar ekan, o'zida fojiali kechinmalarni his qilib, turmushdagi mayda ko'ngilsizliklarni unutib, qalbida chuqur hissiy tozalash jarayonini sezadi. Yunon fojiasi insonning iymoni, ruhiy holati o'z kuchida ekanligiga targ'ib etadi. Dastavval aktyor jo'r bo'lib kuylab, katta kuch va jo'shqinlik bilan qadimiy yunon madaniyati fojiasini ikkita

asosiy mavzuga ajratadi: birinchisi, turmush tarzidagi fojialar; ikkinchisi, olamdagi hayotiy tartibsizliklarga qahramonona qarshi turish fojiasi. Fojianing keyingi rivojlanishi Esxil, Sofokl va Yevripid nomlari bilan bog'liq.

"Fojianing otasi" deb ataluvchi Esxil (miloddan avvalgi 525-456-yillar) 90 ga yaqin pyesa yozgan, ulardan faqat yettitasi bizgacha yetib kelgan.

"Forslar" fojiasida yunonlar tomonidan Salamin orolidagi forsiylarning flotini tor-mor qilinishini Esxil Afinaning zo'ravon dushmanlardan g'olib bo'lganligi sifatida yoritib bergan.

Elladani zabt etish harakati jarayonida ular tomonidan belgilangan tartibni buzishga uringanligi tufayli xudolarining tabiiy jazosiga uchragan shoh Kserks mag'lub bo'ladi.

Ellada fuqarolarini jasorat, vatanparvarlik va qahramonona fidokorligini ulug'lash Esxil ijodining muhim mavzusi bo'lgan. Bu mavzu "Zanjirband Prometey" asarida ham o'z aksini topgan.

Daho Prometey hech qanday qo'rquvsiz osmondagi xudolar dargohidan olovni olib, uni yerga yuborish, odamlarni baxt-saodati uchun xudolar bilan jang qiladi. Prometey Zevs tasviridagi zolimlar, zo'ravonliklarga qarshi kurashgan yengilmas jangovar askar ramziga aylanib, zulmat hokimiyatini mag'lub etuvchi obraz orqali insonlarni rivojlanishga undovchi g'oyani ifodalaydi. Esxil Afinadagi qavm fuqarolarining turmush tarzini tarannum etuvchi erkin ijodkor bo'lgan. U o'z asarlari bilan afsonaviy obrazlar, ilohiy tartib-qoidalarga ishonishni fuqarolar ongiga singdirgan.

"Oresteya" ("Argomen", "Xoeforlar", "Yevmenidlar") trilogiyasida Miken davridagi voqealar hikoya qilinadi. Masalan, shoh oilasidan bo'lmish Atridovlar misolida Esxil har bir jinoyat muqarrar ravishda jazolanishi va ba'zan shu jinoyatlari uchun ularning avlodlari jabrlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Tomoshabinlarga tanish bo'lgan keskin jang g'oyalarini tasvirlash afsonaviy mavzularga aylangan. Bu vaqtda Afina qavmiga mansub bo'lgan zodagonlarning an'analarni tashuvchi dramaturglar areopagni ulug'lab, madh qiluvchi radikal demokratik o'zgarishlarni targ'ib etganlar.

Yevripid. Yunonistonning klassik davridagi dramaturgi bo'lgan Yevripidni (miloddan avvalgi 480-406-yillar) Aristotel

"eng fojiali shoir" deb atagan. Zamondoshlari uning ijodiga nisbiy yondoshishgan: u faqat besh marotaba musobaqada g'alaba qozongan va oxirgi musobaqasida vafot etgan. Yevripidning 92 ta dramatik asarlaridan bizgacha 17 ta fojiaviy asarlari va bitta hajviy dramasi yetib kelgan. Uning asarlarida asosan qavmda yashovchi fuqarolarning inqiroz davridagi hayotlari yoritilgan. Birinchi sardor va zamondoshlari tomonidan qadrlanmagan yangi ilohiy qadriyatlar va yangi tendentsiyalarni yunon dramaturgi o'z asarlarida aks ettirgan. Yevripidning ijodi ideal tasavvurlarga begona bo'lgan. Chunki u odamlarni qanday bo'lsa shundayligicha ya'ni, qayg'uli, ehtirosli, xursand, azoblanayotgan hollarda tasvirlagan. Uning qahramonlari chuqur qayg'uni boshdan kechirayotgan odamlar kabi ko'rinadi. Yevripidning talqinicha, odamlarning taqdiri ilohiy irodaga emas, balki insoniy ehtiroslar va jo'shqin harakatlar bilan belgilanadi. Uning eng mashhur tragediyasi - "Medeya" nomli asaridir, ushbu asarda dramaturg erini tashlab ketgan ayolning mashaqqatli azoblarini ustalik bilan yoritib bergan. Mehribon ona va tahqirlangan ayolning qasos olish uchun o'ylamasdan qilgan ishlarini tasvirlagan. Qasoskor ayol nafaqat o'zining eri Yasonni, balki uning otasi hamda bolalarini o'ldiradi. Yevripidning fojiali qahramonlar taqdiri ("Elektra", "Gekuba", "Ippolit", "Orest", "Ifigeniya" va b.) tomoshabinlarni hayot va odamlarga bo'lgan munosabati haqida o'ylashga majbur qildi. Yevripid o'z ijodiy asarlari bilan jahon dramaturgiyasining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Afinada komediya orqali o'z erkinligini ifoda etish jarayoni siyosiy janrga aylandi. Komediyaning rivojlanishi Aristofanning asarlari bilan bog'liq (miloddan avvalgi 445-385-yillar). Uning 40 dan ortiq komediya janridagi asarlari mavjud, bizgacha esa 11 ta asari yetib kelgan.

Aristofanning asarlarida o'sha davrning keskin jiddiy muammolari aks ettirilgan. Biroq o'sha davrda Peloponnes urushi uzoq vaqt davom etgani sababli dramaturgning asosiy mavzusi tinchlik bo'lgan.

Muallifning "Axaren" nomli komediya asarida uzoq davom etgan urushdan ezilgan dehqon Dikiopel (ya'ni adolatli fuqaro)

quvonchli va tinch hayotga intilib yashashi, maqtanchoq askar Lamax esa baxtsizlikka uchrashi yoritilgan.

"Mir" asarida harbiy partiyaning olib borgan siyosatidan qiynalgan oddiy xalq ushbu partiyani masxara qilganligi aks ettirilgan. Trigey komediya qahramoni katta go'ng qo'ng'iziga minib, Olimpga qarab yo'l olgan va u yerda tinchlik ma'budasini qutqarib, Afinaga tinchlik keltiradi. Qavmdagi yashovchi aholilar sevinib, erishilgan baxt uchun xursand bo'ladilar, urush sababli o'ziga ko'p mablag'lar orttirgan qurolsozlar esa umidsizlikka tushadilar.

"Lisitrat" asarida tinchlik mavzusi o'zgacha yoritilgan – Afina ayollari urushga qarshi g'oyalar bilan chiqib, erlaridan urushga chek qo'yishni va uyga qaytishni talab qilganlar.

Afinada teatr qavmda yashovchi aholi hayotining eng muhim instituti bo'lgan. Badiiy obraz va emotsional sezgilar orqali antik, gumanistik qiymati hamda demokratik fikrlash obrazi tomoshabinlarga hayotning eng muhim masalalarida ongli ravishda xulosa chiqarishda yordam bergan.

Notiqlik san'ati. Ellinlar o'zlarining qobiliyatlari va fuqarolik pozitsiyalarini jamoat hayotida namoyon etganlar. Qadimgi Yunoniston madaniyatining eng yorqin va keng tarqalgan san'ati bu notiqlik san'atidir. Qavmning talablaridan kelib chiqib, har bir ma'lumot og'zaki yetkazilgan. O'z fikrlarini ifoda etish va fuqarolarni milliy majlisi, hakamlar sudi va boshqa munozarali yig'ilishlarda fikrlarini to'g'ri ommaga yetkazib berish zaruriyati chiroyli so'zga ega bo'lgan notiqlik san'atini o'ta yuqori darajaga ko'tardi. Notiqlik san'atini tahlil qilib, Aristotel barcha nutqlarni uch turga ajratdi: kengash yoki siyosiy nutqlar; sudlashgandagi (ayblov va himoyalash) nutqlar; epidetik yoki ijodiy nutqlar. Kengash yoki siyosiy nutqlar – bu bir mavzu haqida gapirmoq yoki bir g'oyaga ergashtirmoq, sudlashgandagi nutqlar – bu ayblash yoki uni oqlash to'g'risida nutqlar, epidetik yoki ijodiy nutqlar – bu maqtash yoki tanbeh berish haqidagi nutqlarni o'z ichiga qamrab oladi. Qadimgi yunonlarning hayotida notiq o'qituvchiga talab katta bo'lgan, faqatgina notiq o'qituvchigina mavzuni aniq-ravshan tushuntirib bera oladi deb ta'kidlaganlar. Shu zaylda notiqlik paydo bo'ldi – notiqlik san'ati antik dunyo

ta'limini rivojlantira boshladi ya'ni, qavm aholisining saviyasi orta boshladi.

Gorgiy (miloddan avvalgi 480-380-yillar) Leontin shahrining taniqli faylasuf va notiq o'qituvchisi bo'lgan. Gorgiy miloddan avvalgi 427-yilda Afina shahriga ma'ruzachi va notiq o'qituvchi sifatida kelganida qavm aholisi uni mamnuniyat bilan ko'tarinki ruhda kutib oldilar.

Gorgiy afinaliklarga himoyalovchi va afsonaviy mavzuda nutq so'zladi. Bizgacha uning ikkita afsonaviy: "Yelenni maqtash" va "Palamedni oqlash" asarlari yetib kelgan. Gorgiy "Palamedni oqlash" asarida Palamedning aybsizligini hayotiy misollardan keltirib, juda chiroyli so'zlar bilan isbotlab bergan. Gorgiyning nutqlari ichida tantanali nutqlari ham mavjud. Masalan, "Dafn marosimidagi so'z" asarida vatanining himoyasida vafot etgan yunonlarni dabdabali so'zlar bilan ko'klarga ko'targan.

Tinglovchilarda psixologik ta'sirni kuchaytirish uchun Gorgiy notiqlik nutqida she'riy texnikaning: antitez, metafora va qiyosiy usullaridan foydalangan (tinglovchilar Gorgiyning shakllarini olganlar). Gorgiy tinglovchilarga nafaqat materiallarning loyihasini, balki uni taqdimot tamoyillarini ham o'rgatdi. Ko'plab o'quvchilari va izdoshlari bo'lgan notiq o'zining ta'limotini maxsus insholarida bayon etgan. Faylasuf Platon Gorgiyni sinchiklab o'rganib, notiqlik san'atini batafsil egallagan mashhur notiq deb hisoblagan. Qadimgi Yunonistonda eng keng tarqalgan nutq janri bu sud jarayonidagi nutqlardan iborat edi. Ellinlarning hayotida va ayniqsa afinaliklar turmush tarzida sudlashganlik nutqida juda ko'p aholi yig'ilganligi sababli, sud keng va juda katta maydonlarda o'tkazilgan. Sud jarayonida so'zga chiqqan fuqaro nafaqat qonun-qoidalarni bilishi kerak bo'lgan balki, o'z so'zlari bilan tinglovchilarni o'ziga jalb qilishni uddalay olishi kerak bo'lgan. Hamma ham aniq, ravon nutq so'zlay olmagan. Shu sababli logogriflar, ya'ni tortishuvchilarning nutqlarini bayon etuvchilar paydo bo'lgan. Bitta logogrif ham aybdorni, ham himoyalanuvchini nutqini bayon etgan.

Lisiy (miloddan avvalgi 438-380-yillar) metek oilasida yashovchi tug'ma notiq logogrif bo'lgan. Janubiy Italiya shahrida taniqli sofist Furida o'qigan. O'qishni bitirib Afinaga qaytgach, 230

ta nutq yozib, o'zini tajribali logograf ekanligini isbotladi (ulardan 30 taga yaqini hozirgacha saqlanib qolgan). Lisiy notiqlik uslubini ishning mazmunidan kelib chiqqan holda bayon etadi. U oddiy voqeani ham ma'noli dona-dona qilib bayon etgan. Insonning xarakteridan kelib chiqib, unga mos keladigan nutqni yaratadi. Lisiy o'zining "Eratosfenga qarshi" nomli nutqida Afinadagi yaramas o'g'rilar va qotillar, dangasalar qanday muhitda kelib chiqishini juda ravon, tushunarli tarzda bayon etgan. Lisiy nogiron insonlarni himoya qilish maqsadida, Afinada yashovchi nogiron fuqaroni nafaqasini olish uchun ketayotgan jarayonini tasvirlab mohirona nutq yozgan. Lisiy o'z nutqida asosan Yevropa so'zlaridan foydalangan.

Isokrat. Gorgiyning eng taniqli o'quvchilaridan biri Isokrat (miloddan avvalgi 436-338-yillar) tantanali janrning notig'i bo'lgan. Ovozining pastligi va uyatchanligi tufayli Isokrat o'z faoliyatini birinchi logograf yo'nalishida olib borgan, so'ng Afinadagi notiqlik maktabida o'qib, hammaga mashhur notiq bo'lib tanilgan. Uning bizgacha 21 taga yaqin nutqlari: "Panegirik", "Filipp", "Panafin nutqi" kabi asarlari hamda Kipr shohi Evagorning Isokratga aytgan maqtov so'zlari yetib kelgan.

Isokrat o'zining nutqlarida yunon xalqini ezilib yashamasligi, Ellada aholisiga esa johillar, siyosiy byurokratlar faoliyatiga qarshi chiqishni bayon qilgan.

Isokrat urush qilishni, Yunonistonni bosib olib, Osiyoga ko'chirish, Osiyodagi boyliklarni Yevropagacha yetib borishi, yunon qavmi boy va qudratli bo'lishi, hokimiyatni monarxlarga berishni taklif qilgan (bu obrazni o'ynash uchun Isokrat qadimiy Makedoniya shohi Filipp II ni mos deb bilgan).

Isokrat maktabdagi ma'ruzachi nutqini tuzish tamoyillarini ishlab chiqdi. Unda tinglovchilarning diqqatini jalb qilish uchun kirish so'zi, shuningdek, ishonchli va yorqin dalillarni o'z ichiga olgan asosiy qism hamda raqibning dalillarini inkor etish va nihoyat, aytilgan so'zlarni umumlashtiradigan xulosa o'z aksini topgan. Notiqning ushbu usuli tushunarli va aniq bo'lganligi bilan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi. Isokratning nutqi ritmik ifodasi, ravonligi, nozik ritorik qoidalardan foydalanishi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. U nutq yozganda ko'proq she'riy

so'zlardan foydalanishga harakat qilgan. Zamondoshlari fikriga ko'ra, nutqlari tinglovchilarga qaraganda ko'proq o'quvchilarga qaratilgan. Isokratning notiqlik san'ati va yunon dunyo birligi haqidagi g'oyalari zamondoshlariga katta ta'sir ko'rsatdi va Ellada davrida yanada rivojlandi.

Demosfen (miloddan avvalgi 384-322-yillar) siyosiy janrdagi qadimiy mashhur notiq bo'lgan. U afinalik boy fuqaroning uyida tug'ilgan, lekin otasining vafotidan so'ng hamma yetimlarning mol-mulki yolg'on ishlatib vasiylar tomonidan egallab olinadi. Yosh yigitchaning ovozi pastligi va talaffuzining yomonligi tufayli notiqlik maktabiga kirish uchun imkoni yo'q edi. Ammo astoydil harakat qilib, o'zining kamchiliklarini to'g'rilab notiq bo'lishga erishdi. Uning zamondoshlari va avlodlari Demosfenni Afina shahrining vatanparvari, Elladaning mustaqilligini saqlab qolish uchun o'z g'oyalari bilan kurashgan yo'lboshchi deb biladilar. Demosfenning ko'p nutqi (u 61 ta nutq yozgan, 56 marta o'zi ma'ruza qilgan va 6 marta xat yozgan), afinalik fuqarolarga tegishli bo'lgan siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Shu sababli Demosfenning nutqi g'ayratli ommaviy auditoriyalarga qaratilganligi bilan Isokratning kichik guruhlarga e'lon matnlarini o'qishdan farq qilgan. Demosfenning siyosiy yo'nalishi eng aniq ifodalangan "Filippliklar" (sakkizta nutq "Olinfliklar", uchta "Filippga qarshi", "Tinchlik haqida", "Xersonesning ishi haqida") asarida Makedoniya podshosi Filip II ga qarshi kurashning yagona mavzusini bayon etadi. Demosfen o'z asarlari bilan fuqarolarni Makedoniya xavfiga qarshi ellin koalitsiyasini yaratishga chaqirgan edi.

Demosfening nutqlarida uzoq davom etadigan, keng ta'rif beriladigan so'zlar bo'lmaganligi uchun oddiy aholi uni so'zlarini tez qabul qilganlar. Tomoshabinni o'z tomoniga jalb qilish uchun Demosfen qisqa iboralar bilan dinamik va intensiv tarzda yuqori uslub va nutq so'zlarini ishlatgan holda nutq so'zlaydi. Notiq raqiblar bilan xayoliy muloqotlar va ritorik savollar, antitez va metafora "sukunat raqamlari"ni mohirona tanitadi, so'zining oxirida tinglovchilarni o'z xulosalarini chiqarishga taklif qiladi. Klassik davrning mashhur notiqlik ustasi Demosfen bu mavzu bo'yicha ko'plab mashhur spikerlar uchun namuna bo'ldi.

Arxitektura, haykaltaroshlik va rassomchilik. Klassik Yunonistonning ma'naviy hayotida ***arxitektura*** muhim o'rin egallagan. Miletlik arxitektor **Gippodam** (miloddan avvalgi V asr) shaharlarning tartibsiz qurilishidan voz kechish va ularning muntazam rejalarini joriy etishni taklif qildi. Uning faoliyati shahar hududlarining ko'rinishini rejalashtirish, to'g'riburchak ko'chalarida kesishuvchi to'rtburchakli kvartallarni bir necha funksional markazlarni aniqlashga asoslangan. Gippodam nazariyasiga binoan Olinf va Afina porti Pirey qayta qurilgan.

Yunonlarning eng qadrli qismi ilohiy joylar bo'lib, uning markazida patron-xudolariga ajoyib ibodatxonalar qurilgan. Doriy orderi tartibida yaratilgan eng muhim obyektlar Pestumdagi Poseydon va Egina orolidagi Afayi ibodatxonasi hisoblanadi. Olimpiyadagi Zevsning muqaddas maydonida (Altis) muqaddas joyda bir nechta ibodatxonalar bo'lgan. Ularning eng ulug'vorlari momaqaldiroq sochuvchiga bag'ishlangan edi. Arxitektura Libon tomonidan qurilgan ibodatxonaning tomi, urushayotgan kentavrlarning lapiflar bilan janggi tasvirlangan haykallari orqali bezatilgan.

Ilk yunon haykaltaroshligi (Arxaik davr). Qadimgi Yunonistonning klassik san'ati uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tib, miloddan avvalgi V asrda to'liq shakllandi. Miken Yunonistonining qulashi oqibatida, ya'ni "zulmat asri"da yunonlar xaop yoki ksoan deb nomlangan yog'och haykallarni yaratdilar. Yog'och haykallar uzoq vaqt saqlanib qololmagani sababli ular haqidagi ma'lumotlar qadimgi mualliflarning asarlaridagina uchraydi. Ular ko'pincha qadimgi davrlarga oid bo'lgan ibodatxonalarda saqlangan.

Keyingi asrlarda yunonlar tosh haykallarni yarata boshladilar. Miloddan avvalgi VII asrning oxiriga kelib klassik san'atning yangi turi – kuros paydo bo'ladi. Unda xudolar yoki inson gavdasi, asosan, navqiron yosh sportchi – atlet yigitlarning kiyimsiz haykali tasvirlangan. Kuros haykallari Yunonistonning arxaik davrining ramzlaridan biriga aylandi. Ular yunon dunyosining ko'plab shaharlarida yaratilgan edi. Shu bilan nomlari tarix uchun saqlanib qolgan birinchi ustalar paydo bo'ladi. Misol uchun, usta Polimed tomonidan yaratilgan sportchi Argos haykalini yaratdi.

Shuningdek, haykaltarosh Royk va Feodor bronza haykallari bilan mashhur edi.

Arxaik davrdagi monumental haykallar va kichik plastika haykalchalari mavjud bo'lgan. Misol uchun, Naksos orolida 12 metr balandlikdagi Olimpiya xudolaridan birining haykali topilgan.

Haykallarning yana bir turida qizlar haykallari bir necha qavatli kiyimlar (matolarni burmalari ko'pligi) mavjudligi bilan izohlanadi.

Klassik davr san'ati. Klassik davrda (mil. avv. V-IV asrlarda) haykaltaroshlarning mahorati o'sib bordi. Ular dinamik tasvirlarni yaratishni o'rganadilar. Bronzadan foydalanish keng tarqalgan. Bu davrdagi haykaltaroshlar bir guruh haykallar ya'ni bunda voqea-hodisalar tasvirlaydigan bo'ldi. Haykaltarosh Kritiy va Nesiot tiranlar Garmodiya va Aristogiton bilan jangchilarni tasvirlaydigan haykal guruhini yaratdi.

Lyudoviziy barelyefi (devorga tushirilgan haykal)da esa dengizdan chiqayotgan Afrodita tasvirlangan.

Mil. avv. V asrda yaratilgan yunon haykaltaroshlari bir necha ustalar tomonidan turli yo'nalishlarda olib borilgan. Asrning ikkinchi choragida Elevferalik (Attika va Beotiya chegarasidagi qadimgi shahar) haykaltarosh Miron eng mashhur asari – "diskobol" haykalini yaratdi. Unda diskni tashlashga tayyorgarlik ko'rayotgan sportchi tasvirlanadi. Haykalda bir harakatdan ikkinchisiga o'tish vaqti tasvirlangan.

Miron Argoscha yugurishda g'alaba qozonib, marra chizig'idan o'tiboq zo'riqishdan vafot yetgan sportchi Ladaning ham haykalini yaratdi. Lada haykali saqlanmagan bo'lsa-da, noma'lum shoir epigram (qisqa satirik she'r) ida uning ko'rinishini tasvirlaydi.

"Afina va Marsiy" haykaltaroshlik asarida mifologik hikoya tasvirlangan. Unda fleytani tashlab yuborayotgan Afina ma'budasi va uni olayotgan Marsiy tasvirlangan.

Mil. avv. V asrning o'rtalarida boshqa haykaltarosh Poliklet ham ijod qilgan bo'lib, Mirondan farqli o'laroq, dinamik figuralarni emas, balki mukammal inson figurasini tasvirlashni

rivojlantirishga harakat qildi. Shuning uchun qadimgi asarlarda Polikletning asarlari bir xilligi to'g'risida ko'p eslanadi.

Polikletning eng mashhur haykali – "Dorifor"dir. Shuningdek, u tananing ideal simmetriyasi qoidalarini bayon etgan "Qoidalar" risolasini yozgan.

Bu davrda yashab ijod etgan yana bir haykaltarosh Fidiy hisoblanadi. U mil. avv. V asrda yashagan, yunon san'atining yirik namoyandasidir. Hayoti davomida Afina, Olimpiya va boshqa joylarda ishlagan. Fidiy Afinadagi Akropol qurilishiga boshchilik qilgan.

Falsafa va boshqa fanlar. Klassik davrda tabiiy falsafaning rivojlanishi yakunlandi va uning asosida alohida fanlar shakllana boshladi. Ioniyning tabiiy falsafasi bu davrda Anaksagor va Empedokllar asarlari bilan ifodalanadi. Anaksagor (mil. avv. 500-428-yillar) zodagonlar oilasida Kichik Osiyoning Klazomen shahrida dunyoga keldi. Biroq u otasining boyliklarini e'tiborsiz qoldirib, o'zini butunlay fanga bag'ishladi. Afinaga ko'chib o'tgandan so'ng, faylasuf periklchilarning o'qituvchisi va do'sti bo'lib, uning ilmiy izlanishlari tufayli erishgan bilimlari orqali yunon dunyosida shuhrat qozonishga erishdi.

Anaksagor Koinotning rivojlanishini xudolarni aralashtirmasdan ilohiy g'oyalarsiz ratsional ravishda izohlanishi mumkin bo'lgan mexanik harakatlarni muhokama qilgan. Uning fikriga ko'ra, yulduzlar uzoqdagi qizigan, issiq moddadan va Oy o'zining nurini Quyoshdan oladi va Oy Yerga o'xshaydi va unda hayot bor deb o'ylaydi. Oxir-oqibat o'zining qarashlari bilan xudosizlikda ayblanib, surgunda o'lgan. Uning qabr toshiga: "Bu yerda ruhi eng oliy haqiqatlarga ko'tarilgan taniqli Anaksagor yotibdi" deb yozib qo'yilgan.

Agrigentolik (Sitsiliya) faylasuf Empedokl (mil. avv. 490-430-yillar) hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini qayta tiklashga urindi. U birinchi bo'lib yer yuzida o'simliklar, keyin hayvonlar va nihoyat odamlar paydo bo'lgan deb hisoblagan. Bundan tashqari, faqatgina mavjud sharoitlarga moslashtirilgan turlar tirik qolgan deb o'ylagan. Barcha jonzotlarning evolyutsion rivojlanishining muntazamligini, bir vaqtning o'zida o'simliklar, hayvonlar va insonlarda ruhning borligini e'tirof etgan.

Dunyodagi ratsionalistik qarashlarning tarqalishi, moddiy falsafaning shakllanishiga olib keldi, Miletlik Lefkipp (mil. avv. 500-440-yillar) va uning o'quvchisi Abderalik Demokrit (mil. avv. 470-460-yillar) tomonidan erishilgan natijalar eng yuqori yutuq deb hisoblanadi.

Bu faylasuflarning fikriga ko'ra, butun tabiiy dunyo va hatto, xudolar (Demokrit xudolarning mavjudligini inkor etmagan) va ruhi eng kichik zarrachalar ham xavfsiz harakatlarda bo'lgan bo'linmas atomlardan iborat bo'lgan. Koinotda atomdan tashqari va ularning orasidagi bo'shliqdan boshqa hech narsa yo'q. Atomlar harakatlanayotganda to'qnashadi va tabiatdagi mavjud bo'lgan har xil narsalarni beruvchi turli kombinatsiyalar hosil qiladi. Koinotda har doim bir dunyo paydo bo'lgan, boshqalari halok bo'ladigan, shuningdek, ushbu jarayon abadiy va cheksiz takrorlangan. Tabiatda tasodifiy hech narsa yo'q, barcha hodisalar tabiiy ravishda yuzaga keladi va ular bir-biriga sabab bo'ladi.

Demokrit. Demokrit ta'limot nazariyasini ishlab chiqdi. Ammo dunyo haqida to'g'ri fikr yuritish uchun aql yordamida asosiy hissiyotlarni tahlil qilish kerak. Faqat shular asosida haqiqiy bilimga ega bo'lish mumkin. Shunday qilib Demokrit zamonaviy materialistik falsafaning ko'pgina shartlarini: materiya va harakatning uzluksizligi, dunyoning abadiyligi va doimiylikni, moddaning atomistik tuzilishi haqidagi ko'p narsalarni sezgan. Mil. avv. V asrda Yunonistonda paydo bo'lgan falsafiy fikrning murakkab tendentsiyasi tabiiy-falsafiy nazariyalarni o'zida mujassamlashtirgan. Sofistlar ko'chib yuruvchi notiq va faylasuf o'qituvchilar bo'lganlar. Ular jamoat bayramlari va tantanali marosimlarda nutq so'zlaganlar, ba'zida fuqarolarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilash hamda pul ishlash uchun notiqlik san'atini o'rgatganlar. Sofistlar ilmiy bilimlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar: inson falsafiy tadqiqotlar obyektini birinchi bo'lib yaratgan (oldin faylasuflar faqat tabiat bilan qiziqar edilar). Avvalo, ular inson bilimlarining tabiati bilan qiziqishgan. Bilim nima? U qaerdan paydo bo'ladi? Haqiqatning xolis mezonlari nima? Haqiqat haqidagi tortishuvlarda g'alaba qozonish san'atini egallab olgach, sehrgarlar yunon qavmining amaliy hayotida nazariy bilimlarni birinchi bo'lib qo'llaydilar, chunki milliy

majlisda yoki sudda fuqaro o'z pozitsiyasini tasdiqlashi va dushmanning dalillarini inkor etib, ularning kuchsizligi va yolg'onligini ko'rsatib berishi kerak bo'lgan. Qadimiy yunonlik sofistlarning bilimining rivojlanishi Protagor va Gorgiylarning ta'limotlari bilan bog'liq edi.

Abderlik Protagor (mil. avv. 480-410-yillar) ilmdagi asosiy narsa bu hissiyotdir deb aytdi.

Shuning uchun har bir shaxsning shaxsiy his-tuyg'usi bor, bu subyektivdir. Protagor har bir inson o'z fikrini eng yaxshi narsalarga hukm qiladi va u to'g'ri deb hisoblaydi, shu fikr u uchun haqiqatdir, deb hisoblaydi. Sofistlar har qanday fikrni isbotlash qobiliyati va mazmunning haqiqatidan qat'i nazar uni darhol rad eta oladigan darajagacha o'rgatdilar. O'quvchilar ko'pincha ikkita nutq so'zlashi kerak edi: birinchi navbatda taniqli kishini maqtang, keyin uni salbiy odam deb hisoblang deb uqtirganlar. Bir vaqtning o'zida ham "tarafdor" va "qarshi" sofistlar bilan gaplashish qobiliyatini sinash uchun u aholi bilan suhbatlashdi va ularning falsafiy san'atini fuqarolarni aldash va qavmning demokratik qadriyatlarini buzib tashlash vositasi sifatida qabul qiladi.

Suqrot (mil. avv. 470-399-yillar). Afina fuqarosining o'g'li, u jamoaning hurmatli a'zosi sifatida, Afinani himoya qilib, urushlar va milliy majlisda qatnashdi hamda magistraturalar, ya'ni ba'zi burjua mamlakatlarida sudya nomi va sud organlari tuzilishida yordam berdi. Suqrot umumiy ta'lim olish bilan bir qatorda o'z falsafiy qarashlarini ishlab chiqdi. U haqiqatni faqat bahs-munozara orqali bilib olish mumkin deya, o'z bahs-munozara usulini ishlab chiqdi. Olim savollar yordamida avval yo'lovchi pozitsiyasining noto'g'riligini tan olgan, keyin esa qarama-qarshi tomonning bayonotlarining to'g'riligini tushuntirgan. Bu tarzda bahslashish nizo ishtirokchilarining so'z boyligini ortishi va bilimlarini rivojlanishiga yordam berdi. "O'z-o'zini tanish" iborasi Sokratik falsafa va ilm-fan nazariyasining shiori bo'lgan.

Suqrot izchil axloqiy tushunchalarga ega bo'lgan mantiqiy kontseptsiyani ishlab chiqdi. Shu bilan birga ilmni yuksak fazilat deb bilib, insoniyatning eng yaxshi hayotiy natijalarga erishishiga imkon berganligi va bu inson baxtiga ega bo'lgan eng yuksak

yaxshilik sifatida qabul qilinishi kerakligiga ishonardi. U to'g'ri bilim to'g'ri harakatga olib keladi deb hisoblardi. Olimning fikriga ko'ra, barcha odamlar yaxshi yashashni istaydi. Ammo ularning bilim darajasi turli xilligi tufayli ular o'z maqsadlariga erishish qobiliyatlari bilan ajralib turadilar. Suqrot asosan aristokratik davralarda o'z tarafdorlari va do'stlari bilan suhbatlarda kasbiy tayyorgarligi bo'lmagan odamni davlatni boshqarish uchun qobiliyatini tanqidiy baholadi. Suqrotning xudosizligi demokratiya va yoshlarni yo'ldan ozdirishi mumkinligi tufayli Afina sudida uni aybdor deb, o'limga hukm qilindi va u zahar ichishga majbur bo'ldi.

Suqrotning eng mashhur o'quvchilaridan biri Platon bo'lgan. Qadimgi aristokratlardan bo'lgan Kodridlar oilasining avlodi Platon har soha bo'yicha ta'lim oldi. Miloddan avvalgi 387-yilda Platon Afinadagi falsafiy maktab – Akademiyasiga asos solgan. Uning ta'limoti qadimgi yunon falsafasida idealist yo'nalishida ifodalangan. Platonning nazariyasi, dunyoda faqatgina g'oyalar mavjud – abadiy va o'zgarmas narsalar va haqiqiy dunyo obyektlari bu g'oyalardan iborat deya faoliyat yuritgan.

Platonning fikriga ko'ra, har bir qavmda ikki bir-biriga qarshi fikr bor: birinchisi kambag'allar, ikkinchisi esa, boylar. Ular orasida doimo kelishmovchiliklar mavjud. Buning sababini Platon fuqarolarning egoizmga asoslanib, yaxshilikning haqiqiy ma'nosini tushunish qobiliyatini yo'qotganliklaridadir, deya ta'kidlaydi. Bu esa o'z navbatida ochko'zlik, boylikka bo'lgan intilish va boshqa jamoat tartibini buzib tashlaydi. Faylasuf Afina davlatidagi aholi ongini "sog'lomlashtirish" uchun Suqrotliklarning yaxshilik va haqiqat g'oyasiga asoslangan holda fikr yuritishlari kerak, deb ta'kidlaydi. Platon o'zining vazifasini adolatli boshqaruvga asoslangan ideal siyosatni yaratishda deb hisobladi. Platonning haqqoniylik falsafasi idrok bilan bog'liq, idrok esa falsafa va ilmga erishishga yordam beradi. Shuning uchun dono va adolatli hukmdorlar – faylasuflar davlatni boshqarishi kerak. Rahbar va faylasuflarning mol-mulki, o'zligi, hatto, oilasi ham bo'lmasligi lozim. Shundagina ezgu amallarni bajarishga hech kim xalaqit bermaydi hamda dushman g'oyalaridan himoya qila oladi deya ta'kidlagan. Oxir-oqibat,

fermerlar, hunarmandlar va savdogarlarsiz (ular demiurglar deb nomlanadi) davlatda taraqqiyot bo'lmaydi, degan fikrga kelgan. Ular shaxsiy mulkka va oilalariga ega, lekin ularning butun hayoti davlat tomonidan tartibga solinadi. Qavmda ideal modelini yaratgan Platon, oqilona qonun chiqaruvchining o'z g'oyalarini qo'llashi va iloji boricha qavmning hayot tarziga qulay va yaqinroq siyosat yaratish imkoniyatiga ega bo'lishga umid qiladi.

Platonning o'quvchilari orasida taniqli faylasuf Aristotel (mil. avv. 384-322-yillar) ham bo'lgan.

U nafaqat ustozlaridan o'tib ketgan, balki falsafa rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Aristotel Bolqon yarimorolining shimolida joylashgan Stagiradagi (shu sababli Stagirit taxallusi bo'lgan) shahrida Makedon shohlarining saroyida shifokor oilasida tug'ilgan. Aristotel 17 yoshida Afina shahriga kelib, Platonning o'quvchisi bo'ladi. Natijada faylasuf yosh Makedon Aleksandrning ustoziga aylandi. Miloddan avvalgi 335-yilda Like nomli o'z maktabini ochdi (u Appolon Likeyaning bog'ida joylashgan). Uning ilmiy qiziqishlari cheksiz edi: falsafa va matematika, mantiq, notiqlik san'ati nazariyasi, adabiyot va teatr. Bu qadimgi buyuk aql egasi bo'lib, ensiklopediyachi olim bo'lgan. Aristotelning Platon va Demokrit ta'limotlari ta'siri ostida ishlab chiqqan tabiiy falsafasi "metafizika" ilmida bayon etilgan izchil bir tizimdir. Lekin faylasuf Platon va Demokritlar nazariyasi ta'sirida qolgan bo'lsa-da, o'z idealizmini yaratishga muvaffaq bo'ldi. U tabiiy va ijtimoiy muhitdagi barcha hodisalarni hayot tarzini shakllanishining yagona jarayoni sifatida taqdim etdi. Hayot – har bir jonzotga xos bo'lgan harakatlarda mavjud bo'lgan mohiyatning maqsadiga muvofiq, materiyaning xohish-irodasi bilan mukammal uyg'un shaklidir. Shunday qilib, o'simlikning urug'ida, uning rivojlanish jarayoni va kelajakdagi shakllar allaqachon belgilanadi. Butun dunyo tartibi rivojlanayotgan sabablar va ta'sirlar zanjiridir. Dunyoning asosida harakat mavjud bo'lib, har qanday modda, hayot, vaqt, bo'shliqda to'xtovsiz harakatlar tizimi mavjud. Biroq doimiy harakatga qaramasdan, shakl va kontentning muvofiqligi faqat istisno holatlarda erishiladi. Bu faqat san'at asarlarida sodir bo'ladi, uning maqsadi atrofdagi moslamalarni nusxalab olish

emas, balki dunyoning go'zalligi va uyg'unligini ochib berishdan iboratdir.

Aristotel "Organon" asarida o'zining fikrlash usullari, ya'ni mantiq haqida o'z qarashlarini ochib berdi. Aristotelning fikriga ko'ra, umumiy prinsiplar induksiya natijasida olingan tajribadan kelib chiqadi, buning asosida sillogizm (ya'ni natijalar) yordamida aniq xulosalar olinadi. Aristotelning mantiq qonunlari o'rta asrlar sxolastikasining asosini tashkil etdi. Aristotel davlat boshqaruvini o'rganish maqsadida "Siyosat" nomli asarini yaratdi. Platondan farqli o'laroq, Aristotel haqiqiy tarixiy sharoitlardan kelib chiqqan. U vaziyatni va siyosatni boshqaradigan kishilarga bog'liq holda hukumatning bir xil shaklini yaxshi yoki yomon deb hisoblagan. Aristotel davlatning uchta to'g'ri shaklini: monarxiya, aristokratiya va siyosiy (ya'ni mo'tadil demokratiya) turlarga ajratib ko'rdi va mavjud vaziyatlar yomon tomonga o'zgarganda huquqiy shakli mos kelmaydigan tomonga, ya'ni: monarxiyani tiranlik, ya'ni zolimlikka, aristokratiyani oligarxiyaga, siyosiyni demokratiyaga aylantirdi. Bundan tashqari, demokratiyani Aristotel radikal xalq boshqaruvining oxirgi shaklini mujassamlashtirish deb hisobladi. Davlat bir shakldan boshqa shaklga ketma-ket o'tish jarayonida rivojlanib, umumiy manfaatlar – to'g'ri shakllarni noto'g'ri narsalardan ajratish mezonidir. Aristotelning falsafiy maktabi va uning shogirdlari "Peripatet" (faylasuflarning ta'lim o'rgatadigan yopiq galereyaning nomi "Peripatos" deb atalgan) deb nomlangan. U yerga juda ko'p mashhur olim va faylasuflar: Feofrast (Teofrast), Dikearx va boshqalar tashrif buyurganlar.

Aristotelning ijodiy asarlari ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga ta'siri juda katta bo'ldi. Olimning ayrim sohalarda olib borgan tadqiqotlari va izlanishlari bilan ko'plab fanlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Aristotelning asarlari nafaqat Yevropada, balki Sharqda ham olimlar orasida keng tarqalgan edi. Buyuk faylasufning ilmiy merosi jahon ilmiy g'oyalarining cho'qqilaridan biri bo'ldi. Qadimgi Yunonistonda falsafa va ilmiy bilimlar birinchilar qatorida bo'lgan.

Har bir bilim sohasida, bir-biri bilan raqobatlashadigan bir necha maktablar barpo etilgan. O'tgan davr mobaynida matematik

bilimlar Yunonistonda yuqori darajada bo'lib, mil. avv. V asrda ular astronomiyada ham ishlatilgan. Xios orolida yashovchi Enopid quyosh-yilining davomiyligini hisoblab chiqdi va Afinalik Meton bu hisob-kitoblarni aniqlab, quyosh va oy taqvimlarini (metan sikllari deb ataladigan) uyg'unligini aniqladi va mazkur taqvim qadimgi yunon kalendari deb hisoblanadi. Misrliklar tibbiyot sohasida amaliy bilimlari bilan mashhur bo'lishsa-da, qadimgi yunonlar ilm-fan sohasi sifatida tibbiyotni yaratdilar. Ilmiy tibbiyotning asoschisi qadimgi yunon shifokori Gippokrat (mil. avv. 460-370-yillar) hisoblangan.

Gippokratning aytishicha, xudolar kasalliklarni yubormaydi, atrof-muhitning odamlarga ta'siri jarayonida: sovuq havo, iflos suv va hokazolar tufayli kasalliklar paydo bo'ladi. Gippokratning izdoshlari insonni tabiiy usul bilan davolashga, salbiy sabablarni bartaraf etishga va dori-darmonlar va oziq-ovqat bilan yordam berishga harakat qildilar va faqatgina o'ta og'ir holatlarda operatsiyani boshladilar. Gippokratning ta'limoti keng miqyosda tan olingan va tibbiyotning yanada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Unga asosan shifokorning bemorga munosabatini axloqiy tamoyillari shakllantirildi. Ular "Gippokrat qasamyodi"da uning ifodasini topganlar, shuningdek, bugungi kunda ham shifokorlar mazkur ifodani davom ettirmoqdalar.

Yunonlarning keng savdo aloqalari va butun O'rtayer dengizi rivoji ular tomonidan geografik ma'lumotlarning rivojlanishi va Yer sayyorasi xaritalarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Anaksimandr (mil. avv. VI asr) birinchi kartograf sifatida tan olingan. Miletlik Gekatey esa o'zining chuqur bilimlari orqali Yevropa va Osiyodagi mamlakatlarning tavsiflarini aniqlagani bilan mashhur bo'lgan.

Qadimgi Yunoniston dini. Qadimgi yunon dinlari haqida ma'lumot beruvchi manbalar turlicha bo'lsa-da, ular ichida qadimgi yunon dostonlari hamda yunon faylasuflarining bizgacha yetib kelgan asarlari yaxshi ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Qadimgi yunonlar hayvonlar timsollarini ilohiylashtirganlar. Bunda ho'kiz timsoli birinchi o'rinda bo'lib, uning suratlari qadimgi yunon tasvirlarida tez-tez uchrab turadi. Shuningdek,

yunonlar ilon timsolini va boshqa bir qator hayvon va qushlarni ilohiylashtirganlar. Demak, aytish mumkinki, dastlabki davrda qadimgi yunonlarda totemistik tushunchalar keng tarqalgan.

Qadimgi yunonlarda odam shaklidagi xudo timsollari ko'p uchraydi va ushbu xudolar ko'pincha ayol timsolida namoyon bo'ladi. Masalan, shunday tasvirlardan birida bir ayolning ikki qo'lini osmonga ko'tarib turgan itning oldida qo'llarini yuqori ko'targan holda turgani tasvirlangan.

Yunonlar g'ildiraksimon shakllar yordamida quyosh va oy timsollariga ishora qilganlar va buning bilan ularni ham ilohiylashtirganlar. Toshlarda va ba'zi daraxtlarda ilohiy kuch mavjud deb hisoblaganlar, g'orlar va ungurlarga esa o'limdan keyingi hayot hamda turli marosimlarga bog'lab diniy tus berganlar.

Qadimgi yunon dinida totemizm singari ilk diniy tasavvurlarning ba'zi belgilari, jumladan, *mirmadanlar*ning chumolidan tarqaganligi haqidagi afsona yoxud ilonoyoq Kekropning Afina asoschisi ekanligi haqidagi afsonalar mavjud bo'lgan.

Yana qadimgi ovchilik an'analariga oid marosim va sehrgarlik rasm-rusumlarini ob-havo bilan bog'lashgan. Masalan, Mefanax (Korinfika) shahrida jazirama issiq shamollarini haydash uchun ikki kishi bir oq xo'rozni ikkiga bo'lib, qo'lga ko'tarib tokzor atrofida ko'tarib, har tomonga yugurganlar. Yoxud shunga o'xshash yomg'ir chaqirish ham alohida marosimni talab etgan.

Yunonlar dinining mana shu qadimgi shaklida tabiatni o'rab turgan turli-tuman mayda ruhlar: suv ruhlari, o'rmon ilohlari, *nayad, driad*, tog' ruhlariga ishonish asosiy o'rin tutgan.

Ushbu xalqlarda ildizi qadim o'tmishga borib taqaladigan yomonlik keltiruvchi sehrga ishonch mavjud bo'lgan. Bunda yer ostidagi qora kuchlar haqidagi tasavvurlar nazarda tutiladi. Ulardan qahrli Gekata birinchi o'rinda turgan. Agar biron kimsani dushman tutib yo'q qilmoqchi bo'lsalar, shu xudolar ismini tilga olib la'natlaganlar. La'nat yuborish va duoi bad qilishning ham o'ziga xos rasm-rusumlari bo'lgan, biroq bunday yovuz sehrgarlik u qadar ahamiyatga ega sanalmagan. Yunonlar sehrdan keng foydalanganlar. Bemorlarni davolash, kasallikning muolajasida

ham tabobat bilan bog'liq urf-odatlar uzoq saqlangan. Tarixan juda ham qadim-qadimlarga borib taqaladigan yunon e'tiqodlaridan biri – bu o'lim va undan keyingi holat haqidagi tasavvurlardir. Yunonlar odatiga ko'ra, o'lgan kishi tanasini yerga ko'mishgan yoki sag'anada saqlashgan. Ularning fikricha, o'lganlar ruhi yer osti makoni – Aidda to'planadi. Inson qanday hayot kechirgan bo'lishidan qat'i nazar, xoh u qo'rqmas askar bo'lsin, xoh dehqon, barchasi birdek mana shu Aid deb atalgan joyda og'ir mashaqqatlarga yo'liqadilar. Shuning uchun ham yunonlar bu qiyinchiliklar girdobiga tushadigan marhumni so'nggi yo'lga kuzatish marosimini o'zlariga burch deb bilganlar va katta e'tibor bilan amalga oshirganlar. Yunonlar, garchi o'limdan unchalik qo'rqmagan bo'lsalar-da, biroq inson o'limidan keyingi taqdirini o'ylab dafn etilmay itlar yoki biror boshqa yirtqichlarga yem bo'lishini nihoyatda katta fojia sanaganlar. Ular marhumlar oziq-ovqatga muhtoj bo'ladilar deb, ularga maxsus ozuqalar hozirlashgan.

Yunonlar xudolar hamma joyda mavjud bo'ladi va ular barcha insoniy faoliyati va harakatlarini kuzatib tura oladi deb o'ylashgan. Ularda xudolarga sajda qilish uchun muqaddas joylar (gieron) mavjud bo'lgan. Bunday joylarda odatda ibodatxonalar barpo etilgan. Klassik yunon ibodatxonasi ustunlar (peripter) bilan o'ralgan bo'lib, u to'rtburchak shaklda qurilgan. Qadimgi yunon dinining asosi axloq qoidalari emas, balki marosimlardan iborat edi. "Boqiy" xudolar uchun qurbonlik (qurbonlik uchun hayvonlarning go'shti, don va boshqalar) qilingan. Xudolar buning evaziga odamlarni himoya qilishgan. Bu holat inson va iloh o'rtasidagi munosabatning klassik qadimiy tamoyiliga asoslangan. Eng muhim qurbonlik gekatomba – bir vaqtning o'zida oltita buqaning qurbonlik qilishi hisoblangan. Kohinlik qiladiganlar uncha ko'p bo'lmagan, diniy, marosimlarni barcha yunonlar deyarli o'zlari bajarishgan. Yunonlar dini asosan rasmiy bajarilib, bu inson ruhiga ta'sir qilmasdi. Bu bo'lsa, shubhasiz, yunon sivilizatsiyasi xarakteriga ta'sir ko'rsatgan. Ular oliy xudo Zevsning "xudolar va odamlarning otasi" deb hisoblashgan. Yunonistonga Bolqondan kirib kelgan yunonlarning ajdodlari bu samoviy Xudo-momaqaldiroq xudosini e'zozlashni o'zlari bilan

olib kelganlar. Yunonlarning fikricha, Zevs osmon bilan aloqada bo'lgan Shimoliy Yunonistondagi Olimp tog'ida osmonda yoki (boshqa xudolar bilan birga) yashagan. Zevsning eng katta ibodatxonasi Olimp (g'arbiy Peloponnes)da joylashgan bo'lib, u yerda mil. avv. 776-yildan Olimpiya o'yinlari o'tkazib kelingan. O'n ikki Olimp xudolarining panteoni klassik davrda shakllangan, miloddan avvalgi V asrda Afina Parfenoni frizida tasvirlangan va miloddan avvalgi IV asrda Yevdoks tomonidan sanab o'tilgan. Ulardan ba'zilarini kelib chiqishi Yaqin Sharq, Kichik Osiyo hamda Frakiyaga borib taqaladi. Zevsning xotini Gera bo'lib, kelib chiqishi ona-yerga bog'langan va Argos hamda Arkadiyada ko'proq e'zozlangan. Bir necha afsonalarda Zevsning xotinlari turli ma'budalar: Demetra, Semela, Persefona, Yevropa bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Biroq Gera Zevsning qonuniy xotini bo'lib, uning farzandlarini dunyoga keltirgan va shuning uchun asosan barcha ayollar tomonidan hurmat qilingan.

Zevsning ukasi Poseydon dengiz xudosi qo'lida uchta o'tkir tishli qurol ushlab turgan holda tasvirlangan. U ham zilzilalar chaqirishi mumkin edi, shu bilan birga-yilqichilik homiysi sanalgan. Hosildorlik ma'budasi Demetriy bo'lib, uning qizi Persefon (Demetriy va Zevsni qizi – o'liklar saltanati xudosi)ni yer ostidan qaytishi bahorning kelishi va tabiatning qayta tug'ilishini belgilab bergan. Apollon Quyosh xudosi bo'lib, unda Sharqning ta'siri ko'zga tashlanadi. U san'at homiysi va epidemiyalar yuboradigan xudo bo'lgan. Apollonning eng asosiy ibodatxonalari Delfa va Delos orolida joylashgan edi. Ayniqsa, Delfadagi ibodatxona juda mashhur bo'lgan. Artemida, Apollonning singlisi, hayvonlar ma'shuqasi va ov homiysi bo'lib, Kichik Osiyoda ko'proq e'zozlangan. Efesdagi Artemida ibodatxonasi dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan.

Ares, Artemida kabi dastlab trakiyaliklarning quyosh xudosi edi. Yunonlar orasida u juda kam hurmatga sazovor bo'lgan shafqatsiz urush xudosi bo'lgan. Yaqin Sharqdagi hosildorlik ilohasi Afrodita Yunonistonda sevgi ma'budasi hisoblangan. Afsonaga ko'ra, u dengiz ko'pigidan tug'ilgan bo'lib, vatani Kipr oroli hisoblangan. Sayohatchi va savdogarlarning homiysi bo'lgan xudo Germes juda mashhur edi. U o'liklarning jonlarini yer osti

saltanatiga yetkazgan, chegaralarni qo'riqlagan va xudolarning xabarchisi sifatida namoyon bo'lgan. Germes (Germa)ning haykallari ko'pincha jamoat joylarida joylashtirilgan. Pallada Zevsning oltin boshidan chiqqan va donolik ma'budasi hisoblanib, Afinada ko'proq e'zozlangan. Gefest (Afroditani eri) do'zax, olov xudosi va temirchilarning homiysi edi. Dionis (Zevs va Semelening o'g'li) esa hosildorlik xudosi, sharob, teatr homiysi sifatida ulug'langan. U Olimpiya panteoniga a'zo bo'lmasa-da, Yunonistonda katta ta'sirga ega edi. Shuningdek, qadimgi Yunonistonda kam ahamiyatga ega bo'lgan Kastor va Polidevik kabi xudolar ham bo'lib, bo'ron paytida dengizchilarga yordam bergan.

Yunon diniy qarashlarining yana bir o'ziga xos jihati – aslzoda qahramonlarni ilohiylashtirish hisoblangan. Xalq qahramonlariga ishonchning shakllanishi bir oz kechroq yuz bergan. Bunday holatning yuzaga kelishiga xudolarga bo'lgan ishonchning pasayishi sabab qilib ko'rsatiladi. Ilk ko'rinishida alohida urug'ning madadkor ruhlari, boshlang'ich ajdodlari qahramon sifatida talqin qilingan. Aslzoda xonadonlarning alohida ajratilishi bilan ularning ilk ajdodlari ham ulug'lana boshladi. E'tiborli va kuchli xonadonlarning ajdodlari nomi boshqalarnikidan yuqori qo'yilib, uni ulug'lovchi va unga sig'inuvchilar soni ham ortib borgan. Shu tariqa Gerakl, Iffikal, Ivrinom, Borea, Erota kabi qahramonlardan iborat xudolar panteoni vujudga keladi.

Gerakl butun yunon o'lkasida mashhur tanilgan qahramon timsoli bo'lib, uni quyosh xudosi deb bilganlar. Ammo ba'zi tadqiqotchilar uni tarixiy shaxs deb hisoblaydilar, ya'ni Gerakl timsoli xalq qahramoni shaxsining afsonaviylashtirib yuborilgan ko'rinishidir. U doriylar qabilasiga mansub Geraklidlar sulolasining bobokaloni hisoblanadi. Doriylar tomonidan Peloponnesning katta qismini bosib olinishiga sabab bo'lgan "Geraklidlar yurishi" mil. avv. XII-XI asrlarda bo'lgan tarixiy voqeadir. Geraklning mana shu yurishlar davomida ko'rsatgan qahramonliklari uning butun Yunoniston bo'ylab mashhur bo'lishiga va u haqda ko'plab afsonalar to'qilishiga olib keldi: uning, hatto, osmonga ko'tarilib ketgani va Ellada xudolaridan biriga aylangani haqida afsona tarqaldi. Geraklning o'g'li Fest

sikionliklarni o‘z otasini qahramon sifatida emas, xudo sifatida ulug‘lashga majbur qildi.

Bundan tashqari, joylarda e’tiborli oilalar jamiyatda keng tarqalib ulgurgan marosimlarni qo‘llariga ushlab qolishga harakat qildilar. Jumladan, Afinada Erextey, Buta kabi qahramonlar kulti zodagon Butadlar xonadoni qo‘lida bo‘lgan.

Qadimgi yunon xudolari mahalliy va umumiy xudolar toifasiga bo‘linadi. Mahalliy xudolarga o‘zaro urushlarda yordam beradi, deb e’tiqod qilingan bo‘lsa, umumiy xudolar tashqi dushmanga qarshi kurashlarda yordam beradi deb ishonilgan. Yunonistonda alohida shaharlarning o‘z xudolari bo‘lganligi bu mamlakatning siyosiy tarqoqligidan xabar beradi. Gomer davrida yunonlarning madaniy jamoasi umumyunon xudolari hisoblanmish Olimpiya xudolariga ibodat qilishi bilan ajralib turar edi. Olimpiya ulug‘ xudolari ponteonining kelib chiqish masalasi juda murakkabdir. Ularning har biri o‘ziga xos bo‘lib, ba’zilarini Ellada davridan avvalgi xudolarning yunonlar tomonidan o‘zlashtirib olingani sifatida tushunish mumkin.

QADIMGI RIM

9-MAVZU. QADIMGI RIM TARIXIGA KIRISH

Reja:

1. **Rimning jahon tarixida tutgan o'rni.**
2. **Italiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari.**
3. **Qadimgi Rim tarixini davrlashtirish.**
4. **Qadimgi tarixning o'rganilishi.**
5. **Aholisi va etnik xilma-xilligi.**

So'nggi yillarda jahon tarixi fanini o'rganishga sivilizatsion yondashuv keng tarqalmoqda. Unda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti ketma-ketligi ko'plab sivilizatsiyalar zanjiri sifatida qaraladi. Bu kurs jahon tarixidagi eng muhim sivilizatsiyalardan biri – qadimgi sivilizatsiya, ya'ni uning qadimgi Rim bilan bog'liq tarkibiy qismiga qaratilgan.

Qadimgi yunonlar va rimliklar yaratgan qadimgi sivilizatsiya insoniyat tarixida va, ayniqsa, Yevropa tarixida mutlaqo o'ziga xos o'rin tutadi. Bu birinchi Yevropa sivilizatsiyasi bo'lib, dunyodagi barcha keyingi tariximiz kuchli qadimiy poydevorga asoslangan. Antik davrning insoniyat tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nihoyatda kattadir. Shu kungacha ularning deyarli barcha sohalarda boy merosidan bahramand bo'lmoqdamiz. Bizga ma'lumki, zamonaviy G'arbiy Yevropa davlatlarining deyarli ko'pchiligi Rim imperiyasining sobiq viloyatlaridan biridir. Qadimgi rimliklarning tili – lotin tili xalqaro muloqotning universal vositasi bo'lgan va yangi tillar: ingliz, fransuz, ispan va boshqa Yevropa tillarining lug'at boyligiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Rim huquq tizimi – "Rim huquqi" deyarli barcha zamonaviy huquqiy tizimlarning asosini tashkil etgan. Unda mulkiy munosabatlar, ashyoviy huquqlar, turli bitimlar, shartnomaga asoslangan va asoslanmagan majburiyatlar, meros huquqi va boshqa masalalarga oid qoidalar mukammal ishlab chiqilgan. Rim imperiyasining yuksalishi, uning boshqa davlatlarni bosib olishi bilan faqat rimliklarga tegishli bo'lgan bu qonun-qoidalar talabga javob bermay qo'ydi. Buning ustiga nafaqat

Rimda, shuningdek, Yevropa mamlakatlarida ham tovar-pul munosabatlarining jadal rivojlanishi, birinchi galda, turli davlatlar fuqarolari o'rtasidagi mulkiy, savdo-sotiq munosabatlariga tegishli qoidalarni qayta ko'rib chiqishni talab qilardi. Bu yangi Rim huquqi tarkibida xalqlar huquqi tizimining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu huquq rimliklar va rimlik bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga tatbiq qilindi, Rim xususiy huquqi xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning mumtoz huquqi hisoblangan. Ko'pgina mamlakatlar Rim huquqidan namuna olganlar.

Ikki ming yil muqaddam Rim madaniyati katta hudud bo'ylab yoyilgan. Imperiya qo'lga kiritgan yer-mulklari, qonunchiligi va ommaviy ko'ngilochar mashg'ulotlari bilan dong taratdi. Rim tomonidan zabt etilgan ko'pgina shaharlarda ulkan amfiteatrlar barpo etilgan. Rimliklarning shafqatsiz va qonli tomoshalarga moyilligini bilganimiz sabab, bunday inshootlar nimaga mo'ljallanganini payqash mushkul emas. Amfiteatrlar qoldiqlari toshdan ishlangan ochiq qurilmalar hayrat uyg'otadi va hayajonga soladi. Bu yerda teatr tomoshalari, gladiatorlar janglari o'tkazilgan. Arxitektura yodgorligining katta qismi vaqt "qurboniga aylangan", biroq ayrim qismlari yaxshi saqlangan. Ba'zi arenalardan hozir ham jamoat tadbirlarini o'tkazishda foydalaniladi. Italiyadagi Kolizey, Di-Verona arenasi, Xorvatiyadagi Pula, Fransiyadagi Arle bugungi kunda o'zining jozibadorligi bilan xorijiy turistlarni o'ziga jalb qilmoqda.

Bugungi kunda antik davr, jumladan, Rim antik davri haqida to'liq tushunchaga ega bo'lmasdan turib, Yevropa va jahon madaniyatini to'liq tasavvur qilish mumkin emas.

Qadimgi Rim tarixiga oid ma'lumotlar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining Jahon tarixi fanida ham berilgan. Biroq undagi ma'lumotlar juda qisqa berilgan bo'lib, taklif etilayotgan kurs talabalarni Qadimgi Rim tarixi, Ilk Rim Respublikasi, mil av. III-II asrlarda Rim respublikasi, Rim respublikasi inqirozi va Ilk imperiya, milodiy I-II asrlarda Rim imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, so'nggi Rim imperiyasi, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi, qadimgi Rim madaniyati bilan yaqindan tanishtirish, tarixiy taraqqiyot davomida erishgan yutuqlarining natijalari, yo'l

qo'yilgan kamchiliklarining oqibatlarini muhokama qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Rim davlatining tarixini o'rganish davomida hozirgi Italiya hududida ilk davlatlarning tashkil topishi, markazlashgan davlatning tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlari, Rim ichki nizolar va fuqarolik urushlarining sabablari va oqibatlarini, davlat tuzilishining monarxiyaga o'zgarishi, Rim Respublikasidan Rim imperiyasiga o'tishga olib kelgan tarixiy burilishlariga to'xtalamiz. Buyuk notiq va siyosatchi Sitseron, Yuliy Sezar, imperiya asoschisi Oktavian Avgust, jangchi imperator Trayan, faylasuf Mark Avreliy va boshqalar kabi yorqin shaxslar bo'lgan bir qator mashhur rimliklarni ko'ramiz. Albatta, Kaligula yoki Neron kabi Rim tarixining "salbiy qahramonlari" faoliyatiga to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi.


Muhokama qilinadigan muhim mavzulardan biri xristianlikning paydo bo'lishi va uning ilk tarixiga ham alohida e'tibor beriladi.

G'arbiy Rim imperiyasi Shimoliy varvarlar zarbalari ostida hamda ichki inqiroz tufayli parchalanishi bilan qadimgi dunyoning ulkan tarixiy davri –Qadimgi dunyo tarixi yakunlanadi.

Italiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari. Zamonaviy Rim shahri hozirgi kunda Italiya Respublikasining poytaxti, G'arbiy Yevropaning yirik shaharlaridan biridir. Lekin qadimgi davr uchun Rim mil. avv. VI asrda vujudga kelgan madaniylashgan davlat va jamiyatni bildiradigan tarixiy termin hisoblanadi. Dastlab Apennin yarimorolida yuzaga kelgan, keyinchalik butun O'rtayer dengizi havzasini egallagan "Qadimgi Rim" atamasi Rimda sivilizatsiya boshlangan davr bilan bog'liq. Lekin undan oldin esa rimlik yoki italyan bo'lmagan markazlar, ya'ni Sitsiliya va Janubiy Italiya hududlaridagi, etrusk shaharlarida sivilizatsiyalarning vujudga kelishi mil. avv. VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi.

Apennin yarim oroli o'zining ko'rinishi bilan etikchani eslatadi. Uning geologik davomiyligi Sitsiliya oroli, Italiyadan 3 kilometrlik Messin quruqligidan ajralib chiqishi bilan bog'liq. Sitsiliyaning shimolida kichkina Lipar (Yeoliya) orolchasi joylashgan. Italiyaning g'arbiy qirg'og'ida Sardiniya va Korsika

orollari, qirg'oqqa yaqin joyda Elba va Kapri orollari joylashgan. Uning hamma tarafida Tirren dengizi to'lqinlanib, janub tarafdan Ioniya, sharqdan Adriatika dengizi suvlari yuvib turadi. Italiyaning Tirren dengizidan ajralgan va janubiy hududlarida dengizchilik rivoj topgan. Sharqiy qirg'oq liniyasi dengizdan ajralgan bo'lib, bu yerda dengizchilik bilan shug'ullanish noqulaylik tug'diradi. Italiyaning shimolida mustahkam Alp tog'lari qad rostlagan, markazda uncha baland bo'lmagan yosh Apennin tog'i, harakatdagi Vezuviy vulqoni bo'lgan. Italiyaning maydoni va hududlari Yunonistonga o'xshaydi. Farqli tomonlari Etruriya va uning qizil yerlari, Kampaniya va uning bir qismi hisoblangan Latsiyaning vulqonli tuprog'i, Apuliyaning qora yerlaridir. Italiya Yunonistonga qaraganda suv resurslariga boy. Yirik suv tarmoqlaridan biri – Padus bo'lib, o'z suvini Adriatika dengiziga quyib, tarmoqlanadi. Padusning irmoqlari chapdan Titsin, katta va kichik Duriya, o'ng tarafdan Trebiya va Parmadir. Bu daryolar havzasida juda ko'plab o'tloqlar mavjud. Adriatika o'z suvini Rubikon, Metavr, Aufid daryosiga yetkazadi. Tirren dengiziga Arno, Tibr, Liris, Volturn daryolari o'z suvlarini quyadi. Apennin tog'idagi qorlarning erishi bilan uncha katta bo'lmagan yuqoridagi daryolar toshib, aholiga ko'p talafotlar yetkazgan. Toskaniya va Pompiniyada botqoqlar bo'lib, ulardan o'tish aholi uchun qiyinchilik tug'dirgan.



11-rasm. Rim. Tepaliklar

Italiyada ko'llar ham anchagina bo'lib, Alp tog'lari etagida Verban (Major), Benak (Garda), Etruriyada Trazmimin, Latsiyada Regil, Alban, Samniyada Futsin ko'li mavjud. Miloddan avvalgi 1 mingyillik o'rtalarigacha Italiyada iqlim salqin va nam bo'lgan, shimoliy hududlarda deyarli hayot bo'lmagan, o'lik hududlar hisoblangan. Italiyaning qolgan hududlari esa subtropik iqlimga ega bo'lib, janubda qor juda kamdan-kam yoqqan. Italiyaning o'simlik dunyosi juda boy bo'lgan. Alpning 1700 metr balandlikdagi qismlarida ninabargli daraxtlar: qarag'ay, archalar, Markaziy Italiyada esa sarv, qayinlar, janubda hamisha ko'm-ko'k tusga ega bo'lgan ulkan daraxtlar bo'lgan. Qadimgi davrda Italiyada nok, olma, uzum yetishtirilgan, janubda esa bodom va anor parvarish qilingan. Dehqonlar bug'doy, arpa, polba va boshqa donli ekinlarni yetishtirishgan. Tomorqa dehqonchiligida esa, asosan yuqorida ta'kidlanganidek, dukkakli ekinlar yetishtirilgan. O'rmonlarda bo'ri, ayiq, quyonlar, tog'li joylarda ohular yurgan. Manbalarga ko'ra Italiyaning nomi "Vitulus"-"buqa", "buqacha" so'zidan olingan, boshqa bir variantga ko'ra, Bovian shahrining nomlanishi shu yerdan olingan. Dengizlar ham baliq va mollyuskalarga boy bo'lgan. Tarent ko'rfazida chig'anoqlardan marvaridlar olingan. Foydali qazilmalarning turli xillari bo'lib, temir va mis Ilva oroli va Janubiy Etruriyadan, kumush Bruttiyadan, oltin Alpdan, qurilish toshlari va marmar Apennindan, Kampaniyadan esa tuz va soz tuproq olingan.

Rim tarixini davrlashtirish. Rivoyatlarga ko'ra, Rim shahriga Mil. avv. 753-yil 21-aprelda asos solingan. "Qadimgi Rim" tushunchasi o'n ikki asrdan ortiqroq vaqtni o'z ichiga olgan (mil. avv. 753-yil 21-apreldan boshlanib, milodiy 476-yil 23-avgustida G'arbiy Rim imperiyasining halokati bilan tugallandi) davlat, jamiyat va sivilizatsiya tarixini o'z ichiga oladi. Boshida uncha ham katta polis – davlat bo'lmagan Rim mil. avv. 265-yilga kelib, butun Italiyani o'ziga bo'ysundirdi. Mil. avv. II asr o'rtalarida eng qudratli O'rtayer dengizi davlatiga aylandi. Milodiy I-II asrlarga kelib, O'rtayer dengizi qadimgi sivilizatsiyalarining ulkan madaniy merosini o'zlashtirgan bepoyon imperiyaga aylandi. Jahon tarixida antik madaniyatning buyuk yutuqlarini qabul qilgan, o'zlashtirgan va keyingi avlodlarga yetkazgan davlat va jamiyat sifatida Qadimgi

Rim tarixi muhim ahamiyatga ega. Qadimgi Rim davlati va jamiyati tarixi uzluksiz taraqqiyot jarayonida bo'lgan iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ijtimoiy voqelikdir. Rim tarixi uning taraqqiyotini belgilovchi tarixiy jarayonlarga ko'ra, besh davrga bo'linadi:

1. Podsholik davrida Rim (mil. avv. VIII-VI asrlar). Bu davrda urug'-qabila munosabatlari, tuzilmalari yemiriladi. Ilk sinfiy jamiyat paydo bo'ladi va Rimning bo'lajak siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qilgan ilk davlat muassasalari shakllanadi. Mil. avv. VIII-VI asrlarda Rimning bo'lajak poytaxti o'rnida joylashgan Tibr daryosi yaqinidagi turarjoylar o'sa boshlaydi va oxir-oqibat katta ittifoqqa birlashadi. Ittifoq oqsoqollar kengashi – Senat va Xalq Majlisi bilan birgalikda rahbarlar, podsholar tomonidan boshqarilgan. Bu jamiyatda eng oliy merosxo'r zodagon, aristokratlar-patritsiylar, oddiy jamoatchi-plebsga qarshi chiqadilar. Afsonaga ko'ra, Rim aka-uka Romul va Rem tomonidan mil. avv. 753-yil 21-aprelda tashkil etilgan. Aka-ukalar o'rtasidagi janjal natijasida Romul Remni o'ldirdi va Rimning birinchi podshosiga aylandi. Rimning tarixan muhim podsholaridan biri Serviy Tulliy (mil. avv. 578-534-yillar.) bo'lgan. U ijtimoiy tuzilma va armiya islohotlarini amalga oshirdi. Uning ostida Rimning hududiy bo'linishi amalga oshirildi, rimliklar mulk bilan 6 ta toifaga bo'linib, plebeylar va patritsiylarning umumiy armiyasi yaratildi. Bu yangiliklar podsho hokimiyatini mustahkamladi va patritsiylar ta'sirini kamaytirdi. Natijada Serviy Tulliy mag'rur laqabli o'z kuyovi Tarkviniy tomonidan o'ldirildi. Tarkviniy bu unvonni qabul qilingan yangi va oxirgi shoh hisoblanadi. U o'zining yagona hukmronligidan norozi bo'lgan rimliklar tomonidan miloddan avvalgi 510-yilda Rimdan ag'darilib, quvib chiqarilgan. Shunday qilib, Rimda podsholik davri tugaydi.

2. Ilk Respublika davri (mil. avv. V-III asrlar) Italiyada quldorlik jamiyati va davlatining uzluksiz taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ilk respublika davrining boshlarida Rim patritsiylar bilan plebeylar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlashuviga duch keldi. Plebeylar uzoq vaqt davom etgan kurashlar natijasida mil. avv. III asr boshida qo'shni xalqlarni

bosib olish hisobiga egallik qilingan yerlarni bo'lib olish, qarz bo'lish hisobiga qullikka tushish va magistraturadan erkin foydalanish huquqiga ega bo'ldilar. Vaqt o'tishi bilan magistratlarda eng yuqori lavozimlarni egallagan patritsiylar va plebeylar tepasidan yangi Rim zodagonlari – nobiletlar paydo bo'ldi. Plebeylar to'la huquqli fuqarolarga aylandi. Gallar, samnitlar va boshqa qabilalar bilan uzoq vaqt davom etgan urushlar Rimning harbiy va iqtisodiy qudratini mustahkamladi. Uning manfaatlari Italiyadan tashqariga chiqa boshladi, bu mil. avv. III asr oxirida Karfagen va Puni urushlari bilan to'qnashuvga olib keldi.

Puni urushlari ilk va so'nggi Respublika davrini ajratib turuvchi chegara bo'ldi. Bu davrning asosiy natijasi – to'la huquqli Rim fuqarolik jamiyati va patrisiylar va plebeylarning to'la huquqlarining yaratilishi bo'ldi. Urushlardagi muvaffaqiyatlar Rimning O'rtayer dengizi mamlakatlaridagi ta'sirining mustahkamlanishiga olib keldi.

3. So'nggi respublika davri (mil. avv. II-I asrlar). Bu davrda klassik qulchilik shakllanib, Rim O'rtayer dengizi davlati tashkil topadi. Qo'shinlarining kuchiga tayanib, qo'shnilari o'rtasidagi nifoqdan foydalanib Rim Ispaniya, Galliya va Yunonistonni bo'ysundiradi. Ijtimoiy tuzilishda patriarxaldan klassik qullikka o'tish kuzatiladi. Shu bilan birga, urush hisobiga hukmron elitaning boyishi Italiyaning kichik va o'rta dehqonchiligining xarob bo'lishiga olib keldi, bu esa Italiya qabilalarining qo'zg'oloniga olib keldi. Xalq Majlisi, magistratlar va Senat kabi davlat respublika boshqaruv organlari o'sib borayotgan iqtisodiy va siyosiy inqirozni bartaraf eta olmadi. Hokimiyat Yuliy Sezar kabi muvaffaqiyatli va iste'dodli generallar qo'lida to'plangan edi. Uning o'ldirilishi yana bir fuqarolik urushiga olib keldi, uning g'olibi Oktavian avgust bo'lib, u birinchi Rim imperatoriga aylandi. So'ngi Respublika davri Rimning Britaniyadan Mesopotamiyaga va Reyndan Misrgacha cho'zilgan O'rta dengiz sohillaridagi yagona kuchga aylanishi bilan yakunlandi. Iqtisodiyot va davlat tuzumining inqirozi respublika tuzumining barbod bo'lishiga va imperator hokimiyatining o'rnatilishiga olib keldi.

4. Ilk imperiya yoki prinsipat (milodiy I-II asrlar) davri. Bu davr Rim imperiyasining oltin davri. O'rtayer dengizi antik sivilizatsiyasining gullab-yashnashi, iqdisodiyot va madaniyatning o'sishi bilan belgilanadi. Ilk imperiya davrida Rim davlatining asosini rivojlangan shahar jamoalari bilan qadimgi shahar-polislar tashkil etgan. Shu bilan birga davlat o'zida respublika belgilarini saqlab qoladi, shuning uchun davlat tuzumi rasman respublika deb atalib, oliy hukmdor prinsepslar davom etadi. Shuning uchun o'sha davr siyosiy tizimining nomi – prinsipat davri ham deb ataladi. Ammo milodiy III asrda Rim imperiyasida qator siyosiy inqirozlar va fuqarolik urushlari bo'lib o'tadi. Rim yana bir bor halokat va parchalanish yoqasiga kelib qoladi. Bu davrda Yunon-Rim madaniyati va qadimiy shaharlarning rivojlanishi bo'lajak Yevropa sivilizatsiyasiga asos soldi.

5. So'nggi Rim imperiyasi yoki Dominat (milodiy IV-V asrlar). Bu davr quldorlik jamiyatining yemirilishi, uning bag'rida feodalizmning ilk belgilari shakllanishi va G'arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan belgilanadi.

So'nggi imperiya – dominant davri (milodiy IV-V asrlar)da Rim imperiyasi biroz inqirozdan chiqa boshlasa-da, u o'zining avvalgi holini tiklay olmaydi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq tanazzulga yuz tutadi, shaharlar ham qadimiy qiyofasini yo'qotadi. Iqtisodiyotda kichik quldor xo'jaliklar o'rniga yirik mulklar – latifundiya paydo bo'lib, bir vaqtlar erkin dehqonlardan chiqqan qaram dehqonlar – mustamlakalar yerlarida ish olib boradi. Rim imperiyasi mutlaq monarxiyaga aylanadi. Uning boshida dominus, ya'ni xo'jayin deb ataladigan imperator turgan. Yangi din, xristianlik rivojlanib, ommalashadi. Imperator Konstantin 330-yilda imperiya poytaxtini Konstantinopolga ko'chiradi. 395-yilda imperiya G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketdi. Varvarlarning bosqinlari, xalqlarning buyuk ko'chishi imperiyaning tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. G'arbiy imperiya 476-yilgacha davom etadi, sharqiy qismlarda keyinchalik Vizantiya imperiyasi tashkil topadi.

4. Tarix fani rivoji yilning muhim voqealari tavsiflangan annallardan boshlanadi. Mil. avv. taxm. 130-yillarda annallar 80 ta kitobdan iborat bo'lib, "Katta annallar" nomi bilan tayyorlangan.

Ilk tarixchilar annalchilar deb atalgan. Dastlabki yetuk tarixchi Polibiy (mil. avv. II asr) Yunoniston, Makedoniya, Kichik Osiyo, Suriya, Karfagen va Rimning 40 ta kitobdan iborat tarixini yaratdi. Tit Liviyning "Rim tarixi", Yuliy Sezarning Galliya urushlari, fuqarolar urushi haqidagi kitoblari, Sallyustiy, Korneliy Nepot (mil. avv. I asr.) kabi sarkardalarning ko'p sonli biografik asarlari ma'lum. Imperiya davrida Korneliy Tatsit (I-II asr boshlari) badiiy didaktik ruhdagi "Annallar" va "Tarix" (Avgustning vafotidan Domitsianning vafotigacha, 14-yildan 96-yilgacha bo'lgan voqealar) nomli asarlarini yaratdi. II asr boshlarida tarixiy biografik janr rivojlandi. Plutarx, imperator Adrianning kotibi bo'lgan Svetoniylar atoqli kishilarning biografiyalarini yaratdilar. Yunon tarixchilaridan Appian (II asrning 2-yarmi) Rimdagi fuqarolar urushi tarixini, Dion Kassiy qadimgi davrlardan 229-yilgacha bo'lgan Rim tarixini yaratdilar. Antik davrning so'nggi yirik tarixchisi Ammian Martsellin (IV asr) imperator Yulian davri tarixiga oid asarlari bilan mashhur. Imperiyaning so'nggi davrida xristian tarixchiligi vujudga keldi.

Rim tarixini o'rganish uyg'onish davridan lotin va yunon matnlarini to'plash va chop etishdan boshlandi. Antik mualliflarning asosiy asarlari XIV-XVI asrlarda izlab topildi. XVII asr oxirida fransuz olimi Abbat Tillemonning 16 ta tomli "Cherkov tarixi" kitobining 6 ta tomi Rim imperiyasi tarixiga bag'ishlangan. XVIII asrda fransuz olimi Monteske "Rimliklarning buyukligi va halokati to'g'risida mushohadalar" asarini Rim tarixini tahlil qilishga bag'ishladi. Eduard Gibbon (1737-1794-yillar) "Rim imperiyasining tushkunligi va yemirilishi" nomli asarida Rim tarixini Antoninlar davridan Konstantinopolning halokatigacha – 1453-yilgacha tasvirladi. Bu asar juda ko'p manbalar asosida yaratilgan. Navbatdagi asar Bartold Georg Niburning (1776-1831-yillar) 3 ta tomli "Rim tarixi" bo'lib, asar jamoa davridan Puni urushigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Teodor Mommzen (1817-1903-yillar) 3 tomli "Rim tarixi", 5 tomli "Rim davlat huquqi" asarlarini yozdi. Birinchi asarda Rim hayotining barcha tomonlari yoritiladi, asosiy e'tibor siyosiy tarixga qaratiladi. Ikkinchi asarda Rim davlat muassasalari (magistratura, komisiyalar, senat, munisepial kengashlar) tizimli yoritiladi. XX

XX asrlarda E.Meyer, E.Paysa, G.Ferrero va boshqa olimlarning asarlarida Rim tarixining turli muammolari yoritiladi. Bu asarlarda Rim davlati va jamiyati taraqqiyoti masalalari bo'yicha turli konsepsiyalar ilgari suriladi. "Kembrij qadimgi tarixi" ko'p jildli kitobning 7- tomidan Rim tarixi bayon qilinadi.

Aholisi. Italiyada aholining joylashuvi paleolit davriga borib taqaladi. Bu haqda toshdan va shoxdan yasalgan mehnat qurollari topilgan janubiy hududlar, Neandertal odam tipidagi suyaklar aniqlangan Latsiya hududlari dalolat beradi. Odamlar bu paytda termachilik va ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanishgan. Italiya va unga yondosh orollardan neolit davri yodgorliklari ham topilgan. Bu paytda odamlar, yarim yerto'la shaklidagi boshpanalar qurishgan. Vaqt o'tgani sari aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlashgan. Italiyada 3 ming-yillikdan boshlab mis qo'llanila boshlangan va sopol buyumlar ishlab chiqarilgan. Eneolit davriga kelganda esa Bolqon yarimoroli va Ispaniya bilan aloqa boshlangan. Miloddan avvalgi 2 ming-yillikda Italiya aholisi bronzani ishlatishni yaxshi bilishgan. Bronzadan dastlab bezak sifatida foydalanishgan bo'lsa, keyinchalik undan mehnat qurollari ishlab chiqarilgan. Bu paytga kelganda, Shimoliy Italiyaning daryo va ko'llari qirg'oqlarida aholi manzilgohlarni o'zlashtirganlar. Bu davr aholisi shug'ullangan mashg'ulot – terramar dehqonchilik yoki aralash dehqonchilik deb ataladi. "Terra"-italyancha "yog'li yer" degan ma'noni bildiradi. Terramar dehqonlar bronza boltalar, ketmonlardan foydalanilgan. Yerlariga asosan dukkakli ekinlar va bug'doy ekilgan. Yerlarni shudgor qilishda shoxli hayvonlar va cho'chqalardan foydalanilgan. Terramarlar vafot etgan jamoadoshlarini tuproqni qazib, dafn etishgan. Nekropollar aholi yashash joylarining yaqiniga qo'yilgan. O'rta va Janubiy Italiyada terramar madaniyatiga parallel ravishda boshqa bronza madaniyati faoliyat ko'rsatgan. Apennin yarimoroli aholisi egeyliklar bilan aloqada bo'lgan. Miken madaniyatining ta'siri egeyliklarni qurilish asboblari, sopol buyumlar ishlab chiqarishda, diniy urf-odatlarida kuzatiladi. Miloddan avvalgi 2 ming-yillik oxiri va 1 ming-yillik boshlarida Italiyaga temir davri kirib keladi. XIX asr o'rtalarida Boloniyaning Villanova degan hududida yonib ketgan jasadlar

topilgan. Jasadlar bikonik ko'rinishida joylashgan. Dafn jihozlari asosan sopol buyumlardan, bronza va temir buyumlardan iborat bo'lgan. Mazkur tarixiy topilmalar Villan madaniyati nomini olgan. Xuddi shunday ko'rinishdagi madaniyat Janubiy Etruriya, Alban tog'laridan topilgan. Italiyaning shimoli-g'arbiy hududida esa temir davrining boshqa madaniyati – Golaseki, shimoli-sharqiy hududlarda Este madaniyati, Bruttiyada Torre Gali madaniyatlari mavjud bo'lgan. Bu madaniyatlarning rivoji ham turlicha kechgan. Taraqqiyot jarayonlari dengizbo'yi hududlarida tezroq sodir bo'lgan. Xo'jalik munosabatlarida temir qurollarning qo'llanishi iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga olib keldi. O'z navbatida ishlab chiqarishning o'sishi mahsulot ayirboshlashni yuksaltirdi. Xususan, temir bolta va omochlar tomorqalarda piyoz yetishtirishni ko'paytirishga xizmat qiladi. Etruriya va Umbriya hududlaridan Boltiq qahrabosidan tayyorlangan buyumlar topilgan. Ushbu san'at buyumlarida yunon afsonalarining ta'siri seziladi. Bu mahsulotlar Italiyaga savdogarlar orqali kirib kelgan. Aholi birlashmalarida shaharlashish jarayonlari kuzatilgan. 30 ta lotin shaharlari ittifoqining bosh shahri-Alba-Long bo'lgan. Shaharlar aholisi tabaqalangan bo'lib, buni dafn jarayonlarida ko'rish mumkin. Boloniya va Bey hududlaridagi ko'milgan jasadlar orasida asir va qullar tasvirlangan buyumlar topilgan.

Etnik xilma-xillik. Apennin yarimorolining qadimgi aholisi ligurlar yoki ligiylar deb atalgan. Hozirgi zamon olimlari ligurlarni neolit davri aholisi deb ataydilar. Ligur tili lingvistlar tomonidan o'rganilib chiqilgach, til Korsika aholisi, Sardiniyadagi sardlar, Sitsiliyadagi sikanlar bilan aloqador desalar, bir guruh olimlar buni hind-yevropa tillar oilasiga taalluqli deb, hisoblaydilar. Temir davriga kelganda ligurlar Italiyaning shimoli-g'arbiy hududlaridagi boshqa qabilalardan ajralib qoladi va o'zlaridagi mavjud primitiv hayot tarzini davom ettirishgan. Miloddan avvalgi 2 ming yillik boshlarida Italiya aholisining asosiy tarkibi hind-yevropa tilida gapiradigan qabilalardan iborat bo'lgan. Ularning ichida italiklar lotin-sikullik va umbro-oskso-sabellar kabi 2 ta guruhga bo'lingan. Tub joy aholisi italiklar deb atalsada, ular ham kelgindi xalq hisoblanadi. Ushbu xalqlarni Italiyaga qachon va qaysi yo'l bilan kirib kelgani noma'lum. XIX asrda italiklar

Italiyaga shimoldan Alp tog'lari orqali kirib kelganligi to'g'risidagi qarashlar yuzaga keldi. XX asr o'rtalarida esa ularni Apennin yarimoroliga Adriatika dengizidan kirib kelganligi haqidagi xulosaga kelindi.

Italiklardan tashqari 1 ming yillik o'rtalarida Italiyada boshqa hind-yevropa qabilalari, pelasglar, illiriyaliklar, yunonlar kabi xalqlar bo'lishgan. Illiriyaliklar, yunonlar, italiklar Kampaniya, Janubiy Italiya va Sharqiy Sitsiliyada koloniyalarga asos solishdi. Miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalarida Padan tekisligiga asos solgan kelt yoki galliyaliklar Yuqori Dunaydan Alp orqali kirib kelganlar. Miloddan avvalgi IX asrdan Sardiniyaga finikiyaliklar joylashishadi. VI asrda finikiyaliklar G'arbiy Sitsiliyani zabt etishdi. Puna faktoriyalari Tirren dengizi qirg'oqlarida vujudga keldi.

Italiyada VIII-VII asrlarda etrusklar yoki tusklar tilga olinadi. Bu xalqni rimliklar shunday atashgan, yunonlar esa ularni tirrenlar yoki tirsenlar deb nomlashgan. Etrusklar esa o'zlarini ratsenlar deb atashni xush ko'rishgan. Ulardan ko'plab moddiy yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Ular orasida shahar qoldiqlari, nekrapollar, tasviriy san'at namunalari va 11 mingdan ortiq qo'lyozmalarning borligi tahsinga sazovordir. Etrusklarning alifbosi mahalliy xususiyatga ega bo'lib, ko'plab olimlarning ma'lumotlariga ko'ra u g'arbiy yunon yozuvidan o'zlashtirilgan. Shuning uchun ham yozuv yengil o'qiladi va tushunilishi ham oson bo'lgan. Etrusklar tili va uning kelib chiqishi fanda katta muammo hisoblanadi. Ayrim etruskshunos olimlarning ta'kidlashicha, O'rta Yer dengizi va Old Osiyoning qadimgi aholisining hind-yevropa tiligacha bo'lgan tilining qoldiqlari shimoliy Kavkaz



12-rasm. Italiklar yashagan hududlar

tilining bir qismi hisoblanadi. Qolgan olimlar esa xettlar yoki pelasglar tili bilan aloqador degan fikrni ilgari suradilar. Ko'pchiligi esa bu tilni aralash til deb, ham hisoblashadi. Etrusklarning kelib chiqishi borasida ham ko'plab farazlar mavjud. XVII asr boshidan ularning sharqdan kelib chiqqanligi to'g'risidagi qarashlar yetakchilik qila boshladi. Rossiyada XX asr boshlarida V.I.Modestov tomonidan ushbu g'oya yanada mustahkamlanadi. Bu faraz Gerodotning hikoyasiga asoslanib, bunda Gerodot tirrenlarni Lidiyadan kelib chiqqan deb hikoya qiladi. XX asrda Germaniyalik olimlar etrusklarning kelib chiqishida nord xalqlarini asos sifatida ko'rsatadi. XIX-XX asrlarda italyan tarixchilari etrusklarning avtoxtonligi kontseptsiyasini himoya qilishadi. Buning asosida esa Dionis Galikarnasning guvohligi yotadi. Hozirgi kunda M.Pallatino o'z qarashlarida etrusklar Italiya hududlariga yaxlit xalq bo'lib kirib kelmagan, balki Bolqon yarimoroli va Kichik Osiyodan kelib, Italiyadagi turli xalq birlashmalariga qo'shilib, keyin duragay xalq sifatida shakllanishgan, degan farazni ilgari surmoqdalar.

Italiyaning mil. avv. I ming yillikdagi etnik kartasi favqulodda rang-barang bo'lib ketgan. Alp va Apennin qoyalarida, uning shimoli-g'arbiy hududlarida ligurlar yashagan. Padus vohasida mil. avv. V asrdan kelt qabilalari kelib o'rnashadi. Rimliklar ularni gallar deb atashgan, keyinchalik bu hudud Sizalpin Galliyasi deb nomlangan. O'rta Italiyada etrusklar joylashgan hudud – Etruriya, umbrlar joylashgan hudud – Umbriya, pitsenlar o'rnashgan hudud – Pitseniya, lotinlar joylashgan hudud- Latsiniya deb atalgan. Latsiniya atrofida sabinlar,



13-rasm. Etrusklar

ekvlar, germiklar joylashgan bo'lib, ular italyan tilida gaplashgan. Kampaniya aholisi osklarning avzonlar bilan aralashuvi oqibatida vujudga kelgan. Janubiy hududlardagi Lukanin va Bruttin aholisi osklar qabilasining ildizidan tashkil topgan. Apuliya va Kalabrida illiriyaliklardan kelib chiqqan yapiglar asosiy aholi qatlami hisoblangan. Sitsiliya aholisining asosiy tarkibini sikullar tashkil qilgan, ularning tillari lotin tili hamda qadimgi sikan tiliga aloqador bo'lgan. Italiyadagi barcha xalqlar va qabilalar turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimga, siyosiy-madaniy taraqqiyotga ega bo'lganlar. Rimliklarning istilolari oqibatida Italiya romanlashdi, uning turli xil etnik komponentlari yagona Italiya xalqini tashkil etdi. Italiyaliklar lotin tilida gapirishgan. Chunki etrusk va ligur tillari mil. avv. I asrga kelib unutilib ketgan edi.

GLOSSARIY

Italiklar – mil. avv. 2 ming yillikda Apennin yarim oroliga ko'chib kelib o'rnashgan hind-yevropa qabilalari. Etnik va til jihatdan Latsiya va janubiy Etruriya viloyatlarida yashovchi lotin qabilalari va janubiy Italiyagacha bo'lgan yerlarda yashovchi umbr-sabel (yoki oskumbr) qabilalari (bruttiylar, kampaniyaliklar, lukanlar, sabinlar, samnitlar)ga bo'linadi. Italiklar, asosan, chorvachilik, ba'zi qabilalar (lotinlar, osklar) dehqonchilik bilan shug'ullangan, ularda patriarxal tuzum saqlangan. Uzoq davom etgan urushlar natijasida Italiklar rimliklar tomonidan bo'ysundirilgan, qardosh lotin tili italiy tillarini siqib chiqargan. Italiklarning ayrimlarigina Rim fuqarosi huquqlariga ega bo'lgani, ularning aksariyati esa rimliklar tomonidan asoratga solingani sababli, Italiklar tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarib turishgan; ulardan eng yirigi – "Ittifoqchilik urushi" deb atalmish qo'zg'olon (mil. avv. 90-88-yillar) natijasida italik zodagonlarning siyosiy talablari (Rim fuqaroligi huquqiga ega bo'lish) qondirilgan. Shu davrdan boshlab Rim va Italiklar fuqarolari o'rtasidagi farq yo'qolgan. yunonlar Apennin yarim orolida yashovchi barcha aholini shunday deb nomlashgan.

Kapitoliy tepaligi *(Monte Capitolino)* – Rimdagi eng baland tepalik bo'lib, Tibr daryosining janubiy qirg'og'ida, dengiz sathidan 46 metr balandlikda joylashgan. Ushbu tepalikda Senat

va Xalq yig'inining yig'ilishlari o'tkazilgan. Kapitoliy tepaligi Qadimgi Rim qudrati ramzi hisoblangan. Imperiyaning qulashi bilan u o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. O'z davrida patritsiylarning qal'asi, monastiri va cherkovi vazifasini bajarib kelgan. X asrga kelibgina, u yana Rimning ma'muriy kvartali vazifasini bajara boshlagan.

Rimda sabinlarning muqaddas joyi hisoblangan Kvirnal tepaligida qadimgi Kapitoliy (*Capitolium vetus)* ham bo'lgan. Mitridat bilan bo'lgan urushlari sababli Kichik Osiyo jamolarining kirib kelgan davrda eski va yangi Kapitoliy mavjud edi.

Patritsiylar – (patricii, lot. pater-otadan) – qadimgi Rimdagi urug' zodagonlari. Dastlab Patritsiylar deb urug' tashkilotiga kirgan va plebeylarga qarshi turgan Rimning barcha tub aholisi atalgan bo'lsa kerak. An'anaga ko'ra, Patritsiylar dastlab 100, so'ngra 300 ota urug'ini jamlab, Rim xalqini (Populus Romanus Quiritium) tashkil etishgan. Mil. avv. VI asr oxiridan, sinfiy tabaqalanish va davlat shakllanayotgan davrda patritsiylar Rim respublikasining hukmron tabaqasiga aylangan. Ular barcha fuqaro va siyosiy huquqlarga, xususan, oliy magistraturani almashtirish huquqiga ega bo'lishgan. Rimning qadimgi tub aholisi.

Plebeylar (lot. plebeii - oddiy xalq) 1) Qadimgi Rimdagi erkin aholi tabaqalaridan biri. mil. avv. III asr gacha Plebeylar jamoa yeridan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan, faqat chek yerlardan shaxsiy mulk sifatida foydalangan. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Plebeylar mil. avv. V-IV asrlarda davlat lavozimlarini egallashlari va patritsiylar bilan nikoh tuzishlari mumkin bo'lmagan. Plebeylar patritsiylarga qarshi qattiq kurash olib borgan va natijada Rim fuqarolari (grajdanlari) tarkibiga kiritilgan, majburiy qullik bekor qilingan. Plebeylarning bu muvaffaqiyatiga ular tarkibida xizmat qilgan armiya katta yordam ko'rsatdi;

2) o'rta asrda plebeylar atamasi "oddiy xalq" ma'nosida ishlatilgan. Unga sex ustasining qo'l ostidagi shogirdlar, kasodga uchragan hunarmandlar va shahar kambag'allari kirgan. Ular XVI-XVIII asrlardagi inqiloblarda dehqonlar bilan birgalikda faol qatnashgan.

Lotin tili – hind-yevropa tillari oilasining italiy tillari guruhiga mansub; Italiyaning o'rta qismidagi Latsiy viloyatida mil. avv. VIII asrda yashagan lotin qabilasining tili. Lotin tilining asta-sekin Rim hududidan tashqariga tarqalishi va qad. Italiyaning boshqa tillarini siqib chiqarishi mil. avv. IV-III asrlarga to'g'ri keladi. Apennin ya. o. ning lotinlashuvi (yunon tili hukmron bo'lgan Janubiy Italiya va Sitsiliya bundan mustasno) mil. avv. I asrda yakunlanadi. Rim imperiyasining gullab-yashnashi, yangi-yangi mustamlakalarning bosib olinishi natijasida Lotin tili shimoliy Afrika, Ispaniya, Galliya, Germaniya, Dunaybo'yi hududlariga tarqaladi. Lotin tilidagi eng qad. yodgorliklar mil. avv. III asrga mansub.

Annallar (lot.-yillik) – eng muhim voqealar yozib boriladigan-yilnoma. Qad. Rimda bosh pontifik (kohin) buyrug'iga binoan hamma muhim voqealar oq ganch bilan qoplangan taxtachalar ustiga yozib qo'yilar edi. Annallar bizgacha saqlanmagan, ularning mazmuni annalistlar yoki ilk Rim tarixchilari asarlaridan ma'lum. "Annallar" degan nom keyinchalik o'rta asrlar solnomasiga o'tgan. Annallar juda qad. zamonlardan boshlab (mil. avv. taxm. V asr) yozib borilgan.

10-MAVZU. ILK RIM RESPUBLIKASI

Reja:

1. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Italiyada ilk quldorlik jamiyati.
2. Rim fuqarolik jamiyati. Patritsiylar va plebeylar, kliyentlar va patronlar.
3. Davlat tuzilishi.
4. Serviy Tulliy islohoti. Podsho hokimiyatining yemirilishi va Rim.
5. Respublikasining o'rnatilishi. Miloddan avvalgi VI-III asrlarda Rim va Italiya.
6. Plebey va patritsiylar o'rtasidagi kurash sabablari, asosiy bosqichlari va natijalari.
7. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Rimda davlat tuzilishi. Rim tomonidan Italiyaning istilo etilishi.
8. Rim-Italiya ittifoqi.

Miloddan avvalgi V asrda mavjud bo'lgan **ijtimoiy tuzum**, podsholik davrida va undan ham oldin sodir bo'lgan o'zgarishlarni muhim ma'noda o'zida aks ettirishi lozim edi.

Ilk Rim iqtisodiyotida rimlik fuqarolarning aksar qismini kundalik ehtiyojini ta'minlab turgan, uncha katta bo'lmagan xususiy xo'jalikning ustunligiga asoslangan o'troq dehqonchilik asosiy rol o'ynagan. Meros olish huquqi qarindoshlik guruhiga a'zolik (xususan, xonadon boshlig'iga bo'ysunish) bilan chambarchas bog'liq edi. Shaxsning o'z mol-mulkini o'z ixtiyoriga ko'ra vasiyat qilib qoldirish cheklangan. Qonun bilan bo'lmasa ham, odat bo'yicha vasiylik va nikohni tartibga soluvchi qoidalar esa, bevosita mol-mulkni o'tkazish muammolari bilan shartlangan. Kam sonli kishilargina o'zlarining boyliklarini sezilarli darajada oshishiga umid qilishlari mumkin edi.

Ilk Rim respublikasining iqtisodiy jihatdan rivojlanishining nisbatan cheklanganligini sabablaridan biri, uning fuqarolari, hattoki, xohlashgan taqdirda ham, ayrim kishilarni zarurat bo'lganda adolatsiz va nojo'ya murojaatlardan himoya qila

oladigan murakkab davlat appartini yaratish imkoniyatiga ega emasdi. XII jadval Qonunlari bo'yicha bizga ma'lum bo'lgan barcha huquq tizimi shuni ko'rsatadiki, podsholik davridayoq Rim jamiyatida fuqarolar o'z huquqlarini o'zlari himoya qilishlari va hattoki, o'lim bilan jazolanuvchi jinoyatlar haqida so'z ketgan taqdirda ham, adolatsizlik va nohaqlik uchun qasos olish tizimi chuqur ildiz otgan edi. Shunday qilib, Rim fuqarolari nafaqat o'zlarini yashash uchun hayotiy zarur vositalar bilan ta'minlashi, balki o'z huquqlarini mustaqil himoya qilishi zarur bo'lgan.

Shu bilan, Rim fuqarolik jamiyatini ***(lot. civitas)*** o'zida aks ettirardi. A'zolari nazariy jihatdan ma'lum bir umumiy huquqlarga ega bo'lgan. Muayyan umumiy tashkilotlar a'zoligida bo'lgan (masalan, kuriya) va imkon qadar harbiy xizmatni ham o'tagan. Shunga o'xshash jamoaviy his-tuyg'ular, ehtimol yirik aholi punkti va huquqiy, siyosiy va diniy hayotning markazi sifatida shaharning rivojlanishini kuchaytirgan.

Ilk Rim jamiyati uchun o'ziga xos uchta asosiy qon-qarindoshlik guruhi turlariga bo'lingan: 1). Oila *(familia),* tarkibiga oila boshlig'i *(paterfamilias)* va uning qaramog'i ostidagi kishilar, eng avvalo, erkak tarafidagi va ayol tomonidan (agar nikohga kirishish paytida erkak qaramog'iga o'tgan bo'lsa *(in manum))* avlodlar ham kirgan. Rimda "sine manu" *(lot.* "qo'lsiz") deb nomlangan nikoh mavjud bo'lib, unga ko'ra xotin otasining yoki vasiyning ixtiyorida qolgan; 2). Agnat fugshlari, ehtimol, erkak tomonining oltinchi pushtiga qadar tashkil topgan qon-qarindoshlar guruhi; 3). Urug'-aymoqlar (gens), taxminan erkak tarafi bo'yicha qon-qarindoshlik rishtalarida bo'lgan va bitta nom ostidagi bir nechta oilani o'z ichiga olgan.

Davlat tuzumi va siyosiy sohadagi o'zgarishlar. Qadimgi mualliflarning asarlarida, Ilk respublika davrida Rimning davlat tuzumi sohasida yuz bergan o'zgarishlar yaxshigina tasvirlangan. Qariyib, mil. avv. 509-yilda Lutsiy Yuniy Brut tomonidan yetakchilik qilingan to'ntarilish sodir bo'lib, ijtimoiy-siyosiy tuzumda keskin o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Tarkviniy Rimdan quvib chiqarildi. Siyosiy lavozimlarning barchasini monopollashtirib olgan va jamiyatda mustahkam mavqega ega bo'lgan nasliy zodagonlar (patritsiat) davlat boshqaruvini qo'lga

oldilar. Podshoning dunyoviy hokimiyati ikki nafar magistratlarga (avval boshida pretorat, keyinchalik konsullar deb atalgan) berildi. Ular xalq tomonidan saylangan va bir yil muddatga o'z lavozimlarini egallagan. Magistrat etib saylanganlar podshoning diniy sohadagi vakolatlarini meros qilib olmagan. Diniy marosimlar bilan bog'liq sohalarda podsholik majburiyatlarini bajarish uchun umrbod kohinlik lavozimi (rex sacrorum) joriy etilgan. Ammo birmuncha keyinroq oliy pontifik diniy marosimlar ustidan nazoratni o'z qo'liga oldi.

Konsullar Rim harbiy armiyasi ustidan qo'mondonlik ishlarini amalga oshirgan va harbiylar ustidan fuqarolik jinoiy ishlar bo'yicha adolatni ta'minlagan. Bundan tashqari, Senat va komitsiyalarda raislik qilgan. Umuman olganda, davlatning birinchi shaxsi sifatida ishtirok etgan. Avval boshida ular senzni amalga oshirishdi. Ammo mil. avv. 443-yilda bu vazifa saylab qo'yilgan senzorga o'tgan. Senzorlar senatorlarning ro'yxatni tuzish huquqiga ega bo'lgan. Agar ikkala konsul ham Rim chegarasidan tashqarida bo'lganda ichki ishlarni amalga oshirish uchun va shahar himoyasini ta'minlashi zarur bo'lgan prefektni tayinlashgan. Shuningdek, ikki nafar konsul yordamchilari (mil. avv. 421-yildan, to'rt nafar) kichik magistratlar bo'lishgan. Ular kvestor deb nomlangan va asosan moliyaviy ishlar bilan shug'ullangan.

Rimliklar konsulat ta'sis etishni erkinlik o'rnatish deb qarashgan. Shunday bo'lsa-da, respublika davrining boshida aristokratlar davlatda yetakchi mavqeni egallaganligini, konsullar esa, podsho hokimiyatning deyarli barcha to'kinliklaridan foydalanganligi e'tirof etildi. Shu bilan birga ko'rib chiqilayotgan lavozimning kollegial xususiyati bu hokimiyatga muayyan cheklovlarni qo'ydi: ikkala konsul ham teng vakolatlarga ega bo'lib, har biri o'z hamkasbining lavozimini suiste'mol qilishiga yo'l bermasligi mumkin edi.

Favqulodda vaziyatlarda Senatning qaroriga muvofiq konsullardan biri, diktatorning o'zi tomonidan tayinlagan "suvoriylar boshlig'i" (magister eqmtum) diktatorni saylagan. Diktator asta-sekin konsullar hokimiyatiga qo'yilgan cheklovlardan ozod bo'ldi. Biroq u tayinlanganidan keyin olti

oydan kechiktirmasdan o'z lavozimini tark etishi kerak edi. Mil. avv. 451-yilda konsullarning o'rnini detsemvirlar egallashdi. Keyinchalik mil. avv. 444-yildan to mil. avv. 366-yilgacha bo'lgan davrda esa, konsullik hokimiyati noaniq holatda bo'lib, uch, to'rt yoki olti harbiy tribunga o'tkazilgan.

Ba'zi mualliflar, bu "konsullik tribunati" avval boshidan plebeylar uchun ochiq deb hisoblashgan (garchi ularning hech biri mil. avv. 400-yilga qadar lavozimga saylanmagan) va mil. avv. 421-yilda plebeylar tabaqasi kvesturaga qabul qilindi. Shu bilan birga, boshqa barcha magistratlik va ruhoniylik lavozimlari patritsiylarga berilgan mutlaq imtiyozlarni o'zida aks ettirardi. Mil. avv. 366-yilda konsulat qayta tiklanganidagina, konsullardan biri plebeylardan saylanishi kerak degan qoida paydo bo'ldi. Shundan so'ng plebeylar tezda boshqa siyosiy lavozimlarni egallash huquqiga ega bo'lishdi. Garchi siyosiy nuqtai nazardan eng muhim ikkita siyosiy lavozimga, ya'ni pontifikat va avgurat kohinlik mansablariga faqat miloddan avvalgi 300-yildan keyin egallashi mumkin bo'lgan.

Respublika boshqaruv organlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi zudlik bilan siyosiy yoki ma'muriy ehtiyojlarga javob sifatida paydo bo'lganligini aks ettiradi. Bundan tashqari, ilk davrda kiritilgan yangi tartib-qoidalar masalan, diktatura dastlabki chora-tadbirlarning potensial yetishmasligini namoyon qildi. "Konstitutsiya" kabi nazariy fikr-mulohazalar, asosan, so'nggi respublika davrida tug'ildi. Magistratning tuzilishi va shakllarida birinchi navbatda, o'sha davrning siyosiy talablari nuqtai nazaridan hukmron patritsiylar qatlami tomonidan ilgari surilgan.

Bu nasliy zodagonlik so'nggi podshohlar davrida shakllangan bo'lib, iqtisodiy qudratning oshishiga xizmat qildi. Podshohlar yakka o'zlari uddasidan chiqolmagan.

Plebeylar harakati. Plebey tribunlarning vazifalari va vakolatlari respublika davrining oxiriga qadar og'zaki an'analarga bog'liq edi. Bu esa, keyinchalik haqiqiy jarayonlar siyosiy talablarga mos ravishda qayta o'zgarishlarga olib keldi. Qadimgi davr mualliflari, mil. avv. V asrlarda bo'lib o'tgan, plebeylarning ma'lum bir siyosiy huquqlarni qo'lga kiritishda asosiy rol o'ynagan

ikkita hodisani ajratib ko'rsatadi. Birinchi setsessiya[2] (mil. avv. 494-493-yillar) plebsning siyosiy kuch sifatida vujudga kelishi va plebey mansabdor shaxslarning paydo bo'lishi, birinchi va ikkinchi detsemvirat faoliyatida qonunlarni kodifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chiqishlar eng yuqori nuqtaga yetdi. Keyinchalik uning ortidan ikkinchi setsessiya (mil. avv. 449-yilda) yuz berib, kengaytirilgan vakolatlar bilan tribunatning tiklanishini ta'minladi.

Birinchi setsessiya va plebey amaldorlari. Mil.avv. 494-yilda, harbiy xizmatni bajarish va soliqqa tortish yoki, qarz muammolaridan, patritsiylarning o'zboshimchaliklaridan g'azablangan plebeylar, harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortib, Aventinga yoki Muqaddas tog' etaklariga chiqib ketdi. Bu harakat umum plebey xususiyat kasb etdi. Bu harakat otasining qarzi uchun yeridan mahrum bo'lgan va qullik asoratiga tushib qolgan kambag'allar tomonidan hamda hokimiyatni orzu qilib yurgan boy plebeylarning noroziligi ortidan yuzaga keldi. Plebeylarning shaharni tark etishi Rim harbiy qo'shinini ancha zaiflashtirdi. Harbiy qo'shinning zaiflashuvi va plebeylarning isyoni patritsiylarni sarosimaga soldi. Appiy Klavdiy boshchiligidagi patritsiylarning bir qismi plebeylar harakatini shafqatsiz jazolash yo'li bilan bostirishni qo'llab-quvvatladi. Ammo ba'zi zodagonlar Vergiliy, Kvint Serviliy va ayniqsa, Valeriylar vaziyatga real baho berdi va plebeylarni qaytarish yo`llarini qidirdi. Jumladan, Maniy Valeriy (mil. avv. 525-463-yy.) Senatdan qarzdorlarning ahvolini yengillashtirishga erishdi va shu bilan plebeylar Rimga qaytdi. Plebeylarning norozilik g'azabi nafaqat partitsiylarga, balki o'zlariga ham ziyon keltirishini ta'kidlaydi. Ikkinchi naqlning ishonchliligi, plebeylarning qaytib kelishiga ko'proq natija berdi. Shu bilan birga, patritsiylar plebeylar foydasiga yon berishga majbur bo'ldi. Plebeylar xalq tribunlarida lavozimlarini ta'sis etishga muvaffaq bo'ldi. Tribunlarning tayinlanishi va rasman tan olinishi patritsiylar va plebeylar o'rtasidagi kelishuv yoki shartnoma tuzish natijasi orqali amalga oshirildi.

[2] *lot.* "secession", "ketish" degan ma'noni bildiradi.

Dastlab tribunlarning vazifasi, birinchi navbatda, harbiylikka olish va fuqarolik sud ishlarini hal qilish vaqtida, ayrim fuqarolarni magistratlar tomonidan adolatsiz harakatlar yoki ta'qiblardan himoya qilish edi. Keyinchalik tribunning majburiyatiga patritsiylar magistrati va Senatning o'zboshimchaligidan plebeylarni himoya qilish ham kirdi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun ko'rib chiqilayotgan lavozimni barqaror ishlashini va yillik saylovlarni ta'minlash zarur edi. Shu sababli muqaddas qonun (lex sacrata)da komitsiyalarda to'rt yoki besh nafar kishilar faqat plebeylar orasidan saylanishi belgilab qo'yildi. Xalq tribunlari shaxsiy va hokimiyati daxlsiz hisoblandi. Bu Rim qonunchiligiga muvofiq, muqaddas qonunni buzgan kishilar xudoga bag'ishlanishi, ya'ni jazosiz o'ldirilishi mumkinligini bildirardi. Tribun himoyasidan keyin Senat va magistratlarning plebs manfaatlariga qarama-qarshi bo'lgan har qanday qarorlarga taqiq qo'yish, ya'ni veto huquqi berildi.

Bundan tashqari, qadimgi mualliflarning xabarlariga ko'ra, birinchi setsessiya davrida yana ikkita plebey mansablari, ya'ni plebey edil (lot. "aedes" so'zidan ularning nomi kelib chiqqan, "uy" yoki "ibodatxona" ma'nosini beradi)lari paydo bo'ldi. Ko'rib chiqilayogan ushbu lavozim mil. avv. 366-yilda umume'tirof etilib, unga taqlid qilingan holda qo'shimcha ikkita kuriya edillari ta'sis etildi.

Tribunlarda plebslar lavozimlarining joriy etilishi va ularga plebey ibodatxonalari ustidan nazoratni amalga oshirgan yordamchilar *edillarning* qo'shib berilishi, markazi Aventin bo'lgan plebey tashkilotining rasmiylashganligini bildirar edi.

Keyingi yillarda (mil. avv. 450-yilda) yana faqat patritsiylardan iborat bo'lgan yoki uch nafar plebeylar qo'shilgan, ikkinchi detsemvir (lot. decem viri-o'nta erkak)lar kollegiyasi saylandi. Appiy Klavdiy boshchiligidagi detsemvirlar qonun bilan yana ikkita qoidani qo'shib qo'ydi (xususan, patritsiylar va plebeylar o'rtasida nikoh tuzishni man qilingan), shu bilan, o'zlarining cheklanmagan vakolatlarini suiste'mol qildi. O'zboshimchalik bilan davlat boshqaruvi ustidan hokimiyatni o'z qo'liga olib, Senat yoki xalqdan ruxsat so'ramasdan, o'z lavozimida qolish muddatini uzaytirdi. Oxir-oqibat, sabinlar va ekvlar

hujumlarining ta'siri ostida, Senat yig'ilishi chaqirildi. Unda M.Goratsiy va L.Valeriy detsemvirlar rejimiga qat'iy qarshi chiqdi. Ammo uning ag'darilishida hujumlarga qarshi kurashish uchun to'plangan qo'shinlar muhim rol o'ynadi.

Bularning natijasida ikkinchi setsessiya detsemvirlar o'z vakolatlarini kuchaytirib olgan Senatni plebeylar bilan kelishuvga borishga majbur qildi. Bu xususda Valeriy va Goratsiylar muzokaralarni olib bordi. Shundan so'ng, bir qator o'ta muhim qonunlar qabul qilindi. Yangi saylangan tribunlardan biri M. Duiliy, konsullar hokimiyatini tiklaydigan, tribunat faoliyatining uzluksizligini ta'minlovchi va qarorlari ustidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lmagan, kelajakda magistratlarni tayinlashni taqiqlovchi referendumni amalga oshirdi. Shu bilan birga, yangi konsullar Valeriy va Goratsiy, plebey mansabdor shaxslar daxlsizligini kafolatlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Referendum natijalarini barcha fuqarolik jamoalari bajarilishi majburiy etib belgilandi. Bundan tashqari, shu vaqtdan boshlab Senat qarorlari plebey edillari tomonidan Serera ibodatxonasida saqlanishi lozim edi. Mil. avv.448-yilda L.Treboniy tomonidan o'tkazilgan referendumga ko'ra, tribunlar saylovi ularning kollegiyasi butunlay to'liq shakllanmagunga qadar to'xtatilishi mumkin emas edi.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ikkinchi setsessiya XII jadval Qonunlarini tuzuvchilar tomonidan boshlangan, tribunlar rolini tasdiqlash uchun, shuningdek, tribunlar asosiy vazifalarini bajarishga tan olish yoki qayta tasdiqlashga qaratilgan edi. Ko'rib chiqilgan an'ana tribunat ta'sis qilishning taxminiy fikrlardan biri yoki detsemvirlar hokimiyatini bekor qilishga qaratilgan yana bir urinishlar sifatida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Mil. avv.V asrda Rim va uning ittifoqchilari. Haqiqatga yaqin bo'lgan bir qancha qayta tiklash ishlariga ko'ra, lotinlarning qo'zg'oloni ularning Rimni qisqa muddatga qamal qilib, vaqtinchalik uni Latsiyaning boshqa qismidan ajratib qo'ygan va Tarkvinliklarni qulashiga alohida hissa qo'shgan Lars Porsenna kuchlariga qarata tashkil etilgan qarshiligining davomi ekanligini o'zida aks ettiradi. Mag'rur Tarkviniyning Oktan Mamiliy va

Aristodem Kumskiy bilan aloqalari siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan, chunki ularning barchasi podsholik hukumati g'oyasi tarafdorlari bo'libgina qolmay, balki Lars Porsenaning dushmani ham bo'lgan. Aritsiya bo'yidagi jangda Porsenna va Aristodemning Latsiyadan chiqib ketishi rimliklarning avvalgi ta'sirlarini qaytarib olishga urinishlari, lotinlarning esa ularga qarshi qattiq qarshiliklar ko'rsatishiga olib kelgan Rim va boshqa lotinlar o'rtasida mojaroni kelib chiqishiga zamin yaratdi. Bizda Mag'rur Tarkviniy bevosita ushbu voqealarga jalb qilinganligiga shubha qilishga asos yo'q, shunday bo'lsa-da, uning roli ikkinchi darajali bo'lgan deb, ishonch bilan aytish mumkin.

Qadimgi mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, yuqorida tilga olingan mojaroga Regill ko'li yonida mil. avv. 499- yoki 496-yilda diktator Postumiya Alba qo'mondonligida rimliklar g'alabaga erishgan jangda nuqta qo'yilgan. Bu jangdan bir necha yil o'tib (mil. avv. 493-yilda), Rim va lotinlar o'rtasida keyingi avlodlarga "Kassiylar shartnomasi" ("foedus Cassianum") nomi bilan ma'lum bo'lgan kelishuv tuzilgan va keyingi 150-yil davomida tomonlarning rasmiy munosabatlarini aniqlab bergan.

Shartnomaga ko'ra ikki tomon o'rtasida abadiy tinchlik o'rnatilib, agar ikki tomondan biriga hujum bo'lganda yordamga kelishni nazarda tutuvchi harbiy mudofaa ittifoqi tuzilgan. Bundan tashqari, rimliklar va lotinlar bir-birlarini dushmanlariga yordam bermaslik yohud o'z hududlaridan bemalol o'tishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida kelishib olgan edilar. Har qanday harbiy bosqin paytida qo'lga kiritilgan o'lja teng taqsimlanishi kerak bo'lgan. Nihoyat, shartnomaning alohida bo'limi turli shaharlar fuqarolari o'rtasidagi savdo bahslarini bartaraf qilishga bag'ishlangan edi.

Mil. avv. 486-yilda ko'rib chiqilayotgan ittifoqqa gerniklarning jalb etilishi natijasida muhim voqea yuz berdi. Bular Trer (zamonaviy Sakko) daryosi vodiysida strategik muhim hududda o'rnashgan va ehtimol, sabinlar bilan qardosh bo'lgan Italiya xalqi edi. Mil. avv. 486-yilda uchinchi marotaba konsul bo'lgan Spuriy Kassiy tomonidan gerniklar bilan ittifoq kelishuvi imzolangan. Qadimgi mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, gerniklar Kassiy shartnomasi shartlariga ko'ra ittifoq tarkibiga qo'shilganlar.

Sabinlar, ekvlar va volsklarning bosqinchilik hujumlari. Rim monarxiyasining qulashi bilan qisqa muddatli tartibsizliklar va g'alayonlar bo'lib o'tgan. Lekin keyinchalik vaziyat asta-sekinlik bilan iziga tushdi. Latsiyada mil. avv. V asrning 90-yillariga kelib, siyosiy munosabatlarning yangi tuzilishi shakllana boshladi. Rimliklar qaysidir ma'noda podsholar davrida foydalangan mavqelarini qaytarib olgan edilar. Yozma manbalarda mil. avv. 505-500-yillarda sabinlarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlardan so'ng, rimliklar Fiden va Krustumeriyni (shuningdek, ehtimol Fikuleyani ham) bosib olib, Tibr va Anien o'rtasidagi hududlarga siljiy boshlaganligi to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Mil. avv. V asr 90-yillaridagi ma'lum bo'lib qolgan Rim va Lotin ittifoqi o'rtasidagi xarbiy ittifoq kelishuvi tashqi taxdidga javob bo'lgan edi. Lekin mil. avv. V asrning 90-yillarida Latsiyada qaytadan o'rnatilgan barqarorlikka aynan shu paytdan boshlab tarixiy voqealarda faol bo'la boshlagan volsklar va ekvlar bosqini putur yetkazgan. Mil. avv. V asr boshlarida ekvlar Tibur, Ped va Prenestni vayron qilgan, deb taxmin qilishga ishonchli dalillar mavjud.

Shunday qilib, volsk va ekvlar hujumlardan Rim hududini dushman bosqinining yomon oqibatlaridan himoya qilgan lotin shaharlari katta talafot ko'rgan. Sabinlarning bosqini esa bevosita Rimning o'ziga qaratilgan edi. Sabinlar va rimliklar o'rtasidagi jang asrlar davomida bo'lib o'tdi. Oxir-oqibat, Rim tarixidagi birinchi voqea Remning vafotidan so'ng, sabin ayollarining o'g'irlanishi bo'ldi, shundan so'ng yangi oila qurgan erkaklar o'z ayollarining otalariga qarshilik ko'rsatishga majbur bo'lganlar. Mazkur afsona birmuncha dramatik shaklda rimliklarning ijtimoiy ongida, ularning tomirida lotinlar va sabinlar qoni aralashib ketganligi haqidagi tasavvur chuqur o'rnashib qolganligini ko'rsatadi. Ikki rimlik podsho Numa Pompiliy va Ank Martsiylar sabinlardan bo'lganligi to'g'risidagi dalil, shuningdek, Abadiy Shahar aholisiga sabinlar bilan o'zaro munosabatlar nafaqat qurolli to'qnashuvlar, balki tinch hamkorlik bilan ham o'ziga xos xususiyat kasb etganligini ta'kidlashgan. Rimning mashhur oilalarining aksariyati Valeriy va Postumiylar ham o'zlarining kelib chiqishini sabinlarga bog'lagan, shubhasiz, haqiqiy bo'lgan

voqeaga ko'ra, mil. avv. 504-yilda Klavdiylarning Rimga ko'chib o'tishi, integratsiya jarayonlari respublika davrida ham davom etganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, mil. avv. V asr o'rtalariga qadar rimliklar va sabinlar o'rtasida vaqti-vaqti bilan harbiy mojarolar ham yuzaga kelib turgan.

Mil. avv. V asr boshlarida tog'lik qabilalar bilan bo'lgan janglar rimliklar va lotinlar iqtisodiy, madaniy hayotida halokatli oqibatlarga sabab bo'lgan. Mil. avv. 490-488-yillarda Latsiya hududiga rimlik qochqin Gney Marsiy Koriolan boshchiligida volsklar otryadi ikki marotaba bostirib kirib, ko'plab odamlarni qirib tashladi va shahar, qishloqlarni vayron qildi. Shaharlarni birin-ketin egallab olgan Koriolan qo'shinlari Rim atrofidagi Kluiliev xandagigacha yetib bordilar. An'anaviy hikoyalarga ko'ra, T.Liviy birmuncha farqlanuvchi va aniq bo'lmagan taxminni keltirib o'tadi, unga ko'ra, shahar Koriolanni chekinishga ko'ndirgan xotini va onasining duosi bilan saqlanib qolgan. Koriolan bilan bog'liq bo'lgan voqea qismi bir necha asrlar davomida she'r va qo'shiqlarda aks etgan xalq afsonasini o'zida mujassam etgan.

Mil. avv. V asr davomida volsklar bilan jang ma'lum vaqtdagi tanaffuslar bilan olib borilgan. Ularning lotin yerlariga hujumi navbatma-navbat yoki ekvlar bosqini bilan bir paytga to'g'ri kelgan. Taxminan mil. avv. 494-yildan to 455-yilgacha rimliklar ana shu ikki xalq bilan deyarli har yili jang olib borganlar. Mil. avv. V asr o'rtalariga kelib mazkur yodnomalar ahyon-ahyonda bo'ladi. Bizga ma'lum bo'lishicha vaqti-vaqti bilan ikki xalqning qo'shinlari Rim darvozasigacha yetib borgan bo'lsalar-da, Koriolan boshchiligidagi volsklarning ajoyib muvaffaqiyatlari boshqa hech qachon takrorlanmagan.

Mil. avv. 458-yilda Rimda navbatdagi favqulodda holat yuzaga kelganida Kvinksiy Sinsinnat shaharga chaqirib olinishi va diktatorlik lavozimini qabul qilishi haqidagi tarixiy voqea, ekvlar bilan jangning birmuncha mashhur epizodlaridan bo'ldi. Sinsinnat 15 kun ichida qo'shin yig'ib, ekvlarga qarshi chiqadi (Algid yonida konsul armiyasini qamal qilib turganlar) va ularni mag'lub etib, g'alabaga erishadi va o'z vakolatlarini o'rnatib, yana yurishlarga qaytadi. Ammo shuni tan olishimiz kerakki, bunday ibratli hikoya

Rim elitasining mil. avv. V asrdagi harbiy tarixiga qaraganda, so'nggi davrlardagi axloqiy mafkurasi haqida ko'proq ma'lumot beradi. Agar haqiqatdan ham Sinsinnat tarixiy shaxs bo'lgan bo'lsa, mil. avv. 455-yilda gorslarning qaytadan Rim yerlariga bostirib kirganliklari, mil. avv. 458-yilda ekvlarning mag'lubiyatga uchrashi ba'zi shubhalarni keltirib chiqaradi.

Boshqa tomondan, mil. avv. 431-yilda Algidadagi jangda rimliklarning ekvlar va volsklar ustidan qozongan yirik g'alabasi haqidagi hikoyani tarixiy haqiqat deb hisoblashga katta asos bor.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, mil. avv. V asrda markaziy Italiya amaliyotida harbiy to'qnashuvlar va uyushgan bosqinchilik o'rtasida hech qanday farq bo'lmagan. Tog' qabilalarining tekisliklardagi gullab-yashnagan va yetarlicha rivojlangan qabilalarga bosqinchilik yurishlari bo'lgan.

Mil. avv. 390-yil yozida yana bir tashqi dushman keltlar to'dasi Pad daryosi vodiysidan (zamonaviy Po) Apeninni kesib o'tib, shimoliy Etruriyaga kirib keldilar. Valdikyana daryosi bo'ylab janubga siljib, ular qisqa muddatga Kluziyada to'xtadilar, so'ng Tibr vodiysiga bostirib kirib, Rimga ko'z tikdilar. Rimliklar zudlik bilan qo'shin to'pladi va bosqinchilarga qarshi chiqdi, lekin 18-iyulda (shu ondan boshlab, ushbu sana rimliklar uchun baxtsiz sanaladi) Alliya daryosida yer bilan yakson bo'ldilar. Tirik qolganlar Rimni keltlar ixtiyoriga tashlab Veyyaga qochdilar, himoyasiz shaharga bostirib kirgan keltlar shaharni taladilar. Kichik bir garnizon saqlangan Kapitoliyadan tashqari Rim butunlay vayron bo'lgan. So'ngra galliklar yoki rimliklar ularga o'lpon to'laganliklari uchun, yoxud Kamill tomonidan Alliyadagi jangda tirik qolganlardan tashkil topgan Rim qo'shinlari tomonidan quvib chiqarilganligi uchunmi, hududdan chiqib ketganlar.

Qadimgi mualliflarning ma'lumot berishicha, oltinni o'lchash paytida rimliklar tarozini noto'g'riligidan arz qilganlar, Brenn ularga qilichini tashlab shunday xitob qilgan: "G'alaba qozonganlarga alamlar bo'lsin" ("Vae" victis") bu voqea barcha Rim qahramonlari orasida hech kim bo'lmagan Kamillni aytmaganda, gallar dohiysini abadiylashtirib yubordi.

Bu asosiy tarkibiy qismlar Rim tarixining eng dramatik epizodlarini tashkil etadi. Bularning barchasini bo'lib o'tganligi shubha uyg'otmaydi. Rimning talanishi mil. avv. IV asr mualliflari, faylasuf Aristotel va tarixchi Feopompalarning asarlarida tilga olinadi, bu yunonlarning ongida o'rnashib qolgan Rim tarixining dastlabki voqealari edi. Polibiyning ta'kidlashicha, Rim Antalkidlar bilan tinchlik sulhini imzolagan yilning o'zida vayron qilgan va mil. avv. 387- yoki 386-yillarda Dionisiy I Sirakuziy Reshini qamal qilgan.

Italiyada Rim ekspansiyasining boshlanishi. Antik davr an'analariga ko'ra, Rim gallardan dahshatli tarzda azob chekdi, lekin keyinchalik mo'jizaviy tarzda bu halokatlarni yengib chiqdi. Qadimgi mualliflar bizni shu narsaga ishontiradilarki, ittifoqchilari aloqani uzgan va ochiqdan-ochiq qo'zg'olon ko'targan bo'lsalar-da, garchi shahar xarobaga aylangan, inson resurslari o'ta kamayib ketgan bo'lsa ham, rimliklar darhol avvalgi holatlarini qaytarib olishga erishdilar. Bir-yilning o'zidayoq gallar ketgach Rim butunlay o'zini tiklab oldi va barcha dushmanlari ustidan ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritdilar. Bu yutuqlar Kamill nomi bilan bog'lanib, unga Shaharning ikkinchi asoschisi sifatida qaralgan. Mil. avv. IV asr oxirida Rim markaziy Italiyaning yirik shahar manzilgohi bo'lgan.

Mil. avv. IV asrning 90-50-yillarda Rim qudratining ortishi rimliklarning harbiy mavaffaqiyatidan darak beradi. Uni qadimgi mualliflar gall bosqinidan keyingi-yillar bilan bog'laydilar.

Gall bosqinidan keyingi-yillarda rimliklar yangi hududlarda o'z hukumatlarini mustahkamlash bilan shug'ullandilar. Mil. avv. 389- va 386-yillarda shimol tomondan etrusklarning hujumi Kamill tomonidan bartaraf etildi, shundan so'ng Rimning shimoliy chegaralarida bo'lgan tahdidlar tarix sahifalaridan 30-yillar davomida g'oyib bo'ladi.

Ko'rilayotgan davr uchun janubiy qo'shnilarining anchagina kuchsizligi ularga qulay sharoit tug'dirgan. Mil. avv. V asrda Rim o'zining ittifoqchilari lotinlar va gerniklar ustidan ustunlikka erishgan, taxminan mil. avv. 400-yilda esa volsk va ekvlarni butunlay tor-mor etgan. Ushbu xalqlarga qarshi mil. avv. V asr davomida olib borilgan harbiy harakatlar rimliklarga Trerning

yuqori oqimi va Pomptin viloyatida hukmronlik qilishni ta'minladi.

Gallarning ketganidan bir yil o'tib Kamill "Metsiyada" ("ad Maecium"), deb nomlanuvchi, Lanuviyadan janubda joylashgan Antsiyalik volsklarni mag'lub etdi. Mil. avv. 388-yilda harbiy tribunlar "qo'shinni ekvlar yurtiga olib keldilar (o'zlarini mag'lub bo'lganligini tan olib, urush uchun emas, balki nafrat tufayli, ularning mamlakatini vayron qilish va yangi g'alamis fikrlar uchun kuch qoldirmaslik maqsadida)". Bundan so'ng ekvlar haqidagi ma'lumotlar mil. avv. 304-yilgacha bo'lgan muvaffaqiyatsiz urushlarigacha bizga ma'lum bo'lgan manbalarda uchramaydi.

Qadimgi mualliflarning ma'lumotiga ko'ra, mil. avv. 376-yildan 363-yilgacha bo'lgan davr deyarli barqaror bo'lgan.

Mil. avv. 362-yilda harbiy harakatlarning yangi to'lqini shahar tashqi siyosatida yangi bosqichni ochib berdi. Rimliklarning o'n yillik muvaffaqiyatli va qat'iy g'alabalari Rimning qudrati ostida yangi zamin yaratilishga olib keldi.

Rimning yangi hujumlari gerniklarga qarshi kurash bilan boshlandi. Dastlabki jang muvaffaqiyatsiz bo'lgan bo'lsa-da, mil. avv. 361-yilda rimliklar Farentinni bosib oldilar va so'ngra mil. avv. 360- va 358-yillarda bir necha g'alabalarga erishdilar.

Latsiyaga yana tashqi tahdidlar boshlangan paytda rimliklar lotin va gerniklar bilan ittifoq munosabatlarini yangiladilar.

Mil. avv. 358-yilda Tarkviniylik etrusklar bilan rimliklar o'rtasida yana yangi urush boshlanib, bu urushga mil. avv. 357-yilda Faleriya, 353-yilda esa Sere qo'shildi. Liviy ma'lumotiga ko'ra mil. avv. 356-yilda diktator G.Martsiya Rutil butun etrusk xalqi ustidan g'alaba qozongan. Tarixchi Tit Liviyning qisqa hikoyasiga ko'ra, Sere shahri bilan (Mil. avv. 353-yil) yuz yillik va Tarkviniya va Faleriya bilan (Mil. avv. 351-yil) qirq yillik tinchlik shartnomasi bo'ldi.

Mil. avv. 350- va 349-yillarda gallar Latsiyaga yana hujum qildilar. Bunda mil. avv. 349-yilda lotin ittifoqi armiyaning birlashishiga o'z qo'shinlarini qo'yishdan bosh tortdi, qirg'oqni esa yunon floti bosib oldi. Bu qiyinchiliklarga qaramasdan rimliklar gallarni tor-mor eta oldilar, yunon floti esa oxir-oqibat chekindi.

Mil. avv. IV asrda Rimda iqtisodiy va ijtimoiy hayot. Gallar hujumidan so'nggi qayta tiklanish va kengayish Rimning ijtimoiy tuzilishi va siyosiy tashkilotlardagi o'zgarishlar davri bo'ldi. Bizga XII jadval Qonunlari va boshqa ilk manbalardan ma'lum bo'lgan arxaik jamiyat mil. avv. V asrda o'tish davrini boshidan kechirgan. Gallar bosqini rimliklarning ta'sirini Latsiyada birmuncha to'xtatib qo'ydi, lekin boshqa tomondan kambag'al rimliklar duch kelgan muammolarni kuchayishiga va ichki o'zgarishlarni tezlashishi va ijtimoiy keskinlikni o'sishiga olib keldi.

Mil. avv. IV asr boshlarida Rimda faol va to'la shakllangan plebeylar tashkiloti mavjud bo'lib, u saylangan tribun yetakchilari orqali, shu jumladan, jamoat yerlaridan foydalanish kabi bir qator muammolarni hal qilishga erishdilar.

Ushbu masalani hal qilishda plebeylar ikki tomonlama yondashuvdan foydalanganlar. Birinchidan, ular doimo qo'lga kiritilgan yerlarni davlatning xususiy mulki yoki boy yer egalari tomonidan egallab olinishini emas, balki jon boshiga (assignatio viritana) xususiy mulk sifatida berilishini talab qilganlar.

Tabiiyki, plebeylarning yerlarni jon boshiga taqsimlanishi haqidagi da'volari Rim respublikasi yerlari (ager publicus) tarkibiga kirgan yangi yerlardan foyda olishni ko'zlagan patritsiylar tomonidan qarshilikka uchradi.

Plebeylarning ikkinchi hujum chizig'i Rim respublikasi yerlari (ager publicus) maydonlarini qonuniy cheklanishi va undan har bir oilaboshi foydalanishi va u yerda ekin ekishi mumkin bo'lishi edi. Bu mil. avv. 367-yilda qattiq qarshiliklarga qaramasdan qabul qilingan Litsiniy va Sekstiy qonunlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri edi. Ushbu huquqiy hujjatlarning maqsadi jamoa yerlaridan kambag'al plebeylarning ham foydalana olishiga ma'lum bir imkoniyat berish edi.

Garchi Ilk Rim respublikasi davrida qul mehnati yoki mehnatning yollanma shakli mavjud bo'lgan bo'lsa-da, qullar va yollanma ishchilar ishchi kuchining ozchilik qisminigina tashkil etganlar. Aksariyat hollarda boy zamindorlar o'zlariga qaram bo'lganlar mehnatidan foydalanganlar. Ba'zan ular o'z homiylari orqali nazorat qilinuvchi, yerlarni imtiyozli tarzda ijaraga olgan kliyentlar bo'lgan, biroq ko'p hollarda bu odamlar qarzdorlar yoki

ularga tutqunlikka tushganlari ham bo'lgan. Natijada ko'plab dehqonlar eng kam yashash darajasidan ko'tarila olmaganlar va patritsiylar va ularning kliyentlari tomonidan ekspluatatsiya qilinib, o'z hissalaridan ortig'ini ololmaganlar.

Aynan ishning shunday holati mil. avv. IV asr boshlarida inqirozga sabab bo'lgan.

Qarz masalasi, hatto, Litsiniy va Sekstiyning qarorlari atrofida olib borilgan kurashda ham qat'iy turgan. Ular tomonidan taklif etilgan qonunlarda, barchasini e'tiborga olgan holda to'lanmagan qarzning foizi asosiy miqdordan chegirib tashlanishi va qoldig'i esa uch-yil davomida teng ulushlarda to'lab borilishi ko'zda tutilgan edi. Keyingi mil. avv. 357-347-yillarda yana bir qator qonuniy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular foiz stavkalarini cheklagan va qarzni to'lash shartlarini yengillashtirgan.

Ushbu xilma-xil ma'lumotlardagi ba'zi tafsilotlar noto'g'ridek yoki tushunarsiz bo'lib tuyulishi mumkin, lekin umuman yoki butunlay olganda ko'rib chiqilayotgan davrdagi ko'p qonunlarning maqsadi qarz yukini yengillashtirgan. Qullik, ehtimol, Gay Peteliy qonuni rasman qabul qilingunga qadar, mil. avv. 326-yilgacha mavjud bo'lgan (Varron bu qonunni Peteliy diktator bo'lgan mil. avv. 313-yilga tegishli deb aytadi).

Gay Peteliy qonuni (Lex Poetelia) juda uzoq davom etgan o'zgarishlar jaryoniga nuqta qo'ygan. Bu qonunni qabul qilinishi bilan plebeylarning yerga bo'lgan ehtiyoji yangi yerlarni egallash va bosib olish orqali qondirilgan. Muvaffaqiyatli urushlar orqali ta'minlangan iqtisodiy sharoitlarning yaxshilanishi, yerlarni keng miqyosda tarqatilishi va kolonizatsiya dasturlari asta-sekinlik bilan plebeylarning qullikka tushib qolishdan ozod bo'lishini anglatardi. Ikkinchi Samniy urushlari boshlanishida (mil. avv. 304-327-yillarda) qullik instituti (nexum) o'tgan asrning sarqitiga aylangan deyish mumkin. Lekin uning yo'q bo'lib ketishi Respublika davrigacha davom etgan asosiy ijtimoiy zulm sifatida qolgan qarz masalasiga nuqta qo'ymagan. Peteliy qonuni mehnat shartnomasi shakli sifatida bo'lgan "nexum" (shahsiy erkinligini garovga qo'yish)ni bekor qilib, shu paytdan boshlab qullikka faqat o'z majburiyatlarini bajarmagan va sudning qarori bo'yicha qarzdorlar tushganlar.

Oxir-oqibat mil. avv. IV asrda qullik qarzining pasayishi va bekor qilinishi, barchasini inobatga olganda boylarning katta yerlarida mehnat qilish uchun ishchi qo'lining muqobil manbalariga talabni paydo qildi. Bu talab qullarni olib kelish bilan qondirildi. Mil. avv. 357-yilda qabul qilingan manumissiya (odam tashish) to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi mil. avv. IV asrda qullashtirishning ahamiyatini ortishidan guvohlik beradi. Mazkur qonun manumissiya tez tez uchraganligini va o'z navbatida katta miqdordagi qullar sonining oshganligini anglatadi. Asr so'nggida ozod qilinganlar shu qadar ko'p va e'tiborga ega edilarki, ularning maqomi masalasi muhim siyosiy masalaga aylana boshladi. Samniy urushlari boshidanoq manbalarda mahbuslarning ommaviy ravishda qullikka aylantirilishi haqida muntazam ravishda ma'lumotlar paydo bo'la boshlaydi, bu holat shuni ko'rsatadiki, o'sha paytda Rim iqtisodiyoti ko'p jihatdan qullar mehnatiga bog'liq edi.

Rim Gannibal urushidan keyingina quldorlik jamiyatiga aylangan degan tasavvurni qabul qilib bo'lmaydi, aslida ko'rib chiqilayotgan jarayon mil. avv. IV asrda Rim imperializmi hodisasi bilan deyarli bir vaqtda yetarlicha kirib kelgan. Olib borilgan urushlar va yurishlar qullikni paydo qildi va ularga bo'lgan talabni qondirdi. Ta'kidlash kerakki, Rim fuqarolari bo'lgan dehqonlarning ozod qilinishi va qullik mehnatidan foydalanishning kengayishi Rim davlatiga katta yoshdagi erkaklarning uzoq muddatli xarbiy xizmatga yuborishga va shunga mos ravishda imperializm va o'zga hududlarni bosib olish yo'lidan borishga imkon berdi.

Konstitutsion islohotlar va nobilitet (zodagonlar)ning yuksalishi. Ikki avlod hukmronligi davomida Rim Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishi tub o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bu jarayon davlat tuzimini isloh qilish va hukmron sinfning tarkibi va xarakteridagi chuqur o'zgarishlarga to'g'ri keldi. Bularning barchasi mil. avv. 367-yilda qonunlar qabul qilinishidan oldin hokimiyat uchun kurashning natijasi edi.

Umuman olganda, Rim siyosiy institutlarining rivojlanishi haqida boshqa sohalarga qaraganda ikki sababga ko'ra ko'proq bilamiz: birinchidan, aynan siyosiy masalalar shu sohaga qiziqish

bildirgan o'zlari hukmron sinflarga tegishli bo'lgan Rim tarixchilari qadimshunoslarini ko'proq qiziqtirgan, ikkinchidan esa, siyosiy o'zgarishlar natijalarini fast(konsullar nimi keltirilgan marmar tosh)lar va boshqa nisbatan ishonchli bo'lgan manbalarga tayangan holda aniqlsh mumkin.

Liviyga ko'ra, mil. avv. 376-yilda plebey tribunlari G.Litsiniy va L.Sekstiy Lateranlar uchta qonun loyihasini (rogatsiyalar) ilgari surdilar. Ulardan ikkitasi yerlar va qarzlarga daxldor bo'lib, uchinchisi esa plebeylarning konsullik hokimiyatidan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq edi. Taklif qilingan qonun loyihalariga veto qo'ygan patritsiylar va o'z hamkasblarining qarshiligiga uchragan bo'lsalar-da, Litsiniy va Sekstiylar o'z talablaridan og'ishmay davom etdilar. Mojaro o'n yil davom etib, (mil. avv. 376-367-y.) shu yillar davomida ikki islohotchi o'z lavozimiga doimiy qaytadan saylandi. Ularning yuqoridagi yodga olingan vetoga javobi konsullik tribunasi sayloviga qarshilik ko'rsatishi bo'ldi, natijada besh-yil (mil. avv. 375-371-y.) davomida davlat oliy magistratlarsiz va barcha jamoat ishlari e'tiborsiz qoldirilib, "hokimiyatsizlikning" davomiyligi bir-yilgacha qisqartirildi. Ko'rib chiqilayotgan inqiroz mil. avv. 367-yilgacha davom etib, bunda plebeylar tomonidan va nihoyat qabul qilingan hamda Kamill tomonidan murosa ko'rinishida ishlab chiqilgan patritsiylarning rogatsiyasi tan olindi.

Mil. avv. 367-yilda konsulat oliy magistratura sifatida qayta tiklanib, plebeylar uchun ochiq bo'lgan. Bundan tashqari yangi lavozim – pretura tashkil topdi. Garchi pretor imperiyaga ega bo'lsada zarur hollarda qo'shinga boshchilik qilishi mumkin bo'lgan va uning asosiy vazifalari huquqiy sohaga qaratilgan edi. Avvalroq faqat patritsiylargina pretorlar bo'lgan bo'lsa, mil. avv. 337-yilda bu lavozimga birinchi marta plebey saylangan. Yana bir yangilik bu ikki "kurul" edillari bo'lib, bu edillar plebslarning allaqachon mavjud bo'lgan namunasi edi. Dastlab, kurul ediliteti faqat patritsiylar uchun bo'lgan, keyinchalik fursatda plebeylar uchun ham ochiq bo'ldi, bu lavozimni patritsiylar bilan almashingan holda har ikki yilda bir marta egallaganlar. Va nihoyat, ikki kishidan iborat (duumviri sacris faciundis) muqaddas marosimlarni o'tkazuvchi kohinlar kollegiyasi

kengaytirildi va uning tarkibiga o'n kishi (decemviri) kirdi, ulardan beshtasi plebeylar va beshtasi patritsiylar edi.

Shubhasiz, bu chora-tadbirlarning eng muhimi konsulatga tegishli bo'ldi. Ko'rilayotgan islohotlarning zamini unchalik aniq emas. Ma'lumki, mil. avv. 444-yilda Rimda ma'lum yillarda konsullar o'rniga uch yoki ko'proq "konsullik hukumatidan harbiy tribun" (tribuni militum consulari potestate)larni saylash haqida qaror qabul qilindi. Eng favqulodda vaziyatlarda rimliklar oldingidek diktatorlarni tayinlaganlar.

Rim xalq yig'inlarida qarorlarni qo'l ko'tarish bilan emas, balki guruhda ovoz berish kabi murakkab tizim yordamida qabul qilganlar. Konsullarni saylashda har bir ovoz berayotgan birlik (bu holatda senturiy) senturiyning katta qismi ilgari surgan ikki nom va ikki nomzod g'olib bo'ladilar. Ushbu tizimning juda qiziq tomoni shundaki, seturiylar o'z ovozlari va natijalarini navbat bilan e'lon qiladilar, nomzod to'qsonta ovoz olishi bilan saylangan deb e'lon qilinganligidir. Qachon ikkinchi nomzod, 97 ta ovozni yig'sa, saylovlar o'tdi deb hisoblangan va saylovchilar uylariga tarqalganlar. Har bir senturiya ikki ovozga ega bo'lgani uchun, xalq zarur to'qson yetti ovozni ikki kishidan ko'proq odam olishi mumkin bo'lgan barcha nomzodlar orasidan erkin saylash imkoniyatiga ega edi.

Ehtimol, ancha oldingi davrlarda konsullik saylovlarini o'tkazgan magistrat, har bir senturiydan patritsiy va plebeyning nomini ko'rsatishni so'ragan. Shu bilan, bir xil nomzodlik guruhi doirasida bo'lib o'tgan konsullik saylovlarida ikki o'rin uchun raqobat qilishni nazarda tutmagan, bunda patritsiy nomzodi uchun bir o'ringa, plebey esa boshqa bir o'rin uchun kurash olib borgan.

Liniy Sekstiy qonunlari (mil. avv. 367-y.) Rim davlatining siyosiy strukturasini tubdan o'zgarishiga olib keldi. Plebeylar kamsitilishining barcha shakllariga nuqta qo'yildi, ko'rib chiqilayotgan islohotlar patritsiy bo'lmagan Rim fuqarolarining plebslar nomi ostida birlashishga olib keldi. Buning natijasida plebeylik harakati o'ziga xosligini yo'qotib, alohida uyushma sifatidagi mavjudligi tugatildi. Uning institutlari davlat tuzilmasi tarkibiga kiritildi. Tribunat va edilitet o'z mohiyatiga ko'ra barcha

uchun ochiq bo'lgan kichik magistraturalarga aylantirildi. Bu lavozimni patritsiylardan tashqari, konsullikni egallashgacha boradigan bosqichda asosiy tayanch deb hisoblagan yosh nobillar ham egallay boshladilar. Ko'rib chiqilayotgan plebey lavozimlari kurul magistratura huquqidan mahrum bo'lmaganligi tufayli, uni egallagan odamlar o'zlarini plebeylar keng ommasi manfaatlarini ilgari surish majburiyatiga ega emas deb hisoblaganlar. Plebey yig'ilishlari (concilium plebis) xalq yig'inlariga (comitia populi) tenglashtirilgan, ularning qarorlari esa qonunlar (leges) bilan teng kuchga ega bo'lgan. Bu kabi atamalar nafaqat qadimgi mualliflar asarlarida, balki So'nggi Respublika davri rasmiy xujjatlarida ham qo'llanilgan.

Mil. avv. 367-yildagi konstitutsiyaviy islohotlarning maqsadi plebeylarga qo'yilgan siyosiy cheklashlarni tezroq bartaraf etish, patritsiylar foydalangan imtiyozlarni bekor qilish edi. Haqiqatdan ham, patritsiylar o'zlarining nufuzini va ko'plab siyosiy imtiyozlarini saqlab qolgan bo'lsalarda, so'nggi ikki yuz-yil davomida ular asta-sekinlik bilan yemirilgan, mazkur jarayon imtiyozlarning to'liq tugatilishigacha yetib bormagan. Bundan tashqari, shu narsani qayd etish lozimki, Mil. avv. II asrgacha konsullik hukumatiga har yili faqat oz sonli patritsiy urug'lari vakillarigina talabgorlik qila olganlar, xolos. Shu bilan birga, Mil. avv. 367-yildan keyin esa asosiy magistraturada ularning monopoliyasiga zudlik bilan barham berildi.

Rimliklar xudolarni diniy institutlarda monopoliya va asosiy kohinlik lavozimlarini egallagan patritsiylar bilan yaqin aloqada deb hisoblaganlar. Mil. avv. 367-yildagi o'zgarishlar muqaddas amallarni amalga oshiradigan kohinlar jamoasi monopoliyasini tugatishga dastlabki urinish bo'ldi. Ushbu ko'rilayotgan yo'nalishdagi ikkinchi va hal qiluvchi qadam mil. avv. 300-yilda hukumatni ikkiga bo'linishi asosida plebeylarga asosiy kohinlik kollegiyalarga kirish imkonini bergan plebistsitning (Lex Ogulnia) qabul qilinishi bo'ldi. Mavjud bo'lgan to'rt pontifikka to'rt nafar, to'rt avgurga esa besh nafar plebey qo'shildi. Bunday kohinlik lavozimlari umrbod bo'lib, biron bir kohinning vafoti bilan bog'liq holda bo'sh o'rin bo'lgan taqdirda aynan o'sha qatlamdan uning vorisi o'rnini egallagan. Shunday qilib, pontifik va avgurlar

kollegiyasida plebey va patritsiylarning mutanosibligi ("4 ga 4" va "5 ga 4" mutanosibligida) respublika davri oxirigacha doimiy ravishda saqlanib qoldi. So'nggi Respublika davrida esa patritsiylardan istisno tarzda saliylar tipiga xos arxaik xarakterdagi ikkinchi darajali kohinlar jamoasi jamlandi.

Shunday qilib, Uchinchi Samniy urushidan so'ng (mil. avv. 290-yil) Yuliy Sezar diktaturasigacha nobilitet vakillari, erishgan martabasiga ko'ra bir marta bo'lsada konsullik lavozimini egallashga muvaffaq bo'lganlar. Konsullik lavozimini qaytadan egallash bu davrda juda kam hollarda uchragan, mil. avv. 151-yilda esa maxsus qonun bilan umuman taqiqlab qo'yilgan. Ichki nizolar va favqulodda harbiy xavflar bo'lgan paytlarda (Gannibal bilan urush, kimvrlar bosqini, Sinna hukmronligi) ushbu umumiy qoidalar istisno qilingan. Shunday qilib, mil. avv. 366-yildan to 290-yilgacha bo'lgan davrda lavozimlarni egallash tartibi, Respublika faoliyatining so'nggi ikki yarim asr mobaynida ustun bo'lgan tartibidan keskin farq qilgan.

Mil. avv. 287-yildan 133-yilgacha "klassik" Respublikada davlat boshqaruvi Senat oligarxlari qo'lida bo'lgan. Mil. avv. III asr oxirida Senat davlat boshqaruvining barcha jihatlarini nazorat qilgan va barcha magistratlarni (o'zlari senator bo'lgan) o'z hukmiga bo'ysundirgan. Vaqti-vaqti bilan va qisqa muddatlarga ba'zi senatorlar yuqori lavozimlarni egallashi oddiy holat edi. Senat qarorlari va ayniqsa uning yetakchi a'zolari bo'lgan konsullar, ma'lum bir davrda magistrat hukumatini amalga oshirgan ba'zi senatorlarni nazorat qilishga yordam berganlar.

Mil. avv. IV asrda xalq yig'inlari qarorlari, avvaldan senatorlar tomonidan (xalqdan yashirincha) qabul qilingan qarorni shunchaki rasman ratifikatsiya qilinishini o'zida aks ettirgan. Rim davlati hududiy jihatdan yetarlicha jamlanganda, oddiy ma'muriy ehtiyojlar sezilgan edi, xalq yig'inlari so'nggi davrlarga qaraganda faqatgina siyosatni belgilashda muhim ishtirok etgan bo'lishi mumkin.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ko'rib chiqilayotgan tizim tarkibida demokratiyaning asosiy qoidalari mavjud bo'lgan, so'nggi davrlarda Senat tomonidan davlat boshqaruvi ustidan nazorat olib borilishi natijasida asosan

yo'qolib ketgan. Har yilgi saylovlarning natijalari siyosatning umumiy yo'nalishlariga juda kuchsiz ta'sir qilgan.

Rimning Italiyani zabt etishi. Lotinlar mag'lubiyati va Italiya ittifoqining shakllanishi. Birinchi samniy urushi. Yuqorida ta'kidab o'tilganidek, nobilitetning paydo bo'lishi va uning ayrim vakillari orasida magistratura uchun raqobatning kuchayishi Rim imperializmining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq edi. Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy hayotda hal qiluvchi rol o'ynagan yirik siyosiy arboblar, faol istilochilik siyosatining tashabbuskorlari va rahbarlari bo'ldilar. Yarim asr istilochilik yurishlari natijasi o'laroq, butun Apennin yarim oroli Rim hukmronligi ostida bo'lishiga olib keldi. Mil. avv. 343-yilda boshlangan Rim va sammiylar o'rtasidagi kurash ushbu jarayonlarning markazida bo'ldi.

Apennin yarim orolining markaziy qismi janubida keng hududni egallagan samniy qabilalari kuchli federatsiyaga birlashdi. Samniy (samnitlar yashagan hudud) mamlakati dengizga chiqmagan edi. Sagr daryosidan (hozirgi Sangro) shimoli-g'arbiy qismida, Avfiddan (hoz. Ofanto) Janubiy-Sharqiy hududda yoyilgan. Shimoli-sharqiy tomondan Samniy yerlari frentanlar va apuliylarga tegishli o'lkalar bilan, janubi-g'arbiy tomondan esa, volsklar, siditsinlar, avrunklar, kampaniya va alfaternlarning yerlari bilan chegaradosh edi. Uning maydoni taxminan 12,5 ming km bo'lgan. Samniy ittifoqi to'rtta qabila guruhidan iborat bo'lib, ularning har biri alohida "touto" tashkil etgan.

Birinchi Samniy urushi deb ataladigan voqealar, faqat tarixchi Tit Liviy tomonidan tasvirlangan. Miloddan avvalgi 343-yilda samniylar siditsinlarga (osk tilida so'zlashuvchi xalq, tarixi va madaniyati xususida deyarli hech narsa ma'lum emas), keyinchalik esa, ularning yordamiga yetib kelgan kampanlarga hujum qiladi. Samniylar Kapuyani qamal qilganda, kampanliklar Rimga murojaat qiladi. Samniylar bilan ittifoqiga qaramasdan, rimliklar bu murojaatga ijobiy javob beradi va Kampaniya tarafida turib urushga aralashdilar. Liviya, kampanlar Rim xalqining hokimiyatiga to'liq bo'ysunganligi sababli, bunday qadamni tashlaganligini ta'kidlaydi.

Rimliklar harakatini yanada ishonchli asoslash uchun, Liviy tomonidan yozilgan, kampan elchisiga tegishli bir nutqidan topish mumkin: tarixchining so'zlariga ko'ra, ular rimliklar o'zlariga taqdim etilgan imkoniyatni e'tiborsiz qoldirolmaydi va samniylar Kampaniya ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishiga ham yo'l bermaydi, deya ta'kidlaydi. Xususan, asosiy dalillar Fukididdan o'zlashtirilgan dabdabali quruq gaplar, shu bilan birga, tarixiy haqiqatning ma'lum bir jihatini o'z ichiga oladi. Kampaniya Apennin yarim orolining eng serhosil mintaqasi bo'lib, uning hududining katta qismini egallab olgan rimliklar, iqtisodiy va harbiy resurslarini sezilarli darajada ko'paytirib, natijada samniylardan ancha ustun darajaga yetgan.

Harbiy harakatlar miloddan avvalgi 343-yilning yozida boshlandi. Rimliklar Kampaniyaga ikki konsullik harbiy qo'shinini yubordi. Bir necha janglarda g'alabani qo'lga kiritgach, rimliklar Kapuyadan samniylarni quvib chiqardi va shaharni egallab oldi.

Miloddan avvalgi 342-yilda rimliklar armiyada isyon ko'tarilishi va siyosiy inqiroz sabab urush harakatlarini vaqtincha to'xtatdi. Ammo miloddan avvalgi 341-yilda harbiy harakatlar qayta boshlandi. Shak-shubhasizki, samniylar Rim qo'shinining dastlabki paydo bo'lishi bilan tinchlikni so'rashdi. Shundan so'ng, Rim-samniy ittifoqi qayta tiklandi. Natijada siditsinlar va kampaniyaliklar zudlik bilan ilgari Rimga qarshi isyon ko'targan lotin va volsklar bilan ittifoqqa qo'shildilar. Miloddan avvalgi 341-yilda boshlangan Rim-Lotin urushi Italiya tarixida muhim burilish bo'ldi.

Miloddan avvalgi 341-yilda boshlangan qo'zg'olon to'rt yillik og'ir harbiy harakatlardan keyin bostirildi. Shunday qilib, miloddan avvalgi 341-yilda Privernada volsklar tor-mor etildi va kelgusi yilda lotinlar va kampantslar kamida ikkita katta mag'lubiyatga uchradi.

Mil. avv. 343-329-yilda rimliklar zabt etgan shaharlar bilan munosabatlarini butunlay qayta o'rnatdilar. Buning natijasida Tibrdan to Neapolitan ko'rfaziga qadar Tirren sohillari bo'ylab barcha tekisliklarni o'z ichiga olgan Rim "hamdo'stligi" vujudga keldi. Shu bilan birga, miloddan avvalgi 338-yildan keyin Rimliklar tomonidan o'rnatilgan tuzilma, Italiyaga Rim ekspansiyasining

kelajakdagi rivojlanishi uchun rejasini tuzishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Bu bir qator konstitutsiyaviy yangiliklarni joriy etishni nazarda tutardi. Buning natijasida Rim hamdo'stligi misli ko'rilmagan va hatto noyob tuzilishga ega bo'ldi. Bu ko'rib chiqilayotgan tartib kim tomonidan o'ylab topilgani bizga aniq emas, ammo bu kishi Rim tarixida keskin burilish yasaganligi va Rim davlatining rivojlanishiga katta hissa qo'shganligi aniq.

Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinadigan ushbu tizim ikkita umumiy qonun-qoidalar asosida shakllangan. Birinchidan, rimliklar mag'lubiyatga uchragan jamoalar bilan alohida ish olib bordilar. Ittifoqlar va konfederatsiyalar tarqatib yuborildi. Buning natijasida, Rim hamdo'stligining tarkibiy qismlari bir-birlari bilan o'zaro aloqalar bilan emas, balki ularning har biri Rim bilan aniq belgilangan munosabatda bo'ldilar. Ikkinchidan, har bir jamoa Rim davlatiga nisbatan huquqiy va majburiyatlari bilan aniqlangan, Shahar fuqarolari bir necha rasmiy huquqiy toifalarga bo'lindi. Buning natijasida munosabatlarning bir nechta shakllari yaratildi. Shunday qilib, Hamdo'stlikka a'zo shaharlar orasida muayyan huquqiy holatning iyerarxiyasi yaratildi. Liviyaning ma'lum qilishicha, Rimga tobe barcha jamoalar uchta toifaga bo'lingan.

Ikkinchi samniy urushi. Miloddan avvalgi 334-yilda rimliklar bir yil avval avrunklardan tortib olingan Kala shahrida (zamonaviy Kalvi) o'zlarining koloniyasiga asos soldilar. Bu shaharcha Volturn daryosini kesib o'tish va siditsinlardan Kapuyani himoya qilish uchun, Rimdan Kapuyaga boradigan asosiy yo'lda strategik muhim punkt vazifasini o'tar edi. Asosan Rim proletariati safidan to'plangan 2,5 ming nafar erkak o'zining oilasi bilan ushbu koloniya aholisini tashkil etgan. Ammo ularning saflarida shuningdek, lotinlar va boshqa ittifoqchilar vakillari ham bor edi. O'lkada tashkil etilgan koloniyada yashovchi kishilar yer mulklariga ega bo'ldilar va lotin huquqlariga ega bo'lgan avtonom jamoani shakllantirdilar. Shu bilan birga, boshqaruv katta yer maydonlariga ega bo'lgan va yangi jamiyatning hukmron qatlamini shakllantirgan koloniyada yashovchi kichik bir guruh badavlat kishilariga (equites) ishonib topshirildi.

Oradan olti yil o'tgach, Frigellada (hozirgi Cheprano), Lirisaning Sharqiy qirg'og'i, Trer (hoz. Sakko) qo'shilish joyida rimliklar ikkinchi koloniyasiga asos soldilar. Frigellni mustamlakaga aylantirilishi bir necha yil oldin ushbu hududni egallab olgan va rimliklarning o'z hududlarini bosib olish deb hisoblagan samniylar tomonidan dushmanlikni keltirib chiqardi. Shundan so'ng, Rim va Samniya o'rtasidagi munosabatlar keskin yomonlashdi va ikki yil o'tgach ular rasman urush holatida bo'ldilar.

Neapol bilan bo'lgan to'qnashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Rimliklar Neapolga qarshi urush e'lon qilganida, samniylar darhol unga yordamga yetib kelishdi va u yerda o'zlarining garnizonini joylashtirdilar (mil. avv. 327-yil). Shu bilan birga, shahar aholisi – keng xalq ommasi (demos) samniylarni qo'llab-quvvatladi va boshqa yunon shaharlaridan (birinchi navbatda, Tarentdan) madad oldi, mulkdor sinf vakillari esa Rimni qo'llab-quvvatladi. Miloddan avvalgi 326-yilda Rim tarafdorlari guruhi samniylardan qutulishga va shaharni Rim qo'mondoni Publiy Filonga topshirishga muvaffaq bo'ldi. Mil. avv. 327-yilning oxiri - 326-yilning boshlarida Neapol bilan tuzilgan ittifoq natijasida rasman bir necha oy oldin boshlangan ikkinchi Samniy urushi Rimning birinchi muvaffaqiyati bo'ldi.

Miloddan avvalgi 321-yilda rimliklar Kavdin darasida falokatga uchradi. Manbalarda ushbu voqea haqida juda qiziqarli, lekin ko'pincha ishonchsiz hikoyalarga duch kelamiz. Faqatgina Rim tarixining eng sharmandali voqealaridan biri ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Chamasi, konsullar Rim armiyasini uzoq tog' vodiysiga olib borganlar va u yerda o'rab olingan Rim armiyasi taslim bo'lishga majbur bo'lgan. Rimliklar qurolsiz va yarim yalang'och "bo'yinturuq" ostida o'tish sharti bilan ozodlikka chiqarilgan.

Qadimgi mualliflarning hikoyalarida bayon etilganidek, qo'shin Rimga qaytib kelganidan keyin Senat va xalq konsullar tomonidan tuzilgan sulhni rad etib, urushni davom ettirishga kirishgan. Keyingi ikki yil ichida rimliklar dushman ustidan bir qator g'alabalarni qo'lga kiritib, go'yoki, katta omadsizlik ustidan qasd olishgan. Xususan, ular Shimoliy Agguliyada Lutseriyani

bosib oldi, yo'qotilgan bayroqni qaytarib olib, samniylar garovga olgan olti yuz otliqlarni ozod qildi. Shu bilan birga, Lutseriada asirga tushgan 7 ming nafar samniylar, bo'yinturuq ostida o'tishga majbur qilingan.

Bunday yakuniy natijalar juda yaxshi bo'lib ko'rinadi va, odatda, haqiqatga uncha to'g'ri kelmaydi deb hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotchilarning aksariyati ko'rib chiqilayotgan voqealarda odatiy ahd tuzilgan bo'lib, rimliklar uning shartlariga rioya qilishga majbur bo'lgan, Rim va samniylar o'rtasidagi barcha harbiy harakatlar mil. avv. 316-yilga qadar davom etgan deb hisoblaydilar. Umuman olganda, tasvirlangan voqealar bilan bog'liq dalillarni hozirgi vaqtda to'liq tiklashning imkoni yo'q. Shu bilan birga, miloddan avvalgi 318-yilda Rim va samniylar o'rtasidagi jang asl shartnoma imzolanishi natijasida yoki mil. avv. 318-yilning boshida tuzilgan sulh asosida to'xtatildi.

Samniylar yoki Rim hududiga uning ittifoqchilarini katta qo'shin bilan bostirib kirgan yagona hodisa miloddan avvalgi 315-yilda sodir bo'lgan. Rimliklar uzoq qamalga dosh bera olmagan miloddan avvalgi 315-yilda Satikulaga hujum qildi. O'sha yili samniylar Plistika deb nomlangan qal'ani egallab, Liris orqali o'tdilar. Ular Tarratsin yaqinidagi Lavtull yonida rimliklarni umumiy jangda mag'lub etdilar va ular Latsiya chegaralariga kirib, Ardeyga qadar qirg'oq hududlarini vayron qildilar. Ammo kelgusi yil yana Tarratsinada ular Rim qo'shini tomonidan mag'lubiyatga uchradilar. Shundan so'ng, rimliklar ba'zi shaharlar noroziligini namoyon qila boshlagan va avrunklar qo'zg'olonini shafqatsiz bostirib, Kampaniya ustidan o'z hokimiyatini qayta tiklashga kirishdi. Agar T. Liviy tomonidan keltirilgan manbalarga tayanadigan bo'lsak, ushbu qabila butunlay qirib tashlangan. Bundan tashqari, Rim bir yil avval samniylar qo'liga o'tgan Sorani qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi.

Bu voqealar ko'rib chiqilayotgan urushda keskin burilish yasadi. Miloddan avvalgi 315-yilda rimliklar Lutseriyani bosib oldilar (yoki qaytarib oldilar) va bir yil o'tib u yerda o'z koloniyasiga asos soldilar. Miloddan avvalgi 313-yilda ular Kavdino shartnomasi bo'yicha samniylarga o'tgan yoki miloddan

avvalgi 320-yilda tungi hujum natijasida bosib olingan Fregelni qaytarib olishdi.

Markaziy Italiyaning Rim tomonidan zabt etilishi. Rim pozitsiyasi mustahkamlangandan keyin miloddan avvalgi 313-312-yillarda Ikkinchi Samniy urushi oxirida hech qanday shubha qolmadi. Keyingi yillarda rimliklar harbiy harakatlarni Markaziy Italiyaning boshqa qismlariga kengaytirishga muvaffaq bo'lishdi. O'n yildan kamroq vaqt ichida mamlakatning siyosiy xaritasini o'zgartirgan bir necha kuchli tajovuzkor harbiy janglarni amalga oshirdilar. Miloddan avvalgi 299-yilga kelib Rim davlati barcha raqiblaridan ustun keldi va Apennin yarim orolining katta qismini o'z nazoratiga oldi.

Manbalar Ikkinchi Samniy urushining so'nggi yillardagi voqealar haqida aniq ma'lumotlarni bermaydi. Buning o'rniga, qadimgi mualliflar juda tartibsiz yillik harbiy harakatlarning majmuini keltiradilar, ba'zi voqealar xususida batafsil ma'lumot olish tushunarsizligicha qolmoqda.

Bizgacha yetib kelgan bu urush haqidagi hikoyalarning tafsilotlari juda murakkab va qarama-qarshi, ammo ularning asosiy qismlari bir-biriga mos keladi. Ushbu manbalarga muvofiq, rimliklar Sutriyni qamal qilgan qo'shinni haydab chiqarib, miloddan avvalgi 310-yilda konsul Kvint Fabiy Maksim Rulian boshchiligida Etruriyaga kirib bordi va o'zlarining muvaffaqiyatlarini mustahkamladi. Qadimgi mualliflar, Tibr vodiysidagi Vadim ko'lida va Peruziya yaqinidagi hal qiluvchi urushlar haqida hikoya qilishadi. Shundan so'ng, Peruziya, Korton va Arretsiy shaharlari o'ttiz yil davomida Rim bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. Ushbu harakatlarning eng mashhur voqeasi konsulning ukasi tomonidan amalga oshirilgan razvedka tekshiruvi bo'lib, u Simin o'rmonidan kesib o'tib, Umbria shahridagi Kameringacha yetib keldi va u yerda mahalliy aholini Rimning ittifoqchilari bo'lishiga ishontirdi. Keyingi yilda mil. avv. (mil. avv. 308-yilda) konsul P.Detsiy Mus Umbriaga muvaffaqiyatli harbiy harkatlarni amalga oshirdi va Okrikul bilan ittifoq tuzdi. Bundan tashqari, u Rim va Tarkviniya o'rtasidagi qirq yillik sulhni qayta tikladi, bu bilan mazkur shahar miloddan avvalgi 311-310-

yillardagi janglarda ishtirok etmagan degan xulosaga kelish mumkin.

Miloddan avvalgi 304-yilga qadar har yili Samniyda olib borilgan Rim harbiy harakatlari qayd etilgan manbalarda ta'kidlangan. T.Liviy miloddan avvalgi 310-yil haqida hikoya qilganda, L.Papiriy Kursorning yirik g'alabasini eslatib o'tadi. Keyinchalik raqiblari tashabbusni o'z qo'llariga olib, Sora va Kalatiyani egallagan, miloddan avvalgi 307-yilga qadar rimliklarning kichik muvaffaqiyatlarini tilga oladi. Samniylar yirik jangda og'ir mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, kelgusi yil hujumga o'tishdi va Shimoliy Kampaniyada Rimga qarashli hududlarni bosib olishdi. Rimliklar bunga qarshi Samniyga keng miqyosda hujum qilish bilan javob berdi va natijada Bovianni qo'lga kiritdi. Shundan so'ng, samniylar hal qiluvchi jangda mag'lubiyatga uchrab, rahnamosi Statiy Gelliy ham mazkur jangda halok bo'ldi. Muvaffaqiyatli harbiy harakatlarini davom ettirishi bilan, rimliklar o'zlariga Sorani qaytarib oldi, shuningdek, Arpin va Sezinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Miloddan avvalgi 304-yilda samniylar tinchlikni so'radi va "eski shartnoma" qayta tiklandi (taxminan 354- va 341-yillarda tuzilgan) va yigirma yil davom etgan urush nihoyasiga yetdi.

Biroq samniylar bilan olib borilgan urushning tugashi Rimning harbiy harakatlar ko'lamini keskin pasayishiga olib kelmadi. Buning sababi shundaki, miloddan avvalgi 312-yildan boshlangan Samniy urushi rimliklarning asosiy tashvishlari bo'lishni to'xtatdi. Shu paytdan boshlab, boshqa harbiy harakatlar ko'lami birinchi darajaga chiqdi. Jumladan, Rim boshqa yo'nalishlarga, avval Etruriya va Umbriyaga, keyin esa Markaziy Italiyaning tog'li hududlariga e'tiborini kuchaytirdi. Miloddan avvalgi 307-yilda Tiburdan Markaziy Apenninga cho'zilgan va oxiri Adriatikaga yetib boradigan harbiy yo'l – Valeriya yo'li (Via Valeria) qurilishining boshlanishi to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi Markaziy Italiyani zabt etishda hal qiluvchi bosqich bo'ldi.

Miloddan avvalgi 358-yildan Rimga sodiqligini saqlagan gerniklar konfederatsiyasi tarkibida bo'lgan ba'zi jamoalar miloddan avvalgi 306-yilda isyon ko'targanlikda ayblandi. Qisqa

qarshiliklardan keyin ular konsul harbiy qo'shiniga taslim bo'lishga majbur bo'ldilar. Shu bilan birga, isyonchi jamoalar orasida nufuzli bo'lgan Anagniya, Rim davlati tarkibiga kiritildi.

Rimga sodiq qolgan gerniklar shaharlari (Liviyga ko'ra, bular Aletriya, Ferentin va Verullar edi) o'z mustaqilligini va amaldagi shartnomaga muvofiq barcha imtiyozlarni saqlab qoldi.

Miloddan avvalgi 304-yilda rimliklar harbiy harakatlarini ekvlarga qarshi qaratdilar va ellik kun davom etgan jangdan so'ng ularni tor-mor etdi. Ekvlar shahrining balandlikda joylashganligi aholi muntazam ravishda yo'q qilinishga uchradi va deyarli butunlay qirib tashlandi. Shundan so'ng, Abrutstso mintaqasidagi boshqa xalqlar Rim bilan ittifoq to'g'risida doimiy shartnoma tuzish uchun keldilar: mars, pelign, marrutsin va frentanlar (Miloddan avvalgi 304-yilda). Versinlar esa, miloddan avvalgi 302-yilda mazkur shartnomani tuzdilar. Ko'rib chiqilayotgan davrda, Markaziy Apennin xalqlari zamonaviy tadqiqotchilar Sabell ittifoqi deb ataladigan federatsiyaga birlashtirildi. Ikkinchi Samniy urushi paytida bu ittifoq rimliklarga xayrixohlik ko'rsatgan. Miloddan avvalgi 302- va 300-yillarda olib borilgan bir nechta isyonlarni hisobga olmaganda, Ittifoqchilik urushiga qadar Rim hokimiyati Markaziy Apennin ustidan mustahkamligicha qoldi.

Yuqorida qayd etilgan, bosib olingan Sora (mil. avv. 303-yil), Alba Futsinsk (mil. avv. 303-yil) va Karseolada (mil. avv. 298-yil) koloniyalarga asos solindi. Miloddan avvalgi 299-yilda Nekvin Umbra qal'asi bosib olindi va uning o'rnida Narniya (hoz. Narni) koloniyasi tashkil etildi. Miloddan avvalgi 303-yilda Rim davlatiga Trebula Suffenskiy (hoz. Chichilliano) va Arpin (hoz. Arpino) kabi shaharlar qo'shildi. Fruzinon (hoz. Fruzinone) shahri ham aynan shu taqdirga uchradi. Ammo oldin mahalliy rahbarlarning ko'pchiligi qatl etilib, yerlarning uchdan bir qismi esa musodara qilindi. Miloddan avvalgi 299-yilda yangi triblar – Aniens (Aniensis) va Terentin (Teretina) tuzildi: birinchisi Anienning yuqori qismida ekvlardan tortib olingan yerlarda, ikkinchisi esa, Liris vodiysida, miloddan avvalgi 314-yilda avrunklardan qo'lga kiritilgan yerlarda edi.


Qo'shilish va fuqarolik huquqlarini taqdim etish kabi harakatlar Italiyaning Rim tomonidan zabt etilishining so'nggi

bosqichlaridan biri bo'ldi. Ko'rib chiqilayotgan davrda ekspansiya jarayoni allaqachon tezlashdi. Butun Apennin yarim oroli ustidan Rim davlati o'z hukmronligini o'rnatishining mantiqiy natijasini ko'rish mumkin. Faqat hanuzgacha o'z mustaqilligini saqlab qolgan qabilalarning qat'iy va izchil harakatlari bunday natijaga to'sqinlik qilishi mumkin edi. Taxminan mil. avv. IV-III asrlar oralig'ida Italiyaning erkin xalqlari ilk marta o'zlarini qanday taqdir kutayotganligini tushunishga kirishdilar. Aynan o'sha davrda ular birinchilardan bo'lib, Rimga qarshi kurashish uchun yagona front tashkil etishga jiddiy urinishlarni boshladilar.

Uchinchi samniy urushi va Apennin yarim orolini zabt etishning yakunlanishi. Miloddan avvalgi 298-yilga kelib rimliklar yana bir necha harbiy janglarda ishtirok etdi. Yozma manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi 302-yildan boshlab Rim qo'shinlari har yili Etruriya va Umbriyada harbiy harakatlarni olib bordi. Ammo miloddan avvalgi 295-yildagi katta to'qnashuvga qadar, mil. avv. 300-299-yilda Nekvinni qamal qilish va olib qo'yishdan tashqari olib borgan harbiy urushlari juda kichik va tartibsiz edi. Miloddan avvalgi 299-yilda Etruriyaga gallarning hujumi dahshatli tus olgan bo'lsada, Polibiyning qayd etishicha, rimliklar keng ko'lamda harbiy harakatlarga jalb qilinmadi. Boshqa tomondan, samniylar tomonidan hujumga uchrab, lukanlar bilan ittifoq tuzgan rimliklar Uchinchi Samniy urushini (mil. avv. 298-290-yil) boshladi.

Rimliklar eng tajribali harbiy qo'mondonlar Kvint Fabiy Maksim Rullian va P. Detsiy Muslarni konsul etib saylashdi. Ularning konsullik muddati miloddan avvalgi 296-yilda tugagan bo'lishiga qaramasdan, 295-yilda yana konsullar etib saylanishdi. Bundan tashqari, mil. avv. 295-yilda kamida besh nafar kishi "promagistratlar" sifatida imperiyani boshqarish ishlarida qatnashdi. Ular orasida o'tgan yili konsullardan biri bo'lgan va prokonsul lavozimida qolgan L.Volumniy Flamma miloddan avvalgi 296-yilda konsullik bo'yicha uning hamkasbi Appius Klavdiy Sek, miloddan avvalgi 295-yilda pretor lavozimini egallagan.

Miloddan avvalgi 297-yilda konsullar Fabiy va Detsiylar Samniyda qo'shin ustidan qo'mondonlik ishlarini birgalikda



14-rasm. Rim legionerining qurol-aslahalari

boshqarib, to'rt oy davomida uni vayron qilishdi. Ushbu harbiy harakatlar kelgusi yilda ham, prokonsullar tomonidan Murgansiya, Romuleya va Ferentin kabi shaharlar qo'lga kitirilganidan so'ng davom etdi. Shu bilan birga, konsul L.Volumniy Flamma Lukaniyada ko'tarilgan g'alayonni bostirdi va Volturnning qirg'oqlarida samniylarni yakson etdi. Ammo qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, rimliklar samniylar harbiy boshlig'i Gelliy Egnatsiy shimolga, Etruriyaga o'z qo'shinini olib ketishiga va etrusk shaharlarni kuch bilan birlashtirishiga to'sqinlik qilmadi.

Rim qo'shinlari qo'mondoni konsul Appiy Klavdiy Etruriyada etrusklar va samniylarning birlashgan kuchlarini hal qiluvchi jangda mag'lub etdi, ammo natija yakuniy emas edi.Yil oxirida Appiy Senatga Shimoliy Italiyada samniylar, etrusklar, umbra va gallarni o'z ichiga olgan kuchli ittifoq shakllanganligini ma'lum qildi. Ko'rinib turibdiki, mazkur xalqlarning ushbu o'zaro manfaatli ittifoqi bir necha yillar davomida rivojlangan. Mil. avv. 296 va 295-yillarda harbiy lavozimlarga tayinlanishning g'ayritabiiy usuli, Rimliklar miloddan avvalgi 297-yilning oxiridan boshlab o'sib kelayotgan tahdidni to'la fahmlaganligini ko'rsatdi.

Miloddan avvalgi 295-yilda Umbriyada Sentin yonida samniy va gallar qo'shinlari rimliklar bilan to'qnash kelganda hal qiluvchi fursat yuz berdi. Ushbu mashhur jangda rimliklar ittifoqchilarining yordami bilan to'rtta legionni namoyish etdilar. Agar legionning tarkibi 4,5 ming kishini o'z ichiga olgan bo'lsa, unda Rim tomonidan umumiy hisobda jami 36 mingdan ortiq harbiy jang qilgan bo'lishi mumkin. O'sha davr mezonlari bo'yicha

eng katta armiya va ehtimol, Rim davlati ilgari jangga olib kirgan qo'shinning ham eng kattasi edi.

Rimliklar juda qiyinchilik bilan to'la g'alabaga erishdi. Fabiy (ikkinchi konsul) Rimga triumf bilan qaytdi va Rim an'analariga muvofiq, Samniy urushlari qahramoni uchun ajratilgan faxriy o'rinni egalladi.

Sentin yonidagi jang Italiyaning taqdirini hal qildi. Jangdan so'ng rimliklar vaqtni boy bermasdan, etrusklar va umbrlar bilan hisoblashdi. Mil. avv. 294-yilda ular Ruzellani qo'lga kiritdi va Volsiniya, Perusiya va Arretsiy shaharlarini ittifoqlikka majbur qildi. Bir vaqtning o'zida Rim qo'shinlari Samniyda harakatni davom ettirib, manbalarning guvohlik berishicha, mil. avv. 295- va 294-yillarda shiddatli janglar davom etdi. Keyingi yil samniylar "muqaddas qonun" asosida armiyaga ommaviy tanlovni amalga oshirib, xizmatga layoqatli barcha erkaklarni armiya safiga chaqirishga kirishdi. Shu tarzda to'plangan 36 ming nafar kishidan, 16 ming nafari maxsus tanlab olindi. Ular "qanot legion" deb atalib, yaxshi qurollangan elita armiyasini tashkil etdi. Ammo bu kuchli armiya miloddan avvalgi 293-yildagi Akvilonia jangida mag'lub bo'ldi.

Janubiy-sharqiy chegaralarda yerlarning katta qismini o'z tasarrufiga qo'shgan Samniy, miloddan avvalgi 292-290-yillarda rimliklar tomonidan vayron qilindi va mil. avv. 291-yilda Venuziya koloniyasiga asos solindi. Bir yil o'tgach, samniylar taslim bo'ldi va shak-shubhasiz, teng bo'lmagan sharoitlarda Rimning ittifoqchisi bo'lishga majbur bo'lishdi.

Shu bilan birga, rimliklarning siljishi davom etdi. Miloddan avvalgi 290-yilda konsul M. Kuriy Dentat sabinlar va pretutlarni mag'lub etib, Rim davlati tarkibiga qo'shib oldi. Hujjatlarda to'liq aks etmagan mazkur epizodning natijasida, barcha yarim orol orqali Adriatika sohiligacha cho'zilgan hududlar Rimga tobe bo'ldi. Bir necha yil o'tgach, miloddan avvalgi 269-yilda ko'tarilgan qo'zg'olondan so'ng, rimliklar Pitsenna yerlarini ham o'z tasarrufiga qo'shib oldi.

Gallar Sentinda bo'lib o'tgan jangda mag'lubiyatga uchraganidan keyin, bir muncha muddat faol harakatlarni amalga oshirmadi. Biroq taxminan o'n yil o'tganidan so'ng ular yana

Etruriyaga bostirib kelishdi. Miloddan avvalgi 284-283-yillarda gallar bilan olib borilgan urush voqealarini batafsil yoritish qiyin, miloddan avvalgi 284-yilda Setsiliya Metell boshchiligida Rim armiyasi Arretsiya jangida mag'lubiyatga uchragan, ammo keyingi yillarda rimliklar javob zarbasini qaytardi va Vadim ko'li jangida hal qiluvchi g'alabaga erishdi. Mazkur g'alabadan ko'p o'tmay, rimliklar Adriatikaning shimoliy sohillari yaqinida senonlar (ager Gallicus) yashagan hududni o'zlariga tobe qildilar.

Bir vaqtning o'zida Etruriya va Umbriyada urush harakatlari davom etdi. Bu haqda batafsil ma'lumotlarga ega emasmiz. Rimliklar mil. avv. 280-yilda Vulchi va Volsiniyani, miloddan avvalgi 273-yilda esa, Sereni tor-mor etdi. miloddan avvalgi 264-yilda Volsiniyada ko'tarilgan to'ntarishdan so'ng, shaharni butunlay vayron etilishi bilan bosib olish jarayoni nihoyasiga yetdi. Shu bilan birga, etrusklar va umbrlar jamoalari nomigagina mustaqilligini saqlab qoldi, ammo Rim bilan tuzilgan ittifoq to'g'risidagi shartnomaga amal qildi. Faqat Sere shahriga istisno tariqasida, miloddan avvalgi 273-yilda tor-mor etilganidan so'ng, seriyliklarga ovoz berish huquqisiz fuqarolik berish bilan Rim davlati tarkibiga qo'shildi.

Rim janubda yangi muammolarga duch keldi. Miloddan avvalgi 280-yilda Epir podshohi Pirr Rimning janubiy hududlariga bostirib kirdi. Miloddan avvalgi 275-yilda Pirr qo'shini mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, rimliklar Buyuk Yunonistonga hujum uyushtirdi va miloddan avvalgi 271-yilda ushbu mintaqaning asosiy yunon shahri bo'lgan Tarent qo'lga olindi. Biroq Pirr qo'shinining Italiyaga kirishi o'n yildan ortiq davom etgan samniylar, lukanlar va bruttiylarning qo'zg'oloniga to'g'ri keldi. Samniy va Lukaniya ustidan yakuniy g'alaba, Pesteda (mil. avv. 273-yilda), Beneventeda (mil. avv. 268-yilda) va Ezernida (mil. avv. 263-yilda) koloniyalarning asos solinishi bilan belgilandi. Mil. avv. 264-yilga kelib Apennin yarim oroli ustidan Rim istilosi yakuniga yetdi.

Shuni esda tutish kerakki, bu yakuniy natijaga juda qisqa vaqt oralig'ida erishildi. Bundan yetmish besh yil oldin, Rim hokimiyati Eski Latsiyaning uncha katta bo'lmagan hududi chegarasidan tashqariga kengaymagan edi. Boshqa tomondan, rimliklar o'z

hokimiyatini shu qadar mustahkam o'rnatdilarki, Agar Gannibal urushining o'ziga xos holatlarini hisobga olmaganda, 200-yil mobaynida Italiya umuman jiddiy qo'zg'olonlarga duch kelmagan.

Siyosat va davlat boshqaruvi. Italiya uchun urushlar davrida (mil. avv. 338-264-yy.) Rim hamdo'stligi ichki o'zgarishlarga duch keldi. Aynan shu paytda klassik Respublikaga xos bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalar shakllana boshladi. Siyosiy institutlar sohasida eng yorqin o'zgarishlar shundan iboratki, Senat asta-sekinlik bilan davlat boshqaruvi tizimining asosiy elementi bo'lib, nobilitet esa Senatni nazorat qiluvchi kuchga aylandi.

Rim nobillari juda qisqa davrlar bilan bir qatorda (odatda, bir yil) uzoq muddatlarda ham ijro etuvchi lavozimlarni egallagan. Ammo asta-sekinlik bilan, III asrning birinchi o'n yilliklariga kelib, ular faqat uzoq muddatli lavozimlarni egallay boshladi. Bu vaqtga kelib, hatto, o'ta muvaffaqiyatli siyosatchi ham butun faoliyati davomida bir martadan ortiq konsul bo'lishga umid qila olmadi. Boshqa tomondan, kurul magistraturasini egallagan barcha mansabdorlar, vaqt o'tishi bilan haqiqiy hukumat ma'murlari to'plangan Senatning umrbod a'zolari bo'lib qolgan. Rivojlangan Respublika davrida magistrat, aslida, senatga bo'ysungan. Ular har qanday harakatni amalga oshirishdan oldin unga murojaat qilishlari kerak edi. Shu bilan birga, Senat davlatning moliyaviy ishlarini, armiya chaqiruvini va qurolli kuchlar qo'mondonligini, magistrat vakolatlarini taqsimlashni ("ma'muriy bo'linma"), horijiy davlatlar bilan munosabatlarni, shuningdek, Rim va Italiyada qonunchilik va huquqiy tartibni muhofaza qilishni nazorat qildi. Bundan tashqari, u davlat diniga aloqador barcha ishlarni amalga oshirdi. Senatorlar nafaqat Rim davlatining rahbarlari, balki siyosiy tajriba va donishmandlikning himoyachilari, shuningdek, an'anaviy axloqiy qadriyatlarning nazoratchisi bo'lishgan.

Senatning davlat boshqaruvi asosiy organiga aylanishining boshlanishi Samniy urushlari davriga to'g'ri kelishi mumkin. Qisman, bu Rim davlatining o'sishi va boshqaruv faoliyatinng murakkablashuvi natijasi bo'ldi. Biroq Senatning boshqaruv

xususiyatini va uni to'ldirish usullarini o'zgartirish o'ta muhim bo'ldi.

Ilk Respublika davrida Senat faoliyati xususida ma'lumotlar juda kam va noaniq. Uning tarkibi xususida ma'lumotlar yetarli emas, vazifalari haqida esa, undanda kam ma'lumotlarni uchratamiz. Biroq arxaik davrda senat, eng avvalo, podshohlar uchun, keyinchalik esa, oliy magistratlar (konsullar va konsul tribunlar) uchun maslahat organi (consilium) sifatida faoliyat olib borgan. Ehtimol, o'zlari maslahatchi tanlab olgan va shunga ko'ra, uning tarkibini ham belgilagan. Shunday qilib, Senat doimiy organ sifatida faoliyatda bo'lmagan, balki amaldagi magistratlarning ixtiyoriga ko'ra yildan-yilga o'zgarib turgan.


Mil. avv. III asrda Senatning mustaqilligi va ta'sir doirasining o'sishi Rim siyosiy elitalari konservativ kishilarining manfaatlariga xizmat qildi. Magistratlarning mustaqil hokimiyati asta-sekinlik bilan kamayib, davlat ishlarida xalqning ishtiroki tobora cheklanib bordi. IV asrning birinchi yarmida vaqti-vaqti bilan o'zini namoyon qilgan mazkur o'zgarishlar, ibtidoiy Rim demokratiyasining buzilishiga olib keldi.

Shunday qilib, xalq uchrashuvlari badavlat fuqarolarning ta'sirini ta'minlash uchun tashkil etildi. Faqat elita vakillari magistratlik lavozimlariga o'z nomzodlarini qo'yishlari mumkin edi. Rasmiy mol-mulk senzi mavjudligidan qat'iy nazar, faqat badavlat kishilargina oylik to'lanmaydigan, buning ustiga katta xarajatlar talab qilinadigan lavozimlarga o'z nomzodlarini ilgari surishi mumkin edi. Bundan tashqari, saylovoldi tashviqotiga cheklovlarni hisobga olib va saylovchilar orasida shon-shuhrat qozonish uchun yetarlicha mablag'i bo'lmaganligi, yaxshigina aloqalarga va ta'sirli qo'llab-quvvatlashga ega bo'lmagan kishilar, muvaffaqiyatga erishish uchun hech qanday imkoni yo'qligi aniq edi. Eng muhimi, "nobilis" so'zi ham "mashhur" degan ma'noni anglatadi.

Iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar. Samniy urushlari davrida rimliklarning ijtimoiy va shaxsiy boyligi misli ko'rilmagan darajada oshdi. Shu bilan birga, yer sotib olish muhim ahamiyat kasb etdi. Miloddan avvalgi 338-yilda Lotin urushlarining oxiri bo'yicha ager Romanus maydoni taxminan 5,525 ming km^2, aholi

taxminan 347,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, miloddan avvalgi 264-yilga kelib maydoni 26,85 ming km², aholisi esa 900 ming kishiga yetdi. Ushbu ko'rsatkichlarga muvofiq, rimliklar Apennin yarim orolining barcha hududining 20% dan ko'proq qismiga (taxminan 125,445 ming km²) ega bo'ldi. Uning aholisining qariyib 30%ini (mutaxassislarning fikriga ko'ra, 3 million kishidan biroz ko'proq) tashkil etdi. Ekspansiya jarayoni kambag'allashgan Rim fuqarolari ko'chib o'rnashgan, qo'shib olingan hududlarda yerni qayta taqsimlashga olib keldi.

Rim boyligining oshishi shaharning rivojlanishida, shuningdek, aholisining o'sishida o'z aksini topdi. Zabt etilgan o'lkalardan o'lja va kontributsiya shaklida olingan daromadlar jamoat qurilishi dasturlarini moliyalashtirish uchun ishlatildi. Rimda bunday keng ko'lamdagi qurilish ishlari Tarkviniylar davridan buyon amalga oshmagan edi. Qadimgi mualliflarning qayd etishicha, mil. avv. 302-264-yillarda shaharda o'n to'rtta ibodatxona qurilgan, ammo bu ro'yxat aniq tugallanmagan, chunki o'n to'rtta ibodatxonadan sakkiztasi Liviy asarlaridan bizga ma'lum va miloddan avvalgi 293-yilgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. "Tarix" asarining saqlanib qolgan qismida to'liq tavsifi keltirilgan. Bundan tashqari, qadimgi mualliflarning asarlarida qayd etilmagan yoki boshqa manbalardan ma'lum bo'lgan binolar bilan ishonchli tarzda aniqlanmagan bir nechta ibodatxonalar arxeologik ma'lumotlar bo'yicha bizga ma'lum. xususan. Portuna va Yengilmas Gerkules ibodatxonalari, shuningdek, Largo-Arjentin maydonidagi ikkita ibodatxona, IV asrning oxiri-III asr boshlariga to'g'ri keladi.



15-rasm. Akveduk

Mazkur ijtimoiy tashabbuslar mil. avv. III asrning boshlarida shaharning jadallik bilan rivojlanganligidan dalolat beradi. Albatta, uning aniq o'sish

sur'atlarini va ma'lum bosqichlarda aholisining ko'payganligini aniqlash deyarli mumkin emas, ammo mavjud ma'lumotlarga asoslanib ba'zi taxminlarni ilgari surish mumkin. Mil. avv. IV asrning o'rtalarida Rim aholisi 30 ming kishi, mil. avv. 300-yilga kelib esa, 60 ming kishiga o'sdi. Pirr bilan urush paytida 90 mingdan oshib ketdi. Albatta, bu ko'rsatkichlar taxminiy bo'lib, shak-shubhasizki, aholining o'sganligini ko'rsatadi. Mil. avv. III asr boshlarida Rim O'rtayer dengizining yirik shaharlaridan biriga aylandi. Akveduklarning (osma quvurlar) qurilishiga bo'lgan ehtiyoj uning jadallik bilan o'sganligining muhim belgilaridan edi. Ilk akveduk Aqua Appia miloddan avvalgi 312-yilda qurildi. Mil. avv. 272-yilda senzor M. Kuriy Dentat tomonidan boshlangan Anio Vetus qurilishi keyingilaridan bo'ldi.

Oziq-ovqat ta'minotiga kelsak, 90 ming nafar aholisi bo'lgan shahar, o'z hududidan faqat ortiqcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan boqishi mumkin emas edi. Shuning uchun chetdan mol keltirish bilan o'z ehtiyojlarining muhim qismini qondirishga majbur bo'ldi. Rimga umumiy hisobda yiliga 18 ming tonnadan ko'proq don (yoki shunga o'xshash kaloriyali mahsulotlar) talab qilindi.

Iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning xususiyatini, urushlar davrida sezilgan uchta maxsus tendensiyani ko'rib chiqqan holda qayd etish mumkin. Birinchidan, bu qulchilikning rivojlanishi bo'ldi. Ikkinchidan dastlabki Rim tangalarining paydo bo'lishi va oxirgisi esa, bu yunon madaniyatining Rimga ta'siri bo'lib, buni Rim tarixining boshlanishidan kuzatishimiz mumkin.

Mil. avv. 280-yilga kelib, Epir podshohi Pirr Italiya yerlariga birinchi marta qadam qo'yganida, Rim allaqachon sohildan qirg'oqqacha cho'zilgan va uzunligi bo'ylab 240 km dan ortiq masofani egallagan Apennin yarim oroli ustidan bevosita yoki bilvosita o'z nazoratini o'rnatgan edi. Rim davlatining "asosiy o'lkasi" (dominium) hududini o'zida aks ettirgan faqat ager Romanus, oltmish yil davomida 2 mingdan taxminan 16 ming km^2gacha, sakkiz martaga kengaydi. Miloddan avvalgi 281-yilda Rim hamdo'stligining ko'lami shunday tarzda kechdi.

Davlat tuzilishi. Mil. avv. IV-III asrning oxirlarida Rim manfaatlari doirasining keskin o'sishi tabiiyki, shahar-davlatni

boshqarish uchun tashkil etilgan institutlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Samniy urushlariga qadar juda oz sonli Rim magistratlari ko'p ish bilan band bo'lmagan. Xususan, harbiy yurishlar mavsumidan tashqari, armiya qo'mondonligi uchun juda muhim vaqt ajratgan ikki nafar konsullar, odatda, ichki boshqaruvning eng muhim jihatlariga e'tibor qaratishlari mumkin edi. Keyinchalik ta'sir juda tez kuchaya boshladi. Urushlar yanada uzoq muddat va Rimdan uzoqda olib borilganligi natijasida, konsullar tomonidan alohida e'tibor talab qilinibgina qolmasdan, qo'shimcha harbiy rahbarlarga ko'pincha ehtiyoj sezildi. Italiyada Rim hamdo'stligining tez suratlarda o'sishi, va oxir-oqibatda dengiz orti hududlarining qo'lga kiritilishi, magistratlar yelkasiga boshqaruv va ma'muriy xususiyat kasb etgan qo'shimcha og'ir vazifani yukladi. Bundan tashqari, Rim chegaralarining kengayishi shahar saylov yig'ilishlarining mohiyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Bir paytlar mazkur yig'ilishlarga fuqarolarning ko'pchiligi osonlik bilan kirish imkoniga ega bo'lgan va ular doimo ularga tashrif buyurishgan. Endilikda esa, nafaqat ishtiyoq, balki vaqti ham yo'q, shuningdek, faqat oddiy ovoz berish uchun juda uzoq yo'lni (240 kmgacha) bosib o'tishga sharoiti bo'lmagan odamlar uchun imkonsiz bo'lib qoldi. Retrospektiv usuldan foydalangan holda shuni aniq ishonch bilan aytish mumkinki, ko'rib chiqilayotgan vaziyatlarda Rim va uning rahbarlarining uzoq muddatli manfaatlari uchun Senat tomonidan davlat boshqaruvi organlarining mufassal qayta ko'rib chiqilishi foydali bo'lgan. Ammo o'sha zamonda yashagan kishilar mazkur o'zgarishlarning ahamiyatini kamdan-kam hollarda to'liq anglashlari mumkin edi. Rim nobiliteti uchun bunday radikal islohotlarning istiqboli, ayniqsa, jozibador emas edi. Shunga ko'ra, senatorlar ish jarayonida har bir yangi inqiroz bilan kurashishni afzal ko'rdilar. Mavjud bo'lgan davlat boshqaruv tizimiga juda murakkab o'zgarishlar kiritishni ma'qulladi. Uning afzalligi shundaki, u siyosiy kuchlar muvozanatini jiddiy ravishda buzmasdan samarali o'rta muddatli yechimlarni ta'minladi.

Konsullarga kelsak, birinchi navbatda ikkita yangi kiritilgan tartib-qoidalar ularning xizmat vazifasini yengillashtirishga qaratildi. Ulardan birinchisi, promagistratura deb ataladigan

tuzilmaning paydo bo'lishi bo'lib, u orqali Senat va komitsiyaning ma'qullashi bilan oliy magistratning vakolat muddatini uzaytirish mumkin edi. Mazkur usul birinchi marta mil. avv. 326-yilda ishlatilgan va o'sha paytdan boshlab Puni urushlari davriga qadar kamdan-kam hollarda qo'llanilgan. Bu dastlab harbiy harakatlarning hayotiy muhim vaziyatlarida armiya qo'mondonligi uzluksizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan edi. Ammo tez orada rimliklar, har yili saylangan magistratlar sonini ko'paytirmasdan yoki siyosiy rahbar va harbiy qo'mondonlik o'rtasidagi an'anaviy aloqani uzmasdan, legionlar qo'mondonlari sonini to'ldirish uchun ajoyib vosita ekanligini tushunishdi. Konsullar vazifasini yengillashtiruvchi ikkinchi o'zgarish, plebey mansabdor shaxslarni xususan, tribunlarni davlat xizmatiga jalb qilish bo'ldi.

Mil. avv. IV asrning oxiriga kelib Rim kambag'allarining gardaniga tushgan iqtisodiy yetishmovchiliklar, mustamlakachilik va yangi zabt etilgan o'lkalarga joylashtirish dasturi tufayli sezilarli darajada yengillashdi. Bundan tashqari, tribunlar tomonidan qabul qilingan rasmiy tan olinishi va o'zlarining faoliyatida tayangan yig'ilish, ularni birinchi bo'lib mil. avv. 449-yilda va keyinchalik esa, mil. avv. 287-yilda Gortenziya Qonuni (Lex Hortensia) asosida, ichki boshqaruvning juda qulay yashirin vositasiga aylandi. O'rta Respublika davrida tribunlar asosan hukmron sinfning tarkibiy qismi bo'lgan plebsning taniqli vakillari bo'lib, mazkur lavozimni oliy magistrat yo'lida asos sifatida qabul qilganlar. Sinf sifatida ular Liviya so'zlariga ko'ra, asta-sekinlik bilan o'zlarini "zadagon qullari" sifatida namoyon qila boshladi. Qadimgi mualliflar esa, tribunlar Senat a'zolari ko'pchiligining qarshiligiga duch kelgan vaziyatlarni ko'p ta'kidlaydi. Ushbu mansabdor shaxslar ozchilik fikrini ifodalash uchun noyob imkoniyatga ega bo'lib, hech qanday tarzda asosiy da'volarni rad etmaydi. Ularning ba'zilari har doim yuqori magistratlarni sud ishlarini amalga oshirish va amaldagi qonunlarni qabul qilish sohasidagi o'z vazifalarining asosiy qismini bajarishdan ozod qilishlari mumkin edi.

Rimning o'sib borayotgan ma'muriy talablarini qondirish uchun zarur va muqarrar bo'lgan har yili saylangan magistratlar

sonining ko'payishi bo'ldi. Shunday qilib, mil. avv. 267-yilda kvestorlar soni to'rt nafardan sakkiz nafargacha ortdi. Dastlab tergov ishlari bilan shug'ullangan mazkur mansabdor shaxslar, klassik Respublika davrida turli xil, bir qarashda bir-biriga bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarishgan. Masalan, shahar xazinasini muhofaza qilish yoki qo'mondonlik qo'shinlarini ta'minlash katta boshlig'i yoki viloyat rahbari kabi xislatlari to'g'ri kelmagan ishlarni amalga oshirgan, ammo ularning eng muhim vazifasi, moliyaviy ishlarni idora qilish bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilgan kvestorlar sonining ikki barobarga oshishi va endilikda ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan fuqarolar sonining ko'payishi natijasida daromadlarning oshishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Rimliklar tomonidan qabul qilingan qarordan ikki yil oldin Italiyaga nisbatan o'z majburiyatlarini bajarish va o'zlarining kumush tangalarini zarb qilishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Birinchi Puni urushidan keyin pretorlar soni ham ortdi. Miloddan avvalgi 242-yilda yagona Rim pretoriga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar orasida huquqiy tartibni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan, ajnabiylar ishlari bo'yicha yana bir pretor (praetor peregrinus) qo'shildi. O'n besh yil o'tgach, mil. avv. 227-yilda, yaqinda qo'shib olingan Rimning dengiz orti provinsiyalari – Sitsiliya va Sardiniyada har yili almashuvchi gubernator sifatida, yana ikki nafar pretor paydo bo'ldi. Rimliklar miloddan avvalgi III asrlarda ham pretor maqomiga imperiya xo'jayini va konsullarning kichik hamkasbi sifatida katta ahamiyat berdi. Birinchi pretor yoki praetor urbanus deb nomlanib kelgan mazkur lavozimning dastlabki bosqichlarida ko'pincha legion ustidan qo'mondonlik vazifasini bajardi. Bu vaziyat mil. avv. 232-yilga qadar davom etdi. Shu bilan birga, pretorlar qo'shinlar ustidan qo'mondonlik qilish qobiliyatiga ega bo'lganligi tufayli yangi viloyatlarni boshqarish uchun eng yaxshi tayyorlangan kishilar edi. Bundan tashqari, ajnabiylar ishlari bo'yicha pretor lavozimini joriy etish zaruriyatining o'zi va uning ortidan Pletoriya qonunining (Lex Plaetoria) qabul qilinishi (aniq sanasi noma'lum), shahar pretoriga o'n kundan ortiq muddatda Rimda bo'lmaslikni taqiqlab qo'ydi. Bu esa, huquq-tartibotni ta'minlash sohasida

pretorlarga yuklatilgan vazifalarning mashaqqati asta-sekin oshib borganligidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi II asr boshlariga kelib rimliklar harbiy rahbarlarga o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish uchun hukmron sinfning ancha moslashuvchan vositasi preturaga qaraganda, promagistratura ekanligini anglay boshladilar. Ularning xizmatidan foydalanish oliy magistratlar sonining keskin o'sishiga yo'l qo'ymadi va ayni paytda mavjud iste'dodlardan to'g'ri foydalanishga katta yordam berdi.

Albatta, Rim hududining kengayishi komitsiya ishtirokiga katta ta'sir ko'rsatdi. Barcha yig'ilishlarda har bir fuqaro tomonidan erkin amalga oshirilgan ovoz berish huquqi, endilikda amalda ba'zi kishilar uchun imtiyozga aylandi. Shu bilan birga, tribut komitsiyalari va plebey yig'ilishlari uchun, trib asosiy ovoz beruvchilar birligi edi. Bu turdagi yangi bo'linmalarni yaratish jarayoni, Rimdan uzoqda yashovchi fuqarolar guruhlari ro'yxatga olinishi, yana uchta muhim oqibatlarga olib keldi. Birinchidan, bu ko'rib chiqilayotgan organlar faoliyatiga vakillik tomonini kiritdi, uzoq tribdan kelgan bir necha fuqarolarga, Forum bilan qo'shnichilik asosida yashovchi ko'plab odamlar singari ovoz berishda bir xillikni kafolatlab, shahar triblaridan biriga ro'yxatga olindi. Ikkinchidan, qishloq uyushmasi ko'pchilik ovozlarni qabul qildi, bu aslida Rimda yashagan va ishlaganlar ovozidan mahrum bo'ldi. Nihoyat, uchinchidan, ushbu jarayon yaqin kelajakda na nomzodlar, na qonun chiqaruvchilar saylovchilarning keng ommasiga bevosita murojaat qilib, o'z manfaatlarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lmasligini ta'minladi. Rim hukmron sinfining vakillari, bu barcha o'zgarishlarni osonlik bilan qabul qildilar.

Mil. avv. III asrda nobilitet uchun o'ziga xos xususiyat kasb etgan, manfaatlar va majburiyatlarning umumiyligiga katta ahamiyat berib, ularning orasida aniq ziddiyatlarning mavjudligini ham inkor etmaydi. Har yili bo'ladigan saylovlardagi raqobat ushbu ixtiloflarni aniq namoyon qildi. So'nggi yillarda olimlarning qayd etishicha, Senatning ichki doirasi hech bo'lmaganda, ikki yoki undan ortiq bir-biridan farq qiluvchi guruhlar yoki fraksiyalarga bo'lingan. Ularning asosiy maqsadi o'z a'zolarining saylovlardagi imkoniyatlarini oshirish edi.

11-MAVZU. MIL. AVV. III-II ASRLARDA RIM RESPUBLIKASI

Reja:

1.Rim-Karfagen urushlari.

2.Miloddan avvalgi III-II asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi.

3.Rim respublikasining tashqi siyosati.

4.Rimda ichki siyosat va siyosiy kurashning keskinlashuvi.

Rim-Karfagen urushlari. Apennin yarim orolining janubini bo'ysundirgan Rim respublikasi o'zining chegaralarini Sitsiliya orolidan ajratib turuvchi Messeniya bo'g'ozigacha kengaytirdi. Bu yerdagi mavjud yunon koloniyalarini mil. avv. IV-III asrlarga kelib gullab-yashnaganligi jangovar qo'shnilarining, eng avvalo, Rimning e'tiborini tortadi.

Mil. avv. III asrda, ayniqsa, Sirakuza kuchayib orolning katta qismini o'z ta'siriga bo'ysundirdi. Bu vaqtda Apennin yarim orolini Sitsiliyadan ajratib turadigan Messina ham rivojlangan edi. Yunon shaharlari avvaldan qudratli Karfagen bilan dushmanlik munosabatlarida bo'lgan. Finikiya koloniyalaridan biri bo'lgan Karfagen shimoliy Afrika qirg'og'idagi yarim orolda joylashgan edi. Karfagenliklar Sitsiliya orolining g'arbiy qismidagi Lilibey, Drepana, Panorm shaharlarida mustahkam o'rnashib olib, u yerni yunonlar bilan kurashdagi ekspansiyaning tayanchiga aylantirishgan. Apennin yarim orolini egallagan Rim respublikasi Sitsiliya ishlariga aralasha boshlaydi. Bu esa birinchi navbatda Karfagenning manfaatlariga zid edi. G'arbiy O'rtayer dengizidagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lgan Karfagen Sitsiliyani o'z ta'sir zonasi deb hisoblab, muntazam kuchsizlanayotgan yunon shaharlarini siqib chiqargan. Mil. avv. 264-yilgacha Rim va Karfagen tinch munosabatlarda yashagan. Savdo va dengizda suzish bo'yicha o'zaro shartnomalar ikki o'rtada Polibiyning ma'lumotlariga ko'ra 3 marta (miloddan avvalgi 348-, 306- va 280-yillar) tuzilgan. Mil. avv. 280-yildagi shartnoma Rim va Karfagen o'rtasida faqatgina savdo emas, balki siyosiy aloqalarga ham oid edi. Rim Apennin yarim orolini bo'ysundirish bilan band

bo'lgan bir paytda Karfagen Shimoliy Afrikani egallagan, bu borada ularning manfaatlari to'qnashmagan. Biroq Rimning janubiy Italiyaga suqilib kirishi vaziyatni o'zgartirib yuborgan. Kuchli davlatga aylangan Rim respublikasi Apennin yarim orolini birlashtirgandan so'ng qo'shni hududlarga, birinchi navbatda boy Sitsiliyaga da'vogarlik qila boshlaydi. Bu da'volar Rimning ekspansiyasidan tashvishga tushgan Karfagen bilan to'qnashuvga olib kelishi muqarrar edi.

Rim bilan Karfagen o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqargan yana bir omil savdo tarmoqlari va O'rtayer dengizida gegemonlik uchun kurash edi. Rimning joylashuv o'rni unga O'rtayer dengizi bo'yidagi boy yerlarda savdo qilish uchun qulay imkoniyat yaratgan. Rimlik savdogarlar quruqlik va dengiz orqali savdo qilganlar. Ular Rim vinosi va zaytun yog'ini boshqa hududlardagi turli xil oziq-ovqatlar, xomashyo materiallari va hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlagan. Biroq boshqa kuchli va qudratli shaharlar, birinchi navbatda Karfagen Rimning O'rtayer dengiziga suqilib kirishi uchun to'sqinlik qilgan. Uning kuch-qudratini o'sishi tez orada Rim bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvga olib keldi.

Tajovuzkor harakatlarni birinchi bo'lib karfagenliklar boshladi. Mil. avv. 272-yilda Rim qo'shinlari Tarentni qamal qilayotgan bir paytda karfagenliklar harbiy eskadrasi Rim va Karfagen o'rtasidagi shartnomaga zid ravishda bandargohga kiradi va shaharni egallamoqchi bo'ladi. Lekin bu urinish muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Tarent zodagonlari shaharni rimliklarga topshirishni afzal ko'rishadi. Karfagenliklar kechirim so'rashga majbur bo'ladi, lekin Rim va Karfagen o'rtasidagi do'stona aloqalar buziladi. Har ikki taraf ochiq to'qnashuvga tayyorlana boshlaydi.

Karfagen Finikiya koloniyasi hisoblanib, (tarjima qilinganda – yangi shahar) miloddan avvalgi IX asrning oxirgi choragida tirliklar tomonidan, Tunis qirg'og'i bo'ylarida, barpo etilgan edi. Vaqt o'tgani sari Karfagen boy va qudratli davlatga aylandi. Miloddan avvalgi III asrlarga kelib uning hukmronlik doirasi Shimoliy Afrika qirg'oqlaridan Pireney yarim oroli janubigacha, Sitsiliyaning aksar hududlaridan Sardiniya, Korsikaga hamda Balear orollariga tomon kengaydi.

Karfagenda boy rivojlangan hunarmandchilik ishlab chiqarishi mavjud edi. Qo'lyozmalarda tosh yo'nuvchilir, marmar o'ymakorlari, chilangarlar, arrakashlar, misgarlar, quyuvchilar haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Import qilinadigan xomashyoga bog'liq bo'lgan metallurgiya bilan bir qatorda zargarlik, kulolchilik, to'qimachilik, yog'ochga ishlov berish hamda kema qurilishi ishlari ham rivojlanib boradi. Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan yuqori-professional jamoalarga birlashgan erkin ustalar hamda qullar mashg'ul bo'lishgan. Karfagenliklar kattagina flotga ega bo'lishgan. Ular yunonlar, etrusklar, misrliklar hamda finikiyaliklar, Janubiy Arabiston va Qora dengiz bo'yida yashovchi xalqlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borishgan. Subtropik iqlim hamda hosildor yerlarni mavjudligi qishloq xo'jaligining gullab-yashnashiga katta imkoniyatlarni yaratgan. Karfagen atrofidagi yirik qulchilik mulklarida zaytun va uzumlar, bodom va Finikiya palmalari yetishtirilgan.

Karfagen antik davr "megapolislaridan" biri bo'lgan. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi 149-yilga kelib uning aholisi 700 mingdan ortiq bo'lgan kishini tashkil etar edi (Rimda miloddan avvalgi III asr oxiriga kelib aholi soni salkam 250 ming kishi atrofida bo'lgan). Karfagen oqsuyaklar respublikasi sanalgan. Ijro hokimiyati tepasida har yili boshqaruv elitasidan saylanadigan ikki sufet ("sudyalar") turishgan. Sufetlarning harbiy vakolatlari bo'lmagan: ular urush bo'lgan vaqtlarda yollanma qo'shinga boshchilik qiluvchi sarkardalarga berilgan. Ijro hokimiyati 300 kishilik umrbod saylanadigan oqsoqollar qo'lida bo'lgan. Hokimiyatnig vazifalarini 30 talik Kengash boshqargan. Har ikkala Kengash nisbatan boy hamda taniqli urug'lardan bo'lgan vakillardan tarkib topgan edi.

Puni urushlari. Birinchi Puni urushi. Nihoyat mil. avv. 264-yilda ikki davlat o'rtasida urush boshlandi. Bu Puni urushlari (rimliklar Karfagenni Puni deb atashgan) sifatida mashhur bo'lgan hamda uzoq davom etgan urushning boshlanishi edi. Mil. avv. 264- va 146-yillar davomida ikki davlat o'rtasida uchta urushlar bo'lib o'tadi. Birinchisi Sitsiliya va G'arbiy O'rtayer dengizida

hukmronlik uchun kurash bo'lib, mazkur urush 23 yil (mil. avv. 264-241-yillar) davom etdi.

Rim respublikasi va Karfagen o'rtasidagi Sitsiliya uchun bo'lgan urush miloddan avvalgi 264-yilda avj pallasiga chiqadi. Messana va Sirakuza o'rtasidagi mahalliy urush Puni urushlarini boshlanib ketishi uchun bahona bo'ladi. Messanaliklar Sirakuza hukmdori Gieron II bilan bo'lgan urushlar natijasida nihoyatda tang ahvolda qoladilar va Rim respublikasidan yordam so'rab, murojaat qiladilar. Sitsiliya ishiga aralashuv Rim uchun Karfagen bilan muqarrar urush degani edi. Bu orada Komitsiyalar bosimi ostida Senatning ba'zi bir o'zgarishlaridan so'ng nihoyat mamertinlarni Italiya ittifoqiga qabul qiladi va ularga konsullik armiyasini yordamga yuboradi. Rim tomonidan keskin harakatlar olib borilayotganligi tufayli Karfagen Rim respublikasiga urush e'lon qiladi hamda jangovar harakatlar boshlanib ketadi.

Sitsiliya tomon harakatlangan rimliklar Messanani qamal qilayotgan Sirakuza va karfagenliklar qo'shinini tor-mor qiladi. Bir yildan so'ng ular Sirakuza devorlariga yetib borib, uning tirani Gieronni tinchlik shartnomasini tuzishga majbur qiladi. Mil. avv. 262-yilda Rim qo'shinlari karfagenliklar tomonidan kuchli qal'aga aylantirilgan Akragant shahriga qarab yuradilar. 6 oylik qamaldan so'ng Akragant shahri egallanib, Karfagen qo'shinlari orolning g'arbiga siqib chiqariladi. Lekin bu yutuqlar rimliklar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmadi. Chunki bu vaqtda Rim respublikasi dengiz flotiga ega emas va bu sohada Karfagen bilan raqobatlasha olmas edilar. Shu orada dengizda hukmron bo'lgan Karfagen floti Rim-italyan savdosini to'xtatib qo'ygan holda, raqibga jiddiy moddiy zarar yetkazadi. Karfagen kuchli flotga ega bo'lib, dengiz orqali Apeninning kam himoyalangan hududlariga reydlar o'tkazib turardi. Kuchli flotsiz Rim respublikasi urushni tez orada muvaffaqiyatli yakunlay olmasligi aniq bo'lib qoladi. Shu jihatdan Rim qisqa vaqt ichida barcha vositalarni ishga solib, mil. avv. 260-yilda 120 ta jangovar kemadan iborat harbiy flotga ega bo'ldi. Shu yili Lipar orollari yaqinidagi birinchi to'qnashuvda karfagenliklar Rim floti ustidan dastlabki g'alabaga erishadilar. G'alabadan ruhlangan Karfagen qo'mondonlari Mila yaqinida hal qiluvchi zarba berishga chog'lanadilar. Biroq bu jang Karfagen

flotining mag'lubiyati bilan tugaydi. Karfagen floti 50 ta kema va 3000 nafar kishidan ajralib, 7 ming kishisi asirga olinadi. Rim konsuli Gay Duiliy galera palubalarida qayta tashlangan abordaj ko'priklaridan muvaffaqqiyatli foydalanadi. Rimliklarga kemasozlar tomonidan o'ylab topilgan ilmoqlar va ko'prikchalar katta yordam beradi. Ular yordamida kema bog'lanib, rimlik legionerlar dushman kemasiga o'tib olardilar va uni egallardilar.

Miloddan avvalgi 259-257-yillarda harbiy harakatlar har ikkala tarafning yo'qotishlarisiz Sitsiliya hamda Sardiniyada kechadi. Miloddan avvalgi 256-yili Rim floti Sitsiliyaning janubiy qirg'oqlari yaqinida Eknom burni yonida Karfagen eskadrasini tor-mor keltirib, (350 tacha kema) Afrika qirg'oqlari tomon yo'l oladi. Rimliklar urush harakatlarini dushman hududi Afrikaga ko'chirishga erishdilar. Qirg'oqlarga joylashib olgan rimliklar qisqa vaqt ichida, Appian so'zlariga ko'ra, Karfagenga tegishli bo'lgan 200 ta shahar va qishloqlarni bosib oladi. Tunisda qishqi lagerni barpo etgan konsul Mark Atiliy Regul Karfagenni qamal qilish orqali navbatdagi kampaniyaga (hujumga) tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Voqealar rivojini bunday tus olishini kutmagan Karfagen tinchlik sulhini so'rashga majbur bo'ladi. Ammo ustunlikni his qilgan Rim konsuli Atiliy Regul og'ir shartlarni qo'yadi. Karfagenliklar uni rad qilib, himoyaga kuchli tayyorlanadilar. Armiyaga yangi yollanma qo'shin jalb qilinadi, barcha erkin fuqarolar safarbar qilinadi, qo'shinga boshliq etib spartalik mohir lashkarboshi Ksantip tayinlanadi.

Afrikaga birinchi yurishda rimliklar yetarli tayyorgarlik ko'rmaganlari, g'alabaga to'liq ishonib, qo'shin va flotning bir qismini chaqirib olganliklari uchun urushda muvaffaqiyatsizlikka uchradilar. Undan tashqari Rim eskadrasi Regul qo'shinlarini qutqara olmay, qaytishda qum bo'roniga duch kelishdi, oqibatda kemalarning to'rtdan uch qismi halok bo'ldi. Natijada Rim yangidan armiya tuzib, flotni qurollantirishga majbur bo'ldi.

Urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko'chadi va mil. avv. 255-241-yillarda davom etadi. Bu urushlarda goh u taraf goh bu taraf g'alabalarga erishadi.

Miloddan avvalgi 254-yili rimliklar Panormni qo'lga kiritishadi, biroq keyingi yillarda bo'ronlar sabab yana 150 ta

kemadan ajraladilar. Moliyaviy mashaqqatlar sabab yangi kemalarni jihozlash ishlari sekin kechadi. Shu bilan birgalikda miloddan avvalgi 252-249-yillarda rimliklardan Karfagen qo'shinlariga berilgan zarbalar va mag'lubiyatlar seriyasidan so'ng karfagenliklar o'zlarining barcha egallab turgan yerlaridan faqat Lilibey hamda Drepanani saqlab qolishadi, xolos.

Rimliklar endi Lilibeyni qamal qilishadi, biroq karfagenliklar qamal qilingan yerlarni dengiz tarafdan barcha zaruriy ashyolar bilan qurollantirishganliklari bois qamal uzoqqa cho'ziladi. Miloddan avvalgi 249-yilda konsul Publiy Klavdiy Pulxr qo'mondonligi ostida Rim floti Drepanada tor-mor etilgandan so'ng, 93 ta kemadan ajralishadi, 8 mingta kishi halok bo'ladi va 20 ming kishi asir olinadi, keyin esa ikki boshqa eskadra bo'ronda talafotga uchraydi, karfagenliklar dengizda mutloq hukmron bo'lishadi. Sitsiliyada ularning qo'mondoni Gamilkar Barka ("Chaqmoq") miloddan avvalgi 247-yildan rimliklarga sezilarli zarbalar bergan holda muvaffaqiyatli janglar olib boradi.

Har ikkala taraf ham uzoq davom etgan urushlardan holdan toygan edi. Miloddan avvalgi 248-243-yillarda harbiy harakatlar dengiz hamda quruqlikdagi kichik to'qnashuvlar bilan cheklanadi. Rimliklarning holati biroz yaxshilanadi, chunki ular Sitsiliyaning ko'pgina yerlariga egalik qilib, oxirgi karfagenliklarning istehkomlari bo'lgan-Lilibey hamda Drepanani qamal qilishadi. Biroq flotsiz, dengiz qo'shinlarisiz dushmanga qaqshatqich zarba berish imkonsiz bo'lib, kemalarni qurishga g'aznada mablag' mavjud emas edi.

Shunday vaziyatda rimliklar aholidan o'z xohishlari bilan yig'ilgan pullar hisobiga 200 ta galeralik eskadrani vujudga keltirishdi. Miloddan avvalgi 241-yilning martida Egat orollaridagi janglarda pretor Publiy Valeriy Falton hamda prokonsul Gay Lutatsiy Katul 120 ta kemasidan ajralgan Gannonning Karfagen eskadrasini tor-mor keltiradi.

Hal qiluvchi jang mil. avv. 241-yilda Sitsiliyaning g'arbidagi Egat orollari yonida bo'lib o'tadi. Karfagen floti batamom tor-mor qilinadi. Karfagen tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'ladi va Sitsiliyani qo'ldan boy beradi hamda 3200 kumush talant (deyarli 84 tonna kumush) miqdorida tovon to'laydi. Rimliklar

mil. avv. 238-yil Karfagenning og'ir ahvolidan foydalanib, Korsika va Sardiniya orollarini qarshiliksiz bosib oladilar. Natijada Rim respublikasi G'arbiy O'rtayer dengizidagi eng kuchli davlatga aylanadi.

Ikki Puni urushi oralig'idagi davr tribun komitsiyalaridagi plebsning (olamonning) siyosiy ahamiyati ortib borishi bilan yodda qolgan bo'lib, bu Rim davlatchiligining sezilarli darajada demokratlashuviga olib keldi.

Bunga mos ravishda Senatning siyosiy ta'siri pasayib bordi. Rimdagi demokratik harakatlar boshida miloddan avvalgi 232-yilda tribun Gay Flaminiy Nepot turar edi. O'z faoliyati davrida u kam ta'minlangan plebeylar orasida Pitsenadagi miloddan avvalgi 285-yildayoq egallangan gallar yerlarini bo'lib olish haqidagi qonunni yaratib, bu narsa plebeylar orasida katta muvaffaqiyat qozonadi. Senatning qarshiligiga qaramasdan Flaminiy konsul hamda senzor bo'lib saylanadi (miloddan avvalgi 223-yil hamda miloddan avvalgi 220-yillar). O'zining senzorlik yillarida 4 ta shahar tribiga erkin dehqonlarni ro'yxatga olish haqidagi qonunni yaratish tashabbuskori bo'lgan. Miloddan avvalgi 218-yilda Flameniy ta'siri ostida komitsiyada senatorlarning savdo-sotiq, sudxo'rlik va boshqa moliyaviy operatsiyalar bilin shug'ullanishini taqiqlovchi qonunni qabul qiladi va bu huquqlar otliqlar qo'liga o'tgan edi. Aynan Flameniy tashabbusi bilan urushqoq gallar yashab kelgan hosildor yerlarni egallab olish uchun Shimoliy Italiyaga yurishlarni tashkil qiladi.

Kelt qabilalari yashaydigan hudud rimliklarga Galliya nomi bilan tanish bo'lib, tarixdan ikki yirik hududga – Sizalpin Galliyasi (jug'rofik jihatdan bu Shimoliy Italiya) hamda Gransalp Galliyasi (bu hozirgi Frantsiya, Shveytsariya, Belgiya hamda Lyuksemburg hududlari)ga ajratilgan. Ikkiga bo'linganiga qaramay gallar ko'pincha Rimga talonchilik yurishlari uchun birlashishgan. Masalan, miloddan avvalgi 238-yilda shunday bo'lgan edi, o'shanda rimliklar baxtiga Karfagenga qarshi kuchsizlangan harbiy kurashlarda gallar yurishdan oldin o'zaro bahslashib qolib, ular o'rtasida o'zaro ziddiyatlar boshlanib ketadi. Miloddan avvalgi 232-yilda ular yana birlashib, Rim tomon harakat boshlaydilar. Mil. avv. 225-yili ikki konsullik armiyasi orasidagi

qoyalarga tushib qolgan gallar Telamon yaqinidagi jangda tor-mor keltiriladi. Keyinchalik rimliklarga lingonlar, bir yildan so'ng esa – anarlar bosh egadi. Natijada Rim hukmronligi to'liq Pad daryosining janubiy past tekisliklari ustidan o'rnatiladi (zamonaviy Po yerlari). Miloddan avvalgi 223-yilda Flaminiya armiyasi Padni bosib olib insubrlar hududiga bostirib kiradi. Platsiniya bo'yida bo'lgan jangda insubrlar mag'lubiyatga uchraydi, keyinchalik esa miloddan avvalgi 222-yilda ularning asosiy bosh shahri – Mediolan shahri (hozirgi Milan) vayron bo'ladi. Natijada butun Sizalpin Galliyasi Rim nazorati ostiga o'tadi.

Metropoliya bilan birgalikda bosib olingan yerlar Flaminiy yo'llarini birlashtiradi (miloddan avvalgi 220-yillar). Gannibal bilan urush yillarida gallar karfagenliklar tomonida jang qilishgan. Italiyadagi miloddan avvalgi 201-yilda harbiy harakatlar yakuniga yetgach bo'ylar (bo'y deb nomlangan kelt qabilalaridan biri) kurashni yana boshlab yuboradilar, bir yildan so'ng esa ularga insubrlar ham qo'shiladi. Qo'zg'olon ko'targanlar Platsensiyani vayron etib, Kremonani qamal qiladilar. Urush taraflarning galma-gal muvaffaqiyatlari bilan miloddan avvalgi 196-yilga qadar cho'ziladi va o'shanda qon to'kib charchagan insubrlar Rim bilan tinchlik sulhini tuzadilar. Bir necha yillar o'tgach bo'ylar taslim bo'ladi. (Miloddan avvalgi 191-yil). Yakunda tezlik bilan romanlashishga ulgurgan Silizalpin gallari Transalp Galliyasidan bo'lgan qabiladoshlarining hujumlaridan Italiyaning qalqoniga aylanishadi.

Ikkinchi Puni urushi (mil. avv. 218-201-y.). Karfagen Birinchi Puni urushidan so'ng kuchsizlangan edi. Lekin u tez orada o'zini tiklab olib, yana urushga tayyorlana boshlaydi. Harbiy harakatlarning tepasida Birinchi Puni urushi qahramoni, lashkarboshi va mohir diplomat Gamilkar Barka turardi. U urush harakatlarini dushman hududiga ko'chirib g'alaba qozonish mumkin deb, hisoblardi. Gamilkar Rimga Iberiya orqali hujum qilishni maqsad qiladi. U mil. avv. 237-yilda Iberiyaga otlanadi. Gamilkar kuch va diplomatiya orqali yarim orolning katta qismini egallaydi. Shuningdek, u yerda kuchli yollanma qo'shin tuzib asosiy tayanch baza – yangi Karfagen (zamonaviy Kartaxena)

shahriga asos soladi. Iberlar bilan jangda Gamilkar halok bo'lib, o'rnini Gastrubal egallaydi. Miloddan avvalgi 221-yilda u ham iberlar bilan jangda halok bo'ladi. Karfagen qo'shinlari o'zining yo'lboshchisi sifatida Gamilkar o'g'illarining to'ng'ichi, 26 yoshli Gannibalni (mil. avv. 247-183-y.) tanlaydilar. Gannibal otasidan nafaqat buyuk sarkardalikni, balki Rimga nisbatan bo'lgan cheksiz nafratni ham meros qllib olgan edi. Mil. avv. 219-yili u Rimning ittifoqchisi bo'lgan Iberiyaning sharqiy qirg'oqlaridagi shahar – Saguntni qamal qiladi. Bu voqea Rimning Karfagen bilan ikkinchi urushi boshlanishiga bir bahona bo'ldi. Sarkarda yorqin harbiy strateg bo'lib, Karfagenning avvalgi mag'lubiyati uchun qasos olishni xohlar edi.

Miloddan avvalgi 218-yili Gannibal bo'y va insubr qabilalari bilan ittifoqchilikda Rimni bosib olish uchun 5000 ta piyoda askar, 9000 ta ming otliq, 60 ta fildan iborat armiya tuzadi. O'sha paytlari Karfagen armiyasi mahalliy qabilalarning jiddiy qarshiligini yengib o'tadi va Shimoliy Iberiyani ortda qoldirgan holda Pireney orqali qurol, oltin hamda diplomatiya yordamida Janubiy Galitsiyaga eson-omon yetib boradi va G'arbiy Alpga kirib keladi. Konsul Publiy Korneliy Stsipion Shimoliy Italiyaning uzoq hududlariga dushmanning kirib borishini to'xtata olmaydi. Miloddan avvalgi 218-yilning kuzida Gannibal otryadlari 15 kun ichida Alp qoyalarini ortda qoldirib biror-bir to'siqlarsiz vodiyga kirib boradi. Karfagenliklarning yo'qotishlari nihoyatda katta edi: Gannibal qo'lida atigi 20 ming piyoda, 6 ming otliq hamda bir nechta fillar qoladi. Lekin u Rimga qarshi qo'zg'olon ko'targan gallar hisobiga armiyasini 64 ming kishiga ko'paytirib oladi.

Miloddan oldingi 218-yilning qishida Titsin hamda Trebiy daryolari bo'yidagi (hozirgi Tichino hamda Trebbiya) shafqatsiz janglarda Gannibal har ikkala, Publiy Korneliy Stsipion hamda Tiberiy Sempronly Longlarning qo'shinini tor-mor etib, Shimoliy Italiya hukmdoriga aylanadi. U Rim hukmronligidan norozi bo'lgan italiklarni o'z tomoniga og'dirishni mo'ljallagan edi. Rim tepasida jiddiy xavf tug'iladi. Miloddan avvalgi 217-yilning bahorida gallarni yaqindagina mag'lub etgan Rim plebsi sarkardasi, konsul Gay Flaminiy Nepot raqibni Apennin orqali

o'tishiga qarshilik qilishni rejalashtiradi; bunga erisha olmagach, u ikkinchi konsullik armiyasini kutib o'tirmasdan, uni aylanib o'tgan dushmanni ortidan tashlanadi, ammo Gannibalning mohirona manyovri natijasida Trazimmen ko'li hamda tog'lar orasidagi tor yo'lda pistirmaga uchrab, tuzoqqa tushib qoladi. Rimliklar 30 ming kishilik qo'shinni yo'qotib mag'lub bo'ladi; Flaminiyning o'zi ham halok bo'ladi (miloddan oldingi 217-yilning iyuni). Etruriyani egallagan Gannibal Janubiy Italiya tomon yo'l oladi.

Nihoyatda xavf-xatarga boy bir vaziyatda Rimda qari va tajribali diktator etib Kvint Fabiy Maksim saylanadi. U murakkab bir vaziyatda eng to'g'ri taktikani tanlaydi – muqarrar urushni chetlab o'tadi. Taktikaning ana shunday namunasi tufayli ulkan g'alabalar bo'lmaydi, biroq shu bilan birgalikda mag'lubiyatlarga ham uchramaydi. Gannibal esa o'zi o'ylaganidek Rimga qarshi italiklarni oyoqqa turg'iza olmadi. Uning ahvoli sekin-asta yomonlashib bordi. Biroq Fabiyning ehtiyotkorona taktikasi Rim fuqarolarining keng qatlamida kattagina noroziliklarni keltirib chiqardi. Qariya diktatorni qat'iyatsizlikda, no'noqlikda va hattoki qo'rqoqlikda ayblashadi va uni "Gannibalning tog'asi" deb ataydilar. Unga nisbatan salbiy laqab Kunkator ("Sustkash") deb nom berilgan edi.

Fabiy o'zining vakolati tugashi arafasida hokimiyatni tashlab Rimga qaytadi, uning boshqaruv vakolati miloddan avvalgi 216-yilda konsullar Gay Terensiya Varron hamda Lutsiy Emiliy Pavelga o'tadi. O'n yildan ortiq vaqt davomida u o'z qo'shinlari bilan Italiya yarim orolining yuqori va quyi qismlariga yurishlar qiladi. Gannibal o'zining eng buyuk g'alabasiga miloddan avvalgi 216-yilda Kanna jangida erishgan. Miloddan avvalgi 216-yil avgustining boshlarida ulkan Rim qo'shinlari (80 ming piyoda va 6 ming otliqlar) Apuliyadagi Kanna shahri yaqinidagi tekisliklarda Gannibal armiyasi (40 ming piyoda hamda 10 ming otliq suvoriylar) bilan to'qnash keladi. Ehtiyotkor Emiliy Pavel o'z tarafdorlarini jangdan tiyib turishga urinadi, biroq Varron o'z bilganidan qolmaydi va qo'shinni lagerdan olib chiqadi. Rim piyoda qo'shinlari 70 ta qanotga tizilib to'rt burchakli qalqonni vujudga keltiradi, qanotlarni suvoriylar o'rab turadi. Gannibal esa o'z piyoda qo'shinlarini dushmanga qarshi turgan yarim oy

shaklida saflaydi. Markazda nisbatan kuchsiz va ishonchsiz bo'lgan gallar hamda iberlar turadi. Liviyaliklarning saralangan qismlari yarim oyning chekka qismlaridan joy oladi. Oldinda esa yengil piyoda askarlar bo'linmasi, qanotlarda esa – og'ir gall-iberiy hamda yengil numidiy otliqlari joylashadi.

Avvaliga rimliklar kutilganidek, dushmanlar markazini qisib bora boshladilar, buning natijasida yarim oy dushman safining chekkalarini egallab olgan holda "qiyshayadi" hamda Rim piyoda askarlari sekin-asta qop bo'lib cho'ziladi. Bir vaqtning o'zida Gannibalning ko'p sonli suvoriylari Rim armiyasini tarqatib yuborib rimliklarga orqa tomondan zarba beradi. Tez orada halqa yopilib, Rim qo'shinlari safi aralashib ketadi va qurollangan rimliklarni shafqatsizlarcha kaltaklash boshlanib ketadi. Jang maydonida 54 ming legioner, 80 ming senator hamda 25 ming oliy qo'mondonlar Emiliy Pavel bilan birgalikda halok bo'lgan edi. Varron qochib ketadi, 18 ming kishilik rimliklar asir tushadi. Karfagenliklar hammasi bo'lib 5,7 ming kishini yo'qotadi. Gannibalning yorqin g'alabasi harbiy san'atning noyob durdonasi sifatida asrlar davomida yodda qoladi, "Kannalar" so'zi mashhur bo'lib ketadi. Gannibal uchun Rimga yo'l ochiladi.

Ispaniyadagi hamda Sharqdagi Rim istilochiligi (miloddan oldingi 200-133-yillar). Miloddan avvalgi II asr boshlarida Rim Sharqda ellinistik davlatlarga qarshi yo'naltirilgan tajovuzkorona siyosatni olib bordi. Mazkur davrda Rimdagi mavjud qulchilik munosabatlari hamda tovar ishlab chiqarish rivojlanishiga Karfagen bilan jangovar urushlar natijasida qo'lga kiritilgan ulkan moddiy boyliklar va qullarning oqimi kattagina turtki bergan edi.

Rim istilochiligining sharqqa tomon siljib borishi oxir-oqibat ichki hamda tashqi ziddiyatlar ta'sirida zaiflashgan ellinistik mamlakatlarning egallab olinishi bilan yakuniga yetdi.

Tashqi siyosiy yo'l Rim jamiyatida kuchli kelishmovchiliklarning asosiy sababchisi bo'lib qoldi. Komitsiyalarda plebeylar Markaziy Galliyada mustamlakachilik harakatlarini kengaytirishni talab qila boshladilar. Shu orada Senat oligarxiyasi (zodagonlari) Sharqqa yana ham faolroq siyosiy ta'sirlarni o'tkazishga moyillik bildirdilar. Qolaversa, senatda

miloddan avvalgi III asr oxirlaridayoq Rim respublikasining ham tashqi, ham ichki muhitida turgan vazifalarni turlicha tushungan hamda talqin qiladigan ikki to'da paydo bo'lgan edi.

Ana shunday to'dalardan birining tepasida taniqli aristokrat, Senat prinsepsi, Gannibalni mag'lub etgan Ssipion Afrikalik turar edi (Miloddan avvalgi 199-184-yillar). U va uning hamtovoqlari (tarafdorlari) Rimga tobe davlatlar tizimini yaratishga urindilar va mos ravishda bosib olingan hududlarga provinsiyalar maqomini berishni yoqlab chiqdilar. Shu bilan birgalikda Ssipion to'dasi plebs manfaatlarini ko'zlab qator choralarni o'ylab qo'ygan edi, shu jumladan, yerlarni kambag'allarga tarqatib berishni ham reja qilgan edilar. Ssipion raqiblarini "yangi odam" (Tuskullik plebey), Gannibal urushi veterani, miloddan avvalgi 195-yilgi konsul, zodagaonlarning, jumladan, Ssipion Afrikalikning haqiqiy dushmani bo'lmish Mark Porsiy Katon boshqarib borar edi. Katon mahalliy aholi hamda tabiiy boyliklardan maksimal darajada foydalanish maqsadida hududdagi bosib olingan yerlarni provinsiyaga aylantirish tarafdorlaridan biri edi. Uni ayrim amaldorlar, ko'plab oddiy senatorlar va yana suvoriylar ham qo'llab-quvvatlaydi. Ichki siyosat borasida shafqatsiz nasihatgo'y Katon ajdodlarning urf-odatlarini saqlab qolish tarafdori bo'lib, Rim elitasining dabdabadorlikga intilishini qoralab, ellinistik madaniyatga intilayotgan Ssipion va uning tarafdorlariga tanbehlar beradi. Asosan sudlarda kechgan shafqatsiz siyosiy kurashlardan so'ng Katon g'olib chiqadi. Miloddan avvalgi 184-yili u o'zining senzorlik vakolatidan foydalangan holda Ssipionning barcha tarafdorlarini Senat tarkibidan chiqarib yubordi. Biroq tez orada o'zi ham siyosatdan chetlatilib vafot etadi.

Rimning Makedon hamda Salavkiylar davlati bilan urushi (miloddan avvalgi 200-168-yillar). Rim tomonidan illiriy qirg'oqlarining egallab olinishidan so'ng (miloddan oldingi 229-yillar) Rim saltanati to'la-to'kis Makedoniya sarhadlariga yaqinlashib keladi. Rimliklar Gannibal bilan jang qilib ovora bo'layotganida Makedoniyalik shoh Filipp V (miloddan avvalgi 221-179-yillar) hamda Salavkiylar saltanati hukmdori Antiox III Buyuk (Miloddan avvalgi 223-187-yillar) Ptolamey V Epifan hukmdor bo'lgan Misr yerlari evaziga Sharqiy O'rtayer dengizi

hududlari chegaralari haqidagi shartnomani tuzib oladi. Antiox III ga Kelesiriya, Finikiya va Kipr, Filipp V ga esa Kirena, Ioniya hamda Egey orollari tegishi kerak edi. Tez orada Antiox Kelesiriyani, Filipp V esa Fasos orolini hamda Gellespontdagi yunon shaharlarini egallab olib, Pergam sohillarini vayron etib, Kariyaga bostirib kiradi. Ushbu bosqinchilik harakatlariga javoban Pergam-Rodos ittifoqchiligi bilan Filipp V ning davomiy urushlari natijasida Xios orolida bo'lgan janglardan birida Filipp V mag'lub bo'ladi (miloddan avvalgi 201-yil).

Kichik Osiyo va Bolqon yarim orollaridagi Filipp V ning shiddatli harakatlarini kuzatib turgan, anchayin ehtiyotkor Senat baribir Makedoniyaning kuchayib borishini istamas edi. Undan tashqari Pergam hamda Rodos o'rtasidagi ittifoqchilik kelajakda anchayin manfaatli ko'ringan. Vaziyat juda qulay bo'lib, oldindan Pergam hamda Rodos bilan ittifoqchilik tuzgan hamda ularni neytrallashtirishni Antixox III ga va'da qilgan rimliklar harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Shu tariqa Ikkinchi Makedon urushi boshlanib ketadi (miloddan avalgi 200-197-yillar).

Miloddan avvalgi 200-yilning kuzida Rim armiyasi Yunonistonga o'rnashib, Makedoniyaga bostirib kiradi. Ittifoqchilar floti dengiz qirg'oqlarini berkitib qo'yadi. Biroq Filipp V mohirona himoyalangani bois, rimliklar uzoq vaqt mobaynida tayinli bir muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Ular Makedoniyaga qarshi jang qilishga Etoliy hamda Axey ittifoqchilarini (miloddan avvalgi 199-198-yillar) jalb qilgan bir paytda shohning holati nihoyatda murakkablashadi. Miloddan avvalgi 197-yilga kelib Fessaliyadagi Kinoskefal yaqinidagi urushda parchalanish (bo'linish) ro'y beradi, prokonsul Tit Kvinksiy Flamenin Makedoniya armiyasiga qaqshatqich zarba berib, mag'lub etadi. 8 ming kishidan ajralgan hamda 5 ming kishisi asir olingan Filipp V rimliklarga tinchlik sulhini tuzishni taklif qiladi.

Tinchlik sulhi shartlariga ko'ra shoh Makedoniyadan tashqarida bo'lgan barcha yerlaridan voz kechib, Rimga 1000 talant kontributsiya to'laydi va harbiy flotini beradi (6 ta kemadan tashqari) hamda asirlarni qaytarib, armiyasini 5 ming nafarga qadar kamaytiradi. U Rimga ma'lum qilmasdan urush boshlash huquqidan mahrum bo'lgan holda yunon shaharlarining

avtonomiyasini tan oladi. Miloddan avvalgi 196-yili Korinfdagi Istmiy o'yinlarida Flaminin Senat nomidan yunonlarga erkinlik berish haqida e'lon qiladi. To'g'ri, tez orada berilgan "erkinlik" asosan hukmron doiralarning almashinuvida ko'rinib qolgani aniq bo'ladi: Makedoniya shohligi o'rniga Rim hukmronligi boshlanadi.

Ushbu voqealarning borishi jarayonida Antiox III Kichik Osiyoning janubiy hamda g'arbiy sohillaridagi qator shaharlarni egallab, Frakiyaga bostirib kiradi hamda Bospor Frakiyasi, Gellespont va Propontida qirg'oqlarini o'z nazoratiga oladi va shu orqali Qora dengizni o'z saltanatiga qo'shib oladi. Vaziyatning bu tarzda o'zgarishi miloddan avvalgi 197-yilda Antiox III ga urush e'lon qilgan va Rimga ko'mak berishni ta'qiqlab qo'ygan rodosliklarga umuman ma'qul kelmaydi. Senat hukmdordan yunon shaharlarini ozod qilishni talab qiladi, u esa buni qat'iy tarzda rad etadi. Rim siyosatidan norozi bo'lib borayotgan Yunonistonda Antiox o'z tomoniga Etoliy ittifoqini hamda ba'zi bir kichik polislarni jalb qiladi. Undan tashqari miloddan avvalgi 195-yilda shoh maslahatchisiga Rimning ashaddiy dushmani bo'lmish, yunon shaharlari, Salavkiylar va Karfagen ishtirokida Rimga qarshi koalitsiya tuzishni taklif qilgan Gannibal tayinlanadi. O'z navbatida, rimliklar Pergam hamda Rodos bilan ittifoqchilikni tan olib, Axey ittifoqchiligini o'z tomonlariga og'dirib olishadi va Filipp V ning va'dalariga ishonib neytrallikni saqlab qolishni tasdiqlashadi.

Miloddan avvalgi 192-yili Antiox III Bolqonda harbiy harakatlarni boshlaydi va Evbeya hamda Fessaliyani egallaydi, biroq keyingi yili Feromopil yaqinidagi jangda rimliklardan mag'lub bo'lib, Gretsiyani tashlab Efesga qochadi. Ittifoqdoshlar Antiox dengiz qo'shinlarini tor-mor keltirib, shundan so'ng rimliklar Kichik Osiyoga yo'l oladilar. miloddan avvalgi 190-yilning kuzida Rim armiyasi Gney Domitsiya qo'li ostida o'zidan bir necha karra ko'proq bo'lgan Suriya podshohini mag'lub etgan holda Magneziya yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. G'olib chiqqan Antioxga tinchlik shartnomasini Gannibalni mag'lub etgan Ssipion afrikalik aytib turadi. Kelishuvning yakuniy shartlariga ko'ra (miloddan avvalgi 189-yil) shoh Kichik Osiyo va Yevropadagi barcha hududlaridan mahrum bo'lib (Sharqiy

Pamfiliya va Kilikiyadan tashqari), Rimga nihoyatda katta miqdordagi mablag'ni, 15 ming talantni to'laydi va harbiy kemalarni fillarni va yana asirlarni, garovda bo'lganlarni, qochoqlarni hamda siyoiy emigrantlarni ham topshiradi. Ularning ichida Gannibal ham bor edi. U Armanistonga qochadi, keyinchalik esa Vifiniyaga berkinadi, biroq miloddan avvalgi 183-yilda rimliklar uning rahnamosi Prusiya I ga bosim o'tkazganlarida 64 yoshli Gannibal o'z joniga qasd qilib, zahar ichishga majbur bo'ladi. O'sha yilning o'zida 52 yoshga to'lgan Ssipion Afrikalik ham vafot etadi. Antiox III miloddan avvalgi 187-yilning o'zidayoq o'ldirilgan edi. Uning mag'lubiyati va vafoti Salavkiylar saltanatining inqirozini jadallashtirib yubordi.

Rimliklar shafqatsizlarcha Antiox III tomonida jang qilgan etoliylarni jazolaydilar. Ular qator shaharlarni va yerlarini yo'qotib, siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'ladilar va kontributsiya to'lashga mahkum etiladilar. Aksincha, Rim ittifoqchilari kattagina foyda va hududlarni qo'lga kiritadilar: eng kam Filipp V hamda Axey ittifoqchiligi manfaat ko'rgan bo'lsa, ko'proq manfaatni – Rodos, eng ko'p manfaatni esa – Osiyo va Yevropaning kattagina hududlarini qo'lga egallagan Pergam qo'lga kiritadi, shuningdek, yana u moddiy boyliklarni ham qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi.

Tez orada Sharqdagi Rimning asosiy tashqi siyosiy obyektiga yana bir bor Ikkinchi Makedoniya urushidan so'ng nisbatan tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan Makedoniyaga aylanadi. Miloddan avvalgi 197-yili Filipp V 5 ming kishilik qo'shinga ega edi, biroq har yili u 4 ming harbiyni to'plab, ularni o'qitadi va tarbiyalaydi, so'ngra esa shu orqali urush ehtimoli bo'lsa, jangovar zahirani yaratgan holda ularni uylariga tarqatib yuborar edi. Mamlakatdagi iqtisodiy yuksalish, tashqi savdoning rivojlanishi hamda Pangey oltin konlariga kuchli ishlov berilishi natijasida (Frakiyaning janubi-g'arbidagi) Filipp V ga g'aznani to'ldirib, ozuqa va harbiy materiallarning strategik zahirasini yaratish imkoniga ega bo'ladi. Asosan diplomatiya vositalaridan foydalangan shoh tajovuzkor Frakiya qabilalarining hujumidan o'zining shimoliy sarhadlarini himoya qilishni uddalay olgan.

Rimliklar qo'ldan kelganicha Bolqonda Makedoniya qiyofasidagi o'zlari uchun nihoyatda noqulay va xavfli bo'lgan dushmanning tiklanishining oldini olishga urindilar. Bir paytlari Senat Rimda tutqun sifatida uzoq vaqt yashagan Makedoniya taxti vorisi bo'lish niyatida bo'lgan Demetriyga nihoyatda umid qilishgan va unga ma'lum bir vakolatlarni berishgan edi. Biroq tez orada Demetriy otasining buyrug'iga binoan qatl etilib, Filipp V vafotidan so'ng ma'muriy siyosatni amalga oshirgan uning kichik o'g'li Pesey taxtga o'tiradi (miloddan avvalgi 179-168-yillar). U urush olib borayotgan Rim hamda Pergamni Makedoniya, Illiriya, Epir hamda ko'plab Rim "protektoratidan" norozi bo'lgan yunon polislarini Makedoniya tarkibiga birlashtirishga erishadi. Ushbu tayyorgarlik haqida Rimga ma'lumot yetib keladi. Tez orada munosabatlarning rasmiy uzilishi ro'y berib, Uchinchi Makedoniya urushi boshlanib ketadi (miloddan avvalgi 171-168-yillar).

Bolqon yarim orolida Rim legionlarining paydo bo'lishi bilanoq forslarning ittifoqdoshlari zudlik bilan Rim tomonga o'tib ketishadi. Shu orada urush Rim sarkardalarining qat'iyatsiz qarorlari natijasida cho'zilib ketadi. Miloddan avvalgi 168-yilning iyunida konsul Lutsiy Emiliy Pavel (Kannadagi jangda vafot etgan shaxsning o'g'li) Persey bilan Pidnada uchrashadi. Makedoniya qo'shinlari rimliklarga hujum uyushtirib, ularni lagerga quvib chiqaradi, lekin ko'p sonli mahalliy aholiga duch kelgach, qo'shinlar parchalanib ketgach, ikkiga bo'linib ketadi. Shoh armiyasi 20 ming qo'shinni yo'qotib, 11 ming kishisi asir tushgan holda qaqshatqich mag'lubiyatga uchraydi. Persey Samofrakiya oroliga qochib ketadi, biroq u oilasi bilan qo'lga olinadi hamda asirlikda vafot etadi. U tomonidan to'plangan son-sanoqsiz boyliklar rimliklar qo'liga o'tadi. Miloddan avvalgi 167-yili Emiliy Pavel Epirni tor-mor keltiradi. Rimliklar Epir shaharlarini talon-taloj qilib, 150 ming epirliklarni qul qilib sotib yuboradi.

Makedoniya saltanati tugatiladi. Maxsus Senat komissiyasi Makedoniyani to'rt, Illiriyani esa, uchta mustaqil okruglarga ajratib, ularga bir-birlari bilan uchrashib, bog'lanish va aloqa qilish taqiqlangan edi. Yunonlar ham forslarni qo'llab-quvvatlaganliklari bois jazolanganib, mingdan ortiq axeylar (ular

orasida tarixchi Polibiy ham bor edi) asir sifatida Rimga yuboriladi.

Rim tomonidan Yunonistonning bo'ysundirilishi hamda Uchinchi Puni urushi (miloddan avvalgi 149-146-yillar). Makedoniyani bo'ysundirgan Rim o'zining tashqi siyosiy yurishini Sharqqa tomon buradi. Bundan buyon rimliklar o'zlarining yaqin o'tmishdagi ittifoqchilari – Pergam hamda Rodosning zaiflashuvidan manfaatdor edilar. Dushmanlarcha kayfiyatda bo'lgan qo'shnilari hamda Kichik Osiyodagi Pergamning savdo raqobatchilarini qo'llab-quvvatlagan holda Rim asta-sekin Pergam sultonlari uchun turli xil fitnalarni uyushtira boshladi. Rodosga keladigan bo'lsak, u Kichik Osiyodagi barcha yerlaridan ajralib, bevosita Rimga tobe bo'lib qoladi.

Yunoniston va Makedoniya aholisining istilo qilingan hokimiyatdan va shuningdek, Rim savdogarlari hamda sudxo'rlari zulmidan norozi bo'lishlari Rim bosqinchiligiga qarshi ommaviy harakatlarning boshlanib ketishiga olib keldi (miloddan avvalgi 149-148-yillar). Qo'zg'olon Frakiyada boshlandi. Uni o'zini Perseya shohi Filippning o'g'li deb atagan, kasbi kigiz yasovchi bo'lgan Andrisk degan yigit boshqarib boradi. Makedoniyaga kirib borgan qo'zg'olonchilar Rim pretori otryadini tor-mor keltirib, so'ngra Fessaliyaga bostirib kirdi. Keyingi yili konsul Kvint Setsiliy Metell kuchli armiya boshchiligida qo'zg'olonni bostirdi. Andrisk qo'lga olinib, o'ldirildi. Natijada rimliklarning Makedoniya provinsiyasi tashkil etildi (markazi Fessalonikada joylashgan) uning tarkibiga sobiq Makedoniya saltanatidan tashqari Adriatika qirg'oqlaridagi yunon shaharlari, Appoloniya hamda Dirraxiy (hozirgi Derrus), Ioniya va Epir orollari ham kirdi.

Rim strategiyasidagi o'zgarishlarni birdaniga Axey ittifoqchiligi ham his etadi, u hamon Bolqondagi Rimning yarim asrdan buyon itoatkor quroli bo'lib kelayotgan edi. Axeyliklarning Sparta bilan ziddiyatlaridan foydalanib, (miloddan avvalgi 148-yil) rimliklar Spartani qo'llab-quvvatlaydi. Natijada Axey ittifoqchiligi ochiqchasiga o'z kuchiga yuqori baho berib, Rim bilan urush boshlaydi. Axey strateglari nafaqat barcha urushga yaroqli erkaklarni urushga jalb qiladi, balki harbiy xarajatlarni qoplash

uchun boy zodagonlardan soliq talab qilishni ham boshlab yuboradi.

Rim saltanatiga qarshi urush keng demokratik qatlam orasida nihoyatda mashhur bo'lib ketadi. Ammo aholining ommaviy qo'llab-quvvatlashlari hamda yunon shaharlaridagi vatanparvarlik ko'tarilishlariga qaramasdan kuchlar teng emas edi. Miloddan avvalgi 146-yili Rim qo'shinlari konsul Lutsiy Mummiy qo'mondonligida Istmadagi jangda Axey qo'shinlarini mag'lub etib, shundan so'ng Axey ittifoqchiligining asosiy shahri bo'lmish – Korinfni egallaydilar. U shaharni butunlay vayron qilib, uning aholisini qul qilib sotib yuboradi. Axey va barcha boshqa ittifoqlar parchalandi. Yunon polislariga rimliklar oligarxlik boshqaruvini olib kirdi. Barcha yunon jamiyatlari Makedoniya noibligiga bo'ysunar edi (miloddan avvalgi 27-yilga qadar). Faqat Afina va Sparta nominal mustaqillikni saqlab qolgan edi, biroq Afinada asosiy siyosiy organ Areopag, Spartada esa – Gerussiya bo'lib qoldi. Yunoniston talon-taroj qilinib, qashshoqlashib qolgan edi. Korinfdan Mummiy Italiyaga nihoyatda katta miqdordagi san'at asarlarini: haykallar, suratlar va boshqa badiiy qadriyatlarni olib chiqib ketadi. Parallel ravishda ellinistik Sharqdagi Rim istilochilari bilan Rimning o'zida yunon madaniyatining ta'siri keng tarqaldi.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Ikkinchi Puni urushidan so'ng Karfagen to'laligicha o'zini qayta tiklaydi. Rimda eski dushmanining iqtisodiy yuksalishi va gullab-yashnashini hasad va qo'rquv bilan kuzatib turishar edi. Undan tashqari Rim savdogarlari hamda sudxo'rlari o'zlarining eski raqibi va raqobatchisidan qutulish payida edilar. Natijada Karfagenni butkul yo'q qilish tarafdorlari qayta tiklandi. Uning rahnamosi 85-yoshli senator Mark Portsiy Katon bo'lib, u o'zining senatdagi har bir chiqishida – "Undan tashqari, men Karfagen butkul yo'q qilinishi kerak deb hisoblayman" degan so'zlar bilan yakunlar edi. Karfagen hamda uning eski dushmani Rimning ittifoqchisi numidlar shohi Masinissa bilan oralaridagi bahslarda (Miloddan avvalgi 201-149-yillar) Senat har gal uning tajovuzkorona hamda g'ariqonuniy harakatlariga qaramasdan Masinissa tomonini olib kelar edi. Natijada Karfagendagi hokimiyat tepasiga qat'iy qarorlar

qabul qiluvchi taraf keladi; armiya tashkil qilinib, Karfagen hamda Masinissa o'rtasida harbiy harakatlar boshlanib ketadi. O'shanda go'yoki karfagenliklar miloddan avvalgi 201-yildagi kelishuvni buzganligini bahona qilib, Senat Karfagenga urush e'lon qildi va bu urush Uchinchi Puni urushi bo'lib tarixga kirdi (miloddan avvalgi 149-146-yillar).

84 ming kishidan iborat Rim qo'shinlari Shimoliy Afrika qirg'oqlariga kelib joylashadi. Masinissadan qaqshatqich zarbaga uchragan, kattagina hududidan mahrum bo'lgan va katta miqdordagi boj to'lagan, endi esa o'z hududida yangi dushmanni uchratib turgan oxir-oqibat o'z urf-odatini yo'qotgan Karfagen hukumati jang qilishga kuchi va madori qolmagan va faqatgina shaharni saqlab qolish uchun butkul taslim bo'lish istagida edi.

Oldiniga konsullar Lutsiy Marsiy Senzorin hamda Mamy Maniliy ularga asirlarni hamda qurol-yarog', uloqtiruvchi mashinalar, snaryadlar va boshqa qurol-aslahalarning zahiralarini berishlarini talab qiladi. Ushbu shartlar bajarilib bo'lingach, Rim qo'mondonligi shahar aholisiga Senat to'liq vayron qilishni buyurgan shaharni tark etishlarini talab qiladi. Karfagenliklarga "muruvvat ko'rsatilgan holda" qirg'oqdan 80 stadiya (taxminan 15 km) uzoqlikda qo'nim topishlariga izn beriladi. Oqsoqollar Kengashi so'nggi imkoniyati qolguncha himoyalanib, qullikdan ozod qilish masalasini qo'yadi. Appianning ma'lumot keltirishicha karfagenliklar "o'zlarida hayratomuz o'zgarishni his qiladilar va shaharni tark etgandan ko'ra har qanday jazoga tayyor bo'lib qolishadi. Ularning kayfiyati o'zgarishi natijasida tezlik bilan o'zlarini tiklab oladilar. Barcha davlat va muqaddas yerlar hamda boshqa keng bino va inshootlar ustaxonalarga aylantiriladi. Ayollar ham erkaklar bilan birga kun-tun ishlashadi hamda navbatma-navbat o'zlariga ozuqa zahiralarini jamlab boradilar. Ular har kuni yuzlab qalqonlar, qilichlar, minglab o'q-yoylarni, uzun nayzalarni – besh yuzlab katapultalarni keragicha yasaydilar. Ularni tortish uchun ular ayollarning sochlarini qirqib olishadi".

Rimliklar uch yilga cho'zilib ketgan qamalni boshlashga majbur bo'lishdi.

Rim armiyasining ahvoli sekin-asta yomonlashib bordi. Yozgi jazirama hamda kasalliklar odamlarni qirib yuborayotgan edi,

tartib intizom yo'qolib borayotgan bir sharoitda karfagenliklar qo'qqisdan zarba beradilar, Karfagen sarkardasi Gasdrubalning yollanma otryadlari konsul qo'shinlariga ort tarafdan zarba bergan bo'lsa, numidiylar esa 90 yashar Masinissaning o'limidan so'ng rimliklarga yordam qo'lini cho'zmay qo'yadi. Shaharni qamal qilishga bo'lgan bir necha urinishlar zoye ketadi. O'shanda Rimda 37 yoshli Publiy Korneliy Ssipion Emilianni – Pidnada bo'lgan jangda g'olib chiqqan Lutsiy Emiliy Pavelning o'g'li, Ssipion Afrikalikning asrab olgan nabirasi hamda tug'ishgan o'g'lini konsul etib saylaydilar.

Miloddan oldingi 147-yili Ssipion armiyaga kelib qo'shilib, g'ayrat bilan ishga kirishdi: izdan chiqqan tartibni mustahkamlab, Karfagenni to'la-to'kis o'rab oldi va oziq-ovqat tashib keltirishdan ajratib qo'ydi, keyingi yilning bahorida esa shahar devorlari orqali chuqur qazib, asosiy zarbani berishga qaror qiladi. Karfagenliklar ochlik va hastalikdan sillasi qurib bor kuchlari bilan jang qiladi. Nihoyat rimliklar shaharga kirishga muvaffaq bo'ladilar va olti kunlik shafqatsiz ko'cha janglaridan so'ng ular shaharni ishg'ol qilishdi. Qo'lga kiritilgan Karfagen talanib, o't qo'yiladi (uning harobalari 17 kun mobaynida yonadi) hamda butunlay vayron etiladi, u turgan joy shudgor qilinib, tuz sepib tashlandi va uzoq vaqtgacha la'natlangan holda yotadi. Tirik qolgan aholini (50 ming atrofidagi kishi) rimliklar qul qilib sotib yubordilar. Egallab olingan hududda markazi Utika shahri bo'lgan Afrika provinsiyasi tashkil qilingan edi (Miloddan avvalgi 146-yil). Ana shu tarzda Rim hamda Karfagen orasidagi asrlarga cho'zilgan dramatik qarama-qarshilik yakuniga yetadi.

Miloddan avvalgi 197-yildayoq bosib olingan iberlar yerlarida rimliklar ikki provinsiyani: Yaqin Ispaniyani (ya'ni Italiyaga yaqin joylashgan) hamda Uzoq Ispaniyani tashkil qilishadi. Ular Pireney yarim orolining mos ravishda shimoliy-sharqiy hamda janubiy-sharqiy qismlarini tashkil etar edi. Biroq iber qabilalari Rim hukumatiga tobe bo'lishni istamadilar va unga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Miloddan avvalgi 195-yili konsul Mark Portsiy bo'ysunmaganlarni qirib tashlaydi va qul qilib sotib yubordi. Ushbu harakatlar bilan Yaqin Ispaniya biroz muddat tobe bo'lib turadi, biroq tez orada yana qayta oyoqqa turgan holda

qo'zg'olonlarni boshlab yuboradi. Urush goh so'nib, goh yana alanga olib Tiberiy Sempronіy Grakxning diplomatik sa'y-harakatlari tufayli keltberlar Rim hokimiyatini tan olgan, o'lpon to'lash majburiyatini olgan va qo'shimcha qo'shinni yuborish majburiyatini olgan paytga qadar, miloddan avvalgi 179-yilga qadar davom etadi. Natijada Ispaniyadagi Rim provinsial boshqaruvi qayta tiklanadi.

Miloddan oldingi 154-yili Rimga qarshi luzitanlar (zamonaviy, hozirgi Portugaliya o'rnidagi xalqlar) qo'zg'aladi. Ular Rim saltanatiga bostirib kirib, har ikkala noiblik qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Tez orada rimliklarga qarshi Rim saltanati zo'ravonligidan charchagan keltberlar bosh ko'taradi. Senat bosh ko'targanlarga qarshi konsullik armiyasini yuborishga majbur bo'ladi. Miloddan avvalgi 152-151-yillarda konsul Mark Klavdiy Marsell diplomatiya yordamida butun yarim orolda tinchlik o'rnatishning uddasidan chiqadi. Biroq juda tez vaqt ichida shafqatsizligi hamda ochko'zligi bilan nom chiqargan konsul Lutsiy Litsiniy Lukull hamda pretor Serviy Sulpitsiy Galbalarning xiyonotkorliklari (so'zida turmasliklari) bois janubda urush yana alanga oladi. Miloddan avvalgi 147-yili luzitanlar sarkardasi ajoyib tashkilotchi, iste'dodli sarkarda, sobiq cho'pon Viriat (miloddan avvalgi 147-139-yillar) tayinlanadi.

U partizanlar urushi taktikasidan muvaffaqqiyatli foydalangan holda bir necha yil ketma-ket Rim sarkardalarining qo'shinlarini mag'lub etadi. Miloddan avvalgi 141-yilda Senat rasmiy ravishda Viriatni luzitanlar hukmdori deya tan olishga majbur bo'ladi. Faqat Rim konsuli sotib olgan uning sotqin tarafdorlari tomonidan o'ldirilishidan so'ng, rimliklar luzitanlarga hal qiluvchi mag'lubiyat zarbasini berishga muvaffaq bo'ladilar. Luzitaniya egallab olinib, konsul Detsim Yuniy Brut Atlantika qirg'oqlariga chiqadi.

Biroq ikki yil o'tib, yana Rim qo'mondoni Kvint Pompeyning siyosati sabab urush yana alanga oladi. Qo'zg'olon markazi Numansiya shahri edi, shu sababli bu urush Numansiya urushi deb nom oladi (miloddan avvalgi 139-133-yillar).

Miloddan avvalgi 137-yili konsul Gay Gostiliy Mansin qurshovga tushib qoladi va qo'shinni qutqarish uchun numantinliklar bilan Rim uchun sharmandali shartnomani tuzadi.

Senat unga imzo chekishdan bosh tortadi, vazifani bajara olmagan qo'mondon esa qo'llar orqaga bog'langan holda uni qabul qilishni ham xohlamagan dushmanlar qo'liga topshiriladi. Mansin izdoshlari yanada uquvsiz bo'lib chiqadilar. Ularning boshchiligida Rim armiyasi Numansiyani qamal qilgan holda talonchilar olamoniga aylanib ketadilar. Shu orada uzoq cho'zilgan urushni nima bo'lganda ham yakuniga yetkazish lozim edi.

Shunday vaziyatda miloddan avvalgi 134-yili konsul etib Karfagenni zabt etgan Ssipion Emilian saylanadi. U armiyani qabul qilib, qat'iy va shafqatsiz qarorlar orqali harbiy lagerda tartib o'rnatadi. Numansiyani to'liq qamal qilib, shaharni o'rab oladi. Ochlik hamda epidemiya tez orada o'z ta'sirini ko'rsatadi, mil. avv. 133-yilning kuzida 15 kunlik qamaldan so'ng numansiyaliklar taslim bo'lishadi. Rimliklar qo'zg'olon ko'targan shaharni yer bilan yakson qilib, asir tushganlarni esa qul qilib sotib yuboradi. 10 yil o'tgandan so'ng esa ispan savdosiga ijobiy ta'sir qilishi uchun Balear orollaridagi qaroqchilar bazasi yo'q qilinadi. Ispan provinsiyasining yangi tuzumi to'la-to'kis tarzda kelajakda ularning rivojlanishiga ta'sir qilib boradi.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi. Miloddan avvalgi III-II asrlar Rimning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Patriarxal qulchilik tizimi bu davrga kelib klassik qulchilik darajasiga yetdi. Mil. avv. IV-III asrlarda patriarxal qulchilikdan klassik qulchilikka o'tish Janubiy Italiyadagi yunon koloniya shaharlari va Sitsiliyada sodir bo'ldi.

Italiyada klassik qulchilikning rasmiylashtirishi umumjahonda tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, keyinchalik qulchilikning Rim-Italiya formasi butun O'rtayer dengizi xalqlariga tarqaladi. Ko'plab g'arb olimlari (U.Uesterman, M.Findi, K.Xopkins) qulchilikning rivojlangan formasiga o'tishning asosiy sababi sifatida rimliklarning muvaffaqiyatli urushlarini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra muvaffaqiyatli harbiy harakatlar Italiyaga qullarning oqib kelishiga va qulchilikni hayotning turli sohalariga kirib kelishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, Rim jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar ham sabab bo'lganligini unutmaslik kerak.

Yerning bir kishini qo'lida to'planishi, xususiy mulkning keng tarqalishi, hunarmandchilik, savdo-pul munosabatlarining rivojlanishi, tovar xo'jaligining paydo bo'lishi arzon ishchi kuchlarni talab qilardi. Patritsiylar va plebeylar o'rtasidagi kurash natijasida plebeylar ham yer ulushiga ega bo'lib, iqtisodiy qaramlikdan kutilgan edi. Endilikda katta yer maydonlari yoki xususiy mulklarda faqatgina butun huquqlardan va mol-mulkdan mahrum bo'lgan qullardan ishchi kuchi sifatida foydalanish mumkin edi.

Klassik qulchilikning asosiy xususiyatlari shunda ediki, klassik qulchilik xo'jaligida ishlab chiqarish qo'shimcha qiymat hosil qilishga qaratilgan edi. Bunda faqatgina ortiqcha mahsulot ishlab chiqaribgina qolmay, balki uni tovar sifatida sotishga intilish kuchli edi. Ko'proq qo'shimcha mahsulotga ega bo'lishga intilish qullarni ekspluatatsiya qilishni kuchayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ichki xo'jalikni murakkablashtirib, iqtisodiyotda tadbirkorlikning boshlanishi edi.

Jamiyatda qullarning soni ham o'sadi. Qullar Rim-Italiya jamiyatining ko'p sonli tabaqasiga aylandi. Qulchilik, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, tog'-kon ishlari, metallurgiya va qurilishda keng tarqalgan edi.

Mil. avv. II-I asrlarda Italiyada qishloq xo'jalik qulchilik asosida rivojlandi. Ayniqsa, uzumchilik, zaytun yetishtirish va bog'dorchilik yaxshi rivojlandi. Yunoniston, Kichik Osiyo va Afrikadan uzum, zaytun va mevali daraxtlarning yangi navlari olib kelindi. Daraxtlarga ishlov berish texnikasi mukammallashdi. Mehnat qurollarining turlari ko'paydi. Bu esa faqatgina hosilning ko'payishiga emas, balki Italiya vinosi, yog'-moy va mevalarning sifatini ham ortishiga sabab bo'ldi.

Sifatli bug'doy navlari ekilib, hosildorlik o'sdi. Yerlarga ishlov berish, o'g'itlash va boshqa agrotexnika qoidalariga rioya qilina boshlandi. Chorvachilikda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Chorvachilik va parrandachilik o'sha vaqtda eng daromadli sohalarga aylandi. Qishloq xo'jaligining o'sishini asosiy sabablari qulchilikni keng tatbiq etilishi, tovar ishlab chiqarish xo'jaligining tashkil qilinishi, kichik xo'jaliklardan voz kechib, katta ekin maydonlarida xo'jalik yuritish edi. Qishloq xo'jaligida bu davrda

asosiy ishlab chiqaruvchi quldorlar xo'jaligi edi. Qullarni mehnat qilishga majburlash uchun nazoratchilar va boshliqlar tayinlandi. Shu bilan birga chin dildan ishlagan qullar taqdirlanib, katta payok, yaxshi kiyim va hattoki, uncha katta bo'lmagan mulklar (masalan, ikki juft qo'y, uy-ro'zg'or buyumlari) in'om etilgan. Bu mulk *pekuliy* deb atalib, xo'jayin xohlagan vaqtda uni olib qo'yishi mumkin edi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi o'z navbatida hunarmandchilik buyumlariga bo'lgan talabning ham ortishiga olib keladi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markazi bo'lgan shaharlar bilan qishloqlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash jarayonini kuchaytiradi.

Hunarmandchilik. Italiyada hunarmandchilikning gullab-yashnashi mil. avv. II-I asrlarga to'g'ri keladi. Rim va boshqa shaharlarda kichik ustaxonalar (ergastriyalar)da 10-20 hunarmand ishlar edi. Hunarmandchilikda ozod etilgan qullar mehnati ham sezilarli o'rinni egalladi. Hunarmandchilikning rivojlanishi metall, tosh, yog'och, jun, teri, shisha va qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Sardiniya va Ispaniyada temir qazib chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Tog'-kon va metall eritishda yangi texnik o'zgarishlar amalga oshirildi. Shaxtalar 150 m gacha chuqurlikda ishlana boshlandi.

Rimga mustamlakalardan, jumladan, Yunonistondan marmar, Misrdan granit olib kelinadi. Shu bilan birga, Italiyaning o'zida Shimoliy Etruriyadan marmar qazib olina boshlandi. Arzon, qulay, mustahkam qurilish materiallariga ehtiyoj katta bo'lgan. Mil. avv. II asrda rimliklar bu talablarni qondiradigan qurilish xomashyosi sifatida betonni kashf qildilar. Rimliklar pishirilgan g'isht ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ydilar.

Rimliklar fuqarolik va injener me'morchiligini rivojlantirib bordilar. Rim suv quvurlari, ko'priklari, termalari, amfiteatrlari, portlar, Rimdagi ko'p qavatli uylar me'morchilik va qurilishning eng yaxshi yutuqlari asosida bunyod etiladi.

Mazkur davrda O'rtayer dengizi savdosi gullab-yashnadi. Rim, Puteola, Sirakuza eng yirik savdo markazlari bo'lib qoldi. Kemasozlik, dengizchilik rivojlandi. 200 tonnagacha yuk ortiladigan savdo kemalari paydo bo'ldi. Dengiz savdosi bilan,

hatto, savdo qilish man etilgan *nobillar* ham shug'ullana boshladilar. Ular qonunni chetlab o'tib, dengiz savdosida vositachilar va o'zlarining ozod etilgan qullaridan foydalandilar.

Quruqlikdagi savdo ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shahar va qishloqlar o'rtasida mahsulot almashuv maxsus qurilgan shahar bozorlarida, viloyatlararo yarmarkalarda amalga oshirildi. Viloyatlar o'rtasida aloqalarning mustahkamlanishi Italiyada puxta qurilgan qurilish san'atining noyob yutuqlari bo'lgan yo'llarning qurilishiga sabab bo'ldi. Yo'llar tosh to'shalgan mustahkam to'g'ri chiziqda bunyod qilinib, avval Italiyaning barcha viloyatlarini, keyinchalik provinsiyalarni qamrab oldi. Rim shahridan o'tadigan eng yirik yo'llar Italiyaning barcha viloyatlari va undan tashqari hududlargacha cho'zilib ketdi. Rim forumida oltin suvi yuritilgan ustun qo'yilib, undan Italiyaning bosh yo'llarini masofasini hisoblash boshlandi. Shu davrdan boshlab "barcha yo'llar Rimga olib boradi" aforizmi xalq orasida keng ishlatila boshlandi.

Rim respublikasining tashqi siyosati. Bo'lib o'tgan voqealar Senat hokimiyatining samarali boshqaruvi yo'qligi, xalq kengashi ahamiyatining o'sishi va ichki siyosatning beqarorligi, siyosiy arboblarning o'sib borayotgan roli, ularning ochiqdan-ochiq demagogiyasi kurashning zo'ravonlik usullarini qo'llashga tayyorligidan dalolat beradi.

Aka-uka Grakxlar va ularning eng faol tarafdorlarining o'limidan so'ng, populyarlarning zaiflashuvi vaqtinchalik bo'lib, Rim jamiyatidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilinmagan edi. Begona hududlarda urush harakatlari olib borayotgan Rim qo'shinlariga qo'mondonlik qilayotgan, nobillar homiylik qilgan qo'mondonlarning muvaffaqiyatsizliklari norozilikni kuchaytirdi.

Rimning ichki siyosatidagi beqarorlik tashqi siyosiy masalada hukmron doiralar e'tiborini vaqtinchalik susaytirdi. Mil. avv. II asrning so'nggi 10-yilligida Rimning xalqaro ahvoli yanada keskinlashadi. Yaqin Sharqdagi eng kuchli ellin davlati hisoblangan Misr bilan Rim ittifoq tuzadi. Qudratli bo'lgan Salavkiylar davlati yemirilish davriga kirib, Sharqda parfiyaliklar bosimiga qarshi tura olmay qoldi. Kichik Osiyoda Aristonik qo'zg'oloni bostirilganidan so'ng, vaziyat osoyishta edi. Ammo bu

vaqtda Afrikada Rim hukmronligiga Numidiya podsholigi jiddiy xavf tug'dirayotgan edi.

Jumladan, Afrikada Numidiya podshosi Yugurta bilan urush olib borayotgan Rim qo'shinlari birin-ketin mag'lubiyatga uchradilar. Podsho Yugurta rimlik sarkardalarni sotib oldi va harbiy hiylalar bilan rimliklarni bir necha bor tor-mor qildi. Numidiya shaharlarida shu vaqtda bo'lgan italiyalik savdogar va sudxo'rlar qirg'in qilindi. Yugurta o'z siyosatida rimliklarni o'ziga dushman deb bilgan turli Shimoliy Afrika qabilalarining qo'llab-quvvatlashiga tayandi. Mil. avv. 109-yilda Numidiyadagi Sutule yaqinidagi jangda Yugurta rimliklarni tor-mor qildi. Rimliklar Numidiya hududidan chiqib ketish va Yugurta bilan shartnoma tuzish majburiyatini oldilar. Sutule yonidagi g'alaba Yugurtaning Shimoliy Afrika qabilalari oldida harbiy-siyosiy mavqeini kuchaytirdi. Ko'p sonli gugul qabilalari, Mavritaniya podshosi Bokx Yugurtaga yordam va'da qildi. Rimning Shimoliy Afrika mulklarini yo'qotish xavfi yaqqol ko'rindi. Yugurta rimlik harbiy qo'shin boshliqlari, Rimdagi ayrim senatorlarni katta pora evaziga sotib oldi. Sotilgan poraxo'r harbiy boshliqlar nomigagina urush harakatlarini olib bordilar.

Rimda xalq yig'ini Yugurta bilan rimliklar uchun sharmandali "tinchlik" shartnomasini tasdiqlamadi. Numidiyaga qarshi yana urush boshlandi. Qo'shin tartibga solindi. Tezda asosiy Numidiya shaharlari bosib olindi. Yugurta sahroga chekinib, partizan urushiga o'tdi. Urush cho'zilib ketdi. Bundan norozi bo'lgan xalq yig'ini Senatning irodasiga qarshi qo'shinga qo'mondonlik qilish uchun o'z sarkardasi, o'zining dovyurakligi va harbiy qobiliyati bilan obro'-e'tibor qozongan "yangi kishi", dehqonning o'g'li, plebey 48 yoshli Gay Mariyni qo'mondon qilib tayinladi. Gay Mariy mil. avv. 107-yilda konsulligidan so'ng, yaxshi qurollangan qo'shin bilan mil. avv. 105-yilda Yugurta urushini tugatdi. Yugurta asirga olinib, Rimda qatl qilindi. Numidiya qaram davlatga aylantirilib, uning rasman hukmdori qilib Yugurtaning aqli zaif ukasi tayinlandi. U nafaqat Yugurta urushini (mil. avv. 111-105-yillar) tugalladi, balki Rimni shimoldan kimvr va tevton german qabilalari hujumidan himoya qildi.

Shimoliy Afrikadagi voqealar bilan bir vaqtda Rimning shimoliy chegaralarida german qabilalaridan bo'lgan kimvr va tevton qabilalarining bosqini boshlandi. Kimvrlar va tevtonlar dastlab Yutlandiya yarim orolida yashar edilar. Mil. avv. II asr oxirida bu qabilalar o'z joylaridan ko'chdilar. Tevtonlar g'arbga – Galliya, kimvrlar esa janubga tomon yurdilar. Jangovar kimvr qabilalarining (150 ming kishi atrofida) mil. avv. 113-yillar atrofida Janubiy Germaniyaga kirib, Alp dovonlariga kelib, Italiyaning shimoliy-sharqiy chegaralariga xavf soldilar. Konsul Papirey Karbonning Noreya shahri yonida kuchli qo'shini kimvrlar bilan to'qnashdi, lekin shafqatsiz tor-mor qilindi. Italiyaga yo'l ochiq edi, lekin kimvrlar Alpdan shimolga o'tib, Galliya hududiga bostirib kirdilar. Galliyada ham rimliklar mil. avv. 109-yilda yana yengildilar. Kimvrlarning gelvetlar, Galliyaning o'zida ularga qarindosh bo'lgan tevtonlar bilan birlashuvi rimliklar uchun xavfli vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Mil. avv. 107-yilda konsul boshchiligidagi Rim qo'shini Akvitaniyada pistirmaga tushib to'la yo'q qilindi. Ammo rimliklar mil. avv. 105-yilda Janubiy Galliyada kimvrlardan eng dahshatli mag'lubiyatga uchradilar. Jang maydonida Kanna halokatidan ham ko'proq 80 mingga yaqin legionerlar jasadi qoldi. Kimvrlar o'z g'alabalaridan keyin himoyasiz Italiyaga emas, Ispaniyaga yurish qildilar.

Rimda ichki siyosat va siyosiy kurashning keskinlashuvi. Mil. avv. I asrda Italiyada ittifoqchilar urushi bo'lib o'tdi. Rimning italiyalik ittifoqchilari rimliklar bilan birga, harbiy xizmatning barcha majburiyatlarini o'tab, bundan hech qanday yengillik, foyda olmadilar. Italiya aholisining turli toifalari Rim fuqaroligiga ega bo'lishga harakat qildilar. Dehqonlar yerga egalik qilish kafolatlariga muhtoj edilar. Yersiz dehqonlar va qo'shinda harbiy xizmat muddatini o'tagan veteranlar yer ulushi olish, shahar plebsi esa, turli xayr-ehson, oziq-ovqat mahsulotlarini tekin olish ilinjida edilar.

Respublikaning I asrlarida Rim davlat hokimiyati ittifoqchilarning ma'lum qismiga Rimga ko'chib o'tib, uning fuqarolari bo'lish huquqini berdi. Vaqt o'tishi bilan bunday

imkoniyatlar cheklandi. Rimda Italiya aholisiga past nazar bilan qarash an'anasi kuchaydi.

Italiyadagi vaziyat juda keskin edi. Yetarlicha siyosiy tajribaga ega bo'lgan nobillarning ba'zi bir vakillari faqat o'z vaqtida o'tkazilgan islohotlar norozilikning oldini olishi mumkin deb, hisoblar edilar. Mil. avv. 91-yilda tribun qilib saylangan optimat Kichik Liviy Druz ushbu islohotlarni o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. U Rim fuqarolari va italiyaliklarni keng qatlamlariga suyangan holda Senat obro'sini mustahkamlash, shu bilan bir vaqtda kuchayib ketayotgan suvoriylarni zaiflashtirish maqsadini ko'zladi. U quyidagi qonun loyihalarini taklif qildi:

1. Barcha italiyaliklarga fuqarolik huquqini berish;

2. Kampaniya va Sitsiliyadagi hali taqsimlanmagan jamoa yerlariga Rim fuqarolari koloniyalarini tashkil qilish;

3. Senatorlarning sud komissiyasiga provinsiya noiblari su'istemollari to'g'risidagi ishlarni berish, shu bilan birga, Senatni 300 nafar suvoriy bilan to'ldirish;

4. Eng kambag'al fuqarolarga arzon non sotishni ko'paytirish.

Birinchi qonun loyihasi eng ko'p qarshilikka uchradi. Ittifoqchilar to'g'risidagi masala muhokama qilinadigan xalq kengashidan bir kun oldin Liviy Druz o'ldirildi.

Liviy Druzning o'ldirilganligi, uning qonun loyihasini rad etilganligi haqidagi xabar Rimga qarshi ittifoqchilarning urushini keltirib chiqardi (mil. avv. 91-88-yillar). Rim bu urushga bor kuchini to'pladi. Eng yaxshi sarkardalar Gay Mariy, Lutsiy Korneliy Sulla, Litsiniy Krass va hatto, ozod etilgan qullar ham qo'shinga safarbar qilindi. Urush davomida rimliklar yon berishga majbur bo'ldilar.

Rim fuqaroligini barcha italiyaliklarga va Rimga sodiq qolgan etrusk va umbrlarga berish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Keyin esa, ikki oy davomida qurolini topshiradigan qo'zg'olonchi ittifoqchilarga ham fuqarolik va'da qilindi. Faqat shundan keyingina qo'zg'olonchilar o'rtasida ajralish boshlandi. Urushni oxirigacha davom ettirmoqchi bo'lgan mars va boshqa qabilalarning shahar va qishloqlari kultepaga aylantirildi. Urush quyidagi natijalar bilan tugadi:

- Rim rasmiy jihatdan ham jamoa davlat sifatida yashashni to'xtatdi;

- Ittifoqchi jamoalar mahalliy o'z-o'zini boshqaruvini saqlab qolgan yagona davlat tarkibiga kirgan shahar-munisipiylarga aylandi;

- Munisipiylar ichki qurilishda Rim tartiblarini o'zlashtira oldilar. O'z-o'zini boshqaruvning bosh organi xalq yig'ini saylagan sobiq magistrantlar, 100 dekurionlardan saylangan Senat (kuriya) edi. Senat a'zolari odatda boy shaharliklar, o'rta yer egalari-quldorlar edi;

- Italiyani Rim fuqaroligi bilan yagona davlatga birlashuvidan birinchi navbatda, boy italiyaliklar foyda ko'rdilar. Jumladan, dekurionlar toifasi shu vaqtdan boshlab hukmron sinfning iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchli guruhi sifatida o'rin egallay boshladi;

- Italiya iqtisodiyotida quldorlik munosabatlari jamoalararo doiradan chiqib, yanada jadal rivojlana boshladi;

- Asosan yersizlikdan azob chekkan Italiya dehqonlari veteranlar sifatida provinsiya yerlarini egallash imkoniga ega bo'ldilar. Provinsiyalarda italiyalik savdogarlar, sudxo'rlar, ijarachilar hamda hunarmandlar keng faoliyat ko'rsata boshladilar. Eng kambag'al italiyaliklar legionerlar va davlat yordamini oladigan Rim yo'qsillari safini to'ldirdilar.

Rim fuqarolari sonini 400 mingdan 2 mln. gacha o'sishi ijtimoiy toifaviy ziddiyatlarni tugatmadi, balki yanada kuchaytirdi. Ittifoqchilar urushida rimliklarning g'alabasi juda qimmatga tushdi. Italiya shahar va qishloqlari vayron qilindi. Juda ko'p qurbonliklar berildi. Iqtisodiy tushkunlik boshlanib, pul qadrsizlandi. Iqtisodiyotdagi tushkunlik Rim jamiyatida ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashuvi bilan birga bordi. Tashqi siyosatda bu vaqtda jiddiy muammolar tug'ildi. Rim respublikasining og'ir vaziyatidan foydalangan Pont podshosi Mitridat VI Yevpator Rimning Osiyodagi provinsiyalariga bostirib kirdi. Mil. avv. 88-yilda Rim chuqur ichki yo'qotishlar va qonli tashqi urushlar davriga kirdi.

GLOSSARIY

Italiklar – Apenin yarimorolida istiqomat qilgan qadimiy qabilalar

Puni – Rimliklar Karfagenni shu nom bilan ataganlar

Samnit – Rimning qadimgi aholisi, Janubiy Italiyada yashagan aholi

Strateg – strategiyani yaxshi biladigan mohir lashkarboshi

Qarzdorlik qulligi – qarzni vaqtida qaytarmagan erkin fuqarolarning qullarga aylantirish jarayoni.

12-MAVZU. RIM RESPUBLIKASI INQIROZI VA ILK IMPERIYA DAVRI

Reja:

1. Rim respublikasining tushkunligi.

2. Sulla diktaturasining o'rnatilishi. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni.

3. Pompeyning Sharqqa yurishlari. I-triumvirat.

4. II-triumvirat. Respublikaning qulashi.

5. Yuliy Sezar diktaturasi.

6. Ilk Rim imperiyasi. Oktavian Avgust hukmronligi.

7. Milodiy I asrda Rim imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Rim respublikasining tushkunligi. Rim respublikasi o'z hududini kengaytirishi barobarida boshqaruvning respublika shakli ham shuncha beqaror bo'lib boraverdi. Oxir-oqibatda respublika shakli o'z o'rnini Rimda diktatorlar tomonidan boshqariladigan qudratli imperiyalarga bo'shatib berdi.

Boylik va Rim chegaralarining kengayishi ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Eng jiddiy norozilik jamiyatning quyi tabaqalari orasida o'sib bordi va harbiy buyurtmalarda ham pasayish boshlandi. Bu muammolar respublikani larzaga solib, yangi siyosiy tuzumni vujudga kelishiga olib keldi.

Rim rivojlangani sari boylar va kambag'allar orasidagi farq yana ham kuchayib ketdi. Rimning ko'plab yirik yer egalari farovon yashashardi. Turli xil urushlar davomida egallangan xalqlarga mansub bo'lgan minglab kishilar shunday sharoitlarda ishlashga majbur bo'lganlar. Mil. avv. 100-yilga kelib qulga aylantirilgan fuqarolar Rim aholisining 1/3 qismini tashkil qilar edi.

Mayda dehqonlar qullar mehnatidan foydalanadigan katta imkoniyatga ega bo'lgan kishilar bilan raqobatlashishga majbur bo'lardilar. Ularning katta qismi o'z yerlarini boy yer egalariga sotdilar va uysiz, ishsizga aylanadilar. Katta qismi qishloq joylarda qolganlar va mavsumiy ishchilar sifatida ishlay boshladilar. Ba'zilari Rimga va boshqa shaharlarga ish qidirib ketadi. Ular Rim

jamiyatining to'rtdan bir qismini tashkil qiladigan shahar kambag'allari toifasiga qo'shiladilar.

Ikki aka-ukalar Tiberiy va Gay Grakxlar Rim kambag'allariga yordam berish uchun harakat qildilar.

Qullarning dahshatli harakatlari va Ispaniyadagi harbiy muvaffaqiyatsizliklar Rim davlatining kuchsizlanganini ko'rsatdi. Nobelitetning nazoratsiz yakka hukmronligi erkin aholining katta qatlamini tashkil qilgan mayda yer egalarining xonavayron bo'lishi jamiyatda o'tkir norozilik kayfiyatini vujudga keltirib, davlat tuzumi va boshqaruvini sog'lomlashtirish, jamiyatdagi birlikni mustahkamlash, tashqi siyosatni kuchaytirish borasidagi islohotlar o'tkazishni talab qildi.

Dastlab xalq tribuni Tiberiy Simproniy Grakx tomonidan mil. avv. 133-yili qonun loyihasi tayyorlandi. Tiberiy Simproniy Grakx (mil. av.162-133-y.) Rimning taniqli urug' nobilitetlaridan biri edi. Tiberiyning fikricha, radikal islohotlar o'tkazish zarur bo'lib, ular Rim hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi tura oladigan jamiyatning tayanch kuchini yaratishdan iborat edi. Tiberiyning bu intilishlari Rim nobilitetlari mil. avv. 133-yilgacha konsul bo'lgan Appiy Klavdiy, Mutsiy Sevola, Lutsiniy Krasslar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Tiberiyning qarashlariga ko'ra, Rim hukmdorligining qulashini asosiy sababi mayda yer egalarining qashshoqlashuvi bo'lgan. Tiberiy bu jarayonni to'xtatish uchun agrar islohot o'tkazishni zarur deb topdi. Bundan oldin ham agrar islohot haqida bir qancha g'oyalar mavjud bo'lgan. Masalan, mil. avv. II asr o'rtalarida Mark Porsiy Katon agrar islohot o'tkazish taklifi bilan chiqqan edi. Mil. avv. 141-yilda Gay Liliy mas'uliyatli qonun loyihasini tayyorlagan ham edi. Ammo o'shanda agrar islohotga qarshi yirik yer egalari va quldorlardan iborat qarshilik kuchlari vujudga kelib, ularning ta'siri ostida Liliy yer islohoti haqidagi taklifini xalq yig'ilishiga kirita olmadi. Bu harakati uchun nobilitet o'rtasida "Dono" degan laqabga sazovor bo'ldi.

Mil. avv. 134-yil dekabrda Tiberiy xalq tribuni vazifasini bajaruvchi lavozimiga ko'tarildi. Tez orada u agrar islohot haqidagi qonun loyihasini xalq muhokamasiga qo'ydi. Qonun loyihasida yer egaligining miqdorini cheklash, davlatdan

fuqarolarning yerlarini ijaraga olish tizimini yo'lga qo'yishni belgilar edi. Ijaraga yer olish normasi shudgor qilinadigan 500 yugerni olish, agar dehqonning voyaga yetgan o'g'illari bo'lsa ular uchun ham 250 yugerdan ijaraga olish mumkin bo'ladigan bo'ldi. Bir oila 1000 yugerdan ko'p yer bilan shug'ullanishi mumkin emas edi. Agar yer qo'yilgan normadan ko'payib ketsa, davlatga qaytarilishi nazarda tutildi. Tortib olingan yerlardan davlatning yangi yer fondlari shakllantirilib, ular ham o'z navbatida 30 yugerdan kichik uchastkalarga bo'linib, yersiz va kam yerli fuqarolarga bo'lib beriladi. Ushbu yer uchastkalarini olgan Rim fuqarolari uncha katta bo'lmagan davlat solig'ini to'lashi kerak bo'lgan, ushbu yerni sotish va birovga hadya qilish huquqiga ega bo'lmagan. Bu islohot yer uchastkalarini sotish va mayda yer egaligiga bo'linib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Muhokamadan keyin qonun loyihasi xalq ovoziga qo'yilishi kerak edi. Ammo yirik yer egasi, xalq tribunlaridan biri Mark Oktaviy o'zining veto huquqidan foydalanib, qonun loyihasiga qarshi chiqdi. Shunda Tiberiy Grakx o'z fikrini himoya qilib, xalq tribuni xalq manfaatlariga qarshi chiqishi mumkinmi dedi. Keyin Mark Oktaviy xalq muhokamasiga qo'yilib, u o'z lavozimidan ozod qilindi. Shundan keyin agrar islohot haqidagi qonun xalq yig'ilishida qabul qilindi. Bu qonunni amalga oshirish uchun uch kishidan iborat bo'lgan komissiya tuzildi. Komissiya tarkibi Tiberiy Grakx, uning ukasi Gay Grakx, Tiberiy Appiy Klavdiydan iborat bo'ldi. Ammo islohotlarning keyingi bosqichi katta qiyinchiliklarga uchradi. Chunki qonunni hayotga tatbiq etish Senatning ma'lum huquqlarini cheklar edi. Shundan keyin islohotlarga qarshi kuchli oppozitsiya vujudga keldi. Mil. avv. 132-yilda Tiberiy Grakx va uning yuzlab tarafdorlari o'ldirildi.

Yangi demokratik harakat va agrar islohot faoliyati Tiberiy Grakxning kichik ukasi Gay Grakx (Mil. avv. 153-121-yillar) nomi bilan bog'liq. O'z oldiga u agrar islohot masalasini tugatish, Tiberiyning qotillarini jazolash vazifasini qo'ygan. Gay Grakx Rim oligarxlari hokimiyatiga zarba berishga harakat boshladi. Chunki Rim nobiliteti va senatorlar demokratik harakatning asosiy dushmanlari bo'ldilar. O'z dasturini amalga oshirish uchun Gay Grakx atrofiga Rimning turli aholi qatlamlarini jamladi. Gay Grakx

yersizlarga yer ajratib berish masalasini davom ettirdi. U agrar komissiyaning ishini qayta tikladi va ularga sudlov huquqini berdi. Gay tribunligi davrida Italiyada bir qancha koloniyalarga asos solindi. Gay tushunardiki, faqat qishloq plebeylarining qo'llab-quvvatlashlari kamlik qilardi. U o'z tomoniga shahar aholisini ham og'dirishi kerak edi. Gay davlat xazinasidan juda past narxlarda yer uchastkalarini Rimning shahar aholisiga sota boshladi. Chunki u Rim aholisining qashshoq qatlamini yer bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan edi. Aholi manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan yana bir islohot Osiyodagi provinsiyalardan soliq yig'ishga qaratilgan edi. Gay Grakxning yechimlariga ko'ra Osiyodagi aholidan hosilning 10/1 qismi hajmida soliq undirilgan. Qisqacha aytganda, Gay Grakx islohotlari ko'plab ijobiy xususiyatlarga ega bo'ldi. Ammo bu islohotlar ham katta qarshilikka uchrab, o'z nihoyasiga yetmay qoldi. Mil. avv. 121-yilda Gay Grakx ham o'ldirildi.

Sulla diktaturasining o'rnatilishi. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni. Mil. avv. 80-yil boshlarida Italiyada ittifoqchilik urushlari tugaganidan keyin ichki siyosiy beqarorlik holati mavjud bo'lib turli guruhlar o'rtasida ijtimoiy ziddiyatlar saqlanib qolgan edi. Buning sababi Rim fuqaroligiga yangi kishilarning qabul qilinganligi, xususan, italiklarga fuqarolik huquqlari taqdim qilinganligida edi. O'zining imtiyozlari va huquqlaridan xavfsiragan Senat oligarxiyasi yangi fuqarolarni Xalq yig'inida siyosiy faolligini cheklashga intilgan. Ijtimoiy kurashlar, ayniqsa, mil. avv. 88-yilda xalq tribunligiga saylangan Sulsipiy Rufning siyosiy faoliyati davrida avjiga chiqadi. U Senat oligarxiyasiga zarba beradigan bir qancha qonun loyihalarini ilgari suradi. Bu esa Senatda unga qarshi guruhning shakllanishiga olib keladi. Shu bilan bir vaqtda Pont podshosi Mitridat VI Sharqda Rimga qarshi urush boshlaydi. Mitridatga qarshi urushda qo'shinga qo'mondonlik qilish uchun ikki sarkardaning nomzodi ilgari suriladi. Bu nomzodlar Senat tarafidan Korneliy Sulla xalq yig'inidan esa Gay Mariy edi. Xalq yig'ini Sullani chetlatib, Sharqqa yurishga Gay Mariyni qo'mondon etib tayinladi. Biroq sarkarda Sulla Rimga yurish qiladi va jang bilan shaharni egallaydi. Rim birinchi bor rimlik qo'shinlar tomonidan jang bilan egallandi.

Sulla Rimda hokimiyatni egallaganidan so'ng, avvalo, Suvoriy va uning tarafdorlarini yo'q qilishga kirishdi. Ular qattiq talafot bo'ldi yoki qochib ketdi. Gay Mariy Afrikaga yashirinishga majbur bo'ldi. Sulla oligarxiya hokimiyatini mutahkamlash maqsadida bir qancha islohotlar o'tkazadi. O'zining tarafdorlaridan 300 nafar yangi a'zoni Senat tarkibiga kiritdi. Xalq yig'ini va xalq tribunlari huquqlarini keskin kamaytirdi. Tribunlarning qonun loyihalari avvalo, Senatda obdon ko'rib chiqilishi haqida qonun qabul qilindi. Shu bilan birga xalq tribunlarining faoliyati Senat nazoratiga olindi.

Mil. avv. 87-yilda Sulla o'z qo'shini bilan Sharqqa yurish boshlaydi. Fursatdan foydalanib Rimda to'ntarish sodir bo'lib hokimiyatni Gay Mariy va Sinna egallaydilar. Ular hokimiyat tepasiga kelganlaridan so'ng eski tartiblarni qayta tiklab, Sulla tarafdorlaridan o'ch olishni boshlaydilar. Dastlab Sulla tomonidan qabul qilingan qonunlar bekor qilinib, siyosiy islohotlar o'tkaziladi. Xalq tribunlari hokimiyati qayta tiklanib, Xalq yig'inidagi avvalgi saylov tartibiga qaytiladi. Tez orada Mariy vafot etadi, Sinna bo'lsa ketma-ket 3 marta konsullikka saylanadi. Sinnaning qonunlari Rimning keng aholi qatlamlari ehtiyojlarini qondiradi. Sulla armiya qo'mondonligidan mahrum qilinib, o'rniga boshqa voris jo'natiladi, bu orada esa Sulla qo'shinlari bilan Sharqda qator muvaffaqiyatlarga erishib, Mitridat VI qo'shinlarini tor-mor qildi. Sulla mil. avv. 83-yilda o'z qo'shini bilan janubiy Italiyaga kelib tushdi. Sullaga qarshi hukumat qo'shin to'playdi va unga qarshi chiqadi. Bu bilan fuqarolar urushida yangi davr boshlanadi. Bu urushda Sullaning harbiy tajribasi, Metell, Pius, Litsiniy Krass va Gney Pompey kabi mohir sarkardalarning mavjudligi unga qo'l kelib, g'alabaga erishadi.

Sulla hokimiyatni bosib olgach, o'z mavqeini huquqiy rasmiylashtirdi. U Senatga murojaat qilib, davlatda tartib o'rnatish uchun bir kishini favqulodda vakolatlar bilan ta'minlash zarurligini aytdi. Senat Sullaga noma'lum vaqtgacha diktatorlik vakolatini berdi. Qonunga ko'ra, Sulla qonunlar chiqarish va boshqaruvni tashkil etish uchun cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ldi. Ilgari diktatura muddati 6 oygacha cheklab qo'yilgan edi, Sulla esa, noma'lum vaqtgacha diktator etib tayinlandi.

Sulla hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng, eng avvalo, raqiblaridan shafqatsiz o'ch oldi, tarafdorlarini esa saxiylik bilan taqdirladi. U proskripsiya – raqiblari va ularga xayrixohlk qiluvchilarni ro'yxatini tuzishni buyuradi. Ularning ko'pi o'limga hukm qilinib, mol-mulklari musodara qilinadi. Farzandlari va nevaralari siyosiy huquqlardan mahrum qilinadi. Buning natijasida minglab odamlar halok bo'ladi.

Sullaning islohotchilik faoliyati davlatning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. U polis tizimining oxirgi qoldiqlarini yo'q qilib, yagona Italiya davlatini tuzishga kirishadi. Sullaning islohotlari Senat hokimiyatini kuchaytirib, xalq yig'ini vakolatlarini cheklash edi. Senat tarkibi diktatorning tarafdorlari hisobidan 300 tadan 600 tagacha oshiriladi. U, shuningdek, bir qancha lavozimlarda ham o'zgartirishni amalga oshirib, o'z hokimiyatini mustahkamlaydi.

Lekin tez orada ko'pchilik uchun kutilmagan holda Sulla mil. avv. 79-yilda cheklanmagan hokimiyatdan voz kechadi, mil. avv. 78-yil 60 yoshida vafot etadi. Lekin uni vafotidan so'ng Rim yana urushlar girdobida qoladi. Rimning turli provinsiyalarida o'zaro urushlar avj oladi.

Ispaniyada turli kuchlar o'rtasidagi kurash avj olgan bir vaqtda Rim respublikasida qadimgi dunyo tarixidagi eng yirik Spartak rahbarligidagi qullar qo'zg'oloni yuz beradi (mil. avv. 74-71-yillar). Mil. avv. 74-yilda Kapuya shahridagi gladiatorlar maktabida 200 ta gladiator qochib ketish uchun til biriktiradi. Lekin ulardan 78 tasigina shahardan chiqib, Vezuviy tog'lariga yashirinishni uddalaydi. Rim hukumati dastlab Spartak qo'zg'oloniga kuchli e'tibor qaratmaydi. Mil. avv. 73-yil-yil qishiga kelib gladiatorlar safi yangi qochoqlar hisobiga 10 ming kishiga yetadi. Spartak jangchilari Kampaniya shaharlari va villalariga hujumlar uyushtirib mahalliy yer egalariga qo'rquv soladi. Qo'zg'olonchilarning muvaffaqiyatlari rimliklarning ularga qarshi 3 ming kishilik qo'shin jo'natishiga majbur qiladi. Rimliklar Spartak qo'shinlarini Vezuviy tog'laridan siqib chiqarib, ularni qamal qiladi. Biroq Spartak tol novdalaridan to'qilgan narvonlar yordamida tog'ni oshib o'tib, Rim qo'shinini tor-mor qildi. Mil. avv. 73-yil qishiga kelib, Spartak qo'shinining soni 70 ming kishiga

yetadi. Unga qarshi Rimning har ikkala konsuli boshchiligidagi qo'shin jo'natiladi. Spartak bir necha bor rimliklar ustidan g'alaba qildi. Ayniqsa, Mutina shahri yaqinida Shimoliy Italiya noibi ikki legion bilan Spartak qo'shiniga qarshi chiqadi, lekin u to'liq mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng qo'zg'olon butun mamlakatni qamrab oladi. Bu holat esa Rimni og'ir ahvolga solib qo'yadi.

Mil. avv. 72-yilda rimliklar qiyinchilik bilan 6 ta legion to'plashga erishadilar. Unga omon qolgan 2 ta legion ham qo'shilib, qo'shinga pretor boy quldor Mark Litsiniy Krass qo'mondonlik qiladi. U tez orada qo'shinda qat'iy intizom o'rnatadi. Spartak qo'shinlarida bo'lsa, erishilgan g'alabalardan ba'zi yo'lboshchilarning orasida ixtiloflar boshlanadi. Krass Spartak bilan ochiq jangga kirmasdan uni izma-iz ta'qib qiladi. Spartak Rimni chetlab o'tib, Italiyaning janubiga yurish qildi. Taxminlarga ko'ra, Spartak Sitsiliyaga o'tishga harakat qilgan. Spartakning Sitsiliyaga o'tishida kemalar bilan ta'minlashga va'da bergan dengiz qaroqchilari uni aldaydilar. Qullar qo'shini Bruttiya viloyatida qamalib qoldi. Krass bu yerda 52,5 km uzunlikdagi handak qazishga buyruq berdi. Spartak qo'shinlari rimliklarning bu to'siqlarini buzib o'tib, Burundiziyga qarab harakat qildilar. Senat qo'zg'olonni tezroq bostirish uchun Ispaniyadan Pompey va Makedoniyadan Mark Lukull boshchiligidagi qo'shinlarni chaqiradi. Bu orada Spartak qo'shinlaridan bir necha qismlar ajralib, kuchlari zaiflashadi. Krass qullar qo'shinini taqib ostiga olib, ularning orqasidan izma-iz bordi. Brundiziya yaqinida Krass va Spartak qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Jang juda shafqatsiz bo'lib, rimliklar g'alaba qildilar. Spartak va minglab qullar bu jangda qahramonlarcha halok bo'ldi. Uning o'limidan so'ng qo'shinlari bir necha qismga bo'linib ketadi. Krass va Pompey qo'zg'olonning so'nggi o'choqlarini ham bostirishga erishdilar.

Pompeyning Sharqqa yurishlari. I-triumvirat. Respublikaning ichidagi sarosimalarga qo'shimcha ravishda sodiq harbiy kuchlarning ham orasida ixtiloflar boshlandi. Respublika qanchalik beqaror bo'lgani sari, lashkarboshilar shunchalik hukmronlikni egallashga harakat qila boshladilar. Ular

yersiz kambag'allarni ularga yer va'da qilib, xizmatga jalb qila boshladilar. Ular pul uchun urushardilar va faqat o'zlarining boshliqlarigagina bo'ysunar edilar, xolos. Shuningdek, respublikaga sodiq bo'lgan fuqaro-askarlarni ham almashtirdilar. O'zining shaxsiy armiyasiga ega bo'lgan lashkarboshilar endilikda hokimiyat uchun kurasha boshladi. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni bilan bir vaqtda Mitridat VI bilan (mil. avv. 74-64-yillar) yangi urush boshlandi. Dastlab, Rim qo'shinlariga tajribali sarkarda Lukull boshchilik qilib, bir qancha yutuqlarga erishdi. Lekin Mitridat VI ni yenga olmadi. Shundan so'ng qo'mondonlik Gney Pompeyga topshirildi.

Gney Pompey Sulla davrida tanilib, fuqarolar urushi davrida Sullani qo'llagan edi. Keyin esa, Senat uni Spartakka qarshi Krass qo'shiniga yordamga yubordi. Mil. avv. 70-yil Pompey va Krass konsul etib saylandi. Pompey qo'shinlari rag'batlantirildi. Pompey Rim uchun katta ziyon keltirayotgan dengiz qaroqchilarini tugatib, Rimda katta obro'ga ega bo'ldi.

G'ayratli sarkarda Pont podshosini tor-mor qilib, Armanistonni vassal davlatga aylantirdi. Pompey Bosfor podsholigida Mitridat VI ga qarshi qo'zg'olon uyushtirib, uning o'zini o'ldirishga majbur qildi hamda Suriya va Yahudiyani istilo qildi. Kichik Osiyoda Rim hokimiyatini qayta tikladi. Pompeyning Sharqqa yurishi sharqiy ellin mamlakatlarini (Misrdan tashqari) Rimga bo'ysundirishni tugalladi.

Mil. avv. 60-yilga kelib, Pompey Osiyodan g'alaba bilan qaytadi, biroq Senat tomonidan uning bir qancha so'rovlari javobsiz qoldiriladi. U o'zining fidoyi askarlariga yer-mulk olib berishga erisha olmaydi.

Bunga birinchi sabab Pompey yurishdan qaytayotganida qo'shinini tarqatib yuborganligi bo'lsa, ikkinchisi Krass bor kuchi bilan uning imkoniyatlarini cheklayotgan edi. Shunda Sezar ular bilan birgalikda ish olib borishga, agar o'zi konsul bo'lsa, ularning istaklarini amalga oshirishga va'da berdi. O'rtada tuzilgan ittifoq mil. avv. 58-yilga kelib Sezarning yolg'iz qizi Juliyaning Pompeyga turmushga chiqishi bilan yanada mustahkamlandi.

Mil. avv. 60-yilda Yuliy Sezar rimlik boy Krass va mashhur sarkarda Pompey bilan kuchlarini birlashtirdi.



16-rasm. Sezar

Ularning yordami bilan Yuliy Sezar mil. avv. 59-yilda konsullikka saylandi. Bu uch kishidan iborat guruh keyingi o'n yillik mobaynida Rimni **triumvirat** sifatida boshqardi. O'sha davrdagi dushmanlari tomonidan esa "Uch boshli ajdar" deb ataldi.

Sezar kuchli lashkarboshi va dono harbiy strateg edi. An'analarga amal qilgan holda u faqat bir yil konsullikda turdi. U o'zini Galliya (hozirgi Fransiya) gubernatori etib sayladi. Mil. avv. 58-50-yillarda o'zining armiyasini butun Galliyani bosib olish uchun og'ir kurashga boshladi. Sezardan oldin ham bir qancha sarkardalar gallarni qarshiligini sindirishga uringanlar, ammo har safar ham buni uddasidan chiqilmagan. Sezar gallar qo'zg'olonlarini bartaraf eta oladi. Nafaqat bartaraf etadi, balki o'zi ham yangi hududlarni bosib olishni boshlaydi. U to'liq og'ir kechgan urushlarda sodiqlik va mas'uliyat bilan dushmanlarni yengadi.

Galliya istilosi natijalari ulkan edi. Sezar 300 ta qabilani bo'ysundirdi, 800 ta shahar qamal qilib olindi, 1 mln kishi asir olindi. Rimliklar qo'liga ulkan miqdorda o'lja tushdi: Rimda oltin qadoqlab sotildi va uning bahosi juda pastga tushib ketdi. Bularni hammasi Rimda Sezarning obro'-e'tiborini oshirib yubordi.

Sezarning Galliyadagi g'alabalari haqidagi xabar uni Rimdagi eng e'tiborli kishiga aylantirdi. Sezarning g'alabalaridan cho'chigan Pompey uning siyosiy raqibiga aylandi. Mil. avv. 50-yilda Pompeyning urinishlari bilan Senat Sezar o'z legionlarini tarqatib yuborib, vataniga qaytishi haqidagi qarorini chiqaradi.Sezar Senat irodasiga qarshi chiqdi. Mil. avv. 49-yil 10-yanvar tunida u o'z armiyasini olib, Italiyadagi Rubikon daryosini kechib o'tadi.

Qonunga ko'ra, bu daryodan o'tgan har qanday qurollangan qo'shin Rimning dushmani deb hisoblanar edi. Aytishlaricha, daryodan o'tish oldidan Sezar uzoq o'ylanib turib, "qur'a

tashlandi" deb xitob qiladi va qo'shinga daryodan o'tishga buyruq beradi. Shimoliy Italiyaning shaharlari Sezar qo'shinlariga deyarli qarshilik ko'rsatmaydi.

U o'z armiyasi bilan shiddatli ravishda Rimga qarab yuradi, natijada Pompey qochib ketadi. Sezar armiyasi Pompeyning Yunoniston, Osiyo, Ispaniya va Misrdagi armiyasini yengadi. Mil. avv. 46-yilda Sezar Rimga qaytadi. Shu yili Senat uni diktator etib sayladi.

Sezar 3 marta Pompey bilan muzokaralar olib borishga urindi. Lekin Pompey 17-martda o'ziga sodiq qo'shin va tarafdorlari to'planayotgan Yunonistonga jo'nab ketdi. Nozik diplomat Sezar ikki oy davomida hech qanday qon to'kmasdan butun Italiyani egalladi. U Rimga kirib, 5000 funt tilla va kumushdan iborat davlat xazinasini egallab oldi. Sezar Rimda ko'p turmay, Pompeyga sodiq yetti legion mavjud bo'lgan Ispaniyaga yurish qildi. Ispaniyada g'alaba qilib, Sezar Bolqon yarim oroliga o'tmoqchi edi. Ispaniyadagi Ilerda shaharchasi yonida Sezar dushman qo'shinlarini 2-avgust kuni tor-mor qildi. Shundan so'ng, ikki ispan provinsiyasi Sezar tomoniga o'tdi. Hal qiluvchi jang mil. avv. 48-yili Yunonistondagi Farsal shahri yonida bo'lib o'tdi. Pompey qo'shinlari yengildi. Pompeyning o'zi esa, Misrga qochib ketdi va u yerda xoinona o'ldirildi.

Pompey o'ldirilgach, Sezar Misrdagi fuqarolar ishiga aralashib, Misr malikasi Kleopatrani qo'llab-quvvatlaydi va hokimiyatni unga olib beradi. Sezar Kichik Osiyoda hani qonli urushlar olib boradi. Pont podsholigini yengib, uni o'z ta'siriga oladi. Afrikada olib borilgan urushlar ham Sezar foydasiga hal bo'lgan.

Shu davrda Pompeyning ikki o'g'li Ispaniyada Sezarga qarshi katta kuch to'plamoqda edi. Sezar Pompey o'g'illari ustiga qarshi qo'shin tortib, ularni tor-mor keltiradi. Bu jang miloddan avvalgi 45-yil Ispaniyaning Mund degan joyida bo'ladi. Ulardan biri jangda halok bo'ladi, ikkinchisi Shimoliy Ispaniya tog'lariga qochib ketadi. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi nihoyasiga yetadi. Fuqarolar urushidan keyin Rimda Sezarning mavqei yanada kuchayib ketadi.

Mil. avv. 44-yilda u butun umrga diktatorlikka tayinlandi. Endi Rim konsullari va senatorlari uning buyruqlarini so'zsiz

bajarishlari lozim edi. Sezar imperator bo'lib olgach, saltanatini mustahkamlash uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan. U birinchi navbatda Rim qo'shinlarini kuchaytirgan. Rimda birinchi marta oltin pul – dinorni zarb etgan. Tanga pullarga uning rasmi tushirilgan. U o'z nomidan Yuliy taqvimini ham joriy qilgan. Rimda respublika tuzumi bekor qilinib, Sezarning yakka hokimligi joriy qilingan. Senat uning yakka hokimligini tan olishga majbur bo'lgan va faxrli oltin taxt – kursida o'tirishga ijozat bergan.

Sezar islohotlari. Sezar davlatni katta kuch-qudratga ega mutlaq hukmdor sifatida boshqardi. Bu harakat haqiqatan unga cheksiz hokimiyat berdi, garchi uning haqiqiy kuchi legionlariga bog'liq bo'lsa-da, diktator Sullaga o'xshamagan holda Sezar mag'lub bo'lgan dushmanlariga qarshi hech qanday jazo choralari olib bormadi. Sobiq dushmanlari uning hokimiyatiga qarshi bo'lgan paytda, Pompeyning armiyasidagi lashkarboshilar Sezarning xizmati ostiga beriladi. Sezar Rim va uning provinsiyalarini tubdan o'zgartirib yuborgan islohotlarni amalga oshirdi. U viloyatlardagi ko'plab kishilarga Rim fuqaroligini berdi. Shuningdek, Italiya va boshqa viloyatlardan ittifoqchilarni qo'shish orqali Senat safini kengaytirdi. Rim anchagina gavjum shahar edi va Sezarning birinchi harakatlari shaharning xarobalarini yo'qotishdan iborat bo'ldi. U xarobalarni yo'qotib, yangi jamoat binolarini qamrab olgan qayta qurishni amalga oshirishni rejalashtiradi.

U yersiz kishilar mol-mulkka ega bo'lishi mumkin bo'lgan koloniyalarni ochishni boshlaydi va askarlar maoshini ko'paytiradi.

Umuman olganda Gay Yuliy Sezarning diktatorlik davri ancha murakkab davrlardan biri bo'lgan. Bu davrda bir qator unga dushman bo'lganlar turli xil sotqinliklar va ig'volari orqali mamlakatning ahvolini tang holatga solishga urinsalar-da, Sezar o'zining qat'iyati va shijoati orqali bu qiyinchiliklarni yengishga intilgan.

Rimda Sezarning boshqaruvdagi ahamiyati oshib borgani sari, unga qarshi norozilik harakati ko'tarildi. Ko'plab aslzodalar va senatorlar Sezarning oshib borayotgan kuch-qudratidan, muvaffaqiyatlari va mashhurligidan tashvishlana boshlashdi.

Shunday vaziyatda Sezarni chetlashtirib hukumatni Senatga qaytarishni o'z ichiga olgan fitna tuzib chiqildi. Rim aslzodalari, Senat a'zolariga Sezarning tanho hokimligi kerak emas edi. Ular Rimda boshqariladigan respublikani saqlab qolish tarafdorlari edilar. Fitnachilarning rejasiga ko'ra, Sezarning o'ldirilishi bilan hukumat avvalgiday respublikachilarga qaytib, Sezar o'zgartirgan tartib-qoidalar yana o'z holiga qaytar edi. Shuning uchun ular Sezarni o'ldirish payiga tushadilar. Ko'pchilik senatorlar Mark Brut va Gay Kassiy boshchiligida unga fitna tayyorladilar. Miloddan avvalgi 44-yil mart oyida Sezar Sharqqa harbiy yurish uyushtirishdan oldin Yupiter bayrami kuni Senat majlisiga borganda mil. avv. 44-yil 15-martida Senat binosida pichoqlab o'ldiriladi.

Gay Yuliy Sezarni ba'zilar yakkahokim sifatida bilsalar, ayrimlar uchun Sezar Rimning asoschisi hisoblanadi. Umuman olganda, Sezar Rim tarixida jasur va aqlli shaxs sifatida qoldi.

Imperiyaning boshlanishi. Sezarning o'limidan so'ng qaytadan fuqarolar urushi boshlandi va Rim Respublikasi qoldirgan barcha narsalar vayron bo'ldi. Sezar vafotidan keyin uning dushmanlari Rimda va viloyatlarda respublikani qayta tiklash uchun kurash boshlaganlar. Rim aholisining ko'pchiligi fitnachilarni qo'llab-quvvatlamagan. Aksincha, ularning Rimdan ko'chib ketishini talab qilganlar. Rim Senatida ikki oqim paydo bo'lgan. Biri Sitseron boshliq respublikachilar bo'lsa, ikkinchisi, Sezarning sobiq yordamchisi Antoniy boshliq sezarchilar oqimi edi. Miloddan avvalgi 50-40-yillarda bu ikki oqim tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash davom etgan. Bu esa mamlakatda fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'lgan.

Sezarning uchta tarafdori fitnachilarni yo'qotish uchun ittifoq tuzishdi. Sezarning 18 yoshli jiyani va asrandi o'g'li Oktavian tajribali lashkarboshi Mark Antoniy va kuchli siyosatchi Lepid bilan birlashdi. Mil. avv. 43-yilda ular Rimni egallashdi va keyingi o'n yil davomida Ikkinchi tirumvirat sifatida boshqarishdi.

II-triumvirat. Respublikaning qulashi. Ittifoqchilar respublikachilarga qarshi kurashib, Sezarning qotillariga berilgan avfni bekor qilganlar. Miloddan avvalgi 40-yillar oxirida Italiyada respublikachilar va sezarchilar o'rtasidagi kurash kuchayib

ketgan. Rim, Italiya va uning g'arbiy viloyatlarida hokimiyat sezarchilar qo'liga o'tgan bo'lsa, qolgan viloyatlarda respublikachilar ustunlikka ega edilar. Mamlakat esa fuqarolar urushi girdobiga tortilgan.

Pompeyning o'g'li Sekot Pompey esa Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollarini bosib olgan. Uning floti Italiya qirg'oqlaridagi shaharlarni qamal qilib, Rimga oziq-ovqat keltirilishiga to'sqinlik qilgan. Miloddan avvalgi 42-yilda Makedoniya, Yunoniston, Kichik Osiyo va Suriya yerlarini bosib olgan Brut va Kassiylar sharq tomondan Rimga jiddiy xavf solganlar. Umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun Oktavian Antoniy bilan yarashib oladi. Shu yili Oktavian va Antoniy qo'shinlari dushman ustiga bostirib borib, Filipp shahri yaqinida bo'lgan jangda ularni tor-mor qilganlar. Kassiy o'z chodirida o'ldirilgan. Brut esa dushmanlariga asir tushishni xohlamay, o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'lgan. Filipp shahri yonidagi jangda respublikachilar qo'shini tor-mor etilgach, Rim saltanatining yerlari uch qismga taqsimlangan.

Antoniy O'rtayer dengizining sharqiy sohillaridagi boy va madaniy o'lkalarni olgan. Galliya, Illiriya va Ispaniya Oktavianga topshirilgan. Emiliy Lepidga esa Shimoliy Afrika taqdim etilgan. Italiya uchalasining boshqaruvida bo'lsa ham, u yerda asosan Oktavian hukmronlik qilgan. Uchlar ittifoqi uzoqqa cho'zilmagan. Toj-taxt ularni bir-biriga qarshi qilib qo'ygan.

Antoniy O'rtayer dengizining sharqida katta bir davlat tuzishni ko'zda tutib, Parfiya va Midiya ustiga yurish qilgan. Ammo jiddiy g'alabaga erisha olmagan. U Misr malikasi Kleopatra bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rgan, hatto u Misr malikasi Kleopatraga uylangan. Antoniyning bu xatti-harakati Oktavianga yoqmagan. Oktavian Kleopatra va Antoniyga qarshi urush e'lon qilgan.

Har ikki tomon urushga tayyorlangan. Antoniy o'z flotini Yunonistonning g'arbidagi Aksiya burni yoniga olib kelib, dengiz jangiga shay bo'lib turgan. Oktavian floti va qo'shinlari ham shu yerga yetib keladi. Miloddan avvalgi 31-yilda Aktsiya burni yonida shiddatli dengiz jangi bo'lib o'tgan. Dengiz jangida Oktavian floti porloq g'alabaga erishgan. Kleopatra bilan Antoniyning floti va qo'shinlari Iskandariyaga chekinishga majbur bo'lgan.

Miloddan avvalgi 31-30-yillarda Oktavian qo'shinlari qishni Italiyada o'tkazgan. Mil. avv. 30-yili Rim qo'shinlari qarshilikka uchramay, Suriyani ishg'ol qilib, Falastinga bostirib kirgan. Shundan keyin Rim qo'shinlari Misrga qarab yurgan. Antoniy ularning bu harakatini qaytarmoqchi bo'lgan. Ammo rimliklar istehkomlarni yorib o'tib, Misrga intilgan. Shu vaqtda kimdir Antoniyga: Kleopatra o'zini o'zi o'ldirdi, degan xabarni yetkazgan. Antoniy o'zini qilich tig'iga tashlab, og'ir jarohatlangan. Jarohatlangan Antoniy o'zini Kleopatra yoniga olib borishni buyurgan. Ammo malika o'lmagan edi. Kleopatra Rimga zanjirband holda borishdan o'limni afzal ko'rib, o'zini o'zi o'ldirgan. Shundan keyin Misr ham Rim viloyatiga aylantirilgan. Ushbu voqea bilan Rim saltanatidagi fuqarolar urushi ham nihoyasiga yetgan. Shu vaqtdan boshlab Oktavian g'oyat katta Rim saltanatining tanho hukmdoriga aylandi.

Oktavian Misrni istilo qilgach, miloddan avvalgi 29-yilda Rimga qaytib kelgan va zafar bayramini o'tkazgan. Mil. avv. 27-yilda Senat yig'ilishida imperator unvonini olgan. Rim davlatida miloddan avvalgi 27-yil Prinsipiat tartibini o'rnatgan vaqtidir. Prinseps – "birinchi kishi" demakdir. U mamlakatni viloyatlarga bo'lib, u yerlarga o'ziga sodiq bo'lgan kishilardan noiblar tayinlagan. Shuningdek, Senatni saqlagan holda davlat ishlarini o'z qo'lida tutib turgan.

Oktavian Avgust ichki siyosatda davlatni qayta yangilash yo'lidan bordi hamda o'z siyosiy faoliyatini boshlanishida xalqning suverenitetini himoya qildi, lekin davlatda yagona monarx edi.

Avgust senatorlar tarkibini 600 taga kamaytirdi, natijada Senat tarkibida 2 ta senatorlar tabaqasi qoldi. Senatorlarga mulk senzi qilib 1 million sester o'rnatildi va senatorlarning otasi yoki bobosi senator bo'lishi shart etib belgilandi. Qolgan fuqarolar mulk senziga ega bo'lsa ham, boshqa tabaqadan bo'lganligi sabab, Senatdan chiqarildi. Oxirgi mulk senzi 4000 sesterga tushirilgan edi. Beboniklar va senatorlarning bolalari birinchi magistr darajasigacha ko'tarilgan.

Oktavian Rim va Italiya shaharlarining aholisiga ko'p homiyliklar qilgan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlardagi aslzoda kishilarga ham Rim fuqarolik huquqi berilgan. Oktavian

Avgust mamlakat hayotining nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jabhalariga ham alohida e'tibor qaratgan.

Oktavian davlati quldorlik saltanati edi. U o'z faoliyati davomida ko'proq quldorlar manfaatini ko'zlab ish yuritgan. Shuning uchun qullarni asoratda saqlash va ular ustidan nazorat o'rnatishni kuchaytirgan. U tasodifan qul qilingan kishilarni ozod qilishga Senat qarorini chiqartirgan.

Oktavian Rim va Italiya shaharlarining aholisiga ko'p homiyliklar qilgan. Shu davrdan boshlab butun Apennin yarim oroli Italiya deb atala boshlagan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlaridagi aslzoda kishilarga ham Rim fuqaroligi huquqi berilgan. Oktavian davrida qurilish, diniy va madaniy ishlarga ham alohida e'tibor berilgan. Rimda 82 ta ibodatxona qurilgan va tiklangan. Oktavian o'zining tashqi siyosatida Rim saltanati va zamonasining aslzodalari manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan. U Italiyaning shimoli-sharqiy tomonidagi Italiya va Dunay daryosining boshlarida yashovchi qabilalarni o'ziga itoat ettirgan. Bu davrda Rim saltanatining yerlari Ispaniyadan Suriya va Misrgacha bo'lgan maydonlarni egallagan. Ammo joylardagi qabilalar Rimga qarshi ko'p marta qo'zg'olonlar ko'tarishgan. Biroq bu harakatlar qattiqqo'llik bilan bostirilgan. Oktavian qo'shinlari miloddan avvalgi 36-yilda Sekst Pompeyning Sitsiliya, Sardiniya va Korsikadagi orol davlatini tor-mor keltirgan. Oktavian hukmronligining oxirlariga kelib, Rim davlati asta-sekin zaiflashadi. Shimoldan german qabilalarining hujumi boshlangan. Endilikda Rimning istilochilik urushlariga qurbi yetmay qolgan. U o'zini-o'zi arang mudofaa qilib turgan.

Milodiy 14-yilda Oktavian Rim shahri yaqinidagi Nole shaharchasida vafot etgan. Imperator vafotidan so'ng saltanatdagi ahvol yanada og'irlashib ketgan. Koloniya va viloyatlarda yirik qo'zg'olonlar boshlangan. Imperatorlikka da'vogar kishilar ko'payib, ular o'rtasida qonli kurash boshlangan.

13-MAVZU. MILODIY I -II ASRDA RIM IMPERIYASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Reja:

1. **Rim imperiyasining iqtisodiy ravnaqi.**
2. **Kolonat munosabatlarining rivojlanishi va uning evolyutsiyasi.**
3. **Rim imperiyasi Yuliy-Klavdiy, Flaviylar va Antoninlar sulolasi davrida.**
4. **II asrda Rim davlati rivojlanishining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy natijalari.**
5. **Rim davlatining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy inqirozning sabablari.**
6. **Xristian dinining kelib chiqishi va uning Rim imperiyasiga yoyilishi.**

Rim imperiyasida milodiy I asr davomida ikki sulola hokimiyatni boshqargan. Tiberiyning vorisi Germanikning o'g'li 24 yoshli Gay Sezar Kaligula (37-41-yillar) hokimiyatni egalladi. Kaligula badjahl, axloqan buzuq, o'ta mag'rur, takabbur shaxs edi. Dastlab u Senat bilan kelishgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bordi, soliqlarni kamaytirdi. Bir necha oy ichida u isrofgarchilik bilan Tiberiydan qolgan xazinani turli tomoshalar o'tkazib va o'ziga yoqqan odamlarga mo'l-ko'l sovg'alar berish bilan talon-taroj qildi. Kaligula o'zini "Janob" (Dominis) va "Xudo" deb e'lon qilib, omma oldida Yupiter qiyofasidagi kiyimlarda chiqdi. Bu aqlsiz imperatorning hukmronligi uch yil davom etib 41-yil yanvar oyida pretorian Kassiy Xerey boshchiligidagi fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Pretorian qismlari Kaligulaning 50 yoshli tog'asi Tiberiy Klavdiy Neronni (41-54-yillar) imperator deb e'lon qildilar. Klavdiy Senat bilan munosabatni yaxshiladi. O'zining Senatdan mustaqil bo'lgan ma'muriyatini shakllantirdi. Ma'muriyat bir necha muassasalardan tashkil topib, ularni ozod qilingan qullardan chiqqan amaldorlar boshqargan. Klavdiy davrida

boshqaruvni markazlashuvi va imperatorning shaxsiy hokimiyatini kuchayishi kuzatildi. Uning hokimiyati qo'shin, turli tekin tomosha va xayr-sadaqa beriladigan Rim plebsi hamda provinsiyalarning zodagonlariga tayandi. Tashqi siyosatda urushlar o'rniga diplomatik vositalar qo'llanila boshlandi, faqat 43-yilda Britaniyaga harbiy ekspeditsiya uyushtirildi. Klavdiyning ikkinchi xotini 33 yoshli Agrippina 54-yilda uni zaharlab o'ldirdi va o'zini 17 yoshli o'g'li Neron Klavdiy Sezarni (54-68-yillar) taxtga chiqardi.



17-rasm. Gay Kaligula

Imperator Klavdiyning vorisi Neron (54-68-yillarda hukmronlik qilgan) hokimiyatining dastlabki yillari nisbatan yaxshi bo'lganligining sababi uning fe'l-atvorida emas, balki imperator saroyidagi bo'linishlarning holatiga bog'liq edi. Neronning onasi Kenja Agrippina o'z o'g'li ustidan ta'sir o'tkazish uchun maslahatchilar Seneka va Burr bilan kurashdi. U o'g'lini uning nomidan davlatni boshqarish uchun taxtga o'tkazdi va tez orada uning qanday ish tutmoqchi ekanligi barchaga ayon bo'ldi. Agrippina o'g'lining faqat xatti-harakatlarini boshqarayotganidan ko'ngli to'lmasdi, u davlat ustidan yolg'iz o'zi hukmronlik qilayotganini hammaga ko'rsatishni xohlardi. Neron omma oldida rasman hozir bo'lganida, onasi doimo unga hamroh bo'lardi. Agrippina ko'pincha taxtiravonda o'g'li bilan birga o'tirar, ba'zida Agrippinani taxtiravonda eltishar, imperator esa o'z mulozimlari bilan yonma-yon piyoda ketib borardi. Agrippina Senat majlislarida ishtirok etishni xohlardi, ammo u kuriyada hozir bo'lish imkoniga ega emasdi, shuning uchun senatorlar saroyda yig'ilishga chaqirilar va u faqat parda bilan ajratib qo'yilgan boshqa xonadan yig'ilishni tinglardi. Agrippina xorijiy elchilarni qabul qilar, provinsiyalar hokimlariga va Rim hukmi ostida bo'lgan podsholarga yozma buyruqlar yuborardi. U imperator

Neron bilan yonma-yon qilib tasvirlangan tanga zarb qilishni ham buyurgan.

Yosh imperatorning maslahatchilari – pretorianlar prefekti, jasur, obro'li Burr va olim Seneka Agrippinaning siyosatparastligiga qarshi kurashdi. Neron hukmronligining dastlabki besh yilida ularning sa'y-harakatlari tufayli Rim xalqi yaxshi boshqaruv va adolatga ega bo'lib, ko'plab foydali qarorlar qabul qilinishiga erishildi. Senat amalga oshirilayotgan ishlar ustidan juda katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Sud jarayonlarini takomillashtirish va soliq yig'ish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Buyuklikni haqorat qilish ishi jarayonlari mutlaqo kuzatilmadi. Qonuniy tribunallardan imperatorga apellyatsiya shikoyati cheklandi yoki qiyin qilib qo'yildi. Sudyalarning poraxo'rligi kamaydi. Tinch aholi ayblovchilarning yolg'onidan himoyalandi, soliqlar qayta ko'rib chiqildi. Provinsiya hokimlari tomonidan hokimiyatni suiste'mol qilish holatlari qattiq jazolandi, shaxsiy huquqlarni ta'minlash qonunlar bilan mustahkamlandi. Rimda ham, provinsiyalarda ham xalq avval Neron hokimiyatini ko'klarga ko'tardi.

Bu yaxshi ma'muriy tartiblar va sud ishlari uchun davlat Burr va Senekaning mulohazakorligi hamda qat'iyatiga tahsin aytsa arziydi. Imperator Neron ularning maslahatlariga uzoq vaqt quloq solib keldi, buning sababi qisman ularni hurmat qilganidan bo'lsa, ikkinchidan, onasiga bo'lgan dushmanlik tufayli edi. To'g'ri, ular o'zlarining to'la erkinliklikiari, unga bo'lgan ta'sirlarini uning axloqsizliklari, faxsh ishlari uchun to'liq yo'l ochib berish orqali amalga oshirishdi. Neron allaqachon g'ayritabiiy ishlarga sho'ng'iy boshlagan edi. Avvaliga Neron yaxshi xislatlardan ham holi emasdi, ba'zan kamtarlik, saxiylik ko'rsatib, zolimlikka mayli yo'qligini namoyon etardi. Senekaning yozishicha, bir kuni u o'limga hukm qilish haqidagi qarorni imzolayotganida, u o'zining qani endi yozishni bilmasa-yu, shu orqali qaror ham imzolanmay qolishishini xohlashini aytgan.

Notiq Seneka imperator Neronning tarbiyasi bilan shug'ullana boshlaganida uning aqli va saviyasini buzib bo'lishgan edi. Neronning jiddiy o'y-fikrlari ham, o'zini tuta bilish odati ham yo'q

edi. Neron tosh o'ymakorligini, rasm chizishni, qo'shiq kuylashni, she'r yozishni, otlarni yurgizishni yaxshi ko'rardi.

Agrippina o'zining fe'l-atvori va hokimiyatparastligi bilan hatto o'z o'g'liga qarshi chiqadi. U o'g'li ustidan butunlay hukmronlik qilishni, maslahatchilarni tanlashni o'z qo'liga olishni va bu bilan saroy va davlatdagi izzat-ikromni bo'lishib olishni istardi. Neron unga nisbatan boshidan dushmanlik kayfiyatiga ega bo'lgan xotinidan o'zini chetda tuta boshlab, ozod qilingan go'zal qul ayol Aktaning ta'siriga tushib qola boshlagach, onasi uni axloqsiz harakati uchun g'azablanganidan emas, balki ozod qilingan qul ayol o'z o'g'lini idora qilishda unga raqib bo'layotgani alam qilganidan o'g'liga tana toshlarini otdi.

Neron uning tanalariga haqoratli tarzda javob berdi, onasining ma'shuqi Pallantdan moliyaviy boshqaruvni olib qo'ydi, bir muncha vaqt o'tgach esa uni zindonga tashladi hamda hayotidan mahrum etdi. G'azab otiga mingan Agrippina o'g'liga taxt yo'lini ochishda sodir etgan jinoyatlarni odamlarga oshkor etish bilan tahdid qila boshladi, otasi hokimiyatining haqiqiy va qonuniy vorisi – o'sha vaqtda o'n to'rt yoshda bo'lgan Britannik ekanligini aytdi.

Neron g'azab ustida aytilgan tahdiddan qo'rqib, Lokustaga zahar olib kelishni buyurdi. U bu topshiriqni shunday mahorat bilan bajardiki, imperatorning tushlik dasturxonida tortilgan zahar natijasida Britannik o'sha vaqtning o'zidayoq polga yiqildi va bir necha harakatlarni qilib vafot etdi (55-yil). Tushlik qilayotganlar, shu jumladan, Agrippina va Neronning rafiqasi Oktaviya bu dahshatli hodisaga bir necha daqiqa dong qotib qarab qolishdi. Neron esa Britannikning o'limi tutqanoqning tabiiy natijasi ekanligini aytdi va ziyofat davom etdi.

Xuddi shu kecha o'ldirilgan Britannikning jasadi hech qanday izzat-ikromsiz Mars maydonida yoqib yuborildi. Rimda esa hamma Neronning jirkanch axloqsizligi va zo'ravonligi haqida gapirardi. Aytishlaricha, u tunlari mahbuslar kiyimini kiyib olib, yaramaslar to'dasi bilan ko'chalarda sang'igan, buzuqxonalarga kirgan, e'tiborli kishilar va xonimlarni haqorat qilgan, ichkilikbozligi va iflos ishlari chegara bilmagan.

Maishatparast Neron o'ziga yangi mashuqa topadi. Uning ismi Poppeya Sabina bo'lib, Rim otliq askarlaridan birining xotini edi. O'zining tannozligi tufayli Neron bilan birga yuradigan uning do'stlaridan biri Otonni o'ziga uylanishga majbur qildi va shu yo'l bilan imperatorga yaqinlashish uchun yo'l ochdi. Ammo Agrippina va Oktaviya unga yo'lda to'siq bo'lib turishardi, faqat ularning o'limlari orqaligina taxtga yetishishi mumkin edi.

Tatsitning ta'kidlashicha, milodiy 59-yili imperator o'z onasini o'ldirish uchun qotil yuboradi va Agrippina Lukrin ko'li yonidagi villada o'ldirilgan.

Vijdon azobini tortgan Neron Neapolga jo'nab ketdi. U o'sha joydan Senatga Seneka tomonidan yozilgan xatni yuborib, Agrippina uni o'ldirishni rejalashtirgani va bu urinish muvaffaqiyatsizlikka uchragach, o'z joniga qasd qilganini bayon qildi. Maktubda u zolimlik va hokimiyatparastlikda ayblanib, onasining o'limi davlat uchun foydali ekanligi aytilgandi. Xatni tinglagan Senat imperator omon qolgani uchun barcha ibodatxonalarda xudolarga shukronalik keltirilishi kerakligi haqida qaror qabul qildi. Bunday sadoqat bilan rag'batlantirilgan Neron ko'p o'tmay Rimga qaytib keldi, u yerda uni jamiki hurmat-ehtiromlar bilan qarshi olishdi, xursandchilik ko'rsatishdi.

Agrippina vafotidan so'ng Neron har qanday cheklovdan qutulgach, o'yin-kulguga berildi va buzuqchilikni avvalgidan ham behayo qilib davom ettirdi hamda axloqsizlikning mavjud barcha turlariga yangilarini qo'shdi, bularning barchasi zamirida uning tutruqsiz san'atlarga moyilligi yotardi. Neron xalq oldidagi sirklarda ot choptirish, ot sakratishlarda otni boshqaruvchi sifatida qatnashardi. Ko'cha bo'ylab aqlga to'g'ri kelmaydigan kiyimda yurar, to'xtab odamlarga qo'shiq aytar va o'zining kifarani qanday chala olishini namoyon etardi.



18-rasm. Neron

U saroyda o'zi yuvenaliya (balog'atga yetmagan bolalar o'yinlari) deb nomlagan o'yinlar uchun teatr tashkil etgan hamda

kambag'allashib qolgan zodagon kishilarni ushbu sahna ko'rinishlarida ishtirok etish uchun sovg'alar bilan o'ziga og'dirib olgan, ya'ni Rim odatlariga ko'ra ular bilan aktyorlik kasbini bo'lib olishni – sharmandali harakatlarni amalga oshirgan.

Vatikan tepaligi yaqinidagi vodiyda imperator ishtirok etgan ot o'yinlari uchun maxsus sirk tashkil etildi. Dastlab u yerga kirishga faqat alohida to'plangan tomoshabinlarga ruxsat berildi, keyin Neron hammani taklif qila boshladi. U Rim otliq jangchilarini gladiatorlar urushlarida ishtirok etishlari uchun sovg'alar bilan rag'batlantirar va saroy teatrida hamda imperator bog'larida taqdim etadigan spektakllarida ishtirok etish uchun barcha tabaqa vakillarini majbur qilardi. Tatsit shunday yozadi: "Avgust tomonidan sun'iy ko'l bo'yida suv ustidagi teatr olishuvlari uchun bunyod etilgan daraxtzorda Neron mehmonxonalar qurib, odamlarni oziq-ovqat va sharob bilan mehmon qildi; tomoshabinlarga bu yerda ziyofat qilish uchun pul berilar va halol odamlar qo'rquvdan, buzuqlar esa quvonch bilan bu yerga o'z ixtiyorlari ila yo'l olishardi. Axloqsizlik va vijdonsizlik bilan qilingan amallar tobora odatga aylanib, allaqachon boshlangan axloqiy pasayishni to'xtatib bo'lmay qoldi. Odamlar bir-birlari bilan axloqsizlik borasida raqobat qilar edilar va unda qatnashmaslik xavfli edi. Nihoyat, imperator Neronning o'zi sahnada paydo bo'lib, kifara chalishni boshladi.

Jangchilar va senturiylar baland ovoz bilan o'zlarining tahsinlarini ifoda etdilar va "avgustanlar" ("avgustlar", ya'ni imperatorning do'stlari) deb atalgan yosh otliqlar imperatorning ilohiy qiyofasini va ovozini ulug'lashdi. Bu xizmatlari uchun ular faxriy mukofotga sazovor bo'lardilar".

Neron she'r yozish bilan shug'ullanib, ularni ustalik bilan yoza oladigan odamlarni to'plab, bu shoirlar Neron tomonidan she'riy parcha yoki bandlar aytilganda uni o'zlarining she'rlari bilan to'ldirganlar.

Kaligula kabi xazinadagi barcha zaxira mablag'ni sarflab bo'lgach, o'zining vaqtichog'ligini davom ettirish uchun mablag' to'plash maqsadida har xil talonchiliklarga qo'l urdi. Buyuklikni haqorat qilish haqidagi jarayon, keyinchalik qatllar jarayoni qayta tiklandi va dahshatli daraja kasb etdi. Nopok chaqimchilar yana

o'z ishlarini boshladilar. Boylik, o'qimishlilik, aql odamlar uchun halokatli bo'lgan fazilatlarga aylandi; halollik jinoyat sifatida baholana boshlandi. Ushbu davrning boshlanishi pretorianlar prefektori Burrning o'limi (62-yil) bilan bog'liq edi. Tatsit uning tomoq kasalligi tufayli tabiiy o'lim topgani yoki zaharlangani masalasini ochiq qoldiradi. Uning o'limidan so'ng Neron Oktaviya bilan ajrashib, Poppeya bilan turmush quradi, Burr esa Neronning bu niyatiga o'jarlik bilan qarshilik qilgandi, shuning uchun ham Rimda uning o'limi qatl natijasi ekanligiga ishonishadi. O'sha davrdagi qabih kishilardan biri Sofoniy Tigellin uning o'rniga tayinlanadi. U past tabaqadan kelib chiqqan bo'lib, Neronning buzuq ishlarida ishtirok etgan, uning hurmatiga sazovor bo'lgan, imperatorning ajralmas sherigiga aylangan va uning dahshatli buyruqlarining asosiy ijrochisi bo'lgan.

Ular hech qanday sudsiz o'ldirilgan va ularning boshlari tahqirlash uchun Rimga olib kelingan.

Imperator bilan ajrashgan Oktaviya o'zining kamtarligi va olijanob fazilatlari tufayli xalq nomidan yaxshi ko'rilgan kishilardan biri edi. Imperatorning yangi xotini Poppeyaning urinishlari natijasida unga ham o'ylab topilgan ayblar qo'yildi, uni Pandatariya oroliga surgun qilishdi va o'sha yerda Neronning buyrug'i bilan o'ldirildi (62-yil, iyun). U bu paytda yigirma yoshda edi. Uning kesilgan boshi Poppeyaga keltirildi. Rimning butun aholisi qayg'uga botdi, lekin Senat imperatorning najoti uchun xudolarga shukrona keltirishga qaror qildi. Tatsitning yozishicha, oldinlari xursandchilikni namoyon etadigan bayramlar, endi davlat fojialari uchun tayinlana boshlangan.

Neron shunday dahshatli va vahshiyona obro'ga ega bo'ldiki, shuning uchun misli ko'rilmagan yong'inni ham unga nisbat berishadi (64-yil). U bu harakati bilan Rim shahrining aksariyat qismini, eng mo'tabar ibodatxonalarni, yunon san'atining ajoyib ijod namunalarini yo'q qildi, shahar aholisining aksariyat qismini qashshoqqa aylantirdi. Yong'in Palatin va Seliy tepaliklari yaqinida joylashgan sirk do'konlaridan boshlandi. Bu do'konlar yog' va boshqa yonilg'i materiallari sotiladigan do'konlar edi; shamol olovni kuchaytirdi, u avval pasttekisliklarga tarqaldi, keyin tepaliklarni qamrab oldi, shimoliy pasttekisliklarga to'xtatib

bo'lmas kuch bilan o'tdi. Rim ko'chalari tor, qing'ir-qiyshiq, uylarning yuqori qavatlari yog'ochdan qilingan edi, olov yengilmas olovli dengizga aylandi. Faqat oltinchi kun Eskvillin etagidagina olovni to'xtatishga muvaffaq bo'lishdi. Keyin olov yana kuchayib, uch kun mobaynida Mars maydonining sharqiy qismidagi binolarni yutib yubordi. Rimning o'n to'rt qismidan faqatgina to'rttasi omon qoldi. Uchtasi butunlay yonib ketdi; qolgan yettitasida faqat bir nechta yarim yongan uylar qoldi, xolos.

Neron o'sha paytda Ansiyada edi va faqat yong'in saroyni hamda unga tutash Metsenat bog'larini qamrab olgan paytda Rimga qaytgan. U umidsizlikka tushgan odamlarga non tarqatdi, odamlar uchun noqulay ob-havodan saqlanish maqsadida tezda vaqtinchalik boshpanalar qurishni buyurdi. Ammo aholi ommasining falokatlarini kamaytirishga intilsa-da, bu ham uning buyrug'i bilan yong'in keltirib chiqarilganidan darak berardi. Mish-mishlarga qaraganda, kifara chaluvchi kiyimini kiygan Neron yong'inning eng kuchli davrida o'zining teatri sahnasida yoki Metsenatning minorasida Troyaning yo'q qilinishini tasvirlaydigan she'rlar kuylagan. Mustabid imperator shunchalik aqldan ozgan ediki, uni har narsaga qodir deb hisoblashardi.

Aytishlaricha, u Rimning vayronalarida Neroniya deb nomlanadigan yangi shahar qurish uchun Rimga o't qo'ygan, bundan tashqari, ilgarigi saroyni yangi, yanada ulug'vor qilib qurish istagini amalga oshirish uchun uni yo'q qilishi kerak edi. Bunga eski saroy o'rnida yong'indan keyin qurilgan yangi saroy qadimgi Rimning barcha binolarini o'zining kengligi va ulug'vorligi bilan ortda qoldirgach, yanada ko'proq ishonishgan. Neronning naqshinkor bezaklari bilan kishini lol qoldiradigan "Oltin saroyi" bir-biridan uzoqda joylashgan va ustunlar bilan bog'langan bir necha binolardan iborat edi. Ular o'rin olgan keng maydonda maysazorlar, sun'iy ko'llar, uzumzorlar, bog'lar barpo etilgandi. Asosiy binoning oldidagi hovlida 120 fut balandlikdagi quyosh xudosining bronza haykali bo'lgan. Qurilishga rahbarlik qilgan me'morlar Sever va Seller har qanday xarajatlarga qaramasdan, barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishdi.

Shaharni qayta tiklash jarayonida uni eski holatidan ko'ra yaxshiroq rejaga asosan qurdilar. Ko'chalar keng, tekis, uylar esa biroz balandroq qilib, toshdan qurildi. Shahar maydoni kengaydi; maydonlar, qator ustunlar, favvoralar, hovuzlar shahar go'zalligini oshirdi. Uy-joy qurilishi imtiyoz va mukofotlar natijasida tezlashdi. Neron buyuk baxtsizlikning oqibatlarini yumshatish uchun qanchalik harakat qilmasin, odamlar shahar uning irodasiga ko'ra yondirilgan deb o'ylashda davom etishdi. Ushbu mish-mishlar Neronning yangi jinoyatga qo'l urishiga olib keldi.

Tatsit, bu ishni quyidagicha ifodalaydi: Neron, o'ziga nisbatan xalq nafratini boshqalarga to'nkash uchun xristianlar deb atalgan yangi din izdoshlarini shaharni yoqishda aybladi; ularning e'tiqodlari yahudiylarning mazhablaridan biri deb hisoblanar va Rim xalqi bu kishilardan xazar qilar hamda nafratlanardi, chunki ular alohida guruhga mansub edilar (Tatsitning ifodalashiga ko'ra, "odamlarga nisbatan nafratlari uchun") va ular Rim xudolariga ibodat qilishdan bosh tortardilar. Ularning aksariyati ta'qib qilindi va aybdor deb topilib, o'limga hukm etildi. Yangi saroyning mo'jizaviy buyukligiga va shaharni qurishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun provinsiyalar muntazam talon-taroj qilish uchun berildi. Yangi Rimni bezatish uchun yunon shaharlaridan eng yaxshi san'at asarlari olib qo'yildi.

Xristianlik tarixi uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib, Tatsit xristianlar ta'qibini Neron tomonidan Rim yoqib yuborilganidan keyingi xristian dinining birinchi ta'qib qilinishi deb ataydi. Neron davrida xristianlar ta'qib va o'limga duchor bo'lganligi siyosiy masala bo'lib, ular odamlarning xristianlarga nisbatan dushmanliklaridan foydalanishgandi.

Tatsit, shuningdek, yong'in oqibatida kelib chiqqan pul tanqisligining tafsilotlarini ham bayon etgan. U shunday deydi: "Pul yig'ish uchun hukumat Italiyani talon-taroj qildi, provinsiyalar, ittifoqchi xalqlar, erkin shaharlarni yo'q qildi. Hatto Rimdagi omon qolgan ma'budlar ham talon-taroj qilindi".

Rimning tushkunlikdagi aholisi Neronning barcha g'azabi va qabihliklariga bardosh berib keldi va bu jirkanch yovuzlikni ag'darishga jiddiy tashabbuslar yetmadi. Nihoyat, sabr-toqat

kosasi to'ldi. Serera bayramidagi sirk o'yinlarida Neronni o'ldirish maqsadida fitna uyushtirildi (65-yil). Fitna boshlig'i juda boy yirik amaldor Gay Kalpurniy Pizon edi. Fitnachilar pretorianlar yordamiga umid qilishdi; ular qo'shinning boshliqlaridan biri Feniy Rufning Tigellinga bo'lgan hasadi tufayli fitnada qatnashishdi. Pizonning hamrohlari uni taxtga o'tkazishni istashardi. Binobarin, ular hatto respublikaning tiklanishini imkonsiz deb hisoblagan bo'lsalar ham, monarxiyaga qarshi emas, balki monarxga qarshi qaratilgan fitna boshlagan edilar. Ularning orasida eng taniqli senatorlar va otliq qo'shin oilalari ham bo'lgan. Ularga rimliklar orasida bir necha respublikachilar ham qo'shilishdi.

Rejaning bajarilishi uzoq vaqt kechiktirib ortga surib borildi. ishtirokchilar o'zlarining rejalariga juda ko'p odamlarni jalb qildilar; muhim fitnachilardan birining ozod etilgan quli Neronga fitna haqida zimdan xabar berdi va u barcha aybdorlar hamda gumondorlarni qattiq ta'qibga duchor qildi. Ta'qibning vositasi Tigellin edi; Poppeya erini shafqatsiz bo'lishga undab turdi. Ayblanuvchilarning aksariyati o'zlarini qo'rqoqlarcha tutdilar, o'limdan omon qolish uchun do'stlari va qarindoshlarini ayblashdi. Bu Neron ishini osonlashtirdi va unga yoqmagan barcha odamlarni jazolash imkoniyatini berdi.

Seneka va boshqa bir taniqli shaxs, shoir Mark Anney Lukan ham Pizon fitnasi ishi bo'yicha o'ldirilganlar orasida edi. Seneka ko'p yillardan buyon o'zining sobiq tarbiyalanuvchisiga og'ir yuk bo'lib kelayotgandi. Lukan uning jiyani edi, u shuhratparast kishi bo'lib, Neron tomonidan tahqirlangan va eskicha fikrlash uslubiga sodiq qolgandi. Senekaning Pizon va Lukan bilan do'stligi uning fitnada ishtirok etganini tasdiqlovchi yetarlicha dalil sifatida ko'rilgan. Qatllar va surgunlar tiran-imperatorni o'zi dushmanlikda gumon qilgan yoki boyligini qo'lga kiritmoqchi bo'lgan ko'plab taniqli zodagon fuqarolardan xalos etdi. Musodara qilingan narsalar Neronga jangchilarni zimdan xabar tashuvchilarni va boshqa yordamchilarni mukofotlash uchun yetarlicha mablag' berdi. Senat imperatorning omon qolgani uchun xudolarga shukronalik aytishga qaror qildi.

Pizon fitnasi Neronda olimlarga nisbatan shubha uyg'otdi. Tigellin undagi bu hisni qo'llab-quvvatladi va buni Senatdagi hukmdorga laganbardorlik qilishga yagona qarama-qarshilikni keltirib chiqaradigan stoyik falsafasiga sodiq qolganlarga nisbatan yo'naltirdi. Ularning boshlig'i Rimning eskicha qat'iy axloqi sohibi bo'lgan Publiy Klodius Trazeya Pet edi; ba'zan u senatda sharmandali takliflarga ochiqchasiga qarshilik ko'rsatar hamda agar bu imkonsizligini bilsa, sukut saqlab turardi va uning sukuti xushomadgo'y Senatga ma'noli tanbeh bo'lib xizmat qilardi. Nihoyat, u sharmandalikni ko'rmaslikka va siyosiy hayotdan chetlashishga qaror qildi. U ham uning hayotini tasvirlagan Katon kabi respublikachi edi. Unikida norozi Rim amaldorlari to'planishardi.

Neron uzoq vaqt davomida ta'sir kuchiga ega va ehtiyotkor Trazey Petani o'ldirishdan qo'rqdi; u hatto uning qo'llab-quvvatlashini olishga harakat qildi, ammo kuchli shaxs bo'lgan Trazeya Neronning marhamatlarini rad etdi. Nihoyat, uni o'ldirishga qaror qilindi. Tigellinning kuyovi Kapiton Kossutsian uni suiqasdda aybladi. Natijada Trazeya Pet 66-yili o'zini o'ldirdi. Bu paytda Rim xalqi Parfiya podsholarining avlodi Tiridatning arman podshosi sifatida tasdiqlanishi masalasida Rimga tashrifi munosabati bilan Neron tomonidan uyushtirilgan bayramlardan zavqlanayotgan edi. U iloh Mitraga hurmat ko'rsatayotgandek, imperator oldida tiz cho'kdi. Neron uning tiz cho'kkan boshiga diadema (toj) kiydirdi va o'zining barcha dushmanlardan xalos bo'lgani hamda sharq podshosining unga bosh egganligini o'yinlar hamda jamiki vaqtichog'lik bilan nishonlay boshladi.

Tiridatning Rimga kelishi Neronga shunday g'urur va ilhom bag'ishladiki, u endi o'z iqtidorlarini Yunonistonda namoyish etishga qaror qildi, ularga san'atning vatanida bayram ulashmoqchi bo'ldi. Avgustanlar bilan birgalikda shuhratparast beaql gullab-yashnayotgan yunon shaharlari bo'ylab sayohat qilishni boshladi, Olimpiya o'yinlarini tashkil qildi, keyin Pifiya va Istmiya o'yinlarini ham o'tkazdi (67-yil). Ushbu bayramlarda fojialar, komediyalar namoyish etilar; qo'shiq kuylash, ot poygalari bo'yicha musobaqalar o'tkazilardi. Xushomadgo'y yunonlar, albatta, har gal Neronni g'olib deb e'lon qilar, unga

gulchambarlar taqishar, u esa o'zining yaramas xatti-harakatlari bilan Rim hukumatining eng so'nggi hurmatini ham yo'qqa chiqarib borardi.

Imperator tantana bilan Neapol orqali Rimga qaytdi. Shahar bezatilgan, ko'chalar bo'ylab qurbongohlar qurilgan, xushbo'y hid ufurib turardi. Neron poytaxtga triumf bilan kirdi, u oltin yulduzlar bilan bezatilgan binafsharang mantiya kiyib, boshiga olimpiya gulchambarini kiygan, o'ng qo'lida esa pifiya gulchambarini tutgan edi. Unga imperatorni Gerkules va Apollon deb ulug'laydigan jangchilar, otliqlar, senatorlar hamrohlik qildilar. Ammo bu uning oxirgi tantanasi edi. Uning hukmronligi oxiriga yetib qolgandi.

Akvitan podsholarining avlodi bo'lgan, Galliya propretori Yuliy Vindeks o'z provinsiyasida isyon ko'tardi, u Neronning dahshatli talon-tarojlaridan azob chekkan va hali-hanuz milliy his-tuyg'ularni unutmagan edi. Galliya mustaqilligini tiklashni va Rimga gallar tomonidan tanlangan imperatorni tuhfa etishni maqsad qilgandi. U o'z armiyasini Neronni ag'darib, taxtga olijanob va boy oila farzandi, o'zi tajribali jangchi va yaxshi hukmdor deb hisoblaydigan Ispaniya hukmdori Serviy Sulpitsiy Galbani o'tqizishni taklif qildi.

Ko'pchiligi provinsiallardan iborat bo'lgan armiya Vindeks taklifini ma'qulladi. Ispaniya legionlari ham Galbani imperator deb e'lon qildilar. Neronning ichkilik bazmlaridagi sobiq hamkori, Luzitaniya hukmdori Oton yangi imperatorga qo'shildi. Ammo Galba Pireneyni kesib o'tishidan oldin Vindeksning gallar armiyasi va Yuqori Reynda joylashgan legionlar o'rtasida jang bo'ldi. Vindeks qo'shinidan 20 ming jangchi jang maydonida halok bo'lishdi.

Ammo bu qayg'uli epizod Galbaning muvaffaqiyatiga to'sqinlik qilmadi. Boshlig'i jasur Virginiy Ruf bo'lgan Reyn legionlari uning tarafida ekanliklarini e'lon qilishdi. U Senat qarori qabul qilinmagunicha imperator unvonini olishni rad etdi. Tez orada Senatning roziligi ham olindi. Aqlsiz Neronning zulmi va Rimdagi ocharchilik kishilar ongidagi g'alayon, norozilikni vujudga keltirdi. G'arbdagi isyonchilar qo'shinlari kelayotgani, ularga qarshi yuborilgan legionlar ham isyon ko'targani xabar

qilingach, g'alayonlar ochiq isyonga aylandi. Ulardan ruhlangan Senat Neronni Vatan dushmani deb e'lon qildi va Galbani imperator etib ko'tardi. Tigellindan keyingi pretorianlarning ikkinchi rahbari Nimfidiy ular Senatning qaroriga bo'ysunishsa, ularga katta sovg'alarni va'da berdi hamda ular ham Galbani imperator deb e'lon qildilar.

Hamma, hatto, axloqsizliklaridagi sheriklari ham uni tashlab ketgach, Neron ozod qilingan qullaridan birining villasida yashirinib oldi. Senat Neronni hamma joydan qidirish uchun otliqlarni yuborgan edi, ular uni Rimga olib kelishlari kerak edi, shunda u o'sha yerda "eski odatlar bo'yicha" jinoyatlari uchun qatl etilardi. Neron qo'rquvdan titrab, ozod qilingan quliga uni bo'g'izlab tashlashni buyurdi. Senturion kirganida u ozod qilingan qulining xanjari tig'ida eshikdan kirgan kishiga qarata: "Kech bo'ldi!" deb 31 yoshida vafot etdi (68-yil 9-iyun).

Neron o'zlarini Eney va Veneradan tarqagan deb hisoblovchi Yuliylar xonadonining so'nggi avlodi edi. Ikki asr davomida Rim tarixining barcha buyuk voqealari Yuliylar ishtiroki bilan amalga oshirildi. Tabiiyki, Neronning ozod qilingan quli villasida sirli o'lim topishi Rim xalqiga kuchli ta'sir qildi va boshqa sulolalarning halokatida bo'lgani kabi afsona paydo bo'lishiga sabab bo'ldi: ovozalarga qaraganda, sulola xotima topmagandi. Neron haqida mish-mishlar tarqaldi, emishki, u o'lmagan, Sharqqa qochishga ulgurgan, Neron qaytib, yana imperatorlikni egallaydi.

Aytishlaricha, uzoq vaqtlar davomida Neron o'lgan kun Rimdagi uning qabri gulchambarlar va gullar bilan bezatilgan. Uch marta o'zini o'limdan qochgan va har biri o'zi uchun tarafdorlar ham topgan soxta Neronlar paydo bo'lishdi. Hatto Domitsian ham Neronning ismini eshitganda titragan. Ayniqsa, yunonlar yunon san'atining g'ayratli muxlisi bo'lgan imperatorning o'rnini saqlab qolishdi, u mamlakatga aktyor va kifarachi sifatida kelib, uning iste'dodini olqishlagan barchani oltin va boshqa sovg'alar bilan siylagandi. Ular uning qahr-g'azabi o'rniga faqat foyda ko'rgandilar.

Xristianlar xotirasida bundan farqli o'laroq, Neronning vahshiyligi qoldi. Rimdagi dastlabki avlod xristianlarning ko'pchiligi halok bo'lgan dahshatli quvg'inlar ularda Neron

antixristian ekanligi haqidagi fikrni uyg'otdi. Xristianlar ham uning qaytib kelishiga ishonishgan, lekin ular bu qaytishning bevosita Isoning ikkinchi marotaba yerga tushishidan oldin, hozirgi dunyoning halokati va azob tortganlarning ming yillik podsholigi boshlanishi xabari sifatida yuz beradi deb o'ylaganlar.

Flaviy Vespasianning taxtga o'tirishi bilan Rim imperiyasi tarixida, uning oltin davrida, bir qator yaxshi imperatorlar davri bilan kechgan yangi davr boshlandi. Oddiy harbiy odatlarga ko'nikkan, zo'r irodali, aniq amaliy idrok qilish qobiliyatiga ega Vespasian (69-79-yillarda hukmronlik qilgan) uchun o'zidan oldingi hukmdorlar o'zlarini sharmanda qilgan barcha ahmoqlik va yomonliklar unga mutlaqo begona edi. Yangi imperatorning birinchi va eng muhim ishi armiyadagi intizomni qayta tiklash va izdan chiqarilgan moliya tizimini tartibga solish edi. Svetoniyning so'zlariga ko'ra, jangchilar qo'shinning ayrim qismlarida g'alaba lazzatini tuyishar, boshqalarida esa mag'lubiyat alamini tortishardi. Ikkalasi ham haddan oshib ketishgandi. Vespasian Vitelliy uchun kurashgan jangchilarning ko'pini tarqatib yubordi qolgan qo'shinga esa qadimgi Rim intizomini kiritdi.

Vespasian adolat haqida qayg'ura boshladi, sud jarayoni tezlashuvini oshirdi, buyuklikni haqorat qilish jarayonini bekor qildi, chaqimchilarning sharmandali faoliyatini to'xtatdi. U ko'p hollarda sud ishlarini ko'rib chiqish uchun forumda o'zi o'tirdi va uning namunasi boshqa sudyalarni ishtiyoq bilan ishga kirishishga undadi, basharti fuqarolik urushi davrida harakatsiz qolgan ko'plab sud jarayonlari hal etildi. Fuqarolik qonunlari takomillashtirildi va to'ldirildi. Vespasian odamlarning senatorlik va otliq janchilar toifasiga bo'lgan hurmatini tikladi, ular orasidan noloyiq kishilarni olib tashladi hamda hurmatli odamlar bilan to'ldirdi.

U senatorlar va otliqlar safini nafaqat italiyaliklar, balki provinsiyalarda yashovchi odamlar ichidan ham tayinladi, shu sababli bu doiralar umumdavlat ahamiyatiga ega bo'ldi. Bu bilan Vespasian davlatning birligini mustahkamlash va uning barcha qismlari boshqaruvini yanada bir xillashtirishni xohlagan edi. Shu maqsadda Vespasian Rodos, Samos, Vizantiya singari ko'plab erkin shaharlarning mustaqilliklarini tugatib, ularni o'zlari

joylashgan provinsiyalar tarkibiga qo'shib qo'ydi va Osiyodagi ba'zi davlatlarni (Kilikiya, Kichik Armaniston, Kommagen, Emes) Rimga bevosita qo'shib oldi. Biroq ularning Rimga qo'shilishi orqali Kavkaz xalqlari, Armaniston, Parfiya, Suriya cho'llaridagi arab qabilalari va Mesopotamiya bilan oldingiga qaraganda ko'proq chegara urushlariga giriftor bo'ldi. Vespasian hukmronligi davrining eng muhim voqeasi – Birinchi Yahudiy urushi bo'ldi.

Xuddi shu kuch bilan u davlat xo'jaligini tartibga keltirishga, bo'shab qolgan g'azna uchun pul yig'ishga harakat qildi. Vespasianning moliyaviy boshqaruvi juda qattiq va tejamkor edi. Qadimgi tarixchilar bergan ma'lumotlarga ko'ra, Vespasian o'zining salaflari tomonidan bekor qilingan barcha soliqlarni qayta tikladi hamda yangilarini joriy etdi, o'zi ham olibsotarlik bilan shug'ullandi. Mish-mishlarga ko'ra, u provinsiyalarni boshqarish uchun ataylab ochko'z kimsalarni yuborgan, keyin ular tomonidan o'g'irlangan pullarni "suvni shimib olgan yuvg'ichni siqqandek" jarimalar yordamida tortib olgan. U lavozimlarni, faxriy unvonlarni, jinoyatchilarning avf etilishini pullagan. Vespasianning ochko'zligi va ziqnaligi haqida ko'plab latifalar to'qilgan. Ularda uning shaxsiy suhbatlarda namoyon bo'ladigan hazilkashlik xususiyatlari ham ko'zga tashlanadi.

Svetoniy shunday deydi: bir kuni Vespasianning o'g'li Tit otasiga hojatxonalardan soliq olish beadablik ekanini aytdi; bu soliqdan dastlabki pullar olinganidan keyin, u oltin tangani Titning burniga tutdi va undan yomon hid kelayotgan-kelmayotganini so'ragan. Vespasianing kanizagi Kenida haqidagi gap-so'zlarga qaraganda, Kenida Vespasianning roziligi bilan fuqarolik va ruhoniylik lavozimlarini sotgan, jinoyatchilarga berilgan avflarni ham pullagan hamda pullarni unga olib kelib bergan.

Vespasian 70 yoshida 79-yil iyunida vafot etadi. Uning o'g'li Tit esa 79-81-yillar taxtga chiqib 42 yoshga yetmasdan bezgak kasalligidan o'ladi. Tit davrida mashhur Vezuviy vulqoni otilib, Pompey va Gerkulanum shaharlari kul ostida qoldi (79-yil). Flaviylarning so'nggi vakili Domitsian (81-96-yillar) bo'lib, o'zining mutlaq hokimiyatini o'rnatishga harakat qildi va 45 yoshida fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Trayan davri. Qadimgi davrda boqiy shahar nomi bilan mashhur bo'lgan Rim imperiyasi miloddan avvalgi I asrlarda o'z ravnaqini yuqori cho'qqisiga erishadi. Bu davr qadimshunoslar tomonidan Rimning "Oltin davri" deb tavsif etiladi. Bu paytda jahon madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan boqiy shahar o'zining yorqin madaniyat cho'qqisiga erishdi. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot o'sha davr nuqtai nazaridan yuqori barqarorlikni namoyon etadi. Aholining turmush darajasi, etnik birliklar o'rtasidagi aloqalar yaxshi yo'lga qo'yildi.

Domitsian o'limidan keyin Senat 66 yoshli senator Mark Koksey Nervani (96-98-yillar) imperator etib sayladi. Uning hukmronligi bilan II asrdan Rim imperiyasida Antoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Bu sulolani eng taniqli vakillaridan biri Mark Ufpiy Trayan bo'ldi.

Trayan g'ayritabiiy va jasoratli sarkarda bo'lgan. U hukmronligi davrida ko'plab bosqinchilik yurishlarni olib borgan. Trayan 98-yilda hokimiyat tepasiga keladi. Uning otasi Vespasian va Titus qo'l ostida yahudiylarga qarshi urushda o'zini ko'rsatgan va xizmatlari evaziga Suriyada strateg etib tayinlangan edi.

Yangi imperator davrida Rimga Sharqiy Yevropa va Dunayning shimolini o'z ichiga olgan Dakiya hududlari ham kirgan. Dakiya mustaqil podsholik bo'lib, uni Desebal boshqarayotgan bo'lsa-da, ular Rimdan doimo qo'rqib turar edi. Shu sababdan, rimliklarga oltin va kumushdan iborat qimmatbaho hadyalar yuborib turishgan. Oxir-oqibat bularning barchasiga oddiy xato nuqta qo'ydi. So'nggi flavian imperatori Domitsian davrida Desebal Dunaydan o'tib, Rim hududlariga bostirib kiradi. Qisqa to'qnashuv vaqtida ikkita Rim komandiri o'ldiriladi. Rim buni sharmandalik, deb qabul qildi va daklarga qarshi urush e'lon qiladi. Rim o'ch olish niyatida bu ishni tekshirib ko'rishni Trayanga topshiradi. 101-106-yillar ichida Trayan daklarga qarshi ikki marotaba harbiy yurish uyushtiradi va bunda rimliklarning qo'li baland keladi. Ushbu harbiy yurishlar madaniy jihatdan rimliklardan orqada qolgan varvarlarni yo'q qilish uchun ham amalga oshirilgan edi. Hozirgi kunda qadimgi Dakiya joylashgan hududlar Ruminiya davlati hududlariga to'g'ri keladi.

Faqat, rimliklar g'alabani bayramona tarzda dabdabali nishonlashni yaxshi ko'rgan. Daklar ustidan g'alabadan so'ng Trayan boyliklarni urush harakatlari bo'lgan hududlar aholisiga bo'lib bergan. Bundan tashqari g'alaba sharafiga bir qator imoratlar bunyod etilgan. Mana shunday imoratlardan biri bu Trayan ustunidir. Uning balandligi 30 metrni tashkil etib, (u hozirgi kungacha saqlanib qolgan) yigirma qavatli, Karraradan keltirilgan ulkan marmarlardan qurilgan. Ustunning sirtida daklar bilan bo'lgan to'qnashuvlar aks etgan 155 ta manzara keltirilgan.

Trayan ustunining e'tiborli jihati shundaki, ustunning har bir joyiga alohida e'tibor qaratilib, tasvir tushirilmagan birorta bo'sh joyning o'zi yo'q. Tasvirlarning ichida Trayanning askarlariga nutq so'zlayotgani, askarlarning urushdan oldin o'zini poklash maqsadida xudolarga yovvoyi cho'chqa, qo'y va ho'kizlarni qurbonlik qilayotgani aks etgan. Yana bir joyda harbiy kemalar, qo'rg'onlar, askarlarning dushmanlarga artilleriyadan olovli o'q otayotgani va daklarning tanasini chopayotgani kabi tasvirlar tushirilgan. Minoraning ichki tomonida minoraning eng tepasiga olib chiqadigan, doimo havo aylanib turadigan aylanma zinapoya mavjud. Shuningdek, ichki xonalarda dahmalar ham joylashgan.

Trayanning ulkan zafarli harbiy yurish olib borish maqsadi bo'lgan. U Aleksandrdek buyuk bo'lishga intilgan va Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'ziniki qilishni xohlagan. Imperatorning orzusiga Parfiya davlati to'siq bo'lib turardi. Trayanga urush boshlash uchun yaxshi bahona topildi. Parfiya podshosi Armanistonga suqilib kirishi bilan Rim sharqiy frontlarini yanada kuchaytiradi. 114-yilda Trayan va uning armiyasi sharqqa yurishini boshladi. Armaniston podshosi tezda taslim bo'ldi va Rimning provinsiyasiga aylanadi. Shuningdek, shimoliy Mesopotamiya va uning o'rta hududlariga (hozirgi Eronning shimoliy qismi) harbiy yurish uyushtiradi. 116-yilda Trayan yangi hududlarni bosib olish va Rim ta'sirini yanada kuchaytirishga kirishdi. Shu-yili Fors qo'ltig'ining g'arbiy sohillariga yetib bordi. Uning Aleksandr yo'lini bosib o'tishi qiyin ish edi. Shuningdek, Trayan tezroq g'alaba urushini olib bormasa, uning obro'siga putur yetishi mumkin edi. Lekin uning uzoq sharqqa yurish qilishi katta tavakkalchilik edi. Harbiy yurishlar

davomida, 117-yilda Trayan kasal bo'lib qoladi va Italiyaga qaytishga majbur bo'ldi. Avgust oyigacha janubiy Turkiya sohillariga yetib keldi. Trayan falaj bo'lib qoldi va natijada vafot etadi. U vafotidan oldin Suriya konsuli bo'lgan Adrianni taxt vorisi etib tayinlaydi hamda xotini Platina va jiyani Matidiyaga ham rasmiy tarzda meros qoldiradi. Adrian Trayanning xotini va jiyaniga yaxshi munosabatda bo'lgan. Bundan tashqari u Matidiyaning singlisi Sabinaga uylandi.

Trayanning vorisi Adrianni armiya tan olib, unga sadoqatlarini namoyon qiladi. Biroq pragmatik kuchlar bunga qarshi chiqadi. Adrian ularning qarshiligini yengib o'tadi. Adrian taxtga o'tirgandan so'ng, tinch siyosat olib borgan. Urushlarga katta e'tibor qaratmagan. U hukmronligi davomida imperiya hududi bo'ylab sayohatda bo'lgan, ya'ni mamlakatdagi vaziyatni o'rganib, nazorat qilib turgan.

Trayan kabi Adrianning kelib chiqish nasabi ham g'ayritabiiy bo'lgan. U rimlik ham, italiyalik ham bo'lmagan. Ammo ildizlari shu yerga kelib taqalar edi. U Seviliya yaqinidagi janubiy Ispaniyada yashovchi boy italyan oilasidan chiqqan edi. Ularning ajdodlari mil. av III-II asrlarda Rim istilolari vaqtida kelgan Rim kolonistlari bo'lgan. Ular bu yerda barcha pullarini qishloq xo'jaligi va mahalliy kumush qazib olishga sarflaydi.

Boyliklari evaziga Rim zodagonlariga aylanadi. Adrianning nutqida mahalliy lahja belgilari sezilib turar edi. Tabiiyki, imperator bu narsadan xijolat chekkan. Shuning uchun uning o'z notig'i bo'lgan. Trayan mashhur harbiy qahramon bo'lishi bilan birga, birinchi "ispan"lardan chiqqan imperator ham hisoblanadi. Xuddi Sezar, Avgust va o'zidan oldingi imperatorlar kabi jangovar salohiyat egasi hisoblanib, u soqolini olib va sochini kalta qilib yurgan. Adrianning esa sochi mayin va jingalak bo'lib, o'zidan oldingilarga qaraganda sochi oddiy stilda bo'lgan. Ba'zan bu narsa uning an'analarni yaxshi bilmasligidan, oddiy askar bo'lganligidan deyiladi, lekin bu haqiqat emas. Dakiyada u o'z mahoratini ko'rsatib, ikki marta jasorat ko'rsatadi. U askarlar va boshqa toifadagi insonlar bilan tezda chiqisha olgan. Aytishlaricha, u og'ir, o'zgaruvchan, qattiqqo'l xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, hammaga nisbatan teng, ochiq siyosat olib borgan. U imperator

bo'lishiga qaramasdan, jang harakatlari vaqtida oddiy pishloq va tuzlangan cho'chqa go'shti yegan, yumshoq to'shakda yotmagan hamda o'tkir ta'sirga ega spirtli ichimliklarni kam ichgan.

Adrian she'r yozgan, fleyta va lira kabi musiqa asboblarini chala olgan, ammo u hammasidan ko'ra geometriya va haykaltaroshlikni yoqtirgan. Yoshligida Adrian Afinada tahsil olgan va "kichik yunon" deb laqab oladi. U har bir narsaga, jumladan, arxitektorlarga jiddiy e'tibor qaratgan. Venus nomiga qurdirgan ibodatxona uning hukmronligi boshlanishining birinchi belgisi hisoblanadi. U hamma ishni reja asosida olib borgan. Zamonasining mashhur arxitektori Apollador chizmalarni ko'rib, ustunlarning nomutanosibligini tanqid qilib, ma'qullamaganda, uni o'limga duchor qilgan. Tanqid uni maqsadidan qaytara olmagan. U ko'plab inshootlarni qurilishida homiylik qilgan. Rimda imperator Avgust davrida Panteon qurib bitkaziladi. Agrippa tomonidan qayta rekonstruksiya olib borilgan Panteneonga Adrian homiylik qiladi. Bu ibodatxona barcha xudolar ibodatxonasi hisoblangan, chunki Rimga kelgan boshqa xalqlar ham u yerda ibodat qilishar edi. Rim arxitekturasining o'sishi betonning ixtiro qilinishi bilan ham bog'liqdir. Adrian qurilishda noan'anaviy uslublarni qo'llashga ruxsat bergan. Vatikandagi muqaddas kitob saqlanadigan Avliyo Petr cherkoviga asos bo'lgan bino bunga yorqin misoldir. Bugungi kunda qadimgi Rim inshootlaridan to'la holda saqlangan bu Panteondir. Shunday ekan, Rim arxitekturasida Adrianning beqiyos o'rni borligini ko'rishimiz mumkin.

Shaxsiy hayotida Adrian qadimgi yunonlarga taqlid qilib yashagan. Ayniqsa, bu narsa uning oilaviy hayotida katta o'rin tutgan. Hukmronligining yettinchi yilida Adrian xotini Sabina bilan Turkiyaga boradi. Sayohat davomida yosh va chiroyli Antoniyani uchratadi. Antoniya keyingi yetti-yil davomida u bilan birga yashaydi. U doimo Adrian bilan birga bo'lgan. Antoniya o'ttiz yoshda bo'lishiga qaramasdan, o'zining sevgisini Adrian bilan bo'lisha olgan. Aleksandr va Pompey qabrlariga birgalikda tashrif buyuradilar.

Haqiqatda, Adrian ellinistik ta'sirdagi yirik hukmdor bo'lgan. Rim madaniyatida yunon madaniyatining ta'siri sezilib turgan.

Agar, Gomerning Iliada va Odisseyasi bo'lmaganda, Virgiliyni Eneidasi yaratilmagan bo'lar edi. Stoiklar falsafa maktabi bo'lmaganda, Kaysero va Senekening falsafiy ishlari ulardan ilhomlanmagan bo'lardi. Epikursiz (Adrianning sevimli falsafachisi) Lukritsiy bo'lmagan bo'larmidi. Haqiqatda ham, Rimning yarim aholisi (sharqiy qismi) yunon tilida so'zlashgan, lotin tili ularning birinchi tili hisoblanmagan. Adrian Yunon-Rim imperiyasiga mos shaxs edi. Undan boshqa bu taxtga munosib shaxs yo'q edi. Uning ellinizmga qiziqishlari jiddiy bo'lgan.

Adrianning hukmronligi boshlanishi bilan bir qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. Omadsizliklar Rimning bosqinchilik siyosatini obro'sizlantirgan edi. Yangi boshqaruvda Senat bilan hamjihatlik o'rnatildi. Birinchi darajali ish bosqinchilik emas, mavjud chegaralarni yanada kuchaytirish bo'lib qoldi. 121-yilda Adrian Italiyadan Reyn chegarasiga qarab yo'l oldi. Bundan ko'zlangan maqsad Germaniyada kuchsizlanib qolgan (sakkiz) legionlarni kuchaytirish edi. Shimoliy chegaraga yetib kelgandan so'ng, Adrian bir yil davomida bu yerdagi Rim qal'alari, muhofaza va kuzatuv joylarini kuchaytirdi. Shuningdek, Dunay chegarasidagi legionlar ham jangovar holatga keltirildi. 122-yilda eng shimoliy hudud Britaniyada shu kabi ishlar amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida Nyukaslda daryoning dengizga quyiladigan joyida o'z nomi bilan ataladigan ko'prik bunyod etadi.

Adrianning uzoqni ko'zlab siyosat olib borishi hali-hanuz barchani ajablantiradi. U uzunligi 118 kilometr (70 mil) bo'lgan, Shimoliy dengizdan Irland dengizigacha bo'lgan hududda 10 yil davomida chegara devorini qurish bo'yicha farmon chiqaradi. Bu qurilishni nazorat qilishni yangi tayinlangan Rim Britaniyasi boshlig'i Aliya Platoriya Nepiy (Aulus Platorius Nepos)ga topshiradi. Devorning uchdan ikki qismi toshdan qurilgan, faqat oxirgi (eng sharqiy) uchinchi qismi chim va to'sinlardan bunyod etilgan edi. Devorni qalinligi uzunligiga mutanosib tarzda qurilgan. Toshdan qurilgan qismining qalinligi 3 metr (10 qadam), balandligi 4.2 metr (14 qadam)ni tashkil etadi. Chim va to'sinlardan iborat qismini qalinligi 6 metr (20 qadam)dir. Devorning shimoliy qismiga taxminan 20 qadam uzunlikdagi joyda V shaklidagi kengligi 8 metr (26 qadam), chuqurligi 3 metr

(10 qadam)lik xandaq bilan parallel bo'lgan. Devorning tepa qismidagi yo'laklar temir panjara bilan himoyalangan. Har bir Rim milida (taxminan 1.5 km)da mustahkam darvoza va kuzatuv qo'rg'oni bo'lgan, ya'ni yarim kilometr masofada kuzatuv minoralari bo'lgan. Devor ta'miri bilan shug'ullanadigan xizmatchilar 16 ta qal'ada mavjud bo'lgan. Adrianning qurdirgan devori rimliklar va varvarlarni ajratib turgan. Devor madaniyatdan orqada qolgan varvarlarning hujumlaridan himoyalanish maqsadida kuchli himoya vazifasini o'tagan. Adrianning ajdodi Trayan Dunay daryosida to'g'on qurib, keyin Dakiya hududlariga o'tish uchun ulkan ko'prik qurdirgan (U hatto sharqda Dajla va Frot o'rtasida floti kechib o'tishi uchun daryolar o'rtasida kanal qazdirmoqchi bo'lgan). Shuningdek, Yuliy Sezarning Reyn daryosi ustidagi ko'prigi, Trayan ustunidagi daklarning ularga xizmat qilayotgan manzaralari, Rim kuchini qanchalar ekanligini ko'rsatadigan siyosiy maqsadni nazarda tutar edi. Adrianning devor qurilishidan ham shunday maqsad nazarda tutilgan bo'lsa ajab emas. U yerdagi qal'alar harbiy kuchlari shimolga hujum boshlashning nuqtasi sifatida kuchli va agressiv holatga keltirilgan. Devor to'siq vazifasini emas, aksincha, yo'l vazifasini bajargan, ya'ni aloqalarda muhim rol o'ynaydigan yo'llarni bog'lashda asos bo'lgan. Rimda boshqaruv va hokimiyati qay tarzda ketishi aynan shu aloqa liniyalariga bog'liq bo'lgan. Adrian devorning shimoliy qismidagi qal'alarda ko'plab namunaviy ishlar olib borgan. Devor qurilayotgan vaqtda Rim armiyasi va mahalliy britanlar bilan tinchlik masalasida bitim tuzadi.

Devor Rimga bir yo'la hammasi ustidan nazorat qilish imkonini berdi. Rim xohlagancha o'z siyosatini olib borgan. Keyinchalik Rim iqtisodiy zaiflashgandan so'ng devor o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Adrian yigirma bir yillik boshqaruvida uning yarmidan kam bo'lmagan qismini imperiya bo'ylab sayohatda o'tkazgan. 121-125-yillar oralig'ida imperator o'z devori bo'ylab Britaniyadan janubiy Ispaniyaga, Shimoliy Afrika, Suriya, Qora dengiz va Kichik Osiyoga sayohat qiladi. 128-132-yillarda uni Yunoniston, Falastin va Misrda ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Seviliya, Karfagen,

Palmira, Trabzon va Efesda ham bo'ladi. U har doim rafiqasi Sabina bilan birga sayohat qilgan, shuningdek, u bilan birga otliq do'stlari, yuklarni olib yuruvchilar, soqchilar, qullar va kotiblari bo'lib, ular mahalliy hukmdorning saroyida yoki mahalliy zodagonlarning qasrida to'xtashgan. Ba'zan yo'l bo'ylarida chodir tikib o'sha yerda tunashgan.

Agar, Adrianni oldingi imperatorlar bilan, xususan, Neron bilan solishtirsak, Neron Italiyani bir marta tark etgan, (Yunonistonga borish uchun) xolos. Ammo hamma ham Adrianni "yaxshi imperator" sifatida ko'rishmagan. Ayniqsa, Rimdan uzoq hududlarda u loqayd xarakterli "yomon imperator" bo'lgan.

Adrianning sayohatlarida Afina – bilimlarning qadimiy markazi, uning sevimli joyi sifatida namoyon bo'ladi va Adrian bu yerga uch marta tashrif buyurgan. Uning boshqaruvga oid hujjatlarning birida "deyarli har bir shaharda u bir qancha imorat qurgan va xalq o'yinlari tashkil qilgan" deb ma'lumot beriladi. Adrian Afinani katta kutubxona bilan ta'minlaydi, yangi forum va shonli marmar darvoza qurdiradi. Shaharning qadimiy markazi rimcha ruh oladi. Ammo Adrian boshqa yo'l bilan o'chmas iz qoldirgan. Ya'ni, Rim xudosi Yupiter bilan teng darajada bo'lgan, yunonlarning bosh xudosi Zevsga atalgan ibodatxona bunga yorqin misoldir. Ushbu ibodatxonaning qurilishi mil. av VI asrda, klassik bosqichning boshlanishida qurila boshlangan bo'lsa, milodiy 132-yilda Adrian tomonidan qurilish nihoyasiga yetkaziladi.

Klassik ibodatxonalar, imoratlar, monumentlar imperatorni tamg'asi ostida ochilgan va nomi tushirilgan (jumladan, hozirgi Turkiya hududi Simernadagi saroy, Ispaniyada oilasiga atab Italik shaharchasi). Adrian imperiya shaharlarini ta'minlab turgan, unga atab shaharlarda muqaddas joylar va byustlar o'rnatiladi. Bunday yodgorliklar uylardan, ibodatxonalardan topilgan. Afinada Dionis teatrida Adrianning haykali bo'lgan. Garchi bu joylar Adrian ko'magida bo'lmasa ham ilg'or fuqarolar unga xudo sifatida sig'inishgan. Bu yo'l bilan sadoqatlarini namoyish qilmoqchi va imperatorni e'tiboriga tushib mavqelarini oshirib olmoqchi ham bo'lishgan. Ammo bu narsa hamma joyda ham sodir bo'lmaydi.

Buni imperatorning rasmi tushirilgan tangalardan bilib olish mumkin.

Adrian devori imperiyaning shimoliy qismlarini ham qamrab olganidan so'ng, umumiy tillar va yunon-rim sivilizatsiyasi vujudga kela boshladi. Imperiya hududidagi rimliklar lotin va yunon tilida so'zlashishgan bo'lsalar, tashqaridagilar "varvar" tilida gaplashishgan. Shu bilan birga, koloniyalarda rimliklar hayotiga taqlid qilish kuchaygan.

Jumladan, Britaniyada Takitas qaynotasi Agrikola davridagi britan zodagonlarining "rimlashgan" o'g'illarini tasvirlaydi. Uning hukmronligi davrida britaniyaliklar rimliklarning tilini o'rganadi, toga kiyish, hammomlar qabul qilish, dabdabali ziyofatlar uyushtirishlarni o'rnak qilib oladilar. Sharqda rimliklar madaniyatiga taqlid qilishni, "yunonlashish" deb tushunishgan. Sharqiy o'lkalardagi zodagonlar ta'lim tizimida, yunon falsafasi, notiqlik, alifbo, san'atdagi yutuqlaridan keng foydalanganlar.

Imperator Adrian qobiliyatli hukmdor va Rim ommasining manfaatlarini yaxshi tushunar edi. U qadimiy aristokratik o'yinlarga qiziqqan va ularni ommaviy shaklga o'zgartirgan. Masalan, uning hukmronligi davrida Rimda qonli o'yinlar o'tkazilgan. Jumladan, 119-yilning yanvarida uning tug'ilgan kunini rimliklar yuzlab sher va arslonlarni o'ldirib nishonlaganini guvohi bo'lishgan. Bunday hashamat davlatga qimmatga tushar edi.

Sher va yo'lbarslar Suriya va Rimning sharqiy qismlaridan, yovvoyi to'ng'izlar Germaniya va Galliyadan, buqalar Yunonistondan, kiyiklar Shimoliy Afrikadan keltirilgan. O'z vaqtida imperator Trayanning Misrdan keltirilgan timsohlari Kolizeyda maxsus suv havzalarida boqib kelingan, keyin ularni gladiatorlar bilan urushtirganlar. Adrian davrida bu kabi tomoshalar Rim tarixidagi boshqa davrlarga qaraganda eng ko'p o'tkazilgan.

Garchand Adrian davrida rivojlanish kuzatilsa-da, ijtimoiy tengsizlik yuqori darajada bo'lgan. Qullar erkin fuqarolarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etishgan. Yana bir tengsizlik chizig'i bu boylik bo'lgan. Uning davrida davlatda dehqonlar manfaati emas, balki yirik mulkdorlarni muhofaza qilish birlamchi bo'lgan.

Imperiya uzoq muddat tinchlikda yashashi, bu hamma davrlarda ham xavf-xatar va tahlika bo'lmagan degani emas. Rimda qonunlar isloh qilingan va soliqlar tartibga solinadi. Qonunni buzganlarga quyidagi jazolar, masalan, kaltaklash, qiynoq, qatl, xochga tortish, quvg'in qilish qo'llanilgan.

Qadimgi Rim respublikasida ikki yuz yil oldin o'rnatilgan qattiqqo'l ijtimoiy iyerarxiya, Adrianning oltin davrida ham hech qanday o'zgarishlarga uchramadi. Imperiyada aholining ko'pchilik qismi savodsiz ligicha qolgan edi. Boy zodagonlarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan. Kutubxonada matnlarni ko'chirish uchun ba'zida qullardan kotib sifatida foydalanilgan. Qullarning ba'zilari millionlab kambag'al Rim fuqarolariga qaraganda bilimdon va qobiliyatli bo'lishgan. Kayseroning kotibi Tiro shunaqa insonlardan biri bo'lib, u Rim senatorining yaqin do'sti sifatida, uning xonadonida alohida hurmat qozongan va oxir-oqibat erkin shaxsga aylangan.

Adrian hukmdorligining so'nggi yillari ancha tashvishli o'tgan. Antinius bilan birga 130-yilda Misrda sayohat qilayotganida, Antinius Nil daryosida cho'kib ketadi. Bu "sirli qayiq voqeasi" deb nomlanadi. Adrian uning sharafiga Antinopolis shahriga asos soladi va uni ilohiylashtirishni e'lon qiladi. Antiniusga butun imperiyada xudo sifatida sig'inishadi. Adrianning sayohatlari 132-yilda o'z nihoyasiga yetadi. Keyinchalik u vaqtini Rimdan 25 kilometr (15 mil) uzoqlikda joylashgan Tivoli bog'li koshonasida o'tkazadi. U yerda Adrian borgan joylarning nihoyatda katta bo'lgan xaritasi bo'lgan. Adrian o'limdan keyingi hayot qanaqa bo'lishi haqida qiziqqan va Jannat hamda Do'zax tasvirlari tushirilgan joylar ham bo'lgan. Shuningdek, majmuada yunon teatri, ustunlar, hammomlar, shaxsiy kutubxona va baliqlar boqiladigan hovuz ham bo'lgan. Koshonaning maydoni 100 gektar (250 akr) bo'lib, unga Britaniyadagi devorning qurilishidan kam xarajat ketmagan.

Adrian 138-yilda vafot etadi. Undan keyingi hukmdor Antoniy davrida tinchlik va barqarorlik saqlanib qolgan bo'lsa-da, Mark Avreliy, ya'ni soqolli faylasuf imperator davrida germanlar Rimning tinchligiga xavf tug'dira boshlaydi. U tinchlik va hokimiyatini xavfsizligini ta'minlashi uchun varvarlarning

shimoldan bo'ladigan hujumlariga qarshi harakat olib borishiga to'g'ri kelgan. Uning o'g'li Kommod Rim yollanma soqchilaridan ko'ra ko'ngilli va gladiatorlarga ishonch bildirgan, buni birgina otasining germanlarni hujumlarini qaytarishda ko'rish mumkin.

Adrian davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. U prinseps kengashini qayta tashkil qildi, kengash tarkibiga oliy amaldorlar, muassasa rahbarlari va yirik yuristlar jalb qilindi. Adrian boshqaruvga suvoriylar toifasini ko'plab vakillarini taklif qildi. U davlat pochtasini joriy qildi, provinsiyalar boshqaruvini qayta tuzib, noiblar faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatdi.

Antoniylar sulolasini taniqli vakillaridan biri tarixga taxtdagi faylasuf nomi bilan kirgan Mark Avreliy edi. Mark Avreliy uchun davlat manfaatlari hamma narsadan yuqori bo'lib, imperiya taqdiri uchun o'z ma'suliyatini to'la anglab yetgan edi. U senator va suvoriy toifalar bilan ahillikda ish olib bordi. Senat tarkibiga ko'pgina provinsiya zodagonlarini, ayniqsa, kelib chiqishi Sharqdan va Afrikadan bo'lgan nufuzli kishilarni kiritdi. Mark Avreliy (161-yildan 180-yilgacha) 19 yil hukmronlik qildi, unga qarshi shu yillar davomida birorta ham fitna uyushtirilmadi. U 180-yilda 59 yoshida Vindobona (Vena) shahrida vafot etadi. Rimda imperator sharafiga kolonna bunyod etildi. Uning merosxo'ri 18 yoshli o'g'li Kommod (180-193-yillar) imperator bo'ldi. Antoniylar sulolasining so'nggi vakili Kommod qo'pol, shafqatsiz va maishatparast hukmdor edi. Otasining o'limidan keyin Kommod kvad va markomann qabilalari bilan urushni tugatib, 180-yilda Rimga qaytdi. Davlat boshqaruvini o'zining ochko'z yaqinlariga topshirib, kayf-safoga berildi. Xotinini qatl etib, buzuqchilik yo'liga kirdi. Katta jismoniy kuchga ega bo'lgan imperator o'zini rimlik Gerkules deb e'lon qildi, omma oldiga arslon terisiga yopinib yelkasida to'qmoq bilan paydo bo'lar edi. Amfiteatr sahnasida gladiator sifatida chiqdi. Oxir-oqibatda es-hushini yo'qotib kalendarning barcha oylarini o'z nomiga o'zgartirdi, hatto Rimning nomini o'zgartirib uni "Kommod" shahri deb atashga buyruq berdi.

Kommodga qarshi 183-yilda fitna uyushtirildi, lekin u amalga oshmadi, shundan so'ng senatorlar toifasiga qarshi ta'qib va

qatllar avj oldi. Pannoniya va Britaniyada norozilik harakatlari, daklar va mavrlar qo'zg'olonlari qo'shin tomonidan zo'rg'a bostirildi. 192-yilning oxirgi kunida fitna natijasida Kommod o'ldirildi.

Boshqaruv tizimi va apparati imperator qo'lida to'plana boshladi. Senat o'z siyosiy mavqeini yo'qotishi bilan, uning tarkibi ham o'zgardi. Respublika davrida yuqori mavqega ega bo'lgan zodagon oilalari fuqarolar urushi va proskripsiyalarning qurboni bo'ldilar. Qolganlari esa kambag'allashib qoldi. Prinsipatning birinchi yillarida ularning o'rnini suvoriylar, munitsipiylardan chiqqan boy-zodagonlar egalladilar. Klavdiy davrida Senat tarkibiga gall qabilasi ekvlarning romanlashgan zodagonlari uchun yo'l ochildi. Vespasian davrida Senatga munitsipiylar koloniyalari va provinsiyalardan yangi kishilar kiritildi. Milodning I asr so'nggida kelib chiqishi gallardan bo'lgan kishilar kiritildi. Keyingi 100-yillik boshida Senat tarkibida Kichik Osiyo va Afrikadan kelgan senatorlar, ko'pgina yunonlar ham uchraydi. Qadimgi Rim nobilitetining vakillari Senatda deyarli qolmadi va ular bilan birga Senatdagi muxolifat kayfiyati ham yo'qoldi.

Prinsepslar hokimiyatini yana bir tayanchi suvoriylar edi. Ularning ijtimoiy tarkibi ham o'zgardi. Yangi suvoriylarning kelib chiqishi Italiya munitsipiylari va provinsiyalardan edi. Suvoriylarning yuqori qatlamini, eng avvalo, boyib ketgan moliya zodagonlari, o'rta qatlamni esa davlat xizmatiga ko'tarilgan amaldorlar tashkil qildi. Suvoriylarga prokuratorlar lavozimi, provinsiyalardagi prinseps mulklarini boshqaruvi, pretorian gvardiyasi prefekti, politsiya xizmati qo'riqchilarining prefekti kabi lavozimlar ajratildi. Adrian davrida suvoriylar prinsepsning shaxsiy kanselyariyasida xizmat qila boshladilar.

Shu vaqtgacha prinsepsning shaxsiy kanselyariyasida barcha ishlarni imperatorlarning ozod qilingan qullari bajarar edi. Imperatorlar shahar plebeylariga nisbatan respublika davri Rim zodagonlarining siyosatini davom ettirdilar. Rimda avvalgidek 200 000 kishiga tekin non tarqatilar edi. Rimning oddiy aholisi hech qanday siyosiy huquqqa ega emas edi. Ularning bir qismi ishlab chiqarish bilan, ko'pchiligi davlatdan tekin non olib zodagonlarning uylarida klient majburiyatini bajarar edilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. II asrda imperiya eng katta hududga ega edi. Uning chegaralari shimolda Shotlandiyadan janubda Nil ostonalarigacha, g'arbda Atlantika qirg'oqlaridan sharqda Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan edi. Quldorlik tizimi o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ko'p quldorlik xo'jaliklari bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga o'tdi. Qullarga nisbatan shafqatsiz zulm kuchayib ketdi.

Bu davrda provinsiyalarning iqtisodiyoti va bu yerdagi shahar hayoti o'z taraqqiyotida yuqori bosqichga ko'tarildi. Milodning I-II asrlarida O'rtayer dengizi hududidagi barcha xalqlar tarixda birinchi bor yagona ulkan davlat Rim imperiyasi tarkibiga kirdilar. Rim provinsiyasiga aylantirilgan alohida davlatlar o'rtasidagi chegaralar tugatildi. Pul tizimlari ma'lum darajada unifikatsiya qilindi. Urushlar va dengiz qaroqchiligi tugatildi. Rim imperiyasidagi xalqlar ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining turli bosqichlarida yashar edilar. Misr, Suriya, kichik Osiyo, Bolqon va Makedoniya iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuqori darajasiga erishdilar. Pireney yarim oroli va Galliyadagi iberlar, keltlar, shimoliy Afrikadagi numidiyaliklar, liviyaliklar, Dunay bo'yidagi pannonlar, illiriyaliklar, mezlar hali arxaik davrning so'nggi bosqichida edilar.

Rim istilolariga qadar g'arbiy provinsiyalarda qishloq xo'jaligi qoloq bo'lib, asosan, g'alla ekilgan. Yerga ishlov berish ibtidoiy holatda edi. Apennin yarim oroli aholisi qishloq xo'jaligining rivojlangan shaklini g'arbiy provinsiyalarga olib kirdilar.

Gall vinolari, ispan zaytun moyi, Italiya va yunon navlari bilan raqobat qila boshladi. Imperiya hududida quldorlik xo'jaligi tez rivojlandi. O'rta va yirik quldor xo'jaliklari (villa) yetakchi o'ringa chiqdi. Quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatidan keng foydalanildi. Barcha provinsiyalarda imperator yer egaligi keng tarqaldi. Milodning II asrida imperator yerlari va xususiy katta latifundiyalar yetakchi yer egaligi shakli hisoblanar edi. G'arbiy provinsiyalarda o'rta quldor pomestyelari, mayda yer egaligi, ayniqsa, kichik yer egaligi Pannoniya, Dalmatsiya, Meziya, Frakiya va Fokeyada keng tarqaldi.

Afrika provinsiyalarida quldorlik xo'jaliklarida asosiy ishchi kuchi qullar mehnati edi. Misr imperiyaning g'alla ombori edi.

Quldorlik latifundiyalari Galliya va Ispaniyada keng tarqalgan bir paytda Ispaniya va Afrikaning sharqiy provinsiyalarida kolonlar mehnatiga asoslangan latifundiyalar katta joylarni egallagan edi. Qullarga ish qurollari va chek yerlar ajratib berila boshlandi. Lekin qul xo'jayinning mulki bo'lib qolaverdi. Qulni mulk (pekuliy) bilan ta'minlash mil. avv. I asrdayoq ma'lum edi. Endilikda bu odatiy hol bo'lib qoldi. Qul pekuliydan foydalangan holda o'ziga o'rinbosar sotib olishi mumkin edi. Ushbu o'rinbosar qul uning xo'jayiniga ishlab berishi kerak edi. Ozod etilgan qullar aksariyat hollarda tadbirkorlik bilan shug'ullanib, juda ko'p boylik to'plar, o'z xo'jayinlariga zarurat tug'ilganda turli xil xizmatlarni ko'rsatar edilar. Misol uchun diktator Sullaning erkinlikka qo'yib yuborilgan quli Xirosogon Rim davlatidagi eng qudratli kishilardan biri bo'lib, hatto uning oldida senatorlar ham titrab qaltirar edi. Ammo ko'pchilik ozod etilgan qullar o'rta darajadagi mulkka ega bo'lib, hunarmandchilik va savdogarlik bilan shug'ullanar hamda oshxonalarning egalari edilar. Quldor latifundistlar o'z yerlarini chek yerlarga bo'lib, kolonlarga ijaraga berdilar.

Milodning II asrida kolonlar bug'doyni, tariq, zaytun moyini 1/3 qismini, quldorga berishi kerak edi. Bundan tashqari kolon quldorni yerida bir necha kun ishlab berishi kerak edi.

Yerga ishlash takomillashdi, g'alla va boshqa ekinlarning hamda o'g'itning yangi navlari joriy qilina boshlandi. Qishloq xo'jaligi takomillashdi, g'alla latifundiyalarida g'allani yig'adigan mexanizm, g'ildirakli plug, suv tegirmoni kashf etildi. Provinsiyalarda shaharlar va shahar aholisining o'sishi qishloq xo'jalik mahsulotlarining Italiya va imperiyaning boshqa viloyatlariga chiqarish imkoniyatining paydo bo'lishi, provinsiya qishloq xo'jaligida yerdan unumli foydalanish va tovar xo'jaligini kirib kelishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Quldor xo'jaligi endilikda bozor bilan bog'landi. Qishloq xo'jaligida tovar munosabatlarining rivojlanishi latifundiyalarda hunarmandchilikni vujudga keltirdi. Latifundiyalar egalari kulolchilik, to'quvchilik, duradgorlik, oshpazlik kabi hunarmandchilik ustaxonalarini ochdilar. Ba'zi gall latifundiyalarida shaxtalardan temir rudasi qazib olinib, metall ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Milodning I asrlarida qishloq

xo'jaligi bilan birga hunarmandchilik va savdo keng rivojlandi. Rim hunarmandchiligi uchun Ispaniyadagi qo'rg'oshin va mis konlari, Galliyaning temir va qalay konlari, Norika, Dalmatsiya, Klikiya va Kappadokiyaning boy temir konlari xom ashyoni yetkazib berib turar edi. Ayniqsa, temir rudasini qazib chiqarilishi keng yo'lga qo'yildi.

Temir rudasi Norika va Dalmatsiya, Galliya va Ispaniya, Kappadokiya va sharqda qazib chiqarildi. Barcha konlar imperatorning mulklari bo'lib, ko'pincha ijaraga berilar edi. Hunarmandchilikning rivojlanishi qul mehnatidan keng foydalanish imkoniyatini berdi. Agar o'tgan asrlarda hunarmandchilik ustaxonalarida ishlagan qullar soni 10 tagacha bo'lsa, milodning II asrida ularning soni 50 taga etdi.

Hunarmandchilik ustaxonasining kengayishi, mehnat taqsimotining o'sishi uning ixtisoslashuviga olib keldi. Ammo hunarmandchilikda erkin mehnat yetakchi rol o'ynagan. Tog'-kon ishlarida, qurilish, tosh konlari, marmar konlarida qul mehnatidan keng foydalanilar edi. Ustaxonalarda eng og'ir mehnat qullar zimmasida bo'lgan.

Hunarmandchilik taraqqiyoti oshpazlik, g'isht quyish kabi yangi sohalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Qurilishda betondan foydalanish keng tarqaldi. Milodning II asrida provinsiyalarda hunarmandchilik ayniqsa, yuksaldi. Bir qancha provinsiyalar o'z mahsulotlarini boshqa provinsiyalarga, shuningdek, Italiyaga eksport qila boshladilar. Ayniqsa, gall shaharlari nihoyatda rivojlandi. Gall hunarmandlarining kanop gazlamalari, jun yoping'ichlar va kulolchilik mahsulotlari g'arbiy provinsiyalar va Italiyada keng tarqaldi. Suriya shaharlari esa zarbof gazlamalar, zargarlik buyumlari, rangli shisha va gazlamalarni ishlab chiqaradigan asosiy markazlarga aylandilar.

Milodning II asrida hunarmandchilik markazlari yarim oroldan Shimoliy Italiyaga ko'chdi. Puteola, Kapuya, Arretsiya kabi an'anaviy hunarmandchilik markazlari tushkunlikka uchradi. Ularning o'rniga gall Norika va Dalmatsiyaning temir konlariga yaqin Milan, Akvileya va boshqa hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Ayniqsa, Akvileya shahri metall buyumlar va qurol-

yarog', shisha, zargarlik buyumlari, cherepitsa ishlab chiqaradigan yirik hunarmandchilik markaziga aylandi.

Milodning I-II asrlarida barcha provinsiyalarda savdo aloqalari keng rivojlandi. Italiya savdogarlari Ispaniya, Suriya, Dakiya, Misr, Mavritaniya va Britaniyaga kirib bordilar. Gall kema egalari, savdogarlari Italiya, Reyn viloyatlari va ispan provinsiyalari bilan faol savdo qildilar. Pal'mira savdogarlari Dakiya va Misrga kirib bordilar. Shaharlarda ko'plab savdo do'konlari va omborxonalar qurila boshlandi.

Milodning II asrida Rimda ulkan besh qavatli Trayan bozori qurildi. Savdo-sotiqning rivojlanishi provinsiyani mahsulot ishlab chiqarishini ixtisoslashuviga olib keldi. Ispaniya zaytun moyi va vino, Galliya vino, shisha idishlari, jun mahsulotlari, Misr g'alla, papirus, granit, shisha buyumlari, Suriya vino, zarbob gazlamalar va zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

Savdogarlar, hunarmandlar kollegiyalarga birlashdilar. Savdo taraqqiyoti sarroflik va sudxo'rlikni rivojlanishiga turtki bo'ldi. Tashqi savdo rimliklar uchun foydali edi. Rim imperiyasi Qora dengiz hududlari, Sharqiy Yevropa, Eron, O'rta Osiyo va Hindiston bilan muntazam savdo aloqalarini o'rnatdi.

Milodning II asrida Sharqdan 3 ta savdo yo'li O'rtayer dengizi qirg'oqlariga borar edi. Petra-Transiordaniya-Damashq, Frot, Palmira, Damashq, O'rtayer dengizi, Hindiston-Arabiston-Iskandariya, Afrika provinsiyalaridan Rim savdogarlari Efiopiya, Mavritaniya va, hatto, Markaziy Afrikagacha kirib bordilar.

Imperiya davrida yangi tanga "aureus" zarb qilina boshlandi. O'ng tomonida hukmdor imperator tasviri tushirilgan bo'lib, Rim tilla tangasi yuqori baholanar edi. Ko'p tarqalgan Rim tangalaridan biri kumush dinariy bo'lgan. Milodning I asrida u sof kumushdan, milodning II asrining oxiridan esa mis qo'shib, tarkibida 50% kumush bilan zarb qilina boshlandi. Mis tanga asosan mahalliy muomalada foydalanilar edi. Mayda savdoda asosan mis tanga - sestersiy (4 ass) va dupandiy (2 ass) ishlatilgan.

Milodning I-II asrlarida Rim jamiyati quldorlik jamiyati edi. Uning asosiy qatlamlari qullar va quldorlar bo'lib, ulardan tashqari mayda ishlab chiqaruvchilar, kichik chek yerlarning

egalari yoki ijarachilar kichik hunarmandchilik ustaxonalari egalari, mayda savdogarlardan iborat bo'lgan.

Tabaqalar o'rtasida kuchli ijtimoiy ziddiyatlar mavjud edi. Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar qullar hisoblangan. Milodning I-II asrlarigacha quldorlik xo'jaliklarida qullarga bo'lgan ehtiyoj urushlar natijasida qondirilgan edi.

Milodning II asrida istilochilik urushlarining nihoyasiga yetishi qullar oqimining Rimga kelishini keskin kamaytirdi. Lekin quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatiga ehtiyoj juda kuchli bo'lib, bu holat qullar narxining keskin o'sishiga olib keldi.

Qul mehnatini unumdorligidan manfaatdor quldorlar qullarning maishiy sharoitini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Qishloq pomestiylari va shaharlarda qul cho'rilar soni o'sib bordi, qullarga oila qurishga ruxsat berildi, va ular rag'batlantirildi.

Qullikda tug'ilgan bolalar (Ularni vernlar deb atashgan) biror bir hunarga o'rgatilgan bo'lib, qul bozorlarida yuqori baholanar edi. Qullarni oila qurishini rag'batlantirgan quldorlar qul oilasi uchun chek yer, mehnat quroli, kulba, kichikroq do'kon, bir necha qora mol ajratar edilar.

Quldor tomonidan ajratilgan bunday mulk "pekuliy" deb atalgan. Milodning I-II asrlarida pekuliy keng tarqaldi. Quldor sovg'a qilgan yerini istalgan paytida tortib olishi mumkin edi. Qullarning huquqiy holati ham o'zgardi. Imperator Adrian qullarni sababsiz o'ldirishni taqiqladi. Milodning II asrida yerni ijaraga berish va kolonat keng tarqaldi.

GLOSSARIY

Diktator – cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor, "diktatura" - lotincha "cheklanmagan hokimiyat" tushunchasini anglatadi.

Konsul – Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.

Legion – Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.

Respublika – "umumiy ish" ma'nosini anglatadi, tuzum nomi.

Ovatsiya – gulduros olqishlar.

Triumf – Qadimgi Rimda urushdan g'alaba bilan qaytgan lashkarboshini tantana bilan kutib olish marosimi.

Triumvirat – Qadimgi Rimda uch siyosiy arboblar ittifoqi.

Avgust – Qadimgi Rimda xudolarga qilingan murojaatlarda tilga olingan so'z. Mil. avv. 27-yilda imperator Oktavianga Senat tomonidan Avgust, ya'ni "muqaddas" laqabi beriladi.

Prinsipat – Oktavian Avgust davrida vujudga kelgan siyosiy tuzum (mil. avv. 27-milodning 14-yillari). Hokimiyat Senat qo'lida bo'lib, uning himoyachisi prinseps hisoblangan.

Prinseps – ("princeps"-"birinchi", "asosiy"): Rim respublikasi davrida senatorga birinchi bo'lib muzokara boshlash huquqini bergan va tenglar orasida birinchi degan ma'noni anglatgan. Mil. avv. 27-yilda Senat Oktavian Avgustga shu unvonni bergan.

Forum – Qadimgi Rimda shahar markazidagi xalq yig'ini maydoni. Forumlarda bozor maydoni, xalq yig'ilishlari uchun joy va eng asosiy ibodatxona bo'lgan. Qadimgi Rimning eng mahobatli maydonlaridan biri Trayan forumidir. Forum imperator Trayanning daklar ustidan qozongan g'alabalari sharafiga qurilgan. Trayan forumida dam olish, ijod qilish uchun maxsus xonalar, kutubxona, gimnastika bilan shug'ullanish uchun maydonchalar, sport zallari bo'lgan. Markaziy bino tevaragida hiyobonlari, uzumzorlari, favvoralar va hovuzlar bo'lgan bog' barpo etilgan, yonida stadion ham bo'lgan.

14-MAVZU. SO'NGGI RIM IMPERIYASI

Reja:

1. **Rim imperiyasi inqiroziga olib kelgan asosiy omillar.**
2. **Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz va davlat tizimining yemirilishi.**
3. **Dominant tizimining o'rnatilishi va Diokletian islohotlari.**
4. **Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy imperiyalarga bo'linishi, uning sabablari.**

Rim imperiyasi inqiroziga olib kelgan asosiy omillar. Milodiy III asrga kelib Rim ko'plab muammolar bilan to'qnashdi. Ular mamlakatning ichkarisidan ham tashqarisidan ham kirib keldi. Faqat tub iqtisodiy, harbiy va siyosiy islohotlar inqirozdan saqlab qolishi mumkindek ko'rinardi.

Ko'pchilik tarixchilar Mark Avreliy imperatorligi hukmronligining tugashi (mil. 160-181-y.) bilan Pax Romana (Oltin davr) nomi bilan mashhur bo'lgan ikki asrlik tinchlik va gullab-yashnash davri nihoyasiga yetadi, deb belgilashadi. Keyingi asrlarda hokimiyat tepasiga kelgan imperatorlarda ulkan imperiya va uning o'sib borayotgan muammolari bilan qanday shug'ullanish haqida g'oyalar kam yoki umuman bo'lmagan.

Rim iqtisodiyotining zaiflashuvi. Milodiy III asr davomida bir nechta omillar Rim iqtisodiyotining zaiflashuviga olib keladi. Imperiya tashqarisidagi dushman qabilalar va O'rtayer dengizidagi qaroqchilar savdo-sotiqqa putur yetkazdilar. O'zlarining cheklangan resurslarini sarflab bo'lib, yangi oltin va kumush manbalariga muhtojlik sezdilar. Daromadlarga ehtiyoji katta bo'lgan hukumat soliqlarni oshiradi. Endilikda tarkibida yana kumush kamroq bo'lgan tangalar zarb qilish boshlandi. Bunda qimmatbaho metallar bilan bir miqdorda ko'proq mablag' ishlashga umid qiladilar. Biroq tez orada iqtisodiyot pulni qadrsizlanishidan jabr chekadi, narxlarning oshishi bilan pulning qiymati keskin tushib ketadi. Pulning qadrsizlanishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Savdo-hunarmandchilik tushkunlikka uchradi.

Qishloq xo'jaligi oldida ham shunga o'xshash muammolar turar edi. Italiya va G'arbiy Yevropada hosil borgan sari siyraklashib borardi, chunki yerning zo'riqib ishlashi natijasida zamin o'zining hosildorligini yo'qotadi. Shuningdek, urush yillarida ko'plab dalalar payhon bo'ladi. Oxir-oqibatda jiddiy oziq-ovqat yetishmovchiligi va kasalliklar tarqala boshlaydi va aholi soni kamayadi. Yerga ijara haqi keskin oshdi. Bu kolonlarning xonavayron bo'lishiga olib keldi. Qarz majburiyati ortib boradi. Qullarning soni kamayib, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Provinsiyalarda quyi tabaqa vakillarining qo'zg'olonlari ko'tarildi. Jumladan, III asrning 50-yillarida Galliyada dehqonlar va qullar qo'zg'oloni, Shimoliy Afrikada dehqonlarning qurolli chiqishlari yuz berdi.

Harbiy va siyosiy sarosima. Milodiy III asrga kelib Rim harbiy kuchlarida ham tartibsizliklar hukm surar edi. Uzoq yillar mobaynida Rim askarlarining intizomi va sodiqligi kamayib bordi. Ular o'z sodiqligini Rim uchun emas, balki o'zaro toju-taxt uchun talashayotgan qo'mondonlariga bildirar edilar. Imperiya uchun oshib borayotgan tahdidlardan himoyalanish uchun hukumat merkenariylar – xorijlik askarlarni pul evaziga yollay boshladilar. O'z navbatida rimliklarga qaraganda kam haq oladigan yollanma askarlar imperiyaga nisbatan sodiqlikni kamroq his qilardilar.

Sadoqatlilik hissi oxir-oqibatda fuqarolar orasida ham zaiflasha bordi. O'tmishda rimliklar o'z respublikalari uchun qattiq qayg'urardilar, o'z jonlarini ham fido qilardilar. Imperiyadagi so'nggi asrlardagi shart-sharoitlar fuqarolar uchun vatanparvarlik o'z ahamiyatini yo'qotilishiga olib keladi. Ular imperiya taqdiriga bee'tibor bo'lib qoladilar.

Imperiyani qiyin ahvolga solib qo'ygan omillardan yana biri, III asrning 70-80-yillarida german qabilalarining imperiyaga hujumlari bo'ldi. Dakiyani got, sarmat va markomannlar bosib oldi. Tinchlik tarafdori bo'lgan Mark Avreliy butun umri davomida varvar qabilalariga qarshi kurashishiga to'g'ri keladi. Biroq undan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Kommod tantiq, yengiltabiat, asosiy vaqtini o'yinlar va gladiatorlar jangini tomosha qilishga sarflar edi. Bu esa otasi tomonidan erishilgan yutuqlarni ko'kka sovurilishiga sabab bo'ladi.

Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz va davlat tizimining yemirilishi. Rim imperiyasida uchinchi asr inqirozining birinchi bosqichini 193-197-yillardagi fuqarolar urushi bilan belgilash mumkin. Bu o'z navbatida Rim imperiyasi siyosiy tizimining inqirozi ham edi. 193-197-yillardagi fuqarolar urushi voqealari Rim qurolli kuchlari ichidagi ziddiyatlarni ochib berdi. Prometeylar, Dunay provinsiyalari qo'shinlari, imperiyaning g'arbiy va Sharqiy qismlari bu urushda o'z vakillarini imperiya taxtiga ko'tarish huquqi uchun kurash olib bordilar. Ammo Dunay viloyatlarining legionlarini fuqarolar urushidagi g'alabasi Rim imperiyasidagi Prinsipat tizimini boshqa siyosiy tizim bilan almashtirishga olib kelmadi. Bu siyosiy inqiroz uning mag'lubiyati emas, balki sobiq tuzilmaning g'alabasi bilan tugaganligini ta'kidlash mumkin.

Shunday qilib, 193-197-yillardagi fuqarolik urushiga olib kelgan siyosiy inqiroz tugatish bilan emas, balki Prinsipat tizimining "yaxshilanishi" bilan yakunlandi. Septimiy Severus va uning vorislari ostida u ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatdi va undagi qo'shin imperiya hokimiyatining muhim tayanchi, Rim chegaralari va davlat ichidagi tartib xavfsizligining kafolati bo'lib qoldi.

III asrning haqiqiy inqirozini 235-yilda boshlandi deb aytish mumkin. Severlar sulolasining so'nggi imperatoriga sadoqatini yo'qotgan qo'shin Aleksandr Severga suiqasd qilinishidan bir necha yil oldin imperator siyosatini rostlash huquqini da'vo qilgan. Biroq Maksimianning imperator deb e'lon qilinishi askarlar imperator hokimiyatini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish huquqini da'vo qila boshlaganini ko'rsatdi.

235-yil boshlangan Rim imperiyasi siyosiy tuzumining inqirozi turli omillar ta'sirida juda uzoq davom etdi. Inqirozni bartaraf etish imperiya iqtisodiyotining holatiga, o'ta og'ir kuchlar ichidagi vaziyatga, o'sha davr hukmdorlarining vaziyatni tushunish va davlatni qiyin vaziyatdan olib chiqish yo'llarini topa olish qobiliyatiga bog'liq edi. Bu omillar orasida tashqi siyosat omili alohida o'rin tutgan. Varvarlardan doimiy xavfsirash Rim davlatini saqlab qolish uchun armiyaning ahamiyati ortishiga olib keldi. Buni anglagan askarlar qo'shni davlatga kim rahbarlik

qilishi kerakligini aniqlashda ham hal qiluvchi ovozga ega bo'lishi kerak, deb hisoblashgan. Armiyaning jangovar qobiliyatini oshirish zarurati III asrdagi Rim hukmdorlarini qurolli kuchlarda jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga majbur qildi. Ammo amalga oshirilayotgan islohotlarning oqibatlaridan biri armiyaning ichki birligining buzilishi bo'lib, uning alohida qismlari o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuviga, askarlarning o'z vakillarini imperator taxtiga ko'tarish masalasida raqobatga olib keldi. Imperiyaning qo'shnilari bilan deyarli uzluksiz urushlar va armiyani qo'llab-quvvatlashning ahamiyati o'sha davrdagi Rim imperatorlarini tashqi siyosat ishlariga va shaxsan bevosita harbiy operatsiyalarga katta e'tibor berishga majbur qildi. Shuning uchun ular ko'pincha davlat ichidagi vaziyatni xotirjam tahlil qilish, imperiyani inqirozli vaziyatdan olib chiqish yo'llarini topish imkoniga ega emas edilar. III asrda Rim imperatorlarining ba'zilari hukmronligining erta tugashiga (jangda o'lim, dushman tomonidan qo'lga olish, urush tufayli, askar isyoni natijasida) sabab bo'lgan harbiy harakatlarning bevosita rahbarligi edi. Imperatorlarning tez-tez o'zgarib turishi esa Rim imperiyasidagi siyosiy vaziyatni yanada keskinlashuviga olib kelgan.

268-yil Senatdan norozi bo'lgan imperator Gallienning vafot etganidan so'ng hokimiyatga kelgan Klavdiy II Senatga nisbatan siyosatini o'zgartirib, imperiya chegaralarini himoya qilishga e'tibor qaratdi. Ammo uning hukmronligi davlatning inqirozli ahvolini bartaraf yetish uchun jiddiy qadamlar bilan belgilanmagan. Uning hayoti davomida ham, vafotidan keyin ham knyazlik tizimi faoliyatining barqarorligi tiklanmadi.

Imperator Aurelian Rim imperiyasining hududiy birligini tikladi. Bu vaqtga kelib Rim armiyasining ichki birligi aslida jonlangan edi. Imperator askarlar orasida katta hokimiyatga ega edi, uning davlatda mavqei juda kuchli bo'lgan. Avvalgi o'n yilliklar voqealari fonida imperiyadagi vaziyat ancha barqaror ko'rinish oldi. Agar Aurelian muqarrar bo'lmagan fitna natijasida o'lmaganida edi, u tegishli o'zgarishlar orqali, davlatga siyosiy barqarorlikni tiklash uchun bir muncha vaqt mumkin edi. Bunday holda, bu imperator davrida III asr inqirozining tugashi haqida gapirish mumkin bo'ladi. Ammo bu vaziyatda imperiyadagi

vaziyatning barqarorlashtiruvchi omili imperator shaxsi edi. Ko'p o'tmay, uning o'limidan so'ng, Prinsipat tizimi hali ham normal ishlamasligi aniq bo'ldi, ya'ni uning inqirozi 274-yildan keyin davom etdi.

Faqat subyektiv kayfiyatda 282-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Imperator Kara Senatning imperator hokimiyatining qonuniyligining asosi sifatida qabul qilgan qarorini rad etishi, aslida, Karning siyosiy tizimini hokimiyatning qonuniyligi Senat va Rim xalqining irodasiga emas, balki, ehtimol, armiyaning irodasiga asoslangan bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa bir narsa bilan almashtirishga qaror qildi. Agar Kar bu rejani amalga oshirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, unda Rim imperiyasidagi III asr inqirozi haqiqatan ham 282-yilda tugaganiga ishonishga asos bo'lar edi. Bu esa eski siyosiy tuzumning mag'lubiyati va uning o'rniga Rim davlati siyosiy tuzumi butunlay boshqa tuzumning shakllanishi bilan yakunlandi.

Inqirozning chuqurlashishi yoki zaiflashishi ko'plab omillarga, jumladan, imperatorlarning shaxsiy faoliyatiga, vaziyatni tushunish va inqirozni yengillashtirish yoki undan chiqib ketish uchun zarur choralarni ko'rishga bog'liq edi. O'sha davrda Rim imperiyasining har bir hukmdorining eng muhim vazifasi imperator taxtida qolish edi. Va ularning hammasi ham bu vazifani qanday hal qilish mumkinligi haqida bir xil fikrlarga ega emas edi.

III asr inqirozi davrida Rim imperiyasidagi siyosiy beqarorlik imperatorlarning tez-tez o'zgarishida, imperatorni ko'plab urinishlarda namoyon bo'ldi. 235-285-yillar orasida imperatorlar va imperatorlik taxtiga da'vogarlar soni 70 tadan ortdi. Adabiyotda ko'pincha bu davr askar imperatorlar davri deb ataladi va ko'plab tarixchilar bu vaqt imperatorlarini ikki guruhga – "Senat" va "askarlar"ga birlashtirishni taklif qiladilar.

Ba'zi tarixchilar o'zlarining kelib chiqishida askar bo'lgan, askarlardan imperator hokimiyatini olgan, askarlarga hukmronlik qilgan va ularga tayanadigan III asrdagi Rim imperatorlarining "askari" deb ataydilar. Boshqa tadqiqotchilar III asr inqirozining sabablari va tabiatini Rim imperiyasiga tushuntirishga asoslanib,

o'sha davrdagi Rim hukmdorlarini imperatorlarning "Senat" yoki "askar"lari orasida vasf etadilar.

Shunday qilib, III asrning inqirozini Rim Senati boshchiligidagi shahar burjuaziyasi va qishloq viloyatlarining aholisidan olingan armiya o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi natijasi deb hisobladi. M.I.Rostovsevning so'zlariga ko'ra, "askar" imperatorlari imperiyaning qishloq aholisi manfaatlarini himoya qildilar va "Senat" imperatorlari shahar burjuaziyasi manfaatlarining vakillari edi.

Rim imperiyasida askar imperatorlari asrida ikki millat – illiriylar va suriyaliklar o'rtasida kuch kurashi sodir bo'lgan, deb hisoblagan. Milodiy III asrning o'ziga xos sharoitida bu kurash asosan imperiyaning Sharqiy provinsiyalaridan kelgan muhojirlar va "askar" imperatorlari boshchiligidagi Dunay viloyatlari armiyasidan iborat Senat o'rtasidagi kurash shaklini oldi, bu bilan u armiya xohishi bilan hokimiyat tepasiga kelgan va u tomonidan imperator taxtidan ag'darilgan imperatorlarni tushundi.

E.M.Shtayerman III asr imperatorlarini Rim davlatining hukmron qatlamlari ichida keskin kurashning namoyon bo'lishi sifatida Rim imperiyasi hukmdorlarining tez-tez o'zgarishi haqidagi talqiniga muvofiq "askarlar" va "senatorlar"ga ajratdi. U armiyaga tayangan va kichik va o'rta munitsipal mulkdorlar va ularga yaqin armiya doiralari manfaatlari yo'lida askarga qarshi siyosat olib borgan "askar" imperatorlariga murojaat qilgan. "Senat"dan chiqqan imperatorlar asosan yirik yer egalarining manfaatlarini himoya qildi.

III asr inqirozi davrida barcha Rim hukmdorlari uchun umumiy bo'lgan imperator taxtini saqlab qolishning asosi sifatida Senatni qo'llab-quvvatlash orqali o'z lavozimlarini mustahkamlash zarur deb hisoblaganlar. Ular senatorlar bilan hamkorlik qilishga intilib, Rim imperiyasi davlat tuzumining eski tuzumi – knyazlik tuzumining jonlanishida inqirozdan chiqish yo'lini ko'rdilar. Bu imperatorlarga nisbatan G.Alfeldi g'oyasi ular uchun "islohot" imperiyani "sobiq shon-shuhrat"ga qaytarishni anglatgan. Bunday imperatorlarni "senator" imperatorlari deb hisoblash kerak. Imperatorlar Gordian I, Gordian II, Pupien,

Balbin, Valerian va Taksitlarni III asr inqirozi davrida Rim hukmdorlarining bu guruhiga kiritish mumkin.

III asrning boshqa imperatorlari armiyani taxtda qolish uchun qo'llab-quvvatlashga muhtoj deb hisoblashgan. Ular, avvalo, imperator hokimiyatini qabul qilgan askarlarning manfaatlari haqida g'amxo'rlik qilib, Senat bilan keskin munosabatlarda edilar.

Shunday qilib, III asr inqirozi davrlaridagi hukmdorlarning faqat oltitasini "senatorlik", uchtasini esa "askarlik" imperatorlar deyish mumkin. Uni bartaraf etish natijasi imperator Diokletianning reformatsion faoliyati natijasida Rim davlatining yangi siyosiy tizimini yaratish bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu asrdagi siyosiy inqiroz eski tuzilishning mag'lubiyati, uning yangisiga almashtirilishi bilan tugadi, unda sobiq tuzilishning ayrim elementlari boshqa rol o'ynay boshladi, boshqalari butunlay bekor qilindi, yangi elementlar paydo bo'ldi.

Dominant tizimining o'rnatilishi va Diokletian islohotlari. Severlar sulolasining so'nggi imperatori Aleksandr Sever 235-yil o'ldirilganidan so'ng Rim imperiyasi inqiroz botqog'iga botib qoladi. 235-yildan 285-yilgacha 29 ta imperator taxtga keladi. Legionerlar birin-ketin tarixshunoslikda "askar imperatorlari" deb atalgan hukmdorlarni taxtga chiqardilar. Ular davlatni uzoq boshqara olmadilar. Oddiy jangchilar ichidan ham imperatorlikka da'vogarlar chiqdi. Jangchi-imperatorlar bir-birlarini tez-tez almashtirdilar. Odatda, ularning barchasi o'ldirilar edi.

Imperiyada yana siyosiy beqarorlik, tartibsizliklar boshlandi. Davlat tizimining yemirilishi, ichki o'zaro nizolar, german qabilalari hujumi va III asrda sharqda tashkil topgan qudratli Sosoniylar davlati bilan uzoq muvaffaqiyatsiz olib borilgan urushlar Rim imperiyasining tushkunligiga sabab bo'ldi.

284-yil kuzida tarixda Diokletian nomi bilan kirgan illiriyalik 39 yoshli Diokl (284-305-yillar) imperator deb e'lon qilindi. Diokletianning hukmronligi boshlanishi bilan Rim imperiyasining so'nggi davri yoki Dominat (284-476-yillar) davri boshlandi. Ozod etilgan qulning o'g'li, tegishli ma'lumot olmagan, lekin aqlli va shafqatsiz bo'lgan imperator Gay Avreliy Valeriy Diokletian hukmronligi vaqtida "dominat" (lotincha dominus-"janob", "xo'jayin") nomini olgan siyosiy tizimning asoslari yaratildi.



19-rasm. Diokletian

Diokletian va uning vorislari davrida Rim davlatining cheklanmagan monarxiyaga o'tishi tugallandi.

Diokletian imperiya bitta hukmdor uchun juda katta va boshqarish murakkab, deb hisoblagan. Shu sabab u bir qator ma'muriy-hududiy islohotlar o'tkazadi. Jumladan, imperiyani yunon tilida so'zlashadigan Sharqqa (Yunoniston, Anatoliya, Suriya va Misr) va lotin tilida so'zlashadigan G'arbga (Italiya, Galliya, Buyuk Britaniya va Ispaniya)ga bo'ladi. U imperiyaning yarmini (sharq) o'zini boshqaruviga oladi va g'arb uchun o'ziga o'rinbosar tayinlaydi. O'z navbatida Diokletian hokimiyatni bo'lish bilan birga nazoratni o'z qo'lida ushlab turishga harakat qiladi. Unga tegishli bo'lgan imperiyaning Sharq qismi, katta shaharlarni va imperiyaning savdo markazlarini o'z ichiga olgan va G'arbga nisbatan boyroq bo'lgan.

Diokletian va Maksimian "Avgust" unvonini ega bo'lib, o'zlariga yordamchi olib, ularga "Sezar" unvonini berdilar. Sezarlarni avgustlarning avlodi hisoblagan Diokletianning fikricha, bunday tartib imperiya birligini saqlashga yordam berishi, viloyatlarda hokimiyatning zo'ravonlik bilan tortib olinish imkoniyatiga yo'l qo'ymasligi va shuningdek, Rim davlat chegaralarini qo'riqlashni osonlashtirishi lozim bo'lgan. Shu tariqa tetrarxiya tizimi vujudga keldi.

Diokletian va Maksimianning erishgan muvaffaqiyatlari katta bo'lishiga qaramasdan, inqirozlar girdobi soni kamaymadi.

Birinchi tetrarxiyaning harbiy harakatlari Sosoniylarga qarshi quyi Dunayda, German provinsiyalarining Alamanni va fransuzlarga qarshi chegaralarida faol harakatlarni rivojlantirgan bo'lsa ham, imperiya chegaralarini yakuniy barqarorlashtira olmadi. Diokletian tetrarxiyasining harbiy va siyosiy yutuqlari tarixiga sinchkovlik bilan nazar tashlansa hukmdorlarning harbiy malakasi hal qiluvchi bo'lganligini ko'rish mumkin.

Birinchi tetrarxiya 293-yil 1-mart-305-yil 1-may			
Avgustlar		Sezarlar	
Sharq	***G'arb***	***Sharq***	***G'arb***
Diokletian	Maksimian	Galeri	Konstans Xlor
Ikkinchi tetrarxiya 305-yil 1-may-306-yil 25-iyul			
Galeriy	Konstans Xlor	Maksimin Daya (Galerining jiyani)	Sever (Galeriyning hamrohi)
Uchinchi tetrarxiya 306-yil 25-iyul-308-yil 11-noyabr			
Galeriy	Sever	Maksimian Daya	Konstantin (Konstans Xlorning o'g'li)
To'rtinchi tetrarxiya 308-yil 11-noyabr-311-yil 5-may			
Galeriy	Litsini (Galeriyning do'sti)	Maksimian Daya	Konstantin

Diokletianning tetrarxiyasi islohotlari Avgust islohotlari kabi davlat va jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Ular uzoq vaqt davomida bir kishi tomonidan amalga oshirilganligi sababli, ularning shaxsiyati va usullari avgustdan butunlay farq qilar edi, ular ichki yaxlitlikka olib keldi.

Diokletian davlatni temir musht bilan boshqardi va shaxsiy erkinliklarni keskin chegaraladi. U imperiyaning mavqeini tikladi va uning kuch-qudratini oshirdi. Diokletian Rim imperiyasi armiyasining sonini ikki marta oshirdi va mahsulotlarga doimiy narxlar o'rnatilishi orqali pulning qadrsizlanishini nazorat qilishga intildi. Bu paytga kelib past qiymatli tangalar zarb qilinishi natijasida pulning qadri nihoyatda tushib ketgan edi. U yangi to'liq qiymatli oltin va kumush tangalarni zarb qilishni buyuradi hamda ularni yagona standartga keltiradi. Shuningdek, soliq yig'ish ishlarini tartibga keltirib, davlat byudjetiga tushadigan daromadlarni ham tartibga soladi. U imperatorlik hokimiyatining obro'-e'tiborini tiklash maqsadida o'zini qadimgi Rim xudolaridan kelib chiqqanligini da'vo qildi va o'zida xudosifat aura yaratish uchun puxta o'ylab chiqilgan marosimlarni tashkil qildi. Imperator hokimiyati ilohiylashtirilib, unga iloh sifatida sig'inish joriy qilindi.

Unga ta'zim bajo keltirish, uning oldida tiz cho'kish, boshini yerga qo'yib yiqilish va kiyimi etagini ochish rasm bo'ldi.

Diokletian imperiyaning siyosiy ahvolini nisbatan barqaror holatga keltirib, iqtisodiyot va moliyani sog'lomlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Pul muomalasi unifikatsiya qilindi. Provinsiyalarda pul zarb qilish taqiqlandi va 286-yilda to'laqonli tilla, kumush va mis tangalar zarb qilina boshlandi. Soliq tizimi ham isloh qilindi. Ilgari soliqlar pul bilan emas, mahsulot bilan ko'proq olinar edi. Imperator soliqqa tortish tizimini unifikatsiya qildi. 289-290-yillarda imperiya aholisi yalpi ro'yxatdan o'tkazildi. Ro'yxatga olish har 15 yilda bir marta takrorlanishi kerak edi. Soliq kvotalari 5-yilda bir marta qayta ko'rilar edi. Ekin yerlari va yaylov, o'tloqlar kadastri (hujjat) tuzildi. Qishloq aholisi ekin yeri, yaylovlar sifati, chorva va boshqa mulkka qarab yer solig'i to'lar edi. Hunarmand-savdogarlar esa, qator soliqlarni to'lar edilar.

Diokletian juda ko'p inshootlar qurdi. Saroylar, sirk, Rimda termalar, Illiriyadagi Salonika shahrida (hozirgi Bosniyadagi Split) ulkan saroy ansambli bunyod qilindi. Diokletianning eng oxirgi tadbirlaridan biri nasroniylik dinini ta'qib qilganidir. 303-304-yillarda keksa va kasal Diokletian yordamchisi Galeriy tazyiqi ostida nasroniylarga qarshi o'zini 4 ediktini e'lon qildi. Rim imperiyasi g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'lindi.

Agar II asr boshlarida Trayan davri provinsiyalarining soni 45 ta bo'lsa, endilikda eski bepoyon provinsiyalarni bo'lish yo'li bilan ularning soni 108 taga yetdi. Diokletian markazi Nikomediya bo'lgan imperiyaning sharqiy qismini boshqardi. Markazi Mediolon (Milan, Shimoliy Italiya) bo'lgan imperiyaning g'arbiy qismini Maksimian boshqaruviga topshirdi.

German qabilalarining Rim hududiga doimiy ravishda bostirib kirishi harbiy islohot o'tkazishga majbur qildi. Qo'shinning soni ko'paytirildi. Endilikda yirik yer egalari kolonlar va ozod etilgan qullardan jangchilar berishga majbur edilar. Harbiy xizmatga german qabilalarining qismlari-federatlar qabul qilina boshlandi. Bundan tashqari, qo'shinning tezkor harakat qilishini ta'minlash uchun qo'shin chegara qo'shinlari va harakatdagi qo'shinlarga bo'lindi. Chegara qo'shinlari imperiyaning mustahkamlangan

qal'alari va chegaralarida joylashtirildi. Harakatdagi yoki zahiradagi qo'shin urush xavfi bo'lgan chegara hududiga yuborish uchun jangovar holatda saqlab turildi. Davlat hokimiyati narx-navo va ish haqining o'sishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatdi. Bir vaqtning o'zida soliq va pul islohotlari o'tkazildi va natijada ijtimoiy-iqtisodiy tushkunlik vaqtinchalik bartaraf etildi. III asr oxiri IV asr boshlarida o'tkazilgan ma'muriy-harbiy va iqtisodiy islohotlar ulkan Rim davlatining umrini yuz-yildan ko'proq vaqtga uzaytirdi.

Diokletianning siyosati garchi Rim imperiyasining siyosiy tuzilmasini mustahkamlashga yordam bergan bo'lsa-da, ijtimoiy-siyosiy inqiroz bilan bog'liq ziddiyatlarni hal qila olmadi. Diokletian 305-yilda kasalligi tufayli hokimiyatdan ketishga majbur bo'ldi. Biroq uning islohotlari ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Darhol fuqarolar urushi boshlandi. Milodiy 311-yilgacha to'rt hukmdor hokimiyat uchun kurashadi. Ular orasida yosh shuhratparast qo'mondon, keyinchalik xristianlikni ta'qib qilishga chek qo'ygan Konstantin g'alaba qozondi.

Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy imperiyalarga bo'linishi, uning sabablari. Milodiy 312-yilda Konstantin imperiyaning g'arbiy qismida boshqaruvni qo'lga oladi va Diokletianning ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini davom ettiradi. Milodiy 324-yilga kelib Konstantin Sharqda ham boshqaruvni qo'lga oladi va shu tariqa yagona hukmdor degan tushunchani qayta tiklaydi.

Konstantin uzoqni ko'ra oladigan aqlli siyosatchi edi. U 200-yildan beri ta'qib etilayotgan xristian dinining kuch-qudrati davlat hokimiyatini mustahkamlashda muhim o'rin egallashini anglab yetdi. Shu sababli u 313-yil o'zining Milan edikti bilan xristianlik dinini boshqa dinlarga tenglashtirdi. Shu lahzadan boshlab xristian cherkovi imperator hokimiyatining ittifoqchisi va himoyachisiga aylandi.

Milodiy 330-yilga kelib imperiya uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan qadamni qo'ydi. U poytaxtni hozirgi Turkiyadagi yunon koloniyasi bo'lgan Vizantiya shahriga ko'chiradi. Yangi poytaxt Bosfor bo'g'ozida G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo va mudofaa uchun qulay bo'lgan strategik muhim nuqtada joylashgan edi.

Uning poytaxti Vizantiya bilan birga imperiyadagi qudrat markazi Rimdan sharqqa ko'chadi. Tez orada yangi poytaxt Rimdagi kabi yirik himoyalangan devorlar va imperiya binolari bilan to'ldirildi. Oxir-oqibatda poytaxt yangi – Konstantinopol yoki Konstantin shahri degan nom oldi. Shaharga rasmiy ravishda nom 330-yil 11-mayda berildi.

Shu tariqa Rim o'zining qadimgi o'tmishi, majusiy xudolari va sobiq imperatorlari shahri bo'lib qoldi. Konstantinopol yangi davrga asos soldi. Keng miqyosli qurilishlar boshlandi: bor-yo'g'i olti yil davomida devorlar, forumlar, ippodrom va hattoki, imperatorlik saroyi, shuningdek, faqat xristian senatorlar uchun mo'ljallangan yangi Senat binosi qad ko'tardi. Bundan tashqari shahar Konstantin maqbarasi bilan ham faxrlanishi mumkin edi. Xristian cherkovlari haqida to'xtalganda ko'pchilik Avliyo Sofiya ibodatxonasining prototipi aynan Konstantin davrida qurilgan deb taxmin qilishadi. Biroq Yevseviyning guvohliklariga qaramasdan, Konstantin nomini olgan shahar faqat xristianlardan iborat bo'lmagan. Imperator shaharni butun dunyodan olib kelingan xazinalar bilan to'ldirib, yangi imperiyaning ulkan ko'rgazma zaliga aylantirdi. Shuni ta'kidlash joizki, u poytaxtni Konstantinopolga ko'chirmadi, uni Rimda qoldirdi. Abadiy shaharda senatorlar davlat boshqaruvida ishtirok etishda davom etdilar. Konstantinopol Trir va Milan shahridagi imperiya markazlaridan biri hisoblanardi. Yagona farqi hukmdor unga bog'langanligida edi. Konstantin o'zining boshqaruvining so'nggi yetti yilining asosiy qismini shu shaharda o'tkazdi.

Dominat boshqaruv idoralari Konstantin taxt tepasida bo'lgan davrda tugallangan. Imperiyaning butun territoriyasida yagona ma'muriy taqsimot vujudga keldi. Fuqarolik hokimiyati harbiy hokimiyatdan ajratilib, hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan tortib olish imkoniyatiga barham berildi.

Milodiy 325-326-yillarda shahar aholisi kuriallar istiqomat qilib turgan joyga biriktirilgan. Milodiy 332-yilida kolonlar uchun yangi farmon chiqariladi. Farmonga ko'ra kolonlar o'z yerini tashlab ketmasligi, shahar hunarmandlari esa qo'shin va ma'muriyatni mahsulot bilan ta'minlab turishga majbur bo'lgan. Rim va Konstantinopolga g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari

yetkazib berish savdogarlar zimmasiga yuklangan. Shahar kuriallari jamoat binolarini ta'mirlash va soliq to'lamaganlarning qarzini to'lashga majbur etilgan.

Harbiy islohot zodagonlarning hukmronlik mavqeini mustahkamlagan. Ular davlat ixtiyoridagi yerlarni emfitevs sifatida yoki yengil shartlar bilan sotib olib, yer-mulklarini kengaytirganlar. Shuningdek, xristian cherkovi katta yer egasi bo'lib olgan. U barcha soliqlardan ozod etilgan.

Konstantin 237-yil 22-mayda vafot etadi. U birinchi imperator Avgustdan boshlab barcha imperatorlardan ko'ra ko'proq hokimiyat tepasida turadi. Vafotidan biroz oldin u e'tiqodining ramzi sifatida suvda cho'qintiriladi. Bundan keyin u qizil imperatorlik togasini umuman kiymadi va xristian an'analarida qabul qilingan oq kiyimni kiyadi. Uni dafn qilish marosimida 13 yil avval Linitsiyni bosib olinishida ozod qilingan va unga ko'pincha hamrohlik qilgan Nikomediya yepiskopi qatnashadi.

Konstantin o'limidan so'ng undan uchta o'g'il qoldi. Ular o'zaro hokimiyatni bo'lib olishga kelishib olishdi, lekin bunga qanoat qilmasdan bir-biriga dushmanlik qilib, o'ldirish uchun harakat qila boshladilar. Shu tariqa Konstantin butun umr yaxshilashga harakat qilgan Rim imperiyasi yana yemirila boshlaydi. 50-yil o'tib ular imperiyani yana jarlikka yetaklaydilar. 364-yilda Valentinian I yangi sulolaga asos soladi. Uning davrida mamlakat yana g'arbiy va sharqiy imperiyalarga bo'lib idora qilinadi. G'arbda Valentinian I (364-375), sharqda esa Valent (364-378) imperator deb e'lon qilindi. Aka-ukalar oldida qiyin vazifalar turar edi. Avvalgi imperatorlar tomonidan boshlangan islohotlar imperiyani qiyin ahvolga solib qo'ygan edi. Undan tashqari mamlakatda diniy nizolar avj oladi. Imperiyadagi ichki tartibsizliklardan foydalangan Dunayning chap qirg'og'ida yashovchi varvarlar, birinchi navbatda vestgotlar Bolqon provinsiyalariga talonchilik yurishlarini uyushtiradilar. Undan tashqari 365-yilda Prokopiy qo'zg'oloni ko'tariladi. Shu tariqa markaziy hokimiyat kuchsizlanib, chegarada varvarlarning asosiy kuchlari to'plana boshlaydi. IV asrning 60-70-yillarida eng o'tkir muammo gotlar masalasi bo'lib qoladi. Xunnlar va alanlar tomonidan o'z yerlaridan siqib chiqarilgan 200 mingga yaqin

vestgotlar imperiya chegaralaridagi qishloqlarga kelib o'rnashishga ruxsat so'raydilar. Buning evaziga ular Rim qo'shinlarida xizmat qilib berishlari kerak edi. 376-yilda vestgotlar Frakiyaga kelib o'rnashdilar. Biroq yuzaga kelgan oziq-ovqat muammosi, Rim amaldorlarining ochko'zligi vestgotlarni Rim hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarishiga olib keladi. Vaziyat murakkablashganidan tashvishga tushgan Valent g'arbdan hukmdor Gratsianni yordamga chaqiradi. 378-yil 9 avgustda Frakiyadagi Adrianopol shahri yonida vesgotlar Rim qo'shinlariga kuchli zarba berdi. Imperator Valent jang maydonida qattiq yaralanib halok bo'ldi. Jangda qo'mondon bilan birga 35 ta tribun va 13 mingga yaqin askarlar halok bo'ladi. Adrianopoldagi jang rimliklarning o'zga yerliklardan, jumladan, Gannibaldan keyingi eng og'ir mag'lubiyati bo'ladi.

Imperiyaning g'arbiy yarmi taqdiridan tashvishga tushgan imperator Gratsian o'zining qo'shinlarini G'arbga olib chiqib ketadi. Dahshatli gotlar bilan kurashish uchun o'zining eng yaxshi qo'mondonlardan biri Feodosiyni Sharqqa imperator etib tayinlaydi.

Yangi imperator Rim armiyasini mustahkamlash uchun bir qancha chora-tadbirlarni ko'radi. Katta tanlov e'lon qilinib, barcha jangga yaroqli erkaklar askarlikka olinadi. Shu bilan birga Feodosiy gotlar aslzodalarni boshini aylantirib, ularni kelajakda imperiyaning hukmron tabaqasi safiga kiritish kabi va'dalarni berib, o'z tarafiga og'dirishni boshlaydi. Feodosiy shu va yana boshqa va'dalarni berib, ular bilan 382-yil 3-oktyabrda tinchlik shartnomasini imzolashga muvaffaq bo'ladi va gotlar imperiyaning federatlari sifatida tan olinadi. Ya'ni, ular imperiya fuqarolari hisoblanmay, Rimning mustaqil ittifoqchilari sanalgan. Ular avvaliga Meziya va Frakiyaga, so'ngra Illiriya viloyatiga joylashtiriladi.

Shu bilan Konstantinopolni bosib olinishidan saqlab qoldi. Feodosiy 394-yil tarixda so'nggi marta imperiyaning har ikkala qismini ham blr qo'lga to'pladi. U o'limi oldidan 395-yil boshida yangi sulolaga asos solishga qaror qildi. Uning ikki o'g'illari Arkadiy va Gonoriy Sharqiy va G'arbiy Rim imperiyalari

hukmdorlariga aylanadi. O'sha vaqtda Arkadiy 17 yoshda, Gonoriy 10 yoshda bo'lishiga qaramasdan qaror qabul qilindi.

GLOSSARIY

Prinsipat (lot. princeps – birinchi; rahbar) – Qad. Rimda quldorlik monarxiyasi shakli; unda respublika muassasalari saqlanib qoladi, biroq hokimiyat amalda bir kishi – prinseps (senatorlar ro'yxatida birinchi) qo'liga o'tgan. Prinsipat tizimi mil. avv. 27-y. dan mil. 193-y. gacha mavjud bo'lgan.

Dominat – Rim imperiyasining davlat tizimi bo'lib, asosan Diokletian hukmronlik qilgan 284-305-yillarda asos solingan. Mutlaq hukmdor yoki ho'jayin (dominus) degan ma'nolarni anglatgan. Biroq imperiyaning asosiy qonunlarida Diokletiandan keyin ham bir qancha o'zgarishlar bo'lganligi sababli "dominat" atamasiga aniq ta'rif berish qiyin.

Varvarlar – yunon va rimliklar tomonidan ularga nisbatan tushunarsiz tilda so'zlovchi va begona madaniyatga mansub barcha o'zga yurtliklar (germanlar va b.)ga berilgan nom. Antik davrdagi varvarlar tushunchasi xristianlar Vizantiyasi va G'arbiy Yevropada ham o'zlashib ketib, bu yerlarda "xudosiz" degan ma'noni anglatgan. Majoziy ma'noda qo'pol, madaniyatsiz, bag'ritosh kishilar.

Veteran – Rim imperiyasida harbiy xizmatdan bo'shagan katta yoshdagi jangchilar.

Senturiya – Qadimgi Rimda yuzliklardan tashkil topgan harbiy birlashmalar.

Senzor – Rimda mil. avv. 433-yilda tashkil topgan amaldorlik lavozimi senzorlik vazifasi senatorlar ro'yxatini tuzish, aholini ro'yxatga olish, har xil xizmat ishlari va fuqarolik ishlarni nazorat qilishgan iborat bo'lgan. Rim respublikasida sobiq konsullardan 5 yilda bir marta 18 oyga senturiya komitsiyalari tomonidan saylangan. Ular mulklari daromadni to'plash va boj to'plash huquqini sotganlar. Rim fuqarolarining ahloqini nazorat qilganlar.

Panteon – Qadimgi Rimda "Barcha xudolar ibodatxonasi" panteon deb atalgan. Rimdagi gumbazli binolar ko'rinishining ajoyib namunasidir.

15-MAVZU. G'ARBIY RIM IMPERIYASINING QULASHI

Reja:

1. Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy imperiyalarga bo'linishi.

2. Italiyaga turli qabilalarning bostirib kirishi.

3. Rim markaziy hokimiyatining inqirozi.

4. Antik quldorlik jamiyati qulashining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy sabablari va oqibatlari.

5. Quldorlik jamiyatining tarixiy ahamiyati.

6. Qadimgi dunyo sivilizatsiyalari – zamonaviy sivilizatsiyaning poydevori.

Imperator Feodosiy o'limidan oldin farzandlarining vasiysi sifatida o'z qo'mondonlari orasidan sodiq sarkardalardan biri – Flaviy Stilixon bo'lishini e'lon qiladi. U vasiylik lavozimini egallaganidan bir necha yil o'tib qizini Gonoriyga turmushga beradi. Va o'zi keyingi 13-yil davomida yosh imperator Gonoriyning o'rnini egalladi. Stilixonning rasmiy unvoni **magister militum** – Rim armiyasi bosh qo'mondoni edi. Yosh imperator haqiqatda tojni saqlab qolish uchun Stilixonning qattiqqo'lligiga muhtoj bo'lgan. Chunki imperiyada yangi urush avj olgan bo'lib, Alarix boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi.

Alarix boshchiligidagi gotlar dastlab Sharqiy imperiyani avvalgi kelishuv shartlarini o'zgartirishga majbur qilishdi. Arkadiyni muzokaralar stoliga o'tkazish uchun Alarix kuch qo'llashga qaror qiladi. Gotlar Bolgariyadagi tayanch punktdan Bolqon orqali Yunonistonga va undan keyin Adriatika sohillari bo'ylab hujum qilishga otlandilar. 402-yilda u o'z qo'shinlarini g'arbga yo'naltirib, Italiyaga bostirib kiradi.

Stilixon bilan Alarix o'rtasida ikki marta to'qnashuv bo'lib o'tadi. Har ikki to'qnashuvda ham hech bir taraf jiddiy harbiy muvaffaqiyatga erishmaydi. Shu sabab kelishishga harakat qilishadi. Lekin bu kabi harbiy mojarolar Rimning ahvolini yomonlashishiga olib keladi. Shu orada Stilixon yanada og'irroq inqiroz bilan to'qnashadi. Bu imperiyaning shimoliy

chegaralaridan kelgan varvarlarning yangi to'lqini bilan bog'liq edi.

Bu to'lqinga vandallar, alanlar (Qora dengiz bo'yida yashovchi ko'chmanchi qabilalar) va svevlar (german tilida gapiradigan va uzoq vaqt Venger pasttekisligida yashagan qabilalar) kirgan. Ular birgalikda Reyn orqali Germaniya, Galliya va Pireney orqali Ispaniyaga joylashishadi. Ular bostirib kelgan joylariga muqim o'rnashib oladilar.

Stilixon dastlabki vaqtda vestgotlarning Italiyaga qilgan hujumini to'xtatib turdi. U, hatto, Britaniyadagi Rim legionlarini (407-yilda) chaqirib keltirdi, legionlarning bu vaqtda Italiyaning o'zida bo'lishi nihoyat darajada zarur edi. Biroq saroy ahli o'rtasidagi fitna natijasida Stilixon tez orada vazifasidan tushirildi va o'ldirildi. Vestgotlar qiroli Alarix endi qattiq qarshilikka uchramay, 409-yilda Italiya territoriyasiga kirib bordi.

Keyingi yilda Alarix Rimni juda katta talon-taroj qiladi. Shu narsa xarakterliki, Alarix Rimni qullar yordami bilan egallab oladi. Rimda va uning atrofida yashagan 40 mingga yaqin qul Alarix tomoniga o'tdi. Bundan tashqari, Alarixni varvar-germanlardan iborat g'arbiy imperator armiyasining ko'pchilik qismi qo'llab-quvvatladi. Vestgotlar Rimni 410-yilning 24-avgustida bosib oldilar. Rimliklarning poytaxti bir necha kungacha talon-taroj qilindi. Rimdagi quldor zodagonlarning ko'plari o'ldirildi, asir olindi va qul qilib sotildi, rimliklarning bir qismi qo'rquvga tushib, Shimoliy Afrika va Bolqon yarim oroliga qarab qochdilar.

Alarix so'ngra Sitsiliyaga, u yerdan esa Shimoliy Afrikaga yurish qilmoqchi edi. Buning sababi Italiyada oziq-ovqat yo'qligi hamda qishloq xo'jaligi butunlay tushkunlikka uchragani, mahalliy aholining o'z g'allasi o'ziga yetmas edi. Lekin vestgotlarning Afrikaga yurish qilish rejasi amalga oshmadi. Alarix Shimoliy Afrikaga yurish qilmoqchi bo'lgan vaqtda 410-yili bezgak kasalligidan 40 yoshga yetmay vafot etadi.

Uzoq-yillarga cho'zilgan urush va doimiy talon-tarojlik qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarishni keskin kamayib ketishiga, bu esa o'z navbatida daromadlarning pasayishiga olib keldi. Ispaniya va Galliya G'arbiy imperiyadan ajralib ketadi. Britaniyadagi legionlarga ham endilikda umid qilmay qo'yishdi.

Bu kabi o'zgarishlar g'arb armiyasi kuchlarini qayta tiklash uchun daromad manbalarining keskin qisqarishiga olib keldi. Gonoriyning hukmronligi davrida (395-420-yy.) armiya soni ham ikki barobar qisqarib ketdi. Imperator ulkan talofotlarning o'rnini yangi qo'shin bo'linmalarini tuzish orqali to'ldirgan bo'lsa ham, ularning aksariyati yomon o'qitilgan, yordamchi va ikkinchi darajali otryadlar edi.

421-yili Gonoriy tomonidan tayinlangan hamroh hukmdor Konstantsiy to'satdan kasal bo'lib, vafot etadi. Uning o'limidan so'ng shafqatsiz va qonli hokimiyat uchun kurash boshlandi. Oxir-oqibat Konstansiyning 6 yoshli o'g'li Valentinian III nomi bilan imperator deb e'lon qilindi. Hokimiyatning haqiqiy egasi Konstantsiyning izdoshi Flaviy Aetsiya edi. Imperiyada toj-taxt uchun kurashlar davom etayotgan bir paytda vandallar o'z kuchlarini tiklab olib, Tarif orqali Janubiy Ispaniyaga keladilar. Keyinchalik vandallar Shimoliy Afrika aholisining quyi tabaqalari orasida Rim hukumatining va katta quldorlarning e'tibori yo'qligidan foydalanib, bu keng hududni bosib oladilar. Shu tariqa 439-yilda Rim imperiyasi hududida ikkinchi varvar podsholigi vujudga keladi, bu davlatning poytaxti qadimgi Karfagen bo'ldi. Vandallar Rim zodagonlarining juda ko'p yerlarini ham musodara qildilar. Lekin ularning o'zlarida ham zodagonlar tezlik bilan tarkib topmoqda edi. Ushbu zodagonlar bosib olingan yerlar, olingan qullar va boshqa xil o'ljalar hisobiga boyib ketadi. Vandal zodagonlari Italiyaga qilingan bosqinchilik hujumlari natijasida, ayniqsa, boyigan edi.

Vestgot, Vandal va Burgundiya podsholiklarining vujudga kelishi bilan G'arbiy Rim imperiyasining ahvoli nihoyat darajada mushkullashib qoldi. Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi o'sha vaqtdan boshlab haqiqatda birgina Italiyaning o'z hududi bilan cheklanib qoldi.

Bu vaqtda imperiyani imperator Valentinian III (425-455-yillar) nomidan idora qilib turgan Aetsiy varvarlarning birini ikkinchisiga qarshi ishga solib, imperiyani saqlab qolishga zo'r berib harakat qildi. Lekin uning bu urinishlari ham yetarli bo'lmadi. Chunki, Rimni yana bir katta xavf-xatar qamrab oladi.

V asr o'rtalarida imperiya uchun eng xavfli dushmanlardan biri xunnlar bo'ldi. V asrning dastlabki-yillarida xunn qabilalari g'ayratli va shijoatli podsho Attila (435-453-yillar) qo'l ostida birlashdilar. Attilaning poytaxti Tissa qirg'og'i, hozirgi Vengriya hududida joylashgan edi. Shu joydan Attila Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Armaniston va hatto Mesopotamiyaga yurishlar qildi. Attila olib borgan urushlar ochiqdan-ochiq bosqinchilik, talonchilik urushlari edi. Unga Vizantiya (Sharqiy Rim) imperatori katta xiroj to'lab turgan. Dunay yonida yashovchi ko'pgina slavyan qabilalari xunnlarga qaram edilar. 50-yillarning boshida Attila g'arbga yurish qildi va 451-yili Galliyaga bostirib kirib, bu yerda ko'p shaharlarni bosib oldi hamda Galliyaning eng muhim strategik punkti bo'lgan Orlean shahrigacha yetib bordi. Uzoq vaqt qamal qilingandan keyin Orlean xunnlar tomonidan egallab olindi, lekin Aetsiy Attilaga qarshi varvarlar federatsiyasini tuzishga muvaffaq bo'ldi va Attilani Orleandan chiqib ketishga majbur qildi. Attila ko'p sonli lashkarlari bilan birgalikda yanada sharqqa - orqaga burilib (Sans shahri orqali) Trua shahri tomonga qarab yo'l oldi. Aetsiy uning ketidan bordi. 451-yil 15-iyunda Trua shahri yaqinida (bu shaharga keyin Shampan deb nom berildi), Katalaun dalalari deb atalgan joyda "xalqlar jangi" bo'ldi. Rimliklarning federatlari hisoblangan vestgotlar, burgundlar, franklar rimliklar tomonida turib urushdilar; Attila qo'l ostida esa, xunnlarning o'zidan tashqari, ostgotlar va boshqa mayda-mayda sharqiy german qabilalari hamda qisman slavyanlar va janubi-sharqiy Yevropadagi turli sarmat qabilalari bor edi. Attila mag'lubiyatga uchradi.

Rimliklar g'alaba qozondilar, bu g'alaba ularning oxirgi g'alabasi edi. Lekin ular endi bu g'alaba samaralaridan foydalana olmas edilar. Ularning o'z ittifoqchilariga - varvarlarga bo'lgan qaramligi endi har qachongidan ham kuchayib ketgan edi. Vestgot va Burgundiya podsholiklari to'la mustaqillik oldilar. Attilaning o'zi esa kelasi, 452-yilda Italiyaga yurish qildi, lekin Rimni olishdan voz kechdi, qimmatbaho in'omlar va xiroj olish bilan cheklanib qo'ya qoldi. 453-yilda Attila zaharlab o'ldirildi. Uning naridan-beri tuzilgan, ko'p qabilali harbiy davlati tezda quladi. Xunnlarning o'zlari esa mahalliy aholi bilan aralashib ketdi.

Vizantiya manbalarida VII asrdan boshlab ular butunlay esga olinmadi.

Demak, endi xunnlar "davlati" yo'q bo'lib ketganidan keyin Rim imperiyasining ahvoli yaxshilanishi kerak edi. Lekin uning resurslari butunlay tugab qolgan edi. Tashqi xavf kamaygandan keyin ichki qarama-qarshiliklar keskinlashib ketadi.

Attila o'lgandan keyin imperator saroyidagi (saroy Ravennada edi) fitnalar avj olib ketdi, natijada Aetsiyning o'zi halok bo'ldi. Aetsiy Rimning so'nggi davrdagi davlat arboblari ichida eng ko'zga ko'ringan kishi edi. Imperatorning buyrug'i bilan o'ldirilgan Aetsiydan so'ng Valentinian III ning o'zi ham o'ldirildi.

Shundan keyin vandallar (455-y.) hujum qilib, Rimni o'n to'rt kun taladilar, Vandallar Rimning eng nodir qadimgi yodgorliklarini ayovsiz buzib tashladilar. Shu sababli "vandalizm" degan so'z madaniyat yodgorliklarini vahshiyona vayron qilish timsoli bo'lib qoldi.

Bu hujum imperiyani uzil-kesil halok qildi. Italiyani taxtda o'tirgan imperatorlar nomidan yollanma varvar ko'ngilli qismlarining boshliqlari idora qildi. Shu ko'ngilli boshliqlaridan biri Odoakr (kichkinagina bir german qabilasi - skerlarning boshlig'i) 476-yilda Rimning oxirgi imperatori go'dak Romul Avgustulni taxtdan tushirib, imperatorlik nishonlarini Konstantinopolga, sharqiy imperatorga yubordi. Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi rasmiy jihatdan ham tamom bo'ldi.

Uning qolgan-qutgan hududini 10-yildan keyin (486-yilda) frank qiroli Xlodvig bosib oldi.

16-MAVZU. QADIMGI RIMDA ILM-FAN

Reja:

1. **Qadimgi Rim ilm-fani va madaniyatining o'ziga xos jihatlari.**
2. **Qadimgi Rim me'morchiligi va uning rivojlanishi.**
3. **Italiyaning qadimiy dini.**

Qadimgi Rim ilm-fani va madaniyatining o'ziga xos jihatlari. Qadimgi Rim madaniyati turli davrlar hamda turli xil xalqlarning madaniy an'analarini o'zida jamlagan holda murakkab yo'lni bosib o'tdi. U dunyoga harbiy san'at, davlat qurilishi hamda huquq, shahar qurilishi va boshqa narsalarning klassik namunalarini tayyorlab berdi.

Mamlakatda ilm-fan amaliy, siyosiy-huquqiy, savdo, harbiy hamda qurilish faoliyatiga moslangan edi. Birinchi faylasuf, notiq va siyosat nazariyachisi Sitseron yunonlarni mavhum fanlar bilan, jumladan, metematika bilan shug'ullanishga berilganlikda ayblab, mazkur fanlar bilan shug'ullanishni "yerlarni o'lchash hamda pul munosabatlarini hisob-kitob qilish bilangina" cheklash kerak deb hisoblaydi.

O'sha vaqtda ilmiy faoliyat markazlari sifatida ellinistik va yunon shaharlari: Aleksandriya, Pergam, Rodos, Afina, va albatta, Rim hamda Karfagen xizmat qilgan edi. I-II asrlarda Rimda ko'proq geografik bilimlar hamda tarix faniga e'tibor beriladi. Ilmning ushbu sohalariga asosan geograflar Strabon hamda Klavdiy Ptolemey, tarixchilar Tatsit, Tit Liviy, Appian va Plutarx o'z hissalarini qo'shgan.

Rim davlatining rivojlanish uchun olib borgan ishlarini inkor etib bo'lmaydi. Rimliklar nafaqat askar xalq, balki quruvchi hamda bunyodkor – me'mor, muhandis, huquqshunos ham bo'lishgan. G'arbiy Yevropaning o'sha davrlardagi yovvoyi xalqlari oilalariga Rim hokimiyati bilan birgalikda suv quvurlari, yo'l qurilishi, lotin maktablari hamda Rim huquqi ham kirib kelgan.

Imperiya davrida adabiyot o'z cho'qqisiga chiqqan edi. Shoirlar orasida "Enaida" epik dostoni muallifi, Vergiliy (mil. avv.

70-19-yy.) eng ko'p shuhratga erishdi. Shu bilan birga Goratsiy Flakk (mil.avv 65-8-y.), Ovidiy Nazon (mil. avv. 43-y-mil. 18-y.) she'rlari mukammallik darajasiga yetdi. Imperiya davri Rim she'riyatining haqiqiy oltin asri bo'lib qoldi. 16 ta satira yaratgan satirachi Yuniy Yuvenal (taxminan 60-y. - 127-y.), hozirgi kunda ham o'quvchilar e'tiborida bo'lgan o'ziga xos fantastik roman "Metamorfoza, yoki Oltin xo'tik" asari muallifi Apuley (taxminan 124-y. - ?) kabilar o'z san'atlari bilan mashhur bo'lishgan.

Jahon sivilizatsiyasining o'ziga xos rivojlanish fenomeni sifatida Rim huquqshunosligini ham ajratib ko'rsatish mumkin. U mulkchilik huquqi bilan bog'liq mulkiy hamda boshqa xo'jalik munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar, kelishuv shartnoma hamda majburiyatlar va meros huquqlarini o'z ichiga olgan edi. Rim huquqshunoslari xususiy mulk huquqiga hamda "Rim davlati mulkiga" tegishli bo'lgan jamoat mulki huquqlarini ajratib ko'rsatishgan.

Siyosiy hayotning o'ziga xosliklari bilan birgalikda bevosita aloqador holda notiqlik san'ati ham rivojlanib borgan. Notiq bo'lish siyosiy muvaffaqiyatga erishish, jamoat ichida obro'sini mustahkamlash uchun asosiy san'at quroli bo'lgan. Rim notiqligini eng yuqori cho'qqisiga Sitseron erisha olgan. Sitseronning madaniyat borasidagi so'zlari juda qiziqarlidir. Buyuk notiq uchun haqiqiy madaniyat insonning ichki olami hamda mamlakatning umumiy xohishlari o'zaro zid, ammo uzviy bog'liqlikda bo'lgan hayotni yaratishda edi. Oliy maqsad, mamlakat gullab yashnashi uchun fuqarolar va mamlakat o'zaro yelkama-yelka bormog'i lozim edi. Jamiyat manfaatini unutgan kishi hamda fuqarolari manfaatini unutgan hukmdor – rimliklar emas, balki varvarlardir. Varvarlikning aksi madaniyat sanaladi, shuning uchun Rim davlatida eng muhimi bu – madaniyat mamlakatini yaratishdir.

Rim me'morchiligi yunon me'morchiligining kuchli ta'siri ostida shakllangan edi. Rimliklar o'z inshootlarida inson kuchi, qudratini aks ettirishga urinishgan. Inshootlar uchun monumentallik, binolar shohona bo'lishi, ko'plab bezaklar, simmetriyaga qat'iy rioya etish, me'morchilikning utilitar jihatlariga e'tibor qaratish, butxonaga o'xshash majmualar emas, balki amaliy ahamiyatga ega inshootlarni qurish va yaratish xos

bo'lgan. Rimlik me'morlar yangi qurilish tamoyillarini, jumladan, arklar, naqshlar va gumbazlar hamda qator ustunlardan iborat inshootlarni ishlab chiqdilar.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda beton, gumbazsimon inshootlardan keng foydalanilgan. Binolarning yangi turlari paydo bo'la boshlaydi, masalan savdo ishlari va sud ishlari olib boriladigan, sirk binolarida, kutubxonalar mavjud joylarda, turli xil o'yinlar, sayr qiladigan joylar, xiyobonlar atroflarida bazilikalar paydo bo'la boshlaydi. Mahobatli inshootlarning yangi turi – zafarona arklar vujudga keladi. Ark qurilishi texnikasining mukammallashuvi osma quvur, ko'priklar qad ko'tarilishiga zamin yaratdi. Rimliklarga xos, ammo zafarona arklar hamda peshtoqlar imperator g'alabalari sharafiga bunyod etilgan. Yo'llar, ko'priklar, oqova quvurlar, kanalizatsiya hamda istehkomlar qurilishidagi rimliklarning muhandislik mahorati yanada diqqatga sazovordir.

Italiya hududidagi eng qadimiy yodgorliklar paleolit davriga oiddir. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Rim san'ati sodda va qat'iy hayot tarzini aks ettirgan holda omilkorlik ruhiga boyitilgan edi. Qadimgi Rim san'ati shakllanishida etrusklar hamda ko'plab italyan qabila va xalqlarining o'ziga xos san'ati katta rol o'ynagan. Uning rivojiga yunon san'ati ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ammo Rim san'ati turli xil elementlarni o'z ichiga olgan holda o'zining haqiqiy shakllarini saqlab qolgan edi. Rim badiiy adabiyoti asosini qat'iy proza, aniqlik hamda fikrlash tashkil etgan.

Rim imperiyasi yagona davlat tarzida miloddan avvalgi 31-yildan milodning 395-yiliga qadar mavjud bo'lgan. Hattoki hozirgi kunda ham Shotlandiyadan Dunaygacha hamda Reyndan shimoliy Afrikagacha bo'lgan hududlarda Rim imperiyasi yodgorliklari: butxonalar, yo'llar, jamoat inshootlari, mudofaa istehkomlari yaxshi saqlanib qolgan.

Milodning boshlarida Rim saltanati qo'l ostida ulkan hudud, jumladan, O'rtayer dengizi bo'ylaridagi barcha yerlar hamda qadimiy hamda madaniyati rivojlangan ko'plab mamlakatlar joylashgan edi. Rim saltanatining o'ziga hattoki ta'sir ko'rsatib, tahdid solishi mumkin bo'lgan bu barcha turfa xil madaniyatlar bo'ysundirilib, yagona bir tamoyilga birlashtirilgan bo'lishi lozim edi. Ana shunday tamoyil imperiyaning butun hududi bo'ylab

ibodat obyekti bo'lgan hamda xudoga tenglashtirilgan imperator, oliy sohib, hokimiyat bo'lib qoladi.

Biroq hokimiyat yanada oliy qadriyatlar – Rim istilochilari tomonidan egallangan itoatkor xalq hayotiga joriy etilishi lozim bo'lgan qonun va huquqning tarqatuvchisi edi, xolos. Shu bilan birgalikda Rim madaniyati imperiya davrida o'z sterjeniga ega edi, aynan – ma'lum bir yo'nalish bo'lgan tarixiy jarayon g'oyasiga, olamni boshqaruvchi ongli ibtidoning gavdalanishi shaklidagi g'oyaga ega edi.

I asr oxirlari II asr boshlarida yashagan Korneliy Tatsit ajoyib tarixchilardan biri edi. U "Germaniya", "Oratorlar haqida suhbatlar" asarlarini yaratgan. Dastlabki asarlardayoq uning dunyoqarashlari hamda uslubi yaqqol namoyon bo'lgan edi. Tatsit katta achinish bilan britanlarning, ayniqsa, rimliklarga xizmat qilgan va ularga qarshi kurash olib borgan barcha xalqlarni ayab o'tirmaslik taklifi bilan qo'zg'olonchilarga murojaat qilgan Kalgakni, Rim saltanatiga qarshilik ko'rsatgan qabila boshliqlarini tasvirlaydi.

Tatsitning iste'dodi teran ma'noda Antonin davrida, u o'z fikrlarini erkinroq ayta olgan chog'larda keng avj olib ketdi. O'sha paytlari u Neronning taxtdan ag'darilishidan so'ng taxt uchun olib borilgan da'vogarlar o'rtasidagi fuqarolar urushi tarixini va "Annala" nomi bilan mashhur bo'lgan Klavdiy – Yuliylar tarixini yozgan.

Shu bilan birgalikda Tatsitning "Tarix", ayniqsa, "Annala" asari bu – iperator tuzumidan qattiq norozi bo'lishdir. Zolim shohlarning dunyoni boshqarishlaridagi cheksiz hukmronligidan zo'rovonligi hamda shafqatsizliklari, undanda dahshatliroq bo'lgan jamiyatga ta'sir etib borayotgan fahsh illati asarda obyektiv yoritilgan edi.

I-II asrlardagi ulamolar hamda yuqori sinf vakillari orasidagi falsafiy yo'nalishlardan eng keng tarqalgani stoitsizm hamda kinizm edi. O'sha davrning eng mashhur stoiklari (matonatli kishilari) turli xil ijtimoiy tabaqalar vakillari bo'lgan Seneka, Epiktet va Mark Avreliylar bo'lgan. Seneka anchayin xunuk holatlardan foydalangan holda, ulkan boylik orttirgan edi. Epiktet avvaliga qul bo'lgan, so'ngra esa Neronning sevgilisi –

Epafraditning quli bo'lgan. Uning qobiliyatini faylasuf Muzoniy Ruf sezib qolib, u bilan shug'ullana boshlaydi va unga tarixdan saboqlar beradi. Epiktet suhbatlari katta hurmatga loyiq ko'rilgan bo'lib, uning oldiga eng yuqori amaldorlar ham tashrif buyurishgan, ular yozib olinib, senator Arrion tomonidan nashr etilgan edi.

Seneka uchun falsafaning maqsadi – johil odamning zulmlaridan va qiynoqlaridan donishmandning xalos bo'lishidir. Faqatgina falsafa tabiat va uning qonunlari haqida, haqiqiy erkinlik va ulug' ishlar borasida to'g'ri ma'lumot bera oladi. Bilim alohida fanlarni o'rganishga eltmaydi. Ular alohida holatlar haqida ma'lumot beradi yoki umuman befoydadir. Seneka mantiqiy qarashlar bilan band bo'lishni ham afzal ko'rmaydi.

Qadimgi Rim me'morchiligi va uning rivojlanishi. Qadimgi Rim me'morchiligi o'ziga xos san'at tarzida miloddan avvalgi IV-I asrlarda shakllandi. Qadimgi Rim me'morchiligi yodgorliklari hattoki hozirgi kunda xarobalar ko'rinishida ham o'z ulug'vorligi bilan odamlarni hayratga solib keladi. Butun bir qadimgi olamda Rim arxitekturasi muhandislik san'atining yuqoriligi, inshootlarning xilma-xilligi, kompozitsion shakllarning nihoyatda boy ekanligi, qurilish ko'lamining kengligi bo'yicha tengi yo'q edi. Rimliklar injenerlik (muhandislik) inshootlarini (ko'tarma tarnovlar, ko'priklar, bandargohlar, qal'alar, kanallar) me'moriy obyektlar tarzida shahar, qishloq ansambli va manzaralarga kiritib, yangi qurilish materiallari hamda konstruksiyalarni keng qo'llaganlar.

Qadimgi Rimdagi turli tuman inshootlar hamda keng ko'lamli qurilish ishlari Yunoniston bilan taqqoslaganda juda katta miqdorda bahaybat binolar qad ko'targanligi bilan farq qilgan. Bularning barchasi qurilishning texnik asosini o'zgartirishni talab qilar edi. Eski texnikalar bilan murakkab bo'lgan vazifalarni bajarishning imkoni bo'lmay qoladi: Rimda prinsipial jihatdan yangi konstruksiya – katta va ulkan oraliqlarni to'ldiruvchi g'isht-beton konstruksiya paydo bo'lib, qurilish ishlarini ko'p marotaba tezlashtirish imkonini bergan.

Taxminan miloddan oldingi IV asrda bog'lovchi material sifatida qorishmadan (avvaliga harsangtoshlarni terishda)

foydalana boshlaydilar, miloddan avvalgi II asrda kichik g'ishtlarni qorishma (aralashma) bilan ko'tarishning yangi texnologiyasi o'ylab topildi. "Rim betoni" deb nomlangan toshni (g'ishtni) maydo toshli qum bilan aralashtirish yo'li bilan sun'iy monolit o'ylab topilgan edi. Vulqon qumi – putssolani gidravlik yo'l bilan olish orqali uni suv o'tkazmaydigan va juda mustahkam holatga keltirib oldilar. Bu qurilishda katta to'ntarishga olib keladi. Bunday devor ko'tarish tez amalga oshirilar hamda turli xil shakllarni tajribadan o'tkazish imkonini berar edi. Rimliklar pishirilgan tuproqning (pishiq g'ishtning) barcha ustunliklarini bilar edilar va turli xil g'ishtlarni tayyorlagan holda binolarni yong'indan himoyalash maqsadida yog'och xodalar o'rniga metallardan foydalanishgan, shuningdek, fundamentni quyishda toshlardan (g'ishtlardan) oqilona foydalanishgan. Rim quruvchilarining ba'zi bir sirlarini hanuzgacha topa olishgani yo'q, masalan, "Rim betoni" kimyogarlar uchun hozirgi kunda ham topishmoq bo'lib qolmoqda.

Rim va boshqa shaharlarning maydonlari harbiy g'alabalar sharafiga g'olibona arklar, imperatorlar hamda mamlakat uchun buyuk insonlar bo'lgan kishilarning haykallari bilan bezatilgan edi. Zafarona arklar hamda peshtoqlar eng avvalo siyosiy ahamiyatga ega edi. Masalan, Trayanning 30 metrlik ustuni shular jumlasidandir.

Antik olamning o'lchamlari jihatdan eng katta inshooti Panteon bo'lib, (yunonchadan. Pentheion – barcha xudolarga bag'ishlangan joy ma'nosini anglatadi) barcha xudolar hurmatiga barpo etilgan imperiyaning hamma xalqlari birdamligi ramzidir. Panteonning asosiy qismi tuynugi orqali yorug'lik ibodatxonaning ichiga tushgan holda o'zining kengligi va bezaklari bilan barchani lol qoldiruvchi 43,4 m diametrga ega gumbazli yunon doirasimon ibodatxonasidan iborat bo'lgan.

Hashamatli binolar mingga yaqin va undan ham ko'proq kishilarni o'z ichiga sig'dira olgan. Xonalar katta miqdordagi suvni iste'mol qilar edi, shuning uchun unga suv quvurlarning maxsus yo'laklari, tarmoqlari, ya'ni ko'tarma tarnovlar keltirilgan edi. Suvni isitish yer osti xonalarida qizdirilgan. Maxsus ko'tarma tarnovlar Rimga bir necha o'nlab kilometrdan suv yetkazib berar

edi. Daryo o'zani orqali yotqizilgan quvurlar ajoyib yupqa panjarasimon arklardan iborat bo'lib, ikki qavat, bir qavat, va hattoki, ba'zan uch qavatdan iborat bo'lgan. Tosh va g'ishtlarlan barpo etilgan ajoyib inshootlar me'morchilik shakllar va konstruksiyalarining yuksak uyg'unlashuvi namunalaridir.

Qadimgi Rim jamoat inshootlari orasida tomoshabinlar uchun qurilgan binolar katta bir guruhni tashkil etadi. Ular orasida eng mashhuri Kolizey amfiteatri hisoblanadi. Markazda katta sahna joylashgan bo'lib, quvurlar ostida esa turli tadbir va chiqishlarni amalga oshirish uchun xonalar va inshootlar joylashgan. Kolizey milodning 70-90-yillarida qurilgan bo'lib, o'z ichiga 56 ming tomoshabinni sig'dira olgan.

Me'morchilikning rivojlanishi Rim tarixi, jamoat munosabatlarining murakkablashuvi, shaharlarning o'sib borishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yunon hamda etrusklar ta'siri ostida rivojlana borgan. Ilk shahar rejasiz va tartibsiz qurilgan bo'lib, tor va egri ko'chalar, yog'ochdan hamda g'ishtlardan barpo etilgan oddiy uylarga ega bo'lgan. Yirik jamoat inshootlari faqat ibodatxonalar bo'lib, masalan Kapitoliydagi mil. avv. VI asrda bunyod etilgan Yupiter ibodatxonasi hamda forumdagi uncha katta bo'lmagan Vesta ibodatxonalari edi. Shahar ichkarisida bo'sh xonalar va qurilishi bitmagan joylar bo'lib, boy va zodagonlar uylari atrofini bog'lar o'rab turgan. Suv o'tkazish uchun mo'ljallangan chuqurlar avvaliga ochiq holda bo'lgan ammo keyinchalik ularni yog'och taxtalar bilan ustini berkitib, keyinroq esa tosh va g'ishtlardan iborat majmualar bilan yopishgan. Tashqi devorlar kattagina to'rtburchak bloklardan terilgan. Rim aholisining o'sib borishi xarobazorlarni bunyod qilish, qurilishi bitmagan inshootlarni yakuniga yetkazishga olib kelgan. Ayrim ko'chalar yirik toshlar bilan qoplangan edi.

Kanalizatsiyalarning eskicha tizimi qayta rekonstruksiya qilingan holda ko'payib borayotgan aholiga toza suvni ta'minlab bergan, buning uchun yer ostidan uzunligi bir necha o'n kilometr bo'lgan ikkita suv quvuri barpo etilgan edi. Shaharning markazi – Rim forumi obodonlashtirilib, kengayib borgan, uning atrofida yangi jamoat binolari va ibodatxonalar bunyod etilib, peshayvonlari plitadan barpo etilgan edi.

Rim me'morlari yangicha konstruktiv prinsiplarni ishlab chiqishgan, jumladan, akrlar, gumbazlar va ayvonlardan keng foydalanib, ustunlar bilan birgalikda bir tomondan chiqib turuvchi kolonnalar va ustunlardan ham keng foydalanishgan. Binoning qat'iy o'lchamlariga (simmetriyasiga) rioya etishga harakat qilmasdan bino va inshootlarning rejalarini tuzib chiqqan yunon me'morlaridan farqli o'laroq rimliklar qat'iy shakl va o'lchamlarga amal qilishga urinishgan. Ular doriy, ionik hamda korinf usullaridan keng foydalanishgan.

Kolizey. Flaviylar amfiteatri yoki Kolizey – qadimgi Rim amfiteatrlaridan eng kattasi sanaladi. U Rimda, Ekvilliya, Palatin hamda Seliev tepaliklari orasidagi soylikda joylashgan edi. Amfiteatrning qurilishi imperator Vespasian tomonidan Iudiyadagi g'alabasidan so'ng boshlanib, qurilish ishlari 80-yil davom etib, kenja o'g'li – imperator Tit tomonidan yakuniga yetkazildi. Kolizeyning ochilishi o'yinlar bilan omma e'tiboriga tanishtirilgan edi.

Dastlab amfiteatr imperator Flaviylar nomi bilan atalib (lot. Amphitheatrum Flavium), keyinchalik VIII asrdan boshlab Kolizey nomi bilan mashhur bo'lgan (lot. Colosseum, Colosaeus, ital. Coliseo).

Uzoq vaqt Kolizey Rim aholisi uchun gladiatorlar jangi, hayvonlarni ovlash, dengiz janglari, xristianlarga jazo berish kabi ko'ngil ochar tomoshalarni ko'rsatish joyi bo'lib kelgan. Imperator Makrin davrida u yong'indan katta talofat ko'radi, ammo keyinchalik qayta ta'mirlangan edi. 248-yili imperator Filipp u yerda Rimning ming yillik tarixini bayram qiladi. Gonoriy 405-yilda gladiatorlar janglarini bu yerda o'tkazishni taqiqlab qo'ydi. Boshqa Rim amfiteatrlari singari Flaviylar amfiteatri ellips shaklida bo'lib, uning o'rtasida arena joylashgan va tomoshabinlar uchun o'rindiqlar halqalar bilan o'rab olingan. Shunga o'xshash inshootlarning barchasidan Kolizey o'zining ulug'vorligi bilan ajralib turadi.

Qadimiy tangalarda saqlanib qolgan Kolizey tasvirlari o'rta va yuqori qavatlardagi arklar tutashgan joylarda haykallar turganidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda Kolizey Rim ramzi va eng ommabop sayyohlik markazlaridan biriga aylandi. XXI asrda Kolizey dunyoning yetti mo'jizalaridan biriga asosiy da'vogarlardan edi, ammo 2007-yilning 7-iyulida e'lon qilingan yakuniy ro'yxatga kira olmadi.

Panteon. Qadimgi Rimda Kolizey bilan bir qatorda turishi mumkin bo'lgan inshoot bu Mars maydonida joylashgan Panteondir. Rimliklar ko'plab yevropalik xalqlarni o'ziga bo'ysundirgan bo'lsalar-da, o'zgalar xudolari bilan hisoblashish kerakligiga ishonch hosil qilishgan edilar. Shu maqsadda barcha xudolar ma'budi – Panteonni barpo etishga bel bog'ladilar.

Panteonning ilk binosi miloddan avvalgi 27-yilda Avgustning izdoshi bo'lgan Mark Agrippa tomonidan bunyod etilgan edi. Bino ikki bora yonib ketgan. Inshootning yakuniy shakli imperator Andrian davrida o'z qiyofasini oladi. Qurilish ishlarini Apollodor Damasskiy boshqarib borgan. Panteon aylana inshoot ko'rinishida (rotonda) yaratilib, usti ulkan gumbazlar bilan berkitilgan edi. Ibodatxona gumbazi diametri 43,5 m bo'lib, balandligi 42,7 m ga teng bo'lgan.

200 yil mobaynida Panteon dunyodagi eng katta gumbazlardan biri bo'lib qoladi. Anchayin murakkab bo'lgan konstruksiyani (inshootni) barpo etish uchun rimliklar faqat aniq hisob-kitoblar hamda betondan oqilona foydalanish orqali erishgan edi.

Panteonga kirish qismidagi ustunlar balandligi 13 metr bo'lib, ularning birinchi qatori ortida ikkinchi qavat joylashgan bo'lib, uchta o'tish yo'lini hosil qilib, qizil granitdan tayyorlangan. Adrian Agrippaga Panteonni yaratganlik unvonini bergan, shuning uchun bino arxitraviga "Mark Agrippa, Lutsiy o'g'li, uchinchi konsulxonani yaratdi" degan so'zlarni o'yib yozishni buyurgan. Ibodatxona ichkarisida og'ir bronza eshik o'rnatilgan bo'lib, eshik ostonasi esa yashil Afrika marmarlaridan bunyod etilgan edi.

Panteon devorlari rangli marmarlar bilan bezatilgan. Ichki perimetrlar bo'ylab ilohlar haykallari joylashgan sakkiz yarim doira hamda to'g'ri burchakli tokchalar qurilgan. Gumbazsimon shiftning ichki qismi va tom qismi tilla suvi yuritilgan bronza plastinkalar bilan qoplangan edi. Panteonning ichki zali qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi.

Panteon uzoq muddat ko'plab me'morlar uchun yuksak loyihalardan biri bo'lib qoladi. Ko'p marotaba mashhur me'morlar o'lchami va mahobatiga ko'ra Panteondan o'zib ketuvchi imoratlarni loyihalashtirish va qurishga urinishgan. Biroq u haqiqiy shedevr bo'lgan holda takrorlanmas bo'lib qolaverdi. Panteon hozirgi kunda ham Rim markazida turibdi. Bu O'rta asrlardan buyon qayta restavratsiya qilinmagan, qadimiy Rim me'morchiligining yagona yodgorligi bo'lib qoldi. Panteonga taqlid qilgan holda ko'plab xristian ibodatxonalari bunyod etilgan. Ulardan eng mashhuri – Parij ibodatxonasidir.

Qadimgi rimliklarning hamda unga tobe bo'lgan barcha xalqlarning tili bo'lgan lotin tili roman tillarining asosiga aylandi, shuningdek, katolik cherkovi va fan tiliga aylandi. Lotin alifbosi G'arbiy Yevropa mamlakatlari tomonidan o'zlashtirilib, yunon tili esa slavyan tillarining asosiga aylandi. Rim qurilish texnikasi va arxitekturasi G'arbiy Yevropa me'morchiligiga, ayniqsa, Ispaniya, Fransiya, Italiya me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Italiyaning qadimiy dini. Etrusklar ham yunonlar singari ma'jusiylar bo'lib, unda asosiy rolni o'lim ilohlari va narigi dunyo ilohlari bajarishgan. Etrusklar dinida Kichik Osiyo diniga (madaniyatiga) ta'sir qilish ko'zga tashlanganligi alohida diqqatga sazovordir.

Asosiy ilohlar sifatida Tinni, so'ngra esa Rim xudolari bilan qo'shilib ketgan Yupiterni, barcha tiriklik hukmdori bo'lgan iloh – Turanni qadrlashar edi. Oxir-oqibat Turan Afrodita-Venera bilan almashtirilgan. Afina-Minevraga o'xshash iloh dono Menrva hunarmandlar ilohi hisoblangan.

Etrusklar yana keyinchalik rimliklar Yunonasi bilan qo'shilib ketgan iloh Uniga ham itoat qilishgan. Osmon ilohi Tinning mulozimiga o'n ikki iloh nomini tuzib berishgan, ularning orasida Setlans – rimliklar Vulkani, Maris – rimliklarning Marsi, Satre – Rim Saturni ham bor edi. Yana boshqa ilohlar ham mavjud bo'lgan bo'lib, ularni avvaliga aybdorlardan asrash uchun, so'ngra esa ularni jazolash uchun chaqmoq chiqargan momaqaldiroq sochuvchi Tin boshqargan.

Etrusklar uchun bu olam ustki qismi – osmon, o'rta qismi – yer, insonlar olami, pastki qismi esa – o'liklarning yer osti

saltanati bo'lgan ibodatxona ko'rinishidagi dunyo shaklida edi. Ular osmon xalqlarining taqdirini belgilab berishiga ishonishgan. Etrusklarda ilohlar irodasini bilgan holda baxtsizliklardan qutulib qolish imkoniyatini insonlarga yaratib beradigan fol ochishlarning murakkab tizimi ishlab chiqilgan edi. Rimda o'zlashtirilgan fol ochish qoidalari u yerlarda "etrusk fani" deb atalgan.

GLOSSARIY

Varvarlar – rimliklar madaniy taraqqiyotning ancha quyi pog'onasida turuvchi xalqlarni shunday nomlashgan.

Stotsizm – (yunoncha stoa - peshayvon, yunon falsafiy maktabi tarafdorlari yig'ilish o'tkazadigan joy) yunon falsafasidagi oqimlardan biri sanaladi.

Amfiteatr – (yunoncha amphitheatron - ikki tomonlama tomosha) Qadimgi yunon va Rimda ommaviy tomoshalar, teatr spektakllari ko'rsatiladigan mahobatli bino.

Panteon – yunonchadan Pentheion - barcha xudolarga bag'ishlangan joy ma'nosini anglatadi. Bu katta inshoot barcha xudolar hurmatiga barpo etilgan imperiyaning hamma xalqlari birdamligi ramzi hisoblangan.

Etrusklar – (lotincha Tiva, o'zlarini "rasna" deb atashadi) Miloddan avvalgi 1-ming yillikda Apennin yarim orolining shimoli-g'arbida, qadimda Etruriya deb atalgan viloyatda yashagan qadimiy qabilalar. Etrusklar – Rim madaniyatidan avvalgi yuksak madaniyat ijodkorlari bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I. E. S. Edwards The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.
2. I. E. S. Edwards The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.
3. I. Shaw The Oxford History of Ancient Egypt. Oxford. 2003.
4. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka. " World history: patterns of interaction". Oxford University Press. England, 1994.
5. SUSAN WISE BAUER. The History of the ANCIENT WORLD. WW Norton, 2007.
6. Fernand Braudel. A history of civilizations. Allen Lane the Penguin Press. 2007.
7. A brief history of ancient Greece : politics, society, and culture / by Sarah B. Pomeroy. New York • Oxford. Oxford university press, 2004
8. Simon Baker. Ancient Rome. The rise and fall of an empire. BBC Books; Reprint edition. 2007.
9. Victor Parker. A History of Greece, 1300 to 30 bc. WILEY Blackwell. 2014.
10. Boardman, John; Griffin, Jasper; Murray, Oswyn. The Oxford History of Greece & the Hellenistic World. Oxford and New York: Oxford University Press, 1991. ISBN 978-0-19-285247-2.
11. Burn, Andrew Robert. The Penguin History of Greece. Harmondsworth: Penguin Books, 1990. ISBN 978-0-14-013751-4.
12. Cartledge, Paul. The Cambridge Illustrated History of Ancient Greece. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. ISBN 978-0-52-152100-0.
13. Grant, Michael. A Social History of Greece and Rome. New York: Scribner (Maxwell Macmillan International), 1992. ISBN 978-0-68-419309-0.
14. Runnels, Curtis Neil; Murray, Priscilla. Greece before History: An Archaeological Companion and Guide. Stanford, CA: Stanford University Press, 2001. ISBN 978-0-8047-4050-0.
15. Pomeroy, Sarah B.; Burstein, Stanley M.; Donlan, Walter; Roberts, Jennifer Tolbert. A Brief History of Ancient Greece: Politics, Society and Culture. New York and Oxford: Oxford University Press, 2009. ISBN 978-0-19-537235-9.
16. Woodhouse, Christopher Montague. Modern Greece: A Short History. London and Boston: Faber and Faber, 1991. ISBN 978-0-57-116122-5.

17. Антология источников по истории, культуре и религии Древней Греции. – СПб., 2000.

18. Бузескул В. П. Введение в историю Греции. Обзор источников и очерк разработки греческих историков XIX–начала XX в. / В. П. Бузескул. – СПб: Коло ИД, 2005

19. Бикерман Э. Хронология Древнего мира : Ближний Восток и античност / Э. Биккерман; пер. с англ. И. М. Стеблин-Каменского; отв. ред. М. А. Дандамаев. – М: Наука, 1975.

20. Бузескул В. П. Введение в историю Греции. Обзор источников и очерк разработки греческих историков XIX–начала XX в. / В. П. Бузескул. – СПб.: Коло ИД, 2005

21. Вигасин А. А. История древнего востока. – Москва., 2006.

22. Древние цивилизации. Древний Рим. Вестник древней истории. 1937–1997. М., 1997.

23. Дройзен И. История эллинизма. В 3-х т. – СПб., 1995.

24. История Древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. М. , 2005.

25. История Древней Рима. Под. ред. В. И. Кузищина. М., 2005.

26. Источниковедение истории Древнего Востока. – М., 1984.

27. История Древнего Мира под ред. Дяконова И. М. – М., 1982.

28. История Древнего Мира (3 книги). – М., 1982-1988.

29. История Древнего Мира. Курс лекции I, II, III Том. – М., 1983-1989.

30. История и култура Древней Греции: энциклопедический словар / И.Е. Суриков, В.С. Ленская, Е.И. Соломатина, Л.И. Таруашвили. - Москва : Языки славянской культуры, 2009. - 793 с.

31. История государства и права Древней Греции, эллинистических государств и Древнего Рима / В.П. Филинов, А.А. Гусев, В.Ю. Викторов, П.А. Матвеев ; под общ. ред. Н.В. Филиновой. - 3-е изд. - Москва ; Берлин : Директ-Медиа, 2015. - 374 с.

32. Историография античной истории : учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специалности «история» / под ред. В. И. Кузищина. – М: Высшая школа, 1980.

33. Макгафи Д., Джилман А. Империя Александра Великого. – М., 2013. – 288 с.

34. Кащеев В. И. Из истории межгосударственных отношений в эпоху эллинизма. – М., 1997.

35. Кнабе Г. С. Материалы к лекциям по общей теории культуры и культуре античного мира. М., 1994.

36. Культура Древнего Рима / Под ред. Е. С. Голубцовой. М., 1985. Т. 1–2.

37. Кузищин В. И. и др. История Древнего Мира. Метод. ук. – М., 1984.

38. Карпюк С. Г. Лекции по истории Древней Греции / С. Г. Карпюк. – М.: Ладомир, 1997.

39. Моммзен Т. История Рима. СПб., 1995, 1997. Т. 1–3, 5 (сер. «Историческая библиотека»); Ростов-на-Дону, 1998. Т. 1–4.

40. Пети П., Ларонд А. Эллинистические цивилизации. - М., 2004. - 160 с.

41. Постернак, А. В. История Древней Греции и Древнего Рима: учебное пособие: / А. В. Постернак. – Москва : Директ-Медиа, 2008. – 421 с.

42. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2009.

43. Ртвеладзе Э. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане: Историко-географические очерки. – Ташкент, 2002. – 184 с.

44. Суриков И. Е. Древняя Греция: история и культура. М., 2005

45. Словар античности / пер. с нем. В. И. Горбушина [и др.]; редкол. – М., 2006.

46. Суриков И. Е. Архаическая и классическая Греция: проблемы истории и источниковедения: учебное пособие / И. Е. Суриков. – М: КДУ, 2007.

47. Трухина Н. Н. , Смышляев А. Л. Хрестоматия по истории Древней Греции для средней школы. – М., 2000.

48. Хефлинг Г. Римляне, рабы, гладиаторы. М., 1992.

49. Хрестоматия по истории Древнего мира: Эллинизм. Рим / Под ред. В. Г. Боруховича и др. – М., 1998.

50. Хрестоматия по истории Древней Греции. Под. Ред. Д. П. Каллистова. - М., 1964.

51. Хрестоматия по истории Древнего Рима. Под. Ред. С. Л. Утченко. – М., 1962.

52. Штаерман Е. М. Социалные основы религии Древнего Рима. М., 1987.

53. Эллинистический мир: Государства и правители. - М., 2013. - 376 с.

RASMLAR HAVOLALARI

1-rasm. Gerodot // https://civilka.ru/grecia/gerodot.html

2-rasm. Kritdan topilgan qadimiy artefaktlar // https://commons.wikimedia.org/wiki/File:Imitations_of_ancient_artefacts_from_Crete.jpg

3-rasm. Knoss saroyidagi devoriy surat // https://tocrete.com/heraklion/sights/knossos-palace

4-rasm. Agamemnon niqobi // https://commons.wikimedia.org/wiki/File%3AMaskOfAgamemnon.jpg

5-rasm. Yunon gopliti // https://ru.pinterest.com/pin/568157309226012917/

6-rasm. Qadimgi Afinadagi Drakon qonunlari // https://en.wikipedia.org/wiki/Draconian_constitution#/media/File:Republicaiton_of_Draco_Law_on_homicide_-_408-409_BC.jpg

7-rasm. Afina triyera kemalari // https://www.enworld.org/media/400s-greece-athens-trieres-l-triremis-e-trireme-ship-png.86381/

8-rasm. Parfenon ibodatxonasi. Afina // https://www.miroworld.ru/hram-parfenon-svyatilishhe-bogini-afiny/

9-rasm. Aleksandr Makedonski impeiyasi hududi // https://pikabu.ru/story/imperiya_aleksandra_makedonskogo_v_period_nai_vyisshey_territorialnoy_yekspansii_323_g_do_nye_6620162

10-rasm. Qadimgi yunon amforasi // https://ru.pinterest.com/pin/54817320446125060/

11-rasm. Rim Tepaliklar // https://www.pinterest.com/pin/957507570753812998/

12-rasm. Italiklar // https://i.pinimg.com/originals/23/3e/b6/233eb6fc3beaa047147d8974bada3699.png

13-rasm. Etrusklar // https://i.pinimg.com/736x/48/ca/45/48ca452db872b1e0980d95ccd97a2c44.jpg

14-rasm. Rim legionerining qurol-aslahalari // https://obuchonok.ru/node/703

15-rasm. Akveduk // https://cs10.pikabu.ru/post_img/2019/02/04/9/1549292024184527671.jpg

16-rasm. Sezar // https://cdn.fishki.net/upload/post/2016/10/04/2093837/tn/a3d4b6d82d53145b00262e05d6c99814.jpg

17-rasm. Gay Kaligula // https://i.pinimg.com/originals/14/49/c5/1449c5060ad7720a7cef8ed8ae264441.jpg

18-rasm. Neron // https://www.topnews.ru/wp-content/uploads/2020/08/41.jpg

19-rasm. Diokletian // https://s9.travelask.ru/uploads/post/000/016/016/main_image/full-4bb12621402f36724a1b925432677f69.jpg